

44.263

11.91

N.A. MUSLIMOV,

Sh.S. SHARIPOV, O.A. QO'YSINOV

MEHNAT TA'LIMI
O'QITISH METODIKASI,
KASB TANLASHGA
YO'LLASH


74.263
M. 91

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

N.A. Muslimov, Sh.S. Sharipov,
O.A. Qo'yсинов

**MEHNAT TA'LIMI O'QITISH METODIKASI,
KASB TANLASHGA YO'LLASH**

*Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan
5112100 – «Mehnat ta'lifi» bakalavriat ta'lif yo'nalishi
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*



O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti
Toshkent – 2014

UO'K: 372.864(075)

KBK: 74.263

M 91

Muslimov N.A.

M 91 Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash: darslik / N.A. Muslimov, Sh.S. Sharipov, O.A. Qo'ysinov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014. — 456 b.

UO'K: 372.864(075)

KBK: 74.263

Taqrizchilar:

P.T. Magzumov — pedagogika fanlari doktori, professor,

A.E. Parmonov — pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,

Z. Shamsiyeva — Respublika ta'lim markazi metodisti

Mazkur darslikda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5–9-sinf o'quvchilarini «Mehnat ta'limi» fanidan metallga, yog'ochga va gazlamaga ishlov berish texnologiyalari, pazandachilik va qishloq xo'jaligi asoslari yo'nalishlari bo'yicha o'qitish uchun pedagogika, psixologiya va maxsus fanlardan olgan bilimlarini mujassamlashtirish bilan birga tanlagan ixtisosliklari bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish va amalga oshirish yo'llari bayon qilingan.

Darslik asosan mehnat ta'limi yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, shuningdek, undan professor-o'qituvchilar va ilmiy izlanuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9943-391-76-5

© O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida ta'lif sohasida bo'layotgan o'zgarishlar davlatimizning istiqbolini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida jahon ommasi tomonidan e'tirof etilmoqda. O'z navbatida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qimmati unda har bir shaxsni jamiyat ehtiyojiga javob beruvchi kasb egasi qilib tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratilganligi bilan belgilanadi. Ushbu asosda o'quvchilarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash ishlaring samarali yo'lga qo'yilishi ta'lif islohotlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omil vazifasini o'taydi.

Ta'lif islohotlarining hozirgi bosqichida erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu boradagi milliy ta'lif modelining asosiy g'oyasi va mazmuni «Ta'lif to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z ifodasini topgan.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lif muassasalari oldiga qo'yilgan o'quvchilarni xalq xo'jaligining turli sohalarida samarali mehnat qilishga, kasb-hunarlarlarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash bo'yicha ijtimoiy buyurtmasini bajarishda mehnat ta'lifi o'qituvchisining roli beqiyosdir. Davlat ahamiyatiga molik ushbu vazifani bajarish uchun mehnat ta'lifi o'qituvchisidan umum-mehnat bilim, ko'nikma va malakalarini, kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishni hamda dinamik ravishda rivojlanib borayotgan pedagogik jarayon talablari darajasida pedagogika, psixologiya, metodika fanlari yutuqlari, zamonaviy texnika va ilg'or texnologiyalar, ishlab chiqarish va bozor iqtisodiyoti munosabatlari bo'yicha mukammal bilim hamda ko'nikmalarni egallashni taqazo etadi. Shu munosabat bilan, mehnat ta'lifi o'qituvchisining bilim, ko'nikma hamda malakalari ko'lamni va sifati, uning ta'lif-tarbiya jarayonini umumiy o'rta ta'lif DTS talablari asosida tashkil etish va o'tkazish bo'yicha erishgan yutuqlari va yo'l qo'ygan kamchiliklari, kasbiy mahorati va shu kabi mehnat faoliyatiga oid murakkab va ko'p qirrali faoliyatini takomillashtirish jarayonining didaktik shart-sharoitlarini aniqlash, nazorat maqsadiga muvofiq ravishda uning shakl, tur, usul va vositalarini optimal tanlash asosida nazorat o'tkazish metodikasini ishlab chiqish, uning mazmunini boyitish, bu sohada mam-lakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan tashkiliy ishlarning

tahlili bu borada amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarni ilmiy-uslubiy asosda tashkil etilishini talab qilmoqda.

Mazkur darslik ta'lrimiz tizimi to'g'risida bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilariga mehnat ta'limi jarayoni bo'yicha tushuncha berish orqali yosh avlodni tarbiyalash, shaxsni kamol toptirish, e'tiqod va maslaklarini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy yuksaltirish jarayoniga olib kiradi.

«Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash» bo'yicha darslik fanning dasturiga muvofiq, pedagogika oliy ta'lim muassasalarining mehnat ta'limi yo'nalishi talabalariga mo'ljallab yozilgan.

Darslikda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5—9-sinf o'quvchilari uchun mehnat ta'limining maqsadi va vazifalari, Davlat ta'limi standartlari mazmuni va tamoyillarining uzlusiz holati yoritilgan. Umumiy ta'lim maktablarida asos qilib tanlangan «Texnologiya va dizayn», «Servis xizmati» va «Qishloq xo'jaligi asoslari» yo'nalishlari ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtirilgan holatda o'z aksini topgan.

Darslikda mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash fanining maqsad va vazifalari, tarixiy taraqqiyoti metodologik asoslari hamda ilmiy-tadqiqot metodlari kabi masalalar dastlabki boblarda yoritilgan. Shuningdek, darslikning asosiy mazmunini fanning didaktik asoslari, fanni o'qitish metodikasi, rejallashtiruvchi hujjatlar, o'qituvchining darsga hamda o'quv yiliga tayyorgarlik masalalari va kurs ishi hamda bitiruv ishlarini bajarish metodikasi kabi masalalar tashkil etadi. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish masalalari alohida mavzular ko'rinishida berilgan.

I bob. MEHNAT TA'LIMI O'QITISH METODIKASI, KASB TANLASHGA YO'LLASH FANINING MOHIYATI, VAZIFASI VA METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash fani va uning vazifasi

Reja:

1. «Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash» fanining maqsad va vazifalari.
2. «Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi.
3. «Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash» o'quv fanini o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari.
4. Buyuk mutafakkirlarning mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash va tarbiyaga oid fikrlari.

Tayanch iboralar: mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash, bilim, ko'nikma, malaka, mehnat qurollari, texnik vosita, didaktik material, elektron va tarqatma materiallar.

1. «Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash» fanining maqsad va vazifalari. O'quvchilarni mehnat va kasb olamiga olib kirishning har xil yo'llari orasida «Mehnat ta'limi» fani muhim o'rinni tutadi. Uning metodikasini takomillashtirish orqali fan uchun moddiy jihozni mustahkamlash, mакtabni o'z atrofidagi sanoat va qishloq xo'jaligi sohasi bilan aloqasini mustahkamlash, ijtimoiy foydali, unumli mehnatni tashkil etish, uning tarbiyaviy iqtisodiy samaradorligini oshirish, uni ta'lim bilan qo'shib olib borish, o'quvchilarni mehnatga tayyorlashni yaxshilash bo'yicha ishlar yo'lga qo'yiladi.

Mehnat darsi maktabdag'i boshqa fanlar uchun umumiylididaktik tamoyillarni qo'llasada, uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O'quvchilar bilish faoliyati bilangina emas, balki yaratish faoliyati bilan ham shug'ullanadilar. Mehnat fanlari, qurollari, jarayonlari oddiy o'rganish obyekti sifatida emas, balki

o'quvchilar ishlarini faollashtiruvchi ko'rsatmalilik vositasi, diktik material, ta'limgan texnik vositasi sifatida xizmat qiladi.

Fanni o'qitishdan maqsad — o'quvchilarni har tomonlama barkamol rivojlangan, hozirgi zamон ruhida tarbiyalangan, bozor iqtisodiyoti davrida ta'limgan tarbiya ishini tashkil etish va uni amalga oshirishga oid dolzarb muammolarni ijobjiy hal eta oladigan, milliy istiqlol g'oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni chuqur his etib, ularni ta'limgan tarbiya mazmuniga singdira oladigan shaxs — mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash o'qituvchisi sifatida shakllantirishdir. Mazkur kursning maqsadi talabalarga umumiyligi o'rta ta'lim maktabalarining 5–9-sinflari uchun mehnat ta'limi o'qituvchisi bo'lib yetishishlarida tegishli metodik tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlashga xizmat qilishdir.

Fanning vazifasiga quyidagi larni kiritish mumkin:

- o'quvchilarda pedagogik-psixologik bilimlarni umum-mehnat, kasb tanlashga yo'llash va umumkasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayoniga tatbiq etish;
- pedagogik-psixologik bilimlarni bevosita tanlangan sohalariga tatbiq eta olish va yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish;
- maktablarda mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash darslarini o'qitishni tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini o'rgatishdan iborat.

2. «Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi. «Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash yo'nalishlari bo'yicha ta'lim mazmunining uzviyligi va o'zaro bog'liqligi; o'quv moddiy bazasining tashkil etilishi (o'quv materiallari va moslamalar bilan ta'minlanishi); Davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqish mezoni va unga qo'yiladigan talablarni, kasb tiplari, kasbga yaroqlilik, kasb tanlashga ta'sir etuvchi omillarni bilishi kerak;

— o'quvchilarning mehnat tayyorgarligi bo'yicha o'quv rejasi va dasturlar mazmunini; o'quv jarayonini tashkil etish va mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashga oid rejalashtiruvchi hujatlarni

ishlab chiqish, mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash darslarini olib borish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

– ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida aloqalar o'rnatishni bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi; mashg'ulotlarni o'tkazish, o'quv jarayonini rejalashtirish; tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish; bandlik xizmati bilan ishslash; o'quvchilarining individual xususiyatlarini aniqlash bo'yicha turli testlardan foydalanish; ota-onalar va jamoat tashkilotlari bilan ishslash malakalariga ega bo'lishi kerak.

«Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash» umumkasbiy fan hisoblanib, 6 va 7-semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy (fizika, matematika, axborotlar texnologiyasi, chizmachilik, radioelektronika va h.k.), umumkasbiy (pedagogika, pedagogik mahorat, psixologiya, mehnat va muhandislik psixologiyasi va h.k.) va ixtisoslik (materiallar texnologiyasi, mashinasozlik fanlari, o'quv ustaxonalarida amaliy ishlar, kasb ta'limi praktikumi fanlari, texnika xavfsizligi va h.k.) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

O'quvchilar fanni o'zlashtirish jarayonida ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lган barcha sohalar, ularda qo'llaniladigan texnologik jarayonlar hamda ishlab chiqarish munosabatlari to'g'risida to'liq tassavurga ega bo'ladilar. Umumiy o'rta ta'lim mакtablarida o'quvchilarni mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash tarkibida kasbga yo'naltirish ularning zamonaviy va milliy kasb-hunarlarini o'zaro uyg'unligini ta'minlagan holda bilim, ko'nikma, malakalarni egallashlarini ta'minlaydi. Mazkur dastur bo'lajak mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash o'qituvchilarining mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashni o'qitish metodikasi asosida kasbga yo'naltirish ishlarini xalq xo'jaligi tarmoqlari istiqbolini hamda kasb-hunar kollejlari sohalashtirilganligini hisobga olgan holda bajarishiga xizmat qiladi.

3. «Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash» o'quv fanini o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalananishning o'ziga xos jihatlari. O'quvchilarni mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish

muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishchi holatdagi mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalari va maketlaridan foydalaniladi.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, jumladan:

— o'quv faniga tegishli ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentsion va elektron-didaktik texnologiyalardan, blits-so'rov, insert texnikasi, frontal ishchi guruhlarda ishlash, «Bumerang», musobaqa, «Aralash mantiqiy zanjirlar», muammoli dars, «6x6x6» kabi pedagogik texnologiyalaridan;

— fan bo'yicha o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarida og'zaki bayon qilish, fikrlar hujumi, suhbat-munozara, charxpalak, B-B-B, rolli o'yinlar, muammoli dars, kichik guruhlarda va jamoada ishlash pedagogik texnologiyalaridan foydalanish nazarda tutilgan.

«Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash» kursini o'rganish, umumiy o'rta ta'lim maktabidagi mehnat ta'limining (mehnat tarbiyasi, politexnik ta'lim, kasbga yo'llash va hokazolarning) maqsad va vazifalarini, shu fan bo'yicha o'quv jarayonining tashkiliy tamoyillarini va uning mazmunini anglab olishi, maktab ustaxonalarida ta'lim-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli olib borishda yordam beradigan metodik vositalar tizimi sifatida o'rganilishi lozim.

Pedagogika fanining tarmog'i sifatida «Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash» kursi oldiga quyidagi asosiy tadqiqot vazifalari qo'yiladi, ya'ni mehnat ta'limi vazifalarini asoslash, ularning tarbiyaviy va ta'limiy ahamiyatini ochib berish.

Mehnat ta'limi vazifalarini belgilashda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi qabul qilgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan qarorlar metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mehnat ta'limi o'quvchilar shaxsini har tomonlama kamol topishiga, mehnatning turmush bilan aloqasini mustahkamlashga, o'quvchilarda ongli dunyoqarashning shakllanishiga, ularni xalq xo'jaligida mehnat qilishga va asosiy ravishda kasb tanlashga tayyorlashda yordam beradi.

«Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi, kasb tanlashga yo‘llash» fani ustaxonada o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar bilan boshqa o‘quv fanlarini (ijtimoiy-siyosiy, tabiiy va matematik) o‘qitishning o‘zaro didaktik bog‘liqligini ochib beradi, shuningdek, boshlang‘ich, o‘rta va yuqori sinflardagi mehnat ta’limining izchilligini ta’minlash yo‘llarini ko‘rsatadi.

Mehnat ta’limi jarayonida o‘quvchilarda mehnatga muhabbat, jismoniy mehnat kishilariga hurmat va shaxsning boshqa axloqiy sifatlari shakllanishiga imkon beradi.

Bu sifatlар og‘zaki tushuntirish bilan emas, balki o‘quvchilarni unumli mehnatga qatnashtirish yo‘li bilan shakllantiriladi.

4. Buyuk mutafakkirlarning mehnat ta’limi, kasb tanlashga yo‘llash va tarbiyaga oid fikrlari. Sharqning buyuk mutafakkirlari, allomalari deyarli barcha davrlarda o‘z asarlarida, she‘r va g‘azallarida, adabiy meroslarida halol mehnatni, kasb-hunar egallahning muqaddasligini va zarurligini ta’kidlab, ulug‘lab o‘tganlar. Ulug‘ bobokolonimiz A.Navoiy o‘z g‘azallarida yoshlarni ilm-hunar egallahga chaqiradi:

Ilm kasbini qildi to joni bor,

Hunar o‘rgandi onga ki imkoni bor.

X asrda yashab ijod etgan ulug‘ bobokolonimiz Abu Nasr al-Forobiy ham kishilarni halol mehnat qilishga va kasb-hunar egallahga chaqiradi. Forobiyning fikricha: «Inson ojiz banda, hech narsaga qodir bo‘Imagan mavjudod emas, balki u eng oliv kamolot natijasi bo‘lib o‘z aql-idrok ziyyosiga ega, o‘zi uchun zarur bo‘lgan hamma narsani yaratishga qodir borliqdir». Forobiy mehnat va kasb-hunar ko‘nikmalarini, axloqiy fazilatlarni hosil qilish lozimligini ta’kidlab: «Agar kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lganda, podshohlar ham o‘zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda tuyassar bo‘lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo‘lib qolar edi. Kasb-hunar fazilati tug‘ma bo‘lmas ekan, xalqlar va shahar ahllarida, odob-axloq, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilishi insondan zo‘r kuch va qudrat talab qiladi. Bu ikki yo‘l bilan, ya’ni ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim degan so‘z xalqlar va shaharlar o‘rtasida nazariy fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir», — degan edi.

Kasb-hunar egallahning ahamiyati to‘g‘risida qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980–1037)ning asarlarida ham ko‘ramiz. Uning

fikricha bolaga yoshligidan biror kasb-hunarni o'rgatish lozim. Bola kasb-hunarni ma'lum darajada o'zlashtirib bo'lgandan so'ng o'z kasb-hunaridan hayotda foydalanishi, ya'ni halol mehnat bilan mustaqil hayot kechirishiga o'rgatish kerak.

«Yoshlarga ilm bera borib, ularga hunar o'rgatmoq muhim mas'uliyatli ishdir. Hunar o'rganish birla yoshlar har qanday nojo'ya xatti-harakatlardan xoli bo'ladilar», — deb ta'kidlaydi Abu Ali Ibn Sino. Uning hunarli bo'lishga qaratilgan nasihatlari hozirgi kunda ham muhim ahamiyatga ega:

*Oltin olmagin-u o'rgangin hunar
Hunarni oldida xasdир oltin zar.*

Sharqlik, markaziy osiyolik mutafakkirlar hamda o'zbek ma'rifatparvar shoirlari ham kasb-hunar egallashning ahamiyati to'g'risida o'z asarlarida qimmatli maslahatlarini qoldirganlar, bu meros hozirgi kunda ham yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyotida Sharq-u G'arbda ham yoshlarni kasb-hunar egallashlariga alohida e'tibor bilan qaral-gan. Ularning kasb-hunar egallashlarida otalik, ustozlik maslahatlarini, yo'l-yo'riqlarini muntazam berib kelganlar. Rasman kasbga oid maslahat idoralari asrimiz boshlarida paydo bo'la boshlagan.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. «Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash» fanining qanday maqsad va vazifalari bor?
2. «Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr qanday bilim, ko'-nikma va malakalarni egallaydi?
3. «Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash» o'quv fanini o'qitish jarayonida ta'limning qanday zamonaviy metodlaridan foydalaniladi?
4. Mazkur o'quv fanini o'qitish jarayonida qanday pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish mumkin?
5. Buyuk mutafakkirlar mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash va tarbiyaga oid qanday fikrlar bildirishgan?

1.2. Maktab o‘quv rejasida mehnat ta’limi, kasb tanlashga yo‘llash dasturining kiritilishi, uning tarixiy taraqqiyoti

Reja:

1. Kasbga yo‘naltirishning tarixiy taraqqiyoti.
2. Mehnat ta’limi jarayonida kasb tanlashga yo‘llash.

Tayanch iboralar: kasb-hunar, hunarmand, kasbga yo‘naltirish, kasb turlari, intellektual qobiliyat, maslahat byurosi, bozor iqtisodiyoti sharoitida kasblar, kasbiy konsultatsiya.

1. Kasbga yo‘naltirishning tarixiy taraqqiyoti. Mehnat va kasbiy tayyorgarlik tizimi bevosa yoshlarning mehnat va kasb tarbiyasini kasbiy axborotlar, kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish ishlarni amalga oshiradigan ulkan ishlardan biri bo‘lib, o‘z o‘tmish taraqqiyotiga egadir. Xalqimizning millat, elat bo‘lib shakllanishini mehnatsiz, kasblarsiz, hunarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Odamzod paydo bo‘lishidan boshlab mehnat bilan shug‘ullangan. Dastlab faqat kun kechirish uchun qilingan mehnat keyinchalik, kattaroq maqsadni, moddiy manfaat ko‘rish uchun amalga oshirilib hatto, X asrlarda yirik harbiy qo‘sishlarni, millionlab xalqlarni buyumlar, anjomlar bilan ta’minlay oladigan ishlab chiqarish sohalari darajasigacha taraqqiy etgan.

XII–XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda hunar ilmi, ko‘lami rivojlanishi eng yuqori pog‘onaga ko‘tarilgan. Har bir xalq ota-bobosidan meros bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tib kela-yotgan o‘zining tarixiy-madaniy birligi bilan ajralib, o‘ziga xos xususiyatlarni saqlab kelgan. O‘zbeklar ham shular jumlasidadir. Respublikamiz hududida o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hunarmandchilik bu yerdarda ikki ming yillar oldin rivojlangan. Bu davrda sinfiy jamiyat paydo bo‘lib, yirik mehnat taqsimoti negizida hunarmandchilik mustaqil soha bo‘lib ajralib chiqqan.

IX–XII asrlarda hunarmandchilik keng rivojlanib, xalqimizning xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalari avj olgan. Ayrim manbalarda qayd etilishicha, 32 xil hunar turi mayjud bo‘lgan aholi yashaydigan joyni shahar deb atashgan. 1897-yili birinchi aholi ro‘yxati vaqtida katta shaharlarda aholining ko‘pchilik qismi hunarmandlar hisoblangan. Masalan, Namangan

aholisining 64 foizi, Qo'qonning 52 foizi, Chustning 54 foizi, Marg'ilonning 50 foizi, mustaqil kasb-hunar egasi hisoblangan.

Hunarmandchilikning qadimiy davrlarda eng ko'p tarqalgan turi temirchilik, zargarlik, misgarlik va tunukasozlik bo'lgan. Hozirgacha keng tarqalgan qadimiy kasblardan biri yog'och bu-yumlari yasash hunarmandchiligidir. XX asr boshlarida tikuv mashinalarining paydo bo'lishi bilan yangi hunarmandchilik kasbi – tikuvchilik yuzaga keladi. O'zbeklarning eng keng tarqalgan uy kasblaridan biri do'ppido'zlikdir.

Bulardan tashqari, hunarmandlar teridan har xil buyumlar yasaganlar, poyafzalchilar o'z mahsulotlarini shahar va qishloqlarda yurib aholiga sotganlar. Nonvoylik, qandolatchilik va qassoblik ham asosiy kasblardan bo'lib ularning do'konlari har qadamda uchragan. Katta to'y-ma'rakalar o'tkazish odati maxsus oshpazlik kasbini yuzaga keltirgan.

Tarixiy ma'lumotlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, kasbga yo'naltirish ishlari qadimdan shakllanib kelgan. Kasbga yo'naltirish ishlari ham insoniyat jamiyat taraqqiyotining ehtiyojlari dan kelib chiqqan va u ham jamiyat kabi o'z rivojlanish tarixiga ega. Tabiiyki, kasbga yo'naltirish kasblar paydo bo'lishidan va demak unga ehtiyoj yuzaga kelishidan ilgari paydo bo'lishi mumkin emas edi.

Insonning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini tashxis qilish bilan bog'liq kasbga yaroqlilik darajasini baholash elementlarining paydo bo'lism tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Eramizgacha bo'lgan III ming yillikdayoq qadimgi Vavilonda mirzalar tayyorlovchi maktabda bitiruvchilar sinovdan o'tkazib borilgan. O'sha davrlar bilim darajasidan kelib chiqilganda kasbiy tayyorgarlik ko'rgan mirza Mesopotamiya sivilizatsiyasida markaziy o'rinda shaxs turgan: u maydonlarni o'lchashni, mulkni bo'lishni, musiqa asboblarida ijro uslubini va ashula aytishni bilgan. Sinov davrida uning gazlamalarni, metallarni, o'simliklarning turlarini bilishi, shuningdek, barcha to'rt arifmetik amallarni bajara olish ko'nikmalari tekshirib ko'rilgan. Qadimiy Misrda kasbni egallahsga da'vogarlar suhbatdan o'tkazilib, uning tarjimayi holi, bilim saviyasi, tashqi ko'rinishi hamda suhbatni olib borish qobiliyatları aniqlangan. So'ngra mehnat qilish, eshitish, sukut saqlash qobiliyatları olov, suv va o'lim bilan qo'rqtish vositasida sinab ko'rilgan.

Aytishicha, sinab ko'rish va tanlovdan o'tkazishning bunday jiddiy tizimini o'tmishning buyuk allomasi Pifagor o'z boshidan o'tkazgan. O'qishdan so'ng Gretsiyaga qaytgach, u o'zi bosib o'tgan sinovlar tizimi asosida o'quvchilar tanlab olinuvchi maktab ochgan. Pifagor intellektual qobiliyatlarga asosiy e'tiborni qaratgan va badiiy qilib aytganda: «Har qanday yog'ochdan ham merkuriyni yo'nib bo'lmaydi» — deb hisoblagan. Shuningdek, u yoshlarning o'zini tutishiga ham alohida e'tiborni qaratgan va uni inson xarakterida namoyon bo'luchchi asosiy ko'rsatkichlar deb sanagan. Pifagor o'qituvchilar va ota-onalar tavsiyalariiga e'tibor bilan qaragan, har bir yangi o'quvchini sinchiklab kuzatib borgan. Shundan so'ng uni o'z fikrini erkin ifodalashga va suhbatdoshlar bilan bahslashishga o'rgatgan. Eramizgacha bo'lgan ming yillikda Xitoyda hukumat amaldori kasbi va mansabi keng tarqalgan. Mos ravishda ushbu kasbni tanlashdagi dastlabki elementlar ham shu yerning o'zida yuzaga kelgan. Bunday kasbni egallashga jazm etgan yoshlardan tantanavorlik ruhi bilan sug'orilgan muhitda davlat imtihonlarini topshirishgan. Imtihon savollarini ko'pchilik holatlarda imperator o'zi belgilagan, shuningdek, sinovdan ham o'zi o'tkazgan va da'vogarlarni saralash ko'p bosqichli usulda amalga oshirilgan.

Sparta, Afina, Rimning qadimiy tarixida boshqa misollarni ko'rish mumkin. Spartada jangchilarini, Rimda gladiatorlarni tayyorlashning mukammal tizimi yaratilgan va muvaffaqiyatli amalga oshirilgan. «Odamlar, — deb yozgan edi Aflatun, — bir-birlariga u darajada o'xshash bo'lib tug'ilmaydilar, ularning tabiatini va qobiliyatlarini turlicha bo'ladi. Shu sababli barcha vazifalarni amalga oshirishda, o'z tabiiy qobiliyatlariga mos ravishdagi yumushlar tanlaganda uni yaxshiroq, tez va ko'proq darajada amalga oshirish mumkin bo'ladi». Aflatunning «Dav-latchilik» asarida: Qanday amaldorni tanlash kerak? — degan savoliga Suqrot quyidagicha javob beradi: «Eng ishonchli, jasur va imkoniyatlari kengroq bo'lgan shaxslarga ko'proq e'tiborni qaratish, bundan tashqari nafaqat oliv tabaqadagi yuqori ma'naviyatli insonlarni, balki shu darajadagi tarbiya berishga loyiq odamlarni ham topish lozim. Ular bilimlarni tez qabul qila olishlari hamda tez fikrlay olishlari, mustahkam xotirali, o'z fikrida qat'iy turuvchi va barcha munosabatlarda mehnatkash insonlarni topish lozim».

Eramizgacha bo'lgan 900 va 600 yillar oralig'idagi hind vederdalarida zargarlar, temirchilar, arqonsozlar, to'quvchilar, bo'yoyqchilar, duradgorlar, kulollar, uy xizmatchilarining turli toifalari, akrobatlar, folbinlar, naychilar, raqqoslar kasb sifatida sanab o'tilgan. Shuningdek, aktyorlar, sudxo'rlar va savdogarlar ham mayjud bo'lgan. Bunday ma'lumotlar ko'p bo'lib, ularning barchasi bugungi kunda kasbiy tashxis qilish yoki kasb tanlash, deb ataluvchi tushunchalarning qadimdan shakllanganligini bildiradi.

1908-yilning yanvarida Boston shahrida o'smirlarga o'z hanyotiy mehnat yo'llini tanlashiga yordam beruvchi Yoshlarni kasbga yo'naltirish byurosi o'z ishini boshlagan. Bu byuro faoliyati kasbga yo'naltirish ishlarining asosi sifatida qabul qilingan. Keyinchalik shu turdag'i byuro Nyu-Yorkda ham tashkil etildi. Uning vazifalari qatoriga insonlarning turli kasblarini egallashida qo'yiladigan talablar, maktab o'quvchilarining qobiliyatlarini chuqurroq o'rganish kabilar kirgan. Byuro ishi o'qituvchilar bilan hamkorlikda test va anketalardan foydalaniłgan holda olib borilgan.

Shu davrda Angliyada maxsus vazirlik ruxsati bilan 17 yoshdan kichik bo'lgan o'quvchilarning kasb tanlashiga maslahat yoki ko'proq amaliy xarakterdagi ma'lumotlar bilan yordam ko'rsatuvchi muassasalar ochish yo'lga qo'yilgan. Bu yerda 1911-yilda mehnat birjalari hamda ta'lim muassasalari hamkorlikdagi ishini muvoqifqlashtiruvchi maxsus axborotnama chop qilish yo'lga qo'yilgan.

1922-yilda Germaniyada «Kasbga yo'naltirish va maslahat to'g'risida»gi Qonun qabul qilingan va shu asosida ushbu tizimni amalga oshirish mezonlarini ifodalovchi «Nizom» tasdiqlangan.

Rossiyada kasbga yo'naltirish ishlari XX asrning dastlabki yillarda amalga oshirila boshlandi. Moskvadagi O'qituvchilar uyingning Pedagogika muzeyida turli tipdag'i maktab o'qituvchilari kasb tanlashga oid qator izlanishlar olib borganlar. Bunda asosiy e'tibor qaysi kasblarga talab ko'proq bo'lganligiga, ularni tanlashda o'quvchilarning qanday sabablarga asoslanishini tadqiq qilishga qaratildi.

1927-yilda Leningradda tashkil etilgan kasbiy maslahat byurosida amaliy tadqiqotlar bilan birgalikda ilmiy-tadqiqotlar ham olib borilgan.

Kasbga yo'naltirish ishlarining ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqishga P.P. Blonskiy, A.S. Makarenko kabi atoqli rus olimlari muhim hissa qo'shganlar. Ular o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarining psixologik-pedagogik asoslarini yaratish, uning keyingi taraqqiyoti uchun sharoit yaratib berdilar. Kasbga yo'naltirish ishlari politexnik ta'lif, mehnat ta'lifi va tarbiyasi bilan uzviy aloqadorlikda olib borildi.

1930-yillarning boshlarida Kasbiy maslahat va kasbga yo'naltirish markaziy laboratoriyasi faol tashkiliy ishlarni olib bordi, 1932-yilga kelib bu turdag'i byurolar soni 54 taga yetka-zildi. Biroq bu davrdagi kasbga yo'naltirish ishlari taraqqiyotiga o'quvchilar mehnat ta'limga bo'lgan e'tiborni susayib borishi salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mehnat ta'laming bekor qilinishi kasbga yo'naltirish ishlarining to'xtab qolishiga olib keldi.

1950-yillarning boshlarida kasbga yo'naltirishga bo'lgan e'tibor yana kuchaya boshladi va ma'lum darajadagi tashkiliy-uslubiy yondashuv yuzaga keldi.

Shundan keyingi davrlarda o'quvchilarning qiziqishlari va xalq xo'jaligi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan kasbga yo'naltirish ishlari besh yillik rejalar asosida tashkillashtirib borildi.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgan yildan boshlab ta'lif tizimida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. «Ta'lif to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi natijasida xalq xo'jaligini malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash tizimi yaratilmoqda.

2. Mehnat ta'lifi jarayonida kasb tanlashga yo'llash. Kasb tanlashga yo'llash butun pedagoglar jamoasi tomonidan hal etiladigan umummaktab vazifasi hisoblanadi. Shu bilan birga, bu ishda mehnat ta'lifi alohida o'rinni egallaydi. Bunga sabab shuki, mehnat ta'luming mazmuniga qator kasblar bilan uzviy va tizimli ravishda tanishtirish va bu tanishtirish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham olib boriladi. Ma'lumki, kasblar to'g'risida tasavvur ana shunday tarzda berilgandagina u haqida to'liq tassavvurga ega bo'lish mumkin bo'ladi.

Kasb tanlashga yo'llash ishi butun mehnat ta'lifi davomida olib boriladi, lekin uning vazifalari o'zining turli bosqichlarida o'zgarib turadi.

5-7-sinflarda asosan kasb haqida ma'lumot beriladi. O'quvchilar qanday kasblar borligi, uning tiplari bilan tanishadilar.

Bu kasblarning elementlari o'quvchilarning ustaxonadagi faoliyati mazmunini tashkil etadi. Bu hol o'qitishning shu davrida o'quvchilarni umummehnat tayyorgarlik vazifasiga to'la mos keladi.

6-sinfda va, ayniqsa, 7-sinfda kasb to'g'risida ma'lumot berish bilan bir qatorda mehnatda tarbiyalash ishlari ham olib boriladi. Bunga sabab shuki, 7-sinfni bitirish arafasida o'quvchilar bo'lg'usi mehnat tayyorgarligining sohasi (yo'nalishi)ni tanlab olishlari zarur. Har bir soha bo'yicha ko'plab ommaviy kichik mutaxassislar kasblarini o'z ichiga oladi. Bular ustaxonadagi mashg'ulotlarning mazmuni bilan izchil aloqada bo'lgan kasblar bo'lishi (masalan, metallga va yog'ochga ishlov berish texnologiyasiga oid kasblar) yoki ular bilan hech qaday aloqador bo'lmagan kasblar (chunonchi, suvoqchilik, bo'yoqchilik va shu kabi qurilish kasblari) bo'lishi mumkin.

Mehnat tayyorgarligi sohasini tanlashda ko'pincha munozarali vaziyatlar vujudga kelib, bu munozarada o'quvchilarning ottonalari ham ishtirok etishlari mumkin. Mehnat tayyorgarligining ayrim sohalari go'yo e'tiborsizdek tuyilib, hech kim bu kasbni tanlashni xohlamaydi. Boshqa sohalarga esa, aksincha, keragidan ko'proq o'quvchilar qiziqib qolishadi.

Afsuski, maktablarning ish tajribasida shunday manzarani kuzatish mumkin, o'qituvchilar bu masalani o'quvchilarning o'zlashtirishlariga qarab hal etishga urinishadi, ya'ni a'lochi o'quvchilarga tanlash huquqi beriladi yomon o'zlashtiruvchilar esa qolgan kasb turlaridan birortasini tanlashga majbur bo'lishadi. Masalani bu tarzda hal etish har jihatdan noto'g'ridir. Hayot yo'llini zo'rma-zo'raki tanlaganlardan kelajakda yaxshi mutaxassis chiqishini kutib bo'lmaydi. Shubhasiz, a'lochi o'quvchilar rag'batlantirilishga loyiqlar, biroq bu narsa boshqalarni kasb tanlash erkinligidan mahrum qilmasligi kerak. Shunday ham bo'ladiki, mehnat tayyorgarligida sohani to'g'ri tanlagan o'quvchi keyinchalik o'ziga shu soha doirasidagi kasbni tanlaydi. Shundan kelib chiqib, mehnat tayyorgarligining sohasini tanlash ixtiyoriy bo'lishiga harakat qilish lozim.


Bunga qanday erishish mumkin? Bu savolga javob berish uchun avvalo kasb tanlash erkinligini qanday tushunish lozimligini aniqlab olish zarur. Bizning jamiyatimizda xohlagan kasbni tanlash yo'lida siyosiy, ijtimoiy, milliy va boshqa g'oyalar

yo‘q. Ammo bu huquqdan o‘z o‘rnida foydalana bilish va bunga o‘rgatish darkor. Gap shundaki, u yoki bu kasbga bo‘lgan talab uning e’tiboriga qarab emas, balki bozor iqtisodiyotining tuzilishiga qarab aniqlanadi. Shuning uchun, xohishimizdan qat’i nazar, obyektiv tarzda kechuvchi ilmiy-texnik taraqqiyot bu rejaga o‘z shartlarini kiritadi. Bu yoshlarni bozor iqtisodiyoti ehtiyojlariga mos keladigan kasblarda ishlashga tayyorlashni talab etadi. Ravshanki, bu o‘ta muhim vazifaning bajarilishini ta’minlash kasb tanlash erkinligi fuqarolik burchini tushunish, mamlakatimizda barcha kasblar ham kerakli va faxrli ekanligini anglash bilan uyg‘unlashib ketishi lozim.

Shu munosabat bilan mehnat ta’limiga alohida umid bilan qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning ma’lum qismi kichik mutaxassis bo‘lib ishlashni xohlamasliklari mumkin. Buning sababi shundaki, o‘quvchilar kichik mutaxassis kasblarining mazmuni to‘g‘risida to‘g‘ri tasavvurga ega emaslar, jamiyatimizda kichik mutaxassislar qanday e’zozlanishini yaxshi bilmaydilar. O‘quvchilar bilan aynan mana shu yo‘nalishda ish olib borish kerak, zero davlatimiz manfaatlari o‘rta maktabni bitirganlarning ko‘philagini moddiy ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko‘rsatish sohalariga jalb qilishni taqazo etadi.

Mazkur holda masala teng qimmatli ommaviy kichik mutaxassislar kasblariga taalluqli ekanligi ishni osonlashtiradi. Teng qimmatli kasblar deganda insonga har tomonlama kamol topish, moddiy farovonlik, jamiyatda o‘z mavqeiga ega bo‘lishga imkoniyatlar yaratishi jihatidan teng bo‘lgan kasblar tushuniladi. Shu boisdan, agar ommaviy kasblar ichida ayrimlari e’tiborsizdek tuyilsa, bu oddiy chalkashlik bo‘lib, mehnat o‘qituvchisi bu xatolikni o‘z vaqtida bartaraf etishi kerak. Buning uchun esa ommaviy kasblarda umumiy tomonlar ko‘p ekanligini ta’kidlash kerak.

Amalda uchraydigan barcha kasblar bilan o‘quvchilarni tanishtirib chiqishning imkonи yo‘q, albatta. Lekin ko‘pgina kasblar inson oldiga qator umumiyl talablarni qo‘yadi. O’smirlarni ana shu talablar bilan tanishtirib ular haqidagi tasavvurini kengaytirishi mumkin. Masalan, keyingi vaqtida jismoniy mehnatning ma’naviy saviyasi ortayotganligi kuzatilmoqda. Aqliy mehnat faoliyatiga qo‘yiladigan talablar tobora ortib bormoqda. Mehnat jamoasida o‘zini tutishiga nisbatan ham yuqori talablar qo‘yilmoqda. Shuni hisobga olib, kasb tanlashga yo‘llash ishini shunday tashkil qilish



mumkinki, o'quvchilar faqat muayyan kasblar to'g'risida tasavvur olibgina qolmasdan, mehnat faoliyatiga nisbatan qo'yiladigan umumiy talab to'g'risida ham tasavvurga ega bo'layotganliklarini anglaydigan bo'lishsin.

Kasb tanlash juda muhim masala bo'lib, ko'pincha o'quvchilar uni mustaqil hal qila olmaydilar. Bu masalada ularga maktab yordam berishi kerak. Ko'pincha sinf rahbari har bir o'quvchiga kartochka tutib, o'quvchining u yoki bu o'quv faniga munosabati, kasbga bo'lgan qiziqishi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari, shaxsiy fazilatlari haqida o'qituvchilar aytgan ma'lumotlarni shu kartochkaga yozib boradi. Bu esa o'quvchining nimalarga qiziqishini aniqlashga imkon beradi. Agar o'quvchining qiziqishlari barqaror bo'lsa, sinf rahbari o'quvchida u tanlamoqchi bo'lgan kasb uchun zarur alomatlar bor-yo'qligini aniqlashga kirishadi. O'quvchining sog'lig'i u tanlagan kasb talablariga to'g'ri kelmaydigan hollar ham uchraydi. Bu masalani shifokor hal qiladi. Shundan so'ng o'qituvchilar o'quvchining ota-onasi bilan suhbatlashib, bolani boshqa kasbga qiziqtirishga harakat qiladilar. Lekin bu ishni xushmuomalalik, ehtiyyotkorlik bilan bajarish lozim, aks holda o'smirning ko'ngli cho'kishi, o'zini to'laqonli odam emasdek his etishi mumkin.

O'quvchilar o'zlariga kasb tanlayotganlarida o'qituvchilar o'z ta'sirini o'tkazishga haddan tashqari intilmasliklari kerak. Bu o'rinda juda ehtiyyot bo'lish va o'quvchilar ushbu kasbga chindan ham qiziqadilarmi yoki bu qiziqish tasodifiy qiziqishmi, aniqlab olish lozim.

Kasb tanlashga yo'llash ishini olib borishda maktabning haqiqiy ish sharoitlarini hisobga olish darkor. Mamlakatimiz turli tumanlarining ishlab chiqarish bazasi bir xilda emas. Masalan, agar gap dam olish maskaniga yaqin joylashgan shahar haqida boradigan bo'lsa, o'quvchilarning ko'pchilik qismi kelgusida aholiga xizmat ko'rsatish sohasida ishlash kerakligini e'tiborga olishiga to'g'ri keladi. Tuman iqtisodiyoti mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlarini ko'p jihatdan belgilab beradi. Biroq insonning individual xususiyatlari ham, odatda, qator kasb talablariga javob beradi, o'quvchilarning qiziqishlarini esa shakllantirish mumkin. Shunday qilib, kasb tanlashga yo'llash ishini davlatning u yoki bu kasbga bo'lgan ehtiyojlarini va o'quvchilarning qiziqishlarini hamda ishtiyoqlarini e'tiborga olgan holda olib borish mumkin.

Kasb tanlashga yo'llash ishida 8—9-sinflar alohida o'rinni egallaydi. Bunda bir tomondan kasb tanlashga yo'llash ishi bevosita mehnat darslarida davom etib, o'quvchilar o'zлari tanlagan mehnat tayyorgarligi sohasi tarkibiga kiruvchi kasblar to'g'risida tasavvur olishadi, ya'ni kasbga intilish go'yo «torayib boradi». Boshqa tomondan esa «Ishlab chiqarish asoslari», «Kasb tanlash» maxsus fanlarini o'rganish jarayonida o'quvchilarni xalq xo'jaligining asosiy kasblari va ixtisosliklari bilan tanishtirish yuzasidan tizimga solingan kasb tanlashga yo'llash ishi boshlanadi. Mazkur fanlar mehnat darslarida, fan asoslari o'rganiladigan darslarda o'quvchilar kasblar to'g'risida olgan bilimlar umumlashtiriladi.

Shunday qilib, 8—9-sinflarda ma'lum darajada qarama-qarshi vazifa qo'yildi. O'quvchi kengaytirilgan mehnat ta'limini o'tib qator o'xhash kasblar elementlarini (masalan, metallga ishllov berish uchun slesarlik, tokarlik, frezerlik ishi) o'zlashtirib oladi. Buning natijasida u boshlang'ich kasb tayyorgarligini oladi va uni kasb-hunar kollejlarida davom ettirishi zarurdek tuyiladi. Ayni paytda o'quvchi oldida kasblar dunyosi birinchi marotaba tizimga solingan holda to'liq ochib beriladi, go'yo ulardan xohlaganningni tanlab ol, deyilgandek bo'ladi. Kasb tanlash erkinligi ana shu ko'rinishdagi ziddiyatda namoyon bo'ladi. 9-sinfda o'quvchi o'zi avval tanlagan kasbdan aynib, mehnat ta'limining butunlay boshqa yo'nalishini ixtiyoriy tanlab olishi ham mumkin. Demak, o'quvchi faqat 9-sinfda biror kasbni tanlash haqida uzil-kesil qarorga kelishi mumkin. Lekin bu bilan kasb tanlashga yo'llash ishi tugaydi yoki bo'shashtirib yuboriladi, deyish xato bo'ladi. Aksincha, bu ish endi yanada ta'sirchan bo'lishi lozim, ammo uning maqsadi o'zgaradi, endi birinchi rejani tanlagan kasbga muhabbat uyg'otish egallaydi. Kasb tanlashga yo'llash ishining butun mazmuni, formalari va metodlari ana shu maqsadga qaratiladi.

Yuqorida aytiganlardan, mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'llash ishi bir necha bosqichdan o'tib, bu bosqichlarning har birida o'z vazifalari hal etiladi, degan xulosani chiqarish mumkin. Bunda kasb tanlashga yo'llash ishi, boshqa har qanday o'quv-tarbiya ishi kabi, ikki yoqlamali jarayondan iborat bo'lib, bu jarayonda o'qituvchiga ham, o'quvchiga ham teng darajada ahamiyat ajratiladi. Shuning uchun kasb tanlash ishiga nisbatan qo'yiladigan eng muhim talab o'quvchilarning yuqori darajada

faol bo‘lishi, bu faollik kasbiy tarbiya, kasb tanlash negizlarini shakllantirish hisobiga ta’minlanishidadir. Mehnat o‘qituvchilari kasbiy tashxis hamda kasbiy konsultatsiyaga tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lsalar va bu ishni o‘z vaqtida o‘tkazsalar, o‘quvchilarning faoliigi ortadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Kasbga yo‘naltirish ishlari qaysi davrlardan boshlangan?
2. IX–XII asrlarda hunarmandchilikning eng ko‘p tarqalgan turiga qaysi hunarlarni kiritish mumkin?
3. XX asrlarda kasb tanlashga yo‘naltirish ishlari qanday rivojlanib borgan?
4. Mehnat ta’limi jarayonida kasb tanlashga yo‘llash ishlari qanday amalga oshiriladi?
5. 8–9-sinflarda kasb tanlashga yo‘llash ishlari qanday amalga oshiriladi?
6. O‘quvchilar o‘zlariga kasb tanlayotganlarida ularga qanday va kim tomonidan metodik yordam ko‘rsatish kerak?

1.3. Mehnat ta’limi, kasb tanlashga yo‘llashda tadqiqot metodlari

Reja:

1. Pedagogik tadqiqotlar metodlarining mazmun-mohiyati.
2. Mehnat ta’limi, kasb tanlashga yo‘llashda qo‘llaniladigan ilmiy-tadqiqot metodlari.
3. Ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish bosqichlari.

Tayanch iboralar: ilmiy-pedagogik tadqiqot, metod, pedagogik kuzatish, suhbat, test, eksperiment, matematik va statistik tahlil, ijtimoiy tadqiqot metodi, tarbiya jarayoni, mutaxassislik, so‘rovnomalar, hujjalarni tahlil qilish, statistik ma’lumotlar.

1. Pedagogik tadqiqotlar metodlarining mazmun mohiyati. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A. Karimovning «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li», «O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat» asarlarida umuminsoniy qadriyatlarga qaytish haqidagi mulohazalarida ta’lim-tarbiya masalalarini faoliikka asoslangan tamoyillarda o‘tkazish, o‘sib kelayotgan yosh

avlodni yangiliklarni tez qabul qilishga undash, istiqlol yaratgan keng imkoniyatlardan foydalaniib xo'jalik va madaniyatning hamma sohalarida yuksak natijalarga erishish haqida gap boradi. Bu yangicha dunyoqarash xalq ta'limdi ilgari surilgan uzlusiz ta'lim va shaxs xislatlarini ijodkorlik ta'limi orqali rivojlantirishda ta'lim nazariyasi oldiga yangi vazifalarni qo'yadi.

Xalq ta'limi tizimini tubdan o'zgartirish, uning rivoji uchun pedagogik, uslubiy, psixologik sharoitlarni yaratish talab etiladi. Amaliyotdan shu narsa aniq ravshanki, har qanday ilmiy xulosa tajriba va ilmiy-tadqiqotlarga asoslanadi. Pedagogikada, xususan ta'lim va tarbiyada ilmiy-tadqiqotlar hech qachon to'xtamaydi va uzlusiz davom etaveradi.

Pedagogik tadqiqotlarning fani sifatida mакtab va boshqa o'quv yurtlarining faoliyati, uning maqsadi, dasturiy ma'nosi, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati, tashkiliy shakl hamda ijtimoiy sharoitlar xizmat qiladi.

Didaktik faoliyat o'qituvchi va o'quvchilarning xatti-harakatlardan iborat. Bunday faoliyat natijasida o'quvchilar bilim, iqtidor va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, o'z dunyoqarashini, shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantiradilar. Tahsil natijasida o'quvchi shaxsining turli xislatlari shakllantiriladi. Bunday o'zgarishlarni kuzatish, hisobga olish pedagogik tadqiqotlarning asoslariдан hisoblanadi. Yuqorida o'zgarishlar, o'qituvchining didaktik faoliyati ta'siridagi va o'z shaxsiy xatti-harakatlari ta'siridagi o'zgarishlar orasidagi qonuniyatlarni ochishga, ularni tahlil qilishga imkon beradi. O'quvchilar va o'qituvchilarning o'quv ishlari, sharoitlari, harakatlari, ta'lim mazmuni, metod va vositalari orasidagi bog'liqliklar tabiat qonuniyatlari qanday obyektiv xarakterga ega bo'lsa, shunday obyektiv xarakterga egadir.

Ta'lim va tarbiyaga taalluqli xatti-harakatlarni tafakkurga asoslanib tahlil qilish pedagogika va didaktikada yagona usul hisoblanishini Yan Amos Komenskiyning «Buyuk didaktika» va K.D. Ushinskiyning «Inson tarbiya fani sifatida» asarlarida ko'rish mumkin.

O'quv-tarbiya jarayoni haqida jiddiy xulosalar chiqarish uchun muntazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajriba, faktlarga asoslangan empirik tadqiqotlar natijalariga asoslanish zarur.

2. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashda qo'llaniladigan ilmiy-tadqiqot metodlari. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash

muammolariga qaratilgan ilmiy izlanishlar o'tkazishdan maqsad ta'lim va tarbiya xususiyatlari, samarali metodlarni ishlab chiqish va amaliy qo'llash, texnika vositalarini qo'llashga doir masalalarni yechishdan iboratdir.

Ilmiy-pedagogik izlanishlar jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. O'qituvchining adabiyotlarni o'rganishi va amaliy ishlari asosida muammoni aniqlashi.

2. Gipoteza qurish, ya'ni o'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish. O'qituvchining faktlar va ularni taqqoslash orqali izlanuchi asoslangan taklifni berishi.

3. Izlanish natijalarini rasmiylashtirishi va o'quv jarayoniga qo'llashi.

Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llashda ilmiy izlainishlarning umumilmiy va maxsus metodlari qo'llaniladi.

Umumilmiy metodlarga: nazariy izlanish, kuzatish, suhbat va eksperimentlar kiradi.

Nazariy metodga adabiyotlardan o'rganish va tahsil qilish, hamda pedagogik tajribalar asosida olib boriladigan izlanishlar kiradi. Adabiyotlar ustida ishlashda kitob va jurnallar, maqolalar va patentlar, ilmiy ishlanmalar, to'plamlar va kataloglar, internet tizimidan olingan ma'lumotlardan foydalaniлади.

Kuzatish, odatda, tabiiy kuzatish orqali o'quvchilarining fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bu metod o'qituvchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib idrok etishini tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish obyekti, vaqt, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi. Shuningdek, kuzatish metodi ta'lim-tarbiyaning mazkur vaqtdagi holatini aniqlash imkonini beradi. Kuzatish metodining maqsadi bor faktlarni yoritishdangina iborat bo'lmay, oldindan qo'yilgan maqsad bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan faktlarni qidirish va aniqlashdan iboratdir.

Kuzatish jarayonida o'qituvchini qiziqtiruvchi muammo va vazifalar kuzatishni tanlab o'tkazishni taqazo etadi. O'qituvchi muayyan tanlangan muammoni hisobga olib, nimani kuzatish

kerakligini tanlab oladi. Shuning uchun ham u kuzatish natijasida yechilishi kerak bo'lgan muammoni hali kuzatishni boshlamasdan oldinroq biladi. Natijada o'qituvchining kuzatish natijalarini umumlashtirishi birmuncha osonlashadi.

Kuzatishga asoslangan tasniflash ishlari uch ko'rinishga ega:

- 1) obzor tadqiqotlari;
- 2) ta'lif-tarbiya unsurlari orasidagi bog'liqlikni aniqlash;
- 3) izlanish tadqiqotlari.

Bunday sharoitda kuzatish to'g'ridan to'g'ri yoki bevosita amalga oshiriladi. To'g'ridan to'g'ri yoki bevosita kuzatish faktlarni qabul qilib olish, tushunib yetish va o'lchashdan iborat, ya'ni:

- qabul qilib olish — sezish organlari yordamida tekshiruvchi obyekt aniq joyda turganligini qayd qilish;
- tushunib yetish — tanlab olingan, qayd qilingan obyekt olindidan aniq yoki noaniqligini aniqlash;
- o'lchash — shu obyektning sonini aniqlash.

Bilvosita kuzatish obyektni bevosita kuzatish imkoniyati bo'lmaganda amalga oshiriladi. Shunday obyektdagi shaxsning tug'ma qobiliyati, imkoniyatlari, intizomlilik, rostlik, kamtarlik, kamsuqumlik kabi xislatlari kirishi mumkin. Bunday xislatlarni bevosita kuzatish natijasida aniqlash qiyin. Shuning uchun ham o'qituvchi o'ziga qulay ko'rsatkichlardan foydalanadi.

Bevosita va bilvosita kuzatish bilan bir qatorda faol kuzatish ham qo'llaniladi. Faol kuzatishda didaktik jarayonda bevosita o'qituvchining o'zi ham qatnashadi va jarayonning borishiga ta'sir etadi. Bunda ishtirok etishning ijobiy tomoni shundan iboratki, o'qituvchi bo'lib o'tayotgan jarayonning ikir-chikirlarini tushunib yetadi, bu esa o'quv jarayonini tadqiqot talablariga yo'naltirish imkonini beradi. Bunday usul ayrim kamchiliklariga qaramasdan, ijodkor-o'qituvchilar tomonidan o'quvchilar faoliyatini faol lashtirishda keng qo'llaniladi.

Bilvosita kuzatish o'qituvchini hodisalarni o'rganishga ko'proq jalg etishga imkoniyat yaratadi. Mashg'ulotlar stenogrammalari, uchinchi odam tomonidan tayyorlangan kuzatish bayonlari, foto-kinolavhalar, rasmlar, diagrammalar, statistik mashg'ulotlar shular jumlasidandir. Bu hujjatlar pedagogik faoliyatning natijalarini hamda ijtimoiy muhit, xususan o'qituvchi faoliyatining o'quvchi shaxsida uyg'otadigan o'zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.

Ilmiy-tekshirish maqsadlarini aniqlash o'qituvchini qiziqtirib qolgan muammoli holatni tahlil qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bunday holatni tahlil qilish va unda ma'lum va noma'lumlarni aniqlash, qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish, tajribali shaxslarning bu masalaga bergan bahosi o'qituvchining asosiy va qo'shimcha muammolarni aniqlash imkonini beradi.

Suhbat metodi — so'rashning bir turi bo'lgani holda o'qituvchining jiddiy tayyorgarlik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan o'quvchi bilan bevosita aloqada bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo'llaniladi.

Pedagogik so'rash metodi — o'qituvchining boshqa hamkasblaridan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So'rash savollarning mantiqiy o'ylangan tizimi, ularning aniq ifodalanishi, nisbatan kamchiligi (3–5 ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat'iy formadagi javobni («ha», «yo'q») ham taqazo etishi mumkin.

Test-so'rovnoma, bu so'rovnoma, ya'ni anketa usuli qo'llanganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, o'quvchilarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qizishlarini, kelajak orzu-istikclarini bilish va teqishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o'tkaziladi.

Test savollaridan ko'zlangan maqsad, qisqa vaqt ichida o'quvchilarning bilimlarini, qiziqishlarini, kasblar haqidagi fikrlarini yoppasiga baholashdir.

O'quvchilarning bilimini va saviyasini aniqlash uslublaridan biri, bu test yordamidagi sinovdir.

Test sinovlari metodi, bu yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodidir. Test sinovlarini (anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada tadqiqot nati-jalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda test savollarining ma'lumotlarini kompyuterda matematik statistika metodlari bilan ishlash imkonini beradigan qilib tuziladi.

Eksperiment-tajriba-sinov usuli — ushbu tajriba asosida ta'limtarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tatbig'i jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Agar, kuzatishda o'qituvchi borliqni qanday bo'lsa shundayligicha idrok qilib tekshirsa, eksperiment jarayoni bu borliqni o'zgartirib, uning ichki qonuniyatlarini, unga ta'sir etishning samador usullarini aniqlaydi.

Eksperimentning birinchi xususiyati shundan iboratki, unda o'qituvchining o'zi qatnashadi, ishni tashkil etadi, amalga oshiradi va natijani tahlil qiladi.

Ikkinci xususiyatida o'quv-tarbiya jarayonining ichki qonuniyatlarini aniqlash uchun jarayon sharoitlarini o'zgartirish imkonii tug'iladi.

Uchinchi xususiyati, bu o'quv-tarbiya jarayonini nazorat qilib, ularni aniq o'lhash imkonidir.

To'rtinchi xususiyati, bu eksperimentga ilmiy tus berib, ishchi gipotezani aniqlashtirishdir.

Demak, eksperiment shunday ilmiy-tadqiqot usuliki, unda ta'lif-tarbiya jarayonini nazorat qilish, o'lhash va ishchi gipotezani yanada oydinlashtirish imkonii tug'iladi.

Yuqorida ko'rsatilgan to'rt xususiyat bajarilsa eksperiment laboratoriya eksperimenti hisoblanadi, birinchisi bajarilmasa, bu tabiiy eksperiment deyiladi.

Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish usulida ta'lif sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning doimiy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, ta'lif muassasalarining qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'lar statistika usuli orqali aniqlanadi.

Matematika va kibernetika usullari o'qitish nazariyasi amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashinalari yordamida bir tildan ikkinchi tilga tarjima, dasturli ta'lif va uni mashina orqali boshqarish, o'qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta'lif-tarbiya samaradorligini oshirish differensial va individual ta'lif berish kabi jarayonlardir.

Ijtimoiy tadqiqot metodi, bunda anketaga savollar kiritiladi. Bundan maqsad o'quvchilarning kasb-hunarga bo'lgan munosabatlarini aniqlash, o'quvchilar orasidagi do'stlik munosabatlarini, o'quv yurtidagi shart-sharoitlarni bilish, yutuq va kamchiliklarni, o'quvchilar orasidagi munosabatlarni, denga xususan tasavvufga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, o'quvchilarning ma'nnaviy sifatlar darajasini, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar

bilan ta'minlanganlik darajasi, o'quv taqsimoti, o'qituvchilarning o'qitish darajasi, o'quv qo'llanmalarining sifati, kompyuter bilan mashg'ulot o'tkazish turlarini o'rghanish, ilmiy va kasb mahoratini oshirishdagi mashg'ulotlar turi, ota-onalarining moddiy yordami, ularning ma'lumoti, ish joyi, o'quvchilarning ko'p shug'ullanadigan jamoat joyi, yashash joyi, mahallasi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishida ta'sir etuvchi omillar, mutaxassis bo'lib yetishishida hal qiluvchi omillar, o'quvchilarning onglik darajasi jarayoni, komil inson bo'lish uchun kerakli bo'lgan ma'naviy sifatlar, qanday kasblar haqida ma'lumotga ega ekanliklari, qaysi kasbga qiziqishlari, kasb tanlashlarida maktab, mahalla va oilaning tutgan o'rni, o'quvchilarning o'qitiladigan fanlardan o'zlashtirganlik darajasi haqidagi savollar anketaga kiritiladi. Savol-javoblarning barchasi kompyuterda qayta ishlanaadi va xulosalar chiqariladi.

3. Ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish bosqichlari. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llashda ilmiy-tadqiqot ishlarining metodologik asoslar:

1. Shaxsning ijodiy va faoliyatlilik ma'nosi haqidagi ta'limot.
2. Shaxsning o'zaro aloqa bog'lash va o'zaro bog'liqligi haqidagi ta'limot.
3. Munosabatlar nazariyasi.
4. Mutaxassis shaxsini shakllantirish haqidagi nazariy ta'limot.
5. Bilish faoliyati haqidagi ta'limotlardan iboratdir.

Shuningdek, mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llashning ilmiy-tadqiqoti 4 ta bosqichni o'z ichiga oladi:

1-bosqich. Nazariy izlanish bosqichi. Bu bosqichda tadqiqot muammosi ilmiy jihatdan obdan o'ylab ko'riladi.

Kerak bo'lganda muammoning hozirgi ahvolini chuqurroq tushunib yetmoq uchun uzoq va yaqin o'tmishni tarixiy-nazariy analiz qilinadi. Natijada tadqiqotning tub negizi aniqlanadi, tadqiqot maqsadiga mos adekvat metodologiya va tadqiqot metodlari aniqlanadi, tushunchalar apparati kiritiladi, umumiyl va xususiy taxminlar qo'yiladi, tadqiqotni tashkillashtirish elementlari belgilanadi.

Bu bosqichda yana tadqiqot obyektining (umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, OTM va hokazolar) ish tajribasi o'rganiladi, umumlashtiriladi va tahlil qilinadi. O'rganilayotgan muammo bo'yicha talabalar, bitiruvchilar,

o'qituvchilar kuzatiladi, suhbat, anketalar o'tkaziladi, intervylar olinadi, o'quv metodik va rejalashtirish hisobot hujjatlari o'rganiladi. Tadqiqot tub maqsadlarini aniqlashtirish maqsadida izlanish eksperimentlari o'tkaziladi.

2-bosqich. Eksperimental-diagnostik bosqichda o'quv-tarbiya jarayonining mexanizmi, xossalari, o'ziga xos qarama-qarshiliklari, jarayon rivojlanishining sifat belgilari, tezligi, shiddatkorligi, darajalari o'rganiladi.

Bu bosqichda hisobga olish eksperimenti bilan bir qatorda anketalash, suhbatlar, o'z-o'zini baholash, reyting baholash, shkalalash, ranglash kabi metodlar orqali dastlabki sinov-shakllantirish eksperimentlari o'tkaziladi.

3-bosqich. Tajriba eksperimental bosqichida nazariy va metodik ishlanmalar, yangi darslik o'quv qo'llanmalari, o'qitishning yangi izchil metodlari tekshirib ko'rildi va tegishli aniqliklar kiritiladi.

4-bosqich. Yakunlovchi umumlashtirish bosqichi hisoblanadi. Tadqiqot natijasida olingen natijalar yana bir bor tizimga solinadi, ishlab chiqiladi, kerak bo'lgan hollarda ilmiy-tadqiqot natijasida olingen metodik yo'riqnomalar, xulosalar qaytadan tekshirib ko'rildi yoxud o'quv yurtlari amaliyotida bevosita qo'llab ko'rilib, tegishli xulosalar olinadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Tarbiya jarayonida milliy ong qanday shakllanadi?
2. Tarbiya jarayonining o'ziga xos qanday tomonlari mavjud?
3. Ilmiy pedagogik tadqiqot usulublarining ilmiy manbalarni o'rganishdagi rolini nimada ko'rasiz?
4. Mavzuning qanday ilmiy-tadqiqot usullari mavjud?

Mustaqil ta'limg topshiriqlari:

1. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash fanining mazmuni va fanning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni tahlil qiling.
2. Maktab o'quv rejasining mazmuni va mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslarining o'quv rejadagi o'rnini tahlil qiling.
3. Maktab islohotida mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash vazifalari to'g'risida referat tayyorlash.

II bob. MEHNAT TA'LIMI METODIKASI, KASB TANLASHGA YO'LLASH FANINING DIDAKTIK ASOSLARI

2.1. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash, kasb tanlashga yo'llashning didaktik tamoyillari

Reja:

1. Mehnat ta'limining didaktik tamoyillari.
2. Mehnat ta'limi tamoyillarining umumiy tavsifnomasi.
3. Mehnat ta'limi tamoyillari.

Tayanch iboralar: ta'lim va tarbiya birligi, ta'limning ilmiyliги va politexnik xususiyati, tizimlilik va izchillik, nazarriya va amaliyat birligi, onglilik va faollik, ko'rsatmalilik, yosh individual xususiyatlar, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish.

1. Mehnat ta'limining didaktik tamoyillari. Didaktika xususiy metodikalar bilan bog'langan holda barcha o'quv fanlari uchun umumiy qonun va qoidalarni belgilab beradi, ya'ni tarbiya bilan chambarchas bog'liq ta'lim jarayonini tashkil etishga asos bo'ladigan yetakchi qoidalarni didaktik qoidalarni deyiladi. Bu o'qituvchilarning faoliyatini, o'quvchilarning bilim faoliyatini, xususiyatini belgilaydigan asosiy qoidalarni hisoblanadi.

Didaktik talablar mehnatning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini nazariy jihatdan to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi. Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi didaktikaning xususiy tarmog'i bo'lib, mehnat ta'limining ta'lim-tarbiya nazariyasi, ya'ni maqsadlari, mazmuni, qonunlari tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan fan hisoblanadi. Shu bilan birga u pedagogik texnologiyaning didaktik asosi, uning mehnat, ta'lim-tarbiya, qoida tamoyillariga muvoqiligini belgilaydi.

Mehnat ta'limini didaktik jihatdan to'g'ri bo'lishi uning yuqori samaradorligining zaruriy sharoiti hisoblanadi. Buning uchun zamonaviy mehnat ta'limida didaktikaning ilmiy xulosalaridan ijodiyl foydalaniш talab qilinadi.

Mehnat ta'limida qo'llaniladigan asosiy didaktik tamoyillarni o'rganilar ekan, uning o'zi nimadan iborat ekanini oydinlash-tirish zarur. Didaktika tamoyillari deganda ta'limning yagona didaktik aniq asosga ega tamoyillarining ijtimoiy taraqqiyot ta-

lablariga javob berishi tushuniladi, psixologiyadan olingen tad-qiqot ma'lumotlari ilg'or pedagogika tajribalarini hisobga oladi.

Mehnat ta'limi tamoyillarini bayon qilishda ularni juftlab o'rganish tamoyilini to'g'ri deb hisoblash kerak. Shunday qilinganda mehnat ta'limi didaktikasining ayrim tamoyillari o'rtasidagi muayyan obyektiv mavjud aloqani ko'rsatishga imkoniyat tug'iladi.

Chunonchi, mehnat ta'limining onglilik, izchillik, faollik, ta'lim berishning puxtaligi kabi didaktik tamoyillariga alohida ta'rif berganda, ular o'rtasidagi ta'sir qiladigan aloqani belgilab bo'lmaydi. Aksincha, agar mehnat ta'limining didaktik tamoyillari juft tarzda ularning asosiy qoidalaring birligi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilsa u holda mazkur tamoyillarning tizimi quyidagicha bo'lishi mumkin: mehnat ta'limining ongliligi va faolligi, muntazamligi va abstrakligi o'quv tarbiya maqsadlariga qaratilgan. Unumli mehnat asosida ta'lim berishda mehnat ta'limi o'qituvchisi shuni unutmasligi kerakki, o'quv ustaxonalaridagi amaliy mashg'ulotdagi harakatda yuqorida sanab o'tilgan mehnat tamoyillaridan bitta yoki bir nechta bo'ladi.

2. Mehnat ta'limi tamoyillarining umumiy tavsifnomasi. Mehnat va kasb ta'limi tamoyillari ta'lim berish nazarinyasining boshlang'ich qoidalari bo'lib, ular o'quv ishlarining mazmunini, uning tashkiliy shakllarini va o'qituvchi mehnat darsini tayyorlash va o'tkazish vaqtida amal qilishi lozim bo'lgan metodlarni belgilab beradi.

Mehnat ta'limining asosiy tamoyillari tarbiya maqsadlaridan kelib chiqadi va ta'lim jarayonining qonuniyatlariga asoslanadi. Mehnat – politexnik ta'lim o'quvchilarini tarbiyalash maqsadidan kelib chiqadigan o'ziga xos xususiyatlariga ega.

Mehnat ta'limi tamoyillarini bayon qilishda ularning juftlashib o'rganish tamoyilini to'g'ri hisoblash kerak. Shunday qilinganda, mehnat ta'lim didaktikasining ayrim tamoyillari o'rtasidagi muayyan obyektiv aloqani ko'rsatish imkoniyati tug'iladi. Chunonchi, mehnat ta'limining onglilik, izchillik, faollik kabi ta'lim berishning didaktik tamoyillariga alohida ta'rif berganda ular o'rtasida o'zaro ta'sir qiladigan aloqani belgilab bo'lmaydi. Aksincha, agar mehnat ta'limining tamoyillarini juft tarzda ularning asosiy qoidalari birligi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilsa, u holda mazkur tamoyillarning tizimi quyidagicha bo'lishi mumkin:

— mehnat ta'limining ilmiyligi, bu ta'limning ongliligi va faolligi, muntazamligi va puxtaligi;

— mehnat ta'limining ko'rgazmaliligi va abstraktligi o'quv tarbiya maqsadlariga qaratilgan unumli mehnat asosida ta'lif berish, mehnat ta'limining tushunarliligi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi shuni unutmasligi kerakki, o'quv ustaxonalardagi har qanday amaliy mashg'ulotda yuqorida sanab o'tilgan mehnat ta'limi tamoyillaridan bitta yoki ikkitasi emas balki o'quvchilarga o'quv materiallarini sifatli va to'la yetkazib berish imkonini beradigan didaktikaning butun tizimiga amal qilinadi. Mehnat ta'limi o'qituvchisining didaktik tamoyillardan mohirona foydalana bilishi ularni bir-biriga to'g'ri bog'lab olib borishida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi faqat o'qitishning qonuniyatlarini bilishigina emas, balki ularni amalga oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratib bera olishi ham muhim. Bunga ayrim yetakchi boshlang'ich qonuniyatlarni chuqur tushunish va ularni o'quv jarayonida qo'llash orqali erishiladi. Bunday qonuniyatlar didaktikada ta'lif tamoyillari yoki didaktik tamoyillar deb nom olgan.

Mehnat ta'limining quyidagi tamoyillari mavjud:

1. Ta'lif va tarbiya birligi.
2. Ta'limning ilmiyligi va politexnik xususiyatga egaligi.
3. Ta'limda tizimlilik va izchillik.
4. Nazariya va amaliyot birligi.
5. Yosh individual xususiyatlarini hisobga olish.
6. Onglilik va faollik.
8. Ta'limda ko'rsatmalilik.
9. Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkamligi va puxtaligi.

3. Mehnat ta'limi tamoyillari. *Ta'lif va tarbiya birligi* – ta'lif jarayonida o'quvchilarni tarbiyalash. Masalan: gazlamadan biror buyumni bichishni o'rgatishda, buyumni bichish bo'yicha bilimlar, ko'nikmalar va malakalar hosil qilish bilan birga gazlamadan tejamkorlik bilan foydalanishni o'rgatish bilan iqtisodiy tarbiya shakllanadi. Yoki tikuv buyumiga moslab bezaklar tanlab, sifatlari tikishni o'rgatish bilan o'quvchilarda badiiy tarbiya, tikuv mashinasida o'tirib tikayotganda tikuv mashinasiga qarash, sozlangan mashina bilan ishslash, ish kiyimiga qarash, ish jo'yini batartib bo'lishiga e'tibor berish orqali axloqiy tarbiya shakllanadi. Kasb

ta'limi jarayonida o'tilayotgan katta va kichik mavzularning maz-munidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to'g'ri belgilash va uni ta'lim bilan birga bir butunlikda amalga oshirishni ta'minlash juda muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Mehnat ta'limining ilmiyligi, politexnik xususiyatlari. O'quv-chilar mehnat ta'limi darslarida olgan texnik bilimlari, mehnat ko'nikmalari va malakalari tom ma'nosi bilan ilmiy va politexnik xususiyatga ega bo'lish kerak.

Ilmiylik tamoyili o'quvchilarga amalda sinalgan, ilmiy jihat-dan to'g'ri, fanning eng yaxshi yutuqlarini hisobga olgan texnik ma'lumotlarni berishni ko'zda tutadi. Demak, ilmiylik tamoyilini amalga oshirish o'quvchilarga ilmiy asoslangan, tajribada sinalgan, fanning eng yangi yutuqlarini hisobga olgan texnikaviy ma'lumotlarni yetkazishdir. Mehnat ta'limi o'qituvchisi mashg'ulotlarni olib borish jarayonida beriladigan ma'lumotlarda sof ilmiy terminlardan foydalanishi, fanda qabul qilingan ramziy belgilar, formulalar, o'lchamlarni qo'llashi lozim. Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilar har xil materiallarga ishlov berish, andaza tayyorlash, modellashdirish ishlarini bajaradilar. Bunda o'quvchilarda faqat ko'nikma va malaka hosil bo'lib qolmay, balki ularda o'rganayotgan mehnat jarayonlarining ilmiy asoslari haqida tushunchalar hosil bo'ladi. Masalan: biror buyumni modellasshtirish uchun o'quvchilar eng avval modellash elementlari bo'yicha ilmiy ma'lumotga ega bo'lishi kerak.

Mazkur ilmiylik tamoyili talablariga binoan o'quvchilar mehnat darslarida stanoklar, uskunalar, mexanizmlar, mashinalar, asboblar, moslamalarning yangi namunalari bilan, ishlab chiqarishda ishlatiladigan materiallarning eng yangi markalari bilan, ilg'or texnologik jarayonlar va mehnatni ilmiy tashkil qilish bilan tanishtirilishi kerak. Agar buni maktab ustaxonalarida amalga oshirib bo'lmasa, u holda ishlab chiqarish korxonalariga bir necha marta ekskursiyalar uyushtirib bajarish mumkin. Mehnat ta'limi o'quvchisi ilmiylik tamoyili talablariga amal qilib, o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlarda faqat ilmiy atamalardan, fanda qabul qilingan ramziy belgilar, formulalar, o'lchash va hokazolardan foydalanishi kerak. Maktab ustaxonalaridagi mehnat ta'limi, uning mazmuni, ya'ni mashina, mexanizm, asboblarning tuzilish va ishlash tamoyillariga oid texnik ma'lumotlar, shuningdek, amaliy topshiriqlarni bajarish texnologik jarayonlari,

mehnat usullari umumiyligi va xususiylikning birligi sifatida qarab chiqilganda ilmiy texnologik, politexnik xususiyat kasb etadi. Shu bilan birga mehnat jarayonining boshqa texnik-texnologik obyektlari va elementlariga xos umumiy qonuniyatlar belgilanshi, ularning ilmiy-texnik va ruhiy-fiziologik asosi tushuntirib berilishi zarur. Chunonchi, metall qirqish stanoklari va yog'och ishlash asboblarini o'rganish vaqtida, tikuv mashinasida ishlashda ayni bir xil uzellar, uzatish mexanizmlari, qirqish asboblarining tuzilishi va vazifasi o'rganiladi. Yog'och (rejalash, iskanlash, arralash, randalash) va metallarga ishlov berish (rejalash, qirqib tushurish, kesish, arralash va hokazo), xamir tayyorlash, go'shtni qovurish, dimlash paytidagi mehnat jarayonlarini o'rganishda mehnat usullari, mehnatni tashkil qilish, asboblar, konstruksiyalar kabilarda ko'pgina umumiy tomonlar mavjud. Bundan tashqari mehnat ta'limi o'qituvchisi o'z darsida o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha (tabiatshunoslik, fizika, kimyo, matematika, chizmachilik va hokazolardan) ongli bilimlaridan bajariladigan obyektlarning (texnikaviy qurilma, model, maket va boshqalarning) tuzilishi, ishlash tamoyili va hokazolarda, tayyorlash texnologiyasini asoslashda foydalanishi kerak.

Demak, politexnik tamoyil shu bilan ham xarakterlanadiki, o'quvchilarga mavzuga mos ravishda ishlab chiqarish sohalari-dagi avtomatlar, moslamalar, ishlab chiqarish jarayonlari haqidagi tushunchalar berib borishni bildiradi. Masalan: tikuvchilik korxonalarida yengil ko'yylaklarni tikishda yoqaga ishlov berish, cho'ntak, burmalarga ishlov berish, shuningdek, issiqlik ishlovi berish; yorib dazmollash, presslash, butab dazmollash tushunchalari o'quvchilar ongiga singdirib boriladi. Demak, o'qituvchi ishlab chiqarish sohasidagi yangiliklarni mehnat ta'limi darslari bilan bog'lab olib boradi, natijada o'qituvchi texnika va fandagi yangiliklarni o'quvchilarga yetkazadi.

Ta'linda tizimlilik va izchillik. Tizimlilik va izchillik ta'linda ma'lum mantiqiy izchillik bo'lishi zarurligini bildiradi, chunki bilimlar vorislik xarakteriga ega. Ular o'zidan oldingi material-larga asoslanadi. Bilim olishdagi tizimlilik nazariya va amaliyot bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil usullarni qo'llashni taqazo etadi. Chunonchi:

a) olinayotgan bilim bilan o'quvchilarning shaxsiy tajribasi va kuzatishlarining aloqasi;

- b) nazariya bilan amaliyotning aloqasi (korxonalarga ekskursiya);
- d) turli masalalarni hal qilish, nazariy hamda amaliy xarakterdagi vazifalarni bajarish, texnologik hujjatlarni ishlab chiqarish;
- e) korxona, qurilish va qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish amaliyoti.

Bilimlarni tizimli bayon qilish o‘quv materialini qismlarga bo‘lib o‘rganish, ya’ni materialni o‘tilgan material bilan bog‘lash, asosiyalarini ajratish, o‘quvchilarni tahlil qilishga o‘rgatish, o‘rganilganlarni tizimga solib umumlashtirish demakdir. Bilimlarni mavzular va fanlar bo‘yicha tizimga solish uchun katta-katta bo‘limlar va alohida fanlar bo‘yicha takrorlash, o‘quvchilar bilimi, malaka va ko‘nikmalarini butun o‘quv yili davomida muntazam ravishda hisobga olib borish zarur. Har bir o‘quv fani ichidagi aloqalar tizimi bilan bir qatorda quyidagi hollarda foydalaniлади-
ган fanlararo aloqalarni ta’minalash lozim.

Material bayonidagi, malaka va ko‘nikmalarni egallashdagi izchillik o‘quv fani hamda o‘quv jarayonining mantig‘idan kelib chiqadi. Agar o‘quvchilar bilim, malaka va ko‘nikmalarni qat‘iy izchillik asosida egallasalar ulardan oson va yengil foydalana biladilar, unutganlarini qayta esga tushira oladilar. O‘quvchilarga ishlab chiqarish ta’limi berish jarayonida o‘rganilayotganlarni tizimlashtirish, ya’ni o‘rganilgan jarayonlar, ish turlari o‘rtasida zaruriy aloqa o‘rnatish lozim.

Demak, fan dasturidagi materiallarni muntazam bayon qilish uning bo‘lim va mavzularini muayyan izchillikda o‘rganish, yangi materialni o‘tilgan darslar bilan bog‘lash, asosiy qoidalarni alohida ta’kidlash, o‘quvchilarni faktlarni tahlil qilish va o‘zlashtirilgan bilimlarni o‘zlashtirishga o‘rgatish demakdir. Masalan, kesish geometriyasini va kesish jarayonining keskich burchaklariga bog‘liqligini o‘rganish o‘quvchilar uchun uncha qiyin bo‘lmaydi. Chunki ular kesish vaqtida qirindi hosil bo‘lish jarayoni bilan, zubilo, iskana, dastarra tasmasi, tunuka qaychi va hokazo asboblarning geometriyasi bilan avval tanishganlar.

Nazariya va amaliyot birligi. Mehnat ta’limining tarbiyaviy mohiyati tarbiyaviy vazifalarni o‘qitishning mazmuni, shuningdek o‘quv ishlarini tashkiliy shakl va metodlari orqali amalgalashishdan iborat. O‘quvchilarning mehnat ta’limi darslarini o‘zlashtirishi mehnatga oid turli texnik ma’lumotlar asoslarini

o'zlashtirishlaridan boshlanadi. Bu ma'lumotlar o'quvchilarga mehnat ta'limi darsining boshlanishidagi kirish yo'riqnomalari-da hamda joriy yo'riqnomalar vaqtida tushuntiriladi, o'quvchilar olgan bilimlari asosida mehnat ko'nikmalari, malakalarini mu-vaffaqiyat bilan egallaydilar, amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Bu bilan bilish nazariyasining muhim qoidalaridan biri naza-riya bilan amaliyotning aloqasi amalga oshiriladi. Masalan, dasturdagi «Tokarlik vint qirqish stanogida ishlash» mavzusini olaylik. O'quvchi agar tokarlik vint qirqish stanogining tuzilishi va ishlash tamoyilini bilsa, uni vint qirqishga sozlashni, ishlov berilayotgan materialning va qirqish asboblari yasalgan mate-rialning yo'nishini belgilaydi. O'qituvchining yuksak g'oyaviy-siyosiy sifatlari va shaxsiy o'rnagi ishlab chiqarish ta'limga jarayoni tizimini tarbiyalash va ta'limga ishlari rejimiga rioya qilishi lozim.

Mehnat darslarida o'quvchilarga tushuntiriladigan texnik ma'-lumotlar, ularning muvaffaqiyati, ikkinchi tomondan esa egallan-gan amaliy tajriba dasturlari navbatdagi texnika ma'lumotlarini yaxshi o'zlashtirib olishlariga yordam beradi.

Har bir taraqqiyot bosqichiga o'tishning sharti faqat mehnat unumdorligini muntazam oshirish va moddiy ne'matlar mo'l-ko'lligini yaratishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki yosh avlodda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalashdan ham iborat, bu eng av-valo jamiyat manfaatlari yo'lida qilinadigan mehnat jarayonida shakllanadi.

Mehnat ta'limi darslari o'quvchilarni mehnat vositasida axlo-qiy tarbiyalash uchun eng munosib obyekt hisoblanadi. Chunon-chi otaliq tashkilotining ishlab chiqarish buyurtmalarini o'quv ustaxonalarida o'quvchilar kuchi bilan bajarish ularda topshiril-gan ish uchun mas'uliyat va iftixor hissini tarbiyalashga yordam beradi. Bunday buyurtmalarни bajarish natijasida o'quvchilarda bir-birlariga o'zaro o'rtoqlik, yordam ko'rsatish, umumiyligi mehnat natijalari uchun jamoa va shaxsiy ma'lumot, topshiriqlari bajarishga tashabbus va ijodkorlik bilan yondashish kabi muhim axloqiy fazilatlar shakllanadi.

Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarda asbob-uskunalar, materiallar, ustaxona binolariga, o'quv vaqtiga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish hissi tarbiyalanadi. O'quv ustaxonalaridagi mehnat madaniyati – ish o'rnini tashkil etish va o'quv mehnat

mashg‘ulotlarini to‘g‘ri rejalashtirish, mehnat ta’lim darslarini qo‘l asboblari bilan bir qatorda turli moslamalar bilan ta’minalash ham katta ahamiyatga ega, chunki ular faqat o‘quvchilarning ish sifatini yaxshilab qolmasdan, ayni vaqtida mehnat unumdarligini ham oshiradi. O‘qituvchining mehnat usullarni ko‘rsatish vaqtidagi shaxsiy namunasi, uning umumiyl madaniyati o‘quvchilar uchun kuchli tarbiyaviy vosita bo‘lib hisoblanadi.

Mehnat ta’limining tarbiyaviy xususiyati shundaki, mehnat tarbiyaviy vazifalarini o‘qitishning mazmuni, shuningdek, o‘quv ishlarini amalga oshirishdan iborat. Har bir taraqqiyot bosqichiga o‘tishning sharti faqat mehnat unumdarligini muntazam oshirish va moddiy ne’matlar mo‘l-ko‘lligini yaratishdan iborat bo‘lib qolmasdan, balki yosh avlodda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalashdan iborat. Bu eng avvalo jamiyat manfaatlari yo‘lida qilinadigan mehnat jarayonida shakllanadi. Mehnat ta’limi darslari o‘quvchilarni mehnat vositasida axloqiy tarbiyalash uchun eng munosib obyekt hisoblanadi.

Demak, o‘quvchi nazariy bilimga ega bo‘lgandan so‘ng, bilmalarni mustahkamlash uchun amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish davom ettiriladi. Nazariyani amaliyot bilan bog‘lashning har xil shakllaridan foydalanish orqali biz o‘quvchilardagi bilim sifatini oshirishga erishamiz.

Yosh individual xususiyatlarini hisobga olish. O‘qitishning mazmuni ta’lim metodlariga mos kelishi, shuningdek o‘quvchilarning aqliy, jismoniy va yosh xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Bu talablar o‘quv materiallarini qismlarga to‘g‘ri taqsimlash (bajarishga kuch yetarli bo‘lishi, oddiydan murakkabga qarab borishni ta’minalash, o‘qitishning turli metodlaridan foydalanish vaqtining), obyektiv me’yorlarini belgilash, o‘quvchilarning muvaffaqiyatli o‘qishini ta’minalash maqsadida individual xususiyatlarini hamda qiziqishlarini o‘rganish yo‘li bilan erishiladi.

O‘quvchilarning yosh individual xususiyatlarini o‘rganish amaliy ish jarayonida o‘quvchilarning ulg‘ayishlariga yordam beradi (yomon tomonlarini yo‘qotishga harakat qiladi, yaxshi tomonlarini tarbiyalaydi).

Demak, mehnat ta’limi bo‘yicha o‘quv materialining mazmuni fan va texnika taraqqiyotining hozirgi darajasiga mos ravishda o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini ham nazarda tutishi kerak.

Dars mavzulari o'quvchiga mos va tushunarli bo'lishi uchun:

a) o'tilayotgan mavzuning ma'nosи va hajmi, amaliy mashg'ulotlari o'quvchilar tayyorgarligiga, jismoniy rivojlanganligiga va yoshiga mos bo'lishi kerak;

b) mavzular soddadan murakkablashib borishi kerak, shuningdek, o'quvchilar bilim doirasini yangiliklar bilan to'ldirib borishi zarur;

c) ayrim o'quvchilarga individual yondashish kerak, chunki o'quvchilarning ayrimlari yangi mavzuni oson tushunsa, ayrimlari qiyinchilik bilan tushunadilar;

d) ko'rgazma qurollaridan to'g'ri va o'rinni foydalanish.

Mehnat ta'limali onglilik va faollik. Mazkur tamoyillar mehnat ta'limalining dasturiga ko'ra o'rganilayotgan materialni o'quvchilarga ongli ravishda, ijodiy o'zlashtiriladigan qilib tashkil etilishini ko'zda tutadi. Mehnat ta'limalining bunday o'tilishiga o'quvchilar dars vaqtida yuksak darajada faollik ko'rsatganlaridagina erishish mumkin.

Texnik-teknologik bilimlar va mehnat ko'nikmalarini ongli ravishda o'zlashtirish mazkur tushunchalar zaminida yotgan ichki murakkab bog'lanishni anglash, o'rganilayotgan tushuncha va o'zlashtirilayotgan mehnat jarayonlarining eng asosiy muhim jihatlarini farqlay bilishda namoyon bo'ladi. Mehnat ta'limaliga tabbiqan aytganda, bu o'quvchilar texnik bilimlar va o'rganilayotgan ishni, ish jarayonidagi harakat usullaridan tortib to mehnat jarayonigacha ongli ravishda o'zlashtirishlarida va keyinchalik olin-gan bilimlarni, mehnat va hunar usullarini o'qish davrining har bir bosqichida takomillashtirish, o'zlashtirilgan bilimlar va bajarilayotgan mehnat topshiriqlarining sifatini nazorat qilib borish va hokazolarda ifodalanadi.

Mehnat ta'limi mazmunini anglashi yoki tushunarli bo'lishi bu o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarish vaqtida zarur bo'lgan ilmiy, texnik, tashkiliy-iqtisodiy asoslarni: stanok, asbob-uskuna, moslama, materiallardan oqilona foydalanishi, ishslash rejimi hamda nazorat usulini to'g'ri tanlashni bilib olish demakdir. Masalan, cho'yan yoki po'latni qirqish vaqtida zubilaning o'tkirlanish burchagini nega 60° dan kam olish mumkin emas, uglerodli po'lat qizdirib so'ng, sovitlganda uning tarkibida qanday jarayonlar ro'y beradi. Metallarni qirqish vaqtida nima sababdan bolg'a dastasini uning metall qismiga yaqin joyidan zu-

bilani chap qo'l bilan qattiq qisib ushlash tavsiya etilmaydi, nima sababdan yo'nish vaqtida qirqish tezligini, chuqurligini va surishni taxminan oshirish mumkin emas kabi savollarga o'quvchilarning to'g'ri javob berishlariga erishish kerak.

Mehnat darslaridagi o'quvchilarning yuksak faolligiga har bir mashg'ulotning maqsad va vazifalari, shuningdek, uning mazmunini aniq bayon etish, o'quvchilarga ijodiy tarzdagi mehnat topshiriqlarini berish, ta'limning eng samarali metodlaridan foydalanish natijasidagina erishish mumkin. Chunonchi, mehnat ta'limi darslarida zamonaviy texnika modelini ishslash jarayonida o'quvchilarga modelning alohida uzel va detallarini, konstruksiyalash hamda tayyorlash, model bilan uzellar o'rtasida kinematik aloqani ta'minlash va hokazolar yuzasidan ijodiy tarzdagi topshiriqlar beriladi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarda mehnat ta'limi darsiga qiziqish, maqsadga erishish yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etishda faoliyat ko'rsatish istagini uyg'otadi. Shunday qilib, mehnat ta'limida onglilik va faoliyat tamoyili o'quvchilarga mustaqil ijodiy fikrlashni atroflicha singdirishni taqazo qiladi.

O'qitish o'quvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligi tarbiyalanadigan tarzda olib borilishi kerak. Bu xislatlar o'quv mashg'ulotlaridan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni oddiy bayon qilib berilishi, o'quv materialining ongli o'zlashtirilishi, nazariy va ishlab chiqarish ta'limining bog'liqlikda olib borilishi natijasida vujudga keladi. Mazkur tamoyillar mehnat va hunar ta'limining dasturiga ko'ra o'rganilayotgan materiallarni o'quvchilar ongli ravishda ijodiy o'zlashtiriladigan qilib tashkil etilishini ko'zda tutadi. Mehnat va kasb ta'limining bunday bo'lishiga o'quvchilar dars vaqtida yuksak darajada faoliyat ko'rsatganlaridagina erishish mumkin.

Mehnat darslarida o'quvchilarning yuksak faolligiga har bir mashg'ulotning maqsad va vazifalarini, shuningdek, uning mazmunini aniq bayon etish, o'quvchilarga ijodiy tarzdagi mehnat topshiriqlarini berish, ta'limning eng samarali metodlaridan foydalanish natijasida erishish mumkin. Chunonchi, mehnat va kasb ta'limi darslarida zamonaviy texnika modelini ishlatish jarayonida o'quvchilarga modelning alohida uzellar va detallarini konstruksiyalash hamda tayyorlash, modellar bilan uzellar o'rtasida kinematik aloqani ta'minlash va hokazolar yuzasidan ijodiy tarzdagi topshiriqlar beriladi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarda

mehnat ta’limi darsiga qiziqish va o‘z maqsadiga erishish yo‘lida uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etishda faollik ko‘rsatish istagini uyg‘otadi.

Shunday qilib, mehnat va hunar ta’limida onglilik va faoliy tamoyili o‘quvchilarga mustaqil ijodiy fikrlashni atroflicha sindirishni taqazo qiladi.

Mehnat ta’limining ko‘rgazmaliligi. Mazkur tamoyil mehnatga doir o‘quv materialini o‘quvchilar o‘rganilayotgan hodisa va jarayonni jonli idrok etish asosida o‘zlashtirishlari bilan bir qatorda, ularda abstrakt tafakkurni shakllantirishni ham ko‘zda tutadi.

Mehnat ta’limi darslarida ko‘rgazmali vositalar sifatida ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyalar uyushtirish, mehnat usullarini plakatlar, sxemalar, jadvallar, namuna buyumlarni ko‘rsatish, o‘quv kinofilmari, diafilmlar, diapozitivlar, informatika, EHM va hokazolarni namoyish qilish, mehnat ta’limida ko‘rgazmali vositalardan to‘g‘ri foydalanish o‘quvchilarning texnik bilimlarni puxta o‘zlashtirib olishlariga, ularda mehnat ko‘nikmalari va malakalarining hosil bo‘lishiga yordam beradi.

Ko‘rgazmalilik tushunchasi faqat o‘z ko‘zi bilan ko‘rish mumkin bo‘lgan vositalarnigina emas balki eshitish, sezish va idrok etishning boshqa turlarini ham o‘z ichiga oladi. Ko‘rgazmalilik o‘quvchilarning o‘rganilayotgan o‘quv materialiga qiziqishini oshiradi, ana shu obyektga e’tiborni jalb qiladi, kuzatuvchanlik va faol idrok etish sifatlarini rivojlantiradi. Masalan, o‘quvchilarga mehnat usullari va jarayonlarini tushuntirish vaqtida mehnat ta’limi o‘qituvchisi muayyan mehnat usullarini ko‘rsatishda rangli plakatlardan foydalanibgina qolmasdan, balki ish harakatlari va jarayonlarini bajarishni o‘zi namoyish qilib ko‘rsatadi. Bunda u o‘quvchilarning e’tiborini ish joyida gavdani qanday tutish va asboblarni qanday ushslash kerakligi, harakatlarni bir maqsadga qaratish kabilarga jalb qiladi.

Biroq mehnat ta’limi darslarida ko‘rgazmali vositalardan foydalanishga katta ahamiyat berib, unga haddan tashqari o‘rin ajratish foyda o‘rniga zarar keltirishini ham unutmaslik kerak. Shu sababli ko‘rgazmali vositalardan foydalanganda bir qator metodik talablarga rioya qilish zarur.

1. Ko‘rgazmali qurollar darsdagagi o‘quv materiali mazmuniga mos kelish kerak.

2. Darsda foydalaniladigan barcha ko'rgazmali qurollarni birdaniga osib, ko'rsatib qo'yish yaramaydi. Chunki, bu o'quvchilar diqqat-e'tiborini chalg'ishiga olib kelishi mumkin.

3. Darsni ko'rgazmali qurollar bilan haddan tashqari to'ldirib yubormaslik kerak.

4. Ko'rgazmali qurolni ko'rsatish vaqtida mehnat o'qituvchisi o'quvchilarning bu qurolni idrok etish jarayonini boshqarib borishi lozim.

Biroq o'quvchilarning ko'rgazmali qurollar yordamida sezib, idrok etishi bilishning boshlang'ich bosqichidir, xolos. Bilish jarayonining navbatdag'i bosqichi abstrakt tafakkurdir. Bu mehnat ta'llimi darslarida o'qituvchining yangi ish jarayonini tushuntiriши va mehnat usullarini ko'rsatishi o'quvchilarning faol ish yuritishi bilan olib borilishida namoyon bo'ladi.

Garchi o'quvchilarning mehnatga doir o'quv materialini o'rganishda aniq idrok etishi ustunlik qilsa ham, har xil yoshadagi abstrakt tafakkur elementlarini ham tarbiyalashni unutmaslik kerak. Bunda maxsus ishlab chiqilgan konstruktorlik texnologik tarzdagi topshiriq o'quvchilardan hisob-kitoblar qilish, detallar eskitilarini, ularni tayyorlashning texnologik jarayonlarini tuzish-nigina emas, balki konstruktorlik yechimlarini amalga oshirishni ham talab qiladi.

Shunday qilib mehnat ta'llimida aniq idrok etish bilan abstrakt tafakkur o'zaro bog'lanishda ta'sir ko'rsatadi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkamligi va puxtaligi. Yuqorida tilga olingen tamoyillar unumli mehnat asosida va unumli mehnat jarayonida mehnat ta'llimini berishni, ya'ni o'quv ustaxonalarida ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashini ko'zda tutadi. Biroq unumli mehnat va uning obyektlari o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi, bajariladigan ishlar ularning qo'lidan keladigan bo'lishi kerak.

Mehnat ta'llimi hamda unumli mehnatning bir butunligidan ta'llimning tarbiyaviy xususiyatga ega ekanligidan iborat didaktik tamoyillar kelib chiqadi. Zero, unumli mehnat o'quvchilarning texnik bilimlarini o'zlashtirish hamda ularning har tomonlama rivojlanishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Bu o'rinda quyidagi so'zlarni eslatib o'tish o'rinnlidir: yosh avlodni o'qitish bilan baravar unumli mehnatga o'rgatmasdan turib kelgusi jamiyatning oliv maqsadini tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki unumli mehnatsiz o'qitish va

bilim olmasdan turib unumli mehnat qilish ham texnika va fanning hozirgi darajasi talab qilgan yuksaklikka yetisha olmagan bo'lar edi.

Mehnat ta'limi o'quvchilarni moddiy boyliklar yaratishda qatnashishi uchun shart-sharoit tug'diradi. Chunonchi, ko'pgina maktablarda o'quv ustaxonalari orqali korxonalar; otaliqu olin-gan bolalar bog'chalariga o'yinchoqlar va asboblar tayyorlashda yordam ko'rsatilmoqueqda, ta'lim-tarbiya maqsadlarida va xo'jalik ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan turli ashylarni tayyorlashmoqda. Shu bilan birga, mehnat ta'limi darslari o'quvchilarga unumli ijodiy mehnatning yaratuvchanlik rolini chuqurroq tushunish va his etishlariga yordam beradi.

Biroq, o'quvchilarning unumli mehnati mehnat ta'limi hamda tarbiyasining asosi sifatida ta'lim-tarbiya vazifalariga bo'ysundirilishi lozimligini unutmaslik shart. Binobarin o'quvchilar tomonidan tayyorlanadigan mehnat obyektlari mehnat ta'limi dasturi talablariga to'la javob berishi kerak. Ularni tayyorlash esa o'quvchilarning qo'lidan keladigan bo'lishi, ya'ni ularning rivojlanish darajasiga, jismoniy kuch va bilim imkoniyatlariga tushunarli bo'lishini osonlik deb tushunmaslik kerak. Oson o'quv materialini o'quvchilar qiynalmasdan o'zlashtiradilar, bu esa ularning aqliy faolligi va ijodiy mustaqilligining rivojlanishiga unchalik yordam bermaydi.

Mehnat ta'limining tushunarli bo'lish tamoyili talablarini hisobga olib bajarish o'quvchilarning qo'lidan keladigan ishga mos vaqt me'yori belgilash juda muhimdir.

Mehnat ta'limining tushunarli bo'lishi foydalanayotgan ta'lim metodlariga, ko'rgazmali vositalarga, darsning material bilan qanday ta'minlanganligiga, o'qituvchining darsga qanday tayyorlanganligiga va hokazolarga bog'liq bo'ladi. Bunda o'quvchilar faqatgina o'tilayotgan darsni o'zlashtirib qolmay, oldingi o'tilgan darslar yuzasidan malaka va ko'nikmalarni tamoyillashtiradilar, kerak bo'lib qolganda esa ishga tushirib amaliyat mobaynida qo'llaydilar. Ongli va puxta bilimni o'zlashtirish maqsadida o'tilgan materiallarni tizimli ravishda takrorlab borish yangi materiallarni mustahkamlash choralarini ko'rish zarurligini nazarda tutadi. Bunga esa tushunarli bayon etish, mashqlar o'tkazish, ilgari o'tilganlarni o'z o'rnida takrorlash, o'quv materialini ohistalik bilan murakkablashtira borish, o'qituvchilarining bilimlarini, hisobga olib borish yo'li bilan erishiladi. O'quvchilar mehnatga

doir texnik ma'lumotlarni esdan chiqarib qo'ymasliklari uchun o'qituvchi o'tilgan materiallarni muntazam ravishda so'rab turishi kerak. O'quvchilar texnik bilimlarni zarur darajada puxta o'zlashtirishi uchun o'qituvchi yangi materialni o'rgatish davomida o'tilgan mavzuni mustahkamlab borishi lozim. Darsning ana shu tomoni o'qituvchiga o'quvchilarning mazkur mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Binobarin mehnat ta'limi dastur talablariga to'la javob berish kerak, ularni tayyorlash esa o'quvchilarning qo'lidan keladigan bo'lishi, ya'ni ularning rivojlanish darajasiga, jismoniy kuchi va bilim imkoniyatlariga to'g'ri kelishi zarur.

Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning mustahkam va puxta bo'lishi shunday o'quv jarayonini taqazo etadiki, unda o'quvchilar o'zlarining bo'lajak faoliyatları uchun zarur bo'ladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni iloji boricha asosliroq egallaydilar: ularni xotirada qayta tiklay oladilar hamda nazariy va amaliy vazifalarini hal etishda foydalananadilar.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Didaktik talablar mehnatning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini qanday bajarilishini ta'minlaydi?
2. Mehnat ta'limida qanday asosiy didaktik tamoyillarini qo'llash mumkin?
3. Mehnat ta'limi tamoyillarining mazmun-mohiyatini izohlab bering.
4. Mehnat ta'limining qanday tamoyillari mavjud?
5. Mehnat ta'limining ta'lim va tarbiya birligi tamoyilida nima sodir bo'ladi?
6. Mehnat ta'limining ilmiyligini, politexnik tamoyilini darsning qaysi bosqichlarida ko'rish mumkin?
7. Ta'limda tizimlilik va izchillik tamoyilini izohlab bering.
8. Mehnat ta'limi jarayonida nima uchun nazariya va amaliyot birligi tamoyiliga rioya qilish kerak?
9. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning yosh individual xususiyatlarini hisobga olishda ta'lim mazmunining qaysi jihatlariga e'tibor qaratiladi?
10. Texnik-tehnologik bilimlar va mehnat ko'nikmalarini ongli ravishda o'zlashtirishda ta'limning qaysi tamoyili nazarda tutiladi?

11. Mehnat ta'limining ko'rgazmaliligi tamoyilida o'quvchilar o'rganilayotgan hodisani idrok etishiga qanday sharoit yaratiladi?

12. Ko'rgazmali vositalardan foydalanganda qanday metodik talablarga rioya qilish zarur?

2.2. Mehnat jarayonining tahlili va mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashda didaktik tushunchalar

Reja:

1. Mehnat ta'limi darslarini kuzatish va tahlil qilish.
2. Mehnat ta'limida didaktik tushunchalar.

Tayanch iboralar: darsni kuzatish, tahlil qilish, didaktika, bilim, ko'nikma, malaka, kasb tanlash, qobiliyat, maqsad, o'rgatish, o'rganish, ma'lumot, ta'lim.

1. Mehnat ta'limi darslarini kuzatish va tahlil qilish. Davlat ta'lim standartlari talablariga javob beruvchi zamонавија mutaxassislarni tayyorlash bevosita o'qituvchining ilmiy-metodik potensiali, kasbiy mahorati, uning mas'uliyati va tashabbuskorligiga bog'liq.

O'qituvchining mashg'ulotlarni tashkillashtirishdagi ko'п qirrali faoliyatini bir yoki ikki ko'rsatkich yordamida taysiflab bo'lmaydi. O'quv ishlari o'qituvchining pedagogik mahoratini taysiflovchi asosiy ko'rsatkich sanaladi. O'z navbatida o'qituvchining pedagogik mahorati o'tilayotgan mashg'ulotlar si-fati bilan belgilanadi. Bu o'rinda mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash mashg'ulotlarini tashkillashtirish metodlarini to'g'ri joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llashda olib boriladigan mashg'ulotlarni tahlil qilish o'qituvchining pedagogik faoliyatini va uning ilg'or tajribalarini o'rganish va ommalashtirishning muhim shakllaridan biri sanaladi.

Bunday mashg'ulotlarni kuzatishga bir qancha talablar qo'yiladi:

- 1) kuzatilgan mashg'ulotdan asosiy maqsad;
- 2) o'qituvchining ogohlantirishi;
- 3) fan xususiyatlarini hisobga olinishi;
- 4) amaliy mashg'ulotning oxirigacha kuzatilishi;

5) kuzatilgan mashg‘ulotning tahlil etilishi.

Mehnat ta’limi va kasb tanlashga yo’llashda olib boriladigan mashg‘ulotlar turli maqsatlarda kuzatilishi mumkin. Ko‘p yillik ish tajribalarini o‘rganish maqsadida, yosh o‘qituvchiga metodik yordam ko‘rsatish, o‘quvchilarining bilimlarini aniqlash va baholash bo‘yicha o‘qituvchining ish uslubini o‘rganish va hokazo. Mashg‘ulotni kuzatish uchun avvaldan tayyorgarlik ko‘riladi. O‘qituvchi ogohlantiriladi. Kuzatuvchi esa mashg‘ulot ishlanmasi bilan tanishadi, mashg‘ulotning maqsadini aniqlaydi va kuzatish uchun bir qancha topshiriq hamda savollar tuzadi.

Mashg‘ulotlarni kuzatish natijasida o‘qituvchining mashg‘ulotlarni tashkil qilishdagi faoliyati quyidagi 4 guruh ko‘rsatkichlari asosida samarali baholanishi mumkin:

1. Mashg‘ulotning tashkiliy jihatdan talabga javob berish darajasi.
2. Mashg‘ulot uchun tanlangan ta’lim metodlarining talabga javob berish darajasi.
3. Og‘zaki ta’lim metodlaridan foydalanish.
4. Amaliy ta’lim metodlarini qo’llash.

Ta’lim metodi tushunchasining mohiyati o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro birligida faoliyati aniq maqsadli, boshqariluvchi jarayon ekanligini ta’kidlaydi. Shu sababli birinchi ko‘rsatkich sifatida metodlarga oid qayd etilgan ikki asosiy tushuncha: maqsadning aniq belgilanishi va boshqariluvchanlikni ta’minlash uchun avvalo mashg‘ulotning tashkiliy jihatdan talabga javob berish darajasi kiritildi.

Mehnat ta’limi va kasb tanlashga yo’llashda olib boriladigan mashg‘ulotlarda turli metodlarni qo’llagan holda tashkillashtiriladigan mashg‘ulot bo‘lgani uchun ikkinchi ko‘rsatkich sifatida bu metodlarning to‘g‘ri tanlanganligi olindi. Mos ravishda tanlab olingan metodlarsiz o‘qitish jarayonining maqsad va vazifalari hal etishga yoki o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialining o‘zlashtirilishiga erishib bo‘lmaydi.

Quyida sanab o‘tilgan ko‘rsatkichlar mazmuniga to‘xtalib o‘tiladi:

1. Mashg‘ulotning tashkiliy jihatdan talabga javob berish darajasi quyidagi ko‘rsatkichlar yordamida o‘rnataliladi:
 - 1.1. Mashg‘ulotning o‘z vaqtida boshlanishi. Mashg‘ulotga o‘z vaqtida kelish va mashg‘ulotning o‘z vaqtida boshlanishi

o'qituvchi intizomini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi.

1.2. Mashg'ulot xonasining darsga tayyorgarlik darjasи. Toza, ozoda va shinam bo'lgan sinf xonasi mashg'ulotning maroqli o'tilishini ta'minlaydigan omillardan biri.

1.3. Sinf jurnalini yuritishi. Har bir o'qituvchi sinf jurnalida davomatni, o'tilayotgan mashg'ulot mavzusini, uyga beriladigan vazifa va topshiriqlarni qayd qilib borishi zarur.

1.4. Davomat darjasи. O'quvchilarining mashg'ulotga qatnashish darjasи ularning o'qituvchi tomonidan mashg'ulotning tashkillashtirilishi, uning qiziqarliligi va samardorligini belgilovich muhim omillardan biri hisoblanadi.

1.5. Mashg'ulotga sababsiz qatnashmayotgan o'quvchilariga nisbatan ko'rيلayotgan chora. O'quvchining sababsiz mashg'ulotga kelmasligi, bir tomondan uning o'qishga bo'lgan mas'uliyatsizligi va loqaydligi bilan belgilansa, ikkinchi tomondan o'qituvchining mashg'ulot berish darjasи o'quvchilarни qoniqtirmayotganligi yoki qoldirilgan mashg'ulotlarni qo'shimcha ravishda o'zlashtirishi o'qituvchi tomondan talab qilinmayotganligi bilan izohlanishi mumkin.

1.6. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilarining intizomi va faollik darjasи. Mashg'ulot talab darajasida o'tilgandagina sinf xonasida tartib va o'quvchilar faolligi ta'minlanadi.

O'quvchilarining vaqtı-vaqtı bilan mashg'ulot mavzusiga oid savollar bilan murojaat qilishi, o'z mulohazalarini bayon qilishi mashg'ulot jarayonidagi faollik va intizomning mavjudligidan dalolat beradi.

2. Mashg'ulot uchun tanlangan ta'lrim metodlarining talabga javob berish darjasи quyidagi ko'rsatkichlar yordamida o'rnatiladi:

2.1. Mashg'ulot ishlanmasining mavjudligi.

2.2. Mashg'ulot mavzusining «O'quv rejasи va dasturi talablariga mos tushish darjasи. O'quv rejasiga binoan o'qtilayotgan mavzular haftalar bo'yicha taqsimlangan bo'lib, mashg'ulot jadvali qayd etilgan soatlarga asoslangan holda o'tilmog'i lozim.

2.3. Ta'lrim metodining ilmiy-nazariy saviyasi va zamonaviylik darjasи. Mashg'ulot uchun tanlangan ta'lrim metodi o'zida hozirgi zamon muammolarini aks ettirishi lozim. Aks holda tanlangan metod eskirgan, davr talabiga javob bermaydigan darajada

bo'ladi. Bunday hol o'qituvchining o'z ustida ishlamayotganligi-dan dalolat beradi.

2.4. Ta'lrim metodining qabul qilinuvchanlik darajasi. Mashg'ulot ishlanmasi matni ravon, aniq va sodda tilda yozilishi zarur. Shundagina u o'quvchilarga tushunarli qilib yetkazilishi mumkin.

2.5. Ta'lrim metodlarining tarbiyaviy ta'sir darajasi. O'qituvchi o'quvchilarida bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishi bilan birga ularni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalashi lozim. Buni mashg'ulot mavzusi bilan bog'lagan holda, fanga oid tushunchalar bilan uyg'un ravishda amalga oshirish lozim.

3. Og'zaki ta'lrim metodlaridan foydalanishda o'qitish jarayoni-dagi an'anaviy usullardan (mashg'ulotni didaktik talablar asosida o'tkazish, mashg'ulot vaqtining asosi qismini yozdirish) uning faol usullari (suhbat, muammoli vaziyatlar uyuşhtirish, test va amaliy o'ylarni qo'llash kabi pedagogik texnologiya elementlari-dan foydalanish)ga o'tish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi-ni yanada oshiradi. Shu nuqtayi nazardan, og'zaki ta'lrim metod-lariga baho berishda quyidagi ko'rsatkichlarga e'tibor beriladi:

3.1. Mavzuni bayon qilish sifati, uning muammoli o'tish darajasi. Diktovka tarzida o'tiladigan mashg'ulot uning faolligini ta'minlamaydi, o'quvchilarni muloqotga chorlamaydi. Natijada mashg'ulot o'ta qiziqarsiz va zerikarli o'tadi.

Mashg'ulotni suhbat shaklida uyuşhtirish o'qitish samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning esa mavzuni qabul qiluvchanligi-ni bir necha baravar ko'proq ta'minlaydi.

3.2. Mashg'ulotni o'tish jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan bog'lanish darajasi. O'qituvchi o'quvchilarning yuksak intizomini ta'minlagan holda mashg'ulot davomida u yoki bu mulohazalar bilan bahslashishga chorlab borishi lozim. Birorta o'quvchi mashg'ulot vaqtida mavzuga oid bo'limgan ish bilan mashg'ul bo'lmasligi kerak.

3.3. Mashg'ulot o'tish jarayonida ko'rgazmali qurollar. Texnika vositalari va axborot texnologiyalarini qo'llash darajasi. Mashg'ulotning jozibali va ko'rgazmali o'tishi ko'p jihatdan o'qituvchining mashg'ulot jarayonida jadval, sxema, diagrammalar, albom va boshqa didaktik materiallardan foydalanish darajasiga bog'liq bo'ladi. Jadval, sxema va diagrammalarni doskaga chizib ko'rsatish o'quvchilarning qabul qiluvchanlik daraja-sini oshirsada, lekin ularni chizish o'qituvchining vaqtini oladi.

Natijada mazkur mavzu uchun ajratilgan vaqtida o'tilishi lozim bo'lgan savollar o'tilmay qoladi.

4. Amaliy ta'lif metodlarini qo'llash. Mehnat ta'limi fani da beriladigan o'quv materialining xarakteriga ko'ra amaliy mashg'ulotlar boshqa o'quv predmetlaridan farq qiladi, bu esa ta'lif metodlaridan foydalanishda qator o'ziga xos xususiyatlarni keltirib chiqaradi. O'qituvchi tomonidan bu xususiyatlarni to'g'ri e'tiborga olinayotganligi quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholanadi:

4.1. Amaliy ta'lif metodlaridan foydalanishda o'qituvchi manhorati quyidagi omillar orqali baholanadi: mashg'ulot vazifalarining bajarilishini rejalashtirish, tezkor rag'batlantirish, yo'llanma berish va nazorat qilish, yo'l qo'yilgan kamchiliklar sabablarini aniqlash, ta'lif maqsadiga to'la erishishni ta'minlash uchun tegishli tuzatishlar kiritib borishga erishish.

4.2. Amaliy mashg'ulotlarda yo'rinqoma berishni to'g'ri tashkil etilganligi. Har qanday mashg'ulotlar davomida kirish, joriy va yakuniy yo'rinqoma berilishi shart. Yo'rinqoma berishda unga nisbatan qo'yiladigan didaktik talablarga amal qilinishi, og'zaki tushuntirish va namunalarni namoyish qilish, shuningdek, bajarilgan ish tahlili to'g'ri yo'lga qo'yilishi lozim.

4.3. Amaliy mashqlarning to'g'ri tashkillashtirilishi. Mashqlar kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishning negizi hisoblanadi. Ish o'rnini tashkil qilishga, asboblarni sozlashga, dastlabki mehnat usullari va harakatlarini o'zlashtirishga, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishga doir mashqlar mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladi. O'qituvchi bu boradagi xususiyatlarni to'g'ri anglay olishi va amaliy qo'llashi mashg'ulot samara-dorligining muhim belgisi hisoblanadi.

4.4. Amaliy metodlar asosida o'tiladigan mashg'ulotlarning takomillashganlik darajasi. O'quvchilarning yog'och, metall va boshqa materiallarga ishlov berishda tegishli ish qurollari hamda stanoklardan, tovush yozuvchi va namoyish etuvchi uskunalar, jumladan, kompyuterlar yordamida mashqlar bajarishdan o'rinni foydalanishi bilan belgilanadi.

Kuzatilgan darsning tahlili o'qituvchilar jamoasi bilan maxsus yig'ilish o'tkazilib, o'qituvchi faoliyati barcha ko'rsatkichlar bo'yicha muhokama qilinadi va unga kerakli tavsiyalar beriladi.

2. **Mehnat ta'limida didaktik tushunchalar.** O'zbekistonda mustaqillik yillarda kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish va ularni

qayta tayyorlash tizimlarida muhim o‘zgarishlar kiritildi: yangi pedagogik, axborot texnologiyalar, ta’lim tizimlarida jadallashtirib o‘qitish negizida barcha ta’lim subyektlarini fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga intilish va ayniqsa, mehnat ta’limining baracha jihatlarini o‘quvchilarga politexnik tamoyillarga tayanib keng va mazmunli yetkazish katta pedagogik-metodik ahamiyatga ega.

Bu borada mazkur mavzuda mehnat ta’limining didaktik tushunchalariga to’xtalib o’tiladi.

Ma’lumot – o‘qitish jarayoni va uning natijasi hisoblanib, o‘quvchida bilim, iqtidor va ko‘nikmalarning o‘zlashtirilganligini, bilish qobiliyati o‘sganligi va ular asosida ilmiy dunyoqarash, shaxsiy sifatlar shakllanganligini, ularning ijobjiy kuchlari va qobiliyatlarining qay darajada rivojlanganligini anglatadi.

Ta’lim – ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan «o‘qituvchi-o‘quvchi-o‘qituvchi» muloqoti bo‘lib, uning natijasida o‘quvchida ma’lumot, tarbiya va umumiyl shakllanish, rivojlanish amalga oshadi. Odamlarning ma’lumoti faqat ta’limnigina natijasi bo‘lib qolmay balki ota-onha va oila tarbiyasi, o‘z-o‘zini tarbiyalash va ommaviy axborot vositalarining (kino, radio, zangori ekran va hokazo) ta’sirida amalga oshiriladi.

Bilim – o‘rganayotgan obyekt haqida uning muhim xususiyat va sifatlarini, obyektning ma’lum jihatlarini biz tushunchalarda ifodalaymiz va o‘rganamiz. Demak tushunchalar tizimini o‘zlashtirish orqali o‘rganilayotgan obyekt haqida zarur bilimga ega bo‘lamiz.

O‘quvchining bilimi tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini aks ettirgan fan qonunlari, tushunchalar, ashyoviy dallarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning natijasidir.

Mehnat ta’limidagi bilimlar o‘rganayotgan obyektning (egov, arra, stanok, mashina va boshqa mehnat obyektlari) vazifasi, tuzilishi, ishlash qoidalari, tayyorlanadigan materiallari, qo‘llash texnologiyasi, ishlashda e’tibor beriladigan xavfsizlik texnikasi, ta’mirlanishini o‘quvchilar ham nazariy, ham amaliy holatda qo‘llash texnologiyasini bilishlari shart. DTS nuqtayi nazaridan o‘quvchilar o‘zlashtirgan holatini (bilim, ko‘nikma, malaka va mahorat, tajriba, ijod, takomillashtirish), darajalarini (mezon, me’yor), doirasini belgilaydi. O‘quvchilar mehnat obyektini: har

tomonlama, chuqur keng, tor, atroflarga o'zlashtirib: «5», «4», «3», «2» va «1» bahoga ega bo'ladi.

O'quvchilar mehnat ta'limi obyektini: egovlashi, arralashi, parmalashi, ovqat tayyorlashi, texnikani o'rganishi va hokazo texnologik operatsiyalarni o'zlashtirishi, o'rganishi, bajarishi o'quvchini yana bir pog'onaga ko'tarib ko'nikma darajasiga olib keladi. Bu borada bilimlarning haqiqiyligi va to'g'riligi bevosita amaliyotda qo'llanilishi bilan aniqlanadi. Bilimlarni qo'llanishi o'z navbatida ma'lum ish-harakat usullarining maqsadga muvo-fiqligi, tezligi, aniqligi va shu kabilarga ko'ra kasbiy mahorat darajasi aniqlanadi. Kasbiy mahorat darajasi shartli ravishda ko'nikma va malakalar shaklida talqin etiladi. Agar bilimlar amaliyotda ma'lum mantiqiy ketma-ketlikda, lekin o'ylab ma'lum ma'noda sekinroq bajarilishi ko'nikma sifatida, tez fursatlarda bajarilishi esa malaka deb talqin etiladi.

Ko'nikma – ongli faoliyat (harakat)ni tez, tejamli, to'g'ri, kam jismoniy va asabiy kuch sarflagan holda bajarish. Ko'nikma shaxsning bilimlari asosida tarkib topadi. Dastlabki shakllanish bosqichlarida bunday harakatlar jiddiy diqqat bilan bajariladi, keyingi bosqichlarda diqqat bilan nazorat qilish kamayib boradi va natijada avtomatlashgan harakatga aylanadi. Ta'lim mazmunda «bilim», «ko'nikma»ni to'ldiradigan atamalardan biri «malaka» tushunchasi mavjud.

Malaka deganda biz, shaxsning ma'lum kasbga yaroqlilik, tayyorlik darajasi, shu kasbda ishlay olishi uchun zarur bilim, ko'nikmalar yig'indisini tushunamiz. Malaka – o'zining shakllanish jarayonida avtomatlashib ketgan, ya'ni ixtiyoriy ravishda to'liq takrorlash qobiliyati, odatdagи faoliyat sifatida shakllanib bo'lgan hamda murakkab harakatlarning tarkibiga kiritilgan jarayonlarni psixologik tanlashga aylanib ketgan ish-harakati, faoliyati. Kasbiy axborotlarning tez ko'payib borayotgani ilgari o'zlashtirilgan malakaning yetishmasligini keltirib chiqaradi. Bu yetishmaslikni qayta tayyorlash va malaka oshirish orqali kasbiy faoliyatni hozirgi o'quvchilar darajasida davom ettirish imkoniyati hosil bo'lishini tushunamiz.

Malaka oshirish – mehnat ta'limi mutaxassislarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash hamda rivojlantirish jarayonini ta'riflaydi. Shuni ta'kidlash zarurki, mehnat ta'limi metodikasida hamda mazkur ta'limning o'zida boshqa atamalar ko'p malaka-

lar o'rgatish tushunchasini, axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallash tushuniladi.

O'qitish-o'rgatish o'quvchilarning maxsus tashkil etiladigan faol, mustaqil, bilish, tanish, mehnat, estetik, jismoniy faoliyati bo'lib, tabiiy qobiliyatlarini va psixik jarayonlarini rivojlantirish, tajribalar, ko'nikmalar hamda bilimlarni egallash, o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyatidir.

Mehnat ta'lif metodikasida hamda mazkur ta'lifning o'zida «o'zlashtirish» tushunchasida tushunish, o'rganish orqali axborotning ma'no-mazmuni, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to'g'risida bilim va ko'nikmalar hosil bo'lishi darkor.

O'zlashtirish shartli ravishda quyidagi uchta darajaga ajratiladi:

1. O'rgatilgan bilim va ko'nikmalarni to'g'ri takrorlash.

2. Ularni amaliy faoliyatda qo'llash, ulardan tegishli maqsadlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish.

3. Ularni ijodiy tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish asosida takomillashtirish faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Qayd etilganlardan ma'lum bo'lmoqdaki, o'quvchilar: bilim, malaka, ko'nikma, kasb, ixtisoslik va boshqa atamalardan o'rniда ishlatish usullarini mukammal qo'llanishni o'rganishlari lozimdir.

Shunda bilimlar, mehnat ko'nikmalari va malakalarini tekshirish o'quvchilarga mehnat ta'limi berish va ularni tarbiyalash sifatini oshirishning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Mehnat ta'limi natijalarini o'z vaqtida tekshirish o'quvchilarda bilimlar va mehnat ko'nikmalarining sifati uchun javobgarlik hissini rivojlantirishga yordam beradi, ularning intizomini yaxshilaydi va o'zlariga nisbatan talabchan bo'lishga o'rgatadi, ishda kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka va o'zini doimiy ravishda kamol toptirib borishga undaydi.

Bilimlar va ko'nikmalarni tekshirish o'quvchilarga tayyorgarlik darajasini aniqlashga yordam beribgina qolmasdan, shu bilan birga yana bir muhim vazifani — ilgari o'zlashtirilgan bilimlar va mehnat ko'nikmalarini mustahkamlash vazifasini ham bajaradi.

Shaxsning har tomonlama kamolotga yetishi ma'lum bir real tarixiy shart-sharoitlarda amalga oshirish mumkin bo'lgan qo-

biliyatlar va iqtidorlarning, uning mohiyatini tashkil etadigan hamma kuchlarning to'liq va batamom rivojlanishidir.

Maqsad bo'lg'usi natijalar haqida har doim aqlan o'ylab ko'rilgan, rivojlantirilgan xayoliy tasavvurdir.

Pedagogik jarayon ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan hamda tarbiyachining yo'naltiruvchi va olib boruvchi rahbarlik roli natijasida o'quvchining o'z-o'zini taraqqiy ettirishidir.

Muloqot o'zaro munosabatlar, o'zaro ta'sirlarni ta'minlashga, ma'lumotlarni almashtirishni o'z ichiga olgan va munosabatlarni, ularning aloqalarini amalga oshiradigan ma'lum yo'nalishga asosan olib boriladigan faoliyat hisoblanib, kishilarning birgalikdagi faoliyatining bir turidir.

Pedagogik muloqot – o'quv-tarbiya jarayoni davomida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchilar bilan kasbiy muloqoti hisoblanadi.

O'quvchining bilimi tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini aks ettirgan fan qonunlari, tushunchalar, ashyoviy dalillarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning natijasidir.

Qobiliyat – shaxsning individual-psixologik o'ziga xosligining psixologik tarkibiy tuzilishiga kiritilgan, qaysidir bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga taalluqli bo'lgan va bilimlar, malakalarni egallashning tezkorligini, yengilligini izohlab beradigan xususiyatdir.

Kasbga yo'naltirish o'quvchining o'z ehtiyojini oqilona cheklaydigan shaxs sifatida kamolotga yetishning pedagogik jarayoni bo'lib, nafaqat pedagogik tashqi ijtimoiy-iqtisodiy, balki psixologik, tibbiy, huquqiy muammo hamdir.

Odob-axlog – shaxsning o'ziga va dunyoga munosabatlariga olib boruvchi xatti-harakatlarining belgilangan, aniqlangan usuli bo'lib, sabablar, tasavvurlar va qarashlarni o'z ichiga oladi, ya'ni shaxs shakllanishining manbai hisoblanadi.

Kasbiy-metodik mohirlik o'qituvchining, mazkur fanni olib boruvchining mavjud bo'lgan pedagogik va uslubiy bilimlar asosida malakaviy faoliyatini bajara olish qobiliyatidir. Shunday qilib, pedagog ikki turdag'i: kasbiy va malakaviy tayyorgarlikka ega bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchini maktabda o'qitayotgan fani yuzasidan malakasiga hamda kasbiga ko'ra haqli ravishda pedagog deb ataydilar.

Ta'lism metodikasi xususiy didaktika yoki ta'limning xususiy nazariyasini o'zida namoyon etadigan pedagogika fanining tarmog'idir. Uning vazifalari o'quv fani yuzasidan ta'lism berish hodisasini o'rganish jarayonida ularning orasidagi qonuniy aloqalarни ochish, anglangan qonuniyatlar asosida esa, o'qituvchining ta'lism faoliyatiga va o'quvchining anglash, biluvchanlik faoliyatiga talablar me'yorini o'rnatishdan iboratdir.

Mulogot o'zaro munosabatlar, o'zaro ta'sirlarni ta'minlash, ma'lumotlarni almashtirishni o'z ichiga olgan va munosabatlarни, ularning aloqalarini amalga oshiradigan, ma'lum yo'nalishga asosan olib boriladigan faoliyat hisoblanib, kishilarning birgalikdagi faoliyatining bir turidir.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Mehnat ta'limi darslarini kuzatishga qanday talablar qo'yiladi?
2. Mehnat ta'limi darslarini qanday maqsadlarda kuzatiladi?
3. Mashg'ulotlarni kuzatish natijasida o'qituvchining mashg'ulotlarni tashkil qilishdagi faoliyati qanday ko'rsatkichlar asosida samarali baholanishi mumkin?
4. Mashg'ulot uchun tanlangan ta'lism metodlarining talabga javob berish darajasi qanday ko'rsatkichlar yordamida o'rnatiladi?
5. Ta'lism jarayonida og'zaki ta'lism metodlaridan foydalanishning yutuqlari nimada ko'rindi?
6. Mehnat ta'limi darslarida nima uchun amaliy ta'lism metodlarini qo'llash yaxshi natijalarni beradi?
7. Kuzatilgan darsning tahlili qanday amalga oshiriladi?
8. Mehnat ta'limalda didaktik tushunchalarni izohlab bering.

2.3. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashning didaktik tizimlari

Reja:

1. Ta'lism didaktik tizimi haqida umumiy tushuncha.
2. Predmet tizimi, operatsiya tizimi, operatsiya-predmet tizimi, motorli-mashq tizimi, operatsion-kompleks va boshqa tizimlar.
3. Mehnat ta'limi didaktik tizimlarini takomillashtirish.

Tayanch iboralar: tizim, buyum tizimi, operatsiya tizimi, operatsiya buyum tizimi, motorli mashq tizimi, operatsiya kompleks tizimi, konstruksion-texnologik tizim.

1. Ta’limning didaktik tizimi haqida umumiy tushuncha. Ta’lim tizimi deb, amaliy ko’nikma va mehnat malakalarini to‘g’ri tarkib topishiga, kasbiy faoliyatga tayyorlashni ta’minlaydigan o‘quv materialining maqsadga muvofiq tuzilmasiga, uni tashkil etish va izchilligiga aytildi.

Didaktika va metodika bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Metodika deganda, ilmiy usullar haqidagi fan tushuniladi. Bu fan didaktikaning xususiy holidir. Didaktika «kimni», «nimaga» va «qanday qilib» o‘qitish kerak degan savollar bilan shug‘ullansa, u bilan uzviy bog‘liq holda metodika esa «qaysi tarzda» va «nimalar yordamida» o‘qitish masalalari bilan shug‘ullanadi. Boshqacha qilib aytganda, o‘qitish metodikasi bu turli xil yo‘llar va usullar tizimi bo‘lib, o‘quv didaktik materiallardan foydalaniib, belgilardan maqsadlarga erishish uchun nazariy dars va yo‘riqnomalar qo’llaniladi.

Didaktika va metodika bir medalning ikki tomonidir: «nima uchun va nima», ya’ni didaktikani, «qaysi tarzda va nimalar yordamida», ya’ni metodikani belgilaydi.

Ta’lim jarayoni o‘zaro bog‘liq va aylana harakatda amalga oshadigan o‘qitish tadbirdari moduliga asoslangan, ya’ni ular mashg‘ulot jarayonida yoki ish o‘rni mehnat ta’limi o‘qituvchisi tomonidan muntazam ravishda takrorlanadigan tadbirlarni bildiradi. Ular biror jarayonning barcha elementlarini qamrab oladi, misol uchun, aniq bir nazariy dars yoki yo‘riqnomani o‘tkazish uchun «tayyorgarlik ko‘rish – o‘tkazish – baholash» kabi harakatlar kerak. Didaktik xatti-harakatlar quyidagi savollar bilan uzviy bog‘langan:

1. Ma’lumot yig‘ish. O‘quvchi berilgan ish topshirig‘ini tahlil qiladi, kerakli hamma ma’lumotlarni mustaqil ravishda yig‘adi.
2. Reja tuzish. O‘quvchi mustaqil ravishda boshqa kerakli ish bosqichlaridan iborat ish rejasini tuzadi.
3. Qaror qabul qilish. O‘quvchi o‘qituvchi bilan birgalikda ish rejasini amalga oshirish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.
4. Amalga oshirish. O‘quvchi ish rejasi asosida ishni mustaqil bajaradi.

5. Tekshirish. O'quvchi ish natijasini mustaqil tekshiradi va «baholar varag'ini» to'ldiradi.

6. Xulosa chiqarish. O'quvchi va o'qituvchi bиргаликда ish jarayonini, shuningdek, ish natijalarini tahlil qiladi va xulosa chiqaradi.

Bilimlarni o'zlashtirish (ta'lif olishda) faqat xotira xususiyatlari emas, balki shaxsiy qobiliyatlar, fikrni jamlash, maqsad hamda tirishqoqlikka ham bog'liq. Maqsadga intiluvchanlikning zaruriy shartlari ko'proq va mustahkamroq o'zlashtiriladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadi ta'lif sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'nnaviy va axloqiy tabablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir. Bu esa o'z navbatida ta'lif jarayoniga boshqa ko'z bilan qarashni talab etadi. Xususan, ta'lif tizimi uchun yangi pog'ona hisoblangan mehnat ta'limi tizimida bu muammo o'z dolzarbli bilan alohida ajralib turadi. Dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan uddaburon, ishning ko'zini biluvchi, kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi ishchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash respublikamiz oldida turgan eng muhim va mas'uliyatli vazifadir. Keyingi yillarda bu borada ham katta ishlar olib borilmoqda.

2. Predmet tizimi, operatsiya, operatsiya-predmet tizimi, motorlik mashq tizimi, operatsion-kompleks tizimi va boshqa tizimlar. Mehnat ta'limida 6 ta tizim ma'lum:

1. Buyum tizimi.
2. Operatsiya tizimi.
3. Operatsiya-buyum tizimi.
4. Motorli mashq tizimi.
5. Operatsion-kompleks tizimi.
6. Konstruksion-texnologik tizim.

Dastlab *buyum (predmet) tizimi* paydo bo'lgan. Bu tizimga o'quvchi o'zi o'zlashtirayotgan kasb uchun tegishli bo'lgan buyumlarni tayyorlagan. Bunda buyumlar murakkabligi ortib borgan.

Tayyorlash jarayoni didaktik jihatdan alohida operatsiyalarga ajratilmagan. O'quvchi ayrim mehnat usullarini bajarish qoidalari bilan maxsus tanishmagan, faqat o'qituvchining ishi va boshqa harakatlarini takrorlashga intilgan. Bunday ta'lif nati-

ratsiyalarning mazmuni haqida to‘g‘ri tasavvur bo‘lmasligiga olib kelardi. Shuning uchun ham tizim keng tarqalmoqda.

Motorli-mashq tizimi. Mashina industriyasining gurkirab o‘sishi, ishchilar mehnatini intensivlash hisobiga maksimal foyda olishga intilishi mehnat jarayonlarining haddan tashqari bo‘linib ketishiga olib keldi. Ishchi endi bir qator alohida yoki bitta operatsiyani bajarish o‘rniga mashinani boshqarish va unga xizmat ko‘rsatishdan iborat cheklangan miqdorda jismoniy mehnat usullarini bajarishi kerak bo‘lib qoldi. Shunda ham bu usullarni aniq, tez va mashinaning ishlash vaqtiga qarab qat’iy belgilangan vaqtda bajarishi shart. Bunday xarakterdagи mehnat usullari va uni tashkil etuvchi ish harakatlарини faqat maxsus mashq jarayonidагина o‘zlashtirish mumkin edi. Ishlab chiqarish ta’limining mazkur tizimi motorli-mashqli tizimi deb atalishining boyisi ham ana shundadir. Ishchilar tayyorlashning bu tizimini amerikalik inжнер Teylor yaratgan. Uning mazmuni qat’iy tanlab olingen mehnat usullari va ularning elementlari (ish va ish jarayonidagi harakat)ni mexanik tarzda mashq qilishdan iborat. Ta’lim tizmining to‘g‘ri mehnat usullarini tez shakllantirishga qaratilgan mashq mashg‘ulotlarini muayyan izchillikda bajarilishi bilan xarakterlanadi. Biroq o‘quvchining alohida ish harakatlari va usullarini bajarishi ko‘pincha operatsiyaning o‘zidan, buning ustiga mehnat jarayonlaridan ajratilgan holda amalga oshiriladi, bu esa ularni mexanik tarzda o‘zlashtirilishiga olib keladi, barcha mehnat jarayonlarining komponentlari o‘rtasidagi obyektiv mavjud aloqa buziladi.

Ushbu tizimning kamchiligi motor-mashq tizimi bo‘yicha o‘qitish o‘quvchilar ko‘nikma va malakalarni ongli o‘zlashtirishi ni nazarda tutmasdi. Ko‘nikmalarni shakllantirish maxsus apparatlar va haqiqiy mehnat jarayonini eslatadigan mashqlarni qo’llash bilan amalga oshirilardi. Ko‘p marta takrorlash nati-jasida mushaklarning ma’lum harakatlarini ongning ishtirosiz ham bajarishga «o‘rgatish» mumkin, deb faraz qilingan. Ta’limda bunday yondashish ma’qullanmadи va tez uni rad qilindi. Motor-mashq tizimining yutug‘i shundaki, unda mehnat o‘quv va malakalarini shakllantirishning didaktik jihatdan asoslangan, psixofiziologik qonuniyatlariga mos keladigan ketma-ketligi: mehnat usuli, mehnat operatsiyasi, mehnat jarayoni birinchi marta ishlab chiqilgan va qo‘llanilgan.

Bu tizimda o'quvchilarga mehnat ta'lifi berish besh davrga bo'linadi:

1. Asosiy mehnat faoliyati va harakatlarini o'zlashtirish bo'yicha mashq mashq'ulotlari.
2. Mehnat usullarini o'zlashtirish bo'yicha mashqlar.
3. Mehnat operatsiyalarini bajarishga doir o'rganish mashqlari.
4. O'quvchilarini maxsus tanlangan buyumlar ustida ilgari o'zlashtirilgan mehnat operatsiyalarini operatsiyalar kompleksiga birlashtirishga o'rganish.
5. Mustaqil davr, bunda o'quvchilar ayni kasbga doir xarakterli bo'lgan buyumlarni tayyorlaydi.

Operatsiya-buyum motor-mashq tizimlarining kamchiliklari va yutuqlari o'rganilib, *operatsiya-kompleks tizimi* yuzaga keldi. Bu tizimga asosan o'quvchi avval 2–3 ta ketma-ket operatsiyalarini o'zlashtiradi, so'ng shu operatsiyani ichiga olgan kompleks ishlarni bajaradi. Mehnat operatsiyalarini o'zlashtirish va ularni kompleks ishlarda qo'llash ta'larning 1-bosqichidagi asosiy vazifadir. Ikkinchisi bosqichda o'quvchilar ishlab chiqarishdagi unumli mehnatga qo'shiladilar. Masalan, kiyim tikishda qo'llaniladigan barcha turdag'i yengni, yoqani, mayda qismlarni tikishni o'rgatib bo'lingandan so'ng uni kiyimda qo'llash bajariladi. Kamchiligi: o'quvchi o'z ishining natijasini juda uzoq vaqtadan so'ng ko'radi. Natijada qiziqish susayadi.

Hozirgi vaqtda o'quv ustaxonalarida amaliy ishni bajarish jarayonida operatsiya-buyum tizimidan foydalaniлади, chunki operatsiyani alohida o'rganish rejalashtirilgan va dasturda ko'r-satilgan buyum xilini mahalliy sharoitga qarab o'zgartirish mumkin.

3. Mehnat ta'lifi didaktik tizimlarini takomillashtirish. Ke Yingi yillarda o'quv ustaxonalarida *konstruksion-texnologik tizim* bo'yicha mashq'ulotlar tashkil etiladi. Bu tizimning yetakchi g'oyasi o'quvchilarning ijodiy faoliyatini oshirishdan iboratdir. O'quvchi biror buyumni tayyorlashdan avval uning loyihasi va ishlov berish jarayonini amalga oshirishi kerak bo'lgan sharoitga olib kiriladi. O'quvchi biror kiyimni tikish uchun avval o'lchov olishi, asos chizmasini chizishi, andaza tayyorlashi, modellashtirish, andazani gazlamaga joylashtirib, buyumni bichish va tikish kabi murakkab jarayonni bajaradi. Bu jarayonni bajarishda o'quvchilarning ijodiy faoliyatları ortib boradi. O'quvchilarning

ijodiy faoliyatları ortishi uchun yaratiladigan hamma narsalar zo'r berib mehnat qilishni taqazo etadi.

Ijodiy ishga idrok qilish yo'li bilan emas, balki fikrlash faoliyati orqali erishiladi. Ijodiy ishslash jarayoni g'oyaning paydo bo'lishi, ijodiy masalaning vujudga kelishi, masalan yechish, yechimni amalda qo'llash bosqichlariga bo'lish mumkin.

O'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini amalga oshirishda pedagogik rahbarlik katta ahamiyatga ega.

1. O'quvchilarni har xil savol va masalalarni mustaqil hal qilish imkoniyatlardan iborat faoliyatga qatnashtirish – o'quvchilarning ustaxonalardagi faoliyati har xil xarakterda bo'lishi va shunga ko'ra turli darajadagi fikrlash faolligida amalga oshirish mumkin.

2. O'quvchilarni ijodiy g'oyaga keltirish yoki ular oldida to'g'ridan to'g'ri ijodiy xarakterdagi savol va masalalarni qo'yishi – o'quvchilarga texnik ijodkorlik uchun topshiriqlardagi imkoniyatlari va ulardan foydalanishni anglatish lozim.

3. O'quvchilarni fan va ishlab chiqarish asoslariga oid bilimlarini faollashtirish va qo'llashga undash – o'quvchilarga fan va ishlab chiqarish sohasidagi turli usul va uslublardan foydalanib, bilim, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

4. O'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rag'batlantirish – o'qituvchining maqtashi, eng yaxshi ishlar ko'rgazmasini tashkil qilish, devoriy matbuotda o'quvchilarning yutuqlarini om-malashtirish va hokazolar bilan ijodiy faoliyatni rag'batlantirish mumkin.

O'quvchilarning mehnat ta'limi jarayonida texnik ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan mehnat topshiriqlari mazmuni bo'yicha uch guruhg'a bo'linadi:

- 1) konstruksiyalash yoki loyihalash;
- 2) texnologik jarayonlarni tuzish;
- 3) mehnatni to'g'ri tashkil etish.

Texnik ijodkorlikni rivojlantirishni eng sodda topshiriqlardan boshlash va o'quvchilarning mustaqilligini orttirish, ularni buyumlarni konstruksiyalay oladigan, texnologiyani ishlab chiga oladigan, o'z mehnatlarini uyuشتiradigan bo'lishi uchun mazkur topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirib borish kerak.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Ta'limumning didaktik tizimi deb nimaga aytildi?

2. Didaktika va metodika tushunchalarini izohlab bering.
3. Didaktik xatti-harakatlarning mazmun mohiyati nimada ko'rinadi?
 4. Mehnat ta'limining qanday tizimlari mavjud?
 5. Buyum tizimi, operatsiya, operatsiya-predmet tizimining o'xshash va farq qiladigan tomonlarini izohlab bering.
 6. Mehnat ta'limida motorli mashq tizimi qachon paydo bo'lgan?
 7. Operatsion-kompleks tizimining o'ziga xos jihatlari nimalarda ko'rinadi?
 8. Mehnat ta'limi didaktik tizimlarini takomillashtirish qanday amalga oshiriladi?
 9. O'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan mehnat topshiriqlari mazmunini izohlab bering.

Mustaqil ta'lim topshiriqlari:

1. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashning didaktik tamoyillarini ta'lim jarayonidagi tatbig'ini tahlil qiling.
2. Bilim, malaka, ko'nikma, kasb, ixtisoslik; mehnat jarayoni, texnologik jarayon kabi tushunchalarini ochib bering va uning qo'llanishini izohlang.
3. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashning didaktik tizimlarini ta'lim jarayonidagi tatbig'ini tahlil qiling.

III bob. MEHNAT TA'LIMI METODIKASI, KASB TANLASHGA YO'LLASH FANI MAZMUNI

3.1. 1–9-sinflarda mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashning mazmuni

Reja:

1. Mehnat ta'limining maqsad va vazifalari.
2. 1–4-sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladi-gan zaruriy talablar.
3. 5–7-sinflarda yo'nalishlar bo'yicha umumiy mehnat tayyor-garligi.
4. 8–9-sinflarda kasbiy tayyorgarlikkacha bo'lgan jarayonning mazmuni.
5. 8–9-sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish asoslari.

Tayanch iboralar: aqliy va jismoniy mehnat turlari, shaxsiy sifat va tafakkurni rivojlantirish, yangi texnika, ilg'or texnologiya, raqobatbardosh kadr, xalq hunarmandchiligi kasblari, tarixiy yodgorliklar, asbob-uskunalar, jihozlar, moslamalar, kompo-zitsiya, ijodiy qobiliyat, kimyoviy va fizik-texnologik jarayonlar, kasblar tasnifi.

1. Mehnat ta'limining maqsad va vazifalari. Mehnat ta'limining maqsadi o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayon-lari hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki mehnat ko'nikmalari va malakalarini, mehnatga qiziqish va mehnatse-varlikni shakllantirish, ularni mehnat va kasblarni qadrlashga, ularning ahamiyatini tushunishga o'rgatish, ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash orqali kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirish hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoli-yatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifat va tafakkurla-rini rivojlantirishdan iborat.

Mehnat ta'limining vazifalari:

- turli ishlab chiqarish sohalari mazmuniga taalluqli dast-labki ma'lumotlarni o'rgatish, o'lchash-tekshirish asboblaridan, ma'lumot manbalaridan foydalana olish, mehnat amaliyotlarini bajarish, erishilgan mehnat natijalarini belgilangan talablar bilan taqqoslash orqali xulosa chiqarishga o'rgatish;

- xalq xo‘jaligining turli sohalarida ishlataladigan texnika va texnologiyalar to‘g‘risida bilimlar berish, inson faoliyatining turli sohalari bilan amaliy mehnat orqali yaqinroq tanishishlariga imkon yaratish;
- mexanizatsiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan vositalar bilan ishlashni, texnologik bilim va malakalarni, mehnat qonunchiligi, xavfsizlik texnikasi, sanitariya-gigiyena qoidalari asoslarini;
- o‘quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari talablari asosida sifatli, raqobatbardosh iste’mol mollari, mehnat mahsulotlari yetishtirish va yetishtirilgan mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazish vositalarini o‘rgatish, ish boshqaruv (menejerlik) usullari, homiylik, ishbilarmonlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirib borish;
- o‘quvchilarda bilimga intilish va mehnatga muhabbat, mehnat kishisiga nisbatan hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- xalq hunarmandchiligi kasblarini o‘rgatish orqali xalqning milliy ruhini, yashash tarzini, an‘analarini tiklash va rivojlantirish. Milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining boy merosini o‘rgatish, ulardan o‘z amaliy faoliyatlarida foydalanish ko‘nikmalarini mustahkamlash;
- yangi ishlab chiqarish va axborot texnologiyalari, yangi texnika va jihozlarning qo‘llanilishi sohalarini zamonaviy talablar darajasida va jahon tajribalariga mos holda o‘rganishlarini ta’minlash;
- turli sohalarga oid kasbiy faoliyat turlarida qo‘llaniladigan asbob-uskunalar, jihozlar, moslamalardan foydalanishni o‘rgatish;
- o‘quvchilarda umummehnat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, ularning qiziqishi, qobiliyati, kasbiy moyilliklariga ko‘ra, kasb-hunar turlarini tanlashga asos bo‘ladigan sifatlarni, umummehnat madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish.

2. 1–4-sinf o‘quvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan zaruriy talablar. O‘quvchilar qog‘oz ishlab chiqarishning texnik bosqichlari, ularning yaratilish jarayonlari to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladilar, qog‘oz bilan ishlash usullari, qog‘oz turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, qog‘oz ishlab chiqarish yo‘nalishi bo‘yicha kasb egalari haqida umumiyl tushunchalarini, qog‘oz turlaridan foydalanib, geometrik shakllar asosida qirqish, yelimalsh, buklash usullarida turli o‘yinchoqlar, hayvon

va parrandalar, manzara, kompozitsiya hamda tabriknomalar tayyorlash malakasini egallash.

Gazlama va tolali materiallar bilan ishlashda chok turlaridan namunalar, yumshoq o'ynichoqlar tikish hamda turli kiyimlarni ta'mirlash ishlarini bajarish. To'qish va uning turlari, asbob-moslamalardan xavfsizlik texnika qoidalariga rioya qilingan holda foydalanish. Xalq hunarmandchiligi yo'nalishi bo'yicha kashtachilikning eng sodda elementlarini tikish.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini texnik modellashirish orqali rivojlantirish. Sodda turli texnikaviy moslamalarni yashash.

O'quvchilarning loy yoki plastilin bilan ishlash ko'nikmalarini o'stirish. Plastilin va loydan turli o'ynichoqlar, haykalchalar yashash ko'nikmalarini egallashi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning tasavvuri, ijodiy qobiliyatini o'stirish, chiqindi va badiiy materiallardan turli qirqish, yelimlash, qo'zg'aluvchan va qo'zg'almas biriktirish usullari orqali hayvonlar, parranda, qushlar, uy-ro'zg'or buyumlari, qiziqarli o'ynichoqlar yashash ko'nikmasini egallash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy badiiy qurish-yashash san'atining sodda elementlari asosida applikatsiya, mozaika usulalaridan foydalanib, manzara, buyumlardan kompozitsiya qurish-yashash malakasini egallash.

1-sinf. Mehnat ta'limi fanidan o'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak: mehnat ta'limi fani haqida umumiylar ma'lumotni bilish. Qog'ozlar va kartonlar haqida umumiylar ma'lumotlarni, qog'ozni buklash usullarini, «Qish» manzarasini applikatsiya usulida ishlashni, archaga osiladigan turli o'ynichoqlar, quti, shapka, xo'tikcha, stakan, buzoqcha yashashni, turli bayramlar uchun niqoblar yashashni, maydalangan rangli qog'ozlardan mozaika usulida mevalar shaklini yashashni, rangli qog'ozdan qirqilgan geometrik shakllar bilan ishlashni, rangli qog'ozdan qirqilgan geometrik shakllarni bir-biriga yelimlashni, bayramlarga tabriknomalar tayyorlashni, meva va sabzavot urug'lardan applikatsiya usulida yo'lsimon naqsh tuzishni, tikuvchilik haqida ma'lumotlarni, tikuvchilikda ishlatiladigan asboblarni saqlash, to'g'ri chok tikishni; loy va plastilin bilan ishlashni, plastilindan turli hayvonlar shaklini yashashni bilish; pazandachilik haqida umumiylar ma'lumotlarni; pazandachilik asbob-uskunalari haqida ma'lumotlarni; qishloq xo'jalik mehnati turlari, o'simliklar va

gullarni parvarishlashni bilish; tabiiy materiallar haqida umumiylumotni, maktab yer uchastkasidagi gullarni parvarishlashni, tabiiy, chiqindi materiallardan o‘yinchoqlar hamda turli mакетлар qurish-yasashni bilish.

Mehnat ta’limi fanidan o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak: qog‘ozni buklash usulidan foydalanib, quticha; chiqindi materiallar uchun quti, xo‘tikcha, soyabonli shapka, stakan, buzoqcha, kitob uchun xatcho‘p, archaga osiladigan turli o‘yinchoqlar, maydalangan rangli qog‘ozlardan mozaika usulida mevalar shaklini, turli bayramlar uchun niqoblar, plastilindan mevallar, tort mакетини, chiqindi va tabiiy materiallardan turli o‘yinchoqlarni yasay olish. Sabzavot va mevalarning urug‘idan applikatsiya usulida yo‘lsimon naqsh tuza olish. Tikuvchilikda ishlatiladigan asboblardan foydalanib, to‘g‘ri chok tika olish. Maktab yer uchastkasidagi gullarni parvarishlay olish.

Mehnat ta’limi fanidan o‘quvchilar quyidagi malakalarga ega bo‘lishlari kerak: ish qurollaridan to‘g‘ri foydalanish. Qish faslini applikatsiya usulida ishslash. Archaga osiladigan turli o‘yinchoqlarni, rangli qog‘ozlardan mozaika usulida mevalar shaklini yasash. Sabzavot va mevalarning urug‘idan applikatsiya usulida yo‘lsimon naqsh tuzish. «Navro‘z» bayramiga tabriknoma tayyorlash. To‘g‘ri chok tikish. Plastilindan jo‘ja yasash. Qirqilgan geometrik shakllarni bir-biriga yelimlash.

2-sinf. *Mehnat ta’limi fanidan o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:* qog‘ozni buklash, qirqish orqali dekorativ gullar shaklini, kitobcha uchun muqova tayyorlashni, rangli qog‘ozlardan archa bezaklarini, o‘yinchoq quyon, oqqush, baliq, qayiq, pingvin, samolyot, pирpirак, ikkiga buklangan qog‘ozlarni qirqish usullarini, applikatsiya usulida naqsh tuzishni, «Bahorgi guldasta» mavzusida kompozitsiya va tabriknomalar tayyorlashni, uchiriladigan qog‘oz qush, turli o‘yinchoqlar, igna uchun yostiqcha, chok turlari, zanjir chokdan foydalanib gul shaklini, urug‘lar uchun xaltacha tikishni bilish, plastilindan turli shakkalarga ega bo‘lgan o‘yinchoqlar, xalq hunarmand ustalari ishlagan ish namunalariga qarab loy va plastilindan o‘yinchoqlarni, uy jihozlaridan namunalar yasashni bilish; svetofor mакетини qurish-yasashni bilish; tabiiy turli sabzavot va mevalarning urug‘laridan yo‘lsimon va kvadrat ichida applikatsiya usulida naqsh tuzishni, mozaika usulida qo‘qongul shaklini, tuxum po‘choqlaridan hajm-

dor o'yinchoqlar, quritilgan barglardan hayvonlar, o'yinchoqlar yasashni bilish; maktab yer uchastkasida bahorgi dala ishlarini bajarishni bilish.

Mehnat ta'limi fanidan o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak: qog'ozni qirqish va buklash orqali dekorativ gullardan kompozitsiya, archa bezaklarini, o'yinchoq pirpirakni, ikkiga buklangan qog'ozlardan qirqib, applikatsiya usulida naqsh yasay olish. Qog'ozdan applikatsiya usulida tabriknoma tayyorlay olish. Ignat uchun yostiqcha tika olish. Zanjir chokidan foydalanib gul shaklini tika olish. Urug'lar uchun xaltacha tika olish. Harakatlanadigan o'yinchoqlar yasay olish. Plastilindan turli shakllarga ega bo'lgan o'yinchoqlar, uy jihozlarining namunalarini yasay olish. Gullayotgan daraxt shoxchasini qurish-yasay olish. Tabiiy urug'lardan applikatsiya usulida naqsh tuza olish. Tuxum po'choqlaridan hajmdor o'yinchoqlar yasay olish. Quritilgan barglardan hayvonlar shaklini yasay olish. Chiqindi materiallardan o'yinchoqlar yasay olish. Maktab yer uchastkasida bahorgi dala ishlarini bajara olish.

Mehnat ta'limi fanidan o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'lishlari kerak: qog'ozni qirqish va buklash orqali dekorativ gullardan kompozitsiya, archa bezaklarini, o'yinchoq pirpirakni, ikkiga buklangan qog'ozlardan qirqib, applikatsiya usulida naqsh tuzish. Qog'ozdan applikatsiya usulida tabriknoma tayyorlash. Ignat uchun yostiqcha, xaltacha tikish. Plastilindan uy jihozlarini yasash. Tabiiy urug'lardan applikatsiya usulida naqsh tuzish. Quritilgan barglardan hayvonlar shaklini yasash. Chiqindi materiallardan modellar yasash.

3-sinf. Mehnat ta'limi fanidan o'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak: qog'ozdan turli parrandalar yasash usulini, papye-mashye usulida idishlar tayyorlash va bezash usulini, mozaika usulida archa bezaklarini, lola, qo'ziqorin, sichqon, qog'ozdan hajmdor gul tayyorlash usulini va bayramlarga tabriknomalar tayyorlashni, bezak chok turlari, kartondan guldon, chovgum ushlagich, yumshoq o'yinchoq tikishni bilish; to'qish haqida ma'lumotni, to'qishda ishlatiladigan asbob-uskunalarni va ulardan foydalanishda xavfsizlik qoidalari, to'qishning oddiy usullari, texnik modellash haqida ma'lumot va turli harakatli o'yinchoqlar yasashni bilish; plastilin va loydan turli idishlar, tabiiy materiallardan turli o'yinchoqlar yasashni, tabiiy xomash-

yolar bilan ishlashni, urug'lardan mozaika yasashni bilish; «Qush bolasi» mavzusida kompozitsiyani, «Yil fasllari» manzarasini qurish-yasashni bilish.

Mehnat ta'limi fanidan o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak: qog'ozdan turli parrandalar, papye-mashye usulida idishlar tayyorlash va bezash usulidan foydalana olish, qog'oz va mozaika usulida archa bezay olish; qog'ozdan hajmdor gul tayyorlash usulini va bayramlarga tabriknomalar tayyorlay olish, bezak chok turlarini tika olish; kartondan guldon, chovgum ushlagich, sodda yumshoq o'yinchoqlar tikish bosqichlarini bajara olish; to'qishning oddiy usullarini bajara olish; turli harakatli o'yinchoqlar modelini yasay olish; plastilin va loydan turli idishlar, tabiiy materiallardan turli o'yinchoq yasay olish; «Yil fasllari» manzarasini qurish-yasash ko'nikmalarini egallashi lozim.

Mehnat ta'limi fanidan o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'lishlari kerak: qog'ozdan turli parrandalar yasash, mozaika usulida archa bezaklarini yasash; qog'ozdan hajmdor gul tayyorlash. Bayramlarga tabriknomalar tayyorlash. Bezak chok turlarini tikish. To'qishning oddiy usullarini bajarish. Turli harakatli o'yinchoqlar yasash. Plastilin va loydan turli idishlar yasash. Tabiiy materiallardan turli o'yinchoqlar yasash.

4-sinf. *Mehnat ta'limi fanidan o'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:* mehnat ta'limi darslarida ish qurollaridan xavfsizlik qoidalari asosida unumli foydalanishni, turli bayramlarga applikatsiya usulida tabriknoma tayyorlashni, duradgorlik, temirchilik asboblari haqidagi ma'lumotni, qog'ozdan turli buyumlar maketi: savat, xo'roz, qaldirg'och, kabutar yasashni va bezashni, qorbobo ustaxonasida archa bezaklarini yasashni, to'g'ri to'rtburchak ichida applikatsiyadan foydalanib, naqsh tuzishni bilish; gilamdag'i naqsh elementlarini, kulolchilik kasbi haqida ma'lumot, papye-mashyedan kosa yasashni, oddiy xamir tayyorlashni, yumshoq o'yinchoq (3–4 qismdan iborat) tikishni, to'qish usullarini, kichik hajmda buyumlar to'qish, gazlama gullaridan applikatsiya usulida guldasta tayyorlashni, ipdan o'yinchoq yasashni, uchuvchi, suzuvchi, harakatlanuvchi modellar, plastilindan ertak qahramonlarini yasashni, oshxona jihozlari haqidagi ma'lumotni, plastilindan oshxona jihozlarini, uy-ro'zg'or buyumlarini yasashni bilish; kuzgi gullarga qarab

donlar, urug'lar, tabiiy xomashyolardan gullar yasashni bilish; gullarni parvarish qilishni bilish.

Mehnat ta'limi fanidan o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak: mehnat ta'limi darslarida ish qurollaridan xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilgan holda amaliy mashg'ulotlarni bajara olish; turli bayramlarga applikatsiya usulida tabriknoma tayyorlay olish. Qog'ozdan turli buyumlar yasashni va bezashni, qorbobo ustaxonasida archa bezaklarini yasashni, to'g'ri to'rtburchak ichida applikatsiyadan foydalanib, naqsh tuzishni, gilamdag'i naqsh elementlarini hosil qila olish; papyemashye usulida kosa yasay olish; oddiy xamir tayyorlay olish; yumshoq o'yinchoq (3–4 qismdan iborat) tikish ko'nikmalarini egallash; to'qish usullaridan foydalanib, kichik hajmda buyumlar to'qiy olish, gazlama gullaridan applikatsiya usulida guldasta tayyorlay olish; ipdan o'yinchoq yasay olish; plastilindan ertak qahramonlarini, oshxona jihozlarini, uy-ro'zg'or buyumlarini yasay olish; kuzgi gullarga qarab donlar, urug'lar, tabiiy xomashyolardan gullar yasay olish; maktab yer uchastkasida ishlash va gullarni parvarish qilish ko'nikmalarini egallash.

Mehnat ta'limi fanidan o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'lishlari kerak: mehnat ta'limi darslarida ish qurollaridan xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilgan holda amaliy mashg'ulotlarni bajarish; turli bayramlarga applikatsiya usulida tabriknoma tayyorlash; qog'ozlarni turli ko'rinishda murakkab shakllarda buklab o'yinchoqlar yasash; qog'ozdan qorbobo ustaxonasi uchun archa bezaklarini yasash, to'g'ri to'rtburchak ichida gilamdag'i naqshlarni hosil qilish; yumshoq o'yinchoq tikish; kichik hajmda buyumlar to'qish, ipdan o'yinchoq yasash; plastilindan ertak qahramonlarini, oshxona jihozlarini, uy-ro'zg'or buyumlarini yasash; kuzgi gullarga qarab donlar, urug'lar, tabiiy xomashyolardan gullar yasash.

3. 5–7-sinflarda yo'nalishlar bo'yicha umumiy mehnat tayyor-garligi.

«Texnologiya va dizayn» yo'nalishi

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi bo'lumi: o'quvchilar yog'ochning xususiyatlari to'g'risida boshlang'ich bilimlarni egallash, ularni rejalash, yo'nish, arralash, teshish, pardozlash ishlari va bu ishlarni bajarishda ishlatiladigan qo'l va elektr asboblarining tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsi-

yalashtirilgan jihozlar, mashinalar elementlari, yangi texnika va ilg'or texnologiya asoslari, texnologik xaritalar, ularni tuzish va foydalanish, xavfsizlik texnika qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari to'g'risida bilim va amaliy ko'nikmalarni; dizayn talablari darajasidagi ro'zg'orbob va xaridorgir buyumlarni tayyorlash malakalarini egallaydilar; xalq hunarmandchiligining etnik, tarixiy, mahalliy, geografik xususiyatlari, tadbirkorlik, ijodkorlik asoslari; yog'ochga ishlov berishga oid kasb-hunar turlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Metallga ishlov berish texnologiyasi bo'limi: o'quvchilar metallarning xususiyatlari to'g'risida boshlang'ich bilimlar, rejlash, ishlov berish, pardozlash ishlari va bu ishlarni bajarishda ishlatiladigan qo'l hamda elektr asboblarining tuzilishi, ishlashi, dastgohlar, elektr va mexanizatsiyalashtirilgan jihozlar, mashina elementlari, yangi texnika, ilg'or texnologiya asoslari, texnologik xaritalar, ularni tuzish va foydalanish, mehnat qonunchiligi hamda xavfsizlik texnika qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari to'g'risida bilim va amaliy ko'nikmalarga; ro'zg'orbob hamda xaridorgir, dizayn talablari darajasidagi buyumlarni tayyorlash malakalarini egallaydilar; metallga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi sohalari; metallarga ishlov berishga oid kasb-hunar turlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Elektrotexnika ishlari bo'limi: o'quvchilar elektr montaj ishlarida ish o'rnini tashkil qilish; elektr o'tkazish simlarining turlari; elektr o'tkazgichlarni montaj qilish, izolyatsiyalash ishlari; elektr asboblari; elektr o'tkazish simlarini montaj qilish hamda ish asboblari bilan ishlash usullarini o'rganish; bitta xonani yoritish zanjiri sxemasini tuzish; maishiy elektr asboblarini elektr manbaiga ulash, ularning atrof-muhit va inson sog'lig'iga ta'siri; elektr energiyasini tejamli ishlatish usullari; kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish o'rnini tashkil qilish; kavsharlashda simlar, kavshar, flyuslar turlari; kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish asboblari hamda ish usullari; elektr montaj ish asboblari turlari va ularda ishlash usullari; elektr bilan ishlovchi sodda uskuna va jihozlar tayyorlash; elektrotexnik hamda elektron uskunalarini ishlab chiqarish, ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish, asboblarni elektr montaj qilish va ishga tu-shirishga tayyorlash bilan bog'liq kasb-hunarlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'limi: o'quvchilar pol qoplamlari hamda mebellarning loklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash; oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari; xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari; pol qoplamlari hamda mebel-larning loklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ish usullari; yurtimiz me'morchiligi tarixi, xona interyeri hamda jihozlanish dizayni; sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari; xona va fanlar bo'yicha o'quv xonalarida mebel va qo'shimcha jihoz-larni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash; taklif etilgan yechimlar asosida xonalarni jihozlash; shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari; uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari; ta'mirlashda qo'llaniladigan zamonaviy qurilish materiallari; uy va xonadonlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan asosiy ish asboblari; suv ta'minoti tizimi, suv quvurlari, ventil va jo'mraklarni sozlashda mayda ta'mirlash ish-larini bajarish; qurilish va ta'mirlash bilan bog'liq kasb-hunarlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

«Servis xizmati» yo'nalishi

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi bo'limi: o'quvchilar gaz-lama turlari, xususiyatlari, ularga ishlov berish, bichish-tikish asoslarini o'rganadilar; kiyimlar turlari, ahamiyati, tikuv, yigiruv asbob-uskunalarini va mashinalari, ularning turlari, tuzilishi va ishlashi bilan tanishadilar; gazlamaga ishlov berish texnologiyasi xalq hunarmandchiligi tarmoqlari: kashtachilik, do'ppido'zlik, zardo'zlik, quroqchilik, popochilik, milliy o'yinchoqlar tayyor-lash va boshqa yo'nalishlarning asoslarini egallaydilar; gazlamaga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi sohalari; gazlamaga ishlov berishga oid kasb-hunar turlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Pazandachilik asoslari bo'limi: o'quvchilar oziq-ovqat mahsu-lotlariga ishlov berish, oshpazlik va qandolatchilik asoslari; oziq-ovqat mahsulotlarining hamda taomlarning inson hayotidagi o'rni, xususiyatlari, to'yimliligi, turlari, ovqatlanish me'yori va tartibi, oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, tashish hamda ular-ga dastlabki va asosiy ishlov berish yo'llarini o'rganadilar; osh-xonalarning jihozlanishi; oziq-ovqat sanoati, sanitariya-gigiyena

hamda mehnat xavfsizlik texnika qoidalarini; uy-ro'zg'or yuritish va jihozlardan unumli foydalanish, oila jamg'armasi va uni sarflash madaniyatini, oziq-ovqat va yengil sanoat sohalaridagi keng tarqalgan kasblar, ularning tasniflari haqidagi tushunchalarga hamda pazandachilikka oid kasb-hunar turlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Buyumlarni ta'mirlash bo'limi: turli chokidan so'kilgan buyumlarni ta'mirlash. Kiyimlarni saqlash va tuzatish usullari. Iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andazasini tayyorlash va tikish.

«Qishloq xo'jaligi asoslari» yo'naliishi

Qishloq xo'jaligi asoslari bo'limi: o'quvchilar qishloq xo'jaligi sohalari; dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirish istiqbol-lari; agronomiya asoslari, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va melioratsiya asoslari; fermerlik va mulkdorlikning boshqa turlari; qishloq xo'jaligida tadbirkorlik; mahsulotlar bozori haqida tushunchalar; madaniy ekinlarning kelib chiqishi, tarqalishi, o'sishi va rivojlanishi; tuproqning tuzilishi, unumdonligi; yerga ishlov berish va bunda qo'llaniladigan mehnat qurollari, mashina, moslamalar va ularning umumiyligi tuzilishi hamda ishlash jarayonlari, ularga qo'yiladigan agroteknik talablar; o'g'it turlari, o'g'itlash muddati va unda ishlatiladigan mashinalar; urug'larni tayyorlash va ularga ishlov berish; urug' va ko'chat ekish usullari hamda mashinalari; g'alla, don, dukkakli, tugunakli va ildiz-mevali ekinlar; sabzavot, poliz, meva, moyli, tolali va ziravor ekinlar yetishtirishda ishlatiladigan mehnat qurollari va mashinalar majmuasi; yopiq joylarda (issiqxonalarda) ekin yetishtirishning ahamiyati, istiqboli, xususiyatlari va ularda ishlatiladigan kichik o'lchamli mashinalar; yetishtirilgan hosilni yig'ib-terib olish, birlamchi ishlov berish va saqlashga oid bilimlar va amaliy ko'nikmalar; chorvachilik biologiyasi; chorva mollari, parrandachilik va boshqalar; chorvachilikda naslchilik; ozuqabop ekinlar; chorvachilikda sanitariya-gigiyena talablari, zootexnika, zooveterinariya asoslari; chorvachilikda mahsuldarlikni oshirish usullari; qishloq xo'jaligi sohalari bo'yicha kasb-hunar turlari to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Elektrotexnika ishlari bo'limi: o'quvchilar elektr montaj ishlarida ish o'rnnini tashkil qilish; elektr o'tkazish simlarining turlari; elektr o'tkazgichlarni montaj qilish izolyatsiyalash ishlari;

elektr asboblari; elektr o'tkazish simlarini montaj qilish hamda ish asboblari bilan ishlash usullarini o'rganish; bitta xonani yoritish zanjiri sxemasini tuzish; maishiy elektr asboblarini elektr manbaiga ulash, ularning atrof-muhit va inson sog'lig'iga ta'siri; elektr energiyasini tejamli ishlatish usullari; kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish o'rnini tashkil qilish; kavsharlashda simlar, kavshar, flyuslar turlari; kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish asboblari hamda ish usullari; elektr montaj ish asboblari turlari va ularda ishlash usullari; elektr bilan ishlovchi sodda uskuna va jihozlar tayyorlash; elektrotexnik hamda elektron uskunalarini ishlab chiqarish, ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish, asboblarni elektr montaj qilish va ishga tushirishga tayyorlash bilan bog'liq kasb-hunarlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'limi: o'quvchilar pol qoplamlari hamda mebellarning loklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash; oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari; xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari; pol qoplamlari hamda mebel-larning loklangan va qoplamali yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ish usullari; yurtimiz me'morchiligi tarixi, xona interyeri hamda jihozlanish dizayni; sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari; xona va fanlar bo'yicha o'quv xonalarida mebel va qo'shimcha jihoz-larni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash; taklif etilgan yechimlar asosida xonalarni jihozlash; shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari; uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari; ta'mirlashda qo'llaniladigan zamonaviy qurilish materiallari; uy va xonadonlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan asosiy ish asboblari; suv ta'minoti tizimi, suv quvurlari, ventil va jo'mraklarni sozlashda mayda ta'mirlash ishlarini bajarish; qurilish va ta'mirlash bilan bog'liq kasb-hunarlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

4. 8—9-sinf, kasbiy tayyorgarlikkacha bo'lgan jarayon mazmuni.

«Texnologiya va dizayn» yo'nalishi

Ishlab chiqarish asoslari bo'limi: o'quvchilar O'zbekistondagi ishlab chiqarish turlari va tarkibi, ularning bir-biriga bog'liqligi; texnologik jarayonlar, yangi texnika, ilg'or texnologiyalar; mehnat

faniga mexanik ta'sir etish orqali amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar; ishlab chiqarishdagi kimyoviy va fizik-texnologik jarayonlar; fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqboli; ishlab chiqarish texnologiyasi; ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar; mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish, o'lchash va taqqoslash texnologiyalari; kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish yo'nalishlari, tartibi va standartlari; mulkchilik turlari, marketing va menejment faoliyatining rivojlanishi; zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan uzviyligi; olinadigan daromad va uni taqsimlash qoidalari; mehnatni unumli tashkil etish, tejamkorlik va ishbilarmonlik asoslari; mehnatni ilmiy tashkil etish; tabiatni muhofaza qilish; sanoat miqyosida ko'p seriyali ishlab chiqarish uchun tavsiya etish mumkin bo'lgan mahsulot namunasini tayyorlash.

Xalq hunarmandchiligi texnologiyalari bo'limi: o'quvchilar yog'ochga va metallarga ishlov berish jarayonlari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchiligi texnologiyalari; hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatları, uyushmalari va uning istiqbollari; hunarmandchilik bo'yicha ko'rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalari; hunarmandlar tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar; xalq hunarmandchiligidagi foydalaniyotgan nodir materiallar, asbob-uskunalar; hunarmandchilik mahsulotlarining tashqi shakli, uzviyligi va yaxlitligi ta'minlanishiga ko'ra baholash; kompozitsion yaxlitlik; xalq hunarmandchiligiga oid tanlangan kasb-hunar turlari; xalq hunarmandchiligining tanlangan yo'nalishi bo'yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot tayyorlash ish usullari; zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash ish usullariga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Kasbga yo'naltirish asoslari bo'limi: o'quvchilar kasblar tasnifi, kasblarda mehnat turlarining ta'rifi; qo'l mehnatidan foydalinish bilan bog'liq bo'lgan kasblar; kasb-hunar egallahsha inson salomatligiga qo'yiladigan talablar; O'zbekistonda uzuksiz ta'lim tizimi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining yo'nalishlari, ularning bir-biridan farqini bilish. O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimi; kasb tanlashga doir reja tuzish; kasb tanlashdagi xatolar, qiyinchiliklarning asosiy xususiyatlari; kasb

elektr asboblari; elektr o'tkazish simlarini montaj qilish hamda ish asboblari bilan ishlash usullarini o'rganish; bitta xonani yoritish zanjiri sxemasini tuzish; maishiy elektr asboblarini elektr manbaiga ulash, ularning atrof-muhit va inson sog'lig'iga ta'siri; elektr energiyasini tejamli ishlatish usullari; kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish o'rnini tashkil qilish; kavsharlashda simlar, kavshar, flyuslar turlari; kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish asboblari hamda ish usullari; elektr montaj ish asboblari turlari va ularda ishlash usullari; elektr bilan ishlovchi sodda uskuna va jihozlar tayyorlash; elektrotexnik hamda elektron uskunalarini ishlab chiqarish, ishlatish va ularga xizmat ko'rsatish, asboblarni elektr montaj qilish va ishga tu-shirishga tayyorlash bilan bog'liq kasb-hunarlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'limi: o'quvchilar pol qoplamlari hamda mebellarning loklangan va qoplalmali yuzalarini saqlash tadbirdari va kichik ta'mirlash; oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullari; xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlari; pol qoplamlari hamda mebel-larning loklangan va qoplalmali yuzalarini saqlash tadbirdari va kichik ta'mirlash ish usullari; yurtimiz me'morchiligi tarixi, xona interyeri hamda jihozlanish dizayni; sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlari; xona va fanlar bo'yicha o'quv xonalarida mebel va qo'shimcha jihoz-larni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash; taklif etilgan yechimlar asosida xonalarini jihozlash; shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalari; uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlari; ta'mirlashda qo'llaniladigan zamonaviy qurilish materiallari; uy va xonadonlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan asosiy ish asboblari; suv ta'minoti tizimi, suv quvurlari, ventil va jo'mraklarni sozlashda mayda ta'mirlash ishlarini bajarish; qurilish va ta'mirlash bilan bog'liq kasb-hunarlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

4. 8—9-sinf, kasbiy tayyorgarlikkacha bo'lgan jarayon mazmuni.

«*Texnologiya va dizayn» yo'nalishi*

Ishlab chiqarish asoslari bo'limi: o'quvchilar O'zbekistondagi ishlab chiqarish turlari va tarkibi, ularning bir-biriga bog'liqligi; texnologik jarayonlar, yangi texnika, ilg'or texnologiyalar; mehnat

faniga mexanik ta'sir etish orqali amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar; ishlab chiqarishdagi kimyoviy va fizik-texnologik jarayonlar; fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqboli; ishlab chiqarish texnologiyasi; ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar; mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish, o'lchash va taqqoslash texnologiyalari; kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish yo'nalishlari, tartibi va standartlari; mulkchilik turlari, marketing va menejment faoliyatining rivojlanishi; zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan uzvyligi; olinadigan daromad va uni taqsimlash qoidalari; mehnatni unumli tashkil etish, tejamkorlik va ishbilarmonlik asoslari; mehnatni ilmiy tashkil etish; tabiatni muhofaza qilish; sanoat miqyosida ko'p seriyali ishlab chiqarish uchun tavsiya etish mumkin bo'lgan mahsulot namunasini tayyorlash.

Xalq hunarmandchiligi texnologiyalari bo'limi: o'quvchilar yog'ochga va metallarga ishlov berish jarayonlari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchiligi texnologiyalari; hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatları, uyushmalari va uning istiqbolları; hunarmandchilik bo'yicha ko'rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalari; hunarmandlar tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar; xalq hunarmandchiligidan foydalaniyotgan nodir materiallar, asbob-uskunalar; hunarmandchilik mahsulotlarining tashqi shakli, uzvyligi va yaxlitligi ta'minlanishiga ko'ra baholash; kompozitsion yaxlitlik; xalq hunarmandchiligiga oid tanlangan kasb-hunar turlari; xalq hunarmandchiligining tanlangan yo'nalishi bo'yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot tayyorlash ish usullari; zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash ish usullariga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Kasbga yo'naltirish asoslari bo'limi: o'quvchilar kasblar tasnifi, kasblarda mehnat turlarining ta'rifi; qo'l mehnatidan foydalanim bilan bog'liq bo'lgan kasblar; kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo'yiladigan talablar; O'zbekistonda uzlusiz ta'lim tizimi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining yo'nalishlari, ularning bir-biridan farqini bilish. O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimi; kasb tanlashga doir reja tuzish; kasb tanlashdagi xatolar, qiyinchiliklarning asosiy xususiyatlari; kasb

tanlashda shaxsnинг qiziqish va moyilliklari, qobiliyatlarini e'tiborga olish; kasb tanlashda onglilik va mustaqillik; o'z-o'zini tarbiyalash, kasb tanlashning mohiyati; kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish; o'zi xohlagan kasbga yaroqli ekanligini aniqlash, o'z ruhiyatidagi kasbga moyillikni tarbiyalash usullari; kasb egallash va ishga joylashishga doir shaxsiy reja ishlab chiqish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

«Servis xizmati» yo'nalishi

Ishlab chiqarish asoslari bo'limi: o'quvchilar O'zbekistondagi ishlab chiqarish turlari va tarkibi, ularning bir-biriga bog'liqligi; texnologik jarayonlar, yangi texnika, ilg'or texnologiyalar; mehnat faniga mexanik ta'sir etish orqali amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar; ishlab chiqarishdagi kimyoviy va fizik-texnologik jarayonlar; fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqboli; ishlab chiqarish texnologiyasi; ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar; mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish, o'lchash va taqqoslash texnologiyalari; kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish yo'nalishlari, tartibi va standartlari; mulkchilik turlari, marketing va menejment faoliyatining rivojlanishi; zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan uzviyligi; olinadigan daromad va uni taqsimlash qoidalari; mehnatni unumli tashkil etish, tejamkorlik va ishbilarmonlik asoslari; mehnatni ilmiy tashkil etish; tabiatni muhofaza qilish; sanoat miqyosida ko'p seriyali ishlab chiqarish uchun tavsiya etish mumkin bo'lgan mahsulot namunasini tayyorlash.

Xalq hunarmandchiligi texnologiyalari bo'limi: o'quvchilar pazandachilik va gazlamaga ishlov berish jarayonlari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchiligi texnologiyalari; hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatları, uyushmaları va uning istiqbollari; hunarmandchilik bo'yicha ko'rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtiroychilarni tanlash qoidalari; hunarmandlar tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar; xalq hunarmandchiligidagi foydalilanayotgan nodir materiallar, asbob-uskunalar; hunarmandchilik mahsulotlarini tashqi shaklining uzviyligi va yaxlitligi ta'minlanishiga ko'ra baholash; kompozitsion yaxlitlik; xalq hunarmandchiligidagi oid tanlangan barcha kasb-hunar turlari; xalq hunarmandchiligidagi tanlangan yo'nalishi bo'yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot tayyorlash ish

usullari; zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchiligi mahsulotlarini tayyorlash ish usullariga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

Kasbga yo'naltirish asoslari bo'limi: o'quvchilar kasblari tasnifi, kasblarda mehnat turlarining ta'rifi; qo'l mehnatidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar; kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo'yiladigan talablar; O'zbekistonda uzlusiz ta'lim tizimi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining yo'nalishlari, ularning bir-biridan farqini bilish. O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimi; kasb tanlashga doir reja tuzish; kasb tanlashdagi xatolar, qiyinchiliklarning asosiy xususiyatlari; kasb tanlashda shaxsning qiziqish va moyilliklari, qobiliyatlarini e'tiborga olish; kasb tanlashda onglilik va mustaqillik; o'z-o'zini tarbiyalash, kasb tanlashning mohiyati; kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish; o'z xohlagan kasbiga yaroqli ekanligini aniqlash, o'z ruhiyatidagi kasbga moyillikni tarbiyalash usullari; kasb egallash va ishga joylashishga doir shaxsiy reja ishlab chiqish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

«Qishloq xo'jalik asoslari» yo'nalishi

Ishlab chiqarish asoslari bo'limi: O'zbekistonda xalq xo'jaligi va ishlab chiqarish turlari. O'zbekiston qishloq xo'jaligida moddiy ishlab chiqarish asoslari, uning tarkibi, o'zaro munosabati va bir-biriga bog'liqligi. Dehqonchilik va chorvachilik sohasidagi bozor munosabatlariiga asoslangan faoliyat turlari va ularning istiqbol-lari. Texnologik jarayon haqida asosiy tushuncha. Yangi texnika va ilg'or texnologiya, uning ifodalanilishi. Agrotexnika, mexanizatsiya, yarim avtomatlar va h.k. orqali amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar. Ishlab chiqarishda amalga oshiriladigan kimyoviy va fizik-texnologik jarayonlar. Fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqboli. Ekin yetishtiriladigan issiqxonalar tuzilishi, ularda yetishtiriladigan ekin turlari. Issiqxonalarda ekin yetishtirish texnologiyasi. Dehqonchilik va chorvachilik bo'yicha ko'rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtiroychilarni tanlash qoidalari. Kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish yo'nalishlari, tartibi va standartlari. Mulkchilik turlari, marketing va menejment faoliyatining rivojlanishi.

Zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan uzviyligi. Qishloq xo'jalik asoslari yo'nalishida ishlab chiqarish texnologiyasi va uning mohiyati. Dehqonchilik va chorvachilik

yo'nalishlari bo'yicha eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini rivojlantirishning intensiv va ekstensiv yo'nalishlari. Mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish, o'lchash va taqqoslash texnologiyasi. Olinadigan daromad va uni taqsimlash qoidalari. Ishlab chiqarish korxonasida mehnatni unumli tashkil etish, tejamkorlik va ishbilarmonlik asoslari. Mehnatni ilmiy tashkil etish. Tabiatni muhofaza qilish va ishlab chiqarish. Dehqonchilik va chorvachilik yo'nalishlariga oid tanlangan bitta kasb-hunar turini tavsiflash.

Kasbga yo'naltirish asoslari bo'limi: o'quvchilar kasblar tasnifi, kasblarda mehnat turlarining ta'rifi; qo'l mehnatidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan kasblar; kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo'yiladigan talablar; O'zbekistonda uzuksiz ta'lim tizimi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning yo'nalishlari, ularning bir-biridan farqini bilish. O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimi; kasb tanlashga doir reja tuzish; kasb tanlashdagi xatolar, qiyinchiliklarning asosiy xususiyatlari; kasb tanlashda shaxs qiziqish va moyilliklari, qobiliyatlarini e'tiborga olish; kasb tanlashda onglilik va mustaqillik; o'z-o'zini tarbiyalash, kasb tanlashning mohiyati; kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish; o'zi xohlagan kasbga yaroqli ekanligini aniqlash, o'z ruhiyatidagi kasbga moyillikni tarbiyalash usullari; kasb egallash va ishga joylashishga doir shaxsiy reja ishlab chiqish bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka-larga ega bo'ladilar.

5. 8-9-sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish asoslari. Mehnat ta'limining davomi 8-9-sinflarda «Ishlab chiqarish asoslari, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish» maxsus kurslar negizida tashkil etiladi. Mazkur kurslarning har biriga haftasiga bir soatdan vaqt ajratilgan va ularning dasturidagi mazmunida quyidagilar e'tiborga olingan:

- ishchi-mutaxassisliklarning kasbiy faoliyatida qo'llaniladigan turli xil asbob-uskunalar, jihozlar moslamalar foydalanishni o'rgatish;
- mexanizatsiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan vositalar bilan ishlashni o'rgatish;
- texnologik bilim va malakalarni, mehnat qonunchiligi, xavfsizlik texnikasi, sanitariya-gigiyena qoidalari asoslарini o'rgatish;

- 5–7-sinflardagi o‘zlashtirgan materiallar bilan uzviy bog‘-langan turli ishlab chiqarish sohalari mazmuniga taalluqli dastlabki ma’lumotlarni o‘rgatish;
- o‘lhash-tekshirish asboblaridan, to‘plangan ma’lumotlardan foydalana olish, mehnat topshiriqlarini bajarish, olingan nati-jalarni qo‘yilgan talablar bilan taqqoslash orqali xulosa chiqarish, o‘quvchilarni tanlangan aniq kasb malakasiga o‘rgatish;
- o‘quvchilarda bilimga intilish va mehnatga muhabbat, mehnat kishisiga nisbatan hurmat hissini singdirish, ularni ja-moatchilik, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashni o‘quvchilar tanlagan aniq kasb malakasida o‘rgatish;
- o‘quvchilarga bozor iqtisodiyoti qonuniyatları, talablari asosida sifatli, raqobatbardosh iste’mol mollari, mehnat mahsulotlari yetishtirish va yetishtirilgan mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazish vositalarini o‘rgatish, ish boshqaruvchi (menejerlik) unsurlarini, homiylik, ishbilarmonlik sifatlarini shakllantirib borish va rivojlantirishni o‘quvchilar tanlagan aniq kasb malakasida o‘rgatish;

— xalq hunarmandchiligi kasblarini o‘rgatish orqali xalq milliy ruhini, yashash tarzini, an'analarini tiklash va rivojlantirish. Milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq usullarining boy merosini o‘rgatish va ulardan o‘z amaliy faoliyatlarida foydalanish ko‘nikmalarini mustahkamlashni, o‘quvchilar tanlagan aniq kasb malakasida o‘rgatish.

Shunda mehnat ta’limi va kasbga tayyorlash jarayonlarida axborot texnologiyalari va kompyuter texnikasi, yangi texnologiya va jihozlarning qo‘llanilish sohalarini zamonaviy talablar darajasida va jahon tajribalariga mos holda o‘rganishlarini ta’minalash yuzasidan o‘quvchilarda tanlangan kasb bo‘yicha mehr shaklla-nadi.

8–9-sinflardagi mehnat ta’limi DTS ni va davlat dasturini mukammal tahlil etilsa, uning mazmunidan umumiy: iqtisodiy, huquqiy, ekologik, ijtimoiy, ma’naviy, ma’rifiy, madaniy, falsafiy va insoniyatning boshqa masalalariga xos tushunchalar hosil etiladi.

Mazkur sinflardagi mehnat ta’limining bir yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy-sohaviy jihatlari yuzasidan mukammal tahlil etilsa, unda o‘quvchilarni har yo‘nalishga xos soha, tarmoq ishlab chiqarish va kasb-hunar bilan tanishtirishga xos materiallar to‘plib, ular

asoslariga oid quyidagi ta'limiy va tarbiyaviy ishlarni olib borishga imkoniyalari mavjudligi aniqlanadi:

1. Umumiy-sohaviy (tarmoqli, ishlab chiqarish, kasb-hunarli) ma'naviy-ma'rifiy va madaniy ta'lif-tarbiya asoslari.
 2. Xususiy-sohaviy (tarmoqli, ishlab chiqarish, kasb-hunarli) ma'naviy-ma'rifiy va madaniy ta'lif-tarbiya asoslari.
 3. Umumiy-sohaviy (tarmoqli, ishlab chiqarish, kasb-hunarli) siyosiy ta'lif-tarbiya asoslari.
 4. Xususiy-sohaviy (tarmoqli, ishlab chiqarish, kasb-hunarli) siyosiy ta'lif-tarbiya asoslari.
 5. Umumiy-sohaviy (tarmoqli, ishlab chiqarish, kasb-hunarli) iqtisodiy ta'lif-tarbiya asoslari.
 6. Xususiy-sohaviy (tarmoqli, ishlab chiqarish, kasb-hunarli) iqtisodiy ta'lif-tarbiya asoslari.
 7. Umumiy-sohaviy (tarmoqli, ishlab chiqarish, kasb-hunarli) ijtimoiy ta'lif-tarbiya asoslari.
 8. Xususiy-sohaviy (tarmoqli, ishlab chiqarish, kasb-hunarli) ijtimoiy ta'lif-tarbiya asoslari.
 9. Umumiy-sohaviy (tarmoqli, ishlab chiqarish, kasb-hunarli) huquqiy ta'lif-tarbiya asoslari.
 10. Xususiy-sohaviy (tarmoqli, ishlab chiqarish, kasb-hunarli) huquqiy ta'lif-tarbiya asoslari.
 11. Umumiy-sohaviy (tarmoqli, ishlab chiqarish, kasb-hunarli)

Shularni inobatga olgan holda yuqori sinflarda (8–9) mehnat ta’limining negizida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishni turli ta’limiy-tarbiyaviy asoslarini yoritishni maqsad qilib olishga zamin yaratiladi. Bunda, mehnat ta’limining mazmuni deganda, umumlashgan ilmiy-teknikaviy bilimlar yig‘indisi, asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari uchun xarakterli bo‘lgan umumiyl tekniqa, umumiyl texnologiya, umumiyl ishlab chiqarish hamda o‘quvchilarga umumiyl mehnat tayyorgarligini ta’minlab beradigan, shuningdek, bundan keyingi umumiyl va kasb-hunarga tayyorgarlikda ham zarur bo‘ladigan mehnat ko‘nikmalari va malakalar majmuasi tushuniladi.

8-9-sinflardagi mehnat ta'limida «Texnologiya va dizayn», «Qishloq xo'jaligi asoslari» va «Servis xizmati» yo'nalishlari

bo'yicha shu sohalardagi kasblarga xos materiallar to'planadi va o'rganiladi.

8—9-sinflardagi «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi — maktab-larning o'quv ustaxonalarida amalga oshiriladi, bu ustaxonalarda o'quvchilar yog'och, metall va nometall materiallarni qo'lda va mexanik tarzda ishlash elementlari bilan tanishadilar: ana shu materiallarni ishlashga oid kasblarni o'rganadilar, ular bajariladi-gan ishlarning sifatini va o'quvchilar mehnatining unumdonligini oshirishga yordam beradigan har xil moslamalar bilan boyitadi-lar. Ayniqsa, shu kasblarga, sohalarga xos elektromontaj operatsiyalarini, mehnatni texnikaviy rejalashtirish va uning umumiyy madaniyatini egallab oladilar.

Mazkur mehnat ta'limi yo'nalishlari yuzasidan qo'llaniladigan materiallar materialshunoslik bo'limida, turli materallarning xusu-siyatlari, qo'llanishi, ularni tayyorlash texnologiyasi va boshqa zarur ma'lumotlar ta'riflarini kasblar bilan bog'lab o'rganishlari lozim.

Mehnat ta'limining har bir yo'nalishidagi mavjud ma'lumotlar tanlagan mehnat turining milliy asoslarda alohida o'rinn egal-laydi. Unda O'zbekiston va Markaziy Osiyoda asrlar mobaynida rivojlangan ishlab chiqarish sohalari, kasb-hunarlari, shakllanib kelgan an'anaviy buyum va mahsulotlar mehnat ta'limining milliylashtirilgan qismini tashkil etgan. O'quvchilarni mazkur yo'nalishlardagi mehnat bilan tanishtirish, unga o'rgatish va shu sohadagi kasb-hunarlarni «Ota-kasb» yoki «Ustoz-shogird» an'analari metodikasida mehnatga, hayotga tayyorlashga tegishli ma'lumotlar va imkoniyatlar mavjud.

Yuqori sinf o'quvchilari ishlab chiqarish asoslari hamda undagi tarmoqlar, korxonalar, kasblar va ularni tanlash qoidalari, tamoyillari hamda boshqa ma'lumotlarga ega bo'lishlari uchun olimlar, mutaxassislar, pedagoglar, metodistlar tomonidan ishlab chiqilgan fundamental asoslarni har tomonlama o'rganishlari lozim. Shunda o'quvchilarga ma'lum bo'ladiki, olimlar xalq xo'jaligi soha va tarmoqlarida mavjud kasblarni besh tizimga bo'lganlar. Ular quyidagilar:

1. Odam-texnika tizimi.
2. Odam-tabiat tizimi.
3. Odam-odam tizimi.
4. Odam-raqamlar tizimi.
5. Odam-badiiy obraz tizimi.

I. Odam-texnikadagi tizimida odamlarning tanlagan kasblari texnika bilan chambarchas bog'langanligidan darak beradi: tokar, haydovchi, o'quvchi va hokazo.

II. Odam-tabiat tizimidagi kasblar tabiat bilan bog'liqligi ravshan bo'ladi: agronom, bog'bon, ekolog va hokazo.

III. Odam-odam tizimidagi kasblar: bog'cha tarbiyachisi, o'qituvchi, murabbiy va hokazo.

IV. Odam-raqamlar bilan bog'langan kasblar: buxgalter, kompyuterchi, hisobchi, soliq xodimi va hokazo.

V. Odam-badiiy obrazdagi kasblar: artist, rejissor, yozuvchi, dramaturg va hokazo.

Bu borada ta'kidlash zarurki, yuqori sinf o'quvchilari kasb tanlashda boshqa kasb tanlash omillari orqali o'zlari qiziqqan kasblarni tanlashlari mumkin. Ular quyidagicha:

1. Kitobni tayyorlash, ishlab chiqarish va xaridorlarga tarqatish bilan shug'ullanadigan kasb egalari: yozuvchi, dramaturg, muharrir, korrektor, raqam teruvchi, sotuvchi va boshqa kasb egalari.

2. Teatr, uni tayyorlash, ko'rsatish bilan shug'ullanadigan boshqa kasb egalari: yozuvchi, dramaturg, rejissor, artist, sahnani jihozlovchi va boshqa kasb egalari.

3. Kino, uni tayyorlash, ko'rsatish bilan band bo'ladigan kasb egalari: yozuvchi, rejissor, artist, kaskadyor, montajchi va boshqa kasb egalari.

4. Harbiy, ichki ishlarni muhofaza etuvchi organlar va boshqa qayd etilmagan sohalar, tarmoqlar, idoralarda faol ishtirok eta-yotgan kasb-mutaxasislik egalari to'g'risida olib boriladigan kasb tanlash ishlari mehnat ta'limi bilan bevosita bog'lanmagan bo'lsa ham, 8—9-sinf o'quvchilar bilan mazkur kasblar yuzasidan tarbiyaviy, kasbga yo'naltiruvchi tadbirilar (uchrashuvlar, suhbatlar, ekskursiyalar va boshqa ishlar) olib borilishi maqsadga muvofigdir.

Undan tashqari 8—9-sinf o'quvchilar bilan mehnat va kasb tu-shunchalari yuzasidan olib boriladigan ishlarni rejalash va tashkil etishda quyidagi materiallardan unumli foydalanish lozim.

Ma'lumki, insoniyat qanchalik qadimiy bo'lsa uning an'analari, qadriyatları va ma'naviy meroslari ham shunchalik qadimiydir. Bular esa xalqning ildizi, uning tarixi, millatning qiyofasidir. Buning bunyodkori, ijodkori, saqlovchisi va yoqlochisi, tarixiy taraqqiyotning hal qiluvchi kuchi xalq ommasidir. Unda

ta'limning va tarbiyaning cheki yo'q, u «cheksizdir». Bu kuchning o'rnnini hech bir omil bosa olmaydi. Undan aql-idrok bilan jamiyat manfaatlari yo'lida samarali foydalanish jamoat tashkilotlarining muhim burchi hisoblanadi.

Yoshlarning kasb-hunar egallashlariga ko'maklashish, ularni butun chorvachilik, sanoat, qishloq xo'jaligi bilan xo'jalik va madaniy qurilish ishlariga jalb qilish har tomonlama kamol topgan shaxsni tarbiyalashning muhim sharti ekanligini unutmasligimisiz zarurdir. Ko'pchilik yoshlarimiz «kasb-hunar» tushunchalarida ko'p adashadilar. Ammo bu tushunchalar bir-biridan qisman bo'sada farqlanadi.

«Kasb» so'zi «tirikchilik» «yashash» vositasi bo'lgan ish yoki egallash, o'rganish ma'nosida berilsa, «hunar» so'zi esa, o'rganib malaka, ko'nikma hosil qilinadigan ish va uni bajarish qobiliyati yoki san'at va mahorat ma'nosida ishlatalidi.

Shunday mutaxassislar borki, ular xalqimizda sevib ardoqlanib kelinayotgan ustalarni tayyorlaydiki, sho'ro davrida uzoq yillar davomida ana shunday ustalar mehnati e'tibordan chetda qoldi. Hozirgi vaqtida esa ustaning qadrini tiklash payti keldi.

Kasb-hunar kollejlarida zamon talablariga javob beradi-gan o'quv-tarbiya ishlarini tashkil qilish yangicha pedagogik tafakkurining «mevasi» bo'lishi zarur. Shu ma'noda kollej o'quvchilarining shaxsiy fazilatlari, kasbiy bilimlari, ijodkorligi va mahorati ko'p jihatlardan ishlab chiqarish ta'limi jarayonining qay darajada tashkil qilinishiga bog'liq.

Kasb-hunar kollejlarida quyidagi kasbiy faoliyat sohalari bo'yicha ishlab chiqarish ta'limi amalga oshiriladi: sanoat (mashinasozlik, energetika, samolyotsozlik, avtomobilsozlik, metallurgiya, geologik va foydali qazilmalarni ishlab chiqish, kimyo sanoati, yengil sanoat, poligrafiya ishlab chiqarishi, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish), transport, aloqa qurilishi, uy-joy kommunal xo'jaligi, qishloq va o'rmon xo'jaligi, sog'liqni saqlash, maorif, madaniyat va san'at, ijtimoiy va iqtisodiy soha, savdo, umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish va boshqalardir.

O'z navbatida, ulardagi har bir kasbiy faoliyat sohasi bir qancha ixtisosliklarni qamrab oladi. Masalan, «Qishloq va o'rmon xo'jaligi» kasbiy faoliyat sohasida kamida 20 xil kasb bo'lib, ularning har biri bir necha ixtisosliklarni o'z ichiga oladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Mehnat ta'llimining qanday maqsad va vazifalari bor?
2. 1–4-sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga qanday zaruriy talablar qo'yiladi?
3. 5–7-sinflarda «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi bo'yicha qanday mehnat tayyorgarligi ko'rildi?
4. 5–7-sinflarda «Servis xizmati» yo'nalishi bo'yicha qanday mehnat tayyorgarligi ko'rildi?
5. 5–7-sinflarda «Qishloq xo'jaligi asoslari» yo'nalishi bo'yicha qanday mehnat tayyorgarligi ko'rildi?
6. 8–9-sinf, yo'nalishlar bo'yicha kasbiy tayyorgarlikkacha bo'lgan tayyorgarlik mazmunini izohlang.
7. 8–9-sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish ishlari qanday amalga oshiriladi?
8. Xalq xo'jaligi soha va tarmoqlarida mayjud kasblar nechta tizimga bo'linadi?

3.2. «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar

Reja:

1. 5-sinf, «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar.
2. 6-sinf, «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar.
3. 7-sinf, «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar.
4. 8-sinf, «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar.
5. 9-sinf, «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar.

Tayanch iboralar: texnologiya, dizayn, bilim, ko'nikma, malaka, metallga ishlov berish, yog'ochga ishlov berish, elektrotexnika

ishlari, uy-ro‘zg‘or buyumlarini ta’mirlash, xalq hunarmandchili-gi texnologiyasi, ishlab chiqarish asoslari, kasb tanlashga yo’llash.

1. 5-SINF. «Texnologiya va dizayn» yo‘nalishi mazmuni, o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar.

«Texnologiya va dizayn» yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:

Metallga ishlov berish texnologiyasi: metallga ishlov berish ustaxonasining tuzilishi; metallga ishlov berishda xavfsizlik texnikasi qoidalari; metallning turmushda va xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, tuzilishi, turlari, ishlatilish sohalari; metallarning tashqi ko‘rinishi va o‘ziga xos belgilari; metallga ishlov berishda qo‘l asbob-uskulnali, moslamalarining tuzilishi va turlari, vazifalari, foydalanish qoidalari; chilangarlik dastgohi; o‘lchash va rejalahsh asboblari; arralar va frezalar turlari; vazifalari, foydalanish qoidalari; chilangarlik dastgohi; o‘lchash va rejalahsh asboblari: chizg‘ichlar, buklama metr, metall qalamlar va boshqalar; metallga ishlov berish stanoklari va ular haqida tushuncha; mashinalarning asosiy qismlari; stanokda parmalash; metallarga ishlov berish texnologiyasi, konstruksiyalash elementlari; yupqa tunuka va simdan buyumlar tayyorlash; metall buyumlarni harakatsiz va yarim harakatchan biriktirish turlari; metallarga ishlov berishda qo’llaniladigan xalq hunarmandchiligi va dizayn elementlari; metallga ishlov berishga oid kasb-hunarlar haqidagi bilimlarni bilish.

Yog‘ochga ishlov berish texnologiyasi: yog‘ochning turmushda va xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, tuzilishi, turlari, ishlatilish sohalari; yog‘ochlarning tashqi ko‘rinishi va o‘ziga xos belgilari; yog‘ochning yaroqlilik va yaroqsizlik belgilari; duradgorlikda ishlatiladigan yog‘ochlar; duradgorlik dastgohi, qo‘l asboblarining tuzilishi va turlari, ulardan foydalanish qoidalari; o‘lchash va rejalahsh asboblari; arralar va randa turlari; iskanalar, bolta va teshalar; bolg‘alar va ularning turlari; egov va jilvir qog‘ozlar tuzilishi va turlari; yog‘ochga ishlov berish stanoklari; mashinalarning asosiy qismlari; stanokda parmalash; duradgorlik buyumlari detallarini tayyorlash; duradgorlik birikmalari to‘g‘risida ma’lumotlar; yelimalash, mixlar, burama mixlar va boshqa vositalar bilan biriktirish; buyumlar yuzasiga qoplamlalar yopishtirish; duradgorlik buyumlarining sirtini pardozlash va detallarni konstruksiyalash; yog‘ochdan uy-ro‘zg‘or buyumlari tayyorlashda foydalanish; yo-

g'ochga ishlov berishda qo'llaniladigan xalq hunarmandchiligi elementlari; yog'ochga ishlov berishga oid kasb-hunarlar haqidagi bilimlarni bilish.

Elektrotexnika ishlari: elektr montaj ishlarida ish o'rnini tashkil qilishni, elektr o'tkazish simlarining turlarini elektr o'tkazgichlarni montaj qilish izolyatsiyalash ishlarini, elektr asboblarini, sohaga oid kasb-hunarlar to'g'risida ma'lumotni, elektr o'tkazish simlarini montaj qilish hamda ish asboblari bilan ishlash usullarini bilish.

Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash: pol qoplamlari hamda mebellarning loklangan va qoplamlari yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash ishlarini, oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullarini, xizmat ko'rsatish sohalariga oid kasb-hunar turlarini bilish.

«Texnologiya va dizayn» yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

Metallga ishlov berish texnologiyasi: metallarning turlari, xosalari, sifatlari, shakkllari, o'Ichamlari, qo'llanilishi va ishlatilish texnologiyalari bo'yicha ma'lumotlar asosida laboratoriya ishlarini; metallga ishlov berishda ishlatiladigan qo'l asboblarini turlarga ajratish va ularning ishga yaroqliligini aniqlay olish; asboblarni ishga tayyorlash va ular bilan ishlay olish; metallga ishlov berish stanoklarining tuzilishi, qismlaridagi kuch-harakatning uzatilish yo'li, stanokni ishga tayyorlay olish; detallar va buyumlarning konstruktiv yechimlarini topa olish; metallarga ishlov berish jarayonlari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchiligiga oid ish usullarini bajara olish.

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi: mahalliy hududda o'sadigan daraxtlar va ulardan olinadigan yog'och turlarini farqlay olish; yog'ochlarning sifatini va ularning nuqsonlarini; asbobuskuna va moslamalarni ishga tayyorlash, foydalanish va ta'mirlay olish; yog'ochga ishlov berish stanoklarining tuzilishi, qismlaridagi kuch-harakatning uzatilish yo'li, stanokni ishga tayyorlay olish; tayyorlanmaning eskizi va texnologik xaritasini tuza olish, tanlash, rejalash va tayyorlash; yog'ochga ishlov berish jarayonlari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchiligiga oid ish usullarini bajara olish.

Elektrotexnika ishlari: elektr montaj ishlarida ish o'rnini tashkil qilishni, elektr o'tkazish simlarining turlarini, elektr

o'tkazgichlarni montaj qilish izolyatsiyalash ishlarini, elektr asboblarini, elektr o'tkazish simlarini montaj qilish hamda ish asboblari bilan ishlash usullarini amaliy mashq'ulotda qo'llay olish.

Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash: pol qoplamlari hamda mebellarning loklangan va qoplamlami yuzalarini saqlash va kichik ta'mirlash ishlarini, oyna romlarini kichik ta'mirlash va qishda issiqlikni saqlash usullarini qo'llay olish.

«Texnologiya va dizayn» yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'lishlari kerak:

Metallga ishlov berish texnologiyasi: metalldan buyum va mahsulotlar tayyorlashda ularning turlari, xossalari, sifatlari, shakllari, o'lchamlari, qo'llanilishi va ishlatilish texnologiyalarini to'g'ri qo'llay olish; metallga ishlov berishda qo'l asboblarida bajariladigan mehnat operatsiyalari xususiyatidan kelib chiqib to'g'ri foydalanish; asboblarni ishga tayyorlash va saqlash qoidalariga rivoja qilish; metallga ishlov berish stanoklarini bajariladigan operatsiya xususiyatiga ko'ra ishga tayyorlash; metallarga ishlov berishda xalq hunarmandchiligi elementlarini qo'llash.

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi: mahalliy hududda o'sadigan daraxtlar va ulardan olinadigan yog'och turlarini farqlash; yog'ochlarning sifatini va ularning nuqsonlarini aniqlash; asbob-uskuna va moslamalarni ishga tayyorlash, foydalanish va ta'mirlash; tayyorlanmaning eskizi va texnologik xaritasini tuzish, tanlash, rejalash va tayyorlash; yog'ochga ishlov berish jaryonlari bilan uyg'unlashtirilgan xalq hunarmandchiligiga oid ish usullarini bajarish.

Elektrotexnika ishlari: elektr o'tkazish simlarini montaj qilish hamda ish asboblari bilan ishlash usullarini o'rganish.

Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash: pol qoplamlari hamda mebellarning loklangan va qoplamlami yuzalarini saqlash tadbirlari va kichik ta'mirlash usullarini o'rganish.

2. 6-SINF. «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar.

«Texnologiya va dizayn» yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

Metallga ishlov berish texnologiyasi: qora metall qotishmalarini cho'yan va po'latning asosiy mexanik xossalari; tayyorlanadigan buyumlar; metallarni o'lhash va rejalash asboblaridan foydalanish; shtangensirkul bilan o'lhash usullari; tokarlik vint qirqish

stanogining vazifasi, qo'llanilishi, tuzilishi, asosiy qismlari va ularning vazifasi; tokar va chilangarning ish o'rnini tashkil qilish; tokarlik ishlarida moslamalardan foydalanish; metallga issiqlik va sovuqlik ishlovi berishning mohiyati; texnika va konstruksiyalash elementlari; buyumlarni tayyorlash: loyihalash, o'lchash, rejalash, biriktirish, pardozlash, arra bilan kesish, egovlash, zubilo bilan ishlash usullari, bir necha detal va tayyorlanmaga ishlov berish, metallarga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullarini bilish.

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi: yog'ochning fizikaviy xossalari; yog'och turlarining xususiyatlari; duradgorlikda ishlatiladigan yelimlar va bo'yoqlar turlari, xususiyatlari, ishlatilish sohalari; yog'ochlarni rejalash, o'yish, parmalash asboblarining turlari, ularni ishlatish va saqlash qoidalari; qo'l randa va parmalash qurilmalarining tuzilishi; stanoklarning asosiy qismlari va vazifalari; yog'ochga ishlov beradigan tokarlik stanogi, unda bajariladigan operatsiyalar; stanoklar tuzilishidagi umumiylilik; ulardagi harakat uzatish mexanizmlari, kinematikasi; yog'ochga ishlov berish texnologiyasi asosida uy-ro'zg'or buyumlarini tayyorlash; yelimlarni ishga tayyorlash va ulardan foydalanish qoidalari; yog'ochga ishlov berishni o'rgatishda fanlararo aloqalar; yog'ochga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullarini bilish.

Elektrotexnika ishlari: bir xonani yoritish zanjiri sxemasini, maishiy elektr asboblarini elektr manbaiga ulashni, ularning atrof-muhit va inson sog'lig'iga ta'sirini, elektr energiyasini tejamli ishlatish usullarini, elektrotexnik hamda elektron uskunalarini ishlab chiqarish, ishlatish va ularga xizmat ko'rsatishga oid kasb-hunarlar to'g'risida ma'lumotni bilish.

Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash: yurtimiz me'morchiligi tarixiga oid qisqacha ma'lumotlarni, xona interyeri hamda jihozlanish dizayniga talablarni, sohaga oid yurtimizda tarkib topgan an'analar hamda zamonaviy taraqqiyot yo'nalishlarini, xona va fanlar bo'yicha o'quv kabinetlarida mebel va qo'shimcha jihozchlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlashni taklif etilgan yechimlar asosida xonalarni jihozlashni bilish.

«Texnologiya va dizayn» yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

Metallga ishlov berish texnologiyasi: metallarga ishlov berish, materiallarning xususiyatlarini aniqlay olish; o'lhash, rejalash va dastlabki ishlov berish asboblarini ishga tayyorlash va ishlash usullarini bajara olish, metallga ishlov beruvchi asboblarning ishchi qismlarini sozlash va ta'mirlash; parmalash va chilangarlik-vint qirqish stanoklarining qismlaridan ishchi detallarni ajratish; tayyorlanadigan detal eskizi chizmalarini, texnologik xaritalarni tuzish va o'qish; materialni tejamli sarflashni rejalash; metallarga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullarini bajara olish.

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi: yog'och-taxta materiallarning turlarini va xususiyatlarini aniqlash; yog'och assoslari yarimtayyor mahsulotlar namunalarini bilan tanishish va ishlatilish sohalarini aniqlash; yelimplar va bo'yoqlarni ishlatish; yog'ochga ishlov berish asboblaridan foydalanish usullarini qo'llash; asboblarni sozlash va ta'mirlash; yog'ochga ishlov beruvchi tokarlik va parmalash stanoklarining tuzilishini, ularni ishga tayyorlash hamda xavfsiz ishlatish qoidalariiga amal qilish; silindr shaklidagi detallar eskizini tuzish; yog'ochdan tayyorlanadigan buyumni tanlash, rejalash, o'lhash; yog'och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlar tayyorlay olish.

Elektrotexnika ishlari: maishiy elektr asboblarini elektr manbaiga ulashni, ularning atrof-muhit va inson sog'lig'iga ta'sirini, elektr energiyasini tejamli ishlatish usullarini, elektrotexnik hamda elektron uskunalarini ishlata olish.

Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash: xona interyeri hamda jihozlanish dizayniga talablarni, xona va fanlar bo'yicha o'quv kabinetlarida mebel va qo'shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlashni taklif etilgan yechimlar asosida xonalarni jihozlay olish.

«Texnologiya va dizayn» yo'naliishi bo'yicha o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'lislari kerak:

Metallga ishlov berish texnologiyasi: metallarga ishlov berishda materiallarning xususiyatlaridan to'g'ri foydalanish; buyum va mahsulotlarni tayyorlashda o'lhash, rejalash va dastlabki ishlov berish asboblarini ishga tayyorlash va ishlash usullarini bajarish; metallga ishlov beruvchi asboblarining ishchi qismlarini sozlash va ta'mirlash; parmalash va chilangarlik vint qirqish stanoklarining qismlaridan ishchi detallarni ajratish; tayyorlanadigan detal

eskizi chizmalarini, texnologik xaritalarni tuzish va o'qish; materialni tejamli sarflash; metallarga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullarini qo'llash.

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi: yog'och-taxta materiallarining turlarini va xususiyatlarini aniqlash; yog'och asosli yarimtayyor mahsulotlarni ishlatilish sohalarini aniqlash; yelmlar va bo'yoqlarni ishlatish; yog'ochga ishlov berish asboblaridan foydalanish usullarini qo'llash; asboblarni sozlash va ta'mirlash; yog'ochga ishlov beruvchi tokarlik va parmalash stanoklarini ishga tayyorlash hamda xavfsiz ishlatish; silindr shaklidagi detallar eskizini tuzish; yog'ochdan tayyorlanadigan buyumni tanlash, rejalash, o'lhash; yog'och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlar tayyorlash.

Elektrotexnika ishlari: bir xonani yoritish zanjiri sxemasini o'rGANISH. Stol lampasining elektr zanjirini tuzish va tayyorlash.

Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash: xona va fanlar bo'yicha o'quv kabinetlarida mebel va qo'shimcha jihozlarni joylashtirish sxematik tasviri hamda eskizlarini tayyorlash, taklif etilgan yechimlar asosida xonalarni jihozlash.

3. 7-SINF. «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar.

«Texnologiya va dizayn» yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

Metallga ishlov berish texnologiyasi: rangli metallar va ularning qotishmalarining mexanik xossalari; tayyorlanadigan buyumlar; yupqa tunukalar, simlar turlari, undan yasadigilan detallar; sterjen, tunuka va simlarni qirqish, bukish va to'g'rilash asboblaridan foydalanish; shtangensirkul, nutromer, shablonlar, mikrometrning tuzilishi va o'lhash usullari; nonius bilan hisoblash; o'lhash asboblari yordamida aniqlik sinflarini tekshirish; frezerlash, tokarlik, parmalash, charxlash stanoklarining vazifasi, tuzilishi va ishlash qoidalari; charxlash usullari; tokarlik, frezerlash stanoklarida detallarga ishlov berish texnologiyasi; metallardan tayyorlanadigan buyumlarga, detallarga ishlov berish, konstruksiyalash elementlari; mahsulot tayyorlashda rang va ranglar uyg'unligini his qilish; xromatik va axromatik ranglar; ranglarning inson psixologiyasiga ta'siri; rang va muhit; rangli metallarga ishlov berishga oid xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullarini bilish.

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi: yog'ochning kimyoviy va texnologik xossalari; yog'ochning haroratga, namlikka, mikro-organizmlarga va boshqa ta'sirlarga chidamliligini ta'minlashga xizmat qiluvchi materiallar; yog'ochni quritish va saqlash qoidalari; yog'ochdan tayyorlangan buyumlarga pardoz berishda ishlatiladigan materiallar; yog'ochga ishlov berishda qo'l asboblaridan foydalanish texnologiyasi; tokarlik, parmalash stanoklarining vazifasi, tuzilishi va ular bilan ishlash qoidalarini, tokarlik stanogida detallarga ishlov berish texnologiyasi; yog'ochga ishlov berish texnologiyasi; uy-ro'zg'or, turmushda va mакtabda qo'llanilayotgan texnika va konstruksiyalash elementlari; eskizlar asosida buyumlar tayyorlash; shakli silindrsimon, konussimon va fasonli, burchakli sathlar birikuvidan hosil qilingan detallar; chizmalarda texnik talablarni ifodalanish qoidalari; buyumlarning tashqi shaklini dizayn talablari asosida o'rganish va baholash; buyum shaklining xarakteristikasi; simmetriya va assimetriya; yog'och va metallga ishlov berishni uyg'unlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullarini bilish.

Elektrotexnika ishlari: kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish, ish o'rni tashkil etishni; simlar, kavshar, flyuslar turlarini kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish asboblari hamda ish usullarini, asboblarni elektr montaj qilish va ishga tushirishga tayyorlash bilan bog'liq kasb-hunar turlarini bilish.

Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash: shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi, issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalarini, uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlarining asosiy turlarini, ta'mirlashda qo'llaniladigan zamонавиј qurilish materiallarini, uy va xonadonlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan asosiy ish asboblarini, qurilish va ta'mirlash bilan bog'liq kasb-hunarlar to'g'risida ma'lumotlarni bilish.

«Texnologiya va dizayn» yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar quyidagi ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak:

Mетallga ishlov berish texnologiyasi: metallarga chilangularlik va tokarlik ishlovi berish turlari va usullari; sterjen, tunuka, simlarga ishlov berish asboblarini ishga tayyorlash va ular bilan ishslash; metallga ishlov berish asboblarini turlari haqida ma'lumotlarni aniqlash va referat yozish; tokarlik, frezerlik, parmalash va charxlash stanoklarida oddiy operatsiyalarni bajarish; uy-ro'zg'or, turmush

va mактаб учун metall буyумлар materialлardan буyумлар тay-yorlash; texnologik xaritalar tayyorlash, chizish, foydalana olish.

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi: yog'ochlar va ularga ishlov berish materillarini turlarga ajratish va xususiyatlarini aniqlash; yog'ochga qo'lда ishlov berish asboblari ni ishga tayyorlash hamda ish jo'yini tashkil qilish; yog'ochga ishlov berishda tokarlik va parmalash stanoklarida operatsiyalarini bajarish; konussimon va fason burchak sathli detallarni va ularning eskizlarini tuzish va chizmalarini tayyorlash; tayyorlanadigan detallar texnologik xaritalari; yog'och va metallga ishlov berishni uyg'unlashtiruvchi xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ish usullari asosida buyumlar tayyorlay olish.

Elektrotexnika ishlari: kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish, ish o'rni tashkil etishni, simlar, kavshar, flyuslar turlarini kavsharlash asosida elektr montaj ishlarini bajarish ish asboblari hamda ish usullarini, asboblarni elektr montaj qilish va ishga tushirishga tayyorlay olish.

Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash: shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi, issiqlik ta'minoti tizimi va undan foydalanish qoidalarini, uy va xonadonlarni ta'mirlash ishlari ning asosiy turlarini bilish, ta'mirlashda qo'llaniladigan zamonaviy qurilish materiallaridan, uy va xonadonlarni ta'mirlashda qo'llaniladigan asosiy ish asboblardan foydalana olish.

«Texnologiya va dizayn» yo'naliishi bo'yicha o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'lishlari kerak:

Mетallga ishlov berish texnologiyasi: chilangarlik va tokarlikda metallarga ishlov berish usullarini bajarish; tokarlik, frezerlik, parmalash va charxlash stanoklarida oddiy operatsiyalarni bajarish; uy-ro'zg'or, turmush va mактаб учун metall materialлardan буyумлар тay-yorlash; texnologik xaritalar tayyorlash, chizish, foydalanish.

Yog'ochga ishlov berish texnologiyasi: yog'ochga qo'lда ishlov berish asboblari ni ishga tayyorlash hamda ish jo'yini tashkil qilish; yog'ochga ishlov berishda tokarlik va parmalash stanoklarida operatsiyalarni bajarish; konussimon va fason burchak sathli detallarni va ularning eskizlarini tuzish va chizmalarini tayyorlash; tayyorlanadigan detallar, texnologik xaritalar; yog'och va metallga ishlov berishni uyg'unlashtiruvchi xalq hunarmandchilik turlari bo'yicha ish usullari asosida buyumlar tayyorlash.

Elektrotexnika ishlari: elektr montaj ish asboblari turlari va ularda ishlash usullarini o'rganish; elektr bilan ishlovchi sodda uskuna va jihozlar (svetofor, giryanda va b.) tayyorlash.

Uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash: shahar va qishloq uylarida suv, gaz, elektr energiyasi va issiqlik ta'minoti tizimining sxematik tasvirini tayyorlash; suv ta'minoti tizimi, suv quvurlari, ventil va jo'mraklarni sozlashda mayda ta'mirlash ishlarini bajarish.

4. 8-SINF. «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar.

«Texnologiya va dizayn» yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi: hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlarini, uyushmalari va uning istiqbollarini, xalq hunarmandchiligi bo'yicha ko'rgazma va tanlovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalarini, xalq hunarmandchiligining tanlangan yo'nalishi bo'yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot tayyorlash ish usullarini bilish.

Ishlab chiqarish asoslari: O'zbekistondagi ishlab chiqarish turlarini, O'zbekiston xalq xo'jaligida sanoat va qurilishda moddiy ishlab chiqarish asoslari va uning tarkibi, o'zaro munosabati, bir-biriga bog'liqligini, texnologik jarayon haqida asosiy tushunchani, yangi texnika va ilg'or texnologiya, uning ifodalanishi, mehnat predmetiga mexanik ta'sir etish (materialarni kesish, qirqish, biriktirish, payvandlash va h.k.) orqali amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar; ishlab chiqarishda amalga oshiriladigan kimyoviy va fizik-texnologik jarayonlarni, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqbolini, kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish yo'nalishlari, tartibi va standartlarini, mulkchilik turlarini, marketing va menejment faoliyatining rivojlanishini bilish; sanoat miqyosida ko'p seriyali ishlab chiqarish uchun tavsiya etish mumkin bo'lgan mahsulot namunasini (makiyi, modeli) tayyorlash, unda qo'llanilgan xomashyo, ijodiy g'oya va dizayn yechimlarini asoslashni bilish.

Kasb tanlashga yo'llash: kasblar tasnifini, kasblarda mehnat turlarining (odam-tabiat, odam-texnika, odam-odam, odam-belgili tizim, odam-badiiy obraz) ta'rifini, kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo'yilgan talablarni, O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari-

ning yo‘nalishi, ularning bir-biridan farqi, umumiy tomonlarini, o‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimini bilish.

«*Texnologiya va dizayn*» yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi: xalq hunarmandchiligining tanlangan yo‘nalishi bo‘yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg‘unlashtirilgan mahsulot tayyorlash ish usullarini qo‘llay olish.

Ishlab chiqarish asoslari: sanoat miqyosida ko‘p seriyali ishlab chiqarish uchun tavsiya etish mumkin bo‘lgan mahsulot namunasini (maketi, modeli) tayyorlay olish va unda qo‘llanilgan xomashyo, ijodiy g‘oya va dizayn yechimlarini asoslay olish.

Kasb tanlashga yo‘llash: O‘zbekistonda uzlusiz ta’lim tizimini, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining yo‘nalishi, ularning bir-biridan farqi, umumiy tomonlarini, o‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimini farqlay olish.

«*Texnologiya va dizayn*» yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi malakalarga ega bo‘lishlari kerak:

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi: xalq hunarmandchiligining tanlangan yo‘nalishi bo‘yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg‘unlashtirilgan mahsulot tayyorlash ish usullarini bajarish.

Ishlab chiqarish asoslari: sanoat miqyosida ko‘p seriyali ishlab chiqarish uchun tavsiya etish mumkin bo‘lgan mahsulot namunasini tayyorlash.

Kasb tanlashga yo‘llash: O‘zbekistonda uzlusiz ta’lim tizimini, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining yo‘nalishini va o‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimini farqlash.

5. 9-SINF. «*Texnologiya va dizayn*» yo‘nalishi mazmuni, o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar.

«*Texnologiya va dizayn*» yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi: xalq hunarmandlari tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni, xalq hunarmandchiligidagi foydalanilayotgan nodir materiallar, asbob-uskunalar, hunarmandchilik mahsulotlari tashqi shaklining uzviyligi va yaxlitligini ta’minlanishiga ko‘ra baholashni, kompozitsion yaxlitlikni, xalq hunarmandchiligiga oid tanlangan bitta kasb-hunar turini tafsiflashni, xalq hunar-

mandchiligining tanlangan yo‘nalishi bo‘yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg‘unlashtirilgan mahsulot tayyorlash bo‘yicha ish usullarini, loyihalash bosqichida mahsulot tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligini ta‘minlashni bilish.

Ishlab chiqarish asoslari: zamonaviy ishlab chiqarishning bозор munosabati bilan uzviyligini, yog‘ochga va metallga ishlov berish texnologiyalarida ishlab chiqarish va uning mohiyatini, ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar ro‘yxati va ularning mazmuni, texnologik hujjatlarning yagona tizimi va uning davlat standartlari, mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish, o‘lchash va taqqoslash texnologiyasini, olinadigan daromad va uni taqsimlash qoidalari, ishlab chiqarish korxonasida mehnatni unumli tashkil etish, tejamkorlik va ishbilarmonlik asoslari, mehnatni ilmiy tashkil etishni, tabiatni muhofaza qilishni bilish.

Kasb tanlashga yo‘llash: kasb tanlashga doir reja tuzishni, kasb tanlashdagi xatolar va qiyinchiliklarni, kasbni to‘g‘ri tanlashning mohiyati va istiqbolini, kasb tanlashda shaxsning kasbiy qiziqishi, moyillik va qobiliyatlarini e‘tiborga olishni, kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillikni, kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish, kasbga yaroqlilikni belgilash va kasbga moyillikni tarbiyalash usullarini bilish.

«Texnologiya va dizayn» yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi: hunarmandchilik mahsulotlari tashqi shaklining uzviyligi va yaxlitligini ta‘minlanishiga ko‘ra baholashni, kompozitsion yaxlitlikni, xalq hunarmandchiliga oid tanlangan bitta kasb-hunar turini tavsiflashni, xalq hunarmandchiligining tanlangan yo‘nalishi bo‘yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg‘unlashtirilgan mahsulot tayyorlash bo‘yicha ish usullarini, loyihalash bosqichida mahsulot tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligini ta‘minlay olish.

Ishlab chiqarish asoslari: zamonaviy ishlab chiqarishning bозор munosabati bilan uzviyligini, yog‘ochga va metallga ishlov berish texnologiyalarida ishlab chiqarish va uning mohiyatini, ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar ro‘yxati va ularning mazmuni, maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo‘llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalari, ularda shakllangan tejamkorlik tizimi, mehnat unumdarligini

hisoblash va oshirish yo'llarini, detallarni vintlar, mixparchinlar, payvandlash, yelimlash usuli bilan qo'zg'almas, yarim harakatchan va qo'zg'aluvchan biriktirish texnologiyasi asosida mahsulot namunasini tayyorlay olish.

Kasb tanlashga yo'llash: kasb tanlashga doir reja tuzishni, kasb tanlashda shaxs kasbiy qiziqish, moyillik va qobiliyatlarini e'tiborga olishni, kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillikni, kasblarning murakkablik omillarini, kasbga yaroqlilikni belgilash va kasbga moyillikni tarbiyalash usullarini tahlil qilish.

«Texnologiya va dizayn» yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'lishlari kerak:

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi: xalq hunarmandchiligiga oid tanlangan bitta kasb-hunar turini tavsiflashni, xalq hunarmandchiligining tanlangan yo'nalishi bo'yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot tayyorlash bo'yicha ish usullarini, loyihalash bosqichida mahsulot tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligini ta'minlay olish.

Ishlab chiqarish asoslari: maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo'llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalari, ularda shakllangan tejamkorlik tizimi, mehnat unumdorligini hisoblash va oshirish yo'llarini, detallarni vintlar, mixparchinlar, payvandlash, yelimlash usuli bilan qo'zg'almas, yarim harakatchan va qo'zg'aluvchan biriktirish texnologiyasi asosida mahsulot namunasini tayyorlay olish.

Kasb tanlashga yo'llash: kasbga doir shaxsiy reja tuzish. Tanlangan kasb-hunarga doir ma'lumotlar toplash va tahlil qilish. Kasbiy qiziqish va moyilliklarni aniqlash bo'yicha amaliy mashqlar bajarish. Kasb egallahash va ishga joylashishga doir shaxsiy rejani referat shaklida tayyorlash va himoya qilish.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. 5-sinf, «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi mazmunini izohlang.
2. 5-sinf, «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar qanday bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari kerak?
3. 6-sinf, «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi mazmunini izohlang.
4. 6-sinf, «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar qanday bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari kerak?

5. 7-sinf, «Texnologiya va dizayn» yo‘nalishi mazmunini izohlang.

6. 7-sinf, «Texnologiya va dizayn» yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar qanday bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari kerak?

7. 8-sinf, «Texnologiya va dizayn» yo‘nalishi mazmunini izohlang.

8. 8-sinf. «Texnologiya va dizayn» yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar qanday bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari kerak?

9. 9-sinf, «Texnologiya va dizayn» yo‘nalishi mazmunini izohlang.

10. 9-sinf, «Texnologiya va dizayn» yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar qanday bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari kerak?

3.3. «Servis xizmati» yo‘nalishi mazmuni, o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar

Reja:

1. 5-sinf, «Servis xizmati» yo‘nalishi mazmuni, o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar.

2. 6-sinf, «Servis xizmati» yo‘nalishi mazmuni, o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar.

3. 7-sinf, «Servis xizmati» yo‘nalishi mazmuni, o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar.

4. 8-sinf, «Servis xizmati» yo‘nalishi mazmuni, o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar.

5. 9-sinf, «Servis xizmati» yo‘nalishi mazmuni, o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar.

Tayanch iboralar: texnologiya, dizayn, bilim, ko‘nikma, malaka, pazandachilik, xalq hunarmandchiligi texnologiyasi, gazlamaga ishlov berish, buyumlarni ta’mirlash, ishlab chiqarish asoslari, kasb tanlashga yo‘llash.

1. 5-SINF. «Servis xizmati» yo‘nalishi mazmuni, o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar.

«Servis xizmati» bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:

Pazandachilik asoslari: pazandachilik o‘quv xonasida xavfsizlik texnika qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari, pazandachilik

tarixi va taraqqiyoti, oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy qiy-matini inson organizmi uchun ahamiyatini bilish. O'zbek milliy oshxonasining o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanishi, oshxonada ishlaganda shaxsiy gigiyena qoidalarini bilish. Plita, muzlatgich, idish-tovoq yuvish moslamalari, oshxona stollari, quritkich moslama, shkaflar haqida umumiy tushuncha. Plita turlari, tuzilishi va foydalanish qoidalarini bilish. Tuxum va uning ozuqaviy qiymati, pishirish usullari, dasturxonga tortish qoidalarini, buterbrod va issiq ichimlik turlarini tayyorlash. Kundalik ovqatlanish uchun dasturxon bezashni, sabzavotlardan yaxna taomlar tayyorlash, ularning sifatiga va saqlanishiga qo'yiladigan talablar, yaxna taomlarni did bilan bezatib, dasturxonga tortish tartibi, ochiq, yoriq va gazak uchun tayyorlangan (kanare) buterbrodlarni tayyorlash va dasturxonga tortish tartibi, qoidasi, sanitariya-gigiyena, xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni bilish. O'zbek milliy oshxonasining rivojlanish tarixi, uning taomlari, tasnifi hamda taomlarning tayyorlanishidagi o'ziga xos xususiyatlari. «Tvorogli», «Murabboli» blinchiklar tayyorlash tartibi va dasturxonga tortishni bilish. Pazandachilikka oid kasb-hunarlar haqidagi bilimlarni bilish.

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi: xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari, tabiiy tolali gazlamalar dan paxta va zig'ir tolalaridan to'qilgan gazlamalar, ularning xususiyatlarini bilish. Qo'l ishlari va uni bajarishda ishlatiladigan asbob-uskunalar haqida umumiy ma'lumot va namunalar tayyorlashni bilish. Ushlagich tayyorlash, dazmol bilan ishlash, dazmollash usullarini bilish. Qo'l yuritmalı tikuv mashinasining asosiy tuzilishi va ishlash tartibi, tikuv mashinasini ishga tayyorlash, mashinada ipsiz tikishni bilish. Bichish va tikish haqida ma'lumot, gavdadan o'lchov olish, mashtab lineyka, fartuk va bog'ichli qalpoqcha chizmasini chizish, fartuk va bog'ichli qop-qoqchani modellashtirish va andaza tayyorlash, fartuk va bog'ichli qalpoqcha bichish, bog'ichli qalpoqchani tikish, fartukni tikish, dazmol usullarini bilish. Xalq hunarmandchiligi to'g'risida umumiy ma'lumot. Milliy kiyimlar haqida tushuncha. Kashtachilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar, ishlatiladigan naqshlar, rang tanlashni va choklardan namunalar tikishni bilish. Milliy o'yinchoq (qo'g'irchoq) turlari, ishlatiladigan asbob-moslamalar, gazlamalar va ularning turlari. Qo'g'irchoqni andazasini tayyorlash,

andazani gazlama ustiga joylashtirish, bichish va tikishni bilish. To‘qish uchun asbob-moslamalar. To‘qish usullaridan namunalar keltirish. XTQ va sanitariya-gigiyena talablari. Ko‘zoynak uchun g‘ilof to‘qishni bilish. Gazlamaga ishlov berishga oid kasb-hunar turlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ega bo‘ladilar.

Buyumlarni ta‘mirlash texnologiyasi: Turli choklar bilan so‘kilgan buyumlarni ta‘mirlab, tikishni bilish.

«Servis xizmati» bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

Pazandachilik asoslari: oshxonada ishlaganda shaxsiy gigiyena qoidalari; plita turlari va foydalanish qoidalari; tuxumni pishirish usullari, dasturxonga tortish qoidalari, buterbrod va issiq ichimlik turlarini tayyorlay olish; kundalik ovqatlanish uchun dasturxon bezashni, sabzavotlardan yaxna taomlar; ochiq, yoriq va gazak uchun tayyorlangan (kanare) buterbrodlarni tayyorlash va dasturxonga tortish qoidalarini bajara olish.

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi: xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari; tabiiy tolali gazlamalardan paxta va zig‘ir tolalaridan to‘qilgan gazlamalarning xususiyatlari; qo‘l choklaridan namunalar, ushlagich tayyorlash; dazmollash usullari; tikuv mashinasini ishga tayyorlash; mashinada ipsiz tikish qoidalari; fartuk va bog‘ichli qalpoqcha chizmasini chizish; modellashtirish, bichish va tikish, dazmol usullari; kashtachilikda ishlatiladigan choklardan namunalar tikish; milliy o‘yinchoq (qo‘g‘irchoq)ning andazasini tayyorlash, bichish va tikish; to‘qish usullaridan namunalar to‘qiy olish.

Buyumlarni ta‘mirlash texnologiyasi: turli choklar bilan so‘kilgan buyumlarni ta‘mirlab, tika olish.

«Servis xizmati» bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi malakalarga ega bo‘lishlari kerak:

Pazandachilik asoslari: oshxonada ishlaganda shaxsiy gigiyena qoidalari; plitadan foydalanish qoidalari; tuxum pishirish usullari, buterbrod va issiq ichimlik turlarini tayyorlash; kundalik ovqatlanish uchun dasturxon bezash, sabzavotlardan yaxna taomlar tayyorlash; ochiq, yoriq va gazak uchun tayyorlangan (kanare) buterbrodlarni tayyorlash va dasturxonga tortish.

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi: xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari; tabiiy tolali gazlamalardan paxta va zig‘ir tolalaridan to‘qilgan gazlamalarni farqlash; qo‘l

choklaridan namunalar tayyorlash; ushlagich tayyorlash; dazmolash usullari; tikuv mashinasini ishga tayyorlash; mashinada ipsiz tikish; fartuk va bog‘ichli qalpoqcha chizmasini chizish; model-lashtirish va andaza tayyorlash, bichish va tikish, dazmol usullari; milliy o‘yinchoq (qo‘g‘irchoq)ning andazasini tayyorlash, bichish va tikish; to‘qish usullaridan namunalar to‘qish.

Buyumlarni ta’mirlash texnologiyasi: turli choklar bilan so‘kilgan buyumlarni ta’mirlash va tikish.

2. 6-SINF. «Servis xizmati» yo‘nalishi mazmuni, o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar.

«Servis xizmati» bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:

Pazandachilik asoslari: pazandachilik xonasini jihozlanishiga qo‘yiladigan talablar, sanitariya-gigiyena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalari; un va don mahsulotlarining ozuqaviy qiyati va ahamiyati; pazandachilik xonasida ishlash uchun sanitariya-gigiyena talablari, oshxona asboblarida metall, chinni, sopol, fanas, plastmassa, shisha idishlardan to‘g‘ri foydalanishning ahamiyati;sovutgich va muzlatgich, termos, mikroto‘lqinli elektorpechlarning tuzilish va ahamiyati, foydalanish texnologiyasi; qandolatchilikda ishlatiladigan texnologik jihozlardan: ko‘pirtirgich (mikser)ning turlari, tuzilishi, ahamiyati, undan foydalanish qoidalari; sut va sut mahsuloti turlari; sut mahsulotlari sifatiga bo‘lgan talablar, saqlanish sharoiti va muddati; xamir turlari; o‘zbek milliy taomlarini (suyuq ovqatlar) tayyorlash texnologiyasi va dasturxonga tortish talablari; o‘zbek milliy taomlaridan parxez taomlar tayyorlash texnologiyasi va dasturxonga tortish tartibi; dasturxon, salfetka-sochiqlarning turlari, ulardan foydalanish, saqlash va yuvishni bilish.

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi: xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari; jun va ipak tolali gazlamar, ularning olinishi; jun va ipak tolalarining xossalari; furnitura haqida umumiy ma’lumot; ilgaklar, xalqlalar tikish, tugmachalar va pistonlar qadash; taqilma turlari; oyoq yuritmali tikuv mashinasining tuzilishi; ishlash prinsipi; oyoq yuritmali tikuv mashinasini ishga tayyorlash; tikuv mashinasida ishlatiladigan kichik mexanizatsiya vositalaridan foydalanish; tikuv mashinasidagi kichik nosozliklarni tuzatish; beldan kiyiladigan kiyim turlari; yubkalar haqida ma’lumot; o‘lchov olish; yubka chizmasini

chizish, modellashtirish, gazlama ustiga andazani joylashtirish, yubkani bichish va tikish; zardo'zlik san'ati tarixi va uning rivojlanishi; zardo'zlikda ishlataladigan materiallar, asbob-uskunalar, naqsh turlari, ish o'rnnini tashkil qilish, bo'zni korcho'pda taranglab tortish, zamindo'zi va guldo'zi usulida tikishni bilish; choynak yopqichga gul naqshini zar ipdan tikish, buyumga oxirgi ishlov berishni bilish; nozmunchoq (biser) va undan foydalanish haqida ma'lumot, nozmunchoq to'qish uchun zaruriy xomashyo va moslamalar, nozmunchoqdan gul, geometrik va boshqa shakllar to'qishni bilish; milliy bosh kiyimlardan do'ppi tikish texnologiyasi, do'ppini bichish, bo'laklarga tanlangan naqsh elementlarini biser, piston yordamida tikib tugatish, bo'laklarni bir-biriga ulash, ishni yakunlash qoidalarini bilish; qiz bolalar sumkachasini tikish texnologiyasi, andaza tayyorlash, zaruriy gazlama, iplar tanlash, sumkachani bichish, sumkacha bo'laklariga tanlangan naqsh elementlarini biser, piston yordamida tikish, qiz bolalar sumkacha bo'laklariga tanlangan naqsh elementlarini biser, piston bilan tikib, tugatish, bo'laklarni bir-biriga ulash, ishni yakunlash qoidalarini bilish.

Buyumlarni ta'mirlash texnologiyasi: kiyimni tuzatish ishlarini, kiyimga qarab turish qoidalari va yamoq solishni bilish.

«Servis xizmati» bo'yicha o'quvchilar quyidagi ko'nikmalariga ega bo'lislari kerak:

Pazandachilik asoslari: pazandachilik xonasini jihozlanishi va ishslash uchun sanitariya-gigiyena talablari, oshxona asboblarida metall, chinni, sopol, fanas, plastmassa, shisha idishlardan to'g'ri foydalanish qoidalari, tvorojnik, puding tayyorlash va dasturxonaga tortish tartib-qoidalari, yog'li qatlanib tayyorlangan xamirdan «Somsa» pishirish, o'zbek milliy (suyuq ovqatlarini) tayyorlash texnologiyasi va dasturxonaga tortish talablari, milliy taomlardan «Mastava» tayyorlash, tushlik uchun dasturxon tuzash, o'zbek milliy taomlaridan parxez taomlar tayyorlash, suyuq va quyuq taomlar tayyorlash va dasturxonaga tortish qoidalarini bajara olish.

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi: jun va ipak gazlamalarning xossalalarini aniqlay olish, «Molniya» taqilmasini tika olish, oyoq yuritmalı tikuv mashinasini ishlashga tayyorlay olish, ichki kiyim choklaridan namunalar; yubka chizmasini chizish, andaza tayyorlash, bichish va tikish ko'nikmalarini egallash; zar ipni o'rash, kartondan naqsh (gul)ni qirqish, zamindo'zi va

guldo‘zi usulida choynak yopqich tika olish; nozmunchoqdan gul, geometrik va boshqa shakkarni to‘qiy olish; milliy bosh kiyimlar dan do‘ppi va qiz bolalar sumkachasini tika olish.

Buyumlarni ta’mirlash texnologiyasi: yamoq solish qoidasi aso-sida buyumga yamoq solish ko‘nikmasini egallahash.

«Servis xizmati» bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi malakalarga ega bo‘lishlari kerak:

Pazandachilik asoslari: pazandachilik xonasini jihozlanishiga qo‘yiladigan talablar; sanitariya-gigiyena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalari, pazandachilik xonasida ishlash uchun sanitariya-gigiyena talablari, oshxona asboblarida metall, chinni, sopol, plastmassa, shisha idishlardan to‘g‘ri foydalanish, so-vutgich va muzlatgich, termos, mikroto‘lqinli elektropech, ko‘pirtirgichlardan foydalanish qoidalari, tvorojnik, pudring tay-yorlash va dasturxonga tortish tartib qoidalari, yog‘li qatlanib, tayyorlangan xamirdan «Somsa» pishirish; o‘zbek milliy (suyuq ovqatlar) tayyorlash texnologiyasi va dasturxonga tortish talablari; milliy taomlardan «Mastava» tayyorlash; tushlik uchun dastur-xon tuzash; o‘zbek milliy taomlaridan parxez taomlar tayyorlash, suyuq va quyuq taomlar tayyorlash va dasturxonga tortish.

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi: jun va ipak gazlamalaring xossalari aniqlash; «Molniya» taqilmasini tikish; oyoq yuritmali tikuv mashinasini ishlashga tayyorlash; ichki kiyim choklaridan namunalar tikish; yubka chizmasini chizish, andaza tayyorlash, bichish va tikish; zar ipni o‘rash, kartondan naqsh (gul)ni qirqish, zamindo‘zi va guldo‘zi usulida choynak yop-qich tikish, nozmunchoqdan gul, geometrik va boshqa shakkarni to‘qish; milliy bosh kiyimlardan do‘ppi tikish; qiz bolalar sum-kachasini tikish.

Buyumlarni ta’mirlash texnologiyasi: yamoq solish.

3. 7-SINF. «Servis xizmati» yo‘nalishi mazmuni, o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar.

«Servis xizmati» bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak:

Pazandachilik asoslari: go‘sht va go‘shtli mahsulotlarning ozuqaviy qiymati, ahamiyati; baliq va baliq mahsulotlarning ozuqaviy qiymati, ahamiyati va mohiyati; go‘sht va baliq turlari, ularning sifatiga bo‘lgan talablar, saqlanish muddatlari, go‘shtdan tayyorlanadigan taom tayyorlash uchun jihozlangan ish o‘rnini

tashkil etish, go'shtga birlamchi ishlov berishda sanitariya-gigiyena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalari; baliqdan taom tayyorlash uchun jihozlangan ish o'rnini tashkil etish, baliqqa birlamchi ishlov berishda sanitariya-gigiyena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalari, asbob va moslama turlari va ularda ishslash qoidalari, sabzavot va mevalarni konservalash uchun jihozlangan ish o'rnini tashkil etish, elektr go'sht maydalagichning tuzilishi, vazifalari, ishslash prinsipi, xavfsizlik texnika talablari, qandolat mahsulotlari tayyorlash uchun jihozlangan ish o'rnini tashkil etish, qandolat jihozlaridan foydalanib «Kartoshka» tayyorlash; mayda to'g'ralgan go'shtdan taom tayyorlash. «Gulyash», «Befstrogan» tayyorlab, dasturxonga tortish; karam va uzum bargidan do'lma tayyorlash va dasturxonga tortish; o'zbek milliy taomlari dan palov tayyorlash texnologiyasini bilish.

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi: xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari haqida umumiy ma'lumot, kimyoviy tolalardan tayyorlangan gazlamalar, sun'iy va sintetik gazlamalarning xossalari va ularga qo'yiladigan talablar, kiyim haqida umumiy ma'lumot, kiyimlar assortimenti va razmeri, kiyim tikishning asosiy bosqichlari, qo'lda bajariladigan ishlarning texnik shartlari, elektr yuritmalı tikuv mashinasining tuzilishi, ishlatilishi, maxsus ish bajaradigan tikuv mashinalari, milliy liboslarda ko'yak va uning turlari haqida ma'lumot, gav-dadan o'Ichov olish va yozish, hisoblash formulasi, ko'yak asos chizmasini chizish, ko'yakni va bo'yin o'mizini modellashtirish hamda andaza tayyorlash, andazani gazlamaga joylashtirish va bichish, bichiq bo'laklariga ishlov berish, birinchi kiydirib ko'rish, bo'yin va yeng o'mizlariga ishlov berish, ko'yak etagini tikish; xalq hunarmandchiligi, «Quroqchilik» haqida umumiy ma'lumot, uning tarixi, usullari, kerakli ish qurollari; tikiladigan «Quroq» buyumiga eskiz chizish va shablonlar tayyorlash, gazlamalarni ajratish, sifatini aniqlash va shablonlarni qirqib tayyorlash, tanlangan shakllarni shablon asosida tikish, quroqning «Yo'l-yo'l» usulidan foydalanib, ushlagich tikish; quroqning «Paxta» yoki «Parket» usulidan foydalanib, yelpig'ich tikish; «Uycha» (olma yoki qovoq guli) shaklida choynak yopg'ich tikish; tayyorlangan mahsulotga astar tikish, qavish ishlari, tayyorlangan mahsulotga oxirgi ishlov berish, dizayner-modelyer kasbi to'g'risida tushuncha, bolalar sport, bayram kiyimlari

uchun yangi modellar eskizini yaratish; kiyim turlari asosida yangi modellar yaratish; parda haqida ma'lumot, parda tikish uchun gazlama va kerakli xomashyo, jihoz va moslamalar tanlash; parda modeliga qarab gazlamani hisoblash; oddiy va murakkab usullarda pardalar tikish texnologiyasi, kichik hajmda parda tikishni bilish.

Buyumlarni ta'mirlash texnologiyasi: iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andazasini tayyorlash va tikishni bilish.

«Servis xizmati» bo'yicha o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lislari kerak:

Pazandachilik asoslari: go'sht va baliq turlari, ularning sifatiga bo'lgan talablar, saqlanish muddatlari; «Mimoza» salatini tayyorlash; go'shtdan taom tayyorlash uchun jihozlangan ish o'rnini tashkil etish; go'shtga birlamchi ishlov berishda sanitariya-gigiyena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalari asosida taom tayyorlash; asbob va moslama turlari va ularda ishlash qoidalari; sabzavot va mevalarni konservalash uchun jihozlangan ish o'rnini tashkil etish; sabzavot va mevalarni konservalash; qandolat mahsulotlari tayyorlash uchun jihozlangan ish o'rnini tashkil etish; «Kartoshka» pishirig'ini tayyorlash; palov tayyorlash va dasturxonga tortish tartibi; «Gulyash», «Befstrogan» tayyorlab, dasturxonga tortish; karam va uzum bargidan do'lma tayyorlash va dasturxonga tortish qoidalarini bajara olish.

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi: xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari; kimyoiy tolalarning xususiyatlarini o'rGANISH; tashqi ko'rinishga qarab cho'zilishi, g'ijimlanishi, suv o'tkazish, issiqlidan saqlash xossalari, yonishi; qo'lida bajariladigan ishlar uchun asbob va moslamalar; merejka usulida tikish, tikuv mashinalarini tozalash va moylash; mashinadagi nuqsonlar, paralel zig-zag qator, mayda va yirik baxya qator tikish; ichki kiyim choklaridan namunalar tikish; milliy liboslardan ko'ylak tikish; tikiladigan «Quroq» buyumiga eskiz chizish va shablonlar tayyorlay olish; quroqning «Yo'il-yo'il», «Paxta», «Parket» usullaridan foydalanib, buyumlar tika olish; bolalar, sport, bayram kiyimlari uchun yangi modellar yaratish, kichik hajmda oddiy va murakkab usullarda pardalar tika olish; to'y va bayram kechalari uchun liboslar ansamblini yarata olish.

Buyumlarni ta'mirlash texnologiyasi: iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andazasini tayyorlash va tika olish.

«Servis xizmati» bo'yicha o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'lishlari kerak:

Pazandachilik asoslari: go'sht va baliq turlari, ularning sifatiga bo'lgan talablari, saqlanish muddatlari. «Mimoza» salatini tayyorlash; go'shtdan taom tayyorlash uchun jihozlangan ish o'rnini tashkil etish; go'shtga birlamchi ishlov berishda sanitariya-gigiyena talablari va xavfsizlik texnikasi qoidalari asosida taom tayyorlash; asbob va moslama turlaridan foydalanish qoidalari; sabzavot va mevalarni konservalash uchun jihozlangan ish o'rnini tashkil etish; sabzavot va mevalarni konservalash; qandolat mahsulotlari tayyorlash uchun jihozlangan ish o'rnini tashkil etish; «Kartoshka» pishirig'ini tayyorlash; palov tayyorlash va dasturxonga tortish tartibi; «Gulyash», «Befstrogan» tayyorlab, dasturxonga tortish; karam va uzum bargidan do'lma tayyorlash va dasturxonga tortish.

Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi: xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablari; kimyoiv tolalarning xususiyatlari, tashqi ko'rinishga qarab cho'zilishi, g'ijimlanishi, suv o'tkazish, issiqliqdan saqlash xossalari, yonishi, qo'lda bajariladigan ishlar uchun asbob va moslamalar; merejka usulida tikish. Tirkuv mashinalarini tozalash va moylash; mashinadagi nuqsonlar, paralel zig-zag qator, mayda va yirik baxya qator tikish; ichki kiyim choklaridan namunalar tikish; milliy liboslardan ko'ylak tikish; tikiladigan «Quroq» buyumiga eskiz chizish va shablonlar tayyorlash; bolalar sport, bayram kiyimlari uchun yangi modellar yaratish.

Buyumlarni ta'mirlash texnologiyasi: iste'moldan chiqqan buyum o'lchamiga qarab, bolalar kiyimining andazasini tayyorlash va tikish.

4. 8-SINF. «Servis xizmati» yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar.

«Servis xizmati» yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi: hunarmandlarning bozor munosabatlari asosidagi faoliyatlarini, uyushmalari va uning istiqbollarini, xalq hunarmandchiligi bo'yicha ko'rgazma va tan-

lovlarni tashkil qilish va ishtirokchilarni tanlash qoidalarini, xalq hunarmandchiligining tanlangan yo‘nalishi bo‘yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg‘unlashtirilgan mahsulot tayyorlash ish usullarini bilish.

Ishlab chiqarish asoslari: O‘zbekistondagi ishlab chiqarish turlarini, O‘zbekiston xalq xo‘jaligida sanoat va qurilishda moddiy ishlab chiqarish asoslari va uning tarkibi, o‘zaro munosabati, bir-biriga bog‘liqligini, texnologik jarayon haqida asosiy tushunchani, yangi texnika va ilg‘or texnologiya, uning ifodalanilishi, mehnat predmetiga mexanik ta’sir etish (gazlamalarning olinishi, ularni bichish-tikish, pardozlash, mahsulotlarga birinchi va ikkinchi ishlov berish, yarimfabrikatlar va h.k.) orqali amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar; ishlab chiqarishda amalga oshiriladigan kimyoviy va fizik-texnologik jarayonlarni, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish omillari va istiqbolini, kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish yo‘nalishlari, tartibi va standartlarini, mulkchilik turlari, marketing va menejment faoliyatining rivojlanishini bilish; sanoat miqyosida ko‘p seriyali ishlab chiqarish uchun tavsiya etish mumkin bo‘lgan mahsulot namunasini (maketi, modeli) tayyorlash, unda qo‘llanilgan xomashyo, ijodiy g‘oya va dizayn yechimlarini asoslashni bilish.

Kasb tanlashga yo‘llash: kasblar tasnifini, kasblarda mehnat turlarining (odam-tabiat, odam-texnika, odam-odam, odam-belgili tizim, odam-badiiy obraz) ta’rifini, kasb-hunar egallashda inson salomatligiga qo‘yilgan talablarni, O‘zbekistonda uzlucksiz ta’lim tizimini, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning yo‘nalishi, ularning bir-biridan farqi, umumiy tomonlarini, o‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimini bilish.

«Servis xizmati» yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak:

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi: xalq hunarmandchiligining tanlangan yo‘nalishi bo‘yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg‘unlashtirilgan mahsulot tayyorlash ish usullarini bajara olish.

Ishlab chiqarish asoslari: yo‘nalish asosida sanoat miqyosida ko‘p seriyali ishlab chiqarish uchun tavsiya etish mumkin bo‘lgan mahsulot namunasi (maketi, modeli)ni tayyorlash, unda qo‘llanilgan xomashyo, ijodiy g‘oya va dizayn yechimlarini asoslay olish.

Kasb tanlashga yo'llash: O'zbekistonda uzlusiz ta'lif tizi-minni, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining yo'nalishi, ularning bir-biridan farqi, umumiy tomonlarini, o'quvchi yosh-larni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini ajarata olish.

«Servis xizmati» yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'lishlari kerak:

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi: xalq hunarmandchiligi-ning tanlangan yo'nalishi bo'yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot tayyorlash ish usullarini bajarish.

Ishlab chiqarish asoslari: yo'nalish asosida sanoat miqyosida ko'p seriyali ishlab chiqarish uchun tavsiya etish mumkin bo'lgan mahsulot namunasini tayyorlash.

Kasb tanlashga yo'llash: O'zbekistonda uzlusiz ta'lif tizimi-ni, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining yo'nalishini, o'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini ajaratish.

5. 9-SINF. «Servis xizmati» yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar.

«Servis xizmati» yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar quyidagi bilim-larga ega bo'lishlari kerak:

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi: xalq hunarmandlari to-monidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni, xalq hunarmandchiligidagi foydalanilayotgan nodir materiallar, asbob-uskunalar, hunarmandchilik mahsulotla-rining tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligi ta'minlanishiga ko'ra baholashni, kompozitsion yaxlitlikni, xalq hunarmandchiligiga oid tanlangan bitta kasb-hunar turini tavsiflashni, xalq hunar-mandchiligining tanlangan yo'nalishi bo'yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot tayyorlash bo'yicha ish usullarini, loyihalash bosqichida mahsulot tashqi shakli uz-viyligi va yaxlitligini ta'minlashni bilish.

Ishlab chiqarish asoslari: zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan uzviyligini, gazlamaga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari yo'nalishlarida ishlab chiqarish va uning mohiyatini, ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar ro'yxati va ularning mazmuni, texnologik hujjatlar-ning yagona tizimi va uning davlat standartlari, mahsulot ish-lab chiqarishni nazorat qilish, o'lchash va taqqoslash texnologiyasini, olinadigan daromad va uni taqsimlash qoidalari; ishlab chiqarish korxonasida mehnatni unumli tashkil etish, tejamkor-

lik va ishbilarmonlik asoslari, mehnatni ilmiy tashkil etishni, tabiatni muhofaza qilishni, maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo'llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalari, ularda shakllangan tejamkorlik tizimi, mehnat unumdarligini hisoblash va oshirish yo'llarini, texnologiya asosida mahsulot namunasini tayyorlashni bilish.

Kasb tanlashga yo'llash: kasb tanlashga doir reja tuzishni, kasb tanlashdagi xatolar va qiyinchiliklarni, kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqbolini, kasb tanlashda shaxs kasbiy qiziqishi, moyillik va qobiliyatlarini e'tiborga olishni, kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillikni, kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish, kasbga yaroqlilikni belgilash va kasbga moyillikni tarbiyalash usullarini bilish.

«Servis xizmati» yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi: hunarmandchilik mahsulotlarini tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligi ta'minlanishiga ko'ra baholashni, kompozitsion yaxlitlikni, xalq hunarmandchiligiga oid tanlangan bitta kasb-hunar turini tavsiflashni, xalq hunarmandchiligining tanlangan yo'nalishi bo'yicha zamona viy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot tayyorlash bo'yicha ish usullarini, loyihalash bosqichida mahsulot tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligini ta'minlay olish.

Ishlab chiqarish asoslari: zamona viy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan uzviyligini, gazlamaga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqarish va uning mohiyatini, ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar ro'yxati va ularning mazmuni, maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo'llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalari, ularda shakllangan tejamkorlik tizimi, mehnat unumdarligini hisoblash va oshirish yo'llarini, texnologiya asosida mahsulot namunasini tayyorlay olish.

Kasb tanlashga yo'llash: kasb tanlashga doir reja tuzishni, kasb tanlashda shaxsning kasbiy qiziqishi, moyillik va qibiliyatlarini e'tiborga olishni, kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillikni, kasblarning murakkablik omillarini, kasbga yaroqlilikni belgilash va kasbga moyillikni tarbiyalash usullarini tahlil qilish.

«Servis xizmati» yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar quyidagi malakalarga ega bo'lishlari kerak:

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi: xalq hunarmandchiligiga oid tanlangan bitta kasb-hunar turini tavsiflashni, xalq hunarmandchiligining tanlangan yo‘nalishi bo‘yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg‘unlashtirilgan mahsulot tayyorlash bo‘yicha ish usullarini, loyihalash bosqichida mahsulot tashqi shakli uzviyili va yaxlitligini ta’minlay olish.

Ishlab chiqarish asoslari: mакtab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo‘llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalari, ularda shakllangan tejamkorlik tizimi, mehnat unumдорligini hisoblash va oshirish yo‘llari asosida mahsulot namunasini tayyorlay olish.

Kasb tanlashga yo‘llash: kasbga doir shaxsiy reja tuzish. Tanlangan kasb-hunarga doir ma’lumotlar to‘plash va tahlil qilish. Kasbiy qiziqish va moyilliklarni aniqlash bo‘yicha amaliy mashqlar bajarish. Kasb egallash va ishga joylashishga doir shaxsiy rejanı referat shaklida tayyorlash va himoya qilish.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. 5-sinf, «Servis xizmati» yo‘nalishi mazmunini izohlang.
2. 5-sinf, «Servis xizmati» yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar qanday bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari kerak?
3. 6-sinf, «Servis xizmati» yo‘nalishi mazmunini izohlang.
4. 6-sinf, «Servis xizmati» yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar qanday bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari kerak?
5. 7-sinf, «Servis xizmati» yo‘nalishi mazmunini izohlang.
6. 7-sinf, «Servis xizmati» yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar qanday bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari kerak?
7. 8-sinf, «Servis xizmati» yo‘nalishi mazmunini izohlang.
8. 8-sinf, «Servis xizmati» yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar qanday bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari kerak?
9. 9-sinf, «Servis xizmati» yo‘nalishi mazmunini izohlang.
10. 9-sinf, «Servis xizmati» yo‘nalishi bo‘yicha o‘quvchilar qanday bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari kerak?

3.4. Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi bo‘limini o‘qitishni tashkil qilish

Reja:

1. Xalq hunarmandchiligining metodologik va tarixiy asoslari.

2. Xalq hunarmandchilik turlaridan naqqoshlik san'ati va ular-da qo'llanadigan asbob-uskunalar, texnologiyalar.
3. Kashtachilik an'analariga ijtimoiy hayotning ta'siri.
4. Xalq hunarmandchilik turlaridan kashtachilikda qo'llanadi-gan asbob-uskunalar, texnologiyalar.

Tayanch iboralar: xalq amaliy bezak san'ati, naqqoshlik san'ati, naqshli bezaklar, me'morchilik va xalq amaliy san'ati yodgorliklari, badiiy va madaniy meros, olti-sakkiz qirrali stol, quticha, ramka, shamdon, islimiyl naqsh, girih naqshi, murakkab naqsh, hunarmand-kashtado'z, so'zana, choyshab, oynaxalta, choyxalta, tuzxalta, palak, so'zana, joynamoz, qaytma chok, suv chok, iroq-simon chok, yo'rma chok, popop chok.

1. Xalq hunarmandchiligining metodologik va tarixiy asoslari. O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixidan ma'lumki, xalq amaliy bezak san'ati va hunarmandchilik boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib, gullab-yashnagan amaliy san'at bemisol va betakrorligi bilan dunyoga mashhur bo'lib kelmoqda. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo'ilsak, o'zbek amaliy san'ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya'ni ibridoij jamiyatga borib tarqalishining guvohi bo'lamiz.

Badiiy idrok qobiliyati kishilarda, o'quvchilarda olamni, undagi mavjudodlar, narsalar va voqeа-hodisalarni, atrof-muhitdagi shakllar va ranglarning turfa shakl-shamoilida aks ettirishga havas uyg'otadi. Shakl va ranglarning real hamda stillashtirilgan tasvirlarini yaratish shu tariqa kelib chiqdi va o'z navbatida odamlarning kundalik turmushidan o'rin ola boshladi. Natija-da badiiy bezaklarning turli-tuman shakllari va turlari paydo bo'ldi. Boshqa san'atlarga nisbatan, bunday naqshli bezaklar ko'pligining va takomil topganligining muayyan tarixiy sabablari bor. Ma'lumki, islom mamlakatlarida mavjudodlar tasviri ish-lanmagan, balki, tasviriy san'atga chuqur falsafiy yondashish natijasida shartlilik, stillashtirish, rasmiylikka asoslangan badiiy bezak asarlarini yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy haqiqat o'zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo'lganki, hozirda jahonda mashhur me'morchilik yodgorlikla-

rimiz va ulardag'i ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, hat-totlik, toshtaroshlik va boshqa turlardagi san'atlarning ajoyib dajrada uyg'unlashganligida ko'rindi. Uning negizida murakkab, izlanuvchan, ijodkorlik mehnati mavjud. Misol uchun: Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent, Qo'qon va boshqa shaharlardagi me'morchilik va xalq amaliy san'ati yodgorliklari o'tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan beba ho san'at asarlarining namunalari bo'lib, xalqimizning va shu bilan jahon madaniyatining durdonalaridan bo'lgan badiiy va madaniy merosini tashkil etilganidan xabardor bo'lamiz.

Xalq amaliy san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun o'zbek xalqining amaliy san'ati kishilarni badiiy axloqiy, umuminsoniy ruhda tarbiyalaydi.

O'zbek xalq san'ati qadimiyligi hamda boy madaniyatini bilan butun dunyoga mashhur. Uning yer yuzasi va tuproq osti qismi ulkan bir tarixiy muzey. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Farg'ona va boshqa shaharlardagi har bir tarixiy obida, har bir xalq amaliy san'ati namunasi bobokalonlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas, teran mazmunli va tarixan beba ho san'at asarları jahon madaniyatining durdonalaridan bo'lgan badiiy va ma'naviy merosini tashkil etadi.

Asrlar davomida orttirilgan va madaniy boyligimiz, xususan, sho'ro tuzumi davrida o'zbek milliy xalq amaliy bezak san'atining eng ko'p rivojlangan turlaridan ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, toshtaroshlik, suyak o'ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamchilik kabi turlarning o'ziga xos tomonlari, bajarish texnologiyasi, haqiqiy asl nomlari, o'ziga xos maktablari, uslublarini yaratgan ustalarining nomlari asta-sekin yo'qolib ketish xavfi ostida qoldi. Bunguni kunda mustaqil mamlakatimizda xalqimizning asrlar bo'yini yaratgan mehnati natijasida yaratilgan amaliy bezak san'atini ko'z qorachig'idek saqlash, qadrlash, ulardan amaliy foydalanish, yoshlarga o'rgatish orqali ularning estetik didini o'stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar ochildi.

Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Nizomiy Ganjaviy, Nosir Xisrov, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod,

Bobur kabi jahonga mashhur olim, shoir va musavvirlar xalqimizni go'zallikka intilishga chaqirgan.

Bobomiz Amir Temur hunar va ilm egalari, yirik mutaxassis olimlar yordamiga tayanib matematika, geometriya, me'morchilik, astronomiya, adabiyot, tilshunoslik, tarix, mu-siqa, tasviriy san'at va hattotlik kabi san'at asarlarini rivojlantirishga katta ahamiyat berdi. Shaharlarni har tomonlama chiroyli va ulug'ver qilishga intildi. Jumladan, tosh hamda g'isht yo'llar, keng va katta ravon ko'chalar qurdirgan. Bir-biridan mabatli binolar soldirgan. Samarcandning Registon maydonidagi Ulug'bek, Sherdor va Tilla Qori madrasalari, Shoxi Zinda va Go'ri Amir ansambl maqbaralari, Bibixonim masjidi, Buxoroda Ismoil Samoniy maqbarasi, Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi, Shahrisabzdagi Oq Saroy va boshqalar bugungi kunda dunyoga mashhurdir.

Amir Temur va temuriylar davrida xalq san'ati hunarmandchiligi qolaversa madaniyati yuksak darajada rivoj topdi. Temurning amri bilan turli mamlakatlardan ustalar, me'morchilar olib kelinib ajoyib takrorlanmas binolar qurilgan va bog'u-rog'lar barpo etilgan.

Ayniqsa Temur o'z onasiga bag'ishlab qurdirgan Oqsaroy tariixning bir bo'lagi bo'lib qoladi. Uni 1379-yilda Temurning amri bilan qurdirilgan.

Ma'lumki, o'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng rivojlangan turlaridan biri naqqoshlikdir. O'zbekiston territoriyasidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, So'g'd, Baqtriya va boshqa naqsh san'atining rivojlanganligi ma'lum. Olimlarimiz Surxandaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II asr), Dalvarzintepa (I asr) qazilmalaridan topilgan, rasm, naqsh qoldiqlari orqali buni isbotlab bergenlar, Xorazmdagi Tuproqqa'l'a zallari monumental naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma'lum. VI-VII asrlarda qasrlar va boylarning uylari naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan.

IX-X asrlarda O'rta Osiyoda naqqoshlik san'ati avj olib rivojlandi. Arxitekturada g'isht qolipli naqsh solish yuksak rivojlandi, binolarning ichki tomonlariga ganch, yog'och o'ymakorligini qo'llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa, maktablarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch naqshlar bilan nafis bezatilgan.

XVIII asrning oxiri XIX asrda Qo'qonda, Farg'ona, Buxoro kabi shaharlarda yetuk ustalar yetishib chiqdi. Misgarlik,

naqqoshlik, ganchkorlik, chilangarlik va boshqa san'at turlari rivojlandi.

Qadimda hunar o'rganish muqaddas sanalgan. Har bir xalq kelajak avlodlarga o'zidan qoldirgan takrorlanmas hunarlari bilan qadrlangan. O'zbekiston qadimda hunarmandlar markazi bo'lган desak, xato qilmagan bo'lamiciz. Masalan, Andijon viloyatining Shahrixonida, Samarcand viloyatining Urgutida, Farg'ona viloyatining Qo'qon va Marg'ilonida, Namangan viloyatining Chustida xalq hunarmandchiligi gullab yashnagan. Hunarmandlar ma'lum bir davrlarda mahallalarga bo'linib shug'ullanganlar, chunonchi zargarlik mahallasi, pichoqchilik mahallasi deb yuritilgan. O'sha davrlarda yana misgarlik, zargarlik, buyrachilik, sandiqchilik, pichoqchilik, aravasozlik, kulolchilik mahallalari ham mavjud bo'lgan. Masalan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda buyrachi mahallasi bo'lib, u yerda umuman Buxordagi buyra to'qiydigan ustalar yashagan. Buyrachi mahallasida 120 ta oila yashagan.

Har bir kasbkorlik mahallasida qo'ni-qo'shnilar o'rtasida raqobat bo'lgan. Chunki kimning mahsuloti sifatli bo'lsa, xalq o'shaning ishlab chiqargan mahsulotini sotib olgan. Shuning uchun har bir usta sifatli mahsulot tayyorlashga intilgan. Har bir ustani o'z rastasi bo'lgan. Bozorda, odatda, bozor begi bo'lgan. U barcha rastalarga keltirilgan mollarni kuzatib, ularga narx belgilab chiqqandan keyin savdo-sotiq boshlanar edi. Sifatsiz mahsulot ishlagan ustani bozoriga uchragan.

Naqqosh o'tmishda xalq ustalarining eng bilimdoni hisoblangan. Chunki ular madrasada tahsil olib adabiyot, tarix, musiqa, matematika, kimyo fanlarini yaxshi bilganlar. Naqqoshlik texnologiyasi avloddan-avlodga o'tib kelgan. Qadimdan naqqoshlar naqsh yaratish sir-asrorlarini usta bo'lgnaridan so'ng ular ham o'z shogirdlariga o'rgatganlar. Shunday qilib, naqqoshlik kasbini hunarmandchilikka asos qilib an'ana tariqasida rivojlanтириб kelganlar. Zamonamizda naqqoshlik yosh avlodga: mehnat ta'limining turi, to'garak, kasb shaklida o'rgatilmoqda. Aslida naqqoshlikni o'rgangan o'quvchi-shogird xalq hunarmandchiligi ning boshqa soha, tarmoq kasblarini ham o'zlashtirishi osonlik bilan amalga oshgan. Chunki xalq badiiy hunarmandchiligi sohalari: ganch, o'ymakorlik, yog'och, tosh va suyak o'ymakorligi, kandakorlik, misgarlik, kulolchilik, sandiqsozlik, beshiksozlik,

pichoqchilik, zargarlik, chilangarlik, chopon tikish, kiygiz bo'sish, do'ppido'zlik, sharq miniatyurasi, rixtagarlik, zardo'zlik, patdo'zlik, kashtachilik, chitgarlik, savat to'qish, bo'yachilik, gilam to'qish va boshqa shu guruhga kiradigan badiiy hunarmandchilik kasblarini o'rganish texnologiyasida naqqoshlik asos hisoblanadi.

Hozirgi kunda ayrim maktablarda mehnat ta'limi bo'yicha to'garak ishlarini tashkil qilishda quyidagi o'quv rejadan foydalanadilar (chuqurlashtirilgan variantida):

Mavzular tartib raqami	Darslar tartib raqami	Mavzular	Soatlar
5-sinf			
1	1–2	Naqqoshlik hunari va uning inson hayotidagi o'rni	2
2	3–4	Naqqoshlikda ishlatalidigan asbob-uskunalar va materiallar	2
3	5–6	Naqsh va uning turlari	2
4	7–26	Naqsh elementlarini chizish geometriyasi	20
5	27–64	Oddiy naqsh namunalarini qalamda chizish	38
		Jami:	64
6-sinf			
6	1–2	Rangshunoslik	2
7	3–8	Bo'yoqlar bilin ishlash texnologiyasi	6
8	9–64	Oddiy naqsh namunalarini bo'yash	56
		Jami:	64
7-sinf			
9	1–28	Berilgan to'g'ri to'rtburchak, kvadrat, uchburchak va doira shaklidagi naqsh namunalarini chizish va bo'yash	28
10	29–64	Kompozitsiya, naqsh elementlari asosida oddiy naqsh kompozitsiyalarini tuzish	36
		Jami:	64

Shu bilan birga maktab o'quvchilarini xalq hunarmandchilik sohasidagi tarmoq va kasblarga xos mehnat asoslarini o'zlashtirishga yo'naltirmoqdalar: nonvoychilik, o'tov tayyorlash, oshpazlik, milliy o'yinchoqlar tayyorlash, ot-ulov anjomlari tayyorlash, kosibchilik, imoratsozlik va boshqa mehnat turlarini o'rganishga jalg etilmoqda.

Yuqorida aytilgan milliy hunarmandchilik asoslari o'quvchilar uchun kasb tanlashga omil hisoblanadi.

2. Xalq hunarmandchiligi turlaridan naqqoshlik san'ati va ularda qo'llanadigan asbob-uskunalar, texnologiyalar. Xalq amaliy san'ating eng keng tarqalgan ommaviy turlaridan biri naqqoshlikdir. Naqqoshlik amaliy san'ati O'zbekistonda juda qadimdan mavjud bo'lib, ayniqsa, XVIII–XIX asrlarda keng rivoj topa boshladi. Avvallari naqsh bilan masjid va madrasalar, boy zodagonlarning uylari (ship, ustun, devor) bezatilar edi. Bu davrda me'morchilik naqshlari o'z qonun-qoidalari hamda bezash uslublariga, o'ziga xos ranglar uyg'unligiga va mustaqil naqsh tuzilishiga ega edi.

XIX asrga oid Buxoro, Samarcand, Farg'ona va Toshkent me'morchilik yodgorliklari bir xil uslubda yaratilgan, chunki bu shaharlar ustalari bir-birlari bilan yaqindan hamkorlik qilishgan.

O'tgan asrlarda yaratilgan Farg'ona, Toshkent, Buxoro va Samarcand naqshlarini diqqat bilan o'rganadigan bo'lsak, bitta xususiyat ularning hammasiga xos ekanligi angilaniladi. U ham bo'lsa, naqshlar mazmunining bir-biriga yaqinligi, ranglarning yorqinligi va tekis ishlanishidir.

Olti-sakkiz qirrali stollar, qutichalar, ramka, shamdonlar, tryumo, oyna, karniz, ipaklar va boshqa turli buyumlar O'zbekistonda qadimdan naqshlanadi.

Yog'och buyumlar bezagi bilan binolar naqshi hamda texnologik xususiyatlari o'rtasida ko'pgina umumiyliliklar bor. Naqshdagi asosiy bezak tuzilishlari tabiatdagি novda, yaproq, gul, g'uncha, kurtak, lola, qalampir, nok, bodom, katta yaproq va pollardan shartli ravishda olingan elementlardir.

Naqshlarning o'z qonuni, tarkibiy qismlarining o'ziga xos tuzilishi va ranglar asosi bor. Har bir naqsh alohida qaytariluvchi shakllardan iborat bo'lib, ularning o'zaro uyg'un bog'lanishi naqsh mavzusini belgilaydi. Har bir shunday ritmik qaytariluvchi qismlar yig'indisi shunday ma'lum mazmun yaratishga mo'ljallangan katta pannoning bir bo'lagidir.

Xalq ustalari ijodida quyidagi naqsh guruhlari, ko‘p qo‘llaniladi: islimiyl, girih, murakkab.

Islimiyl – egri chiziqli o‘simlik tarkibiy qismlaridan iborat naqsh. Islimiyl naqshlarda quyidagilar asosiy qismlardir: novda, yaproq, gul, g‘uncha, kurtak, lola, qalampir, nok, anor, bodom-poya va boshqalar.

Girih – to‘g‘ri chiziqli qismlardan hosil qilingan geometrik shakldagi naqsh. Girihlar to‘rsimon va yulduzsimon bo‘lib, yulduz qirralarining soni uchtadan o‘n oltitagacha bo‘ladi.

Murakkab – islimiyl va girih tarkibiy qismlarining chatishmasidan iborat naqsh. Murakkab naqshlar girih shakllar va o‘simlik tarkibiy qismlarining birga qo‘shib ishlatalishi natijasida hosil bo‘ladi.

Naqsh chizish uchun sifatli rasm daftari, albom, oq vatman qog‘oz, yumshoq va o‘rta yumshoq qora qalamlar, oq yoki ko‘k o‘chirg‘ichlar, uchburchakli yoki to‘g‘ri chizg‘ichlar, sirkul kerak bo‘ladi. Chizilgan naqshni bo‘yash uchun esa birdan o‘ngacha raqamli mo‘yqalamlar, quruq bo‘yoq, guash, akvarel, emulsiyali, mineral, tempora kabi bo‘yoq turlari, bo‘yoq qorish uchun idishchalar, aralashtirish uchun tayoqchalar kerak bo‘ladi.

Naqsh turli xil material va yuzalarga ishlanishi mumkin. Naqsh ishlashga har qanday yog‘och ham yarayvermaydi. Asosan, qayin, qora qayin, terak, qarag‘ay, nok, yong‘oq, DSP va boshqa yog‘ochlar tanlanadi. Naqsh ishlash uchun mos yog‘och tanlangandan keyin unga dastlabki ishlov beriladi va yuzasi tekislanadi (shpatlyovka qilinadi).

Shpatlyovka belchalar yordamida yog‘och yuzasiga bir tekisda suriladi. Yog‘ohning ulangan yerlari, choklari bo‘lsa, bu joylarga ikki martadan shpatlyovka surib chiqiladi. Shpatlyovka qurigach buyum sathi jilvir qog‘oz bilan silliqlanadi. Tayyorlangan yuza endi gruntlanadi. Buning uchun o‘rik yoki duradgorlik yelimini qizdirib, yaxshilab eritib, toza idishga doka yoki mayda elakda suziladi. Biroz sovigach, unga tilla yoki kumush hal solinib, aralashtiriladi. Bu qorishma o‘rtacha suyuqlikda bo‘lishi kerak. Tayyor bo‘lgach qorishma buyum sirtiga 20 raqamli mo‘yqalam bilan ilk bor fon rangida bo‘yab chiqiladi.

Naqsh chizishni avvalo mavjud naqsh namunalaridan ko‘chirib chizish mashqidan boshlagan ma’qul. Bunda naqsh chizish metodikasiga rioya qilinishi zarur. Tayyor naqshni ko‘chirib chizishdan maqsad kelgusida turli naqshlarning o‘ziga xos xususiyatlari.

rini o'rganish va mustaqil naqsh kompozitsiyasini chizishdir. Bu qiziquvchidan naqsh kompozitsiyasining muhim qismlari hisoblangan g'oya, ritm, simmetriya, soya, rang kabilar haqida keng ma'lumotga ega bo'lishini taqazo etadi.

Naqqoshlik darsini tegishli fan o'qituvchisi yoki naqqosh ustalar olib borishi lozim. Naqqoshlik hunari darsini yaxshi olib borish uchun o'qituvchi zamonaviy didaktikani yaxshi bilishi va uni amalda ijodiy qo'llay olishi kerak. O'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatida quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilishi maqsadga muvofiqdir:

1. Ta'lif va tarbiyaning birlik tamoyili.
 2. Ta'larning ilmiy bo'lish tamoyili.
 3. Ta'linda ko'rgazmalilik tamoyili.
 4. Ta'linda onglilik va aktivlik, mustaqillik tamoyili.
 5. Ta'larning tizimli va izchil bo'lishi tamoyili.
 6. Ta'linda ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni puxta va mustahkam o'zlashtirish tamoyili.
 7. Ta'larning o'quvchilarga mos bo'lish tamoyili.
 8. Ta'linda nazariyaning amaliyot bilan bog'liq bo'lish tamoyili.
 9. Qatnashuvchilar kollektiviga ta'lif berish jarayonida har qaysi o'qituvchilarga xos xususiyatlarni hisobga olib o'rgatish tamoyili.
- Bu borada ta'kidlash zarurki, o'quvchi mакtabni bitirib qaysi kasbda ishlamasin, bir hunar egasi bo'lib qoladi. Bu hunar orqali kelajakda o'z iqtisodini yaxshilashi mumkin, shu hunar orqali ilm o'rganishi mumkin. Bundan tashqari kelajakda bu bolada madaniyat va san'atdagi, hayotdagi go'zalliklarni sezab ilish, bu go'zallikni yarata olish ko'nikma va malakalari shakllanadi. Naqshlarni o'qishni o'rganadi, go'zallikdan bahra olishga o'rgatadi. Xullas, o'quvchilar vogelikka to'g'ri baho berishga va undan to'g'ri xulosa chiqarishga o'rganadilar.

Mashhur chexoslovakiyalik donishmand, insonparvar pedagog Yan Amos Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» asarida yoshlarga hunar o'rganish haqida bunday degan edi: «Hunarmand o'z shogirdiga o'z kasbini o'rgatish uchun ma'lum muddat belgilaydi. Ikki, uch yil va hokazo. Muddatning qisqa-uzoqligi kasbning oddiy-murakkabligiga bog'liq bo'ladi. Shogird kasb-hunarni shu muddatda o'rganib olishi zarur. Har bir shogird shu kasb

sohasida ustaga yordamchi bo'lib ishlay boshlaydi va biroz vaqt o'tgach, usta bo'lib oladi». Maktabda ham, o'quvchilarga hunar o'rgatish sohasida ham tartibga rioya qilish kerak. Belgilangan muddatda, ya'ni 5–9-sinflarda bola hunar o'rganadi, u axloqli va madaniyatli bo'lib shakllanadi. Bu haqida sharq olimlari, xalq donishmandlari va xalq pedagogikasi yillar va asrlar davomida o'z tajribalarini o'tkazganlar.

Naqqoshlar hunarini maktablarda o'rgatishda to'garaklar tashkil etilib, 5,6,7-sinflarda haftasiga 2 soatdan, yil davomida har bir sinfda 64 soatdan vaqt ajratib o'rgatish mumkin. To'garak mashg'ulotlari uchun belgilangan dastur quyidagi vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan:

- o'quvchilarga naqqoshlik hunarini o'rgatish;
- naqqoshlik hunari tarixi va uning maktablari bilan yaqindan tanishish;
- naqqoshlikda naqshni qog'ozdan yog'ochga, yog'ochdan bino devorlariga naqsh ishlashni o'rgatish;
- o'quvchilarni san'atga va hunarga bo'lgan qiziqishini oshirish;
- ularni kelgusida axloqli, bilimli va madaniyatli kishi bo'lib yetishtirish.

Naqqoshlik hunari ustaxonasi uchun katta va kichik xona ajratilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Chunki katta xonada dars o'tiladi, kichikroq xonada esa asbob-uskunalar va ba'zi bir duradgorlik ishlari bajariladi.

Maktabda naqqoshlik hunari to'garaklaridagi mashg'ulotlar davomida o'quvchilar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- naqqoshlilik hunarining hayotdagi roli va uning ahamiyati;
- naqqoshlikda ishlatiladigan materiallar, bo'yoq turlarida ishlay olish;
- har xil mo'yqalamlarda ishlay olish;
- naqsh turlari va ularning elementlarini yaxshi chiza bilish;
- o'simliksimon, geometrik, ramziy va boshqa naqsh kompozitsiyalarini tuza bilishi hamda ularni xohlagan kaloritda ishlay olish;
- ish o'rnini toza tutish, texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va gigiyena qoidalarini bilish;
- murakkab shakldagi buyumlarga naqsh ishlay olish;
- binolarni naqshlar bilan bezay olish;

- ish o‘rnini va ishning eng ilg‘or metodlarini tashkil etishni bilish;
- murakkab bo‘lмаган xalq amaliy bezak san’ati asarlarini o‘qiy olish va ularni tahlil qila olish;
- naqsh tilini bilish;
- naqqoshlik maktablari va ularning o‘ziga xos farqlarini bilish;
- O‘zbekistondagi naqqosh xalq ustalarini va qisman bo‘lsada, chet el naqqoshlarining hayoti va ijodini yaxshi bilish;
- O‘zbekistonda hunarmandchilik turlarining hammasini biliши lozim.

Naqqoshlik darslaridan tashqari quyidagi ishlarni ham uyush-tirish maqsadga muvofiqdir:

1. Muzeylarga, xalq ustalarining ustaxonalariga, ko‘rgazmalar-ga va boshqa joylarga sayohat qilish.
2. Hunarmand ustalar, san’atshunos, tarixshunos va boshqa olimlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish.
3. O‘quvchilar ishlardan ko‘rgazmalar tashkil etish.
4. «Yosh naqqoshlar» nomli devoriy gazetalar chiqarib turish.
5. «Mohir qo‘llar», «Bizning ustalar», «Go‘zallik sohibkorlari», «Mashhur naqqoshlar» mavzularida stendlar tashkil etish.
6. Yosh naqqosh ustalar hayoti va ijodiga bag‘ishlab ijodiy jurnallar tayyorlash.
7. Konkurslar o‘tkazish.
8. Viktorinalar tashkil etish.
9. Olimpiadalar o‘tkazish.
10. Slaydlar, videofilmlar, kinofilmlar namoyish qilish.
11. Me’morchilik obidalari muzey yoki naqqoshlar ish obyek-tiga borish va ustalarning ishlardan nusxa olish.
12. Hunarmandlar ishlardan fotonamunalar saqlash uchun alohida papkachalar tashkil etish.

Bu ishlarni o‘qituvchi o‘z sharoitidan kelib chiqib, ish rejasi asosida olib boradi.

Beshinchи sinfda o‘quvchilarga naqqoshlik san’ati tarixi, uning maqsad va vazifalari, hunar nima, hunarmandchilik, usta va shogirdning vazifalari, naqqoshlik hunarini yoshlarga o‘rgatishning milliy an‘analari, inson hayotida naqqoshlik hunarining roli haqida o‘rgatiladi. Naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar, materiallar hamda ulardan to‘g‘ri foydalanish o‘rgatiladi. Turli jahon xalqlaridagi naqshlarning bir-biridan farqi va o‘ziga xos

xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Ayniqsa, naqqoshlarimiz naqshlar orqali, ya'ni naqsh tili bilan unsiz ovozda gapirishi, har bir naqsh elementi ramziy ma'no anglatadi. Naqsh elementlarini chizish o'rgatiladi. Shundan so'ng o'quvchilar oddiy naqsh namunalarini chizib, mashq qiladi. Bu naqsh namunalarini 5–6 marta katak daftarda chizib mashq qiladilar. Ular 10 ta naqsh namunalarini chizishni mashq qilgandan keyin albom varag'ida ikki nusxdan chizib qo'yadilar. Chunki bo'yash uchun tayyorlab qo'yiladi.

Oltinchi sinfda o'quvchilar beshinchi sinfda qalamda obdon chizishni mashq qilib o'rgangan o'nta namunalarini bo'yashni o'rganadilar. Avval barcha o'quvchilar bilan rangshunoslik bo'yicha suhbat o'tkaziladi. Suhbatda rang haqida umumiyl tu-shuncha, ranglarning paydo bo'lishi, ranglar nomi, uning tur-lari va tizimdag'i ahamiyati, ranglarning inson ruhiga ta'siri va boshqalar o'rgatiladi. O'quvchilarga bo'yoq turlari va ular bilan ishslash texnologiyasi batafsil o'rgatiladi. Bo'yoq bilan ishslash texnologiyasida bir nechta qiziqarli mashqlar bajariladi. Bo'yoq va mo'yqalamlar bilan ishslashni o'rganib bo'lingandan so'ng o'nta oddiy naqsh namunalarini ranglashga o'tiladi. Bu naqshlarni oddisiidan boshlab bo'yab mashq qiladilar. Bo'yashda naqshlarning katta va kichik zaminlarini bo'yashga o'rganadilar. Keyin esa naqshlarning gul va barglariga rang berishni, naqshlarni nov-dasiga rang berilgandan so'ng naqshlar pardoz qilinadi. Pardoz berishda naqsh barg va gullariga taroq chiziqlar tortiladi. Bundan so'ng naqshning oq bandi va obisi tortiladi.

3. Kashtachilik an'analariga ijtimoiy hayotning ta'siri. Jamiyat qanday o'zgarishlarga uchramasini, unda yoshlarni mehnatga tayyorlash muammosi eng asosiy masala hisoblanadi, zeroiki uning ravnaqi yoshlар bilan, yoshlarning mehnatga, hayotga tayyorgarlik darajasi bilan o'lchanadi. Shunday ekan mustaqil respublikamizning kelajagini yaratishda kasbni mukammal o'rganib olgan yoshlар nihoyatda zarurdir. Bu borada biz murabbiylar oldida ulkan vazifalar turadi. Chunki tarbiyalab yetishtirgan yoshlarimiz respublikamiz kelajagini yaratadi. Shuning uchun har bir o'qituvchi o'z kasbini sevsa, o'z ustida muntazam ravishda ishlasa, hamisha izlanishda bo'lsa oldimizdag'i maqsadga erishishimiz mumkin.

Hozir respublikamizda o'qitilayotgan, merosimiz bo'lgan xalq amalii san'atiga e'tibor yanada kuchayib ketdi. Agar biz ota-bo-

bolarimizdan meros bo'lgan xalq amaliy san'atini to'liq egallab olsak, boshqa respublikalardan olib kelinadigan xomashyo masalasi o'z-o'zidan yechiladi. O'zimizni o'zimiz xomashyo bilan ta'minlay olamiz.

Kashta tikuvchi hunarmand kashtado'z yoki kashtachi deb ataladi. Kashtado'zlik ayollar hunari bo'lib, kashta mashinasi yaratilishi munosabati bilan mashinada erkaklar ham kashta tikadigan bo'ldilar. Mashinada yo'rma chok bilan kashta tikiladi, lekin mashina gullarning mayda detallarini aks ettira olmaydi, mashina kashtasining sifati ham qo'lda tikilgan kashtadan ancha past. Shunga qaramay mashina bilan tikish oson va ish tez bajarilishi tufayli keyingi paytlarda mashina kashtasi kashtado'zlikda katta o'rinni egalladi. Kashtachilik amaliy bezak san'atining qadimiy sohalaridan biri. Arxeologiya materiallari kashtaning deyarli barcha xalqlarda qadimiyligini, u iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda har bir xalqning madaniyati, san'ati, kasb-hunar turlari bilan birga, ularning ta'siri ostida rivoj topganini ko'rsatadi.

O'rta Osiyoda, ayniqsa, o'zbek, tojik, turkman ayollari o'rtasida kashta tikish keng tarqalgan. Oilada har bir ayol, har bir qiz kash-ta tikishi lozim bo'lgan. Chunki kiyimlar oilada tayyorlangan, badiiy buyumlarning asosiy qismi (so'zana, choyshab, oynaxalta, choyxalta, tuzxalta) har bir xonadonning o'zida tayyorlangan.

Ijtimoiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar kashta an'analariga, mahsulotlarning turlariga katta ta'sir ko'rsatgan. Masalan: hozir oynaxalta, choyxalta, paranji, kaltacha kabi buyumlar va mursak, nimcha kabi kiyimlar o'z ahamiyatini yo'qotgan, ularni faqat yoshi ulug' onaxonlar uyida, muzeylarda ko'rish mumkin. Hozir do'ppi, sumka, nimcha, kovush, so'zana, choyshab, joy-namoz, yostiq jiddlari zamонави did bilan tikib bezatilmogda. Kashta mahsulotlarining shakli va badiiy bezaklarida zamонага xos katta o'zgarishlar ro'y berdi. O'tmishta dekorativ kashtalar palak kabi badiiy buyumlar oq va malla bo'zlarga tikilgan bo'lsa, endilikda satin, shoyi, baxmal, barqut, parchaga tikilmoqda.

O'zbekiston kashtado'zlarining kashtalari naqshida o'sim-liksimon tasvirlar, shox, gulband, guldastalar ko'p uchraydi. Asosiy bezak matoning o'rtasiga ishlanadi, hoshiyalari qo'shimcha bezak hisoblanadi. Lekin kashtado'zning mahorati hoshiyani bezatishga qaratilgan kashtalar ham uchraydi. Odatda, kashta-

larda naqshlarni chizmakashlar chizib beradilar, kashtado'z badiiy buyumni shundan keyin tikadi. Markaziy bezak asosiy ahamiyatga ega bo'lgan kashtalarda chizmakash matoni bo'yi, eni, diagonali bo'yicha buklab, kompozitsiyaning bosh nuqtasi markazini, hoshiya o'tadigan joylarini, simmetrik joylashtirilgan gullar o'rnini aniqlab oladi (chizg'ich, kosa, piyola kabilardan foydalanib, gul naqshining xomaki shakllarini chizib beradi).

Kashta turmushimiz ko'rki, kiyimlar va buyumlarni bezashda katta ahamiyatga ega. Kashta tikish qiziqarli, ijodiy ish bo'lib, u charchab turgan vaqtingizda sizga quvonch keltirishi, ermak bo'lishi va sizni nafosat olamiga olib kirishi mumkin.

Qadimdan ona qizining bolalik chog'idan boshlab kelinlik sepi uchun ip yigirib kashta tika boshlaydi. Ona va qiz kashtani faqat rangli iplar bilan emas, balki unga ikki yoshga yaxshi niyat, baxt tilab, mehr-muhabbatini qo'shib havas bilan tikadilar.

«Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r» — degan xalq maqoli bekorga aytilmagan. Kelinchak uyiga kirgan har qanday odam kashtachilik san'atiga havas bilan qaraydi. Chunki, devorlarga osilgan rang-barang kashtalar, deraza pardalari, qator terilgan biri-biridan chiroyli tikilgan yostiqlar, choyshablar ko'zni qamashtiradi.

Hozirgi kunda respublikamizning shahar va qishloqlarida ij-timoiy hayotning o'zgarib borishi bilan kashta tikish kamayib ketgan. Masalan, qizlar yildan-yilga magazin va bozorlardan tayyor tikilgan kashtalarни olishga o'rganib qolishgan. Tikkan taqdirda ham, asosan yostiq uchun koshaklar, sanoqli belbog' va qo'irolmolchalar, sochiq tikishlari mumkin. Katta-katta buyumlar masalan: so'zana, zardedor, parda tikish qolib ketgan.

Xotin-qizlar kashta tikish, gilam to'qish, chopon tikish bilan davlat va uy-ro'zg'or yumushlaridan bo'sh vaqtlarida band bo'ladilar. Bozor iqtisodiyoti ta'siri bilan, yildan-yilga tikiladigan kashtalar soni ham, turi ham ko'payib bormoqda, sifati esa yaxshilanmoqda. Qizlarimizning qanchalik chevarligi, mehnat-sevarligi, didi ular tikkan kashtalardan ma'lum bo'ladi.

Kashtalardagi naqshlar. «Naqsh» — so'zi lotincha «ornament» (bezak) deganidir. Kashta tikish uchun avvalo unga naqsh chizildi. Kashtalardagi naqshlarni ko'proq tabiatdan olishadi. Masalan: gullar, shoxlar, barg va mevalar, ularni bir-biri bilan bog'lovchi va to'ldiruvchi jingalaklar, to'lqinsimon, spiralsimon element-

lar qo'shib chiziladi. Geometrik shakllar chizishda uchburchak, kvadrat, yulduzcha, ko'p qirrali yulduzlar, aylana hamda jonivorlar tasviridan foydalanish mumkin. Shu kashta naqshlaridan kashtada realistik tasvirga erishish qiyin, aynan tasvirlash kashta tikish vazifasiga kirmaydi.

Bezaklar takrorlanuvchi, takrorlanmaydigan, simmetrik muvozanat tamoyilida tuzilgan, burchakbop tuzilishda, chirmashib ketgan ko'rinishda chizib tikiladi.

Kashtaga naqsh chizishdan oldin uning umumiy badiiy yechimini o'ylab ko'rish, bezakni buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, elementlarni necha qismga bo'lib chizishni o'ylab bezak tanlash kerak. Bezakda o'simlik va jonivorlarning tasvirini yoritish gazlama fakturasiga, tikish texnikasiga bog'liq bo'ladi. Masalan, atirgul bezagini ikki xil gazlamaga: sochiq va tekis fakturali gazlamaga chizib tikilsa, ikki xil ko'rinishda chiqadi. Sochiqqa sanama choclar bilan aynan shu bezakni ko'chirib tikilsa, uning shakli va tasviri boshqacha chiqadi. Tekis gazlamaga tekis choclar bilan tikilgan atirgul bezagi esa biroz atirgulga o'xhashi mumkin. Demak, gazlama tuzilishining ham tikish texnikasining ham kashta bezagini tikib tasvirlash jaryoniga katta ta'siri bor ekan.

Kashta bezaklarini gazlamaga chizishdan oldin joyi aniqlanib, to'rtburchak chegaralar, yo'llar chizib olinadi. Tanlangan bezaklar kerakli joylarga taqsimlanib chizib chiqiladi.

Qadimdan palak, so'zana kabi katta kashtalarda aylana, uchburchak ko'p qirrali yulduzlardan ko'proq foydalanilgan. Hozirgi vaqtida chizmakashlar yangi elementlar bilan qadimdan foydalanilgan bezaklarni bog'lab o'zgacha kashta bezaklari hosil qilishmoqda. Kashtachilikning rivojlanishi yo'lida yangi-yangi kashta naqshlarini o'ylab topib, o'zлari chizgan kashtalarda namoyon qilmoqdalar.

Mahalliy kashtalarimiz haqida. Bizning mahalliy kashtachiligidizda xotin-qizlar hozirgi vaqtida quyidagi kashta turlarini tikib kelayaptilar:

Palak – qo'lda yoki mashinada kashta tikib tayyorlanadigan badiiy buyum. Uy ichini bezash uchun devorga osib qo'yiladi. Kashtachilikning eng yirik va qimmatli buyumi hisoblanadi. Palakda osmon va to'lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda malla bo'zga kashta tikib tayyorlashgan. U so'zanadan gullarining yirikligi,

zamini ham kashtada sidirg'a ko'rinishi bilan farq qiladi. Palakning o'rtasiga yirik oy tasviri qizil, qirmizi, pushti ipak bilan tikiladi va atrofi chiroyli qilib islimiyl naqshlar bilan bezaladi. Islimiyl chirmashib ketgan o'simlik naqshlaridir. Nurota palaklari (so'zanasi) 10 mm li qalin va chidamli gazlamadan tikilib, ikki qator aylanali gullar, har xil shakldagi katta-kichik barglar, jingalaklar, g'unchalar bilan chizib tikiladi.

Chizmakash bu gullar o'rnnini to'g'ri to'rtburchaklarga bo'lib olgach kosa, piyola kabi narsalar bilan belgilab oladi va chizib chiqadi.

Eng chetidagi ikki qator yo'l ichi esa takrorlanuvchi kichik islimiyl gullar bilan to'ldirib chiziladi va tikiladi.

So'zana — sidirg'a matoga gul tikib tayyorlangan, devorga osiladigan bezak buyumi bo'lib, satin, baxmal, shoyi, parcha kabi matolarga turli chocklar bilan tikiladi. Mato rangidan, kashta zaminni sifatida foydalanishi bilan, kichikligi bilan palakdan farq qiladi. Uning kashta bezagi asosan islimiyl naqshlar bo'lib, bitta to'g'ri to'rtburchak ichiga asosiy gullar (aylanali, ko'p qirrali yulduzlar) chizib tikiladi. Atrofi kichik o'lchamdag'i takrorlanuvchi islimiyl naqshlar bilan to'ldiriladi. Yo'llar, chiziqlar suvli chocklar bilan (obi) tikiladi.

Joynamoz — namoz o'qiladigan to'shama bo'lib, matodan to'rtburchak shaklda tayyorlanib, bosh tomoniga mehrob tasviri tikiladi. Bu joynamozlar qizlarimiz sepida uchta bo'lib, bittasi qaynotasiga, ya'ni kuyovning dadasiga sovg'a qilinadi, ikkitasi o'zining uyidagi taxmonni, ya'ni sandiq ustiga yig'ilgan ko'rpato'shakni changdan saqlashi va bezatib turishi uchun tikiladi. Uch metr gazlama ketadi. Masalan: och va iliq ranglar tuk va sovuq ranglarga qaraganda yaqinroq ko'rinadi.

Iliq ranglar buyumni kattalashgandek, sovuq ranglar kichiklashgandek ko'rsatadi. Shuning uchun kashta tikishda gulni fondan ajralib turishi uchun ochiq ranglardan foydalanish kerak.

4. Xalq hunarmandchilik turlaridan kashtachilikda qo'llanadigan asbob-uskunalar, texnologiyalar.

Kashtachining ish quroli. Kashta tikish uchun juda oddiy asboblar kerak bo'ladi: angishvona, qaychi, gazlama, ip, santimetr, millimetrlangan qog'oz, kopirovka qog'oz'i yoki sellofan.

Ignani cho'ziqroq ko'zlisini ishlatish qulay. Chunki har xil qalinlikdag'i iplarni o'tkazish oson bo'ladi.

Igna — tikuv quroli bo'lib, har xil hajm (uzun-kalta, ingichka-yo'g'on)da po'lat simdan o'tkir uchli, teshikli qilib yasaladi.

Angishvona — ish tikishda barmoq uchiga kiydiriladigan metall asbob. Angishvona qadimda charmdan ham qilingan. Angishvona-ning usti yoki ignaning keti qadaladigan joyi chuqurchalardan iborat bo'ladi. U qo'lni igna kirishidan saqlaydi, o'ng qo'lning o'rta barmog'iga taqiladi, uni barmoqning yo'g'onligiga qarab tanlanadi. Lekin u barmoqni siqib yoki undan tushib qoladigan bo'lmasligi kerak.

Ishlash uchun uch xil: uchi ingichka, kichkina qaychi — gazlamalardagi ipni qirqish va tortib olish uchun; uchi qayrilgan o'rtacha kattalikdagi «tuya bo'yin» qaychi — kashta tikayotganda ip uchini qirqish uchun; katta qaychi — gazlama va kalava iplarni qirqish uchun qaychilar kerak bo'ladi. Ular bir-biriga o'rtasidan vint bilan biriktirilgan ikki tig'dan iborat. Qaychilar yaxshi charxlangan, tig'larning uchi to'la yopiladigan bo'lishi kerak.

Santimetr lenta — tikish ishida buyum o'lchamini aniqlashda va gazlamaga bezakni rejalab joylashtirishda foydalaniladi.

Millimetrl qog'oz — geometrik, sanama naqsh tuzishda kerak bo'ladi.

Mayda bezakli naqshlarni gazlamaga ko'chirishda kopirovka qog'ozni kerak bo'ladi. Ayrim hollarda sellofandan ham foydalanish mumkin.

Katta kashtalarни kosa yoki tarelkalar bilan joyini aniqlab olib, to'g'ridan to'g'ri gazlamaga chiziladi.

Gazlama — bir xil rangdagi satin, shoyi, parcha, bo'z, chit, baxmal kabi gazlamalar ishlataladi. Gazlamalar rangi tikiladigan buyum vazifasiga qarab tanlanadi.

Masalan: katta kashtalar uchun ochiq rangga nisbatan to'qroq rang tanlash qulay. Chunki bu kashtalar devorga osib qo'yilishi va kattaligi uchun yuvilmasligi mumkin. Changni va kirni ko'p ma'lum qilmaydi hamda bunday fonga ochiq rangli naqshlar juda yarashadi.

Deraza pardalari ochiqroq rangda tanlangani ma'qul, xonani qorong'i qilib ko'rsatmaydi. Har qanday kashta uchun ham cho'zilmaydigan, yuvganda rangi chiqmaydigan, suvg'a kirmaydigan, ko'pga chidaydigan gazlamalardan foydalanish kerak.

Iplar asosan kashta tikish uchun tabiiy tola (ipakdan) va sun'iy toladan qo'lda yigirib tayyorlanadi. Ipak mahalliy sharoitda yetishtiriladigan pilladan quyidagicha bosqichlarda tayyorlab olinadi: pillani qaynatib oqlash, titib yigirish, urchiq bilan yigirish, chappa qilish, ipni tekislash, ranglash, ipni o'rab kalava qilish. Sun'iy tola Navoiy shahar kimyo ishlab chiqarish sanoatining chiqindisidan olinadi. Tabiiy tolaga qaraganda sun'iy toladan ip tayyorlab foydalanish qulay hisoblanadi. Sababi bu tolalar rangli bo'lib, ranglashning hojati yo'q, shu bilan birga yigirish oson bo'lib u ham chidamlidir.

Ip rangining chidamlilagini quyidagicha aniqlash mumkin: masalan, ip olayotgan vaqtida namlangan oq gazlamaga artib ko'rish kerak. Agar rangi chiqmasa ipning o'zida rang ushslash qobiliyati yaxshi hisoblanadi va ip gazlamani yuvganda rangini o'zgartirmaydi.

Agarda ipni namlangan oq gazlamaga artib ko'rish vaqtida rangi chiqsa, unday iplarni yuviladigan kashtaga ishlatmasdan, katta kashtalarga ishlatish mumkin.

Muline iplari chidamli, rangi chiqmaydi. Bu ip bo'yog'ining chidamlilagini tekshirish uchun ipni quyoshga qo'yiladi: bunda ip oqarmasdan o'z rangida qolishi kerak. Hozirgi vaqtida kashta tikishda jun tolali iplardan ham foydalanilmoqda.

Kashtachining ish joyi. Kashta tikish qulay bo'lishi, charchatmasligi uchun, ish o'rnini to'g'ri tashkil etish, mehnat qilish qoidalariга rioya qilish kerak. Avvalo, kashtachi gavda holatiga e'tibor berib, bukchaymay boshini juda past egmasdan o'tirishi kerak. Ish vaqtida gavda biroz oldinga engashgan bo'lishi, ko'z bilan ish o'rtasidagi masofa 25–30 sm dan oshmasligi lozim. Devorga suyanib qulay o'tirish uchun devor bilan gavda oralig'iga yostiq qo'yish kerak. Chunki devor harorati bilan kishi organizmining harorati to'g'ri kelmaydi. Natijada kishi sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kashtani tikish uchun quyidagi holatda o'tirishadi: kashta tikiladigan yuzani chap tizzaga yoyib, o'ng tizza bilan gazlama siljib ketmasligi uchun qisib turiladi va chap qo'l bilan kashtaning bir tomonini chap tarafga qaratib ushlab turiladi. O'ng qo'l bilan ipli ignani ushlab kashta bezagi tikiladi. Gazlamani tikish vaqtida ko'p qattiq tortmaslik kerak, chunki bu holda tikkan kashtamiz tortilib turadi.

Kashta tikish vaqtida yorug'lik chap tomondan tushib turishi kerak.

Iplarni kir bo'lishi va chigal bo'lishidan saqlash uchun alohida idishda saqlash kerak bo'ladi.

Bezak chizilgan qog'ozlar sellofan papkada, asboblar esa qutichada saqlanishi mumkin. Tanaffus qilingan vaqtda kashtani yig'ishtirib maxsus idishlarga solib qo'yish kerak.

Texnik va gigiyenik qoidalarga rioxaga qilish. Ignani avaylab tartib bilan ishlatish zarur. Ignani yo'qotib qo'yish yaramaydi, bordi-yu tushib ketsa, uni albatta topish kerak. Ignani duch kelgan joyga to'g'nab qo'yish yaramaydi, vaqtincha kerak bo'lmasa, uni 8x8 sm li o'lchamda tikilgan yostiqchaga sanchib qo'yiladi. Zanglagan ignani ishlatish yaramaydi. Bunday igna gazlamaga sanchilishi qiyin bo'ladi, zangi urib qoladi, salga sinib ketadi. To'g'nag'ichlarni ham ehtiyyot qilib, qutichada saqlash kerak.

Barmoqni igna kirib ketishidan saqlash uchun angishvona taqib tikish kerak. Qaychini ishlatishda ehtiyyot bo'lish kerak, tasodifan sanchilib ketmasligi uchun, uni ko'rinish turadigan joyga, og'zini yopib qo'yish lozim. Qaychini tushirib yubormaslik kerak: u tushib ketsa, o'zingizni jarohatlab qo'yishi, tig'i qayrilib ishdan chiqishi mumkin. Biron kishiga qaychi uzatishda uchidan ushlab berish kerak.

Ish jarayonida gigiyena qoidalariha ham rioxaga qilish kerak. Masalan: ipni tish bilan uzish yaramaydi, tishning emali buziladi, tarang tortilgan ip labni qiyib yuborishi mumkin.


Ignani nam yoki terlab turgan qo'l bilan ushlamaslik kerak. Uning gazlamaga sanchilishi qiyin bo'ladi, ishlatilayotganda g'ichirlab turadi, shuningdek, nam qo'lda tikilayotganda buyumlarda dog' qolishi mumkin.

Uzoq vaqt kashta tikilsa ko'z charchaydi, barmoqlar ham charchaydi.

Dazmol qilish uchun ham ehtiyyotkorlik va e'tiborli bo'lish talab qilinadi. Dazmollahda dazmolning tagiga maxsus taglik qo'yish kerak. Ish paytida dazmolning shnuri tagiga tushib qolmasligini, buralib ketmasligini kuzatib borish zarur. Aks holda shnur buklanib uzilishi, qisqa tutashuvga sabab bo'lishi mumkin. Dazmolni elektr tarmog'iga ulab qarovsiz qoldirmaslik kerak: Ish tugagach dazmolni elektr tarmog'idan olib qo'yiladi. Bunda shnurdan tortish yaramaydi, vilkaning korpusidan ushlash kerak.

Dazmolsovugach, shnurini ustiga o'rab vertikal holatda saqlanadi.

Chok turlari. Kashtachilikda quyidagi chok turlari ishlataladi.



1-rasm. Chok turlari va tikish usullari: a – popop chok;
b – iroqsimon chok; d – yo'rma chok.

Popop chok chok bir-birining ichidan chiqib keladigan uzluksiz qator petlyalardan iborat bo'ladi. Bu chokni gardishda va gardishsiz tikish mumkin. Ikkala holda ham ignani o'zi tomon yuritib qaviq tushiriladi. Kashtani gardishsiz tikayotganda gazlama tortilib qolmasligini, chok petlyalari yumaloq shaklda bo'lishini kuzatib borish kerak. Popop chokni siniq chiziq tarzida tikish ham mumkin. Bunday chokning teskari tomonidan qaviqlari va o'ng tomonidagi petlyalari chokning o'rta chizig'idan navbatma-navbat bir chapga, bir o'ngga joylashgan bo'ladi (1-rasm, a).

Iroqsimon chok. Gazlamadan sug'urib chiqarilgan ikkita ip izi bo'ylab yoki ixtiyoriy konturli kashta gulining motivida tikiladi. Bunda kashta gulining goh u, goh bu tomoniga navbatma-navbat igna sanchib, qaviqlar chapdan o'ngga tomon joylashtirib boriladi. Gazlamaga igna sanchilgan joylar oralig'i bir xil bo'lishi kerak. Yo'ning o'rtasi bo'ylab qaviqlar chalishib boradi. Har bir yangi qaviq oldingi qaviq ustiga tushadi (1-rasm, b).

Yo'rma chok ba'zan ziy chok ham deyiladi, chunki bu chok bilan gazlamaning chetlari tikiladi. Gazlamani teskari tomoniga 3–4 sm bukib, gazlama rangidagi ip bilan ko'klab chiqiladi. Petlya chok qaviqlari chapdan o'ngga tomon gazlama ziyiga perpendikulyar joylashtirib tikiladi. Bu choklar gardishsiz tikiladi. Chok qaviqlarining yirikligi bir xil bo'lishi kerak (1-rasm, d).

Qaytma chok. Bu chok bir xil yiriklikdagi qaviqlarning uzluksiz qatoridan iborat bo'ladi. Ignani o'ngdan chapga yuritib, birinchi qaviq bilan shu qaviq yirikligidagi oraliq hosil qilinadi. Ikkinci qaviqni tushirish uchun ip chapdan o'ngga yotqizib birinchi qaviq tugagan joydagisi nuqtaga igna sanchiladi-da, qaviq

yirikligida o'ngiga chiqariladi. Uchinchi va undan keyingi qaviqlarni tushirishda, ularning o'zidan oldingi qaviq tugagan joyga igna sanchiladi. Qaytma chokni qaviqlar orasida ochiq joy qoldirib tiksa ham bo'ladi.

Suv chok bir-birga zikh joylashgan qator qiya qaviqlardan iborat bo'ladi. Bu chokni chapdan o'ngga tomon yoki o'zidan oldinga qaratib yo'naltirib tikish mumkin. Suv chokni tikayotganda ip doimo bir tomonda – chapda yoki o'ngda bo'lishi kerak. Tikayotganda ip yo'nalishini o'zgartirib bo'lmaydi, chunki chokning strukturasi buzilib qoladi.

Hozirda tekis choklar juda keng tarqalgan usuldir. Ko'pgina kashtalar shu choklar bilan tikib bezatiladi. Bu chokka ip kam ketadi, rangli iplar bir-biri bilan kirishib chiroyli ko'rinishga ega bo'ladi. Gullar tasviri tabiatdagi gullarga yaqin ko'rinishda tikib bezatiladi.

Kashtachilik sirlarini yoshlarga o'rgatish. Umumta'lim maktablarining 5-sinf o'quvchilari uchun kashtachilik mashg'ulotlari olib boriladi. Kashtachilik darslari talabga javob beradigan holda o'tishi uchun o'quvchilarga qulay sharoitlar yaratib beriladi. Chizmalarini chizish, nusxa ko'chirish va yozish, ish qurollarini qo'yish uchun ish stollari sind xonasining qulay joyiga joylashtiriladi. Sinf xonasi kasbga taalluqli har xil stend va ko'r-gazmali kashtalar, guruh burchaklari, texnika xavfsizligi qoidalari, kashtachilik tarixi, chizmachilik jadvallari va kasb-hunar to'g'risidagi xalq maqollaridan foydalanib bezatiladi. Darslarni zamонавиј таблар асосида олиб борилади, я'ни didaktik, psixologik, ma'naviy-axloqiy, gigiyenik, texnik talablarni darsga bog'lab, bir-birini to'ldirib o'tishga harakat qilinadi. Mehnat ta'limi darsida choc turlaridan «Tekis choklar» mavzusini o'tish uchun shu choc chizmasi chizilgan jadvaldan foydalanib, doskaga chiziladi, o'quvchilarning tasavvurlarida yaxshi saqlashlari uchun tikilgan buyumdan namuna ko'rsatib, ko'z o'ngilarida tikib ko'rsatiladi, shuningdek, o'zlarining mustaqil tikishlarini, rang tanlashlarini kuzatib, kamchiliklari tuzatiladi. Test savollari tuzilgan kartochkalardan foydalanib, guruhdagilar ikkiga bo'linib, o'zaro savol-javob tariqasida o'tilgan mavzularni eslab, takrorlab, mustahkamlab boriladi. Yaxshi ishtirot etgan o'quvchilarni baholar bilan rag'batlantirib, qolgan o'quvchilarni ham shular qatoridan o'rin olishlari kerakligini ta'kidlab darsni

olib borish yaxshi natijalarni beradi. Uyga topshiriq qilib: «Tekis choklar» mavzusini o'qib, tushunib, shu mavzu bo'yicha gazlama parchasiga biron gul elementini tikib kelishni, gulni kashtalarda tikilishini o'ylab, topib kelishlari topshiriladi. Mehnat ta'limi mashg'ulotlarini olib borishda fanlararo bog'lanishlar haqida ham fikr bildiriladi. Masalan, geometriya faniga asoslanib, uchburchak, oltiburchak, to'rtburchak shakllaridan tuzilgan naqshlarni bo'laklarga bo'lib chizishda matematikaga bog'liqligini, tabiatdan olingen gullar, barg va choklar esa tabiat bilan bog'liqligini, qushlar, tovus, kamalak, kiyik, xo'roz va shunga o'xshash hayvonlarning tasvirini tushirib tikish esa zoologiya fani bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bundan tashqari tabiatdagi ranglar to'g'risida tushuncha beriladi, chunki bu gazlama va ip tanlashda kerak bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlarni bajarishda ko'proq tikish texnikasi, gigiyenik va texnik talablarga rioya qilishni kuzatib borish kerak. Masalan: tikish uchun ish joyi qulaymi, yorug'lik qaysi tomonidan tushmoqda, kašta bilan tikuv oralig'i me'yordami, buchaymasdan to'g'ri o'tiribdimi, bu narsalarning hammasi kishi organizmiga – ko'z, gavda tuzilishiga salbiy ta'sirini tushuntirib o'tiladi.

Texnika xavfsizligi qoidalarida: dazmoldan foydalanish qoidalari, igna va qaychidan foydalanib, qayerda saqlanishini takrorlab, hayotdan misollar keltirib tushuntiriladi va o'quvchilar ularni yodda tutishlari kerakligi aytib o'tiladi. Chizmachilik darsida chizgan naqshni amaliy mashg'ulot darsida bemalol o'tirib tikadilar. Har bir o'quvchining amalda darsni qanday o'zlashtirib borayotganligi kuzatib boriladi, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarini tuzatib boriladi. O'quvchilar tikayotgan kashtalarining orqa va yuza qismini tekshirilib baholanadilar. Tikilgan kashtaning orqa qismi ham toza bo'lishi kerak. Chaqqon, chevar o'quvchi qizlarning ishi boshqa qizlarga namuna qilib ko'rsatiladi.

O'quvchi qizlarga faqat kashta tikish sirlarini o'rgatish bilan chegaralanib qolmasdan, balki uy-ro'zg'or ishlariga kerakli bo'ladigan narsa, kiyimlarni bezashni ham o'rgatib borish kerak. Masalan: har xil gazlama parchalaridan foydalanib applikatsiya tikish. Applikatsiya har xil shakl va bezaklardan iborat bo'lib, uni kiyim-kechaklarni va ro'zg'or buyumlarini bezash uchun gazla-

ma, charm parchalaridan tekis chok, petlya chok, popop choklar bilan yoki tugma, munchoq bilan ham tikib qo'yilishi mumkin. Yirtilgan, kuyib teshilgan joylarni applikatsiyadan foydalaniib, har xil shaklda bezak berib yamash ham mumkin. Shuning uchun o'quvchi qizlar o'z qo'llari bilan qalin gazlama qoldiqlaridan, eski, lekin hali mustahkam bo'lgan qalinqazlama bo'laklaridan turli xil oshxonalar va ro'zg'or buyumlarini tikishlari orqali ularda badiiy did shakllanishi bilan birga iqtisodiy tarbiya ham berib boriladi. Gazlama parchalaridan yostiq uchun jild, choynakpo'sh, choynak uchun taglik tikish, gazeta-jurnallarni, uy hujjatlarini, qaychi, taroq, ruchka, qalam, lineyka kabi narsalarni yosh bolalar qo'li yetmaydigan balandroq devor yuzasiga osib qo'yish uchun har xil kattalikdag'i xaltachalarni tikib, bezashlari shular jumla-siga kiradi.

Noan'aviy dars o'tish usullaridan foydalaniib, o'quvchilarni kasbga havas va qiziqishlarini oshirish, o'tilgan mavzularni mustahkamlash va yaxshi tushuncha hosil qilishlari uchun, tasavvurlarini kengaytirish va kashtadagi yangiliklar bilan tanishib borishlarini ko'zda tutib ish rejaga quyidagi mavzularni kiritish mumkin:

- gilam to'qish korxonasiaga sayohat va tashabbuskor ishchilar bilan suhbatlar uyushtirish;
- tarixiy muzeyga sayohat (kasbga taalluqli narsalarni ko'rish);
- yangi kelinchak sepini ko'rish (kashtalarni ko'rish);
- navro'zga bag'ishlangan ko'rik-tanlov namunasini ko'rish (har xil kashta namunalarini ko'rish);
- 8-martga bag'ishlangan ko'rik namunasini ko'rish: onaxonlar bilan suhbat (kashta turlarini tikish haqida);
- mahallalarning chiqishlarini ko'rish (kashta namunalarini).

O'quvchilar shu mavzular bo'yicha uyushtirilgan sayohat va suhbatlari haqida o'z taassurotlarini referatga yozib, o'zlariga yoqqan bezaklardan namunalar chizib keladilar. Referatlar bir-biriga taqqoslanib baholanadi.

Kashtachilik kasbining afzalligi. Kashtachilik kasbining afzalligi shundaki, bu guruhda o'qigan o'quvchi kam xarajat qilib, shu kasbni egallaydi. Masalan: shofyor bo'lish uchun avtomashina, benzin, asbob-uskunalar kerak bo'ladi, tikuvchi bo'lish uchun esa tikuv mashinasi, unga kerak bo'ladigan asbob-uskunalar, gazlama kerak bo'ladi. O'z-o'zidan shunday savol tug'iladi: «Hamma

o'quvchilar tikuvchilik va shofyorlikka o'qigani bilan tikuvchi yoki shofyor bo'la oladimi?»

Hozirgi sharoitda har qanday oila ham qizi uchun tikuv mashinasi, o'g'li uchun avtomashina olib berishga qurbi yetmaydi. Natijada o'quvchining tanlagan kasbidan ko'ngli sovib, qiziqishi kamayadi. Ba'zan bunday o'quvchilarimiz vaqtini bekor o'tib ketganini sezmay qoladilar. Lekin har qanday sharoitda ham qizi bor oilada, albatta, kashta tikiladi.

Kashtachilik san'ati ijtimoiy-shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan san'at turlaridan biridir. Bu san'at ham boshqa amaliy san'at turlari kabi xalqning moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondirishga xizmat etuvchi san'atga aylandi. Kashta tikish usullari, gullari ranglarning mujassamlanishi, avloddan-avlodga o'tib takomillashdi. Sekin-asta eng yaxshi kashtalar tanlanib qolindi va milliy xususiyatlar bilan xarakterli betakror kashta namunalari yaratildi. Har bir avlod o'zidan oldingi ajdodlari yaratgan kashta namunalariga yangilik kiritib, o'zi yashab ijod qilayotgan davr talabiga mos bo'lgan naqsh bezagidan foy-dalanib, qadimgi bezaklar bilan bog'lab, o'zgacha kashta bezagi yaratib kelinmoqda.

Kashta bu avloddan avlodga o'tib keladigan merosdir, yodgorlikdir.

Momolarimiz o'z qo'llari bilan tikib qoldirgan kashta bezagi biz uchun qanchalik qimmatli va azizdir. Shu mehnati bilan o'zidan keyingi avlodiga esdalik uchun iz qoldirib ketishadi. Kashtani tomosha qilar ekanmiz, momolarimizning qo'lida urchuq bilan o'tirishlari, ipni yigirib tikishlari ko'z oldimizga kelib, bir daqqaq bo'lsa ham ularni xotirlab olamiz.

Kashtalarimizning qadimgi nuxxalarini, tikish uslublarini qaytadan jonlantirishimiz kerak. Chunki hozirgi davr talabi shunga to'g'ri kelayapti. O'zingiz bir o'ylab ko'ring, qadimgi kashtalarning darrov bozorda xaridori paydo bo'ladi, yoki uyma-uy yurib, surishtirib arzimas narsalarga almashtirib ketishlaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, demak qadimgi kashtalarimiz biz uchun bir boylikdir. Bu boylikni asrab-avaylab uyimiz to'riga osib qo'yaylik va rivojlantiraylik. Bizdan keyingi avlodlarga ota-bobolarimiz udumlarini, milliy boyliklarini qoldirish, o'quvchi qizlarning ma'naviy dunyosini boyitish va xalq milliy amaliy san'atini boyitib davom ettirish uchun bor kuch va bilimimizni sarflaymiz.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Xalq hunarmandchilining rivojlanish tarixidan ma'lumot bering.
2. Xalq hunarmandchilik turlaridan naqqoshlik san'atining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda aks etadi?
3. Naqqoshlik san'atida qanday asbob-uskunalar va texnologiyalar qo'llanadi?
4. Naqqoshlikda qanday naqsh turlaridan foydalaniladi?
5. Kashtachilik san'ati ijtimoiy hayotga qanday ta'sir etdi?
6. Kashtachilik san'atida qanday asbob-uskunalar va texnologiyalar qo'llanadi?
7. Kashtachining ish joyi qanday tashkil etiladi?
8. Kashtachilikda qanday chok turlaridan foydalaniladi?
9. Kashtachilikda qanday texnik va gigiyenik qoidalarga rioxalish kerak?
10. Kashtachilik sirlarini yoshlarga qanday o'rnatiladi?

3.5. Ijtimoiy-foydali unumli mehnatni tashkil qilish metodlari

Reja:

1. Ijtimoiy-foydali unumli mehnat bilan ijtimoiy foydali mehnatning farqi.
2. Ijtimoiy-foydali va unumli mehnatning ta'lim-tarbiya, kasb tanlash samarasini ko'tarishga qaratilgan shartnomalar.

Tayanch iboralar: ijtimoiy foydali mehnat, ijtimoiy foydali unumli mehnat, kasbiy faoliyat, chuqurlashgan hamda kengaytirilgan bilim, ko'nikma, malaka, mehnat, mehnat tarbiyasi, kasbni tanlash, kasb-hunarga yo'naltirish, kasbga moslashish, kasb sohasidagi tarmoqlar, kasb iqtisodiyoti, ijtimoiy kasb, ma'naviy kasb, kasb psixologiyasi.

1. **Ijtimoiy-foydali unumli mehnat bilan ijtimoiy foydali mehnatning farqi.** Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni mehnat qilish hamda mazkur mehnatni ijtimoiy va unumli holatga keltirish, unda mayjud bo'lgan kasblarga xos ma'lumotlar bilan tanishtirish, aniq kasbni tanlashga yo'naltirish, tanlagan kasbiga moslashtirish hamda boshqa ta'lim-tarbiya texnologiyasi asoslariga xos to'xtamga kelib, tanlagan kasbini kasb-hunar kollejlariда yosh

mutaxassis darajasida egallashni maqsadga aylantirish muhim vazifalardan biridir. Ulardan birini bajarish uchun, qayd etilgan har bir bosqichlarga ijodiy yondashish lozim. Bunga eng avvalo o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnatini «unumli» darajaga ko'tarish muhimdir. Bu borada ta'kidlash lozimki, o'quvchilar bajarayotgan ish natijasi: o'zi, sinf va maktab manfaatini ko'zlagan bo'lishi kerak. Mazkur ishga sarflangan mehnat, vaqt bekorga ketgan emas. Undan kimdir foydalanadi, qayerdadir ishlatalidi, nimadir tayyorlanadi va hokazo. Bunday ishlar natijasi «ijtimoiy foydali» holatini anglatadi. Bu birinchidan, mehnat ta'limida o'quvchilar bajarayotgan «ish», tayyorlanayotgan har bir «buyum» yoki mahsulot foydali bo'lishi zarur. Bunday mehnatdan har bir ishtirok etgan o'quvchi, sinf, maktab u yoki bu ma'noda manfaat-dor bo'lishi lozim. Shundagina «foydali mehnat» ijtimoiy xarak-terga ega bo'lib «ijtimoiy foydali mehnat»ga aylanadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy foydali mehnat jarayonida o'quvchilar bajarayotgan «ish», tayyorlanayotgan «buyum», mahsulotlarga sarflanayotgan «vaqt» alohida inobatga olinishi zarur. Chunki har bir buyum, ish, mahsulot ma'lum vaqtda bajarilishi lozim. Unda ma'lum bo'ladiki, ayrim o'quvchilar belgilangan «vaqt»da ko'p ishni bajaradilar, ayrimlari belgilangan ijtimoiy mehnatdan unumli foydalanishni o'rganadilar, ayrimlarning mehnati unum-siz holatda o'tadi.

Uchinchidan, o'quvchilarning ham «ijtimoiy foydali» mehnati hamda «unumli» mehnatlari jarayonida, ular bajarayotgan mum-kin qadar «boyitilgan», «chuqurlash»gan hamda kengaytirilgan bilim, ko'nikma, malakalari keyingi kasbiy faoliyatlarida muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

Ijtimoiy-foydali va unumli mehnat haqida bildirilgan fikrlar-dan xulosa qilib shuni aytish joizki, nafaqat mazkur yo'naliishlar bo'yicha texnika va texnologiya yuzasidan zamонавиy bilim olish, ko'nikma hosil qilish, malakani shakllantirish, o'quvchilardan tanlagan kasbiga xos mavjud soha, tarmoq, korxona, o'quv yurt-lari, ish joyi va boshqa talab etiladigan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, manaviy-ma'rifiy zarur axborotlar bilan boyitish, kengaytirish, chuqurlashtirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazish lozim. Bunday amalga oshirilgan ishlar va tadbirlar kasbiy-texnologik hamda maxsus bilimlar shakllanishiga qaratilgan: materialshunoslik, as-bob-uskunalar, stanok-mashinalar, texnik-texnologik asoslar, ish-

lab chiqarishni o'zlashtirishda lozim bo'lgan axborotlar ijtimoiy foydali, unumli mehnat jarayonlari mazmunini zamonalashtiradi va boyitadi.

Shu omillardan biri o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishdir.

Shunday qilib «ijtimoiy foydali» hamda «unumli mehnat» ne-gizlaridan: qilinadigan «mehnat», «mehnat tarbiyasi», «kasb», «kasbni tanlash», «kasbga yo'naltirish», «kasb-hunarga yo'nalti-rish», «kasbga moslashish», tanlangan «kasbga moslashish», tanlangan kasb «ish joyi», «ish jarayoni», «ish sharoiti», tanlangan kasb «sohasi», tanlangan «kasb sohasidagi tarmoqlar», tanlangan «kasb soha va tarmoqlariga xos korxonalar», «kasb mehnati», «kasb mehnatinining mazmuni», «kasb haqi», «mehnat haqi» va shularga o'xshash so'z va atamalar ko'p ishlataladi. Shuning uchun «ijti-moiy foydali mehnat» va «unumli mehnat» kabi mazkur «so'z» va «atamalar» bir-biriga moslashib mazmunlari boyitiladi, kengay-tiriladi va chuqurlashtiriladi. Shuning uchun, mehnat ta'limi va uning negizida: kasb tanlash, kasbga moslashish, kasb iqtisodi-yoti, ijtimoiy kasb, ma'naviy kasb, kasb psixologiyasi hamda kasb tushunchalari mazmunlarini atroflicha o'zlashtirgan holatda fikr yuritadigan bo'lsak, mehnat ta'limi va uning negizidagi kasb tan-lash holatlarini, ijtimoiy foydali hamda unumli mehnatdagi tu-shunchalar, sermazmun va yakunlangan holatlari ravshan bo'ladi. Shunda mehnat ta'limi, kasb tanlash jarayonlari o'quvchilarning mehnat qilish, kasb tanlashga tayyorgarligining tarkibiy qismi bo'lib, umumiyl maqsad, o'quvchilarning har tomonlama va gor-monik kamol topishi, kasbni to'g'ri tanlashi, xalq xo'jaligida mehnat qilishga axloqiy, psixologik va amaliy tayyorlanishiga asos soladi hamda maktab islohatiga ko'ra joriy etilayotgan ijtimoiy foydali hamda unumli mehnat majburiy xarakterga ega, chunki mehnat ta'limi hamda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish mohiyati, ahamiyati hamda tashkiliy shakllari va amaliy holatlari bir-birlari bilan uzviy bog'langan. Shuningdek, umumiyl ta'lim maktablaridagi ixtisoslashtirilgan mehnat ta'limi hamda uning negizida tashkil etilayotgan chuqurlashgan mehnat jarayoni, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirilishi, ularning tayyorgarlik mashg'ulotlarida tanlangan kasb bo'yicha o'zlashtirilgan umum-texnik, politexnik ishlab chiqarishga doir mehnat ta'limi, kasb-hunarga yo'naltirish amallarga xos bo'lishi, ko'nikma hamda malakalarini mustahkamlashdir.

O'tgan asarning 90-yillari o'rtalarida qabul qilingan «O'quvchilarning mehnat ta'limi va kasb tanlash mакtablararo o'quv-ishlab chiqarish markazi haqida»gi Nizomga binoan maktab va ishlab chiqarish korxonasi, maktab va hunar bilim yurtlari hamda boshqa tashkilotlar ustaxonalarida baza korxonasing sexlari yoki boshqa bo'limlarida ijtimoiy foydali, unumli mehnat topshiriqlarida ijtimoiy foydali, unumli mehnat topshiriqlari bilan bog'liq ishlarni bajarib kelmoqdalar. Ular quyidagilar:

- ijtimoiy foydali, unumli mehnatni rejalshtirishda berilgan mehnat ta'limi yo'nalishlariga rioxha etishni ta'minlaydilar;
- korxonalar va mакtablararo texnik markaz ma'muriyati umumta'lim maktabining belgilangan tartibda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan o'quv reja, o'quv dasturlariga muvofiq o'quvchilarning ta'limi va unumli mehnatini tashkil etishni ta'minlaydilar.

O'quvchilarning maktab, mакtablararo texnik markazdagи unumli mehnati ta'lim profili bilan bevosita chambarchas bog'liq bo'lishi kerak.

Mакtablararo texnik markazlarning sex va uchastkalari korxonalarning strukturali bo'linmalarini hisoblanadi va ularning ishlab chiqarish buyurtmalari hamda topshiriqlari erkin holda qabul qilingan shartnomani asosida bajariladi. Mакtablararo texnik markazlarda ana shu korxonalar bilan kelishilgan holda o'quvchilarning boshqa buyurtmalarni bajarishlariga ham ruxsat beriladi. O'quvchilar mehnatini yozgi ta'til davrida ham asosan o'quvchilar brigadalarini va boshqa mehnat birlashmalari tarkibda tashkil qilish mumkin.

Qishloq fermer xo'jaliklarini o'rganayotgan o'quvchilar qoida bo'yicha fermalarda, mакtablarning o'quvchilar brigadalarini tarkibida unumli mehnatda qatnashadilar. O'quvchilar brigadalarida qishloq xo'jaligi ishlarni bajarish uchun majburiy unumli mehnatga ajratilgan vaqtidan foydalaniladi.

Ijtimoiy-foydali va majburiy hamda unumli mehnat «O'quvchilarning mehnat ta'limi va kasb tanlash mакtablararo o'quvishlab chiqarish markazlari haqida»gi Nizomga, O'rta umumiylar ta'lim mакtabi Ustaviga, «Umumiylar ta'lim mакtablari o'quvchilarning ijtimoiy foydali, unumli mehnatini tashkil etish to'g'risida»gi Nizomga, «Umumiylar ta'lim mакtablarining baza korxonalarini to'g'risida»gi Nizomga, «Fermerlik xo'jalik o'quvchi-

lar ishlab chiqarish brigadasi to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq tashkil etiladi.

Maktablararo markazga baza korxonalar bilan hamkorlikda ishlab chiqarish muhitidagi maktablarga o‘quvchilarning o‘quv ustaxonalardagi ijtimoiy, foydali, unumli mehnatini tashkil etisha da yordamlashishga ruxsat beriladi. Maktablararo markazning o‘quv sexlarida, uchastkalarida, xonalari va laboratoriyalarda 5—9-sinf o‘quvchilarining ijtimoiy foydali, unumli mehnati ham yusushtirilishi mumkin.

Maktablararo markazlar orqali kordinatsiyalash, muvofiq-lashtirish va birlashtirish metodlarini qo‘llab, 5—7-sinf o‘quvchilarining ijtimoiy foydali, unumli mehnatda yuqori sinflardagi o‘quvchilar bilan birligi va o‘zaro bog‘liqligini amalga oshirish nazarda tutilgan. Ana shu tariqa maktablararo markazlarning rahbarlari sanoat va agrosanoat yo‘nalishidagi baza korxonalari bilan shartnomalar tuzishda kichik yoshli o‘quvchilarining ham ijtimoiy foydali, unumli mehnatda qatnashish imkoniyatlarini hisobga olishlari kerak. 5—7-sinf o‘quvchilari o‘quv dasturiga muvofiq sodda texnologik operatsiyalarni bajarishlari ko‘zda tutilishi, yuqori sinflarning o‘quvchilariga esa tayyorlanayotgan buyumlarni tugatish, pardozlash, komplektlash va ularni baza korxona buyurtmachilariga jo‘natish kabi ishlarni topshirish lozim.

Maktablar va maktablararo texnik markazlarning pedagogik faoliyatida o‘quvchilarining ijtimoiy foydali, unumli mehnati ta’limi-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi, o‘quvchilarni zamonaviy tarbiyalash va har tomonlama kamol toptirishning eng muhim vositasi ekanligini nazarda tutish kerak. Bu mehnatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mehnatga ongli ehtiyojni, mehnat ahliga hurmat hissini ijtimoiy boyliklarga va ona tabiatga ehtiyyotkorlik hamda tejamkorlik munosabatini shakllantirish, kollektivizm, mehnat va ishlab chiqarish intizomi ruhida tarbiyalash;

- zamonaviy ishlab chiqarish asoslari bilan tanishtirish, xalq ho‘jaligi kasblariga qiziqishni tarbiyalash, mehnat va kasbiy ta’lim, umumta’lim tayyorgarlik jarayonida o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash;

- iqtisodiy tarbiyalash, ishlab chiqarishni rejalashtirish, mehnat unumdarligi, mahsulotning tannarxi va sifati, xo‘jalik

hisobi, mehnatni hisobga olish va me'yorlash, ish haqi, brigada haqidagi tushunchalarni hosil qilish;

-- korxonalarga, fermerlik xo'jaligi va xalq xo'jaligining boshqa tashkilotlariga ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishda iloji boricha yordamlashish.

Umumta'limga muktabini isloh qilish munosabati bilan vujudga keladigan vazifalar muktab va ishlab chiqarish korxonasi o'zaro hamkorlik masalasiga sifat jihatidan yangicha yondashishni taqazo etadi. Ilgari ishlab chiqarish korxonasi muktabga asosan moddiy yordam bergen bo'lsa, endi uning roli beqiyos ortmoqda. Ishlab chiqarish korxonasi muktabga yosh avlodning mehnat tarbiyasini amalga oshirishda ko'maklashuvi lozim. Muktab tajribasi ana shu ko'maksiz mazkur vazifani hal qilish qiyinligini ko'rsatmoqda.

Hamkorlik to'g'risida har yili tuziladigan shartnoma umumta'limga muktabi bilan korxonaning o'zaro munosabati uchun asos hisoblanadi. Korxona muktabga o'quvchilarining mehnat tarbiyasida, kasb tanlash ishlarida, shuningdek, muktabning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va kengaytirishda yordam berish majburiyatini o'z zimmasiga olishi homiylik tarzida bajariladi.

Muktablar baza korxonalar uchun muayyan mahsulotlar chiqarish bilan cheklanmay, ularga korxonaning turli tadbirlarini o'tkazish uchun binolarini taqdim etadilar, shanbaliklarda yordam beradilar, korxona kollektivi bilan birga saylovlar va boshqa ommaviy-siyosiy kompaniyalarda qatnashadilar. Korxonaga ota-onalar o'rtaida pedagogik tashviqot ishlarini olib borishda ko'maklashadi. Umumi shartnomaga muvofiq zavod sexlari va brigadalari bilan komolot guruhlari va sinflari o'rtaida turli xil musobaqa yuzasidan shartnomalar tuziladi. Tajriba ana shunday «muqobil reportlar» bolalarning o'qish va mehnatga munosabatlarda juda katta ijobjiy ta'sir etishini ko'rsatmoqda.

O'quvchilarining ijtimoiy foydali va ishlab chiqarish mehnatini tashkil etishda umumta'limga muktabining mehnat ta'limi darslari 1-9-sinf o'quvchilarining mehnat va kasbiy ta'limi hamda tarbiysi mazmunining asosiy qismi ekaniga alohida e'tibor berish kerak.

Ijtimoiy-foydali, unumli mehnat uchun ajratilgan soatlarga mehnat va kasbiy ta'limga uchun ko'zda tutilgan soatlarni ham

qo'shish lozim. Bunda ana shu ta'limga 1–7-sinflarda haftada 2 soatdan, 8–9-sinflarda 1 soatdan, ajratilishi hisobga olinishi kerak. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlari 8-sinfdan boshlab amalga oshiriladi. O'quv rejada majburiy ijtimoiy foydali mehnat uchun haftasiga 2–4-sinflarda 1 soatdan, 5–7-sinflarda 2 soatdan, 8–9-sinflarda 3 soatdan ajratish ko'zda tutiladi. Amaliy va nazariy ta'lim vaqtlarining nisbati o'quv dasturlarda belgilanadi. Bundan tashqari, har yili 5–7-sinflarda 3 soatdan 10 kun, 8–9-sinflarda 4 soatdan 16 kun o'quvchilarning mehnat amaliyoti o'tkaziladi.

Amaliyotni o'tkazish muddati, joyi va tartibi umumta'lim maktablarining mahalliy sharoitlariga qarab belgilanadi. Shuningdek, o'quvchilar ta'til davrida mehnatga qo'shiladigan vatanparvarlik harakatida dadil qatnashib, turli mehnat birlashmalari tarkibida turli barkamollik ishlarida ixtiyoriy ravishda ishlaydilar. O'quvchilarga amaldagi qonunlarda belgilangan tartiba vaqtincha ishga kirish huquqi ham beriladi. Ta'til paytida kundalik ish vaqtida 2–4-sinf o'quvchilari uchun 2 soat, 5–7-sinf o'quvchilari uchun 3 soatgacha, 8–9-sinf o'quvchilari uchun 4 soatgacha, bo'lishi kerak.

8–9-sinf o'quvchilarining ijtimoiy foydali, unumli mehnati obyektlarni to'g'ri rejalahtirishda ularning kasbiy tayyorgarligi uchun qulay sharoit yaratadi, maktablarga 1–7-sinf o'quvchilari mehnatini tashkil etishda, ularning mehnat tarbiyasи va ta'limini amalga oshirishda asbob-uskunalar, moslamalar, inventarlar, material va hokazolarni ajratish, mutaxassislar, ishchilarni yuborish bilan katta yordam ko'rsatadi. Shuning uchun, tajribada ko'rinishi yaxlit, ba'zan maktablararo markazlar ishlab chiqarish obyektlarida o'rta sinflardagi o'quvchilarning imkoniyatlardan foydalanish mumkin. Chunki ular sañoat korxonalarining ishlab chiqarish buyurtmalarini muvaffaqiyatli bajara oladilar. Bu ishning maqsadga muvofiqligi va muhimligini hisobga olib uzoq va har tomonlama tayyorlanish, o'rta zveno o'quvchilarining ishlab chiqarish mehnatini umumiyligi ta'lim maktablarida ham, maktablararo markazlarda ham tashkil etish lozim. Ana shu masala buyurtmalarini o'rta sinflardagi o'quvchilar bajaradigan baza korxonalarining rahbarlari bilan turli doiralarda, jumladan, o'quvchilar va ota-onalarning majlislarida ham oldindan batafsil muhokama qilish zarur.

Bajariladigan ishlar o'quv dasturining talablariga muvofiq bo'lishi, buyumlarni tayyorlash o'rta sinflarning o'quvchilari uchun qiyinlik qilmasligi kerak. Ana shu shartlarga rioya qilmaslik mактабни саноат корхонасининг qо'shimcha bir qismiga aylantirib qо'yishi yoki buyumni tayyorlash haddan tashqari murakkab bo'lsa, ishlab chiqarish mehnati barbod bo'lishi mumkin.

Baza korxonalar mактабда o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarini tashkil qilishlari va bu ustaxonalarda slesarlik, mexanika, yog'ochni ishlash, elektromontaj, tikuvchilik uchastkalari bo'lishi, shuningdek, mактаб kasb tanlash xonasini jihozlanishiga e'tibor qaratishi zarur.

Ustaxonalarini jihozlashda xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish sanitariyasi va sanoat estetikasi talablariga alohida ahamiyat berish kerak.

O'quvchilar tayyorlaydigan buyumlarning ko'pi xalq iste'mol mollari bo'lgani uchun ularni ishlab chiqarishga muayyan reja belgilanadi va bunday buyumlarni tayyorlash faqat darslarda emas, balki darsdan tashqari vaqtarda ham amalga oshirilishi kerak. Ana shu maqsadda asosan o'rta sinflardagi o'quvchilardan iborat bir nechta doimiy ishlab chiqarish zvenolarini tashkil etilishi va ularning ishi maxsus tuzilgan grafik bo'yicha yo'lga qo'yilishi lozim.

Tayyorlangan mahsulot mактабларaro texnik markazning va korxonadagi texnik nazorat bo'limining vakillari tomonidan qabul qilinadi. Bu esa baza korxonaning buyurtmalari braklarsiz va e'tirozsiz bajarilishini ta'minlaydi. O'quvchilar ishlab topgan pul mактаб hisobiga o'tkaziladi. Ana shu mablag'dan eng yaxshi namuna ko'rsatgan o'quvchilarga qimmatli sovg'alar olinadi, ishlab chiqarish otryadlarining a'zolari yakka tartibda ish haqi oladilar. Brigadir o'qituvchi bilan birga har bir o'quvchi mehnatda qay darajada qatnashganini ifodalaydigan tabelni yuritadi.

O'rta va yuqori sinflardagi o'quvchilar ijtimoiy foydali, ishlab chiqarish mehnatining asosiy yo'nalishi sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalariidagi ishlardir. O'quvchilar mehnatining boshqa yo'nalishlarini ham unutmaslik kerak. Quyi va o'rta sinflardagi o'quvchilarning mактабни obodonlashtirish, tabiatni muhofaza qilish va ikkilamchi xomashyolar yig'ish kabi ishlarni bajarishi maqsadga muvofiqdир.

O'quychilarning ijtimoiy foydali ishlab chiqarish mehnatining aniq mazmunini hokimiyatlar yoki ular bilan kelishilgan holda xalq maorifi organlari, korxona va maktab rahbarlari belgilaydi. Bunda kasbiy ta'lif dasturi, mahalliy sharoitlar, korxonalar hamda maktablarning ehtiyojlari hisobga olinishi, o'quvchilar mehnatini muhofaza qilish qoidalari va me'yorlariga jiddiy rioya etilishi kerak.

O'quvchilar mehnatining tashkiliy shakllari har xil bo'lishi mumkin, lekin ular ishning mazmuni va hajmiga, doimiyligi yoki vaqtinchaligiga, o'quvchilarning yoshiga qarab belgilanadi. Bulardan eng asosiy o'quvchilarning ishlab chiqarish brigadasi, o'rmon xo'jaligi, mehnat va dam olish lageri, yuqori sinf o'quvchilarining mehnat otryadi va boshqa mehnat birlashmalari, maktablararo markaziy korxonaning o'quv sexidagi va maktab ustaxonasidagi doimiy yoki vaqtinchalik, bir xil yoshli yoki turli yoshdagi o'quvchilardan iborat bo'lishi mumkin.

O'quvchilar uchun me'yorlar ularning yoshi, jinsi, ish sharoitiga qarab va meditsina xodimlari bilan kelishib belgilanadi.

Xalq xo'jaligida o'quvchilar mehnatini hisobga olish va ularga haq berish, rahbarlik qiluvchi pedagogik kollektivlar mehnatiga haq to'lash belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'quvchilar mehnatini hisobga olishda maktablarning, maktablararo markazlarning xodimlari, shuningdek, o'quvchilar, brigadirlar va zveno boshliqlari ham ishtirok etadilar. O'quvchilar ijtimoiy foydali mehnatda qanday ishtirok etgani, ularning o'qishga va ijtimoiy foydali mehnatga havasini baholashda, shuningdek, yuqori sinfni bitiruvchilarga tegishli belgilar berishda albatta hisobga olinishi kerak.

Ijtimoiy-foydali, ishlab chiqarish mehnatining pedagogik rolini oshirish uchun har bir o'quvchiga «Mehnat daftarchasi» joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy-foydali, ishlab chiqarish mehnatining ayrim tashkiliy-metodik va sotsial-iqtisodiy masalalariiga e'tiborni kuchaytirish uchun o'quvchining mehnat daftarchasida quydagi maxsus bo'limlar ajratiladi:

- o'quvchilar korxonalarda bajargan mehnat obyektlari;
- baza korxona uchun maktablarning va maktablararo markazning o'quv ustaxonalarida bajarilgan ishlari;
- kasb-hunar kollej ustaxonalarida tayyorlangan mahsulot;

- maktablar va maktablararo texnik ijodiyot markazlari ehtiyoji uchun ularning o‘quv ustaxonalari va sexlarida bajarilgan ishlar;
- mehnat va dam olish lagerida bajarilgan ishlar;
- o‘quvchilar ishlab chiqarish brigadasida bajariladigan ishlar;
- o‘quvchilararning mehnat birlashmalarida bajariladigan ishlar;
- ta’lim muassasasining o‘quv xo‘jaliklariga yordam bo‘yicha bajarilgan ishlar;
- tabiatni, hayvonlarni va yodgorliklarni muhofaza qilish bo‘yicha bajarilgan ishlar;
- maktabni, baza korxona maydoni va boshqa obyektlarni obodonlashtirish bo‘yicha bajarilgan ishlar;
- ikkilamchi xomashyolar yig‘ish bo‘yicha bajarilgan ishlar;
- elektr energiyasi, metall va boshqa materiallarni tejash bo‘yicha bajarilgan ishlar;
- o‘quv ishlab chiqarish faoliyati jarayonida vaqtini tejash bo‘yicha bajarilgan ishlar.

Mana shu ijtimoiy foydali, ishlab chiqarish mehnati turlarining har biri o‘z o‘rnini hamda vazifasiga ega. Binobarin, ularning har biri mehnat va kasbiy ta’lim nuqtayi nazaridan ham, mehnat va iqtisodiy tarbiya, shuningdek, kasb tanlash va ishga joylashtish nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Shuning uchun har bir o‘quvchi ijtimoiy foydali, unumli mehnatda qatnashishi zarur.

O‘quvchining mehnat daftarchasi uning maktabdagi butun ta’lim davrida yuritiladi. Mana shularning hammasi ijtimoiy foydali, ishlab chiqarish mehnati tashkilotchilarining diqqat-e’tiborini o‘quvchilarning mehnatda chiniqishining asosiy yo‘nalishini xarakterlaydigan muhim ta’lim-tarbiya va ishlab chiqarish vazifalariga jalgan etadi.

Ijtimoiy-foydali mehnatdagi katta muvaffaqiyatlar uchun o‘quvchilar mehnatini tashkil etuvchilar va rahbarlar rag‘-batlantiriladi va hukumat mukofotlariga taqdim etiladi.

Korxonalar, maktablar va maktablararo texnika markazlari kombinatlarining rahbarlari o‘quvchilar mehnatining xavfsizligi uchun shaxsan ma’sul hisoblanadilar. Ular o‘quvchilarining ijtimoiy foydali, unumli mehnati, xavfsizlik texnikasi, mehnat muhofazasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalariga jiddiy roya qilingan holda tashkil etilishi zarurligini nazarda tutish-

lari kerak. Mehnat sharoitlari mehnat kasaba soyuzlarining santiya-epidemologiya xizmati, yong'in, texnika inspeksiyalari va zarur hollarda davlat nazorati bilan kelishib tashkil qilinishi lozim.

O'quvchilar dastlabki meditsina ko'riganidan o'tkazilib, ularning salomatligi haqida shifokorning xulosasi yoziladi, ularga mehnatning xavfsiz usullari o'rgatiladi va yo'riqnomalar berilib, belgilangan formada jurnalga qayd etiladi, ijtimoiy foydali mehnatda qatna shishlariga ruxsat etiladi.

Mehnat praktikasini o'tkazishda shuni unutmaslik kerakki, o'quvchilarni o'z yoshlariga nomuwofiq, epidemiologik jihatidan xavfli, tungi, bayram kunlaridagi, zaharli ximikatlar qo'llanadigan, o'smirlar uchun belgilangan me'yordan og'ir narsalar ko'tariladigan va tashiladigan ishlarga jalb etish taqiqlanadi.

Kasaba uyushmalarining texnika inspeksiyasi, korxonalarining kasaba uyushmalari, maorif, sog'liqni saqlash organlari o'quvchilarning ijtimoiy foydali, ishlab chiqarish mehnati uchun me'yor va xavfsiz sharoit yaratilishi ustida nazorat olib boradilar.

2. Ijtimoiy-foydali va unumli mehnatning ta'lim-tarbiya va kasb tanlash samarasini ko'tarishga qaratilgan shartnomalar. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da maktablarning eng muhim vazifalaridan biri o'quvchilarning ongli ravishda kasbga yo'naltirish deb qayd qilingan.

O'quvchilarning mehnat ta'limi negizida tashkil etiladigan ijtimoiy foydali unumli mehnat asoslarida ongli ravishda biron-bir kasbni tanlashlari uchun kasbga yo'naltirish ishlari to'g'ri tashkil etilishi lozim. Buning uchun mакtablarda quyidagi ishlarni amalga oshirish nazarda tutiladi:

- o'quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari o'rganilishi (maktab psixologi);

- jamiatning bugungi ehtiyojlari, mamlakatimizni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish uchun kerak bo'lgan kasblar haqida o'quvchilarga tushunchalar berish (mehnat o'qituvchisi);

- kasb-hunarни egallash uchun o'quvchilar kasb-hunar kollejlariga borib o'rganishlari mumkinligini tushuntirish (KXK xodimlari).

Bu borada maktabni bitirib, kasb-hunar kollejlaridagi tayyorlov yo'naliшlarini tanlagan yoshlar o'z mahoratlarini oshirib

borishlari, ishlab chiqarishning haqiqiy ustalari sifatida komil inson bo'lib yetishishlari ta'llim islohotining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'llim mакtablarini bitiruvchi o'quvchilarning taxminan 90% kasb-hunar kollejlariga, 10% esa akademik litseylarga o'qishga borishlar mumkin. Bunday ijtimoiy talab-larni qondirish maqsadida mакtabda kasbga yo'naltirish yuzasidan olib boriladigan ishlarni mazmunan yangilash, izchil yo'lga qo'yish zarurligi yuzaga kelmoqda. Dars jarayonida xalq xo'jaligida bevosita ishlab chiqarish bilan mashg'ul mehnat ahllariga hurmat va izzat tuyg'ularini singdirib borishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Kasb-hunarga yo'llash bo'yicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari o'quvchilarning ongli, maqsadli ravishda kasb tanlashlariga xizmat qilishi lozim.

Maktabda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini yo'lga qo'yishda an'anaviy amaliy mashg'ulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o'yin, konferensiya, mustaqil fikrlash, mahalla, ishlab chiqarish korxonalarining jamoalari bilan birlgilikda o'tkaziladigan tadbirlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi.

Umumiy o'rta ta'llim davlat standartlariga asosan maktabda kasbga yo'naltirish bo'yicha mashg'ulotlar 8-9-sinf larda amalga oshiriladi. 8-sinfda kasblar haqida «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'llimidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi» asosida axborot berish davom ettirilishi bilan bir qatorda o'quvchilarga kasb egallash yo'llari, kasb tanlashda tibbiy nomuvofiqliklar, kasbga yaroqlilik va hokazolar tushunchalari berib boriladi.

Maktab o'quvchilarini kasb-hunarlarga yo'naltirish bиргина mehnat ta'llimi o'qituvchisining ishi emas, balki butun maktab jamoasining, mahalla, ota-onalar, jamoatchilikning birligidagi ishidir. Maktabda fan o'qituvchilari mavzuni yoritish jarayonida kasblar bilan bog'lab olib borishsa, maktab psixolog va rahbariyati o'quvchilarning individual qobiliyatları, qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'llim-tarbiya ishlarini olib borishganlaridagina o'quvchilarga kasb tanlashlarida ko'mak bergen bo'lishadi.

Mazkur ishlarni majmuaviy holatda tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish maqsadida maktab doirasida KHK, tashxis markaz-

lari, korxonalar, mahalla va boshqa jamoalar vakillari faol ishtirok etishlari lozim. Ularning har biri ishlayotgan tashkilotlarining asosiy funksional faoliyati, mavqeい doirasida bajarayotgan vazifalarini biriktirilgan maktab yoki maktablararo texnik markazlar homiylik ishlari bilan bandlar. Mazkur ishlarni ham bevosita maktab yoki maktablararo texnik markazda maxsus ishlab chiqilgach «shartnoma»lar asosida o'z ishlarini muvofiqlashtirgan holatda amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir. Mazkur shartnomalar ikki tomonlama va ko'p tomonlama holatda qabul etiladi, ya'ni:

- 1) maktablar orasidagi;
- 2) maktab va tashxis markazlari orasidagi;
- 3) kasb-hunar kollejlari orasidagi;
- 4) maktablar va tashxis markazi orasida;
- 5) maktab, kasb-hunar kollejlari va tashxis markazlari orasidagi;
- 6) maktablar, tashkilot yoki korxonalar orasidagi;
- 7) maktab, kasb-hunar kolleji, tashkilot va korxonalar orasidagi qabul qilinadigan shartnomalar.

Shartnoma umumiy ta'lif, mehnat va kasb maktabi islohotini, ayniqsa uning moddiy bazasi moslamalarini hal qilishni ta'minlaydigan asosiy huquqiy hujjatlardan biridir. Bu hujjat o'z vazifasi va mazmuniga ko'ra umumiy ta'lif maktablari, maktablararo, texnik markazlar, kasb-hunar kollejlari va boshqa o'quv muassasalari va ularning baza korxonalari tomonidan tuziladi.

Mehnat ta'lifi tizimida va kasb tanlashda bajariladigan ishlardan unumli foydalanish uchun tashkilot, korxona va o'quv muassasalari orasida tuziladigan shartnomalarda o'zaro munosabatlarni quyidagicha belgilaydi:

- 1) mehnat va kasb tanlash ishlarini yaxshilash hamda takomillashtirish;
- 2) mehnat ta'lifi va kasbkorlik ishlarini muvofiqlashtirish haqida uzviyligini bog'lash;
- 3) o'quv-tarbiya hamda mehnat va ishlab chiqarish ta'liflariidan unumli foydalanish va mujassamlashtirish;
- 4) ijtimoiy foydali va unumli mehnat negizida mehnat ta'lifi va kasb tanlash ishlarini takomillashtirish hamda boshqa vazifalarning kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Shartnomaning mazmuni islohot talablarini amalga oshirishda maktablar va maktablararo texnik markaz uchun zarur barcha

narsalarni ham, baza korxonalarining ana shu vazifalarni bajarish uchun real imkoniyatlarini ham hisobga olishini ta'minlaydi. Ana shundan kelib chiqib, har bir maktab, har bir maktablararo texnik markazlar baza korxonalarini bilan birga bir yil yoki besh yilga ishlab chiqiladigan tadbirdorda o'quvchilarning mehnat va kasbiy tayyorgarligining har bir masalasi bo'yicha ularning imkoniyatlarini nazarda tutib maktab islohotining oxirgi bosqichigacha nimalar qilish kerakligini hisobga olishi lozim. Baza korxonalarida zarur moddiy resurslari bo'lmasa, ularni rivojlantirishning iqtisodiy va sotsial rejasiga islohot talablarini to'la qondirish uchun barcha zarur narsalarni kiritish lozim.

Shartnomalar tuzishda uning har bir bandiga didaktik talablar asosida sotsial iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi va amaliy yo'nalishini hisobga olib huquqiy kuch berish kerak.

Birinchi band. Namunaviy shartnomaning bu bandida asosiy e'tibor 5–9-sinf o'quvchilarining mehnat ta'limi, ijtimoiy-foydaли, unumli mehnatini tashkil qilish masalalariga qaratiladi. Uni to'ldirishda o'quvchilarga faqat korxonalar emas, balki, maktab yoki maktablararo texnik ijodiy markazlarning ishlab chiqarish doirasidagi korxona va tashkilotlarning ehtiyojiga mos kasb va ixtisoslikni o'rgatishga alohida e'tibor berish zarur.

Mazkur banddag'i jiddiy ahamiyat berish zarur bo'lgan ikkinchi muhim masala, bu ijtimoiy-foydalari va unumli mehnatdir. Bu masalaning muhim birinchi tamoyili shundan iboratki, o'quv rejada ijtimoiy-foydalari, unumli mehnatga ajratilgan har bir soatda biror ishni bajarish yoki muayyan tovar mahsulotini tayyorlashga qaratilishi lozim. Buning uchun mehnat o'qituvchilari korxona vakillari bilan birga har qaysi o'quv yilida har bir sinf hisobiga ijtimoiy-foydalari unumli mehnat uchun nazarda tutilgan soatlar hajmini hisoblab chiqishlari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ish obyektlarini belgilashlari kerak. So'ngira hisob-kitob ma'lumotlarini mактабнинг ishlab chiqarish rejasiga kiritish, uni tegishli baza korxonalar bilan kelishish, tasdiqlash va qat'iy bajarish yuzasidan aniq tadbirdarni ishlab chiqish zarur. Agar baza korxona ijtimoiy-foydalari, unumli mehnat uchun nazarda tutilgan soatlar hajmiga muvofiq ish obyektlariga ega bo'lmasa, boshqa korxonalar, tashkilotlar bilan qo'shimcha shartnoma tuzishga yoki boshqa maktablararo markazlarning ishlab chiqarish rejasiga qo'yilishiga ijozat beriladi.

Barcha hollarda o'quvchilarning ijtimoiy-foydali, unumli mehnatini tashkil etishda ikkinchi tamoyili, shartnoma majburiyatlari ni bajarish va ishni uning sifatiga qo'yiladigan qat'iy talablar asosida bajarishga, shuningdek, o'quvchilarning ijtimoiy-foydali, unumli mehnatiga doir boshqa tamoyillarga ham rioya qilish kerak.

Mehnat va kasbiy ta'limenti amalga oshirishda ijtimoiy-foydali, unumli mehnat tashkil qilinadigan joyni tanlash ham muhimdir. Shuni hisobga olib, baza korxona bilan shartnoma tuzishda o'quv ishlab chiqarish mashg'ulotlari uchun joy tanlash masalasini ham aniq hal qilish kerak. Bu joylar: baza korxona, maktablararo ta'lim markazi, kasb-hunar kollejlarining ustaxona, sex, uchastkalari, o'quvchilar ishlab chiqarish brigadalarining yer uchastkalari, har bir ixtisoslik ta'limi bo'yicha o'quv seksi yoki ustaxona, nazariy ta'lim va laboratoriya ishlari o'tkazish uchun xonalar mavjud boshqa joylar bo'lishi mumkin. Ularning har birida ta'limning frontal metodini amalga oshirish uchun yetarli ish o'rirlari tashkil qilish lozim, o'quvchi ishlashi kerak.

Shartnoma tuzishda o'quvchilar mehnat va kasbiy tayyor-garligining maqbul variantlarini qo'llash uchun nazariy ta'lim bo'yicha o'quv xonani, har bir laboratoriya, sex, ustaxonani zarrur miqdordagi asbob-uskunalar, jihozlar komplekti, moslamalar, texnologik hujjatlar, yer uchastkasi, texnika hamda boshqa narsalar bilan ta'minlashiga ham e'tibor berish lozim.

Mehnat va kasb ta'limenti amalga oshirish, ijtimoiy foydali, unumli mehnatni tashkil etish uchun injener-pedagog va boshqa kadrlar bilan ta'minlash masalasini samarali hal qilish shartnomadagi birinchi bandning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shartnomada o'quvchilarda ular o'rganadigan kasbdagi texnologik operatsiyalar sikli bo'yicha tegishli mehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakani tarkib toptirish imkonini beradigan ishlab chiqarish topshiriqlarining obyektlari to'la aks etishi lozim. Ishlab chiqarish topshirig'ining har bir turini bajarish uchun shartnomada materiallar, yarimfabrikat materiallarini o'z vaqtida yetkazib berish, jamlanadigan buyumlar va boshqa materiallarni tayyorlash nazarda tutilmog'i lozim.

Shartnomada o'quvchilarning ovqatlanishini tashkil etish ham nazarda tutiladi.

Shartnomananing birinchi bandiga o'rganadigan kasbi bo'yicha attestatsiya va malaka razryadi berish hamda guvohnoma

topshirish masalalari ham kiritiladi. Shartnomada maktabni bitiruvchilar olgan makala razryadi darajasi ishga qabul qilinadigan darajaga mos kelish-kelmasligi ko'rsatiladi. Bitirish imtihonlarini mazkur masala bo'yicha amaldagi nizomga muvofiq korxonalarining mas'ul xodimlari, kollej vakillari ishtirokida qabul qiladi. Buning uchun maktab yoki maktablararo texnik markaz bo'yicha har yili yanvar o'yining boshida baza korxona bilan birga maxsus buyruq chiqariladi.

Ikkinci band. Shartnomaning bu bandida asosan, 1–7-sinf o'quvchilarining mehnat tarbiyasi, ta'limi hamda ijtimoiy-foydali, unumli mehnatini tashkil qilish masalalari aks ettirilishi lozim. Bu bandning birinchi paragrafida yetishmaydigan xonalar, ustaxonalar, laboratoriylar, sexlar va omborxona binolarini qurish, mavjudlarini qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, bunda har bir maktabda quyidagilar bo'lishi nazarda tutilishi lozim:

1. Boshlang'ich sinflar uchun qo'l mehnati xonasi; kasb tanlash va kasblar bo'yicha konsultatsiya, qishloq xo'jalik mehnati (qishloq maktablari uchun) xonalari.
2. Metallga ishlov berish, yog'ochga ishlov berish va gazlamaga ishlov berish bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazish uchun xonalar.
3. Metallga ishlov berish, yog'ochga ishlov berish, gazlamaga ishlov berish bo'yicha ustaxonalar.
4. Kulinariya ishlab chiqarish sexi.
5. Tayyor mahsulotlar, yarimfabrikatlarni saqlash, tayyorlash uchun omborxona binolari va boshqalar.

Agar maktabda mana shu obyektlarni yaratish uchun zarur sharoit bo'lmasa, maktab islohotida ifodalangan imkoniyatlardan foydalanish zarur, xususan:

- korxonalar qoshida maktablararo ustaxonalar tashkil etish;
- maktab ustaxonalarining imkoniyatlarini mustahkamlash va kengaytirish, ularni maktablararo ustaxonalar birlashmasiga aylantirish;
- kasb-hunar kollejlarining moddiy texnika bazasidan va boshqa imkoniyatlardan foydalanish kerak.

Ana shu bandning ikkinchi paragrafida baza korxonasingning 2–7-sinf o'quvchilariga mo'ljallangan ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish masalalari hal qilingan bo'lishi lozim, chunonchi:

— ishlab chiqarish topshiriqlari 2—7-sinflarning mehnat ta’limi o’quv dasturidagi vazifalaridan hamda o’quv rejada ijtimoiy-foy-dali, unumli mehnatga mo’ljallangan soatlar hajmidan kelib chiqishi kerak. Baza korxona ishlab chiqarish topshiriqlarining obyektlari ro‘yxatiga o’quvchilar o’quv vaqtidan tashqari, ayniqsa ta’til kunlari bajarishi mumkin bo‘lgan ishlar ham kiritilishi mumkin;

— maktablarning texnologik uskunalarga, asboblarga, komplektlarga, xomashyoga ehtiyojini qondirish va boshqa ishlab chiqarish topshiriqlarining har bir turini bajarish bilan bog‘liq masalalarni hal qilishi;

— mакtab o’quvchilarining baza korxona hamda mакtab bilan qo’shimcha shartnoma tuzgan korxona va tashkilotlarning ish-lab chiqarish topshiriqlarini bajarish ishlariga rahbarlik qiladi-gan mutaxassislar, ishchilar, murabbiylar bilan zarur miqdorda ta’minalash.

Uchinchi band. Shartnomaning bu bandidagi tadbirlar o’quv-chilar mehnat birlashmalarining ishini ta’minalashi kerak. O’quv-chilar ishining bu turi asosan ta’til vaqtida amalga oshiriladi va shuning uchun ularning mehnat obyektlari har xil, ba’zan esa mehnat va kasbiy tayyorgarlik o’quv dasturi mazmuni bilan bog‘lanmagan bo‘lishi mumkin. Buning uchun uchinchi band-ning birinchi paragrafida u yoki bu maktablararo texnik markaz ishlab chiqarish doirasiga kirgan korxonalar va tashkilotlar ehti-yojidan kelib chiqib, o’quvchilar mehnat birlashmalari ixtisosini aniq belgilash g‘oyat muhimdir.

Shartnomaning bu bandida majburiy tarzda o’quvchilarini mehnat joyiga olib borish va olib kelishning barcha yo’llarini nazarda tutmoq zarur.

To’rtinchi band. Shartnomaning bu bandida tayyorlangan mah-sulotlar miqdori va sifatini hisobga olishni; o’quvchilar ijtimoiy-foy-dali, unumli mehnatining natijalarini, o’quvchilarga tayyor-lagan mahsuloti, haqiqiy ishlangan vaqt hamda bajarilgan ishi uchun belgilangan tartibda haq to’lashni ta’minalash tadbirlarini nazarda tutish lozim.

Beshinchi band. Shartnomada mehnat va kasbiy ta’lim bo‘yicha to‘garak va sinfdan tashqari ishlar masalasiga ham e’tibor berish muhimdir. Ayniqsa bunda texnik ijodiyot va qishloq xo‘jalik taj-ribachiligi nazarda tutiladi.

Buning uchun tegishli binolarni jihozlash zarur. Bino sifatida maktablar, maktablararo texnik markaz kasb-hunar kollejlari hamda baza korxonalarining o'quv sexlari, ustaxonalar, uchastkalaridan qo'shimcha jihozlash bilan foydalanish mumkin.

Texnik ijodiyot, qishloq xo'jalik tajribachiligi to'garaklarida ishlab chiqish uchun mavzularni oldindan belgilash, har bir mavzu muddatini va biriktirilgan rahbarni ko'rsatish lozim.

Oltinchi band. Tipovoy shartnomadagi oltinchi bandda maktablarning baza korxonalar, texnik markazlar, kombinatlar va kasb-hunar kollejlari bilan birga kasb tanlash tadbirlarini amalga oshirishga quydagilarni kiritish zarur:

- o'quvchilarning kasb tanlash bo'yicha mакtabda o'quv-metodik xonasini tashkil etish yoki mayjud xonani qayta jihozlash;

- kasb tanlash o'quv-metodika xonasini mahaliy ishlab chiqarish doirasidagi korxonalarning kadrlarga ehtiyoji haqidagi axborotlar bilan ta'minlaydigan tadbirlar;

- ishlab chiqarish doirasida baza korxona va boshqa tashkilotlar ishchilarining mehnat sharoiti va turmushini xarakterlovchi zarur materiallar bilan ta'minlash tadbirlari;

- baza korxona va u kirgan tarmoqning iqtisodiy, sotsial rivojlanishini xarakterlaydigan maxsus stendlar hamda boshqa o'quv materialari, maketlari, namunalar, kinofilmlar, texnik vositalar bilan ta'minlash.

Shartnomada oltinchi bandining ikkinchi paragrafida ishlab chiqarish ekskursiyalarini, o'quvchilarga kasb tanlashda, maktabga esa ixtisoslik va kasbiy ta'lim uchun o'quv guruhlarini jalashda yordam beradigan kasb-tanlash va tarbiyaviy tadbirlarni belgilash kerak.

Yettinchi band. Shartnomadagi mazkur bandni to'ldirishda quyidagilarni nazarda tutish lozim: o'quvchilarning mehnat va kasbiy tayyorgarligini, ijtimoiy va unumli mehnatinini, xavfsizik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi, o'quvchilar mehnatini muhofaza qilish qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda tashkil etishni ta'minlashi kerak.

Sakkizinchi band. Mazkur band baza korxonalarining maktablar va boshqa maorif muassasalariga o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rishda yordamlashishiga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi. Mazkur punktda baza korxonalar uskunalar sotib olish va ularning

remontiga ajratadigan mablag‘larga alohida e’tibor berish kerak. Bundan tashqari, mazkur punktda maktabni, o’quv va texnologik uskunalarni, priborlarni, ta’limning texnik vositalarini remont qilishga ham mablag‘ va fondlar ajratilishi nazarda tutilgan.

To’qqizinchi band. Bu punktda o’quvchilar va ishlab chiqarish ta’limi ustalari to‘g‘risida g‘amxo‘rlik aks ettiriladi. Shuning uchun uni to‘ldirayotganda baza korxona sanatoriyalar, pansionatlar, dam olish bazalariga yo’llanmalar ajratishda barcha rezerv va imkoniyatlardan foydalanishi lozim. Shartnomada maktab yoki maktablararo texnik markaz xodimlarini aniq tibbiy punktlarga biriktirib qo‘yishni nazarda tutish zarur.

Shunday qilib, ijtimoiy foydali hamda unumli mehnat jarayonida o’quvchilarni kasb to‘g‘risidagi ma’lumotlarini kengaytirish, aniq kasb tanlashga keltirish, tanlagen kasbiga moslashtirib kasb-hunar kollejlarida tanlagen kasbini egallahsha olib kelish yuqorida ko‘rib o‘tilgan shartnomalarda o‘z aksini topgan.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Ijtimoiy-foydali unumli mehnat deb nimaga aytildi?
2. Ijtimoiy-foydali mehnat deb nimaga aytildi?
3. Ijtimoiy-foydali unumli mehnat bilan ijtimoiy foydali mehnatning farqi nimada ko‘rinadi?
4. Kasb tanlash samarasini ko‘tarishga qaratilgan shartnomalar qanday tuziladi?
5. Ijtimoiy-foydali va unumli mehnatni tashkil etish uchun qanday korxonalar bilan shartnoma tuziladi?
6. Shartnoma tuzish uchun korxona qanday tanlanadi?
7. Shartnomaning turlari va bandlarini izohlab bering.
8. Mehnat ta’limi tizimida va kasb tanlashda bajaradigan ishlardan unumli foydalanish uchun tashkilot, korxona va o‘quv muassasalar orasida tuziladigan shartnomalarda o‘zaro munosabatlar qanday belgilanadi?

3.6. Mehnat ta’limi, kasb tanlashga yo’llash darsi jarayonida tarbiya

Reja:

1. Tarbiya haqida umumiy ma’lumot.
2. Tarbiya to‘g‘risida mutafakkirlarning qarashlari.

3. Barkamol avlodni tarbiyalashda mehnat va mehnat tarbiyasining o'rni.
4. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash darslarida tarbiyalash usullari.

Tayanch iboralar: tarbiya, shaxs kamoli, xulq normalari, axloqiy sifatlar, mehnatsevarlik, intizomlilik, shijoatkorlik, vatanparvarlik, mas'uliyat, faollik, ma'naviy kamol topish, aqliy mehnat, jismoniy mehnat, ijtimoiy mehnat, maishiy mehnat, badiiy did, sifatli va sifatsiz tayyorlangan buyumni taqqoslash.

1. Tarbiya haqida umumiy ma'lumot. Mustaqil O'zbekistonimizda ta'lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi barkamol avlodni yaratishdagi dastlabki qadamlardir. Shaxs rivojlanishiga erishish har bir jamiyatda amalga oshirilayotgan tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Faqat tarbiya orqali insondagi rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish mumkin. Tarbiya jarayonida aniq maqsad va reja asosida shaxsga ta'sir etiladi. Buning natijasida muhitdagi voqealarning to'g'ri ijobjiy ta'sirini amalga oshirish imkoni tug'iladi. Muhit berolmagan narsalar tarbiya orqali hosil qilinadi, hatto tarbiya tufayli shaxsda tug'ma kamchiliklarni ham o'zgartirib shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Bundan tashqari muhitning salbiy ta'siri tufayli tarbiyasi izdan chiqqanlarni ham qayta tarbiyalaydi. Rivojlanish shaxs faoliyatidan tashqarida bo'lmaydi. Shu sababli odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat xoh o'yin, mehnat, o'qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shaxs ulg'aya borgan sari uning faoliyati ham mazmunan, ham shaklan o'zgarib boradi, turli yosh davrlarida esa faoliyat turlari ham o'zgarib boradi. Shu sababli bola hayotida o'yin, o'quvchi hayotida o'qish, kattalar hayotida mehnat faoliyatlari katta ahamiyatga egadir.

O'quvchilarning rivojlanishida o'quv jarayonlarining ahamiyati va ta'siri beqiyos kattadir. Bilimlarni o'zlashtirish ularning tafakkurini o'stiradi, ijodiyligini qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy vositasi bo'lib qoladi. Bu jarayonda ularda ijtimoiy xulq normalari shakllanadi. Shaxs qaysi yoshda bo'lischenidan qat'i nazar, ularning rivojlanishida mehnat faoliyatining ahamiyati kattadir.

Ayniqsa, mehnat insonning ham jismoniy, ham ma'naviy kamol topishida muhim manba hisoblanadi. Mehnat jarayonida uning ishtirokchilari bir-birlari bilan aloqada bo'ladilar, o'zlarining nimaga qodir ekanliklarini ko'rashishga harakat qiladilar. Mehnat orqali shaxsning axloqiy sifatlari tarkib topadi, ularda vatanparvarlik, mas'uliyat, intizomlilik, faoliik ortadi. Ular o'z-o'zini tarbiyalashga astoydil kirishadilar. O'z-o'zini tarbiyalashda ota-onasiga qituvchining tarbiyaviy ta'siri yanada samarali bo'ladi.

Kishi tug'ilgan kunidan boshlab sotsial mavjudod bo'lib qoladi. Uning xarakteri, xulq-atvori, shaxsi barcha ijtimoiy omillar yig'indisi, ya'ni tevarak-atrofdagi odamlarning unga munosabati, namuna ko'rsatishlari, mafkuralari, o'z faoliyatida hosil qilgan tajribasi ta'sirida shakllanadi. Albatta, ijtimoiy omillar inson shaxsining har tomonlama shakllanishi samarali ta'sir ko'rsatadi. Pedagog bolaning muayyan rivojlanish davridagi xususiyatlari, xarakteri va fe'l-atvorini belgilovchi omillarning hammasi birgalikda ta'sir ko'rsatishini biliishi lozim.

2. Tarbiya to'g'risida mutafakkirlarning qarashlari. Mehnat ta'llimi va kasb tanlashga yo'llashni tashkil etishning asosiy maqsadi o'quvchilarga faqat tegishli bilim, ko'nikma malakalarni berishdangina iborat emas, balki o'quvchilarning jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, mehnatga, ijtimoiy, shaxsiy mulkka munosabatini, jamaa va uning a'zolariga bo'lgan ijobjiy munosabatlarini, badiiy didini, iqtisodiy, jismoniy, axloqiy, milliy madaniyatini tarbiyalashdan iboratdir. Ta'lim berish bilan birga tarbiyalashga katta ahamiyat berish kerakligini mutafakkirlar o'z davrida aytib o'tganlar.

Abdulla Avloniyning 1913-yilda yozilgan, 1917-yilda ikkinchi bor nashr etilgan «Turkiy guliston yohud axloq» asari XX asr boshlarida pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir. «Turkiy guliston yohud axloq» asari axloqiy va ta'llimi asardir. Bu asarda Abdulla Avloniy o'z ijtimoiy va axloqiy-ta'llimi qarashlarini bayon etadi.

Kaykovusning «Qobusnama», Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilik», Nosir Xusravning «Soadatnama», Sa'diyning «Guliston va Bo'ston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahbub-ul-qulub», Ahmad Donishning «O'g'illarga nasihat» kabi asarlari maktabda va boshqa ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya ishlari qo'llanilmoqda.

A. Avloniy odamlarni xulq, xatti-harakat nuqtayi nazaridan ikki guruhga bo'ladi, biri yaxshi xulqli kishilar, ikkinchisi yomon xulqli kishilardir. Haqiqiy insoniy axloqni o'zida barqaror qilgan yaxshi kishilar yoshlarga yaxshi ta'sir ko'rsatadi va'ularni mehr-shavqatli, sofslil va maqbul bo'lib tarbiyalanishi uchun zamin hozirlaydi. Axloq tarbiyasi: insonlarga eng muhim, ziyoda, sharaf, baland daraja beruvchi tarbiyadir. Shu bois dars jarayonida o'qituvchi avvalo o'zi shaxsiy namuna bo'lishi, kiyinishi, so'zlashishi, o'zini tutishi bilan o'quvchilarga o'rnatko'rnak bo'lishi kerak. Dars jarayonida mehnat topshiriqlarini bajarishda shaxsning javobgarlik, vijdonlilik kabi xislatlarini, mehnat intizomiga amal qilgan holda jamoa bo'lib mehnat qilish malakasini, ijtimoiy mulkka g'amxo'rlik munosabatini tarbiyalashdan iboratdir.

3. Barkamol avlodni tarbiyalashda mehnat va mehnat tarbiyasining o'rni. Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirishda mehnat tarbiyasining roli va o'rni beqiyos kattadir. Insonning kundalik turmush tarzi mehnati va faoliyati bilan bog'liqidir. Shu sababli, mehnat butun moddiy va ma'naviy boyliklarning ijtimoiy taraqqiyotning negizidir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositali, uning shaxs sifatida ulg'ayish omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonidagina bola o'z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi, shaxs sifatida shakllanishi mumkin. Farzandlarimiz mustaqil O'zbekistonimizning bo'lg'usi quruvchilaridir. Shu sababli kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa hujatlarda ularni mehnatga qay darajada tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda. Shunday ekan, mehnat farzandlarimiz uchun ham zarurat, ham burch bo'lishi, buning uchun uyda ham, ta'lim muassasasida ham mehnat qilish uchun sharoitlar yaratilishi lozim. Agar bola kichikligidan mehnat qilishga o'rgatilsa, o'yindan mehnat qilishga hech bir qiyinchiliklarsiz o'tadi. Bu jarayonda kattalarning ibrati muhim rol o'ynaydi.

Farzandlarimiz kichik yoshdan boshlab maishiy mehnat, aqliy mehnat, jismoniy mehnat va ijtimoiy mehnatda ishtirok etadi. Mehnat tarbiyasida yutuqlarga erishishda yoshlarni mehnatga ham ruhiy, ham amaliy jihatdan tayyorlash lozim. Shuning uchun ularni yoshi va imkoniyatlariga mos mehnat turlarini bajarishga jalb qilmoq lozim.

Mehnatga psixologik, axloqiy va amaliy tayyorlash jarayonida o'quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, shijoatkorlik kabi axloqiy irodaviy xususiyatlar tarbiyalanib boradi, o'quvchilarda jamoatchilik bilan birga mehnat qilish ko'nikmalarini hosil qilish lozim. Chunki inson butun hayoti davomida ko'pchilik bilan mehnat qiladi. Bu jarayonda o'quvchida mehnat qilish madaniyatini o'stirmoq darkor.

Yoshlar mehnati dastlab oilada, keyin esa ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Bu jarayonda ayniqsa akademik litsey kasbhunar kollejlarining o'rni va ahamiyati beqiyos kattadir. Ta'lim to'g'risidagi qonunning 13-moddasida ta'kidlanganidek, «kasbhunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorati va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishini ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir».

Yoshlar mehnatining mazmuni mamlakat oldida turgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy vazifalar, viloyat va tumanlardagi kadrlarga bo'lgan ehtiyoj, o'quv yurtlarining ichki imkoniyatlari va talablari asosida belgilanadi.

4. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash darslarida tarbiyalash usullari. O'quvchilarni tarbiyalashning bir qator qonun-qoidasi bor:

1. Jamoa bo'lib mehnat qilish, topshirilgan ishga javobgarlik hissini tarbiyalash.

2. O'z-o'zini tanqidiy baholash va tanqidiy nazorat qilish, kamchiliklarga nisbatan murosasiz bo'lish hislarini tarbiyalash.

3. Ongli intizomni tarbiyalash.

4. Jamiyat va shaxs mulkiga g'amxo'rlik munosabatlarini tarbiyalash.

5. To'garak mashg'ulotlari jarayonida tarbiya usullaridan; iqtisodiy, kasbiy, axloqiy, badiiy, milliy, jismoniy mehnat, mehnat madaniyatini shakllantirish va hokazo.

Mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalash usullarini qanday yo'llar bilan olib borilishi quyida bayon qilingan.

1. Mehnat tarbiyasi fan asoslarini o'rganish jarayonida o'quvchilarning olgan bilimlari aniq maqsadga yo'nalganligini, ishlab chiqarish jarayonining ilmiy asoslarini, bilim va kasbiy qiziqishlarini ko'zda tutadi. O'quvchi butun o'quv davrida mehnat bilan yaralgan boyliklar bilan tanishadi, bular faqat erkin mehnat qila olganlaridagina yuzaga kelishini tushunadi, o'quvchi

mehnatni ilmiy tashkil qilishning birinchi darsini o'quv jara-yonida oladi.

Mehnat ta'lifi va kasb tanlashga yo'llash darslarida jama'a bo'lib ishlashda o'quvchilar bir-biriga yordam beradi. O'quvchilar ba'zi ishlarni birligida, bir-biriga yordam berib, ish o'rinalarini almashib, maslahatlashib bajarishlariga to'g'ri keladi. Bu imkoniyatlardan o'qituvchi o'quvchilarni tarbiyalashda keng foydalanishi kerak. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilar o'zaro do'stlik, bir-biriga yordam berish, rahbarlik, bo'ysunish, javobgarlik, talabchanlik va ish yuzasidan olib boriladigan tanqidiy munosabatlarga kirishadilar. O'qituvchi bu munosabatlarning kamol topishini diqqat bilan kuzatishi va ularni to'g'ri yo'naltirib turishi kerak.

2. Mehnat ta'lifi va kasb tanlashga yo'llash darslarida ayrim hollarda o'qituvchi o'quvchilarga o'z ishini baholashni taklif etadi. Bu esa o'quvchiga tayyorlangan buyumni sinchiklab tekshirishga, sifat ko'rsatgichiga amal qilishga, o'z-o'zini tanqidiy baholash hissining shakllanishiga yordam beradi.

3. O'qituvchining talablarini bajarish natijasida o'quvchilar qabul qilingan qoidalar, ish usullarini aniq, ongli bajarishga asta-sekin ko'nikadilar. Ular berilgan ish maromini saqlashga, ish o'rnini namunali tutishga, asboblarni ehtiyyot qilishga odatlanadilar. O'quvchilarga mehnat ta'lifi berish, turmushga tayyorlashning muhim sharti — intizomni yo'lga qo'yish orqali erishiladi. O'quvchilarga ishonish, ularni hurmat qilish bilan birga talabchanlikni qo'shib olib borish ongli intizomni tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir.

4. O'quvchilarda ijtimoiy mulkka nisbatan g'amxo'rlik munosabatini tarbiyalashning ta'sirchan usullaridan biri ularni unumli mehnatga, maktab ustaxonasini jihozlash ishiga, asboblarni ta'mirlashga jalb qilishdan iboratdir. O'quvchilarni buyumlarni bichish vaqtida gazlamalarni tejamkorlik bilan sarflashga, asbobuskuna, korjomalarni ehtiyyot qilishga o'rgatish, o'z ishini sidqidandan bajarishga, mehnatni sevishga o'rgatish orqali mehnat tarbiysi shakllanadi.

5. Mehnat madaniyatini tarbiyalashda har bir o'quvchi o'zidan keyin shu ish joyida boshqa o'quvchi o'tirib ishlashi,unga ham toza, ozoda ish joyi zarurligini tushuntirilishi orqali shu joyni yig'ishtirishga odatlantirish kerak. Shuning uchun, mashg'ulot

rejasini yozishda albatta ish jo'yini yig'ishtirish bosqichi re-jalashdirilishi va bajarilishini nazorat qilinishi kerak.

6. O'qituvchi yaxshi tayyorlangan buyumning chiroylilagini, tozaligini, bezagini hamda o'quvchining mehnat harakatlarining aniqligini doimo ta'kidlab turishi orqali o'quvchilarda badiiy did rivojlanadi. Sifatli va sisfatsiz tayyorlangan buyumni taqqos-lab, chiroyli va xunukni ajratishni, ranglarni bir-biriga mosligini o'rgatib borilsa, o'quvchilarda badiiy did tarbiyalanib boradi.

7. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash darslari jarayonida eng muhim bo'lgan kasbiy tarbiyaning shakllanishiga alo-hida e'tibor berilishi kerak. Buning uchun har mashg'ulotda o'quvchining bajarayotgan ishi ommaviy kasb egalari bajaradigan ish ekanligini eslatib turiladi, korxonalarga borib ishchi kasblari bilan yaqindan tanishtiriladi.

Kasb tanlash jiddiy va mas'uliyatli ishdir, o'z hayot yo'llarini jiddiy sur'atda belgilab borish jiddiy masala. Buning uchun maktablardagi politexnika tizimida to'garaklar muhim o'rinn tutadi, fan to'garaklarida bolalar politexnik savyasini, bilimlarini kengaytiradi, kasb tanlashga tayyorlanishadi. Maktabda yuqori sinf o'quvchilari uchun «Ishlab chiqarish asoslari: kasb tanlash» kursi o'qitiladi. Kasbga yo'naltirish umumiyl o'quv tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishdan ota-onalar ham manfaatdor. Shuning uchun ham o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqa bo'lishi lozim.

8. Iqtisodga rioya qilgan kishilar hamma vaqt tinch va rohatda yashaydilar, arilar qish kunida yemak uchun bol yig'ganidek, insonlar kelajakni, turli orzu-havaslarini o'ylab, pul yig'adilar, «Toma-toma ko'l bo'lur» maqolining mazmuni o'quvchilarga tushuntiriladi. Mehnat ta'limi mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarga biror buyumni bichish vaqtida andazani to'g'ri joylashtirishni, gazlamani tejab ishlatalishni talab qilish, qolgan qiytimlardan biron kichik uy bezaklarni tikishni o'rgatish orqali iqtisodiy tarbiya shakllanib boradi.

Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olish kabi qobiliyatni kamol toptirishdir.

9. Mashg'ulotlar jarayonida mavzuni tushuntirishda mavzuga oid tarixiy ma'lumotlardan foydalanish, udumlar, an'analar,

urf-odatlar asosida bilim berish orqali o'quvchilarda milliy tarbiyani shakllantirishga imkon yaratiladi. O'quvchilarning nutqini o'stirishga alohida e'tibor berish kerak. Buning uchun bajarilgan ishlarni ketma-ketlik tarzida aytib berish, buyum haqida ma'lumotlar, qo'llaniladigan gazlama, fasonlar haqida o'quvchilarni gapirib berishga o'rgatiladi. Shu tariqa o'quvchilarning nutqi ravonlashib, til boyligi o'shadi. Abdulla Avloniy ham til masalasiga katta e'tibor beradi. Tilni axloq bilan bog'lab talqin qiladi. U o'z asarida har bir kishi o'z ona tilini mukammal bilishi, har bir so'zni o'z o'rniда ishlatishi, milliy-adabiy tilning taraqqiysi uchun jonkuyarlik qilishi zarurligini qayd qiladi.

10. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash darslarida milliy hunarmandchilik asoslarini o'rgatishda: kashtachilik, zardo'zlik, popopchilik va boshqa usullar yordamida buyumlarni tikishda, ularga bezaklar tanlash yo'llarini o'rgatish orqali ham o'quvchilarga kasbiy tarbiya beriladi. Mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida muzeylarga olib boriladi, noyob asarlar bilan tanishtiriladi, buyumlar tikishda milliy hunarmandchilikning ayrim elementlaridan foydalanishga o'rgatib boriladi.

11. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash darslarida o'quvchilarning jismoniy tarbiyasiga e'tibor beriladi. Mashinada o'tirishda, qo'l ishlarini bajarishda ish bilan ko'zning orasidagi masofani to'g'ri saqlash, o'tirishda gavdani to'g'ri bo'lismiga ahamiyat berish, xonada sog'lom mehnat sharoitini yaratish orqali erishiladi. O'qituvchi o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishda ish sharoiti uning sog'lig'iga zarar yetkazmasligini yodida saqlashi lozim.

Jismoniy tarbiya kishilarga katta ta'sir ko'rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishga yordam beradi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. «Tarbiya» tushunchasini izohlab bering.
2. Tarbiya to'g'risida mutafakkirlarning qanday qarashlari mavjud?
3. Barkamol avlodni tarbiyalashda mehnat va mehnat tarbiyasining o'rnnini qanday izohlaysiz?

4. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash darslarida tarbiyalashning qanday usullari bor?
5. Mashg'ulotlar jarayonida tarbiyalash usullari qanday yo'llar bilan olib boriladi?
6. Mehnat ta'limi jarayonida beriladigan iqtisodiy tarbiyaning mazmun-mohiyatini izohlab bering.

Mustaqil ta'lim topshiriqlari:

1. 1–4-sinflarning mehnat ta'limi uchun yarim yillik taqvimiylar mavzuli reja tuzish.
2. 5–9-sinflar uchun «Texnologiya va dizayn» va «Servis xizmati» yo'naliishlari uchun tuzilgan taqvimiylar mavzuli rejani tahlil qilish.
3. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga kirish uchun tayyorgarlik rejalarini tuzish.
4. «Texnologiya va dizayn» yo'naliishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar mazmunini tahlil qilish.
5. «Servis xizmati» yo'naliishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar mazmunini tahlil qilish.
6. «Servis xizmati» yo'naliishi bo'yicha xalq hunarmandchiligi bo'limini o'qitish uchun 5–6–7-sinflarning 6 soatlik dars ishlanmasini tuzish.
7. «Texnologiya va dizayn» yo'naliishi bo'yicha xalq hunarmandchiligi bo'limini o'qitish uchun 5–6–7-sinflarning 6 soatlik dars ishlanmasini tuzish.

IV bob. MEHNAT TA'LIMI METODIKASI, KASB TANLASHGA YO'LLASH FANIDA SHAKL, METOD VA VOSITALAR

4.1. Mehnat ta'lifi, kasb tanlashga yo'llashni o'qitish shakllari

Reja:

1. Mehnat ta'lifi, kasb tanlashga yo'llashni o'qitish shakllari.
2. Mehnat ta'lifi, kasb tanlashga yo'llash darslarining tiplari.

Tayanch iboralar: ta'lif jarayoni, ta'lif ishtirokchilari, ta'lifining tashkiliy shakllari, o'quvchilar jamoasi, dars tiplari, o'qitish shakllari: nazariy mashg'ulot, amaliy va amaliy laboratoriya mashqlari, ishlab chiqarish korxonasiga ekskursiya, firmlar, xususiy korxonalar bazasida mashg'ulot, o'quvchilarning mehnatga oid mustaqil ishlari, mehnatni tashkil etish shakllari, masofaviy ta'lif.

1. Mehnat ta'lifi, kasb tanlashga yo'llashni o'qitish shakllari. Ta'lif jarayoni ishtirokchilari, ya'ni o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi mehnat ta'lifining tashkiliy shaklini anglatadi.

Umumta'lif muktab o'quvchilarining o'quv faoliyati turli tashkiliy shakllarda kechadi. Mehnat ta'lifining tashkiliy shakllari deganda o'quv faoliyati uchun o'quvchilar jamoasini tashkil etish yo'llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek, o'quv mashg'ulotlarining qurilish tarkibi tushuniadi. Bunda nazariy va amaliy mashg'ulotlar va ishlab chiqarish ta'lifini tashkil qilishning asosiy shakllarini ochib berish, ishlab chiqarish korxonalariga sayohat, ayrim hollarda mehnat ta'lifida masofaviy o'qitishni ishlab chiqishni, ishlab chiqarish ta'lifining maqsad va vazifalari, tashkil qilish, o'tkazish, rahbarlik qilish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishni, jamoaviy, guruhli, yakka tartibdagi shakllardan foydalangan holda dars ishlamalarini tayyorlashni talab etadi. Ana shu sababli mehnat ta'lifining tashkiliy shakllarini ishlab chiqish va boshqarish modelini loyihalash zarur.

Mehnat ta'limentarying tashkiliy shakllari deganda — o'quv-ishlab chiqarish faoliyatini uchun o'quvchilar jamoasini tashkil etish yo'llari, bu faoliyatga rahbarlik qilish shakllari, shuningdek, o'quv mashg'ulotlarining qurilish tarkibi tushuniladi.

Mehnat ta'limentarying u yoki bu shaklini tanlashda o'quvchilarni mehnat ta'limi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish jarayonida ularning mutlaq maqsadi va yaqin vazifalari, mazmun hamda metodlari, shuningdek, moddiy sharoitini belgilaydigan asosiy faktor (ko'rsatkich)larining u yoki bu shakllariga bog'liq.

Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash mashg'ulotlarini tashkil etish shakllariga quyidagilar kiradi:

1. Nazariy mashg'ulotlar.
2. Amaliy va amaliy laboratoriya mashqlari.
3. Ishlab chiqarish korxonasiga sayohat.
4. Firmalar, xususiy korxonalar bazasida mashg'ulot.
5. O'quvchilarning mehnatga oid mustaqil ishlari.
6. Mehnatni tashkil etish shakllari.
7. Masofaviy ta'lim.

Nazariy mashg'ulotlar. Mashg'ulot davomida mavzu bo'yicha kerakli ma'lumotlar berish, mazmunini yoritishda nazariy mashg'ulotlardan foydalaniadi. Mehnat ta'limi mashg'ulotlari jarayonida nazariy mashg'ulotlardan juda kam foydalaniadi. Nazariy mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga dastur asosida mavzularni ko'rgazmadan foydalanim olib boradi.

Nazariy mashg'ulotlar davomida dastur mavzularining mazmuni yoritiladi, mehnat ta'limentarying maqsad va vazifasi amalga oshiriladi.

Nazariy mashg'ulotlar deganda mashg'ulotning ham jamoa, ham individual (yakka tartibda) turini o'z ichiga olgan, mehnat ta'limi o'qituvchisining rahbarligida o'quv materialini faol, to'g'ri va ongli o'zlashtirilishini ko'zda tutgan o'quv-mehnat faoliyatining aniq tashkil qilinishi tushuniladi.

Amaliy va amaliy laboratoriya mashg'ulotlari. Amaliy mashg'ulotlar o'qituvchi tomonidan boshqarilib, o'quvchilar tomonidan berilgan topshiriqlar ongli o'zlashtiriladi, mehnat faoliyati aniq tashkil etiladi. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar oldiga quyidagi maqsadlar qo'yiladi: o'quvchilarning o'quv materialini, o'zlashtirgan bilimini, mehnat ko'nikmasini va malakalar

darajasini tekshirish, yangi mavzuni tushuntirishda mehnat usul-larini ko'rsatish, yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning bajaradi-gan ishlari va bilim darajasini aniqlash, o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat qilishlari, amaliy ishlarni mustaqil bajarishlari hamda o'quvchilarni amaliy mashg'ulotlar natijalarini yaxshilashga qaratish va hokazo.

Amaliy laboratoriya ishlari o'zida mashg'ulotning shunday turi-ni ifodalaydiki, unda o'qituvchi rahbarligida mashg'ulot davomida tadqiqotlar, tajribalar, kuzatishlar olib boriladi. Maxsus asboblar, uskunalar, moslamalar, apparatlar yordamida tajribalar o'tkaziladi hamda to'g'ri ilmiy xulosalar va umumlashmalar chiqarish imkoniyatlari o'r ganiladi. Amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari gazlama-shunoslik bilimini o'rgatishda qo'llaniladi. Bunday mashg'ulotlarda gazlamaning xossalari: sitiluvchanlik, kirishunchanlik, ishqalanuv-chanlik, g'ijimlanishi, tolaviy tarkibini aniqlashda qo'llaniladi. Amaliy laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazish uchun avvaldan tay-yorlaniladi; uskunalar, xona, tadqiqot obyektlari, topshiriq kartochkalari, hisobot uchun jadvallar shakllari tayyorlab olinadi. Amaliy laboratoriya ishlarini bajarish ko'rsatmasi bo'lishi, natijalar jamoa o'rtasida muhokama qilinib, baholanishi kerak.

Amaliy laboratoriya ishlari o'quvchilarga faqat turli xil us-kunalar, asboblar, moslamalar bilan ishslashni o'rgatmay, balki o'lchovlar, kuzatishlar natijalarini ishlab chiqishni o'rganish hamda to'g'ri ilmiy xulosalar va umumlashmalar chiqarish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish korxonasiga sayohat. Sayohat — mehnat ta'limini tashkil etishning shunday shakli, u orqali o'quvchilar bevosita ishlab chiqarish sharoitida jihozlar bilan tanishib, texnologik va mehnat jarayonlarini tashkil etishni kuzatib boradi, ya'ni o'quvchilarni bevosita ishlab chiqarish sharoitiga, jihozlar, texnologik va mehnat jarayonlari bilan tanishtirish maqsadida ishlab chiqarish korxonalariga sayohat o'tkaziladi.

Sayohat jarayonida korxonalarda tayyorlaniladigan mahsulot-lar, zamonaviy texnologiya, mehnatni ilmiy tashkil etish usullari va ilg'or texnologik jarayonlar tanishtiriladi.

Sayohat dasturdagi mavzularni o'tib bo'lgach yoki o'tishdan avval o'tkaziladi. O'qituvchi ekskursiya mavzusini avvaldan tanlaydi. Sayohat qachon, qaysi joyda borishligi aniqlanadi. Sayohat aynan mana shu maqsad asosida uyuştiriladi.

Sayohat o'tkazishda o'quvchi soni 15–20 tadan oshmasligi kerak. Ekskursiya davomida frontal tarzda, ayrim hollarda yakka tushuntirish va yo'llanma berish mumkin. Sayohat 3 bosqichda o'tkaziladi.

1-bosqich. Sayohatga tayyorlanish. Bunda mavzu, maqsad, vazifalar belgilanadi, obyekt tanlanadi. Korxona rahbari bilan shartnomaga va ekskursiya rejasi tuziladi (mashg'ulot rejasi, o'quvchilarga topshiriq va hisobot shakli).

2-bosqich. Sayohatning borishi. Sayohatning maqsad va vazifasiga ko'ra ko'chada, korxonada tegishli xavfsizlik texnikasi qoidalari, tartiblari, kuzatish obyekti, o'quvchilarga topshirilgan vazifalar eslatiladi. O'qituvchi sayohatning boshidan oxiriga cha birga bo'lishi, biror baxtsiz hodisa ro'y bersa, ekskursiyani to'xtatib tegishli chora ko'rishi kerak. Sayohat maxsus tayyorlangan mutaxassislar tomonidan olib boriladi.

3-bosqich. Sayohatni yakunlash. Sayohat albatta yakunlanishi shart. Sayohat davomida tug'ilgan savollar hal qilinadi. Sayohat korxonada o'tkazilgan yakunlovchi suhbat bilan cheklanmaydi. Sayohatning yakuniда mehnat ta'limi mashg'ulotlarida berilgan topshiriqlarning bajarilishi muhokama etiladi. Sayohat vaqtida qayd etilgan ma'lumotlar daftarga yozib qo'yiladi. Sayohat yakuни bo'yicha referat yozish, albom tayyorlash, taassurotlar asosida rasm chizish mumkin.

Firmalar, xususiy korxonalar bazasida olib boriladigan mashg'ulotlar. Mashg'ulotni tashkil etishning bunday shaklidan 8–9-sinf o'quvchilari bilan kasb tanlashga yo'llash mashg'ulotlarini olib borishda foydalanish mumkin. Mashg'ulotning bunday shaklini o'tkazishda firma yoki xususiy korxona bilan shartnomaga tuziladi, o'quvchilarni zamонавиу texnika va texnologiyaga asoslangan unumli mehnatda qatnashishlari uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Bunday mashg'ulotlarda o'quvchilar uchun korxonani boshqarish jarayoni, korxonadagi kasblar bilan yaqindan tanishish imkoniyati tug'iladi, tanlagen kasblari haqida to'liq ma'lumot olishlariga imkoniyat yaratiladi.

O'quvchilarning mehnatga oid mustaqil ishlari. O'quvchilarning mehnatga oid mustaqil ishlariga quyidagilar kiradi:

1. Uy vazifasi tariqasida topshiriqlar berish o'quvchilarni bilish faolligini, ijodiy mustaqilligini o'stiradi, ularni hayotga, mehnatga tayyorlaydi. Mehnat ta'limi mashg'ulotlari jarayonida

o‘quvchilarga o‘z o‘lchamida buyumlar chizmasini chizish, buyum andazasini tayyorlash vazifasi topshiriladi. Uyga vazifa berishdan oldin o‘qituvchi topshiriqning mohiyatini, bajarish tartibini, olingen natijaning tekshirish yo‘llarini, talablarini tushuntiradi. Berilgan uy vazifasini to‘g‘ri bajarilganligi o‘qituvchi tomonidan tekshirib borilishi kerak. Uy ishlarini baholashda topshiriqlarni bajarishning qulay usullaridan foydalanganligi, ilgari egallagan bilimiga tayanish, texnologik yechimlarning qimmati, chiqarilgan xulosa va umumlashmalarning muhimligini hisobga olinishi lozim.

2. Ijodiy topshiriqlarni bajarish. O‘quvchidagi ijodiy faollik kasbga muhabbatni rivojlanish imkonini beradi. O‘quvchi berilgan topshiriqnini bajarishda fan va texnologiya yutuqlarini, topshiriqning eng maqbul yechimlarini topish imkoniyatlari ustida izlanadi, yan-gilikka intiladi, topshiriqlar yechimini ijodiy hal qiladi.

Mehnatni tashkil etish shakllari. Mehnatni tashkil etishning xilma-xil shakllari mavjud bo‘lib, mavzuning maqsadiga bog‘liq bo‘ladi. Chizma chizishni barchaga barobar o‘rgatishda frontal, amaliy ish bajarishda zveno va yakka shakldan foydalaniladi. O‘quvchilar va o‘qituvchilar tomonidan birgalikda bajarilgan ish frontal usul deyiladi. Har bir o‘quvchi o‘zi ish bajarsa yakka, bir necha o‘quvchilar bitta amaliy ishni bajarsa zveno yoki frontal shakl deyiladi.

Mehnat ta’limi va kasb tanlashga yo‘llash mashg‘ulotlarining shakllari didaktik maqsadning aniqligi, ta’lim va tarbiya vazifalarining birligi, o‘quv materialini to‘g‘ri tanlash, o‘qitish modellarini maqsadga muvofiq tanlash, o‘quvchilarining mustaqilligi, darsning tashkiliyani aniqligi va o‘quvchilar ishida xavfsizlikni ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Masofaviy ta’lim — maxsus o‘qitish vositalari yordamida o‘qituvchi bilan bog‘lanish, shaxsiy jadval bilan o‘zi xohlagan joyda o‘qishi, o‘z ustida intensiv, mustaqil ishlashi lozim bo‘lgan, maqsadga yo‘naltirilgan bilim olish turi.

«Model» tushunchasi ilm-fanning ko‘p sohalarida qo‘llaniladi. Model — sxema, fizik konstruksiyalar, belgili shakllar va formulalar ko‘rinishida sun‘iy hosil qilingan obyekt bo‘lib, u tadqiq qilinayotgan obyektga o‘xshash bo‘ladi, uning tuzilishini, xususiyatlarini, obyektning elementlari orasidagi o‘zaro aloqalar va munosabatlarni sodda va tushunarli tarzda aks ettiradi.

2. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslarining tiplari. Har bir aniq dars oldiga qo'yiladigan asosiy ta'limiy vazifaga qarab darsning tarkibi va ayrim bosqichlarining vazifasi o'zgarishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan ustaxonalardagi darslarni bir necha tipga bo'lish mumkin.

Mehnat ta'limi darslarining asosiy tiplari.

1. O'quvchilar yangi bilimlarni egallaydigan darslar. Bu tipdag'i darslarga kirish mashg'ulotlari, shuningdek, asosiy ta'lim vazifasi o'quvchilarga nazariy ma'lumotlar berish, ularda ba'zi tu-shunchalarni shakllantirishdan iborat boshqa o'quv mavzulariga doir (masalan, «Po'latning asosiy sortlari va markalari», «Detallar va mexanizmlar» mavzulari bo'yicha o'tiladigan) darslar kiradi.

O'quvchilarga yangi bilimlarni yetkazib beradigan darslarda yangi materialni bayon qilish asosiy o'rinni oladi.

Masalan, 5-sinfdag'i kirish mashg'ulotlarida yog'ochga ishlov berishni ham, metallga ishlov berishni ham o'rganishda o'quvchilarga ustaxonalarda har qanday buyumni tayyorlash uchta asosiy bosqichdan, ya'ni detallarni mexanik ishslash, yig'ish, oxirgi pardozlash bosqichlaridan iborat ekanini ko'rsatish vazifasi qo'yiladi. Bu vazifani hal qilish uchun darsni suhabat shaklida o'tkazish kerakki, unda o'quvchilarning kuchi sinflarda mehnat darslarida olgan bilimlariga tayanish mumkin bo'lsin. O'qituvchi o'quvchilarga 1—4-sinflarda buyumlarni tayyorlash qanday bosqichlardan iborat bo'lganini eslashni taklif qiladi. Shundan keyin bu bosqichlar o'quv ustaxonasida har xil buyumlar yasash jarayoni bilan taqqoslanadi. Natijada o'quvchilarning qiziqishlari ortadi va ularning politexnik bilim doirasi kengayadi, texnologik jarayon haqidagi dastlabki tushunchalar hosil qilinadi.

«Po'latning asosiy sortlari va markalari» mavzusi bo'yicha dars o'tish metodikasi boshqacha. Bu darsda o'qituvchining tushuntirishiga asosiy o'rin beriladi, chunki o'quv materiali o'z ichiga o'quvchilar uchun yangi ma'lumotlarni ham oladiki, ularni bayon qilishda o'quvchilarning boshqa o'quv fanlaridan olgan bilimlariga tayanish qiyin bo'ladi.

«Stanoklarda metallarni qirqish jarayoni» mavzusidagi darsda o'qituvchi tushuntirishni suhabat bilan qo'shib olib borishi mumkin, chunki bu darsda asosiy vazifa o'quvchilarning tasavvurini va ustaxonadagi ta'lim davomida metallarni qirqish bo'yicha olgan bilimlarini umumlashtirishdan iborat bo'ladi. Umumlashtirish

jarayonida o‘quvchilarning bilimlariga tayanish, suhbatdan foy-dalanish uchun yaxshi sharoit yaratadi. Ammo o‘quvchilar metal-larni qirqish haqidagi bilimlarini umumlashtirib ana shu bilimlar bilan chegaralanib qolmaydilar, ularning bilimlari o‘qituvchining tushuntirishlari tufayli kengayadi va to‘ladi.

Yangi bilimlar olish darslarida o‘quvchilarning mustaqil ishlari ham o‘z o‘rnini topmog‘i kerak, bu mustaqil ish yangi materialni darslikdan o‘rganishdan, sodir bo‘layotgan jarayonlarni kuzatishdan (masalan, o‘qituvchi metallarni charxlashda, «qirov» hosil bo‘lishini namoyish qiladi va hokazolardan) iborat bo‘lishi mumkin.

2. Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish darslari. Bunday darslar ko‘proq ustaxonalarda o‘tkaziladi. Ko‘nikma va malaka-larni shakllantirish darsining asosiy bosqichi o‘quvchilarning mustaqil ishlaridan iborat bo‘ladi. Buyumlarni tayyorlash va yig‘ishda ana shunday darslarni tashkil qilish maqsadga muvo-fiqdir.

Dastlabki ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga bag‘ishlangan darslar bilan ularni mustahkamlashga bag‘ishlangan, ya‘ni takrorlash mashqlariga bag‘ishlangan darslarning farqini biliш kerak. Har qanday texnologik operatsiyani amalda o‘rganish o‘quvchilarni mehnat usullarini bajarish qoidalari bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bu usullar avval o‘quvchilar tomonidan o‘quv mashqlari sifatida, keyin esa ma’lum detallarni tayyorlash jarayonida bajariladi.

Dastlabki ko‘nikma va malakalar shu tariqa shakllantiriladi. Bu davrda o‘qituvchining e’tibori, asosan mehnat usullarining to‘g‘ri bajarilishini tekshirishga qaratiladi.

Takrorlash mashqlarida o‘quvchilarning mustaqilligi mehnat usullarini to‘g‘ri bajarishdagina emas, balki ularni buyumning konfiguratsiyasiga va ishlov berishning aniqligiga qo‘yilgan tabablarga bog‘liq holda tanlashda namoyon bo‘lishi kerak.

Mazkur darsning asosiy vazifasi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo‘lsa ham, bu o‘quvchilarni muayyan hajmdagi yangi bilimlar bilan boyitmay amalga oshmaydi.

3. Bilimlarni amalda qo‘llash darslari. Har qanday amaliy ishni ham tegishli bilimlarni qo‘llamay bajarib bo‘lmaydi. Ammo shunday hollar ham bo‘ladiki, unda bilimlarni qo‘llash o‘qituvchining e’tibori qaratilgan asosiy ta’limiy vazifa bo‘lib qoladi.

Misol uchun modellashtirish bo'yicha topshiriqlarni olamiz. Modellashtirish uchun o'quvchilar konstruksiyalash va texnologik jarayonlarni tashkil etish bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi kerak. O'quvchilar aniq misollar orqali modellashtirishning umumiylashtirish uchun o'shlari haqida bilim olishlari, modellashtirish jarayoniga bo'yusunadigan yagona qoidalar va talablar bilan qurollanishlari kerak. Modellashtirish darslarida o'quvchilarning bilim va malakalarini amalda mohirona qo'llashlari mana shuning uchun ham alohida zarurdir.

Bilimlarni qo'llash darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlari alohida o'rin oladi, ammo u ko'nikma va malakalarini shakllantirish darslaridagiga qaraganda birmuncha boshqacharoq yo'sinda baholanadi. O'qituvchini avvalo o'quvchilar biror ishni bajarishida o'z bilimlarini qanchalik mohirlik va mustaqil qo'llay olishlari qiziqtiradi. Bunda o'quvchilarning mehnat usullarini to'g'ri bajarishini nazorat qilishni ham unutmaydi, albatta.

4. Takrorlash darsi. O'quvchilarning yangi materialni o'zlash-tirish va mustahkamlashga tayyorligini tekshirishga qaratilgan takrorlash darslari o'qituvchiga darsning asosiy ta'limi vazifasini bajarishda yordam beradigan muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ammo ba'zan takrorlashning o'zi darsning markazida turadi. Bunday dars yakunlovchi mashg'ulot bo'ladi.

Yakunlovchi mashg'ulotlarda o'qituvchi o'quvchilarning mehnat ta'limi jarayonida olgan bilim va malakalarini umumlashtiradi. Bunda umumlashtirish kuchayib boradi. Masalan, o'qituvchi sinfda yog'ochga ishlov berishni o'regatishni tamomlab o'quvchilarga qaysi operatsiyalar bilan tanishganliklarini eslashni, shuningdek, bu operatsiyalar qo'llanadigan sohalarni belgilash uchun ularni o'zaro taqqoslashni, ularning afzalligi va kamchiliklarini yana bir marta aniqlashni tavsiya etadi. Shu sinfda metallarga ishlov berishni o'rganishni tamomlab, metallarga ishlov berish haqida umumlashtiruvchi suhbat o'tkazadi. Bundan tashqari o'qituvchi o'quvchilarga yog'och ya metallarning xossalari, metallarning ayrim turlarini rejalash usullarini taqqoslashni taklif qiladi. Shu bilan birga o'quvchilar quyi sinflarda qog'oz, karton gazlamalar kabi materiallar bilan ishlashda rejalash bilan tanishganliklarini eslatadi va shu asosda operatsiyaning politexnik xarakterini ko'rsatadi. 5–7-sinflarda ta'limga malakalarini umumlashtirish imkoniyatlari ortadi. Umumlashtirish faqat o'quvchilar

o'zlashtirgan narsalarni shunchaki jamlashdan iborat bo'lmay, balki ularning bilimlaridagi sifat o'zgarishlarini jamlashdan ham iborat bo'lishi kerak. Yog'och va metallarga ishlov berishni taq-qoslash o'quvchilarni yangi xulosalarga olib kelishi lozim. Xususan, o'quvchilar materiallarni qirqish bilan ishlashning har xil usullari yagona tabiiy-ilmiy qonuniyatlardan foydalanishga asoslanishiga ishonch hosil qilishlari zarur. Aytilganlardan ko'rinish turibdiki, takrorlash darslari o'quvchilarga yangi bilimlar berish elementlarini ham o'z ichiga oladi.

O'quvchilarning bilim va malakalarini umumlashtirish ishlari butun ta'lim davrini qamragan holda oldindan tuzilgan reja asosida olib borilsagina samarali bo'ladi.

5. Bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish darsi. Ustاخонадаги har bir mashg'ulotda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirishga e'tibor beriladi. Shu bilan birga ularni kompleks tekshirish maqsadida nazorat ishlari o'tkaziladi, bu kontrol ishlar maxsus darslarda amalga oshiriladi. Bu darslarda o'quvchilar mustaqil ishlayilar. Shunga ko'ra ish obyektlari alohi-da sinchiklab tanlanishi ularni tayyorlash jarayonida o'quvchilar bilmaydigan ma'lumot va mehnat usullari bo'lmasligi kerak.

Nazorat ishining mazmuni qaysi sinfda o'tkazilayotganiga qarab belgilanadi. 5-sinfda o'quvchilar juda ko'p texnik hujjatlar bo'yicha, ya'ni mehnat topshirig'ini bajarish uchun zarur hamma ma'lumotlar mayjud bo'lgan hujjatlar bo'yicha ishlaydilar. Shunday qilib, 5-sinfda aslida o'quvchilarning texnik hujjatlardan foydalaniши va buyumning berilgan aniqligiga erishish malakalari tekshiriladi. 4-sinfda nazorat ishi frontal yo'sinda o'tkazilishi mumkin. O'quvchilar keyingi sinflarda ma'lumotlar to'la bo'limgan hujjatlar bilan ishlay boshlaydilar. Shu sababli nazorat ishlarida o'quvchilar faqat murakkabroq ishlov berishni bajarib qolmay, balki chuqur bilimlarini ham ko'rsata olishlari kerak. O'quvchilar chizmalarni o'qishda, asboblarni tanlashda, ishlov berish izchilligida o'zlarining mustaqilliklarini yetarli darajada ko'rsata olishlari uchun 5–7-sinf larda bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish darslarida ish obyektlarini har xillashtirish hamda mashg'ulotlarni tashkil qilishning yakka shaklini qo'llash ma'quldir.

7-sinfda yakunlovchi tekshirish ishi o'tkazilishi mumkin, bu ish o'z ichiga stanoklarda metallarga ishlov berish, chilangarlik ishlari, chilangar-mexanik va elektromontaj ishlarini oladi.

O'qituvchi nazorat ishlari haqida o'quvchilarni oldindan ogohlantirib qo'yadi.

Ko'rib chiqilgan dars tiplari bilan bir qatorda mehnat ta'limi amaliyotida ko'pincha kombinatsiyalashgan darsdan foydalaniladi, bu darsning tavsifli jihat shuki, unda bir vaqtning o'zida ahamiyatga ega har xil ta'limiy vazifalar bajariladi (masalan, yangi bilimlar berish va malakalarni shakllantirish).

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Texnik mehnat darsining farqli xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Mehnat ta'limi darsiga qanday didaktik talablar qo'yiladi?
3. Mehnat ta'limi darsida ta'limiy ishning qanday formalari qo'llanadi?
4. Mehnat ta'limi darslarining asosiy tiplarini ifodalab bering?
5. Mehnat ta'limi darsi qanday asosiy bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin?

4.2. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashning o'qitish metodlari

Reja:

1. «Ta'lim metodlari» tushunchasining tavsifi va turlari.
2. Ta'lim metodlarini tanlash yo'llari.
3. Darslarda kasb tanlashga yo'llash ishlarining forma va metodlari.

Tayanch iboralar: metod, tadqiqot, usul, darsning samarasi, o'quv-bilish faoliyati, o'z-o'zini nazorat, og'zaki bayon qilish metodi, hikoya, tushuntirish, suhbat, ma'ruza, ko'rgazmali metod, namoyish, tushuntirish, ekskursiya, amaliy metod, mashq, laboratoriya, amaliy ishlar.


1. «Ta'lim metodlari» tushunchasining tavsifi va turlari. «Metod» so'zining yunoncha tarjimasi «tadqiqot», «usul», «maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi. Filosofiya lug'atida ushbu tushuncha umumiy tarzda «maqsadga erishish usullari» deya sharhlangan. Aksariyat mualliflar «ta'lim metodlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari»

degan qarashga yon bosadilar. Demak, ta'lim metodlari ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar maj-muidir.

Ta'lim metodlari ta'lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta'lim mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakati, xususiyati aks et-tiriladi. Metod, birinchidan, ta'lim maqsadiga erishish vositasи sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchidan, ta'lim faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.

Ta'lim metodi deganda o'qituvchi va o'quvchilarning birligidagi faoliyat yo'llari tushuniladi. Bular yordamida o'quvchilar bilim, malaka, ko'nikma, kasbiy mahoratlarini egallashga erishadilar, aqliy va jismoniy kuch hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlanadi.

Didaktik jarayon tuzilmasiga ko'ra ta'lim metodlari quyidagi uch guruhga ajratiladi:



Yuqorida ko'rsatilgan metodlar quyidagi tarzda ham nomlanadi:


1. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va bajarish metodlari.
2. O'quv-bilish faoliyatini rag'battantirish va motivlash metodlari.
3. Nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari.

O'quvchiga bilimlarni yetkazish shakliga ko'ra ta'lim metodlari:

1. *Og'zaki bayon qilish metodlari.*
2. *Ko'rgazmali metodlar.*
3. *Amaliy metodlar kabi turlarga ham ajratiladi.*

Ta'lim metodlari tizimida muhim o'rinn tutadigan og'zaki bayon qilish metodlarining o'zi ham quyidagi turlarga ajratiladi:

Og'zaki metod turlari



Og'zaki bayon qilish metodlari o'quvchilarning umumiyligi, madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liq. Og'zaki metodlarga o'quv materialining o'qituvchi tomonidan og'zaki bayon qilinishiga, hikoya, tushuntirish, suhbat, o'quvchilarning texnik adabiyotlar bilan mustaqil ishlashi, yozma instruksiya berish, ovoz yozish, televideniya kabi lar kiradi.

Materialni og'zaki bayon qilish kasb ta'limida hikoya qilish, tushuntirish, ma'ruza, suhbat, o'quv materialini og'zaki bayon qilishning asosiy metodlari hisoblanadi.

Hikoya — o'qituvchi tomonidan o'quv materialini tartibli, mantiqiy, izchil, nisbatan kengroq bayon qilishda foydalaniladi. U puxta reja asosida tuzilishi, materialni bayon qilishda noaniqlikka yo'l qo'ymaslik uchun barcha detallari bilan tayyorlanishi lozim.

Hikoya o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishidir. Metodning samarasini ko'p jihatdan o'qituvchining nuqt mahorati, so'zlarni o'z o'rniда, ifodali bayon qilishi, o'quvchilar yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olishiga bog'liq. Hikoya axborotlar bilan boytilishi kerak.

Hikoya qilinayotgan materialni saralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg'u berishga e'tiborini qaratadi. Hikoya qisqa bo'lishi, o'quvchilar his-hayajon, mavzuga qiziqishni uyg'otishi kerak.

Suhbat savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodidir. Suhbat metodi fanga qadimdan ma'lum, hatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lim jarayonida aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi, o'quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat

o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.

Suhbat faoliyatini endigina boshlagan o'qituvchi uchun murakkab ta'lif metodi hisoblanadi, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta'minlash, uni tashkil etishda esa barcha o'quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O'qituvchi oddiy savollar berishi, o'quvchilarga ular yuzasidan batafsil o'yash uchun vaqt ajratishi, o'quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, ziarur o'rinnarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo'l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o'quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlili asosida umumiy xulosaga kelinadi.

Suhbat turli ko'rinishlarda, ya'ni kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat tarzida tashkil etiladi.

Kirish suhbat o'quv ishlaringin boshida tashkil etiladi. Uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad hal etilishi ziarur bo'lgan ishlar mohiyatining o'quvchilar tomonidan anglab yetilganligini tekshirib ko'rishdan iborat.

Yakuniy suhbat o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Tushuntirish o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo'llaniladi. Undan odatda nazariy materiallar va murakkab masalalarni o'rganishda foydalaniladi. Tushuntirish chog'ida o'quv materialining qiyin o'rinnariga urg'u berilib, mazmun ochiladi. Tushuntirish samarasи o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan foydalanishiga bog'liq. Tushuntirish hikoyaga yaqin bo'lgan ta'lif metodi hisoblanadi. Kasb ta'limalda hikoya va tushuntirishda alohida holda kam foydalaniladi. Masalalarni bayon qilishda, masalan: mashinalar, mexanizmlar tuzilishi yoki texnologik jarayonlarning borishini bayon qilishda ko'pincha hikoya va tushuntirish birga qo'shib olib boriladi. Hikoyani tushuntirish muvaffaqiyatlari o'tkazilishi uchun o'qituvchi o'quvchilarning amaliy tayyorgarligini hisobga olgan holda yetka-ziladigan materialni qabul qila olishlarini tasavvur qilishi kerak. Buning uchun o'quvchilar maxsus texnologiya, materialshunoslik


mavzulari bo'yicha qaysi o'quv materialini o'tganliklarini bilishi muhimdir. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilarni yo'llanma vaqtida savollar yordamida nimalarni eslashlarini tekshiradi va zarur bilimlarni ular xotirasida qayta tiklaydi.

Ma'ruza yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi sanalib, u qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko'pligi, bilimlar bayonining tizimliligi kabi o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi.

Ma'ruza mazmuni murakkab tizimlar, hodisalar, obyektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog'lanishlari, qonun va qoidalardan tashkil topadi, u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. *Ma'ruza* metodi tushuntirish va suhabatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi, bir vaqtida o'quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o'rgata boradi.

Maktab ma'ruzasining samaradorligini ta'minlash shartlari quyidagilardan iborat: ma'ruza rejasini tuzish; o'quvchilarni ma'ruza mavzusi, rejasni bilan tanishtirish; ma'ruza bandlarini mantiqiylik va ketma-ketlikda bayon etish; har bir bandini qisqa-chaga xulosalash; ma'ruzaning bir qismidan ikkinchisiga o'tishda mantiqiy aloqadorlikni ta'minlash; ma'ruzanani muammoli va hissiy tarzda bayon qilish; bunda nutq imkoniyati, misollar, aniq dalillar va qiyoslashlardan foydalanish; o'quvchilarning bilish faoliyatini mahorat bilan boshqarish; ma'ruzaning muhim jihatlarini ochib berish; o'quvchilar ma'ruzaning asosiy o'rinnarini yozib borishlariga imkon yaratish; muhim o'rinnarni ta'kidlab ko'rsatish; ma'ruza mazmunini ko'rgazmali tarzda (namoyish, illyustratsiya, videofilm va boshqalardan foydalangan holda) yoritish.

Ta'lim sifatini oshirishda **ko'rgazmali metodlar** ham alohida ahamiyatga ega. Ko'rgazmali metodning quyidagi turlari mavjud:



Ushbu metodlardan foydalanish zaruriyati ko'rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko'rindi.

Pedagogik-psixologik yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar nati-jalaridan ma’lum bo‘ladiki, shaxs tomonidan o‘zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko‘rish retseptorlari yordamida o‘zlashtiriladi.

Ko‘rgazmali metodlar – bu ko‘rsatmali qurollarni namoyish (ko‘rsatish) qilish, mehnat usullarini ko‘rsatish; o‘quvchilarning mustaqil kuzatishlari; o‘quv-ishlab chiqarish ekskursiyalari.

Ko‘rsatmali qurollarni namoyish qilish (ko‘rsatish) metodi yordamida o‘quvchilarda mehnat harakatlarining muayyan va aniq obrazi shakllanadi. Ular unga taqlid qiladilar va o‘z harakatlarini qiyoslaydilar. Mazkur metodning qo‘llanilishi kasb ta’limida ko‘rgazmalik tamoyilining yaqqol namunasi bo‘lib hisoblana-di. Kasb ta’limi darslarida ko‘rsatmali qurollarning turli xil va shakllaridan foydalanish o‘qituvchining tushuntirishlarini yaxshi idrok qilish hamda o‘zlashtirishlarga, malakalarning mustahkam shakllanishiga yordam beradi. Plakatlar, sxemalar, modellar, maketlarni namoyish qilish bilan bir qatorda harakatdagi ish quroli, asboblar, moslamalar xomashyolar, buyumlarning namunalari va hokazolarni ko‘rsatish ham katta ahamiyatga ega.

Namoyish metodi o‘rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochishda, predmetning tashqi ko‘rinishi, ichki tuzilishi haqida ma‘lumot berishda keng qo‘llaniladi.

Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda, odatda, uning tashqi ko‘rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o‘zaro munosabatlari)ga e’tibor qaratiladi, so‘ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o‘rganishga o‘tiladi. Ko‘rsatish ko‘p holatlarda o‘rganilayotgan obyektlarning subyekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa sinf taxtasiga chizish, maxsus jihozlar yordamida ko‘rsatish hisobiga amalga oshadi.

Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko‘proq samara beradi, biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo‘lavermaydi. Shu sababli tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun’iy muhitga mu-rojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan hayvonot bog‘ida, turli o‘simgiliklar bilan esa issiqxonalarda tanishish), sun’iy obyektlar (maket, model, mulyaj, skelet va boshqalar)dan foydalaniladi.

Metod yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarni mustaqil ravishda obyektlarni o‘rganish, zaruriy o‘lchov ishlarini olib borish, alo-

qadorlikni o'rnatish, hodisalarning mohiyatini anglab yetishga, faol bilish jarayoniga yo'naltirishi lozim. Namoyish samarasi ko'p jihatdan bilish jarayonining o'quvchilar yoshiga mos holda to'g'ri tanlanishi, ularning diqqatini namoyish etilayotgan predmetning muhim jihatlariga yo'naltirishiga bog'liqdir.


O'rganilayotgan mavzuning mazmuniga bog'liq bo'lgan narsa, hodisa va voqealarni hamma vaqt sinf sharoitida namoyish qilish mumkin bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'tilayotgan mavzuning xarakteriga qarab, ekskursiya metodidan ham foydalaniladi. Mazkur metod sinf sharoitida – dars jarayonida qo'llaniladigan ta'lim metodlaridan tubdan farq qiladi. Ekskursiya narsa va hodisalar mohiyatini tabiiy sharoitlar (ishlab chiqarish muassasalar, fermer va jamoa xo'jaliklari, tabiat) yoki maxsus muassasalar (muzey, ko'rgazma zallari va hokazolar)da bevosita o'rganilishining tashkil etilishidir. Ekskursiya bir vaqtning o'zida mustaqil ta'lim turi ham sanaladi.

Ko'rgazmali metodlardan foydalanishda quyidagi shartlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- ko'rgazmalilikning o'quvchilar yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi;
- namoyish etilayotgan obyektlar barcha o'quvchilarga yaxshi ko'rinish turishi;
- namoyishda uning boshlang'ich bosqichi va asosiy jarayon (holat)larning ajralib turishi;
- tajribalar namoyishi maket, jihoz, qurollar yoki tajriba sxemasini chizib ko'rsatish asosida tashkil etilishi;
- namoyish va illyustratsiya o'quv materialining mazmuni bilan uyg'un bo'la olishi lozim.

Amaliy ishlar metodi o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo'naltirilgan jarayonda qo'llashni taqazo etadi, bunda nazariy bilimlarni amaliyatda qo'llash ko'nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlar sifda, tabiiy sharoitlar – maktab yer maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Bu jarayonda sodir etiladigan harakatlar o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi, zarur hollarda yo'riqnomaga yoki maxsus ko'rsatmani o'quvchilar e'tiboriga havola etadi.

Amaliy ishlar metodi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar yordamida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi:



Amaliy metodlarga mashqlar, instruktaj (yo'llanma)lar, o'quv qo'llanmalar bilan ishlash, laboratoriya tajribalari, kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish kiradi.

Mashqlar – kasb-hunar ta'limi jarayonini tadqiq qilish, har bir yangi operatsiyani qisqa muddatli (5–15 minutli) mashqlardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bu mashqlarni shartli ravishda ta'limiy mashqlar deyiladi. Amaliy ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilar har xil buyumlar tayyorlar ekan, mehnat usullari va harakatlarini bajarish bo'yicha mashq qilishni davom ettiradilar. Bunday mashqlarni tayyorgarlik mashqlari deyiladi.

Mashq – aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lidagi ko'p marta takrorlanishlar bo'lib, mashqsiz ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og'zaki, yozma, grafik (texnik jarayonlarni yoritish), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo'linadi.

Yozma mashqlar – ta'limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va mustahkamlash uchun qo'llaniladi. Diktant, insho, masala, misol, referat yozish, tajribani yoritish yozma mashq sanaladi.

Grafikaviy ishlar yozma ishlarga o'xshash bo'lib, ulardan texnik jarayonlar (geografiya, fizika, matematika, chizmachilik, rasm, texnologik ta'lim)da keng ko'lamda foydalaniлади.

Mashqlar samarasи quyidagi shartlar hisobga olinganda bir-muncha yuqori bo'ladi:

- mashqlarni bajarishga nisbatan ongli yondashish;
- bajarish qoidasini bilish;
- vaqt bo'yicha takrorlanishning to'g'ri taqsimlanishi.

Mashq bajarishni tashkil etish bosqichlari: o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi; topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi; o'qituvchi nazorati ostida o'quvchilar tomonidan o'quv harakatining dastlabki bajarilishi;

zarur ko'nikma va malakalar shakllangunicha o'quv harakatlar-ning ko'p bora takrorlanishi.

Ba'zan o'quvchilar ovoz chiqarib o'quv harakatlarini takrorlashlari, bajarishlari lozim. Ular izohli mashqlar deb nomlanib, harakatlar mohiyatini anglagan holda ko'nikma, malakalarni egallashga imkon beradi.

Laboratoriya ishlari o'quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, quroq hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o'tkazish metodlari bo'lib, ular ko'proq tabiiy fanlar asoslarini o'rganishda qo'llaniladi. Metod o'quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko'rish, o'lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, materiallar hamda vaqtini sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi.

Amaliy ishlarning laboratoriyanadan farqi shundaki, u o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy masalalarni yechish faoliyatini tashkil etadi. Metod o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, bilish faoliyatini nazorat qilish, kamchiliklarni tuzatish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Amaliy mashg'ulotlarda bilish faoliyati besh bosqichda tashkil etiladi:

1. O'qituvchining tushuntirishi, faoliyat mohiyatini nazariy jihatdan anglash.

2. Ko'rsatma berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish.

3. Tajribani tashkil etish (unda ikki-uch nafar o'quvchi amaliy harakatlarni bajaradi, qolgan o'quvchilar esa ularning faoliyatini kuzatadi).

4. Faoliyatni tashkil etish (o'quvchi topshiriqni mustaqil bajaradi, qynalgan o'quvchilarga e'tibor qaratilib, ularga yordam ko'rsatiladi).

5. Nazorat (unda o'quvchilarning ishlari qabul qilinib, baholanaadi; ishning sisati, materialning maqsadga muvofiq tanlanganligi, vaqtini tejash, topshiriqni bajarish tizimining to'g'riliği va samaradorligiga e'tibor beriladi).

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning nazariy bilimlari negizida amaliy ko'nikma, malakalarni shakllantirishda **didaktik o'yinlardan** foydalilaniladi. Didaktik o'yin o'rgаниlayotgan obyekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bi-

lishga bo'lgan qiziqishi, faolligini oshiruvchi o'quv faoliyati turidir.

Ta'larning globallashuvi ta'limiy va rivojlantiruvchi xarakterga ega va yo'nalishi jihatidan xilma-xil bo'lgan kompyuter o'yinlarining maktab amaliyotiga jadal kirib kelishini ta'minlamoqda. Didaktik o'yinlar o'quvchilarning ijtimoiy-foydali mehnat hamda o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarning ahamiyati uning natijasi bilan emas, balki jarayonning mazmuni va uning kechishi bilan belgilanadi. O'yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlarni jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ularning turli psixologik zo'riqishlarini kamaytiradi.

2. Ta'limg metodlarini tanlash yo'llari. Ta'limg metodlarini tanlashda quyidagilar inobatga olinishi lozim:

- zamonaviy didaktikaning yetakchi g'oyalari, ta'limg, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari;
- o'rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o'ziga xosligi;
- xususiy fanlar metodikasining o'ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo'yiluvchi talablarning o'zaro aloqadorligi;
- muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;
- u yoki bu mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt;
- o'quvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;
- o'quvchilarning darsga tayyorgarliklari;
- o'quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta'minlanganligi, jihozlar, ko'rsatmali qurollar, texnik vositalar mayjudligi;
- o'qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darjasni, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatlari;
- o'quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o'rnatilganligi.

3. Darslarda kasb tanlashga yo'llash ishlarining shakl va metodlari. Ta'limg jarayonida o'quvchilarni turli xil kasblar bilan tanishtirish bo'yicha muntazam ish olib borish ularni kasb tanlashga yo'llashning muhim sharti hisoblanadi.

O'quvchilarni har bir jamoa, xo'jalik, tuman, shahar ishlab chiqarish muhiti orqali mehnat faoliyatining barcha turlari bilan tanishtirish mumkin, shuning uchun ham har bir mehnat ta'limi

o'qituvchisi mактабда o'рганилайдиган фан доирасидан ташқаридаги, мактаб атрофидаги исхлаб чиқариш мухити билан яхши таниш бо'лиши лозим. Масалан, Ташкент шаҳар мактабларida исхлайотган меҳнат та'лими о'qитувчиси metallarga mexanik ishlov berish darsida slesarlik исхларини o'tayotganda shaharning metall исхлаб чиқарадиган заводи билан таништирishi mumkin. Shuningdek, o'quvchilarni korxona bilan, ya'ni сanoat korxonasiга qachon nom berilgani, исхлаб чиқарадиган mahsulotining nomi hamda asosiy kasb va ixtisosliklarning qisqacha ro'yxatini таништирishni amalga oshiradi.

Biroq o'quvchilarni korxona bilan таништирish батасилоq bo'лиши mumkin. Bunda o'quvchilarni asosiy исхлаб чиқарish bo'limlari (sexlar) bilan, ularning jihozlanishi, har bir sexning konkret mahsuloti, mazkur sexdagi kasb va ixtisosliklarning to'larоq ro'yxati bilan таништирish лозим.

O'quvchilarning o'quv ustaxonalardagi texnikaga oid исхлари уларни исхчи kasbi bilan таништирish bo'yicha katta имкониятлар yaratadi.

Shunga qaramasdan 5-7-sinflardagi меҳнат та'limining mazmuni o'quvchilarda har qanday kasbni egallash uchun babbavar foydali bo'lган umumiy меҳнат bilim va ko'nikmalarini tarkib toptirishga olib keladi, bundan ташқари меҳнат та'лими o'qituvchisi o'quvchilarni zamonaviy texnikaning elementlari, texnologiyasi bilan таништира borib, ularda zarur меҳнат usullari paydo qiladi, shuningdek, o'quvchilarda uyushqoqlik, ozodalik, tejamkorlik xislatlarini tarbiyalab, уларни asta-sekin hayotda o'z yo'llini tanlashga tayyorlaydi.

Maktab ustaxonalari o'z vazifasiga ko'ra o'quvchilar o'quv меҳнатини исхлаб чиқарish bilan bo'lган aloqasini amalga oshiradi. O'quvchilar o'quv ustaxonalariда metallarga ishlov berish stanogida birinchi marta исхlaysilar, bu yerda ular materialga исхlov berish ustida dastlabki ko'nikma va malakalarni hosil qildilar, texnikaga oid fikrlashlari, ijodiy aktivligi va mustaqilligi ortadi, kasb haqidagi bilimlari chuqurlashadi va kengayadi.

Mеhnat та'лими darslari ham, boshqa maktab fanlari qatorи o'quvchilarda havas uyg'otishi лозим, ammo uning manbai og'zaki qiziqtirish emas, balki o'quvchilar o'z maqsad va меҳнат natijalarini ko'ra oladigan ijtimoiy-foyдali xarakterdagi buyumlar (maktablar, korxonalar, otaliqqa олинган bolalar

bog'chasining buyurtmalarini tayyorlashga oid amaliy ishlar bo'limg'i lozim.

Shuning uchun ham, maktab ustaxonalarida mehnat ta'-limining to'g'ri yo'lga qo'yilishi o'quvchilarning kasb tanlashi, ayniqsa ishchi kasbini tanlashida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Ishchi kasbi bo'yicha kasbga oid axborot ishlarining asosiy yo'nalishi, xarakteri mazmunini belgilash uchun mehnat o'qituvchisi o'rganilayotgan dastur mavzusini mashinasozlik ishlab chiqarishi bilan, bu korxonada xizmat qiluvchi xodimlarning yetakchi kasblari bilan yaqindan aloqasini o'rnatmog'i zarur. Shu munosabat bilan mehnat ta'limi o'qituvchisi o'z tumanining ishlab chiqarish korxonalarini hamda bu korxonalarning kasb va ixtisos bo'yicha ishchi kadrlarga bo'lgan ehtiyojini yaxshi o'rganishi lozim.

Olingen materiallar asosida o'qituvchi mehnat ta'limining konkret sanoat korxonasi bilan aloqasini aks ettiradigan jadval hamda mazkur korxona katta ehtiyoj sezayotgan yetakchi ishchi kasblari ro'yxatini e'tibor bilan tuzib chiqishi kerak.

O'qituvchi mehnat darsida dasturning u yoki bu mavzusini o'tish jarayonida, xususan, o'quvchilar tomonidan chilangarlikning metallarga belgi qo'yish, to'g'rilash, bukish, qirqish, arralash operatsiyalarini o'zlashtirishlarida ularni ishchi kasbi bilan qanday tanishtirganini misol asosida batafsilroq ko'rib chiqamiz. Mehnat o'qituvchisi bu operatsiyalarning to'g'ri usullarini ko'rsatib berib o'quvchilar e'tiborini bu usullarning qulayligiga, ish unumдорлиги va sifatiga qaratmog'i lozim.

O'qituvchi o'quvchiga bu topshiriqlarning sifatini pasaytirmagan holda belgilangan vaqt me'yorida bajarishi lozimligini aytadi. O'qituvchi slesarlik operatsiyalarini bajarish paytida o'quvchilarda mehnat usullarini to'g'ri shakllantirishga harakat qilib, ularga agar chilangar-asbobsozlar, ta'mirlovchilar, chilangar-shtampovkachilar bajarishga to'g'ri keladigan ishlar xarakter jihatdan murakkab va mas'uliyatli ekanini tushuntiradi, shuning uchun mehnat usullarini qat'iy to'g'ri bajarish kerakligini aytadi. O'quvchilarni kasblar bilan tanishtirgach, o'qituvchi gazo-elektr payvandchi, ayniqsa, chilangar-payvandchi, chilangar-asbobsoz ixtisosiga ega bo'lgan ishchilar korxonada eng malakali kasb egasi hisoblanishini ta'kidlaydi.

O'quvchilarda kasbga qiziqishni tarbiyalash kasbni to'g'ri tanlashni nazarda tutadigan yetakchi motivlardan biri hisoblanadi. Demak, mакtabda kasb tanlashga yo'llash ishlarining muhim yo'nalishlaridan biri o'quvchilarda kasbga bo'lган qiziqishni aniqlash va o'stirish bo'lmos'i lozim. O'quvchilarining kasbga qiziqishini aniqlash ularning muayyan formada tayyorlangan anketalarni to'ldirish, umumta'lim fanlari bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishlarini o'rganish, ularni o'qitish va kamol toptirish davomida kuzatish, kasb haqida individual suhbatlar, o'quvchilarining to'garaklarga ishtiroki, qiziqish kartasini to'ldirish, o'qituvchi va ota-onalar bilan suhbat kabi didaktik usul va metodlar yordamida amalga oshiriladi.

Olingen ma'lumotlar o'quvchi kasbni (ixtisosni) yoki o'quv yurtini to'g'ri tanlay bildimi, bular uning havasi va qobiliyatiga muvofiq keladimi, nima sababdan mazkur kasbni yoki o'quv yurtini tanladi, ota-onalari va o'qituvchilarining fikri qanday ekanini aniqlash imkonini beradi.

Anketalarni to'ldirishdan oldin o'quvchilarga ular anketadagi savollarga javoblar «o'ylab» topmasliklari, balki o'z qiziqishlari va konkret imkoniyatlaridan kelib chiqmoqlari kerakligi aytildi. Haqiqatga muvofiq kelmaydigan javoblar o'qituvchini chalg'itadi va o'quvchilarining kasbga qiziqishlarini shakllantirishga doir masalalarni ancha murakkablashtiradi.

Anketa ma'lumotlarining tahlili asosida fan o'qituvchisi, sinf rahbari har bir o'quvchining kasbga bo'lган qiziqishi va qiziqishining barqarorlik darajasini, ishonchliligini diqqat bilan o'rganadi, ana shu asosda o'quvchilar qiziqishini yanada rivojlan Tirish bo'yicha tashkiliy-metodik tadbirlar belgilaydi, o'quvchida xato yoki noaniq istaklar bo'lган taqdirda tushuntirish ishlari kasbga oid suhbatlar olib borishi kerak bo'ladi. Biroq kasbga qiziqish bo'yicha bir martagina o'tkazilgan anketa usuli natijasidagi ma'lumotlar mакtabni bitirguncha obyektiv va o'zgarmas bo'lib qoladi, deb oylyash xato bo'lar edi. Gap shundaki, o'quvchilarining u yoki bu mehnat faoliyatini tanlash bo'yicha mayl va qiziqishlari har xil bo'lib, barqarorligi esa puxta sanalmaydi. Kasbga bo'lган havas dinamikasi va rivojini kuzatib borish uchun bunday anketa tarqatish usulini har bir sinfda har yili o'tkazilgani ma'qul.

U yoki bu o'quvchining kasb tanlashida yuz berayotgan o'zgarishlarni o'qituvchi va sinf rahbari diqqat bilan kuzatishi,

o'rganishi, sabablarini aniqlashi kerak. Shunday aniqlashlardan keyingina mazkur o'quvchining kasbga havasi va mayliga doir keyingi ishlar to'g'risida oylash mumkin.

O'quvchilarning kasbga qiziqish masalasi ko'rib chiqilganda yuz beradigan o'zgarishlarning sifat jihatdan farqlanadigan to'rt xil darajasini nazarda tutmoq zarur:

1. Oldingi qiziqish keyingi sinfda mustahkamlanadi va rivojlanadi.

2. Oldingi qiziqishni aniqlash va kasb haqida tasavvur qilish paydo bo'ladi.

3. Dastlabki qiziqish boshqasi bilan bog'lab, asoslab tanlangani bilan almashinadi.

4. Mehnatning u yoki bu turiga nisbatan dastlabki paydo bo'lgan qiziqish unchalik o'ylab tanlanmaganligi tufayli so'na boshlaydi, uning o'rniqa boshqasi paydo bo'lishi mumkin va, aksincha, kasbga qiziqish butunlay so'nishi ham mumkin. Bunday hol kichik va o'rta yoshdagi o'quvchilarning hali ongli ravishda o'ziga kasb tanlay bilmasligi kasbga havas asta-sekin rivojlanib borishi bilan izohlanadi, uni mustahkamlash uchun esa kasb tanlashga oid ishlarni tinimsiz amalgalash kerak bo'ladi.

Kasbga barqaror va asosli qiziqish o'quvchilarning faoliyat turlari o'quv, mehnat, sinfdan tashqari ishlar va hokazolar bilan mustahkamlanishi zarur. Ammo qiziqishning chuqur va qat'iyligi, avvalo, uning amaliy faoliyatda yanada mustahkamlanishiga bog'liq. Shuning uchun ham qishloq xo'jaligi, texnikaga oid hamda xizmat ko'rsatish mehnati darslari va texnika ijodkorligi to'garaklari ko'proq bu talablarga javob beradi.

Qishloq maktablari o'quvchilarida kasbga qiziqishni tarkib toptirish uchun mehnat ta'limining qishloq xo'jaligi tajriba uchastkasi, o'quvchilar brigadasi, yosh mexanizatorlar, ixtirochilar, tabiatshunoslar to'garaklari singari metod va formalaridan foydalanish mumkin.

Qishloq maktablarida mehnatga tayyorlash ishlaringning yaxshi yo'lga qo'yilishi o'quvchilarda qishloq xo'jaligi kasblariga qiziqish imkonini beradi, ya'ni ular agrotexnika bilim va ko'nikmalarini egallaydilar, qishloq xo'jaligining turli sohalarida foydalanish mumkin bo'lgan mehnat faoliyatiga tayyorlanadilar. Ayniqsa, qishloq yoshlarining qishloq xo'jaligida eng ko'p tarqalgan mexanizatorlik kasbiga intilishlari qayd qilinadi. Mexanizator mehnata

ting qiziqarli tomoni shundaki, bunda mashinalar tizimsiz o'simliklarning rivojlanish biologiyasi hamda qishloq xo'jaligi ishlaringning mavsumiyligini hisobga olgan holda yaratiladi, shuning uchun ham o'quvchilarning texnikaga oid bilim va ko'nikmalari agrotexnika bilimlari bilan birgalikda olib borilishi kerak.

O'quv korxonalarida mehnat darslarining yaxshi yo'lga qo'yilishi o'quvchilarning sanoat mehnatining har xil turlariga ishtiroy etishlarida hal qiluvchi ahamiyat o'ynaydi. Ammo bu masalada erishiladigan muvaffaqiyat ko'pincha o'quvchining o'ziga, uning intizomliligi, tirishqoqligi, ishga oylab, jiddiy munosabatda bo'lishiga bog'liq.

O'quvchilarning metallga ishlov berish stanoklarida qo'l va mexanizatsiyalashgan asboblar yordamida konkret o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarishi ularni sanoat ishlab chiqarishida ko'proq tarqalgan turli xil ixtisosliklar: chilangarlik, tokarlik, frezerlik, randalovchi, parmalovchi singari kasblar bilan tanish-tiribgina qolmay, balki ularda mehnatning bu turdosh kasblarni egallashga bo'lgan qiziqishini ham rivojlantiradi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. «Ta'lif metodlari» tushunchasini izohlab bering.
2. Ta'lif metodlarining qanday guruhlari bor?
3. Darslarda kasb tanlashga yo'llash ishlarining qanday forma va metodlarini bilasiz?
4. Og'zaki bayon qilish metodlari qanday turlarga ajratiladi?
5. Ko'rgazmali metodlardan foydalanishda qanday shartlarga amal qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi?
6. Amaliy metodlardan foydalanishda qanday usullar qo'llaniladi?
7. Amaliy mashg'ulotlarda bilish faoliyati nechta bosqichda tashkil etiladi?

4.3. Mehnat ta'lifi, kasb tanlashga yo'llash o'quv jarayonida ta'lif vositalaridan foydalanish metodikasi

Reja:

1. Ko'rgazmali qurollar va ularni tanlash.
2. Hozirgi zamon o'quv vositalarining tavsifnomasi.
3. O'qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari.

Tayanch iboralar: ko'rgazmali qurol, nomoddiy ko'rgazmali qurol, moddiy ko'rgazmali qurollar, doska, sxema, tarqatiladigan materiallar, proyektor, diagramma, grafik.

1. Ko'rgazmali qurollar va ularni tanlash. Darsni tashkil etishda ko'rgazmali qurollar muhim o'rin tutadi. Didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri darsning ko'rgazmaliligini ta'minlash. Ayniqsa, mehnat ta'limini o'qitishda ko'rgazmali qurollardan foydalanish o'quvchilarga iqtisodiy kategoriyalarni, muammolarni o'rganishda katta yordam beradi.

Ko'rgazmali qurollar yordamida o'quvchilar bir vaqtning o'zida muhokoma qilinayotgan savolni, axborotni ham eshitish, ham ko'rish orqali qabul qilishi shubhasiz ularni puxta bilim olishlariga yordam beradi.

Ko'rgazmali qurollar xilma-xil taraqqiyotining o'zi bir tomon dan, fanni chuqur o'zlashtirishni zarur qilib qo'ysa, ikkinchi tomon dan, dars berishning turli-tuman yangi usslublari ko'rgazmalilikni oshirish, texnik vositalardan foydalanish, ularni qo'llashni takomillashtirish orqali bilim olishni osonlashtirish, qiziqarli jarayonga aylantirishga yordam beradi. «Bilim olish ignada quduq qazish bilan barobar» degan naql bejiz emas, chunki u nihoyatda mashaqqatli mehnat. Sabr-toqatni talab qiladi. Tabiiyki yoshlarda energiya ko'p, sabr-toqat esa yetishmaydi.

Eng yuqori malaka, tajribaga ega o'qituvchilar ham darsdan ko'zlangan maqsadga erishish, o'quvchilarning mavzuni puxta o'zlashtirishlari uchun doimo auditoriyaga qarab, dars mashg'ulotini ma'lum bir tartibda avvaldan qanday tarzda, qaysi metodlarni qo'llab o'tkazishini o'ylab qo'yishi, rejalashtirishi kerak.

Darsning tuzilishi psixologik va pedagogik tamoyillarga ko'ra tashkil etilishi va darsda vaziyatning o'zgarishi, o'quvchilarning tayyorgarligi va boshqa sabablarga ko'ra moslashish imkoniyatini beradigan tarzda bo'lishi kerak. Darsni qanday tashkil etishni rejalashtirish, yo'l ko'rsatuvchi yo'llanma tarzidagina bo'lishi mumkin. U hamma eshikni ochadigan kalit emas. Sabbiti: birinchidan, o'quv xonalar, o'quvchilarning darsga tayyorlanib kelishi, darsga faol qatnashish darajasi bilan sinflar farq qiladi. Ikkinchidan, mavzular bir-biridan farq qilib, masalaning mazmunini ochib berishda turli usullar qo'llashni taqazo etadi.

Uchinchidan, o'quvchilar jonli mushohada yurituvchilar ekan, albatta bir dars ikkinchisidan farq qiladi. Kutilmagan vaziyat sodir bo'lishi mumkinki, u ham albatta dars o'tishga ta'sir qiladi, dars tarkibini o'zgartirishga olib keladi, bunda o'qituvchi mohir dirijor orkestrni boshqarganday auditoriyani boshqarishi kerak. Lekin ko'rgazmalilikni har qanday sharoitda ta'minlash mumkin.

Dars jarayonida so'z bilan o'qituvchi tomonidan yodga tu-shirish, o'quvchilarning xayolida gavdalantirish mumkin bo'lgan ichki, xayoliy ko'rgazmali qurollar: adabiyot, san'at asarlari, badiiy film, badiiy asar qahramonlari hayotida yuz beradigan turli vo-qea, vaziyatlardan odatda keng foydalaniladi. Har bir darsni bosh-laganda eng avvalo o'qituvchi o'tilgan mavzuni o'quvchilarining yodiga tushiradi. Yangi mavzuni boshlar ekan, o'quvchilar diqqati-ning unga jalb qilish, fikrini yo'naltirish uchun adabiyot, san'at asarlarini yoki hayotda yuz bergen biror voqeani gapirib berish mumkin. Bu yangi mavzuni o'rganishga o'quvchilar ruhi, kayfiyatini tayyorlaydi.

Mashg'ulot jarayonida ko'rsatib izohlash mumkin bo'lgan ko'rgazmali qurollar: jadval, sxema, plakat, chizma, diagramma va boshqalardan foydalanish o'quvchilarning bilimini puxtalash-tirishda muhim rol o'ynaydi.

Darsda doskani ishlatish ko'p vaqt ni oladigan, boshqa texnik vositalardan foydalanishga imkonli yo'q auditoriyalarda plakat, chizmalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Jadval, sxema, grafik, diagrammalardan foydalanish universal:

- avvaldan slayd plyonkalarga chizib, texnik vositalar yordamida ko'rsatilishi;
- vatman qog'ozga chizib, texnik vositalardan foydalanish uchun sharoiti yo'q auditoriyada foydalanish;
- kserokopiyadan chiqarib, tarqatma material sifatida foydalanish;
- disketga kiritib, kompyuter orqali ko'rish, tahlil qilish mumkin.

Xullas, ko'rgazmali qurollardan foydalanish darajasi keng, ulardan qanday tarzda, qanday maqsadda foydalanish o'qituvchiga bog'liq.

O'qituvchi ko'rgazmali qurol tanlar ekan, albatta, avvalo, ma'ruzami yoki seminar darsimi ekanligini hisobga oladi. Ikkin-

chidan, qaysi mavzu, bu mavzuda o'qituvchi o'quvchilar oldiga nima vazifa qo'ymoqchi, maqsadi nima, muhokama qilinayotgan muammoni yechishda ko'rgazmali quroq qanday yordam berishi mumkinligini hisobga olib tanlashi kerak.

Masalan, jadval raqamlaridan ma'ruzada biron gipotezani, ilgari surilayotgan fikrni tasdiqlash maqsadida foydalanilsa, seminar darsida masala yoki mashq bajarganda foydalanish mumkin. Bunda ham ko'rgazmali qurollardan foydalanish darajasi o'qituvchining mohirligi, fantaziyasiga bog'liq.

Keyingi paytda darslarda tarqatma materiallardan foydalanish tobora keng qo'llanilmoqda. Tarqatiladigan materialning muhim ijobjiy tomoni shundaki, u bevosita o'quvchining qo'lida bo'lib, uzoqdan ko'rsatiladigan ko'rgazmali qurollarga xos kamchiliklar dan xoli.

Ko'rgazmali qurollarning afzalligi shundaki, uni dars o'tishning barcha shakllari, metodlarida qo'llash mumkin. Ayrim mavzularni esa umuman namoyish qilinadigan materiallarsiz, ko'rgazmali qurollarsiz o'tib bo'lmaydi.

2. Hozirgi zamon o'quv vositalarining tavsifnomasi. Hozirgi zamon o'qitish vositalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Natural (tabiiy) obyektlar. Tabiiy obyektlar sirasiga joni li va jonsiz tabiat obyektlari kiradi, o'quvchilar ular bilan mashg'ulotlarda tarqatma yoki nomoyish qilinadigan materiallar shaklida tanishadilar. Ko'rgazmalilik – tabiiy obyektlarni tanlab olish yoki tabiiy obyektlarni o'z ichiga tarkibiy qism qilib kiritgan turli qo'llanmalarini loyihalashga qo'yiladigan asosiy tabablardan biri.

Shu maqsadda o'rganilayotgan tushunchalarning mazmuni ni ochib berish uchun kerak bo'lgan ayrim tipik belgilarni aniq ifodalashga yordam beradigan obyektlar ajratib olinadi. Natural obyektlarning qo'lyozmaligini kuchaytirish uchun turli kodlash usullari qo'llaniladi: rangli, raqamli, harfli. Tabiiy obyektlarni o'qitish jarayonida ular bilan ishlash uslublaridan asosiyları kuzatish va tajriba o'tkazish hisoblanadi. Ko'rgazmali qo'llanmalar sifatida ishlatiladigan tabiiy obyektlarga, avvalo uning jihoz va moslamalariga maxsus ishlov berish zarur: ularni kesish, ayrim belgilarga maxsus rang berish, qopqoqlarning qobig'ida ko'rish tuynuklarini ochish, ichki bo'shlilarni yoritish, lampa yoki signal beruvchi o'rnatish va hokazo.

O'quv modellari, mulyajlar, maketlar. Modellar tabiiy obyektlarning sun'iy ko'rinishi bo'lib, ularning muhim sifatlari, aloqlari va munosabatlarini qayta takrorlaydigan o'quv ko'rgazmali qo'llanmalar hisoblanadi. Orginal obyekt (mikro- va makroobyektlar) xususiyatlarini ko'rsatishda shartlilik (ramziylik)ka amal qilinadi, razmerni kattalashtirish yoki kengaytirish orqali obyekt qurilmasi sxema tarzida aks ettiriladi. Modellarning eng keng tarqalgan tipik turlari bu moddiy (predmet) modellardir. Modellar o'z hajmiga ega yoki tekis modellarga bo'linadi. Ularning oralig'ida relyef jadvallar joylashgan. Hajmga ega modellar tarkibiy qismlarga bo'linishi mumkin (mufta va o'zagi (atom yig'indisi bilan)), qismlarga bo'linmaydigan, qimirlamaydigan, (belgilash kompleksi) va harakatlanuvchi (ichki yonish dvigatelli, nasos) bo'ladi. Hajmga ega bo'lgan modellar sirasiga mulyaj va maketlar kiradi. Ular ham umumta'lim ham texnika fanlarini o'qitish jarayonida qo'llaniladi. Mulyaj (maket)lar deya biz shunday obyektlarni aytamizki, ular moddiy obyektlarga aynan o'xshatib yaratilgan qo'llanmalardir.

Mulyaj va maketlar atrof-muhit hodisalari predmetlarning tashqi belgi va xususiyatlarini o'rganishda qo'llaniladi. Modellar o'rganilayotgan obyektlarning ichki qurilmasi va harakatlanish tamoyili mashina va mexanizmlarning kinematikasini o'rganilayotgan vaziyatlarda boshqa aloqalar va munosabatlar mazmunining ham o'rganilishiga imkoniyat beradi.

O'quvchilarga taqdim etiladigan model va mulyaj (maketlar)lar ham xuddi tabiiy obyektlar singari demokratsion va tarqatma qo'llanmalarga bo'linadi. Turli xil modellarni loyihalashtirishda bu turdag'i o'qitish vositalarining funksiya va didaktik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda umumiyligi pedagogik-ergonomik talablarni ilgari surish mumkin, ya'nii axborotlashgan, o'quv jadvali faoliyatining aniq usullariga adekvantlik (o'rganish, qabul qilish, plakat, sxema, diagramma, grafik, va boshqalar) aniq bir tu-shuncha, ko'nikma va bilimlarni shakllantirishda qo'llaniladigan tekis moddiy o'qitish vositasidir. O'quv jadvali aniq va ko'rgazmali holda o'rganilayotgan obyekt haqida ilmiy axborot beradi. Jadvallar turli xil bo'ladi:

- Kompozitsion – rasm va fotosuratlar.
- Grafikli: (chizma, diagramma, sxema va boshqalar).
- Belgili – ramziy formula, harf va so'zlar bilan ifodalanuvchi.

So'nggi paytda elektrlashgan jadvallar keng qo'llanilmoqda, ya'ni, stendlar, xavfsizlikka oid texnikalar.

O'qitish vositalari orasida eng ko'p qo'llanilayotgan vositalar bu plakatlardir. Plakatlar quyidagi talablarga javob berishi shart:

- plakatning mazmuni o'rganilayotgan mavzuga oid bo'lishi;
- plakatda ifoda etilgan chizma yetarli darajada katta va uzoq-dan ham ko'ra olish imkonini berishi kerak;
- plakatdagi obyektlar tabiiy holatlarida ko'rsatishi shart;
- plakatda tasvirlangan chizmalarning qismlari masshtab mutanosibligi asosida berilishi kerak;
- eng e'tiborga loyiq qismlar alohida (boshqa) rang bilan ajratib ko'rsatilishi lozim.

Ekran va ekran tovushli o'qitish vositalari hozirgi zamonda juda keng tarqalgan o'qitish vositalaridandir. Bu o'qitish vositalariga qo'yilgan talablar eng avvalo ular mavzuga oid, ikkinchidan, sifatlari bo'lishidir.

Diapozytiv (slayd) bu harakatlanmaydigan o'qitish ekran vositasidir. Diapozytiv aks etgan chizma va rasmlar odatda plakat-dagidan yaxshi qabul qilinadi.

Diapozytiv — bu qulay o'qitish vositasi, chunki o'qituvchi yordamida materialning bir qismini yoki bir kadrni alohida ko'rsatish mumkin. Har bir kadr to'liq bir informatsiyaga ega. Diafilm ham harakatlanmaydigan ekran vositasidir. Bu qo'llanmalarning uslubiy g'oyasi mualliflarning kadrlar ketma-ketligini ta'minlanishiga e'tibor berishlaridir. Kadrlarning ketma-ketligi o'zgarsa informatsiyaning qabul qilinishida mazmun buzilishi ro'y beradi. Diafilmlarni qo'llashdagi qiyinchilik ulardagi axborotning ko'pligi va ularni qabul qilib olish uchun vaqtning yetmasligidir.

Bu qiyinchilik darsda diafilmlarning ayrim fragmentlarini (bo'laklarini) ko'rsatish orqali yengillashtiriladi.

So'nggi yillarda o'quv filmlari ishlab chiqarilmay qo'ydi. Ularning o'rnnini o'quv video yozuvi, informatsiyani aks ettiruvchi ekran — tovushli kino vositalari, radio, televideniya, videofilm va diapozytivlar egalladi.

Video yozuvi qancha lozim bo'lsa, shuncha marta takror-lanishi mumkin, vaqt ko'rsatkichi asosida kerakli informatsiyani yozish mumkin. Videokamera yordamida yozib olish juda katta imkoniyatlarni ochib beradi. Kelajakda o'qituvchilarni tayyorlash

va ularning malakasini oshirish maqsadiga xizmat qiluvchi video yozuvi tizimlari chiqiladi.

O'quv materialini mustaqil o'rganishda o'quv yozuvlari katta ahamiyatga ega.

O'quv asboblari, moslamalari, laboratoriya asoslari tizimning o'ta ahamiyatli bo'lgan qismini tashkil qiladi. Avvalo, u yoki bu asbob nima uchun xizmat qilishini aniqlaylik.

Trenajerlar – texnika vositalarining alohida guruhiga kira-di. Trenajerlar mehnat ishlab chiqarish sharoitlarini imitatsiya (o'xshatish) qiladi.

Trenajorlar uch guruhga bo'linadi:

– Avtomobil va kimyoviy ishlab chiqarish texnologiyasining trenajerlari (modellashтирish yordamida o'rganiladi).

– Aniq bir intellektual faoliyat bilan bog'liq bo'lgan trenajerlar. Masalan: trenajer-imitatorlar, stanoklarni naladka qilish imkonini beruvchi trenajerlar.

– Biror bir harakatlanish ko'nikmasini hosil qilish uchun trenajerlarning alohida turi qo'llaniladi. Masalan: metallni arralash, detallarning figurali qilib yasalishi uchun xizmat qiluvchi trenajerlar.

3. O'qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari. Umumta'lim maktablari va o'quv-moddiy bazalari hozirgi zamon o'quv jarayonida bir necha yo'nalishda rivojlanadi:

– o'quvchilarning o'quv texnika vositalariga nisbatan ijobjiy yondashuvi va ulardan samarali foydalanishga nisbatan ijobjiy munosabatlarni shakllantirish;

– o'quv ko'rgazma vositalarini qo'llash;

– o'qitish vositalarining o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi.

Hozirgi paytda to'rtta yo'nalishdagi yangi informatsion texnologiya o'qish jarayonida qo'llanilmoqda:

- Nashriyot texnologiyalari.

- Telekommunikatsiya.

- Katta maketlar va ommaviy axborot vositalari.

- Kompyuter robototexnikasi.

Hozirgi kunda ilg'or texnologiyalardan foydalanish borasida qator qarorlar qabul qilingan. Ushbu texnologiyalardan foydalanishga tibbiyot xodimlari va psixolog mutaxassislar tekshiruvidan so'ng ruxsat berilishi lozim. O'qitish vositalarining afzalligi ularning yuqori texnologik imkoniyatlari bilangina emas, balki

eng avvalo o'qitish samaradorligini oshirishdagi pedagogik xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu vositalarning ayrim didaktik imkoniyatlarini ko'rsatib o'tish kifoya. Masalan: tabiiy va texnikaga oid fanlarni o'rganish jarayonida yangi informatsion texnologiyalar asosidagi o'qitish vositalari tizimi, xususan, datchik va moslamalar majmui o'rganilayotgan shaxsga izlanishni keng ko'lama olib borish imkonini beradi.

— Tadqiqot yoki uning bir bosqichini bir necha marta takrorlash lozim bo'lganda o'lchamlarini qayd qilib yozib borish.

— Modellasshtirishning turli xil yo'llari, xususan, tajriba natijalarini qo'llash.

— Olingan ma'lumotlarini qayta ishlashda avtomatlashtirishning yuzaga kelishi.

— O'rganilayotgan materialning turli shakllardagi tushuncha va tasavvurlarini vizuallashtirish (ko'rgazmali qilish).

— Texnikaviy moslama va mexanizmlarga taqlid qiluvchi robotlarni yaratish.

Turli xil yo'nalishlarga mo'ljallangan ishlab chiqarish dasturlari foydalanuvchilar oldida bilim olish sohalarida keng imkoniyatlarni yaratadi. Ta'lim oluvchi nafaqat tayyor informatsiya asosida ishlaydi, balki o'zi ham maketlar yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi, matematik masalalarni yechish, turli vaziyatlarni modellasshtirish, tabiiy fanlar, iqtisodiyot, ekologik va gumanitar fanlar bo'yicha tadqiqotlar olib borish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Masofadan turib o'qitishning kelajagi porloqdir. Masofadan o'qitish kompyuter texnologiyalari asosida amalga oshiriladi. O'qitish jarayonini kompleks ravishda tashkil etishga katta ahamiyat beriladi. O'qituvchi-pedagog bu tizimni mukammal bilsishi shart. O'qitish vositalari turli xil funksiyalarni bajarish bilan birga qator imkoniyatlarga ham ega. O'qitish jarayonlari uchta asosiy funksiyani bajaradi: ma'lumot berish, tarbiyalash hamda rivojlantirish. O'qitish jarayonini ko'rgazmali tashkil etishda kompleksli o'qitish, pedagogik jarayonning barcha asosiy funksiyalari o'qitish vositalari orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayonini o'qitish vositalari bilan ta'minlashda iqtisodiy yondashuv zarur. Tanlangan kasb-hunarning istiqbolli ekanligi va ommaiyligi o'qitish vositalarining kompleksligi asosida loyihalashtirilishi kerak. Ikkinchidan, shunday vositalarni tanlash va yaratish

kerakki, ular o'quv-tarbiyaviy masalalarni eng kam sarf-xara-jatlar bilan amalga oshirishni ta'minlasin. O'qitish vositalaridan kompleks foydalanishning samaradorligini oshirish uchun ularni qo'llashda ratsional jihozlanishga nisbatan aniq talab va tavsiyalar qo'yilishi lozim. Talab va tavsiyalar esa quyidagilardan iboratdir: ko'rgazmali qurol, tarqatma material va darsda qo'llanilayotgan o'qitish vositalarini keragidan ortiq darajada qo'llamaslik; darsda qo'llaniladigan vositalar (plakat, sxema, model, maket, mulyaj, detal va boshqalar) har doim oldindan ko'rib chiqib tanlab olin-gan va foydalanishga tayyor bo'lishi kerak; texnik vosita va boshqa ko'rgazmali qurollarni oldindan ishlatib ko'rish lozim; individual qo'llash uchun tanlangan didaktik ko'rgazmali qurollar va boshqa qo'llanmalar barcha o'quvchilar uchun yetarli bo'lishi kerak; ko'rgazmali qurollarning yetarli darajada ko'rishi va eshitilishi ni ta'minlash; har bir didaktik materialning qo'llanilish maqsadi va o'rnnini aniq rejalashtirib olish lozim.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Darsni tashkil etishda ko'rgazmali qurollarning roli nimalarda ko'rindi?
2. Ko'rgazmali qurollar o'quvchilarni puxta bilim olishlari uchun qanday yordam beradi?
3. Mashg'ulot jarayonida ko'rsatib izohlash mumkin bo'lgan ko'rgazmali qurollar turlariga nimalar kiradi?
4. O'qituvchi mashg'ulotlarga ko'rgazmali qurollarni tanlashda nimalarga e'tibor beradi?
5. Hozirgi zamon o'qitish vositalariga nimalarni kiritish mumkin?
6. Trenajerlar haqida ma'lumot bering.
7. O'qitish vositalarining rivojlanish istiqbollari haqida qanday fikrlarni bildira olasiz?
8. O'qitish vositalaridan kompleks foydalanishning samaradorligini oshirish uchun qanday talab va tavsiyalar beriladi?

4.4. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslarida amaliy darslarni tashkil qilish metodikasi

Reja:

1. Mehnat darslarining xususiyati va tarkibi.

2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.
3. Sinfdan tashqari amaliy mashg'ulotlarni olib borish turlari.

Tayanch iboralar: o'qitish shakllari, malakali ishchi, o'quv sexlar, yo'riqnomalar, ijtimoiy mehnat, unumli mehnat, musobaqa, mehnat brigadalari.

1. Mehnat darslarining xususiyati va tarkibi. Dars muktabdag'i ta'lif ishining asosiy tashkiliy shaklidir. Bu gap, jumladan texnik mehnat uchun ham taalluqli. Ustaxonadagi mashg'ulotlarda dars mehnat ta'lilining asosiy vazifalarini amalga oshirish, yangi materialni bayon qilishni amaliy topshiriq berish va uni hal qilish bilan yaxshi bog'lash, o'quvchilarini faollashtirish, ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishni amalga oshirish imkonini beradi.

Amaliy mashg'ulot deganda o'quvchilarining o'quv materialini faol, ongli va mustahkam o'zlashtirish maqsadida mehnat o'qituvchisi rahbarligida amalga oshiriladigan ham jamoa, ham yakka holdagi ish turlarini o'z ichiga oladigan o'quv mehnat faoliyatini aniq tashkil etishni tushunish kerak.

Mehnat sohasidagi amaliy mashg'ulotlar turli xilda bo'lishi, ya'ni yangi texnik-tehnologik ma'lumotlarni mehnat operatsiyalarini o'rganishga, bilimlarni, mehnat ko'nikmalari va malakalarini mustahkamlashga, nazorat-tekshirish ishlari, korxonalarga ekskursiyalar o'tkazish va hokazolarga bag'ishlangan mashg'ulotlar bo'lishi mumkin. Lekin o'quv ustaxonalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarning turlari xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, ularning hammasi quyidagi umumiy talablarni qondirishi lozim:

- Mashg'ulotning maqsadi hamda vazifalari aniq va ravshan ifodalangan bo'lishi lozim.
- Mashg'ulotning tarkibini didaktik jihatdan ketma-ket (bilim ko'nikma, malaka, mahorat) va o'quv materialining mazmuniga to'liq javob beradigan bo'lishi kerak.
- Amaliy ishlarning obyekti to'g'ri tanlanishi, ijtimoiy foydali qiymatga ega bo'lishi va o'rganiladigan mehnat operatsiyalari va usullarining talablariga muvofiq kelishi zarur.
- Mashg'ulotlarda foydalilaniladigan mehnat ta'limi metodlari dars talablariga va o'quv materialining mazmuniga to'liq javob berishi lozim.

- O'quv ustaxonalarida mashg'ulotning tashkiliy-metodik tuzilishi o'quvchilar bilan jamoa va yakka holda ish olib borishni nazarda tutishi kerak.

- Mehnat ta'limi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda o'tkaziladigan ta'lim ishlari tarbiyaviy tavsifga ega bo'lishi, ya'ni mакtab o'quvchilarida qayta ko'rish ma'naviy sifatlarini tarkib topishiga yordam berishi lozim.

Mehnat sohasidagi amaliy mashg'ulotlar turlarining xilmalligiga qaramasdan, ulardagi umumiy didaktik elementlarni ham ta'kidlab o'tish kerakki, bular o'quvchilarni navbatdagi o'quv materialini o'zlashtirish uchun jalb qilishga qaratilgan mashg'ulotlarni uyuştirish; o'quvchilarning oldingi mashg'ulotlardan o'zlashtirgan bilimlari, mehnat ko'nikmalari va malakalarining darajasini tekshirish, yangi materialni tushuntirish va mehnat operatsiyalarini hamda amaliy ishlarni bajarish vaqtida mehnat usullarini ko'rsatib berish; o'quvchilarning yangi mavzuga oid operatsiyalar va ishlarni bajarish vaqtida ularning bilimi, mehnat usullari darajasini aniqlash; mehnat usullarini mashqlar bilan mustahkamlash va ularni dastlabki mehnat ko'nikmalari darajasiغا yetkazish. Bunda mehnat o'qituvchisining puxta nazorat qilishiha erishish; amaliy topshiriqning mustaqil bajarilishi va o'tgan mashg'ulotning natijalariga yakun yasashdan iborat.

Yuqorida sanab o'tilgan elementlar amaliy mashg'ulotning tarkibini tashkil etadi. Shunday qilib, amaliy mashg'ulot tarkibi deganda didaktik elementlarning qat'iy izchilligi va o'zaro bog'lanishidagi nisbatni tushinish kerak, ular esa mashg'ulot maqsadlari va o'quv materiallarining mazmunini taqazo qiladi.

Mehnat darslari boshqa o'quv fanlariga nisbatan qator xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Darsda markaziy o'rinni o'quvchilarning amaliy ishlari egallaydi (taxminan 80%). Shu munosabat bilan ustaxonalardagi mashg'ulotlarni qo'shaloq darslar sifatida o'tish ma'qullangan. 45 minutlik darsning noqulayligi shuki, unda o'quvchilarning bevosita amaliy ishlariiga juda kam vaqt qoladi. Uning ko'p qismi ish o'rnini tayyorlash va yig'ishtirishga, o'qituvchining yo'riqnomasiga ketadi. 90 minut davomida o'quvchilar ma'lum mehnat topshirig'ini bajarishga ulguradilar, bu esa ularga ma'naviy ko'nikish bag'ishlaydi va o'qituvchiga ish natijalarini baholash imkonini beradi.

2. O'quvchilarning amaliy ishlari unumli mehnat bazasida tashkil qilinadi.

3. Ustaxonalardagi mashg'ulotlarda o'quvchilar har xil qirquvchi asboblar yordamida ishlaydilar, materiallarga stanokda ishlov berishni bajaradilar. Shu sababli dars uni o'tkazishning xavfsizligini ta'minlovchi maxsus tayyorgarlikni talab qiladi.

Mehnat darslari tarkibi. Mehnat darslari ushbu bosqichlardan tashkil topishi mumkin: o'quvchilarni uyuştirish; yo'riqnomalar, yangi materialning bayoni, o'quvchilarning mustaqil ishlari, yakunlovchi yo'riqnomalar, ustaxonalarni tozalash. Bularni batafsilsiroq ko'rib chiqamiz:

O'quvchilarni uyuştirish. Darsning sifati ko'p jihatdan uning qanday uyushqoqlik bilan boshlanishiga bog'liq. Agar birinchi minutlardanoq o'quvchilar o'qituvchining talabchanligini sezmasalar, o'zlarini mehnat jamoasining a'zosi ekanliklarini, oldilarida muayyan o'quv-ishlab chiqarish vazifalari turganini his etmasalar, bu hol darsda intizomning buzilishiga, o'quvchilar aktivligining pasayishi va hokazolarga olib kelishi mumkin. Mana shuning uchun tajribali o'qituvchilar darsning tashkiliy jihatni bilan bog'liq birinchi minutlariga katta e'tibor beradilar.

Mehnat ta'limi darslari o'tkaziladigan xonalarga o'quvchilar guruh bo'lib o'qituvchi bilan birgalikda uyushgan holda keladilar. Jarohatlanishlariga sabab bo'ladijan xatti-harakat qoidalari buzilshining oldini olish uchun o'quvchilarning ustaxonada yolg'iz qolishlariga ruxsat etilmaydi.

Xonaga kirishlari bilan o'quvchilar o'z ish o'rinalarini egalaydilar. Yo'qlama (navbatchi yordamida) qilinadi, o'quvchilarning ish kiyimlari tekshiriladi. Kiyimlari mehnat xavfsizligi qoidalariiga javob bermaydigan o'quvchilar mashg'ulotlarga kiritilmaydi.

Asboblar va mahsulot (zagotovka)larni tarqatish darsni tashkil qilishning muhim momentidir. Har bir ish o'rnini kesish va o'lchash asboblarining to'la komplekti bilan ta'minlash eng yaxshi variantdir. Tabiiyki, bu holda asboblarni tarqatish bo'lmaydi, har bir o'quvchi hamma zarur narsalarni o'z ish o'rnidan topadi. Afsuski, buning uchun maktablarning hammasida bunday imkoniyat yo'q va shu sababli asboblarni har gal tarqatishga, so'ngra esa yig'ishga to'g'ri keladi. Bunga iloji boricha kamroq vaqt ketishi, ortiqcha harakat va shovqin bo'lmasisligi uchun o'qituvchi

navbatchilarni o'ziga yordamchi qilib oladi. Ular asboblar solingan penallarni ish o'rirlariga tarqatib chiqadilar, zagotovkalarni yoki ishlab tamomlanmagan buyumlarni ham tarqatadilar. Metall mahsulotlar yashiklarda saqlanishi, bu yashiklarda sinf va guruhlar ko'rsatilishi kerak. Yashiklar ichida mahsulotlar ustiga familiyalar yozilgan qopchalarga solib qo'yiladi. Familiyalar biriktirilmagan buyumlarning o'ziga bo'r yoki maxsus ruchka bilan yozish chalkashliklarga olib keladi, chunki harflar o'chib ketib familiyalarni o'qish qiyinlashadi.

Yangi materialni bayon qilish. Bu element ayrim darslarda gina o'rini. Ko'pincha yangi materialni bayon qilish kirish yo'riqnomasiga kiradi. Yangi materialni bayon qilishdan oldin o'quvchilarning uni idrok qilishga tayyorligi tekshiriladi, ya'ni o'quvchilarning oldingi darslarda olgan va bu topshiriqni bajarish uchun zarur bilim va malakalari qanday ahvolda ekanligi tekshiriladi.

Yangi materialni bayon qilish uning mazmuniga o'quvchilarning yoshi va tayyorligiga bog'liq holda har xil tashkil etilishi mumkin.

Yangi materialning hajmi o'quvchilar o'zi o'zlashtira olishlarini nazarda tutib belgilanadi.

Bilim va malakalarni tekshirishning mazmuni darsga tayyorlanishda o'qituvchi tomonidan o'ylab qo'yiladi. Bunda ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan assosiy masalalar belgilanadi. Shuningdek, birinchi navbatda so'raladigan o'quvchilar ham aniqlanadi.

Yangi materialning bayoni uni o'quvchilar qanday o'zlash-tirgанини tekshirish bilan yakunlanadi.

Yo'riqnomalar. Mashg'ulot jarayonida kirish, joriy va yakuniy yo'riqnomalar olib boriladi. Kirish yo'riqnomasining qancha davom etishi va undagi ma'lumotlarning hajmi o'quvchilarning yoshiga bog'liq bo'ladi.

5-6-sinflarda materialni birdaniga emas, balki bir necha qismga bo'lib bayon etish tavsiya qilinadi, chunki qo'shaloq darsga mo'ljallangan mehnat topshirig'ini bajarish uchun zarur bo'lgan hamma ma'lumotni o'quvchilar birdaniga qabul qilolmaydilar. 8-9-sinflarda bir qismning o'zida katta hajmdagi materialni bayon qilish mumkin, mehnat topshirig'i qismlarga ajratilmay, birdaniga beriladi.

Masalan, 6-sinfda o'quvchilar maktab o'quv-tajriba uchastkasiagi ekinlarga etiketkalar tayyorlashlari kerak. Bu etiketkalar

mixlar bilan birlashtirilgan taxtacha va qoziqdan iborat bo'ladi. O'quvchilar buyum texnologiyasini tashkil qiluvchi asosiy operatsiyalar (rejalash, arralash, randalash) bilan tanishgan. Shu sababli o'qituvchi topshiriq haqida gapirib berib, mana shu operatsiyalarni bajarishning asosiy usullarini o'quvchilar bilan birgalikda takrorlaydi. Shundan keyin yangi topshiriqni bayon qilishi kerak: qoziq uchini randalab o'tkirlash va taxtachaga qoziqni mixlar yordamida mahkamlash. 6-sinfda yangi topshiriqni qismga bo'lib bayon qilish tavsiya etilgani uchun o'quvchilarining topshiriqqa tayyorlanishlari ham bir necha usulda tekshiriladi. Mazkur holda materialni bayon qilishni uchta qismga bo'lish mumkin: taxtachani tayyorlash, qoziqni tayyorlash, yig'ish.

Joriy yo'riqnomasi. Bu yo'riqnomasi o'quvchilarining mustaqil ishlari bilan bog'liqdir. O'quvchilarining mustaqil ishlari mehnat darsining asosiy bosqichidir. Unga o'quv vaqtining 80% gacha qismi ajratiladi.

O'quvchilar mustaqil ishining samaradorligi haqida ular topshiriqlarni qanday bajarayotgani, mehnatda o'z bilimlaridan qanday foydalanayotgani va hokazolarga qarab xulosa chiqarish mumkin. Bunday ma'lumotlarni o'quv jarayonining bori-shini muntazam va rejali kuzatish hamda nazorat qilish orqaligina olish mumkin. Shu sababli o'quvchilarining mustaqil ishi o'qituvchining bunda qatnashmasligini mutlaqo nazarda tutmaydi. Aksincha, o'qituvchining roli alohida mas'uliyatlari bo'ladi. Ammo o'qituvchining vazifasiga faqat nimalar bo'layotganini qayd qilish, ba'zi o'quvchilar mustaqil ishni uddalay olayotgani, boshqalari uddalay olmayotganini ifodalovchi shakllarni sharhlashgina kirmaydi. Kuzatishlar natijasida olingen ma'lumotlar o'qituvchi uchun boshlang'ich material bo'ladi, o'qituvchi shu material bazasida o'quvchilarga yondashish, ularning mustaqil ishlarini boshqarishni amalga oshiradi.

O'quvchilarining mustaqil ishlari paytida o'qituvchi bir o'rindan boshqa ish o'rniiga o'tib, zaruriyatiga qarab yakka yo'riqnomani amalga oshiradi. Agar hamma o'quvchilarga qandaydir biror ma'lumotni yetkazish yoki ma'lum mehnat usulini namoyish qilish lozim bo'lsa, guruhiy yo'riqnomasi o'tkazadi. Yo'riqnomasi paytida o'qituvchi yo'l qo'yilgan xatonigina ko'rsatib qolmaydi, balki eng muhimmi bu xatoning sabablarini ochib beradi, chunki xatoni tuzatishgina emas, unga bundan keyin yo'l qo'ymaslik kerak.

O'quvchilarning mustaqil ishini boshqarish o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni talab qiladi. O'quvchilarga yordam berishda uning uchun ishni bajaraish emas, balki ularning faoliyatini to'g'ri yo'lga o'z vaqtida yo'naltirish kerak, chunki ko'pincha mehnat jarayonidagi xatolar tuzatib bo'lmas kamchiliklarga (brakka) olib kelishi ma'lum. Shu sababli o'qituvchi qayerda bunday xatolarga yo'l qo'yilishi mumkinligini oldindan ko'rishi va o'quvchilarni ulardan saqlab qolishi kerak. O'quvchilarning mustaqil ishini yo'naltirishda ularga ortiqcha g'amxo'rlik qilavermaslik kerak, chunki bu o'quvchilarning tashabbusini bo'g'adi, texnik ijodkorlikning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

O'quvchilarning mustaqil ishlari faoliyatini konstruksiyalash, texnologiyani tashkil etish, modellashtirish, materiallarni bevosita ishlash, zanjirlar yig'ish kabi har xil sohalarni o'z ichiga olishi mumkin. Har qanday holda ham mustaqil faoliyat muvafqaqiyatining zarur sharti unga o'quvchilarning tayyorgarligidir. Agar o'quvchilar topshiriqni tushunsalar va uni bajarish yo'llarini tasavvur qila olsalar, ya'ni topshiriqni bajarishga kuchlari yetsagina topshiriqqa qiziqadilar. Agar topshiriq o'quvchilar hali egal-lamagan bilimlar va mehnat usullarini qo'llashga mo'ljallangan bo'lsa, bu hol o'quvchilarni loqaydlikka, o'z kuchlariga ishonmaslikka olib keladi. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil ishlashi uchun mehnat topshirig'i xarakterini belgilashda eng avvalo uni talab qilinayotgan bilim, ko'nikma va malakalar nuqtayi nazaridan o'quvchilarning qo'lidan kelish-kelmasligini tekshiradi. Ba'zan o'quvchilarning mustaqil ishi uchun obyektlarni rejalashtirishda, agar vaqt imkonni bo'lsa, buyumni takror tayyorlashni bajarish ham maqsadga muvofiqdir. Bunday holda o'quvchilar o'sha usullarni bajarishni mashq qiladilar, o'qituvchi esa ular oldingi xatolarni takroran takrorlamasliklarini tekshiradi.

Mehnat ta'limi jarayonida mehnatning ijtimoiy foydali xarakteri va me'yordanishi o'quvchilarни mustaqil faoliyatga rag'batlantirishning asosiy omili hisoblanadi.

Tashkil etilgan musobaqa o'quvchilar mustaqil ishining samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Musobaqaning to'g'ri tashkil qilinishi, o'quvchilarni yagona jamoaga birlashtirilishi xafagarchilik va janjallarga olib kelmasligi kerak. Shu orqali o'quvchilarga bizning jamiyatimiz sharoitida musobaqaning sanoat uchun tavsifli raqobatga hech qanday alo-

qasi yo'qligini tushuntirish lozim. Har bir o'quvchining burchi jamoa manfaatlarini unutib o'zining shaxsiy muvaffaqiyatlariga intilish emas, balki, o'z yutuqlarini yashirmay o'z tajribasi bilan o'rtoqlashishi, o'rtoqlariga yordam berishidadir.

Musobaqa shartlarini o'qituvchi sinf faollari bilan birgalikda ishlab chiqadi, musobaqa natijalari esa devoriy gazetada muntazam yoritiladi, maktab radiosи orgali eshittirib boriladi va hokazo.

O'quvchilarning mustaqil ishi butun dars davomida yoki uning bir qismida uzlusiz o'tishi, shuningdek yangi materialni bayon qilish bilan almashinishini (asosan 5–6-sinflarda) mumkin.

Yakunlovchi yo'rignoma. Har bir mehnat darsi o'quvchilarning buyumlari qay holatda bo'lishidan qat'i nazar xulosalar chiqarish bilan tugallanadi. Xulosalar chiqarish o'quvchilarning bilim va malakalarini baholash bilan yakunlanadi. Darsda bajarilgan ishni ballar bilan baholab bo'lmaydigan (masalan, operatsiya boshlangan, ammo tamomlanmagan) hollarda o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini umumiy yo'sinda ta'riflash bilan chegaralanadi.

O'qituvchi o'quvchilarning ish o'rirlari bo'ylab aylanib, ishni qanday bajarilganiga qarab baholashi, xulosa chiqarishning samarali shakli hisoblanadi. Bunday holda o'qituvchining baho qo'yishi o'quvchilarning o'z ish o'rirlarini tozalashi bilan bir vaqtga amalga oshiriladi. Shu tufayli o'quvchilar o'qituvchining xulosasini kutib bekor turib qolmaydilar. Dars umumiy xulosalar chiqarish bilan yakunlanadi. O'qituvchi o'quvchilarga yaxshi ishlangan buyumlarni ko'rsatadi, yuqori sifatga nimalar tufayli erishilganini tushuntiradi. Agar ish jarayonida tipik xatolarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, yakun yasashda bu xatolarning sabablari tahlil qilinadi. O'qituvchi mehnat usullarini yana namoyish qiladi va bu usullarni bajara olmagan o'quvchilarga ularni qaytarishni taklif qiladi.

Xonalarni yig'ishtirish. O'quvchilar ishni tamomlaganlaridan keyin o'z ish o'rirlarini, umuman xonani tartibga keltirishlari kerak. Duradgorlik ustaxonasini yig'ishtirishga ko'proq vaqt talab qilinadi. O'z navbatida mexanik uchastkani yig'ishtirish duradgorlik ustaxonasini yig'ishtirishga nisbatan ko'proq vaqt talab qiladi.

Darsning oxirgi bosqichi ko'proq vaqt oladi. Bu bosqichda bajariladigan ish ba'zan ikkinchi darajalidek tuyiladi. Aslida esa

yig‘ishtirish ham darsning boshqa bosqichlari kabi ahamiyatga ega. Bunda, xususan, mehnat madaniyati tarbiyalanadi. Ongli ishchi novator ish o‘rnini yig‘ishtirmay ketmaydi yoki uni yomon holda o‘z navbatchisiga topshirmaydi. Bu sifat (xususiyat) o‘quvchilarga ham singdirilishi kerak. Bunda o‘qituvchining yetakchilik roli hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yig‘ishtirish ishlab chiqarishdagidek bajarilishi uchun barcha zarur narsalar bilan o‘quvchilarni ta’minalash muhimdir (verstaklardagi payraxalar, qirindilar latta bilan emas, cho’tkalar bilan tozalanishi kerak).

Navbatchi o‘quvchilar o‘qituvchi bilan birgalikda ish o‘rinlarini qabul qilib oladilar. Shundan keyin o‘qituvchi navbatchilarning ishlarini baholaydi.

Maktab ishi tajribasida uchastkadagi ish o‘rnining tozaligi uchun musobaqa kabi tarbiyaviy tadbir o‘zining afzalligini ko‘rsatadi. Musobaqa g‘oliblari ma’naviy jihatdan mukofotlanadilar, ular haqida devoriy gazetada maqolalar e’lon qilinadi. O‘qituvchi ish o‘rnining holati o‘quvchilar uchun namuna bo‘lishi kerak.

2. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi. O‘qitish shakli deganda o‘quvchilarning aniq mashg‘ulot (dars)dan ko‘zda tutilgan maqsadga erishishi uchun mehnat ta’limi o‘qituvchisi rahbarligida o‘quv materialini ongli va faol ravishda puxta o‘zlashtirishga qaratilgan o‘quv tarbiya faoliyatini tushunmoq kerak. Shundan keyin mehnat ta’limida foydalanadigan xilma-xil shakllar masalasini oydinlashtirish zarur. O‘quvchilarning o‘quv ustaxonasiagi o‘quv mehnat ta’limi ishlarining asosiy shaklidan biri dars yoki amaliy mashg‘ulotdir. O‘quv mehnat ishi sifatidagi darsning asosiy belgisi: o‘quvchilar tarkibi doimiy va ularning bilimi (tayyorgarlik darajasi) taxminan bir saviyada bo‘lishi, mashg‘ulotlar qat’iy jadval asosida, o‘quv ishlari uchun belgilangan ma’lum vaqt davom etishi. Mehnat ta’limi o‘qituvchisining bevosita rahbarligi, uning xilma-xil o‘qitish metodlaridan foydalanishi darsni frontal, zvenolab va yakka shaklda olib borish imkoniga ega bo‘lishdan iborat deyish mumkin.

Shunday qilib dars o‘qitish jarayoniga tashkiliy aniqlik kiritadi hamda mehnat ta’limi va boshqa fanlar darslarini navbatlashtirib tashkil etishga, binobarin, o‘quvchilarning yuqori unumidorlik bilan o‘qishini hamda dam olishini ta’millashga imkon beradi. Lekin, mehnat texnika ta’limi tizimida o‘quvchilarga mehnat qi-

lish yuzasidan qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun faqat ayrim darslarni yaxshi tashkil etishni o'zигина kifoya qilmaydi. To'g'ri va uyg'un tashkil etilgandagina darsning mazmuni to'la va maqsadga muvofiq ochilishi mumkin. Bundan tashqari, ishlab chiqarish ta'limi maqsadlari va vazifalariga muvofiq ravishda quyidagiga o'xshash har xil dars turlarini qo'llash mumkin:

1. Kombinatsiyali (o'qitish jarayonining hamma zvenolarini o'z ichiga olgan) dars.

2. Operatsiyalarni o'zlashtirishga (ayni operatsiyaga oid ish mehnat jarayonlarini o'rganishga) bag'ishlangan dars.

3. Kompleks ishlarni bajarishga (konkret buyum tayyorlash munosabati bilan ilgari o'rganilgan operatsiyalarni texnologik kompleks tarzida birlashtirishga) bag'ishlangan dars.

4. Kontrol-tekshirish, sinov topishiqlari va malaka olishga bag'ishlangan dars (chorak oxirida, yarim yillik, o'quv davrida).

Ayrim dars shaklidagi ishlab chiqarish ta'limi asosan o'quv ustaxonasida tashkil etilishini e'tiborga olib shuni ham ta'kidlashimiz kerakki, o'quvchilar bajaradigan ishlarning xarakteriga qarab (bir tipli yoki turli tipli ishlarning bajarilishiga qarab) darsni tashkil etish shakli ham (ishni yoki darsni frontal, butun sinf uchun, zvenolab, yakka va aralash turdag'i tanlanadi).

Masalan, o'quvchilarning hammasi bir xil ishni bajaradigan bo'lsa (bolg'a tayyorlash, kalit yasash va hokazo) darsning frontal shaklini qo'llash mumkin. Bu holda o'qituvchi o'quvchilarning hammasi uchun bitta umumiyo yo'riqnomasi beradi va hamma o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan umumiyl talablar asosida buyumni tayyorlash texnologiyasining to'g'ri bajarilishini kuzatib boradi.

O'quvchilar bajaradigan ishlarni mazmuni (tayyorlash texnologiyasi) bir-biriga yaqin lekin xarakteri, ya'ni konstruksiysi boshqa-boshqa bo'lgan hollarda darsni zvenolarda tashkil etish ma'qul, masalan, tokarlik stanogini yig'ish (murakkab mahsulot vositasida o'rgatib o'qitish)da o'qituvchi ishni uzellarga ajratadi (uzatishlar qutisi, keyingi skoba va shunga o'xshash) va har bir uzelni 2-3 kishilik zvenoga topshiradi. Yig'ish operatsiyalariga oid hamma umumiyo ma'lumotlarni o'qituvchi frontal yo'riqnomasi tarzida o'quvchilarga aytib beradi, har bir uzelning o'ziga xos ma'lumotlarini esa har bir zvenoning o'ziga aytadi. O'qitishning bu shaklidan foydalanganda o'qituvchining ish hajmi, ayniqsa joriy yo'riqnomada, frontal formadagidan ko'ra ancha ortadi. Bi-

roq bundagi xilma-xil ishlar sonining ko'p bo'lishi (stanokning turli uzellari) o'quvchilarda kasbiy bilimlarning o'sishigagina emas, balki politexnik bilimlari doirasining kengayishiga ham yordam qiladi.

Individual (yakka) o'qitish shaklini sinfdagi ko'pchilik o'quvchilar konstruksiyasi har xil, mazmunan esa bir-biriga yaqin bo'lgan ishlarni bajarganlarida qo'llash mumkin. Bu xil ishlar, masalan: o'quv ustaxonasi uchun xilma-xil mayda bu-yurtmalardan yoki dona hisobi uncha katta bo'lмаган turlituman detallar (tokarlik yoki parmalash stanoklari detallari) bo'lishi mumkin. Bunday hollarda o'qituvchi tayyorlanishi kerak bo'lgan buyumlarning tayyorlanish texnologiyasini analiz qilib chiqib, o'quvchilarga frontal yo'riqnomalar tarzida umumiy belgilarni (ma'lumotlarni) va yakka shaklni qo'llaganda aytildigan ma'lumotlarni oldindan ajratib qo'yadi. Bunda individual tarzda aytildigan ma'lumotlar ko'proq bo'ladi. Ko'ramizki, darsni individual shakl asosida tashkil etganda, o'qituvchi ko'proq tayyorgarlik ko'rishi kerak bo'lar ekan, bunda darsning individual shakli va individual yo'riqnomadan iborat ikkita tushunchani bir-biridan farq qilish zarur. Individual yo'riqnomani har qanday shaklda tashkil etilgan darsda qo'llash mumkin, lekin bu ishning hajmi frontal dars shaklda kamroq, individual shakldagi darsda esa ko'proq bo'ladi.

Nihoyat, aralash shakldagi dars yuqorida ko'rsatib o'tilgan uchala dars shakllarining elementlaridan tarkib topadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, dastur materialining mazmuniga, ixtisos xarakteriga va boshqa faktorlarga qarab, ishlab chiqarish ta'limida boshqa tashkiliy shakllarni ham qo'llash mumkin. Masalan, o'quvchilar brigadasi shaklidagi o'qitish ishlab chiqarish sharoitida dars shaklini qo'llash mumkin bo'lмаган hollarda maqsadga muvofiqdir. Bu shakldagi ta'limni ko'pincha ko'mir koni shaxtyorlarini tayyorlashda, metallurglar, kimyogarlar va qishloq xo'jaligiga tegishli ko'pgina ixtisos ishchilarini tayyorlashda qo'llash mumkin.

3. Sinfdan tashqari amaliy mashg'ulotlarni olib borish turlari.

1. *O'quvchilarni o'quv ishlab chiqarish brigadalari shaklida o'qitish.* Bunday sharoitlarda mehnat ta'limi o'qituvchisi odatda o'quvchilarni alohida o'quvchilar birgadalariga ajratadi, bu brigadadagilar har biri muayyan o'quv-ishlab chiqarish topshirig'ini

bajaradi. Topshiriqlar ishlab chiqarish korxonalarida bajarilishi va bu topshiriqlarning o'quv maqsadi hamda mazmuni bir-biridan ancha farq qilishi mumkin. Masalan, bir brigada marten pechiga xizmat qilishga o'rgansa, ikkinchisi gaz generatorlari ga xizmat qilishni, uchinchisi esa nazorat-o'lchash asboblarini kuzatishni va hokazolarni o'rganishi mumkin. Bunday hollarda o'qituvchi o'quv brigadalarini o'rganiladigan zonalar chegarasida almashtirib turish grafigini tuzishi kerak, toki har bir brigada, masalan, metallurgiya butun bir kompleksiga xizmat qilishdagi hamma ish usullarini bilib o'rganib oladigan bo'lsin.

O'quvchilarни korxona sharoitida o'rgatishning yana bir shakli, ularni ishchilar brigadasiga qo'shib o'qitishdir. Bu shaklni, masalan, slesar-remontchi, yig'uvchi santexnik, montajchilar, shuningdek, qurilish ixtisoslari kabi ixtisoslarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu shakl asosida o'quvchilarga ishlab chiqarish ta'limi berish shundan iboratki, yuqorida aytilgan ixtisoslarga doir ishlab chiqarish brigadalariga umumslesarlikka yoki boshqa biron tayyorgarligi bo'lgan bir yoki bir necha o'quvchi biriktiriladi. Bu holda ishlab chiqarish ta'limi o'qituvchisining vazifasi davriy ravishda joriy yo'riqnomaga o'tkazib turish, kundalik topshiriqning tavsif va hajmini aniqlab turish, beriladigan topshiriqning mavzusi, tegishli kirish yo'riqnomasi va ish natijasiga bag'ishlangan yakuniy yo'riqnomaga o'tkazishdan iborat bo'ladi. Lekin o'quvchilar turli obyektlarga tarqalganligi tufayli o'qituvchi har bir o'quvchiga topshiriq berish va undan ishni qabul qilib olish imkonidan mahrum bo'ladi. Shu tufayli bu holda o'quvchilarни o'qitish (o'rgatish) vazifasi qisman ishchilar brigadasi a'zolariga yoki brigadirning o'ziga topshiriladi. O'quvchilar ishchi brigadasi ba'zan o'qilgan (o'rganilgan) dasturini tizimli ravishda bajarish tamoyili bузилади. Chunki ishlab chiqarish mashg'ulotlari ishchilar bajaradigan ish turiga mos bo'limasa ham (bu ish turi dasturning ayni davrida o'rganiladigan ishga mos kelmagan taqdirda ham) o'qituvchi o'zgartira olmaydi. Lekin o'quvchilarning ish bilan doim ta'minlanib turishi, ilg'or texnologiya va ilg'or mehnat usullaridan foydalanish imkoniga ega bo'lishi, ishlab chiqarish kabilar bu kamchliklarni qisman bo'lsada qoplaydi.

2. *O'quvchilarни malakali ishchilarga biriktirib o'qitish.* Ishlab chiqarish mashg'ulot shaklining yana bir turi o'quvchilarни mala-

kali ishchilarga biriktirishdan iborat bo'lib, bunda o'qitish asosiy ishdan ozod qilinmagan instruktor tomonidan amalga oshiriladi. Bir instruktorga bir vaqtning o'zida ikkitadan ortiq o'quvchi biriktirilmaydi. O'qitishning bu shaklini ijobiy tomoni shundan iboratki, bu usul bilan bevosita ilg'or texnika va texnologiya bilan ta'minlangan ishlab chiqarish sexlarida istalgan hunar bo'yicha ishchilar tayyorlash mumkin. Bunda instuktor uchun o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini va ularning sifatlarini e'tiborga olib turib, eng samarador o'qitish usullarini qo'llashga imkon bo'ladi.

Biroq bunda o'zining asosiy ishi bilan ham shug'ullanishga majbur bo'lgan instruktor o'ziga biriktilgan o'quvchilarga tegishli e'tibor berish imkonidan mahrum bo'ladi, ishlab chiqarish ta'limining borishini har kuni kontrol qila olmaydi.

3. *O'quvchilarni shtatlari ish joylarida o'qitish.* Ishlab chiqarish ta'limining maxsus shakli o'quvchilarning shtatlari ish o'rnlariда (iste'mol mahsuloti ishlanadigan ish o'rnlariда) o'tkazadigan amaliyotidir. Bu shakl ta'limning oxirgi oylarida, korxona sharoitida o'tkaziladi. Bu shaklda o'qitishda har bir o'quvchi shtatlari joyda ishlab, mahsulotga korxona tomonidan qanday talablar qo'yiladigan bo'lsa, o'sha talablarga to'la amal qilib buyum tayyorlaydi. Bu holda o'quvchi buyum ishlab chiqarish vaqt me'yorni bajarishga ham majbur bo'ladi. O'quvchi tayyorlagan mahsulotni korxonaning texnik kontrol bo'limi xodimlari qabul qilib oladi. O'quv ishlab chiqarish faoliyatini shu xilda tashkil etish o'quvchilarni ayni ixtisos ishchilari ishlaydigan sharoitda mehnat qilishga odatlantiradi. O'qituvchi o'qitish shakllarini va metodlarini ayni ish o'rniغا qo'yiladigan talablarga moslashtirib tanlashi shart. Agar ayni ish o'rniда ishlab chiqarish ta'limi dasturi to'la bajarilmaydigan bo'lsa, o'qituvchi oldindan tuzib qo'yilgan grafik asosida o'quvchini boshqa ish o'rniغا ko'chirishi shart.

4. *O'quvchilarni tanlagan ixtisosi bo'yicha o'qitish.* Agar kasbhunar kolleji (o'quv kombinat, mакtab)da o'quvchilarni ular tanlagan ixtisos bo'yicha o'qitish uchun moddiy baza bo'lmasa, o'quvchilarni korxonadagi o'quv sexlarida va maxsus ajratilgan uchastkalarda o'qitish shaklidan foydalanish mumkin. Bu shakl o'quvchilarni o'quv ustaxonalarida o'qitish shakliga o'xshaydi, farqi shundaki korxonada o'quvchilarga korxona xodimi, asosiy

vazifadan ozod qilingan instruktor rahbarlik qiladi. Bundan tashqari ish obyektlari sifatida korxona sexlarining buyurtmalari ham bajariladi. Bu esa o'quvchilarni ayni korxonaning unumli mehnatiga yondashtirish uchun eng ma'qul tadbirdir. Biroq bunda kirish yo'riqnomasi, joriy va yakuniy yo'riqnomasi o'tkazish uchun zarur sharoitning bo'lmasligi, o'qitish formasining samaradorligini kamaytiradi. Nihoyat, sinfdan tashqari mashg'ulotlar uyushtirishning so'nggi shakli texnik ijrochilik to'garaklaridir. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning tashkiliy shakllarini o'rganishga kirishishdan avval ishdagi bu bosqichning o'quvchilar kasbiy mahoratini o'stirishdagi ahamiyatini aniqlab olish kerak. Gap shundaki, o'quvchilarning darslarda oladigan bilim, ko'nikma va malakalari faqat dasturda belgilangan minimumdan iborat bo'ladi. Holbuki, ko'pchilik o'quvchilar zamonaviy texnikaga qiziqadilar. Shu sababli ularning turli texnika to'garaklarida qatnashuvlari texnikaga doir bilimlarni o'z qiziqish va qobiliyatlariga muvofiq ravishda rivojlantirishga imkon beradi. Xuddi shu texnika to'garaklarida ayrim o'quvchilarning mohirligi, konstruktorligi va texnik ijodkorligi namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, o'quvchilarning ijodiy texnika to'garaklarida jiddiy shug'ullanishi o'zлari tanlagan hunarni muvaffaqiyatliroq va sifatliroq egallashlariga yordam qiladi. Texnika to'garaklari «Mohir qo'llar», «Aviamodelchilar», «Kemamodelchilar», «Konstruktur» va boshqa nomlar bilan tashkil etilishi mumkin. Bunda to'garaklarning tashkilotchilari va rahbarlari ishlab chiqarish masterlari hamda o'qituvchilar bo'lishi mumkin. Bunda to'garaklarga kimlarni yozish, ishni qanday tashkil etish, to'garak ishlaring natijalarini qanday tashviqot qilish, ularni tashkil etish kerakligini alohida eslatib o'tishimiz lozim. Faqat to'garak ishlarini tashviqot qilishning eng ma'qullari (ko'rgazmali texnika kechalari, texnikaga bag'ishlangan olimpiadalar, devoriy gazetalar, ma'ruzalar, suhbatlar, konkurs va hokazo)gina ijodiy texnika to'garaklariga o'quvchilarning ko'plab jalb qilishi mumkin.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Mehnat ta'limida qanday o'qitish shakllarini bilasiz?
2. Malakali ishchiga biriktirib o'qitish deganda nimani tushunasiz?

3. O‘qitishni frontal, zveno, yakka, aralash shaklari qaysi vaqt-da qo’llaniladi?
4. Sinfdan tashqari qanday amaliy mashg‘ulotlar bor?

4.5. Mehnat ta’limi, kasb tanlashga yo‘llashda ekskursiyalarni amalga oshirish metodikasi

Reja:

1. Ekskursiya darslarini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Ekskursiyalarning darsdan tashqari mashg‘ulotlarda tutgan o‘rnii.
3. Ekskursiyalarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi.

Tayanch iboralar: ekskursiya, texnologik jarayonlar, ilg‘or ish usullari, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, taassurot, maslahat, taqqoslash, ishlarni mexanizatsiyalash, qiziqish, ishlab chiqarish intizomi, korxona rahbari, ekskursiyani olib boruvchi, sex, ekskursiya natijalari.

1. Ekskursiya darslarini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari. Ekskursiya mehnat ta’limining shunday bir shaklidirki, uning borishi jarayonida o‘quvchilar asbob-uskunalarini, texnologik jarayonlarni va mehnat jarayonlarini ishlab chiqarish sharoitida mehnatni tashkil etishni kuzatadi va o‘rganadi. Korxonaga ekskursiyalar o‘quvchilarni korxona bilan, uning asbob-uskunalarini, mehnat jarayonlarining tashkil etilishi va ishlab chiqariladigan mahsuloti bilan umumiy va aniq soha tarzida tanishtirish maqsadida ham ishlab chiqarishning aniq masalalarini, ya’ni asbob-uskunalarining eng yangi namunalarini va ishlab chiqarishning zamонавиј texnologiyasini, ilg‘or ish usullari va mehnatni ilmiy asosda tashkil etish metodlarini o‘rganish maqsadida ham tashkil etilishi mumkin. Demak, ekskursiyalar o‘tkazishdan maqsad avvalo o‘quvchilarda hozirgi zamon ishlab chiqarishi haqida tasavvur hosil qilishdir. Zero, o‘quv ustanonalari sharoitida o‘quvchilar odatda materiallarga ishlov berishning sanoatdagи eng yangi yutuqlarini aks ettiradigan usullari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar. Shunga ko‘ra aytish mumkinki, ekskursiya o‘quvchilarni zamонавиј texnika,

texnologiya va bevosita korxonada ishlab chiqarishni tashkil qilish bilan tanishtirishning yagona yo'lidir. Ekskursiya anchagini muhim tushunchalarni, jumladan, «mehnat unumdarligi» tushunchasini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Bu tushunchani bayon qilish va ko'rsatmali qo'llanmalardan foydalanish orqali ham shakllantirish mumkin, albatta. Lekin bunda mazkur tushuncha o'quvchilarning amaliy faoliyatidagi, jumladan, ishlab chiqarishga uyushtirilgan ekskursiyadagi kabi mustahkam o'zlashtirilmaydi. Ular rejalashni to'g'ri bajarish va birikadigan detallarni aniq moslash qanchalik qiyinligini biladilar. Mehnat unumdarligini oshirishda murakkab tikuvchilik yo'llaridan biri bilan tanishish o'quvchilarda katta taassurot qoldiradi va ularning esida yaxshi qoladi.

Umumiyan tanishtirish xarakteriga ega bo'lish ekskursiyani ta'limning biror bo'limi (yog'och va metallga ishlov berish, servis xizmati, mehnat operatsiyasi va hokazolar) boshlanishidan oldin o'tkazilishi kerak. Aniq mavzuga bag'ishlangan ekskursiyalar ni dasturdagi biror mavzuni o'tishdan keyin yoki undan oldin o'tkazilgani ma'qul. Ekskursiya odatda 15–20 o'quvchidan iborat bitta sinf bilan frontal ravishda o'tkaziladi, biroq ekskursiya jarayonida ayrim o'quvchilar uchun yakka holda maslahatlar va izohlar berish istisno qilinmaydi.

Mehnat o'qituvchisi yoki ekskursiyani olib boruvchi ekskursiya jarayonida o'quvchilarning kuzatishiga rahbarlik qilib turadi, ularning ishlash tamoyiliga va mahsulot ishlash texnologiyasiga, mehnatni tashkil etish va hokazolarga jalb qilinadi, bular o'rtaida obyektiv ravishda mavjud bo'lgan aloqalarni aniqlash va taqqoslash yo'li bilan umumiyan tamoyillarni bilib olishni o'rgatadi.

Masalan, o'quvchilar o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlarda asosan yog'och, metall, gazlamaga ishlov berishning qo'lida bajarijadigan operatsiyalarini o'rganib oladilar. Tegishli korxonalariga o'tkazilgan ekskursiya jarayonida ular eng yangi stanok, mashinalar, jihozlar bilan va yuqori unumli mehnat usullari bilan tanishadilar. Tikuv materiallarini qayta ishlash korxonasining tayyorlov sexiga o'tkazilgan ekskursiya davomida, o'quvchilar har xil mashinalarning ishlashini, tikuv materiallarining qirqilishini ko'rayotganlarida ularning mehnat unumdarligi haqidagi bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish mumkin. Bolalar ekskursiyada baravar vaqt mobaynida qo'ltagiga nisbatan mexanik qaychi

bilan ancha ko'p ish bajarish mumkinligini bevosita ko'radilar. Ana shu misol orqali mehnat unumidorligini oshirishning ayrim yo'llarini ko'rsatish mumkin. Masalan, qo'l qaychi o'rniga mexanizatsiyalashtirilgan qaychidan foydalanish qo'l mehnati o'rnini mexanizatsiyalashgan mehnat egallashining namunalaridan biridir, mehnat unumidorligining oshirilishi esa ishda bir yo'la bir necha asbobdan foydalanishga misol bo'la oladi. Mehnat unumidorligini oshirish nuqtayi nazaridan qaychilash jarayonini ta'riflashda o'quvchilarga mustaqil holda bir necha misollar keltirishni tavsiya etish ma'qul. Ular ilgari o'rganilgan materiallarni: qo'l va elektr mashinalar bilan tikish, qo'lda va mashinalarda yo'rmash, qo'l va mexanik qaychilarda qirqish va hokazolarni eslasalar mazkur topshiriqni bajaradilar.

O'quvchilar o'quv ustaxonalari va ishlab chiqarishdagi mehnat jarayonlarini taqqoslab, faqat o'quvchilar mehnatining sifatinigina emas, balki mehnat unumidorligini oshirishni ham ta'minlaydigan xilma-xil dastaki va stanok moslamalaridan keng foydalanish yo'li bilan qo'lda bajariladigan ishlarni mexanizatsiyalash zarur, degan mustaqil xulosalarga keladilar. Bunday ekskursiyalar o'quvchilarda o'zлari qurgan narsalar to'g'risida yorqin taassurotlar qoldiradi, ularning bilim doirasini kengaytiradi, bo'lajak ixtisosligiga bo'lgan qiziqishini va mehnatni qayta qurish munosabatini shakllantiradi, biliш faolligini rivojlantirishga imkon beradi va ishlab chiqarish intizom asoslarini qaror toptiradi.

Korxonaga o'tkaziladigan har qanday ekskursiyaning mazmuniiga quyidagi aniq, ajratilgan uchta bosqich kirishi lozim:

1. Kuzatish obyektini oldindan tanlash, uning aniq maqsadlari va vazifalarini aniqlash, korxonaga dastlabki tarzda borib ko'rish, zarur hujjatlarni, ekskursiyani o'tkazish tartibi, o'quvchilar uchun beriladigan topshiriqlar va hisobotlarning shakllarini tayyorlashdan iborat bo'lgan tayyorgarlik bosqichi.

2. Mehnat o'qituvchisi yoki ekuskursiyani olib boruvchi tomonidan ekskursiyaning maqsadlari hamda vazifalari, korxona hovlisida va boshqa belgilangan joylarda o'zini tutish qoidalari, kuzatish obyektlari, ekskursiya marshruti to'g'risida suhbat o'tkazish, o'quvchilarni bevosita zarur vazifalarni bajarishi nazorat qilinadi.

3. Ekskursiyaga yakun yasash ekskursiya jarayonida paydo bo'ladigan masalalarni hal qilishga qaratilgan yakulovchi suh-

bat o'tkazish bilan cheklanmaydi. Mehnat bo'yicha navbatdagi mashg'ulotlarda bajariladigan vazifalarni va hisobotlarni tahlil qilish hamda jamoada erkin ravishda muhokama qilish yo'li bilan ekskursiyaga uzil-kesil yakun yasaladi.

Ishlab chiqarishdagi ekskursiyalarni kasb ta'llim o'qituvchisi boshqa fan o'qituvchilari, xususan fizika o'qituvchisi bilan birgalikda o'tkazishi mumkin. Bunday hollarda ekskursiya vaqtin uzaytiriladi va o'rganish obyekti ancha chuqurlashadi hamda ko'p qirrali bo'ladi.



2. Ekskursiyalarning darsdan tashqari mashg'ulotlarda tutgan o'rni. Ekskursiyaga tayyorlanish. Bu ish ekskursiya obyektni tanlashdan boshlanadi. Obyektni tanlash ekskursiya jarayonida qo'yiladigan vazifalar bilan belgilanadi. Masalan, 5-sinf o'quvchilari mehnat ta'llimi darslarida tikuv materiallarini qirqish ishlarini bajaradilar (tikuvchilik korxonalariga ekskursiya uyushtirib, o'quvchilarni tikuv materiallarini qirqish bilan tanishtirish mumkin); 6–7-sinfda tikuvchilik buyumlariga ishlov

berish o'rganilgandan so'ng asosiy ta'limiyan vazifa o'quvchilarga texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish haqida tushuncha berishdan iborat bo'ladi (tabiiyki, bunday paytda ekskursiya uchun avtomat liniya yoki alohida avtomat mashinalar mavjud obyekt tanlanishi kerak).

Ekskursiya obyektlarini tanlashda qishloq joylarida mehnat ta'limi o'qituvchisining imkoniyati nihoyatda cheklanganini nazarda tutish kerak. Buning ustiga ba'zan hamma ekskursiyalarni bitta korxonaning o'zida o'tkazishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda mehnat ta'limi o'qituvchisi ekskursiyalar mazmunan takrorlanmasligi va ularga o'quvchilarning qiziqishi susaymasligi uchun oldindan ustaxonalarda ta'lim berishning butun davri uchun o'tkaziladigan ekskursiyalarining rejasini tuzib oladi.

O'qituvchi ekskursiya uchun obyekt tanlagach korxona rahbarlari bilan kelishib oladi va ekskursiyani kim o'tkazishi masalasini hal qiladi. Ekskursiyani o'qituvchining o'zi o'tkazsa, eng ko'p ta'limiy samaraga erishiladi. Chunki o'qituvchi mana shu tadbirning ta'limiy vazifalarini, o'quvchilarning tayyorligi va fan asoslariga doir bilimlarini yaqqol tasavvur etadi. Bularning hammasi unga ishni aniq olib borish, o'quvchilarning diqqat-e'tiborini ular uchun eng muhim hisoblangan asosiy narsalariga qaratish imkonini beradi. Afsuski, har bir mehnat ta'limi o'qituvchisi hozirgi sanoat korxonalarida o'tkaziladigan ekskursiyalarni boshqarishga tayyorlangan, deb bo'lmaydi. Ana shunday hollarda ekskursiyani korxonaning xodimi o'tkazadi, o'qituvchi esa unga avval ekskursiyaning vazifalarini tushuntirishi lozim.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi ekskursiyani olib boruvchi bilan birgalikda ekskursiyaning marshrutini va o'quvchilarga ko'rsatiladigan obyektni belgilaydi. Bunda o'quvchilarning xavfsizligi masalalariga katta e'tibor beriladi. O'qituvchi ekskursiyani olib boruvchi bilan birgalikda o'quvchilarning korxona territoriyasidagi harakati xavfsizligini qanday ta'minlash, ularni sexga qanday joylashtirish kerakligi haqida fikrlashadi.

O'qituvchi ekskursiya vaqtida o'quvchilarning aktivligini oshirish uchun ularga individual topshiriqlar beradi. Bu topshiriqlar turli xarakterda bo'lishi, masalan: muayyan detalga ishlov berish tartibini yozishdan (marshrutli texnologik karta tuzishdan), qator operatsiyalar bo'yicha detal mahsulotning eskizini tayyorlashdan,

qo'l mehnati bilan mashinada ishslashning unumdorligini taqqoslashdan iborat bo'lishi mumkin.

3. Ekskursiyalarni tashkil etish va o'tkazish metodikasi. Ekskursiyalarni o'tkazish metodikasida quyidagi asosiy masalalarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: ekskursiyaga tayyorlanish, ekskursiyani o'tkazish va uni yakunlash. Bularni batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Ekskursiyani o'tkazish. Odatda ekskursiya qisqacha kirish so'zi bilan boshlanib, unda o'quvchilarga korxonaning mazkur iqtisodiy ko'rsatkichlari va umuman xalq xo'jaligi uchun ahamiyati yoritiladi. O'quvchilar korxonaning mahsulotlari bilan ham tanishadilar, suhbatni texnika xonasida yoki korxonaning tarixi, yutuq va an'analarini ifodalovchi stendlar bilan jihozlangan qizil burchagida o'tkazish qulaydir. O'qituvchi suhbat oxirida o'quvchilarga korxona territoriyasidagi xatti-harakat qoidalarini tushuntiradi va individual topshiriqlar berib, ularning qanday bajarilganligini kuzatishlarini aytadi.

Ekskursiya ta'llimiyl vazifalarga bog'liq holda o'tadi. Masalan, o'quvchilar korxonaga texnologik jarayon bilan tanishish uchun kelsalar, tayyorlash sexlaridan boshlab to yig'ish sexlarigacha, biron xarakterli detalni ishslashning hamma jarayonini kuzatadilar. Shu tariqa ular asta-sekin bir sexdan ikkinchi sexga o'tib, umuman korxonaning ishini bilib oladilar. Bunda o'qituvchi har xil texnologik jarayonlarning tipik tomonlarini alohida ta'kidlaydi. Natijada o'quvchilar faqat mazkur korxonaga xos texnologik jarayon haqida emas, balki boshqa korxonalardagi shunga o'xhash jarayonlar haqidagi tushunchaga ega bo'ladilar.

Ikkinchi misol. O'quvchilar muayyan ishlab chiqarish jihozining tuzilishi va ishi bilan tanishishlari kerak. Bunday holarda kuzatish uchun obyektlar shunday tanlanadiki, o'quvchilar jihozlar atrofida ishchiga xalaqit bermaydigan, o'zlariga hamma narsa ko'rinish turadigan holda joylashadilar.

O'quvchilar kuzatishni ma'lum miqdorda amalga oshirishlari uchun ularga og'zaki yoki yozma javob qaytariladigan konkret topshiriqlar beriladi. O'qituvchi o'quvchilar orasida aylanib yurib, ular topshiriqni to'g'ri tushungan yoki tushunmaganligini va uni qanday bajarayotganliklarini tekshiradi.

Ekskursiya natijalarini yakunlash. Ekskursiya uning natijalari ni yakunlash bilan tugaydi. Ko'pincha mehnat o'qituvchisi eks-

kursiya tugagach o'quvchilar bilan birga texnika xonasi yoki qizil burchakka qaytadi va ular topshiriqni qay tarzda bajara olganini, buning uchun kerakli material to'plagan yoki to'plamaganini aniqlaydi. Shundan so'ng yozma hisobotlarni topshirish yoki ustaxonalarda mashg'ulotlarda yakunlovchi suhabat o'tkazish vaqtini belgilaydi.

O'quvchilarning ekskursiyada olgan bilimlaridan o'qituvchi keyinroq, masalan, maktab ustaxonalaridagi va hozirgi sanoat korxonalaridagi ish sharoitlarini taqqoslashda foydalanishi mumkin. Ma'lumki, bunday taqqoslash o'quvchilarda materiallarni qayta ishslashning progressiv, yuqori unumli usullari haqida to'g'ri tasavvur hosil qilishlari uchun o'tkaziladi.

Ekskursiyalar ta'lif-tarbiya, ko'rgazmali o'qitishda keng qo'llaniladigan mashg'ulot shakllaridan biri sanaladi. Mehnat tarbiyasini amalga oshirishda muzeylarga, ishlab chiqarish korxonalariga, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga oid fermalar va dalalarga, qurilish maydonlariga, firmalarga uyushtiriladigan ekskursiyalardan keng foydalaniladi.

Ekskursiyalarni amalda oshirishda mehnat tarbiyasiga oid samaraga erishish uchun avvalo ta'lif muhitini, bevosita buyumlarni amalda ko'rish, ular bilan amaliy ish bajarish sharoitiga erishish lozim bo'ladi. Buning uchun, odatda, o'quv muassasasiga yaqin masofada joylashgan obyektlar tanlab olinadi. Muzeylarga uyushtiriladigan ekskursiyalar ham bu borada yuqori samaraga erishish imkonini yaratuvchi shakllardan biri sanaladi. Muzeylarda turlicha eksponatlar bilan tanishish imkoniyati yaratiladi, jumladan tarixiy hujjatlar, asl buyumlar, Vatan himoyachilar va turli mehnat sohasiga oid ishchilarning shaxsiy buyumlari, turli maqolalar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otishi mumkin. Mehnat ta'lifi tizimini yanada rivojlantirish uchun to'laqonli xizmat qilmayotgan sohalar ham mavjud.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Ekskursiya darslarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rindi?
2. O'quvchilar korxonalarga o'tkazilgan ekskursiya jarayonida nimalar bilan tanishadilar?
3. Ekskursiyalar darsdan tashqari mashg'ulotlarda qanday o'rinn tutadi?

4. Ekskursiyalar qanday bosqichlarda tashkil etiladi?
5. Ekskursiyalarni o'tkazish metodikasini izohlab bering.
6. O'qituvchi ekskursiya uchun obyektni qanday tanlaydi?
7. Ekskursiyalar qanday yakunlanadi?

4.6. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash

Reja:

1. Pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyati.
2. Zamonaliv pedagogik texnologiya turlarini ta'lim jarayonida qo'llanishi.

Tayanch iboralar: pedagogik texnologiya, pedagogik yondashuv, ta'lim texnologiyasi, keys stadi, baliq skeleti, nilufar guli, aqliy hujum, bumerang texnologiyasi, tarmoqlar metodi, o'yinli texnologiyalar, blits-so'rov.

1. Pedagogik texnologiyaning mazmun-mohiyati. Ma'lumki har qanday kasbda faoliyat samaradorligi va muvafaqqiyatli kasb sohiblarining tayyorgarligi, mahorati, o'z omilkorligini takomillashirish ustida nechog'lik qunt va izchillik bilan ishlashiga bog'liq. O'qituvchilik kasbida esa o'z bilimdonligi, zukkoligi, kasb mahoratini takomillashtirish ustida umr bo'yи muntazam ishlamay turib, el ardoqlagan, obro'-e'tiborli pedagog bo'lish mumkin emas. Chunki o'qituvchi jamiyatning yosh avlod ta'lim-tarbiyasiqa qo'yan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ijrochisidir. Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov hozirgi paytda o'qituvchilar olidiga davlat va jamiyat qo'yan talablarni quyidagicha bayon qilib berdi:

«Tarbiyachi-ustoz bo'lish uchun boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun eng avvalo, tarbiyachining o'zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak».

O'qituvchilarga axborot va pedagogik texnologiyalar asosida yangi shakl va mazmundagi kasbiy malaka berish ishi shunchalari keng qamrovli, ko'p qirrali, katta ko'lamlarga ega bo'lgan jarayondir.

Oliy ta'lif uzluksiz ta'lif tizimining alohida bosqichi sifatida o'z oldiga yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadini qo'yadi, bu o'quv maskanlari o'quvchilari chuqur umumilmiy bilimlarga va faoliyatning tanlab olingen sohasida zarur kasbiy ko'nikmalarga ega bo'ladilar, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ham ushbu ta'lif bosqichi doirasiga kiradi. Bilish va voqelikni qayta o'zlashtirishning qudratli vositalarini olgan holda maxsus fanlar asoslarining mustahkam bilimlaridan foydalanib-gina qolmasdan, ishlab chiqarishni tashkil etish, ijtimoiy amaliyotni rivojlantirish, tom ma'noda moddiy va ma'naviy madaniyatni o'z ijodiy mahsulotlari bilan boyitish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadriyatlariga hamda hozirgi zamon madaniyati, iqtisodiyoti, ilmi, texnikasi va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lif tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy qilish zarurligi ko'p karra takrorlanadi. Pedagogik texnologiyalarning o'zi nima va u an'anaviy ta'lif metodlaridan nimasi bilan farqlanadi?

Hozirgi kunda pedagogik adabiyot, ta'lif muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda «yangi pedagogik texnologiya», «ilg'or pedagogik texnologiya», «zamonaviy pedagogik texnologiya» iboralari keng qo'llanmoqda. «Pedagogik texnologiya bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'z oldiga ta'lif sifati va samaradorligini oshirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olgan holda, bilimlar mazmunini ishlab chiqish, qo'llash va belgilashning tizimli uslubidir». Bu ta'rifdagи asosiy tushuncha «tizimli uslub» ekanligi ravshan, qolgan barcha so'zlar pedagogik texnologiyaning tizimi sifatidagi tarkibiy elementlarini ifodalaydi. Ayni tizimli yondashuv pedagogik texnologiyaning o'qitishda boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi. Ta'lif maqsadlari, uning mazmuni, o'qitish va ta'lif berish uslublari, nazorat va natijalarni baholashni o'zaro aloqa va bir-biri bilan bog'liqlikda loyihalashdan iborat. Masalan, axborotni eslab qolishga yo'naltirilgan, ta'lif oluvchining bo'lajak faoliyati esa muayyan ishlarni bajarish yoki tashkiliy boshqaruv va qarirlarni qabul qilish bilan bog'liq bo'ladi.

Pedagogik adabiyotlarda pedagogik texnologiyaning ta'riflari (V. Bespalko, N.N. Azizzodjayeva, V. Guzeyev, V. Slastenin, I. Volkov, O'.K. Tolipov, N.S. Saydaxmedov, M.V. Klarin, I. Lerner va boshqalar) ham keltiriladi, ammo ularning biron-tasi YUNESKO ta'rifi darajasiga ko'tarila olmagan. Aytib o'tilgan olimlar orasida pedagogik texnologiya to'g'risidagi axborotni MDH mamlakatlari, jumladan, O'zbekistonda tarqalishida V. Bespalko va M.V. Klarinlarning ta'siri kuchliroq, M.V. Klarin-ning pedagogikadagi texnologik yondashuvining tarkibiy tuzilishi va mazmuni to'g'risida birmuncha to'laroq ma'lumotlar berilgan.

Pedagogik faoliyatda ba'zida «pedagogik texnologiya» tushun-chasi bilan foydali bo'lsada, avval o'zlashtirilgan va texnologik qurilmagan o'qitish uslublari ataladi. Aslini olganda, pedagogik texnologiya bu o'qitishga o'ziga xos bo'lgan yangicha (innovatsiya) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedago-gika sohasiga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya uslublari (o'zining boshlang'ich ma'nosida) dastlab o'qitishning harakatini namunaviy vaziyatidagi (belgilangan qoida bo'yicha) o'zlashtirish talab etiladi-gan mahsuldor (reproduktiv) darajasi uchun ishlab chiqilgandi. Reproduktiv ta'lim har qanday ta'limning zarur tarkibiy qismi hisoblanadi, u insoniyat jamg'argan tajribani aniq o'quv fani doirasida o'zlashtirish bilan bog'liq. Ta'lim oluvchilarda bilim va ko'nikmalarning ma'lum poydevori hosil qilinganidan keyingi-na, ta'limning natijali produktiv va ijodiy yondashish uslublariga o'tish mumkin.

Sanoatda «yuksak texnologiyalar» iborasi bor. Ular, odatda, juda murakkab bo'ladi, katta sarmoyalalar sarflanishini talab qila-di. Fanning so'nggi yutuqlariga asoslanadi. Xodimlardan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi. Shunday bo'lsada, ular mahsulotning yuqori sifati va raqobatbardoshligini, pirovard natijada salmoqli foydani ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyani o'qitishdagi «yuk-sak» uslubiyat qatoriga kiritish mumkin, ammo uning joriy qilini-shi katta sarf-xarajatlarni talab qilmaydi. Ta'lim sifatining kaliti pirovard oqibatda alohida o'quv yurti va aniq o'qituvchi deydigan bo'lsak, pedagogik texnologiyani o'zlashtirish asosan pedagog-larni o'qitishni talab qiladi. Pedagogikada o'quvchilarning ta'lim

jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir necha o'qitish usullari ishlab chiqilgan: muamoli o'qitish, ish faoliyatini ifodalovchi o'yinlar, rollar bajarish, mavzuli o'qitish va hokazo. Ammo ular uzuksiz ta'lim tizimida keng qo'llaniladi, deb bo'lmaydi. Bizning fikrimizcha, buning sababi har bir mashg'ulotlarga tayyorgarlik pedagogik izlanishni ko'zda tutishi, yuksak kasbiy mahoratni, ijodiy yondashuv va ko'p vaqt sarflashni talab qilishida bo'lsa kerak. Odatda har bir bunday mashg'ulot ssenariysi o'ziga xos xususiyatiga ega va betakrordir. Tubdan farq qiluvchi ta'lim turlarini ko'rib chiqamiz: og'zaki-ko'rgazmali, texnologik va izlanuvchan-ijodiy. Og'zaki-ko'rgazmali (illyustrativ) yondashuv bu an'anaviy bo'lib va asosan o'qituvchining axborot berishi, o'quvchilarning bilimni qabul qilishi, to'plashi va xotirasida saqlashi bilan belgilanadi.

Ma'lumot berish tizimida tayyor bilimlarni «o'qituvchi o'quvchilarga», bu bilimlarga ularning ehtiyoji va faollik darajasi bilan bog'liq bo'lмаган holda, bevosita berish mumkin bo'lган imkoniyatdan kelib chiqadi. Shunga ko'ra o'qituvchining asosiy vazifasi zaruriy axborotni ma'lum qilish va uni xotirada mustahkamlash ustida ishlashdir.

Bunday o'quv jarayonida o'quv fanining soatlar miqdori, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar oralig'ida soatlar taqsimoti, dars o'tish joyi qat'iy belgilab olinadi.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, oraliq natijalarni tashxisli tekshirib borish, ta'limni alohida o'qitish, lavhalarga ajratish kabi usullar hozirgi kunga kelib qayta-qayta takrorlash mumkin bo'lган ta'lim texnologiyasi g'oyasida mujassamlangan.

U asosan o'z ichiga quyidagi omillarni oladi (bunda qisqacha mazmuni berilgan):

- ta'limda umumiylar maqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umumiylar maqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- o'quvchilarning bilim darajalarini dastlabki (tashxisli) baholash;

— bajariladigan o'quv tadbirlarning majmuasi (bu bosqichda o'quvchilar bilan muloqot asosida ta'limga joriy tuzatishlar kiritilishi lozim);

— natijani baholash.

O'quv jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etishning rejalashtirish bosqichida, yetakchi uslubchi-o'qituvchilar guruhi pedagogik texnologiyaning qonun-qoida va tamoyillari asosida uslubiy ashyolarni ishlab chiqish paytlarida yuqoriqo malaka talab etiladi. Loyiha tayyor bo'lgach, o'qituvchi asosan tashkiliy va maslahatchi (ijodiy qo'shimchalar kiritish imkonini saqlagan holda) vazifalarni bajaradi.

Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, o'quvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatish, pedagogik texnologiyaning falsafiy asosi hisoblangan o'quvchining xatti-harakati orqali o'qitishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'liq qamrab olishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'larning yangi modeli, ya'ni yangi pedagogik texnologiya asosida dars mezonini boyitib borish zarurligi haqida uqtirib o'tilgan. O'quv jarayonini texnologiyalashtirish, dars mazmunini yangi axborot texnologiyalari bilan boyitish, hozirgi zamон talabidir.

Pedagogik texnologiya bu o'qituvchi faoliyatini yangilovchi o'quv jarayonining belgilangan maqsad va mazmun asosida loyihalangan, shuningdek, o'quvchi shaxsini shakllantiruvchi, ta'lilda yakuniy natijani kafolatlaydigan omillar yig'indisidan iboratdir.

Endi metodikaga kelsak, o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish (naazorat qilishning og'zaki, yozma, savol-javob, aralash, test va hokazo) va o'tkazish borasidagi tavsiyalar yig'indisidir.

Yangi pedagogik texnologiya deganda o'qitish maqsadlarini yo'lga qo'yish, o'quv jarayonini tuzish va uni samaradorligini o'zida qamrab olgan, o'quv jarayonining to'liq boshqaruvchanlik g'oyasidan iborat bo'lgan mazmun tushuniladi.

Shunday qilib, ilgaridan loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o'zidan metodlar tizimini, ta'larning usullarini, o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyat ko'rsatish imkoniyatlari va vositalarini, o'quvchilarning ijobjiy

shaxsiy sifatlarini rivojlantirish maqsadini, yakuniy natijalarga erishish mohiyatini mujassamlashtiradi.

2. Zamonaviy pedagogik texnologiya turlarini ta'lim jarayonida qo'llanishi. «Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri, ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.


Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining smaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Bugungi kunda o'qituvchilar darslarni, darsdan tashqari tarbiaviy tadbirlarni tashkil etishda o'quvchini faollikka undash, unda mustaqillik, ijodiy izlanish ko'nikmalarini hosil qilishda samarali sanalgan interfaol metodlardan foydalanishga e'tibor qaratishlari lozim. Ayni o'rinda o'qituvchilarning interfaol metodlar haqidagi bilimlarini boyitish maqsadida bu turdag'i bir turkum metodlar to'g'risida so'z yuritish maqsadga muvofiq deb topildi. Quyida ularning turlari va mohiyati to'g'risida to'xtalib o'tiladi.

Aqliy hujum texnologiyasi. Aqliy hujum texnologiyasi biror muammoni yechishda o'quvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarini to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga keladigan samarali usullardan bividir. Aqliy hujum uslubini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilarini to'playdi, ular oldiga biror muammoli vaziyatni yechish bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini bildirishlarini so'raydi. Mazkur bosqichda o'quvchilardan hech biri boshqa qatnashuvchilarining g'oyasi, fikrini muhokama qilish yoki baholashi mumkin emas. Bildirilgan har qanday g'oya va fikrlar hisobga olinadi, qancha ko'p fikr va g'oyalar bildirilsa shuncha yaxshi. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish, kengaytirish, qayta o'zgartirish mumkin. G'oyalar yozilgan varaqlar

devorga osib qo'yiladi. Berilgan g'oyalalar asosida muammo ni hal etishga yordam beradigan yechimni tiklash uchun muhokama o'tkaziladi. Bu haqiqatan ham o'quvchilarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishlari, turli g'oyalarni bayon etish chog'ida boshqalarni ham qizg'in ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishlashlariga imkon beruvchi va unga rag'batlantiruvchi samarali metoddir.


O'qituvchi mavzu yoki savolni ajratib olishi zarur, keyin esa o'quv faolligi 5–10 daqqa oralig'idagi vaqt chegarasida yengil-lashtiriladi. Aqliy hujum turli shaklda qo'llanilishi mumkin: masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun yangi savol qo'yish yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish va hokazo.



Tarmoqlar (Klaster) texnologiyasi. Fikrlarning tarmoqlanishi bu pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biron-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'lagan holda tarmoqlashga o'rgatadi. Bu uslub biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning


fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkmalash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Bumerang texnologiyasi. Bumerang uslubi bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmunga (muammoli, munozarali va hokazo) ega bo'lgañ mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o'quvchi yoki o'qituvchi rolida chiqishi mumkin. Bumerang texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi: xotirani, g'oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.



Kichik guruhlarda ishlash texnologiyasi. O'qituvchi o'quvchilar bilan kichik guruhlarda ishlashni tashkil etishi uchun faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Muammodan bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi. Mavzuning kerakli asosi yaratiladi. Mavzuni o'rganishdan oldin o'quvchilar mazkur muammo haqida tushunchaga ega bo'lishlari lozim. Keyin guruh o'quvchilari kichik guruhlarga, ya'ni 3–5 kishidan bo'linishlari kerak. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga aniq ko'rsatmalar beriladi. Berilgan muammoni yechishda o'qituvchi o'quvchilarni qo'llab-quvvatlab va yo'naltirib turadi. Mavzu so'ngida muhokama qilinadi.

O'quvchi kichik guruhlarda ishlaganida darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtayi nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.



«Blits-so'rov» metodi. Blits-so'rov (inglizcha «blits» — tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo'nda javob qaytarilishini taqazo etadigan metod sanaladi. Unga ko'ra o'qituvchi o'rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqadi va o'quvchilarning e'tiborlariga havola etadi. O'quvchilar berilgan savolga qisqa muddatda, lo'nda va aniq javob qaytara olishlari lozim. Guruh yoki juftlikda ishlashda bir nafar o'quvchi berilgan savolga javob qaytaradi, uning sheriklari yoki guruhdoshlari javobni to'ldirishlari mumkin. Biroq, fikrlar takrorlanmasligi lozim. Metodni qo'llashda mavzuga doir tayanch tushunchalar, asosiy g'oyalarning mohiyati talabalar tomonidan og'zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

«T-jadval» texnologiyasi. Bu texnologiyada o'rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini yoritish maqsadida bir necha asosiy belgi, tayanch tushunchalarning mazmuni ularni bir-biri bilan o'zaro solishtirish, qiyoslash asosida ochib beriladi. Ko'p hollarda mazkur texnologiya mavzu asosini tashkil etuvchi bir necha holatlarning afzalliklari yoki kamchiliklarini, samaradorlik va samarasizlik darajasini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo'llaniladi. Ushbu texnologiyani qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 1) o'quvchilar e'tiboriga o'rganiladigan mavzu, masala yoki topshiriq havola etiladi;

- 2) o'quvchilar «T-jadval» metodini qo'llash shartlari bilan tanishtiriladilar;
- 3) o'quvchilar guruh (juftlik)larga biriktiriladilar;
- 4) ajratilgan vaqt oralig'ida guruh (juft)liklar jadval shaklida berilgan topshiriq mohiyatiga ko'ra qiyosiy taqqoslashni amalga oshiradi, ya'ni jadvalning chap va o'ng tomonlariga masalaning bir-biriga zid holatlarni bayon etadilar;
- 5) guruh (juftlik)lar tomonidan to'ldirilgan jadvallar o'zaro solishtiriladi;

6) masalaning yechimi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinib, yagona «T-jadval» shakllantiriladi.

«T-jadval» metodidan foydalanish uchun quyidagi sxema taqdim etiladi:

O'rganilayotgan masala (g'oya, omil)	
Afzalligi	Kamchiligi
1.	1.
2.	2.
...	...


Amaliy o'yinlar texnologiyasi. Amaliy yoki ishchan o'yinlar yan-gi mavzuni o'zlashtirish, takrorlash, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish vazifalarini bajarish imkonini beradi. O'quv jarayonida amaliy o'yinlarning turli shakllaridan foydalanish mumkin (taqlid qilish, rolli o'yinlar teatr darslari, sahna ko'rinishlari va hokazolar).

Taqlid qilish o'yinlarida mashg'ulot jarayonida tashkilot, korxona ishi taqlid etiladi (ish yig'ilishi, ish rejasining muhokamasi, muzokaralar, munozaralarni olib borish, sud, patent tashkiloti, ilmiy kengashlarda chiqishlar va hokazo).

Rolli o'yinlar darsida o'quvchi turli xil xarakterdagи inson obraziga qalban kirishib ketadi. O'yinda o'quvchilarga asosan tugal-lanmagan vaziyatlar aks etgan muammoli sahna ko'rinishi rollari beriladi. O'quvchilar ushbu berilgan muammoli rollarni mustaqil ravishda oxiriga yetkazib o'ynashlari lozim.

Teatr dasturlaridagi rolli o'yinlar boshqa insonlarni tushunishga o'rgatadi. Ushbu usul o'quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, hayotda har qanday sharoitda ham o'zini tuta bilishga,


tarbiyalanganligiga hamda mustaqil hayot kechirishdagi o'zining qarashlarini asoslab bera oladigan inson sifatida shakllantiradi.



«Baliq skeleti» metodi. Bu metod o'quvchilarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Metodni qo'llashda o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma'lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi:

- 1) o'qituvchi o'quvchilarni metodni qo'llash sharti bilan tanishtiradi;
- 2) ular guruhlarga biriktiriladilar;
- 3) guruhlar topshiriqlarni bajaradilar;
- 4) guruhlar o'z yechimlarini jamoaga taqdim etadilar;
- 5) jamoa guruhlar yechimlari yuzasidan muhokama uyushadiradi.

O'quvchilar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradilar:



«Keys-stadi» texnologiyasi. «Keys-stadi» (ingliz tilida «case») majmua, aniq vaziyat, «study» – ta’lim) texnologiyasi o‘quvchilarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiya o‘quvchilarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi.

Texnologiyaning samaradorligi o‘quv jarayonini quyidagi texnologik bosqichlarda tashkil etilishiga bog‘liq:

- 1) keys yechimini topish bo‘yicha individual ishslash;
- 2) keys yechimini topishda jamoaviy hamkorlikka erishish.

Mazkur texnologiyani qo‘llashda individual ishslashda quyidagi tartibda ish ko‘riladi:

1) o‘quvchining keys-stadi texnologiyasi mohiyati va undan foydalanish shartlari bilan tanishishi;

2) o‘quvchi tomonidan taqdim etilgan muammoning o‘rgанилиши;

3) muammo yuzasidan asosiy va ikkinchi darajali masalalarni ajratish, shakllantirish va asoslash;

4) tadqiqot metodlarini tanlash va vaziyatni tahlil qilish;

5) taqdim etilgan muammoning amaliy jihatlarini o‘rganish;

6) berilgan muammoni yechishning usul va vositalarini aniqlash;

7) taqdim etilgan yechimni ta’lim amaliyotiga tatbiq etish chora-tadbirlarini belgilash.

Keys-stadi bo‘yicha jamoaviy hamkorlik quyidagi tartibda amalga oshadi:

1) muammo, uning yechimlari yuzasidan jamoa (guruh) a’zolari o‘zaro fikr almashadilar;

2) masalaning yechimi sifatida taqdim etilgan variantlar muhokama qilinib, ularning maqbullik darajasi baholanadi;

3) muammoli vaziyatning yechimini ta’minlaydigan aniq dasatur ishlab chiqiladi;

4) masalaning yechimi to‘g‘risida ma’lumot beradigan taqdimot tayyorlanadi va unda namoyish etiladigan materiallar rasmiylashtiriladi.

«Nilufar guli» texnologiyasi. Bu texnologiya didaktik muammolarni yechishning samarali vositalaridan biri bo‘lib, shaklan ni-lufar guli ko‘rinishiga ega. Yagona asos, unga birikkan to‘qqizta

«gulbarg» (kvadrat, to'rtburchak yoki aylanalar)larni o'z ichiga oladigan mazkur metod yordamida yetakchi muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi. O'quvchilarda hal etilayotgan masala yuzasidan mantiqiy, izchil fikrlash, ichki mohiyatini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan mazkur metoddan foydalanish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 1) hal etiladigan masala aniqlashtiriladi;
- 2) o'quvchilar topshiriq mazmuni va uni yechish shartlari bilan tanishtiriladilar;
- 3) o'quvchilar kichik guruuhlar (yoki juftliklar)ga biriktiriladilar;
- 4) guruuh yoki juftlik a'zolari markaziy to'rtburchak (kvadrat, aylana)da asosiy muammo (g'oya, vazifa)ni qayd etadilar;
- 5) mazkur masala yechimi yuzasidan fikr yuritib, markaziy to'rtburchak (kvadrat, aylana) atrofida sakkizta xuddi shunday yordamchi chizmalarni hosil qiladilar, ularda masalaning xususiy yechimlarini bayon etadilar;
- 6) yordamchi shakllarda ifodalangan g'oyalarni «gulning barglari»ga, ya'nii alohida yana shunday majmuaga olib chiqadilar (o'z navbatida ularning har biri yana bir muammo ko'rinishini oladi);
- 7) yordamchi chizmalarda ham asosiy muammo (g'oya, vazifa) yoritilgan chizma kabi «gulbarglar»da xususiy masala va yechimlar aks ettiriladi;
- 8) o'rganilayotgan masalaning mohiyatidan kelib chiqib, bu jarayon bir necha bor takrorlanishi mumkin;
- 9) har bir guruuh yoki juftliklar topshiriq yuzasidan o'z yechimlarini taqdimot tarzida bayon etadilar;
- 10) guruuhlar tomonidan taqdim etilgan yechimlar muhokama qilinadi va eng to'g'ri variant aniqlanadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Pedagogik texnologiyaning mazmun mohiyatini izohlab bering.
2. Pedagogik texnologiyalarning o'zi nima va u an'anaviy ta'lif metodlaridan nimasi bilan farqlanadi?
3. Pedagogik texnologiyaga pedagogik adabiyotlarda kimlar tomonidan ta'riflar keltirilgan?

4. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati nimalardan iborat?
5. Pedagogik texnologiya o'z ichiga qanday omillarni oladi?
6. Zamonaviy pedagogik texnologiya turlarini ta'lif jarayonida qanday yo'llar bilan qo'llash mumkin?
7. Aqliy hujum texnologiyasini izohlab bering.
8. Tarmoqlar va bumerang texnologiyalari darsning qaysi bosqichlarida qo'llanadi?
9. Kichik guruhlarda ishlash va amaliy o'yinlar texnologiyalari qanday dars turlarida qo'llanadi?
10. «Blits-so'rov» metodi va «T-jadval» texnologiyasini izohlab bering.
11. «Baliq sekleti» metodi va «Nilufar guli» texnologiyasini izohlab bering.
12. «Keys-stadi» texnologiyasi qanday bosqichlarda amalga oshiriladi?

Mustaqil ta'lif topshiriqlari:

1. 8–9-sinflarda kasb tanlashga yo'llash shakllarining mazmun-mohiyatini jadval ko'rinishiga keltirig.
2. 5–7-sinflarda mehnat ta'limi fanidan olib boriladigan mashg'ulotlarda qo'llaniladigan dars turlari, shakllari, metodlari va vositalarini maxsus jadval ko'rinishiga keltirig.
3. 5–9-sinflarda mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslarida mavzular bo'yicha foydalaniladigan dars metodlarini tahlil qiling.
4. Zamonaviy ta'lif vositalarining turlari va tavsifi. Ta'lif vositalarining rivojlanish istiqbollari. Elektron darsliklardan foydalanish kabi mavzular yuzasidan referat tayyorlash.
5. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida xavfsizlik texnikasi qoidalariiga e'tibor berishning o'ziga xo's jihatlarini tahlil qiling.
6. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslari bo'yicha korxonalarga uyushtirilgan ekskursiya natijalari bo'yicha referat va albom tayyorlash.
7. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslarida interaktiv usullarni qo'llash yuzasidan dars ishlanmasini tayyorlash.

V bob. MEHNAT TA'LIMI METODIKASI, KASB TANLASHGA YO'LLASH FANIDA REJALASHTIRISH

5.1. Mehnat ta'lifi va kasb tanlashga yo'llashni rejalahshtirish

Reja:

1. Rejalahshtirishning maqsad va vazifalari.
2. Mehnat ta'lifi, kasb tanlashga yo'llash jarayonini rejalahshtiruvchi hujjatlar.
3. Taqvimiy mavzuli rejani tuzish.
4. O'quv ustaxonalarida bajariladigan ishlar ro'yxatini ishlab chiqish.
5. Fanlarning o'zaro bog'lanish rejasi.
6. Dars rejasi va uning bayon qilinishi.

Tayanch iboralar: rejalahshtirish, o'quv reja, o'quv dasturi, taqvimiy mavzuli reja, fanlararo bog'lanish, dars rejasi, dars bayoni.

1. Rejalahshtirishning maqsad va vazifalari. Mehnat ta'lifi va kasbga yo'llashni rejalahshtirishdan maqsad o'quv jarayonini aniq tashkil etishdan iborat bo'lib, u ta'limga tamoyillariga va DTS talablariga to'la-to'kis javob beradigan bo'lishi kerak. Mehnat ta'lifi boshqa umumiy ta'lim fanlaridan farq qilib, ta'limni tashkil etishda o'ziga xos xususiyatga egadir. O'quv jarayonini to'g'ri rejalahshtirish orqali o'qituvchi va o'quvchilarining o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlarida mehnat ta'limining vazifalari va maqsadlariga, uning tamoyillariga va o'quvchilar bilan ishlashga qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq hamma ishlarni oldindan ko'rish mumkin.

O'quv jarayonini rejalahshtirish o'qituvchining mashg'ulotlarga tayyorlanishida asosiy o'rinni tutadi. O'qituvchining mashg'ulotlarga tayyorlanishi ikki bosqichni o'z ichiga oladi. Bu jarayon o'quv reja, kasb ta'limga oid taqvimiy mavzuli reja va dasturni o'rganishdan boshlanadi. Mehnat ta'lifi o'qituvchisi bu hujjatlar bilan tanishar ekan, tegishli sinf o'quvchilarida umumiy mehnat bilimlari va amaliy ko'nikmalarini qaysi kasb turlari bo'yicha va qanday hajmda shakllantirish lozimligini aniq tasavvur qiladi. Buning uchun qanday asbob-uskunalar, moslamalar va ish qurollari ke-

rakligi, o'quvchilar mehnat ta'limi dasturi talablarini to'liq bajarish uchun darslarda qanday buyumlarni tayyorlashlari kerakligini va shunga binoan ularni tayyorlash uchun qanday materiallar talab qilinishini bilib oladi.

O'quv jarayonini rejalashtirishda o'qituvchi quyidagi asosiy didaktik vazifalarni hal qiladi: o'quv jarayonini moddiy jihatdan o'z vaqtida ta'minlash imkonini yaratiladi, xususan, ustaxonalarni turli materiallar va asboblar bilan ta'minlash muddatlari oldindan ma'lum bo'ladi; mehnat mashg'ulotlarining mazmuni bilan boshqa o'quv fanlarining mazmuni orasidagi bog'lanish yoritiladi; turli ustaxonalarning o'zaro muvofiq ish olib borishiga erishiladi, ustaxonalardagi mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning ishlarini vaqt bo'yicha moslashtirish juda muhim bo'lib, moddiy ta'minot bazasidan samarali foydalanish; chorak, yarim yillik va yillik yakunlarini chiqarishda o'qituvchi uchun o'quv rejasingin bajarilishini nazorat qilishni osonlashtiradi.

Mehnat ta'limini va kasbga yo'llashni rejalashtirish har bir o'quvchining ta'lim rejasi va dasturini bajarishini; mehnat bo'yicha o'quv materiali mazmuniga to'liq javob beradigan ta'lim ishlab chiqarish obyektlarini to'g'ri tanlashni, mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash fanlariga oid mashg'ulotlarni, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish talablariga muvofiq ravishda samarali yo'nga qo'yishni ta'minlashi kerak.

2. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash jarayonini rejalashtiruvchi hujjatlar. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llashni rejalashtiruvchi hujjatlar o'quv jarayonining hamma tomonlarini hisobga olgan holda tuzib chiqilishi kerak.

O'quv rejasi. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llashni tashkil etish o'quv reja asosida olib boriladi. O'quv rejasi davlat hujjatidir. Har bir sinfda o'tiladigan fanlar, haftada necha soatdan va o'quv yili davomida jami shu sinfda necha soat dars o'tilishi kerak ekanligi ko'rsatuvchi hujjat bo'lib, xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv dasturi. Har bir fan bo'yicha alohida-alohida mavjud bo'lib, mehnat ta'limi bo'yicha o'quv dasturi boshqa fanlar dasturidan farq qiladi. Mehnat ta'limi bo'yicha o'quv dasturi har bir sinfda ushbu fan bo'yicha o'quvchilarni qanday bilim va malakalar bilan qurollantirish kerak ekanligi, bu malakalar bilan qurol-

lantirish uchun qanday ish obyektlarini tanlash mumkinligi, ularni bajarishda ishlatiladigan asbob-uskunalar, texnik-texnologik ma'lumotlar hajmi va izchilligi, ularni qanday bo'limlarga ajratib o'rghanish kerakligi, shuningdek, har bir bo'limni o'rghanish uchun ajratilgan soatlar me'yori ko'rsatilgan bo'lib, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan bo'ladi.

Rejalahtirishda mehnat ta'limi va kasbga yo'llash bo'yicha taqvimiyl mavzuli reja, mehnatning har bir turi bo'yicha o'quv ishlab chiqarish ishlarining ro'yxati, mehnat ta'limi darslarini tabiiy-ilmiy sikldagi fanlar bilan bog'liqlik grafigi va muayyan mavzu bo'yicha darsning batafsил rejasi tuziladi.

Rejalahtiruvchi hujjatlar		
Mehnat ta'limi o'quv dasturi	O'quv rejasi	Tabiiy-ilmiy sikldagi fanlar o'quv dasturlari
O'quv ustaxona-sida qilinadigan ishlar ro'yxati	Darslar bo'yicha mavzuli reja	Mehnat ta'limining tabiiy-ilmiy sikldagi fanlar bilan bog'liqlik grafigi
Taqvimiyl mavzuli reja		
Metodik adabiyotlar		Dars rejasi
Darslik	Konspekt	Mashg'ulot

3. Taqvimiyl mavzuli rejani tuzish. O'quv rejasi va o'quv dasturi asosida har bir maktab o'qituvchisi tomonidan mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda taqvimiyl mavzuli reja ishlab chiqiladi va muktab metodik birlashmasi, pedagogik kengashi muhokamasi orqali muktab direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Taqvimiyl mavzuli rejaning har bir bo'limi qanday mavzularga ajratilib, ular qanday ketma-ketlikda, necha soatdan va o'quv yilining qaysi qismlarida o'qitilishi belgilab olinadi. Bu mavzular o'qitishning qaysi shakl, metodi yordamida o'rgatilishi, har bir mavzuni o'qitishda qaysi ishni bajarish, buning uchun qanday asbob-uskunalar, xomashyo, texnik-texnologik hujjatlar zarurligi, shuningdek, o'qitishning texnikaviy vositalari, adabiyot va metodik qo'llanmalarning qaysilari zarur bo'lishini oldindan ko'rsatuvchi hujjat bo'lib, har bir sinf uchun yarim yoki bir yilga mo'ljallab tuziladi.

Taqvimiy mavzuli rejani to'liq ishlab chiqish quyidagi jadvalning barcha ustunini metodik jihatdan to'g'ri hal etgan holda to'ldirilishini taqazo etadi.

№ tartib	Xomashyo								Asbob-uskunalar							
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
Mavzu va mavzuchalar		Ajratilgan soat	O'qitish vaqtি	O'qitish shakli	Dars metodi	Ish obyekti	O'ichov	Ishchi	Jihoz va moslamalar	Texnik hijiyatlar	Fanlararo bog'lanish	Texnik vositalar	Ishchi kasbilar	Adabiyotlar	Izoh	

Bu jadvalni to'liq to'ldirilishi uchun o'quv ustaxonasida qilinadigan ishlar ro'yxati va mehnat ta'limining tabiiy-ilmiy sikldagi fanlar bilan bog'liqlik grafigi kerak bo'ladi. Xuddi shuningdek, darslarning taqvimiy mavzuli rejasini tuzish uchun bu ro'yxat va grafikning o'zi kifoya qilmaydi, ular o'zaro bir-biri bilan va bog'liqidir, chunki qaysi mavzu uchun qanday ish obyekti tanlash kerakligi va uning izchilligini yoki boshqa fanlardagi mavzuga qaysi mavzuni bog'lab o'tish kerakligini aniqlash uchun birinchi navbatda mehnat ta'limi darslarida o'tiladigan mavzular va ularning ketma-ketligini aniqlash zarur bo'ladi. Shu sababli taqvimiy mavzuli rejani to'liq ishlab chiqish ikki bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda o'tiladigan mavzular nomi, ularni o'qitish ketma-ketligi, unga ajratilgan soat va o'qitish vaqtি aniqlanadi.

Ikkinchi bosqichda o'quv ustaxonasida qilinadigan ishlar ro'yxati va mehnat ta'limining tabiiy-ilmiy sikldagi fanlar bilan bog'liqlik grafigi tuzilganidan so'ng qolgan ustunlar to'ldiriladi.

Darslar bo'yicha taqvimiy mavzuli reja ishlab chiqishning birinchi bosqichida har bir sinf uchun o'quv dasturidan boblar uchun ajratilgan soatlar bilan tanishib chiqish kerak bo'ladi. Tegishli boblarda o'quvchilar uchun yetkazilishi kerak bo'lgan Texnik ma'lumotlar va bajarilishi kerak bo'lgan amaliy ish mazmuni belgilanadi, o'quv dasturidan dastlab boblarni, so'ng shu boblar mazmunini qamrovchi mavzular ajratiladi.

Mavzularning o‘qitilish tartibi tahlil qilinadi va o‘rinli joylashtirib chiqiladi, dasturning mavzuli reja qismida bob uchun ajratilgan umumiy soatlar miqdorini mavzularga mazmuni, hajmi va o‘zlashtirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda taqsimlab chiqiladi.

Beshinchi ustun, o‘qitish shakli – o‘quvchilarni bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish uchun ular qay tarzda tashkil etilganligini xarakterlaydi. Mehnat ta’limini o‘qitishning bir necha xil shakllari mavjud bo‘lib, ular maktabdagi ta’lim-tarbiyaviy ishlar xarakteri, mahalliy shart-sharoitlar va ta’limning umumiy maqsad hamda vazifalarini hisobga olgan holda tanlanadi. Tashkiliy shakl deganda o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgan o‘quvchilar o‘quv-mehnat faoliyatini tashkil etish va rahbarlik qilish usullarini tushunmoq kerak. Bu shakllar har bir mavzu mazmuni va uning oldiga qo‘yilgan maqsadlariga ko‘ra tanlanadi. Ba’zan birgina darsning o‘zi 2–3 xil shaklda ham tashkil etilishi mumkin.

Oltinchi ustunda, o‘qitish metodi – o‘qituvchi tomonidan bilim, malaka va ko‘nikma singdirilishi va o‘quvchilar tomonidan bu bilim, malaka, ko‘nikmalarni o‘zlashtirishining o‘ziga xos usullarini xarakterlaydi.

Yettinchi ustunda, ish obyekti – har bir mavzuni o‘qitishda nazariya bilan amaliyotning birligi qoidasiga amal qilinishini ta’minlashi zarur. Shu sababli berilayotgan ishlar bir-biriga mos kelishi kerak. Bu narsani nisbiy hal etishda o‘quv ustaxonasida qilinadigan ishlar ro‘yxatidan foydalilaniladi. Birinchi ish obyektiini qaysi mavzuni o‘qitishdan boshlab qaysi mavzuda tugatilishi kerakligini aniqlab, so‘ngra buning uchun ajratilgan vaqtlanri hisobga olgan holda to‘ldiriladi. Bunda har bir darsda kirish instruktaji va boshqa tashkiliy ishlar uchun sarflanadigan vaqtlar hisobga olinishi kerak.

Sakkizinchidan to o‘ninchи ustungacha tanlangan ish obyektiini tayyorlash uchun qanaqa xomashyo (aniq turi, o‘lchamlari) kerakligi, qanday o‘lchovlarni bajarish va ishlov berish uchun qanday asboblar, texnologik kartalar zarur ekanligi ko‘rsatiladi.

O‘n birinchi ustunda jihoz va moslamalar, ish bajarishda foydalilanidigan dastgohlar yoki qurilmalar ko‘rsatiladi.

O‘n ikkinchi ustunga texnik hujjatlar, ya’ni dastgohlar yoki qurilmalarning pasportlari yoki boshqa texnik hujjatlari kiritiladi.

O'n uchinchi ustunda fanlararo bog'lanishlar ko'rsatiladi, mehnat ta'limingining tabiiy-ilmiy sikldagi fanlar bilan aloqadorligi grafigiga asoslangan holda har bir mavzuni boshqa fanlardan o'rganilgan qaysi bo'limning qaysi mavzusiga bog'lab o'tish mumkinligi oldindan rejalashtiriladi.

O'n to'rtinchchi ustunda o'qitishning texnikaviy vositalari — tegishli mavzuni o'rgatishda O'TV ning qayi turi qo'llanishi mumkin ekanligi (sharoitni hisobga olgan holda) ko'rsatiladi.

O'n beshinchi ustunda mavzuga taalluqli ishchi kasblari va kasbkorlik haqida ma'lumot beriladi.

O'n oltinchi ustunda o'qituvchi va o'quvchi ushbu mavzu mazmuni bilan qaysi adabiyot yoki qo'llanmaning qaysi beti, nechanchi mavzusida tanishishi mumkinligi aniq ko'rsatiladi.

O'n yettinchi ustunda izoh berilishi mumkin, ya'ni biror sabablarga ko'ra o'quv dasturi yoki taqvimiylar mavzuli rejada o'zgarish sodir bo'lib qolsa, dasturning bajarilishiga oid ko'rsatmalar va boshqa izohlar berilishi mumkin.

4. O'quv ustaxonalarida bajariladigan ishlar ro'yxatini ishlab chiqish. O'quv ustaxonasida qilinadigan ishlar ro'yxati — har bir sinfda o'quv yili davomida qanday ishlarni bajara olish imkoniyati mavjudligini oldindan aniqlash, bu ishlarni bajarishda nazariya va amaliyotning bir-biriga mutanosibligini amalga oshirish hamda ularni qanday ketma-ketlikda bajarish kerakligini ko'rsatuvchi hujjat bo'lib, har bir maktab o'qituvchisi mahalliy shart-sharoitlar, tushgan buyurtmalar, o'quv dasturida ko'rsatilgan ish obyektlarining namunaviy ro'yxatini hisobga olgan holda taqvimiylar mavzuli rejaga solinib ishlab chiqiladi va maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv ustaxonasida qilinadigan ishlar ro'yxati va taqvimiylar mavzuli reja bir vaqtida tuziladi. O'quv ustaxonasida qilinadigan ishlar ro'yxati bu ishlar o'quvchilar tomonidan dars davomida bajariladigan bo'lganligi uchun o'quvchilar yil davomida qancha vaqt amaliy ish bilan mashg'ul bo'lishlarini aniqlashdan boshlanadi. Buning uchun o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan taqvimiylar mavzuli reja tahlil etilib, quyidagi savollar aniqlashtiriladi: qaysi mavzularni o'qitishda o'quvchilar amaliy ish bajarmaydilar masalan, nazariy darslarda, «Yog'ochlarning tuzilishi va ularning xossalari», «Tokarlik vintqirqish stanogining umumiyligi tuzilishi va ishslash prinsipi», «Korxonalarga ekskursiya» va h.k.

Amaliy soatlarning umumiy yig'indisi aniqlanadi. Har bir amaliy mashg'ulotda o'qituvchi darsning tashkili qismi va kirish instruktaji hamda darsni yakunlash uchun har bir darsning 1\4 qismini, ya'ni 25% gacha sarflashi kerak. Yuqoridalarni hisobiga olgan holda o'quvchilarning o'quv yili yoki choragi davrida tegishli bo'lim bo'yicha amaliy ishlarni bajarishlari uchun qancha vaqt ishlashlari aniqlanadi.

Faraz qilaylik, biriktirilgan sinf bo'yicha yog'ochlarga ishlov berish uchun X soat rejalashtirilgan, Shulardan U soatida faqat nazariy darslar to'g'ri keladigan vaqt. Amaliy mashg'ulotlar uchun X-U soat vaqt qoladi. O'quvchilarning amaliy ishlar bilan band bo'ladigan sof soatlari quyidagicha bo'ladi:

$$(X-U) * \frac{3}{4} \text{ soat} \leftrightarrow (X-U) * \frac{3}{4} * 45 \approx 34 * (X-U) \text{ min}$$

Demak, tanlagan bo'lim bo'yicha rejalashtiriladigan ishlarni o'quvchilar $(X-U) * \frac{3}{4}$ soatda bajara oladigan bo'lishlari kerak.

Bu amaliy ishda bajarilishi zarur bo'lgan ikkinchi topshiriq tegishli sinfda qanday ish obyektlarini bajarish mumkinligini aniqlashdan iboratdir.

O'quv dasturida har bir sinfda har bir bo'lim bo'yicha bajarish uchun tavsiya etilgan bir qancha ish obyektlarining taxminiy ro'yxati keltirilgan. Bundan tashqari, maktabga tushgan buyurtmalar, maktab ehtiyoji uchun kerakli bo'lgan ish obyektlari ham bo'lishi mumkin. Bu ish obyektlarini sinflar bo'yicha rejalashtirishda har bir sinfda o'rganilgan mavzu, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan operatsiyalar ish turlari hamda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari hisobga olinadi, yuqoridagi ish obyektlari o'quv dasturi talablariga mos kelsa, birinchi navbatda maktabga tushgan buyurtma va maktab uchun zarur bo'lgan ish obyektlari rejalashtiriladi.

Gorizontal grafaga tegishli sinfgacha va ushbu sinfda o'quvchilar qanday ish turlarini o'rganishlari dasturda ko'rsatilgan bo'lsa, barchasi biror ish obyektini bajarish ketma-ketligida yozib chiqiladi. Ikkinci vertikal ustunga rejalashtirilgan ish obyektlari osondon qiyingga tomon yozib chiqiladi. Har bir ish obyektida qaysi turi qatnashadigan bo'lsa, qalam bilan plus (+) belgisi qo'yib chiqiladi. Eng kam ish turlari qatnashadigan ish obyekti birinchi pog'onaga, ko'p qatnashadigani esa ikkinchi,

uchinchi va hokazo ketma-ketlikda joylashtirib chiqiladi. Mazkur sinf o'quvchilari tegishli ish obyektidagi operatsiyalarning har birini bajarish uchun sarflanadigan vaqlarni minutlar hisobida ifodalab plus belgisi o'rniiga yozib chiqiladi. Har bir ish obyekti bajarish uchun qancha vaqt sarflash undagi operatsiyalar uchun sarflanayotgan vaqlar yig'indisi teng bo'ladi.

Har bir bo'limda sinflarda bajariladigan ish obyektlari soni ularni bajarish uchun sarflanadigan vaqt orqali aniqlanadi. Bu vaqt $3/4 * (X-U)$ minutdan oshmasligi kerak.

Masalan:

5-sinf uchun «Mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalari» bo'limlarini o'qitish uchun 14 soat ajratilgan. Dasturdagi ish obyektlarining namunali ro'yxati quyidagicha:

- 1) prizma shaklidagi detallar tayyorlash;
- 2) geometrik shakllar tayyorlash;
- 3) plakatlar uchun reyka;
- 4) oziq-ovqat mahsulotlarini chegaralab ajratuvchi taxtachalar;
- 5) taglik taxtalar;
- 6) bolalar kurakchasi;
- 7) donxo'rak;
- 8) bo'r va mayda detallar uchun quticha;
- 9) instrumentlar saqlash uchun quticha;
- 10) yer o'lhash uchun sirkul;
- 11) arralash uchun moslamalar;
- 12) arra chapporasini charxlashda foydalaniladigan tutqich;
- 13) duradgorlik verstagi uchun xona;
- 14) uylar modellari;
- 15) kema modeli;
- 16) traktor modeli;
- 17) avtomobil modeli va h.k.

Dasturga asoslanib darslar bo'yicha mavzuli reja tuzib chiqilsa, ulardan 6 soatlik mavzu nazariy dars sifatida o'tiladi, unda o'quvchilar ish o'rni va uni tashkil etish, yog'och materiallari turlari va ularning tutgan o'rni, yog'och materiallari turlariga oid turli ma'lumotlarni o'rganadilar.

Dastur bo'yicha bu 14 soatda o'quvchilar quyidagi ish turlarini bajarishni o'rganishlari kerak:

- 1) ish obyekti uchun xomashyo tanlash va tayyorlash;
- 2) rejalah;

- 3) uzunasiga arralash;
- 4) ko'ndalangiga arralash;
- 5) randalash;
- 6) parmalash;
- 7) mix va burama mixlar, kley bilan biriktirish;
- 8) egovlar bilan ishlov berish;
- 9) jilvir qog'oz bilan jilvirlash;
- 10) lak va bo'yoqlar bilan ishlov berish.

O'quvchilarning bevosita amaliy ish bilan mashg'ul bo'ladigan vaqtлari aniqlanadi.

X-14 soat,

$$(X-U) * \frac{3}{4} = (14-6) * \frac{3}{4} = 6 \text{ soat} = 6 * 45 = 270 \text{ min}$$

U-6 soat.

Demak, ish obyektlarini shunday tanlash kerakki, bunda yuqoridagi ish turlarining barchasi qatnashsin va ularni 6 soat ichida o'quvchi bajara olsin.

Buning uchun yuqorida ko'rsatilgan 17 ta ish obyekti ko'plik qiladi. Ulardan keraklisini tanlab olish imkoniyati bor (yetishmasa, qo'shish ham mumkin). Bu ish obyektlarida qaysi ishlar qatnashishini aniqlash uchun quyidagi jadval to'ldiriladi:

№	Ish obyekti	Ish turlari									
		Xomashyo tayyorlash	Rejalar	Ko'ndalangiga arralash	Uzunasiga arralash	Randalash	Mix bilan ishlash	Burama mix bilan ishlash	Kley bilan ishlash	Parmalash	Jilvirlash
1.	Plakat uchun reyka	+	+	+	-	+					
2.	Taglik taxta	+	+	+	-	+	+				

3.	Bolalar kurakchasi	+	+	+	+	+	+			+	+	
4.	Uy modeli	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
5.	Avtomobil modeli	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+

Demak, 270 daqiqa yoki 6 soatlik amaliy ish jarayoni uchun oxirgi 3 ta ish obyekti yetarli ekan (bu tanlangan obyekt tuzilishining sodda yoki murakkabligiga ham bog'liq, shuning uchun uning xomaki chizmalarini ham tayyorlamoq zarur).

Shu tartibda har bir bo'lim uchun o'quv ustaxonasida qilinadigan ishlar ro'yxatini ishlab chiqish tavsija etiladi.

5. Fanlarning o'zaro bog'lanish rejasi. Mehnat ta'limi darslarini tabiiy-ilmiy sikldagi fanlar bilan bog'liqlik grafigi – har bir mavzu mazmunini yoritishda uning mohiyatini o'quvchilar tomonidan chuqur, ilmiy asoslangan holda tasavvur etishlari, vaqtдан unumli foydalanish, nazariy bilimlarini amalda, hayotda va ishlab chiqarishda qo'llash imkoniyatlarini keng yoritish, ularning politexnik tushunchalarini kengaytirish maqsadida o'qituvchi tomonidan tuziladi hamda u taqvimiylarini mavzuli rejada o'z ifodasini topadi.

Ta'lrim jarayonini rejalashtiruvchi bu hujjatda maktabda o'qitiladigan mehnat ta'limi fanining fizika, matematika, kimyo, chizmachilik va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishlari ochib beriladi. Ta'lrim jarayonida fanlar o'rtasidagi bog'lanishlar katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda maktabda o'qitish o'quvchilarga mustahkam bilim, mehnat ko'nikamalari va malakalarini berishdan tashqari, ularning o'rganilayotgan hodisalarga chuqur va har tomonlama yondashishlarini, olgan bilimlaridan ishlab chiqarish va mehnat hodisalarini ilmiy asosda tushuntirib berish, mustaqil ravishda bilimlarga ega bo'lish uchun foydalana olishlarini ta'minlashi kerak.

Mehnat ta'limi, maktabda o'qitiladigan fan sifatida, o'quvchilarning umumiyligi ta'limga fanlaridan olgan bilimlarini amalda qo'llashni o'rganishlari uchun cheksiz imkoniyatlar yaratib beradi. Ta'limga to'g'ri yo'lga qo'yish orqali o'quvchilarga tabiat qonunlari bilan ularning turmushda namoyon bo'lishi o'rtasidagi obyektiv mavjud bo'lgan bog'lanishlarni ko'ra bilishlariga yordam berish zarur. Masalan, o'quvchilar fizika kursida qattiq jismilar-

ning xossalari, kuch, massa, tezlik, ishqalanish va hokazolarni o'rganadilar. Bu vaqtida, ular o'quv ustaxonalarida ishlov beriladigan metallarning fizikaviy mexanik xossalari va tuzilishini bilmasalar, ishlov berilayotgan materialga qarab, ularni qirquvchi asbobning to'g'ri o'lchovini tanlay olmasalar, mashinadagi detal-larning ishqalanishini qanday yo'l bilan kamaytirishni va hokazolarni bilmasalar, ularning ilgari olgan bilimlari yuzaki bo'lib qoladi. O'qituvchi o'quv materialini o'quvchilarning tabiiy-ilmiy sikldagi fanlardan olgan bilimlari bilan mustahkam bog'liq bo'lgan qismi bo'yicha tayyor bilimlarni yetkazishga harakat qilmaydi. Mehnat o'qituvchisi suhbat o'tkazish usuli bilan o'quvchilar qattiq jismlarning xossalari, ishqalanish turlarini (fizika), ko'p qirrali burchaklarning xossalari (geometriya), aralashmalar, emulsiyalar va mineral yog'larning (kimyo) va hokazolarning xossalari qanday o'zlashtirib olganliklarini aniqlaydi va ana shu fanlardan olingan bilimlar asosida ularga ishlov berilayotgan metallarning tuzilishini va qirqish jarayonini, qirqish asboblarining charxlash burchaklarini va ishlanayotganda detalni sovutish uchun ishlatildigan suyuqlikning tarkibi va xossalari, detallarning dastgohdagi ishqalanuvchi yuzalarini va ularga mashina moyi surish yo'li bilan ishqalanishni kamaytirish usullarini tushuntirib beradi. Biroq fanlararo aloqa bir tomonlama jarayon emas. Ummiy ta'lim fanlaridan dars beruvchi o'qituvchilar o'quvchilarning mehnat bo'yicha olgan amaliy tajribalaridan o'rganilayotgan tabiat qonunlarini chuqurroq tushunishlari uchun foydalanishlari lozim.

Fanlarning o'zaro bog'lanish rejasini ishlab chiqishda umumiyligi ta'lim fanlaridan mehnat ta'limi, fizika, matematika, kimyo, biologiya, chizmachilik va hokazo fanlardan dars beradigan o'qituvchilar ishtirot etadi. Ularning har biri o'z fanining mazmunini sinchiklab tahlil qilish asosida o'quv materialining boshqa fanlar bilan bog'lanishiga oid aniq misollar taklif etadi, bu takliflar muhokama qilinib, aniqlanib va zarur bo'lsa to'ldirilib fanlarning o'zaro bog'lanish rejasini jadvaliga kiritiladi, unda har bir fanga oid u yoki bu mavzuni o'rganish muddatlari ko'rsatiladi.

Fanlarning o'zaro bog'lanish rejasini muvaffaqiyatli amalgao shirish o'quvchilarning mehnat bo'yisa tayyorgarligining yuqori sifatli bo'lishinigina emas, shu bilan birga ularning umumiyligi bilim doirasining ham keng bo'lishini ta'minlaydi.

6. Dars rejasi va uning bayon qilinishi. Dars rejasi asosiy o'quv-rejalahtirish hujjatlaridan biri bo'lib, uni o'qituvchi o'quv dasturi va taqvimiylar mavzuli reja asosida tuzadi. Unda darsning ta'lif-tarbiyaviy maqsadlari, o'qitish va tarbiyalash masalalari ko'rsatiladi hamda darsning tarkibi va bosqichlari, har bir bosqichga ajratilgan vaqt, o'qituvchi tomonidan izohlana-digan o'quv materialining ketma-ketligi va mazmuni, mustaqil ishlarning xarakteri va mazmuni, uy topshirig'i va boshqalar ifodalanadi.

Tanlangan shakl va metodlar asosida mashg'ulotni qanday tashkil etish, uning tuzilishi va mazmuni qanday izchillikda amalga oshirilishini ko'rsatuvchi hujjat bo'lib o'qituvchi tomonidan har bir mashg'ulot uchun alohida-alohida tuziladi va maktab o'quv ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari tomonidan har bir mashg'ulotdan oldin tasdiqlanadi. Dars rejasining tuzilishi nazariy mashg'ulot, amaliy mashg'ulot, aralash va ekskursiya mashg'ulotlari bo'yicha bir-biridan keskin farq qiladi.

Dars rejasining asosiy maqsadi o'qitish jarayonini to'g'ri rejalahtirishga va uning samaradorligini oshirishga yordam berishdir. Dars muvaffaqiyatli o'tishi uchun uni tashkil etish bo'yicha o'qituvchi faoliyatining maqsadini aniqlash lozim.

Dars rejasi va uning bayon qilinishi o'qituvchining darsga tayyorlanganligini ko'rsatuvchi hujjatlar. Darsning bayoni dars rejasida ko'rsatilgan izchillikda yozilgan bo'lib, unda o'quvchilarga yetkazilishi zarur bo'lgan asosiy tushunchalar, sxema va chizmlar hamda esda saqlab qolish nisbatan qiyin bo'lgan ma'lumotlar aks ettiriladi. Bunda o'quv dasturida ko'rsatilgan me'yordan chetga chiqib ketmaslik talab etiladi.

Darsning bayoni darslik va metodik adabiyotlar hamda o'qituvchining tajribalari asosida yozilib, dars rejasi bilan bir vaqtda maktab direktorining o'quv ishlari bo'yicha muovini tomonidan tasdiqlanadi va o'qituvchi dars rejasi hamda konspekti bilan darsga kiradi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Mehnat ta'limi va kasbga yo'llashni rejalahtirishning maqsadi nimadan iborat?
2. O'quv jarayonini rejalahtirishda o'qituvchi qanday didaktik vazifalarni hal qiladi?

3. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llashni rejalashtiruvchi hujjatlarga nimalar kiradi?
4. O'quv rejasi qanday hujjat?
5. O'quv dasturida qanday ma'lumotlar aks ettiriladi?
6. Taqvimiy mavzuli reja qanday ma'lumotlardan iborat?
7. O'quv ustaxonalarida bajariladigan ishlar ro'yxati qanday ishlab chiqiladi?
8. Fanlarning o'zaro bog'lanish rejasi nima uchun kerak?
9. Dars rejasi qanday hujjat?
10. Darsning bayoni qay tarzda tuziladi?

Mustaqil ta'lif topshiriqlari:

1. 5–9-sinflar uchun «Servis xizmati yo'nalishi» bo'yicha yarim yillik taqvimiy mavzuli reja tuzish.
2. Mehnat ta'lifi va kasbga yo'llash bo'yicha 2 soatlik dars ishlansmasini tuzish.

Izoh: mustaqil ish o'qituvchi tomonidan tayyorlangan variantlar asosida har bir o'quvchiga individual topshiriq tarzida beriladi.

VI bob. MEHNAT TA'LIMI METODIKASI, KASB TANLASHGA YO'LLASH FANIDAN O'QITUVCHINING TAYYORGARLIGI

6.1. Mehnat ta'lifi, kasb tanlashga yo'llash o'qituvchisining o'quv yiliga va darsga tayyorgarligi

Reja:

1. Mehnat ta'lifi, kasb tanlashga yo'llash o'qituvchisining darsga va o'quv yiliga tayyorgarligi.
2. Asbob-uskunalarini ishga sozlash, xomashyo, namuna, ko'rgazmali qurollar va texnik vositalarni tayyorlash.
3. Mehnat ta'lifi o'qituvchisining lavozim vazifalari va shaxsiy fazilatlari.

Tayanch iboralar: dars, asbob-uskuna, xomashyo, namuna, ko'rgazmali qurollar, texnik vosita, lavozim vazifalari, shaxsiy fazilat.

1. Mehnat ta'lifi, kasb tanlashga yo'llash o'qituvchisining darsga va o'quv yiliga tayyorgarligi. Mehnat ta'lifi o'qituvchisi darslarga puxta tayyorgarlik ko'rsagina, bu darslardagi ta'limgarbiya jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. O'quv yili boshlanishi oldidan o'qituvchi dasturdagi hamma mavzularni o'rganish vaqtini taqsimlab chiqadi, o'quv mashg'ulotlarining jadvali va mazkur fanni o'rganishga o'quv rejasidan ajratilgan haftalik soatlarning miqdorini hisobga olgan holda unga muvofiq bo'lgan taqvimiylar muddatlarni o'rnatadi. Mehnat ta'lifi, kasb tanlashga yo'llash o'qituvchisining o'quv yiliga tayyorgarligi o'quv rejasini, mehnat ta'lifi va kasbga yo'llash fanining o'quv dasturini va taqvimiylar mavzuli rejani o'rganishdan boshlanadi. Mehnat ta'lifi va kasbga yo'llash o'qituvchisi bu hujjatlar bilan tanishar ekan, tegishli sinf o'quvchilarida umumiy mehnat bilimlari va amaliy ko'nikmalarini qaysi mehnat turlari bo'yicha va qanday hajmda shakllantirish lozimligini aniq tasavvur qiladi. Buning uchun qanday asbob-uskunalar, moslamalar va ish qurollari kerakligi, o'quvchilar mehnat ta'lifi va kasbga yo'llash dasturi talablarini to'liq bajarish uchun darslarda qanday buyumlarni tayyorlashlari kerakligini va shunga binoan ularni tayyorlash uchun qanday ma-

teriallar talab qilinishini bilib oladi. Mehnat o'qituvchisi olingen ma'lumotlar asosida va mehnat ta'limi dasturidan foydalangan holda ancha batapsil rejalashtiruvchi hujjatlarni, ya'ni taqvimiyl mavzuli rejani va o'quv ishlab chiqarish ishlari ro'yxatini tuzib chiqadi. Shunday tarzda belgilab chiqilgan dastur o'qituvchi uchun fan yuzasidan ishlarning taqvimiyl mavzuli rejasi sifatida xizmat qiladi.

O'quvchilar foydalanishi uchun rejalashtirilgan buyumlarga mehnat ta'limi o'qituvchisi texnikaviy hujjatlar ishlab chiqadi, zarur ko'rgazmali qurollar tayyorlaydi, asbob-uskunalarining, o'quvchilar ish joyi va ish qurollarining texnikaviy holatini, shuningdek, o'quv ustaxonalari binosining va ulardagi jihozlarning xavfsizlik texnikasi, sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq keliшини tekshirib chiqadi.

O'qituvchi mehnat ta'limi dasturidagi mavzularga tayyorlanar ekan, har bir mavzuning maqsadi va vazifalarini belgilaydi, ular bo'yicha bilim va ko'nikmalar mazmuni va darajasini aniqlaydi, o'quvchilar bajarishi lozim bo'lgan amaliy ishlarning xarakteri va miqdorini belgilab chiqadi, mustaqil topshiriqlarning mazmuni va hajmini, ularning tobora murakkablashib borishini hisobga olgan holda o'ylab ko'radi, mavzuni muvaffaqiyatli o'tish uchun moddiy asos tayyorlaydi.

Darsga tayyorlanish vaqtida o'qituvchi o'tgan mashg'ulotning mazmuni va natijalarini tahlil qilishi, ularning izchil aloqasini belgilab chiqishi, kelgusi darsning ta'lim va tarbiya maqsadini to'g'ri belgilashi, darsning tuzilishini va uning har bir elementiga ajratiladigan vaqt ni aniqlashi, mavzuga oid savollar tuzishi va kirish yo'riqnomasi mazmunini ishlab chiqishi, asosiy mehnat usullarini tanlashi va o'ylab chiqishi kerak.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi mashg'ulotga tayyorlanish jaryonida darsning tashkiliy tomonlariga navbatchilarni tayinlash, o'quvchilarga asbob va materiallar tarqatish, o'quv ustaxonalarida tartib-intizomning qat'iy saqlanishiga, ishlarga baho qo'yish va ularni tahlil qilishga alohida e'tibor berishi kerak.

Zamonaviy darsning tarkibiy tuzilishi o'qituvchilarning boshqa-ruvchilik roli va o'quvchilarning anglash faoliyatlarini tashkil etishning o'ziga xosligini aks ettira turib, juda ham turli-tuman shakldaligi bilan farq qiladi. Darsning muvaffaqiyatli o'tishi o'qituvchi hamda o'quvchilarning darsga tayyorlanishlariga bog'liqdir.

Darsga mukammal tayyorlanish, xususan yetarli darajada pedagogik ish tajribasiga ega bo'Imagan yosh o'qituvchilar uchun juda zarur.

O'qituvchining darsga bevosita tayyorlanishi har bir darsda qo'llaniladigan mavzuni rejalashtirishni konkretlashtiradi. Darsning rejasi har bir o'qituvchi uchun zarurdir. Odatda faqat uning hajmi farq qiladi: endigina o'zining o'qituvchilik faoliyatini boshlayotganlar o'zlarining hamma harakatlari va darsning borishini tasvirlash, kichik bo'laklarigacha ko'rsatilgan mukammal ishlama yozadilar. Tajribali o'qituvchilar esa qisqa, ixcham reja tuzdalar.

Darsning rejasi ixtiyoriy shaklda tuziladi, ammo unda quydagi tarkibiy qismlarning aks etishini ta'minlash zarur: darsning o'tkazilish muddati va uning mavzusi bo'yicha tartib raqami; o'tkaziladigan sinfning, dars mavzusining nomi; ta'limning vazifalari, shakkantiriladigan bilim, iqtidor va ko'nikmalar; o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish; dars bosqichlarining davomiyligi va ushbu bosqichlarda vaqtning taxminiy taqsimlanishini ko'rsatgan holdagi tarkibiy tuzilishi; o'quv materialining mazmuni; darsning har bir qismida o'qituvchi va o'quvchining ish usullari hamda metodlari; ta'limning ko'rgazmali va texnik vositalarini qo'shib hisoblaganda darsni o'tkazish zarur bo'lgan o'quv qurollari; darsda bevosita o'tkaziladigan test sinovlari; uy vazifalari, topshiriqlar.

Darsning yutug'i va uning natijalari nafaqat o'qituvchining tayyorligiga, balki o'quvchilarning tayyorgarliklariga ham bog'liq bo'ladi. O'quvchilarning navbatdagi darsga (yoki darslarga) ma'lum maqsadga yo'naltirilgan tayyorlanishlari ularda ijobiy psixologik kayfiyatni vujudga keltiradi, anglashga, bilishga bo'lgan yuqori darajadagi qiziqishni tug'diradi. O'quvchilarni oldinda turgan darslarga tayyorlashda quyidagilar nazarda тутилади: ularни oldinda turgan darsning dasturiy o'rganish rejasi bilan tanishtirish; (bu xususan yuqori sinflar bilan o'quv ishlarida juda ham zarurdir) o'quvchilarning tushunishi mumkin bo'lgan darslarning ayrim bo'limlari bilan tanishish; oldinda turgan darsda ko'tariladigan masalalar yuzasidan ilmiy-ommabop adabiyotlarni o'qish, yangi materialni o'rganishga ko'maklashadigan kuzatishlar va uncha murakkab bo'Imagan tajribalarni o'tkazish.

Dars hozirgi zamон о'кув тарбиya jarayонида таҳсил мақсадларини амалга оширишда асосиёт та'lim шакли hisobланади. Bir necha асрлар давомида та'limning dars shaklidан boshqa bir yangi shaklini pedagogika nazariyasi ham, amaliyoti ham taklif etganicha yo'q.

O'tkaziladigan dars o'quvchilarni ham, o'qituvchilarni ham qanoatlantirishi uchun ma'lum darajada umumiyl talablarga javob berishi kerak. Ayrim olingen biron-bir dars fanning taqvimiy mavzuli rejasida o'z o'rнiga ega bo'lishi, maqsadi aniq belgilangan bo'lishi kerak. Dars o'tish jarayонида shakllantirilishi lozim bo'lgan bilim, iqtidor va ko'nikmalar alohida aniqlanishi darkor. Shu bilan birga mazkur dars давомида bilim, iqtidor va ko'nikmalarning erishiladigan darajasi ham belgilanishi ma'qul bo'ladi. Darsda ishlatiladigan metodlar, vositalar turkumi aniq bo'lishi oldindan belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Darsga qo'yiladigan didaktik talablardan yana biri shuki, beriladigan o'кув materiali sistemali ravishda osongan qiyinda, oddiydan murakkabga, o'quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilish kerak.

O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rар ekan, o'quvchilar o'кув faoliyatini aktivlashtiruvchi ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning muqobil rejalarini amalga oshirishni ko'zda tutmog'i lozim. Har bir dars ma'lum darajada g'oyaviy yo'nalgan aniq tarbiyaviy vazifalarni bajarishi, olingen ilmiy bilimlar асосида dunyoqarashni, yuqori axloqiy fazilatlarni, estetik didni shakllantirib ta'limni hayot bilan mustaqil aloqalarini ta'minlashi zarur. O'quvchilarda bilimga qiziqishni, bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmalarini qaror toptirish, ijodiy tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash, ularning tasavvurlari chuqurligi, rivojlanish darajasini hisobga olish kerakligini o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rish jarayонида hisobga olishi kerak.

Darsga tayyorgarlik ko'rishda, uni tashkil etishni aniq rejalashtirib olishda kerak bo'lgan talablar: taqvimiy mavzuli reja асосида dars o'tkazishning ishlab chiqilgan aniq rejasи mavjud bo'lishi, dars o'z vaqtida boshlanib, o'z vaqtida tugashi kerak. Darsning mantiqiy izchilligi, tugallanganligi va darsning boshidan to oxirigacha o'quvchilar ongli intizomi ta'minlanmog'i lozim. Darsni tashkil etishda turli-tuman vositalardan, o'quv texnik, kompyuter, statsionar va dinamik ko'rgazmali qurollardan foydalanish ko'zda tutiladi.

Darsning tarkibiy tuzilishi o'rganilayotgan materialning mazmuniga, darsda foydalaniladigan ta'limging usullari va metodlariga, o'quvchilarning tayyorlanish hamda rivojlanish darajasiga, o'quv jarayonida darsning o'rniqa bog'liq bo'ladi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi darsga tayyorlanish jarayonida quyidagilarni hisobga olishi zarur:

Darsning maqsadi:

a) darsning ta'limi maqsadi: o'quvchilarda yangi atamalarga oid tushunchalarni shakllantirish;

b) darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;

d) darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilarning tasavvuri, xotirasi, kuzatuvchanligi, tafakkuri, nutqi, o'quv jarayonida ko'nikma, o'quv malakalarini shakllantirish va ularni rivojlanтирish;

e) dars materialining murakkablik darajasini aniqlash: dars materialining amaliyot bilan va oldingi o'tilgan materiallari bilan bevosita bog'lanishini aniqlash, o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun vazifa berish dars jihozini tayyorlash, qo'shimcha beriladigan topshiriqlar hajmini aniqlash;

f) darsning didaktik vazifasini, ya'ni maqsadga olib keluvchi masalalarining ketma-ketligini aniqlash;

g) o'qitish usullarining optimal variantlarni tanlash;

h) darsning tuzilishini aniqlash: darsni samarali boshlash va vaqtini to'g'ri taqsimlash, darsning rejasi va yaxlitligini, o'quvchi va o'qituvchi faoliyatining o'zaro uzviyligini ta'minlash.

Darslar juda ham turli-tuman tarkibiy tuzilishlarga ega bo'lib, darslarni bir marta doimiy ravishda mavjud bo'ladigan ko'rinish tarzida rejalashtirish va o'zgarmaydigan, qotib qolgan namuna asosida o'tkazaverish mumkin emas. Darsning tarkibiy tuzilishi ga yuqorida qayd etib o'tilgan omillar qatorida mazkur sindfa ishslashning haqqoni shart-sharoitlari, shuningdek, o'qituvchi ish faoliyatining ijodiy xarakteri katta ta'sir ko'rsatadi. Har bir dars boshqa darslardan, hatto ular bitta fan, bitta mavzu yuzasidan teng yonma-yon sinflarda o'tkazilganda ham, o'zining o'ziga xos jihatlariga ko'ra farq qiladi. Darsda har doim o'qituvchining maxsus «pedagogik yondashuv tarzi»ni ko'rish mumkin.

2. Asbob-uskunalarini ishga sozlash, xomashyo, namuna, ko'rgazmali qurollar va texnik vositalarni tayyorlash. O'quv

ustaxonalarida mashg'ulotlarni yaxshi tashkil etish, ularni o'tkazishning to'g'ri metodikasini qo'llash, o'quvchilar tomonidan texnikaviy bilimlar, mehnat malakalari va ko'nikmalari muvaf-faqiyatli o'zlashtirilishi uchun o'quv ustaxonalarining jihozlanishi texnikaning hozirgi darajasiga, yuksak mehnat madaniyatiga mu-vofiq kelishi va ularda mehnat ta'limi dasturining barcha mavzularini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi lozim.

Mehnat ta'luming asosiy darslari nazariy va amaliy mashg'ulotlardan iborat. O'quvchilar mehnat ta'luming nazariy asoslarini o'zlashtirishlari uchun taxminan 20% o'quv vaqtini sarflashga rejalanadi. Uyda va mehnat kutubxonasida mustaqil ravishda har bir mavzuning nazariy asoslarini o'zlashtirishlari lozim. Bu holatni ilmiy jihatdan aniqlashda mehnat ta'limi o'qituvchisi uchun maktab kutubxonasi va tegishli zamонавиу texnik-texnologik, umumiylar ta'lim fanlariga, fan-texnikaga oid журнallar va boshqa manbalar ro'yxati, internet va qo'lda tayyorlangan modellar, moslamalar, didaktik materiallar, axborot-nomalar, o'quvchilarga mo'ljallangan kichik to'plamlar qo'shimcha manba bo'lib xizmat qiladi.

O'qituvchi ustaxonalarda mavjud bo'lган stanoklar, asbob-uskunalar, dastgohlar, moslamalarni ta'mirlab, amaliy va laboratoriya darslariga tayyorlab qo'yishi, amaliy ish obyektlari uchun xomashyolar to'plashi, eskizlar, chizmalar, texnologik xaritalar ishlab chiqishi lozim.

O'quvchilar tayyorlagan buyumlarni, ishlarni yakunlagan holatini nazorat etishga qaratilgan savollar, testlar, namunalarni ishlab chiqish darsga tayyorgarlikni tashkil etadi.

So'nggi yillarda mehnat ta'limi jihozlari ro'yxati ta'luming yangi vositalari hisobiga sezilarli kengaydi va hozirgi kunda 400 nomdan iborat. Bular 220 tacha har xil turdag'i asboblar, moslamalar, stanoklar, 16 xil priborlar, 30 xildan ortiq modellar va ularning qismlari, 14 xil to'plamdag'i jadvallar va plakatlar, 120 dan ortiq ekran vositalari va qo'llanmalaridan iborat. Buning hammasi mehnat ta'luming politexnik yo'nalishini kuchaytirish, o'quvchilarga texnika, texnologiya, iqtisodiyot va hozirgi zamон ishlab chiqarishining tashkiliy asoslarini chuqurroq va to'liqroq ochib berish, ularda har turli materiallarga mexanik ishlov berishning dastlabki ko'nikmalarini ertaroq shakllantirish zarurati dan kelib chiqqan.

Pedagogik nuqtayi nazardan o'quv-moddiy ta'minot o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini va sifatini oshirishga, ta'limning politexnik va kasbga yo'naltiruvchi jihatlarini to'liq amalga oshirilishini ta'minlashga zamin yaratishi kerak. O'quvchilarga ta'lim vositalari orqali beriladigan axborot ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oshirishga imkon berishi lozim.

Iqtisodiy jihatdan o'quv-moddiy baza maqsadlarini mehnat o'quv-tarbiya jarayoni sifatiga zarar yetmaydigan holda amalga oshirish imkonini beradigan o'quv jihozlaridan to'liq foydalanishga qaratilgan bo'lishi zarur.

O'quv ko'rgazmalari va o'quv jihozlari tarkibida, odatda kam-yob va qimmatbaho materiallar bo'lmashligi, ularni tayyorlash asossiz ravishda ortiqcha xarajatlar talab qilmasligi va ommaviy ravishda maktablar sotib olish imkoniga ega bo'lishi kerak. Iqtisod nuqtayi nazardan o'quv jihozlari ustida o'qituvchilar va o'quv ustalari ishslashlari lozim.

Umumiy ta'lim maktablari sharoitida o'quvchilarning mehnat va kasb-hunarga yo'naltirish sifatini yaxshilash hamda takomillashtirish uchun o'quv ustaxonalari va laboratoriyalarda har bir kiritilgan kasb va ixtisosliklarning asbob-uskunalarini, moslamalarini ishga sozlash, ta'mirlash hamda qayta tayyorlashni tashkil etish va ularning metodikasini hal qilish ahamiyatga ega. Chunki, o'quvchilarga xuddi ana shular orqali texnik-texnologik operatsiyalarni bajarish asosiy faoliyatlariga yo'naltirilgan. Shuningdek, mehnat ta'limining har bir yo'naliishi bo'yicha asbob-uskunalarini ishga sozlash uchun o'quvchilar eng avvalo qo'llaydigan asbob-uskunalarining tuzilishini mukammal o'rganishlari zarur.

Asbob-uskunalarini ishlatish va ularni qo'llashga sozlashni asbob-uskunalar va moslamalar yuzasidan bajariladi:

1) turlari, tuzilishlari, xususiyatlarini o'rganib mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va ishga sozlash;

2) qo'llanishlari, qo'llanish usullari va texnologiyasini o'rganib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va ishga sozlash;

3) tayyorlash texnologiyasi standartlari, sifat belgilarini o'rganib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va stanok mashinada qo'llash;

4) tayyorlashda qo'llaniladigan usullar, operatsiyalar, asbob-uskunalar, moslamalar, stanoklarni o'rganib, mavjud kamchi-

liklarni bartaraf etib moslashtirish; ishchi-mutaxassislarini qayta tayyorlash, malaka oshirish;

5) tayyorlashda ishlataladigan materiallarning texnologiyasi va sifatlarini yaxshilash.

Mehnat ta'limingiz nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarida o'quvchilarini qo'llaniladigan xomashyolar va namunalar bilan tanishtirish hamda foydalaniladigan metodikasini yoritish o'ziga xos o'rinni egallagan. Mehnat ta'limi yo'nalishlari bo'yicha joriy etilayotgan tashkiliy, metodik va boshqa masalalar qatorida moddiy-texnik baza, ayniqsa xomashyo hamda namunalar bilan ta'minlash eng murakkab va dolzarb muammodir. O'quvchilar buni inobatga olishlari bilan birga mavjud imkoniyatlardan xabar-dor bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Yog'ochga ishlov berishda amaliy tashkilot hamda yog'och-sozlik korxonalaridan olingan mahsulot (eshik, rom, imoratsozlik detallari va boshqa buyurtmalardan ortib qolgan bo'laklar, qirindilar, bahor va kuz davrlarida daraxtlarni kaltalash holatida paydo bo'lgan sarjinchalar va ko'zsiz dumaloq bo'laklar) yog'ochsozlik mehnati uchun xomashyo tarzida qo'llanishi eng ommaviy tajriba hisoblanadi, ulardan mehnat ta'limi jarayonida turli buyumlar (bolg'a va iskanalar uchun dastalar, sabzavot to'g'raydigan taxtalar, yog'och g'o'lasining arralangan namunalari, yelimlangan yog'och vaza va hokazo) tayyorlanib ijtimoiy foydali mehnat mahsulotlariga aylanadi.

Mehnat ta'limida o'quvchilarini xomashyolar bilan tanishtirish, shuningdek, ularni nazariy hamda tarixiy ma'lumotlar bilan ham tanishtirish, fikrash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan namunalar (detallar, mexanizmlar, stanoklar, texnik-texnologik jarayonlar xaritalari, qog'oz-kartonlardan tayyorlangan maketlar) keng qo'llanilmoqda.

Metallarga ishlov berishda otaliq tashkilot hamda metallsozlik korxonalarida asosiy ishlab chiqarish jarayonida tayyorlanadigan mahsulotlardan ortib qolgan chiqindilar: tunuka quymasi va boshqa qoldiqlar, metallsozlik ishlaridan paydo bo'lgan parchinlar, brak holiga kelgan turli shakldagi detallar mehnat ta'limida metallga ishlov berish uchun xomashyo sifatida qo'llaniladi. Shu bilan birga metallarni qirqish jarayonida shu tariqa yig'ilgan metall chiqindilari ham xomashyo bo'la oladi. Ulardan mehnat ta'limi darslarida metalldan tayyorlangan o'yinchoqlarning bu-

zilgan qismlarini sozlashda, turli asboblar, mакетлар, моделларни yasashda foydalanish mumkin. Ular turli shakldagi detallarni shtangensirkul bilan o'lhash, nazorat ishlarini bajarish uchun mehnat obyekti vazifasini bajaradi.

Metallardan tanlab olingen shvellersimon detallardan parmalash operatsiyalarini bajarishga foydalaniladi. Shundan o'quvchilar tushunadilarki, tashlandiq detallardan (qaysi shaklda bo'lmasin) ham o'quv ishlarini bajarishda foydalanish mumkin. Bu birinchidan, o'quvchilarni izlanish, ijod qilishga undaydi, chunki ma'lum bo'lmoqdaki, detallar qaysi holatda bo'lmasin, ulardan har xil texnologik operatsiyalarini bajarishda foydalanish uchun imkoniyat topiladi, ikkinchidan, o'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berishga yordam beradi.

Mehnat ta'limida xomashyo va namunalar qaysi holatda, shaklda va qanday materialdan bo'lmasin, ular o'quvchilar uchun u yoki bu texnologik operatsiyalarini o'zlashtirishlarida o'quv obyekti bo'la oladi. Turli o'lcham va shakldagi tunuka bo'laklari kavsharlash operatsiyalarining turli xillarini o'zlashtirishga olib keladi. Mazkur tunuka parchalari xomashyo sifatida qo'llaniladi. Xomashyo materiallaridan o'quvchilar chilangarlik ustaxonasida knopkalar ishlab chiqaradigan asbob tayyorlashlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday moslamani 8–10 mm li simdan tayyorlash mumkin.

Shunday qilib, xomashyo turlari va namunalari o'quvchilar uchun texnika-texnologiya, materialshunoslik, qirqish nazariyasi, ustaxonada o'zlashtirilgan chilangarlik, tokarlik, frezerlash, parmalash va boshqa o'quv mashg'ulotlari bo'yicha shakllangan bilim, ko'nikmalarni malaka darajasiga ko'tarish uchun zamin yaratiladi.

Shu tarzda gazlamaga ishlov berish texnologiyasi, pazandachilik, qishloq xo'jaligi hamda milliy hunarmandchilik yo'nalishlarida ham mavjud xomashyo va namunalardan foydalanish holatlarini yaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Mehnat ta'limi o'qituvchisining lavozim vazifalari va shaxsiy fazilatlari. Pedagog bu yuqori madaniyat va ma'naviyatlari mehnat ta'limi yuzasidan mutaxassis. U o'z kasbini va fanini, tegishli sohaga oid fan va texnikani hamda ishlab chiqarish texnologiyasini, umumiylari va kasbiy pedagogika hamda ruhshunoslik, umumiylari ta'lim va tarbiya ishining uslubiy asoslarini zamon talabalari darajasida bilishi kerak.

O'quv jarayonida o'qituvchi rahbarlik vazifasini bajaradi. Bu umumiy qoida mehnat ta'limi o'qituvchisiga ham taalluqlidir. Mehnat ta'limida vaqtning asosiy qismini o'quvchilarning mustaqil amaliy ishlari egallashi o'qituvchining rolini yanada oshiradi. Chunki, hamma narsa o'qituvchi tomonidan oldindan puxta o'yansa va yaxshi rejalashtirilsagina o'quvchilar mustaqil ishlay olishlari mumkin.

Mehnat ta'limi o'qituvchisining lavozim vazifalari quyidagilar dan iborat:

- o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, mahorat va malakasini rivojlantirish;
- tanlangan kasb va ixtisosligi o'quv fanlari bo'yicha chuqur bilimlarni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- ta'lim jarayonida o'qitishning samarali usullari, vositalari va shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarini keng qo'llash;
- o'qitadigan fani bo'yicha darsdan tashqari ishlarni, to'garak mashg'ulotlarini tashkil qilish;
- o'quvchilarning bilim sifati, o'zlashtirish darajasi va davomatini nazorat qilish;
- o'quvchilar bilan yakka tartibda ishslash;
- o'quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash;
- o'quv xonalarini jahon standartlari va dizayn talablari darajasida jihozlashda qatnashish;
- ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va qo'llash;
- muntazam ravishda malakasini oshirish.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi bundan tashqari mutaxassisligi bo'yicha ishlab chiqarish texnologiyalarini, iqtisod asoslarini, ishlab chiqarish va boshqarishni tashkil etish asoslarini bilishi kerak.

Mehnat ta'limi o'qituvchisining shaxsiy fazilatlari. Mehnat ta'limi o'qituvchisi o'z fanining ilmiy asoslarini mukammal bilish bilan birga, mustahkam mehnat va kasb ko'nikmalarini va malakalarini egallagan bo'lishi, ularni o'quvchilarga mohirlik bilan yetkazib bera olishi kerak. Shu munosabat bilan o'z sohasida yaxshi malaka orttirgan va ishining ustasi bo'lgan kishigina o'quvchilarga o'z ishini egallashda yordam bera oladigan bo'lishi lozim.

Shuning uchun ham mehnat ta'limi o'qituvchisi o'zining metodika, pedagogika fani, texnika va ishlab chiqarish sohalari-dagi eng yangi yutuqlardan xabardor bo'libgina qolmasdan, balki ilg'or mehnat usullarini ham bilishi zarur. Shu maqsadda mehnat

ta'limi o'qituvchisi mehnat ta'limi va tarbiya masalalari, kasbga yo'llash yuzasidan chiqarilgan psixologik, pedagogik va metodik adabiyot yangiliklarini, o'z ixtisosи bo'yicha hozirgi zamon texnikaviy adabiyotini, ishlab chiqarish ilg'orlari, ixtirochilarning tajribasini o'rghanadi, mehnat mashg'ulotlarining metodik jihatdan to'g'ri tuzilishi haqida g'amxo'rlik qiladi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi yuksak mahorati va madaniyati, o'z ish jo'yini to'g'ri tashkil eta olishi, ishga oid usullarni to'g'ri ko'rsata olishi, buyum namunasini tayyorlay olishi, uning nutqi, o'quv-tarbiya jarayonining eng murakkab vaziyatlarida o'zini tuta bilishi, o'quvchilarga va o'z hamkasblariga xushmuomala bo'lishi, bularning hammasi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olinadi va ularning mehnat tarbiyasiga ma'lum darajada ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi talabchan bo'lishi kerak. Lekin uning yuqori talabchanligi o'z tarbiyalanuvchilarining insoniq qadr-qimmatini chuqur hurmat qilish bilan ajralmasdir. Hatto, o'qituvchi biror nojo'ya xatti-harakatlari uchun o'quvchiga jazo berganda ham uni haqorat qilishga, masxara qilib yerga urishga, laqab qo'yishga va hokazolarga yo'l qo'ymasligi lozim. U guruhdagi o'quvchilar orasida ana shunday holat ro'y berishiga qat'iy chek qo'yishi kerak. Shuning uchun o'z ishini yaxshi biladigan mehnat va mehnat ta'limi o'qituvchisining metodik-pedagogik va kasbiy mutaxassislik mahorati o'z o'quvchilarining shaxsiga nisbatan bo'lgan hurmat-ehtiromi bilan, ularning har biri to'g'risida mehribonlik va g'amxo'rlik qilishi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa o'z navbatida uning obro'sini oshiradigan zarur shartdir.

O'qituvchining obro'si o'quv mashg'ulotlari jarayonida o'sib va tarkib topib boradi. Mashg'ulotlar vaqtida uning shaxsi, xarakteri va mahoratining shunday sifatlari namoyon bo'ladiki, bular tarbiyalanuvchilarning umumiylar tarzda e'tirof etishi va hurmat qilishiga sazovor bo'ladi. Mehnat ta'limi o'qituvchisi o'zining o'quvchilarini oldidagi obro'si to'g'risida doimo g'amxo'rlik qilishi lozim. Agar o'qituvchi o'z vazifalariga yuzaki qarasa, uning so'zlari bilan ishlari bir-biriga muvofiq kelmasa, agar u o'quvchilar bilan bo'lgan munosabatlarida adolatli bo'lmasa, uning obro'si tezda yo'qolishi mumkin.

O'quvchilarning moddiy ishlab chiqarish sohasida hayot va mehnatga tayyorlanishida mehnat ta'limi o'qituvchisi yetakchi

rol o'ynaydi. U o'z mashg'ulotlarida o'quvchilarning turli kasblarga bo'lgan qiziqishini aniqlashi va rivojlantirishi lozim. Buning uchun sinf rahbarini, shu sinfda ishlaydigan boshqa fanlarning o'qituvchilarini va ota-onalarni jalb qilishi kerak. Ular bilan muntazam uchrashib turish va suhbatlashish bu guruhdagi o'quvchilarni yaxshiroq bilish, ularning qiziqishlari va individual xususiyatlari bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi o'quvchilarga ish joyi tashkil etisha, topshiriqlarni bajarishda mustaqillikni tarbiyalashni, shaxsnинг halollik, kamtarlik, qat'iylik, dadillik, faollik, sabot-matonat xislatlarini, o'rtoqlik, do'stlik, mas'uliyatni sezish hislarini tarkib toptirishi kerak.

Darsning, o'quvchilarning o'quv ishlarini tashkil etishni hamma shakllarida ta'lif jarayoni ishtirokchilari orasidagi munosabatlar xarakteri muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ya'ni bunda ta'lif jarayonining ishtirokchilari bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi hamda o'quvchilarning o'zлари orasidagi munosabatlar nazarda tutilmoxda. Ushbu munosabatlarning ijobiy xarakteri o'quvchilarning anglash, bilish faoliyatini rag'batlantiradi, uning natijaviyligini oshiradi.

O'qituvchi darslarda o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni bolalarga hurmat, ziyraklik, pedagogik mavqe, obro'sini saqlagan holda yondashishni namoyon etish bilan muvofiqlashtirgan holda olib borishi lozim. Darsda o'quvchilarga o'qituvchining murojaati shakli ham farqsiz emas. O'quvchilarni o'z ism-shariflari bilan atashi maqsadga muvofiqroqdir.

Pedagog sifatida o'zligini namoyon etishni talab qilish zarur bo'lgan holatlarda o'qituvchi tomonidan o'z hissiyotini aks etirish inkor etilmaydi: u darslarda faqatgina ziyrak va mehribon, quvnoq, hushyor, ko'ngilchan bo'libgina qolmasdan, balki jiddiy, xafa va noroziligi bilingan qiyofada bo'lishi ham kerak.

O'qituvchining pedagogik optimizmi, uning o'quvchilarga munosabatidagi ishonch, o'quv faoliyatini tashkil etishning turlituman shakllarida, darsda ularning hamjihatlikdagi izlanuvchanligini tashkil etish, o'quvchilarning ishlariga haqqoniy baho berish, ularga doimiy zarur yordam ko'rsatishga tayyor turishlik, bularning barchasi juda katta didaktik va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi, o'quvchilarda jamoaviy mehnat malakalarini hamda ijobiy axloqiy fazilatlarni shakllantiradi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash o'qituvchisining o'quv yiliga tayyorgarlik ishlari nimalardan iborat?
2. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash o'qituvchisi darsga tayyorgarlik jarayonida qanday ishlarni amalga oshiradi?
3. Asbob-uskunalarni ishga sozlash ishlarini tushuntirib bereng.
4. Xomashyo, namuna, ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar qay yo'sinda tayyorlanadi?
5. Mehnat ta'limi o'qituvchisining lavozim vazifalari nimalardan iborat?
6. O'qituvchi qanday shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak?

6.2. O'quv ustaxonasini tashkil etish va jihozlash

Reja:

1. O'quv ustaxonasida mehnatni ilmiy tashkil etish.
2. Ustaxonada o'qituvchining ish o'rnnini tashkil etish.
3. Ustaxonada o'quvchining ish o'rnnini tashkil etish.
4. O'quv ustaxonasida sanitariya-gigiyena qoidalari va texnika xavfsizligi talablari.

Tayanch iboralar: mehnatni ilmiy tashkil etish, ish o'rnnini tashkil etish, sanitariya-gigiyena qoidalari, texnika xavfsizligi talablari.

1. O'quv ustaxonasida mehnatni ilmiy tashkil etish. O'quv ustaxonalari binosiga va asbob-uskunalarni joylashtirishga oid talablar, qo'shimcha mакtablarning yangi mazmunda ta'lim berishga o'tishi faqat ta'lim darajasini va sifatini oshirishnigina emas, balki umuman mакtablarning va o'quv ustaxonalarining mehnat va kasb ta'limi uchun moddiy-texnika bazasini tubdan yaxshilashni obyektiv ravishda zarurat qilib qo'ydi.

Pedagoglar mehnatini ilmiy asosda tashkil etish deganda o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarida o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan oz vaqt, kuch va mablag' sarflangan holda eng yuqori natijalarni qo'lga kiritish uchun ta'lim jarayoniga tatbiq qilinadigan va ilmiy jihatdan asoslangan tashkiliy metodik tadbirlar majmuasini tushunish kerak.

O'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlarga tatbiq qilinganda pedagoglar mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda quyidagi tadbirlarni bajarish nazarda tutiladi: sanitariya-gigiyena va o'quv pedagogika talablariga to'la javob beradigan o'quv ustaxonalarini va xizmat ko'rsatuvchi mehnat xonalarini tashkil etish.

Barcha rejalashtiruvchi hujjatlar (taqvimiylar mavzuli rejalar, o'quv ishlab chiqarish ishlari ro'yxati va h.k.lar) aniq ishlab chiqilishi mehnat ta'limi dasturiga to'la-to'kis javob berishi, tanlab olingan ish turlari esa muayyan didaktik izchillilikda, murakkablik darajasiga qarab joylashtirilishi va ularni o'quvchilar tayyorlash uchun asoslangan vaqt hajmi belgilangan bo'lishi kerak. O'quv ishlab chiqarish ishlarning ro'yxati ham, o'quvchilarni ish joylariga almashlab qo'yish jadvallari ham yaxshilab bezatilgan va o'quvchilar ko'radigan qilib osib qo'yilishi kerak. Shu yerning o'zida oddiy va sanitariya kunlaridagi navbatchilarning jadvali va muntazam bajariladigan ishlarning ro'yxati ham osib qo'yiladi.

O'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchi darslar orasida tanaffus berishi, o'quvchilarga ustaxonani yaxshilab shamollatish va mehnat faoliyatini davom ettirish uchun ustaxonadan chiqib turishlarini taklif qiladi. O'quv ustaxonalaridagi asbob-uskunalar va inventarlarning saqlanishi uchun ularning har biriga bir o'quvchi biriktirilib qo'yiladi. U ana shu asboblarning yaxshi saqlanishi va buzilmasligi uchun o'qituvchi va jamoa oldida javob beradi. Yaxshi tashkil etilgan o'quv ustaxonasi navbatdagi mashg'ulotga tayyoragarlik ko'rish uchun unchalik ko'p vaqt talab qilmaydi. Mehnat ta'limi o'qituvchisi uchun bu narsa juda muhimdir, chunki uning vaqtiga tig'iz bo'ladi.

Shu sababli pedagoglar mehnatini ilmiy asosda tashkil etish nuqtayi nazardan o'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil etilishi mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisi uchun o'quv vaqtidan anchagina tejab qolish imkonini beradi.

O'quv va shaxsiy vaqtini tejashda mehnat ta'limi o'qituvchisi ning shaxsiy kutubxonasida zarur qo'llanmalar, o'quv darsliklari, ilmiy-metodik adabiyotlar, maxsus va so'rovnoma adabiyoti: gazeta va jurnallar, dasturning ma'lum mavzulari bo'yicha gazeta va jurnallaridan qirqib olingan maqolalar solingan papkalar mavjud bo'ladi.

Navbatdagi mashg'ulotga tayyorlanishda ayrim faktlar, fikrlar, misollar, qoidalar, zarur kitoblarning qisqa annotatsiyalari yozib

qo'yiladigan kartochkalar katta foyda beradi. Bunday kartochkalar kun sayin tuzib boriladi. Ular dastur mavzulari bo'yicha xil-larga ajratiladi, kartotekalarga muayyan tartibda joylashtiriladi, mehnat bo'yicha navbatdagi mashg'ulotlarga tayyorlanishda yaxshi didaktik material bo'lib xizmat qiladi, eng muhiimi esa tay-yorgarlik ko'rishda vaqtini tejaydi.

Ko'rgazma qurollari uchun mo'ljallangan yashikda plakatlar, sxemalar, jadvallar chizmalar namunali tartibda va sistemada saqlanish kerak.

O'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyati o'quvchilardan ham, shuningdek usta hamda o'qituvchidan ham nazorat-o'lchov operatsiyalarini bajarish va mehnat usullarini ko'rsatish vaqtida diqqat bilan nazar tashlashni talab qiladi.

Bu jihatdan to'g'ri burchak shaklidagi ustaxonalar bir qancha jiddiy kamchiliklarga egadir: asbob-uskunalar (dastgohlar)ning 7–8 qator qilib ketma-ket joylashtirilishi (dastgohlarning so'nggi qatori bilan o'qituvchining ish joyi o'rtasidagi oraliq taxminan 10–11 metrni tashkil qiladi) eshitishni, ayniqsa o'qituvchining tushuntirayotgan va ko'rsatayotgan mehnat usullarini ko'rishni qiyinlashtiradi, ustaxona devorlari bir tomonlama yoritilishi natijasida yorug'likni sust qaytarishi, quyosh nurlarining to'g'ri tu-shush soatlarida ko'zni qamashtiruvchi yoritish zonasining haddan tashqari kattaligi (50 dan ortiq) ko'zning tez charchab qolishiga va shu tufayli xatolarning ko'payishiga olib keladi, bir tomonlama yoritish natijasida doskaga doimiy yoritish shu'lalarining tushib turishi unda yozilgan narsalarning yon tomondan ko'rinishini ayniqsa qiyinlashtiradi va nihoyat xonada to'g'ri burchaklarning mayjudligi toza havo oqimining kelishini tugatib qo'yadi, natijada uning intensiv almashinib turishi keskin kamayadi.

Asbob-uskunalar, dastgohlarning uch, to'rt qatorli joylashuvi (ularning oxirgi qatori 5,5–7,0 m uzoqlikda bo'ladi) o'qituvchining o'quvchilar bajarayotgan mehnat harakatlarini kuzatishga, binobarin, ular yo'l qo'yadigan kamchiliklarni tuzatish uchun shoshi-linch choralar ko'rishga ham imkon beradi.

Bunday ustaxona va kabinetning maydoni ($80-90\text{ m}^2$ ga ya-qin) 25–30 uskuna birligini sig'diribgina qolmasdan, shu bilan birga bu yerda o'qituvchining dastgohi (stanok yoki tikuv mashinasi), stol va stul bilan jihozlangan bo'lishi kerak. U kamida 20 o'quvchidan iborat guruhga mo'ljallanadi. Bu ustaxonalarda faqat

slesarlik va duradgorlik ishlarini muvaffaqiyatli egallash uchun shart-sharoit yaratilib qolmasdan, balki dasturning materiallariga mexanik ishlov berish va elektrotexnika ishlari mavzularini o'tish uchun ham zarur shart-sharoitlar yaratilgan bo'ladi. Xilma-xil markadagi mexanik asbob-uskunalarning va modellarning miqdori har bir ustaxonada 19 taga yetadi.

Xizmat ko'rsatish mehnati kabineti o'quv dasturi muvaffaqiyatli o'tishi uchun barcha zarur narsalarga ega bo'ladi. O'quv ustaxonalarini uchun xarakterli bo'lgan asbob-uskunalar bilan bir qatorda kabinetda oyoq bilan ishlaydigan 4 ta tikuv mashinasi bo'ladi.

Kattaligi 3,5 x 1,4 m li katta yoyiq stol (unda «Pazandalik» darslarini o'tish vaqtida stol tuzatish uchun foydalanish mumkin), maneken, uchta dazmol taxtasi, shuncha elektr dazmol, tryumo, ko'rsatish taxtasi, kiyim turadigan joy ham bo'ladi.

Kabinetga shifoner, kir yuvish mashinasi, pilesos, pol yuvish moslamasi, tasviriy san'at asarlari va xilma-xil gullar qo'yiladi.

Nihoyat, uch yoki to'rt kamforkali gaz plitasi, ularning har biri yonida ish stollari va sovuq hamda issiq suv keladigan jo'mraklarga ega bo'lgan rakovinalar, muzlatkich, idishlar uchun shkaf, oshxona inventarlari mayjud bo'ladi.

Har uchala o'quv xonalari bir-biri bilan keng, yorug' va yaxshi jihozlangan vestibyul bilan birlashtirilgan, bu yerda jurnallar qo'yiladigan stolchalar, o'quvchilarining dam olishi uchun qulay bo'lgan o'rindiqlar bo'lishi kerak.

Ustaxonalar va kabinetda o'quvchilar ish o'rnining tabiiy yoritilishi ikki yoki, hatto uch tomonlama bo'ladi. Derazalarning katta ko'zlaridan o'tib turadigan quyosh nurlari xonalarga turli burchaklar ostida tushadi, ichki devorlarning yo'nalishi har xil bo'lganligi sababli ular aks etadi va tarqaladi, xonaning hamma qismini yaxshi yoritadi. Bu esa o'lchovlar vaqtida xatolarning kamroq bo'lishiga imkon beradi.

Bunday ustaxonalarlarning har tomonlama yoritilganligi kunning har qanday vaqtida doskaning yaxshi ko'rinishini ta'minlaydi, undagi shu'lalar kamayadi va yonlaridagi buyumlarning soyasi tushmaydi. Quyosh nurlarining to'g'ri yo'nalishi natijasida bu xonalarda to'g'ri burchak shaklidagi xonalarga nisbatan quyosh nurining ko'zni qamashtirishi keskin qisqaradi.

Besh burchakli ustaxona binosida sof havo oqimining yetarli darajada almashinib turishi ta'minlanadi, yaxshi tushib turadigan

tabiiy yorug'lik bu xonalarni shinam qiladi, bu esa kayfiyatga yaxshi ta'sir ko'rsatadi, qulay mehnat sharoitini vujudga keltiradi. Bunday tipdagi ta'lim bo'linmalari mehnat ta'limining psixofiziologik va sanitariya-gigiyena talablariga, shuningdek mehnat ta'limi metodikasiga (mehnat ilmiy asosida tashkil qilish) to'la-to'kis javob beradi. O'quvchilarning ish o'rnini to'g'ri tashkil etish, mehnatni osonlashtirish, uning unumdoorligini oshirish, buyumlar sifatini yaxshilash va yuksak mehnat madaniyati ko'nikmalarini singdirishning asosiy talablari quyidagilardir: ish o'rni o'quvchining bo'yiga muvofiq kelishi, mustahkam va yetarli darajada barqaror bo'lishi, zarur va yaxshi ishlaydigan, shu bilan birga ishda qulaylik tug'diradigan asboblar bilan ta'minlangan (qo'lga va o'quvchilarning jismoniy kuchiga muvofiqlashtirilgan), shuningdek foydalanish uchun qulay tartibda joylashgan bo'lishi kerak.

2. Ustaxonada o'qituvchining ish o'rnini tashkil etish. Mehnat o'qituvchisining ish joyi ish stoli, ko'rgazma qurollarini saqlash uchun javonlar, namoyish qurilmalari, sind taxtasi, texnika vositalari bilan jihozlangan o'quv-metodik qo'llanma, adabiyotlar, o'quv ko'rgazma qurollari, asbob va moslamalar bilan jihozlanadi.

O'quv ustaxonalaridagi asbob-uskunalar (dastgohlar, stanoklar, mashinalar, stollar va boshqa buyumlar) shunday tartibda va o'qituvchining ish joyidan shunday uzoqlikda joylashishi kerakki, o'quvchilar ish vaqtida o'z gavdalarini to'g'ri tutishlari uchun shart-sharoitlar yaratilishi, o'qituvchining gaplari va o'quvchilarning javoblari yaxshi eshitilishi kerak. Ustaxonadagi dastgohlarning miqdori ozroq bo'lishi, lekin shu bilan birga o'quvchilarning mehnat ta'limi dasturlarida u yoki bu mavzuga ajratilgan vaqt hajmida oraliq grafik asosida to'xtovsiz ishlashini ta'minlashi zarur.

Barcha ehtiyyot asboblar va moslama asboblar turadigan xonalarda shunday tartibda saqlanishi kerakki, ulardan har birini topish uchun o'qituvchi juda oz vaqt sarflasin. Masalan, parma, o'lchov asboblari, plankalar tegishli o'lchovlar yozib qo'yilgan qutichada joylashgan bo'lishi, ancha og'irroq moslamalar pastki javonlarda, birmuncha yengillari yuqoriroqda turishi kerak. Omborxonada barcha materiallar va ishga yaroqli chiqindilar markalari, sortlari, o'lchovlari va turlariga qarab ajratilishi va shunday joylashishi kerakki, ular oldiga boriladigan yo'l qulay hamda to'siqsiz bo'lsin.

Ko'rgazma qurollari (plakatlar, sxemalar, jadvallar, maketlar, mavzuli ko'rsatmali shitlar, buyumlarning namunalari) saqlash uchun yozilgan va tartib nomeri qo'yilgan tegishli yashiklar va tortmalar bo'lishi lozim, bu hol o'quvchilarga istalgan vaqtida oz vaqt sarflab kerakli qo'llanmani topa olishiga imkon beradi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisining ish joyida mehnat usullarini, ko'rsatmali qurollarni, shuningdek, o'quv filmlarini namoyish qilish uchun barcha sharoitlar yaratilishi kerak.

3. Ustaxonada o'quvchining ish o'rnnini tashkil etish. Ish o'rni deganda ustaxonaning bir o'quvchi tomonidan o'quv ishlab chiqarish ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar (dastgoh, stanok) va moslamalar maqsadga muvofiq joylashgan maydonchasi tushuniladi. Ish o'rnnini o'quvchi ish vaqtida o'z gavdasini ancha qulay tutib turadigan, ortiqcha harakatlar qilmaydigan darajada tashkil etilishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Ayniqsa, tiskilar o'quvchining bo'yiga qarab to'g'ri balandlikda o'rnatilishi katta ahamiyatga ega. Bu talablarning buzilishi ish natijalarining kamayishiga, to'g'ri mehnat malakalarining sust tarkib topishiga, ba'zan esa kasb kasalliklarining paydo bo'lishiga olib keladi.

O'quvchining ish joyida mavjud bo'lgan ish va nazorat-o'lchov asboblarining miqdori va xillari yetarli holda bo'lishi kerak. Masalan, pedagoglar mehnatini ilmiy asosda tashkil etish nuqtayi nazaridan randa, taxtani uzunasiga tiladigan yoysimon arra, iskana, metall qirqadigan dastarra va qaychi yoki nazorat-o'lchov asboblari shtangensirkullar, mikrometrler, 90° li go'niyalar va boshqa shu kabi asboblar har bir o'quvchining ish joyida doimo turishi nozarurat hisoblanadi. Gap shundaki, ish vaqtida ulardan foydalanish koeffitsienti juda past bo'ladi, shuning uchun bu asboblardan bir o'quvchi emas, balki bir vaqtning o'zida bir necha o'quvchi foydalanishi kerak. Shu munosabat bilan o'quvchining ish jo'yini tashkil etishga ham yangi talablar qo'yiladi. Barcha shaxsiy asboblar vazifasiga qarab ishlayotgan o'quvchiga yaqin joyda dastgoh ustida turishi kerak. Ko'pchilik foydalanadigan asboblar ishlayotgan o'quvchilarning ish joylariga baravar uzoqlikka qo'yilishi kerak.

Dastgohlar turli ishslash operatsiyalarini muvaffaqiyatlil bajarishga imkon beradigan va mustahkam joylashtirilgan ish konstruksiyalaridan iborat bo'lishi kerak. Masalan, bir o'rinli slesar-

lik dastgohi 800–850 mm (duradgorlik dastgohi 750–780 mm) balandlikda o'rnatilishi va u yog'ochdan yoki metallardan tay-yorlanishi lozim. Dastgoh o'rnatiladigan stol taxtadan ishlanadi, ustiga 1,5–2,0 mm qalnlikda po'lat tunuka qoplanadi va perimetri bo'yicha 25x25 mm li burchak qilib qoplanadi, dastgoh qulay o'rindiqqa ega bo'lishi, undan o'quvchi va instuktajlar dam olishi vaqtida foydalanishi, yozuvlar, eskizlar tuzish uchun esa unda suriluvchi planshet ham bo'lishi zarur. Dastgoh stolida aylanuvchi qurilmaga ega bo'lgan paralel slesarlik tiskilari mustahkamlangan bo'lishi zarur. Ish va kontrol o'lchov asboblari dastgohning aniq joyida turishi lozim. Ish vaqtida o'ng qo'l bilan olinadigan asboblar (bolg'a, egov, dastarra, metall qirqadigan qaychi va hokazolar) tiskilarning o'ng tomonida muayyan tartibda joylashishi kerak. Ulardan chap qo'l bilan olinadiganlari chap tomonda turadi. Kontrol o'lchov asboblari dastgoh stolining old tomonida, o'ng tomonga yaqin joyda turadi. Ish o'rnidagi ana shunday tartib o'quvchining butun ish vaqtida davomida saqlanishi kerak. O'qituvchi yoki usta o'quvchilardan ish o'rnini tashkil etish qoidalariga amal qilishini doimo talab qilib turishi kerak. Ish asboblari, ayniqsa, nazorat-o'lchov asbobi ish o'rniga o'yib qo'yilishi mumkin emas, bunday hollarda ulardan foydalanish qiyin bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga noto'g'ri foydalanish va saqlash natijasida u tezda ishdan chiqadi. O'quvchilarga ish o'rnini to'g'ri tashkil etish odatini singdirish uchun o'qituvchi yoki usta ularning bajargan ishlariga baho qo'yish vaqtida o'quvchining butun mashg'ulot davomida ish o'rnini qanday tutganligini ham hisobga olishi kerak.

Dastgohlar konstruksiyalari sozlovchi qurilmaga ega bo'lishi, ular yordamida dastgohlarni o'quvchilarining bo'yiga qarab moslash, shuningdek dam olish uchun qulay aylanuvchi o'rindiqlari, yozish va grafik ishlari uchun suriluvchi planshetlar bilan ta'minlanishi kerak. Xavfsizlik texnikasi bo'yicha muhofaza turлari dastgohga mahkamlanishi va zarur bo'lganda dastgoh stolga olib qo'yilishi kerak.

4. O'quv ustaxonasida sanitariya-gigiyena qoidalari va texnika xavfsizligi talablari. Mehnat ta'limining moddiy bazasini tubdan yaxshilash uchun barcha shart-sharoitlarni inobatga olish zarur.

O'quv ustaxonalari quyidagi asosiy sanitariya-gigiyena va xavfsizlik talablariga javob berishi lozim:

1. Ustaxonalar uchun mo'ljallangan bino o'quv-pedagogika, sanitariya-gigiyena va ishlab chiqarish, texnik talablarini qondirishi kerak.
 2. O'quv ustaxonalarining jihozlanishi texnikaning hozirgi darrajasiga, yuksak kasb madaniyatiga muvofiq kelishi hamda ularda mehnat ta'limi dasturining barcha mavzularini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi lozim.
 3. O'qituvchining o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv ishlab chiqarish ishlari uchun ham shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak.
 4. Har bir o'quvchi uchun mustaqil ish joyi ajratilgan bo'lib, u tegishli asbob-uskunalar, moslamalar bilan jihozlangan bo'lishi zarur.
 5. O'qituvchi uchun namunaviy ish joyi ajratilgan bo'lib, u tegishli asbob-uskunalar, moslamalar bilan jihozlanishi va pol ustidan 250–300 mm balandlikda bo'lishi kerak.
 6. Ustaxonalarda o'quvchilarning qulay va xavf-xatarsiz mehnat qilishi uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratilishi lozim.
 7. O'quv ustaxonalari hajmdor yassi ko'rsatma qo'llanmalar bilan, shuningdek, ta'limning texnikaviy vositalari bilan jihozlangan bo'lishi zarur.
 8. Yordamchi xizmat xonalari (asboblar saqlanadigan xona va omborxonalar) o'quv ustaxonalariga yaqinroq joylashgan bo'lishi kerak.
 9. Ustaxonalarda o'quvchilarning diqqatini ishdan chalg'ituvchi va mehnat jarayonini buzuvchi shovqinga va tashqi ovozlarga yo'l qo'yilmasligi kerak.
- O'quv ustaxonalarining maydoni, mavjud loyihalarga ko'ra, 70–90 m² ni tashkil etadi. Ustaxonalar bir qavatli alohida binoga joylashgan bo'ladi. Ular ta'lim muassasasida ortiqcha shovqin bo'lmasligi uchun mакtabning asosiy binosidan biroz nariroqda quriladi.
- O'quv ustaxonalari materiallar, yarimfabrikatlar, tayyor buyumlar, shuningdek asboblar va moslamalarni saqlash uchun zarur yordamchi xonalarga ega bo'ladi. Ustaxonalarning poli taxtadan tayyorlanishi, ular yaxshi tabiiy va sun'iy shamolla-tiladigan bo'lishi me'yorda tabiiy va sun'iy yoritilgan ish o'rni bo'lishi, havo temperaturasi qishda 14–16°C, yoz davrida esa 20°C dan oshmasligi kerak. Yoritish uchun tabiiy yorug'likdan

yoki sharoitga qarab kunduzgi yorug'lik lampalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

O'quv ustaxona devorlari silliq bo'lib, yorqin va shifti oq bo'yoqlar bilan bo'yalishi kerak. Bular xonaning yaxshi yoritilishini ta'minlaydi. Ustaxonadagi jihozlarning rang jihatdan bezatilishiga ham e'tibor berish kerak. Yorqin, fiziologik jihatdan asoslangan bo'yoqlar jihozlarning turli qismlari, ishlanuvchi obyektlar bilan ustaxonaning umumiy foni o'rtasida yaqqol farq bo'lishini ta'minlaydi.

Ustaxonalardagi shovqin va tebranishning kamayishiga shovqin yutuvchi va tebranishni yo'qotuvchi jihozlardan, eng to'g'ri mehnat usullaridan foydalanish yo'li bilan erishilishi mumkin.

O'quv ustaxonalaridagi asbob-uskunalarini joylashtirish vaqtida yong'inga qarshi choralarga, mehnatni muhofaza qilish va sa-noat sanitariyasi talablariga rioya qilish zarur, ustaxonalar asbob-uskunalar bilan to'ldirilib yubormasligi kerak. Tikuv mashinalari va ular orasidagi o'tish yo'llari belgilangan me'yorlar darajasida bo'lishi lozim. Dastgohlar, tikuv mashinalarining oxirgi qatorlari bilan ustaxona devorlari orasidagi masofa kamida 0,5 m bo'lishi kerak.

Ustaxonada qo'l yuvish, ustki va maxsus kiyim-kechaklar saqlanishi uchun sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan hol-da shart-sharoit yaratilgan bo'lishi kerak.

Ustaxonalarning maydonidan oqilona foydalanish, ularning toza bo'lishi, asbob-uskunalarining to'g'ri turishi, estetika talablariga rioya qilish va namunali tartib – bularning hammasi o'quvchilarни intizomlilik va davlat mulkini ehtiyoj qilish ruhida tarbiyalash uchun katta ahamiyatga egadir.

O'quv ustaxonalari sathini guruhdagi o'quvchilar sonidan va bitta o'quvchi ixtisosiga muvofiq maydon me'yordan (o'quvchi uchun 4–5 m², shuningdek o'qituvchining 5,5–7 m² ga teng ish o'rnidan) kelib chiqib aniqlanadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. O'quv ustaxonasida mehnatni ilmiy tashkil etish deganda nimalarni tushunasiz?
2. Xizmat ko'rsatish mehnati xonasi qanday jihozlanishi kerak?
3. To'g'ri burchakli shakldagi ustaxonalar qanday jiddiy kam-chiliklarga ega?

4. Besh burchakli ustaxona binosi qanday afzalliklarga ega?
5. Ustaxonada o'qituvchining ish o'rni qanday tashkil etiladi?
6. Ustaxonada o'quvchining ish o'rni qanday tashkil etiladi?
7. O'quv ustaxonalari qanday sanitariya-gigiyena qoidalariga mos bo'lishi kerak?
8. O'quv ustaxonalari qanday texnika xavfsizligi talablariga javob berishi kerak?

6.3. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish

Reja:

1. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda o'qitish shaklini tanlash.
2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda o'qitishning shakllari.
3. Amaliy mashg'ulotlarga qo'yiladigan umumiyl talablar.
4. Amaliy laboratoriya tadqiqoti.
5. Mehnat ta'limi jarayonida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bosqichlari.
6. Mehnat ta'limi jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida mashg'ulotlarni tashkil etish.

Tayanch iboralar: amaliy mashg'ulot, o'qitish shakllari; kombinatsiyali dars; o'quv sexlari, mehnat ta'limining tashkiliy shakllari, operatsiyalarni o'zlashtirish darsi, kompleks ishlarni bajarish darsi, nazorat-tekshirish sinov darsi, individual o'qitish, instruktaj, aralash dars, instruktor, shtat ish o'rni, ixtisoslik.

1. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish jarayonida o'qitish shaklini tanlash. O'qitish shakli deganda o'quvchilarining aniq mashg'ulot (dars) dan ko'zda tutilgan maqsadga erishishi uchun mehnat ta'limi o'qituvchisi rahbarligida o'quv materialini ongli va faol ravishda puxta o'zlashtirishga qaratilgan o'quv tarbiya faoliyatini tushunmoq kerak. Shundan keyin mehnat ta'limida foydalaniладиган xilma-xil shakllar masalasini oydinlashtirish zarur. O'quvchilarining o'quv ustaxonasidagi o'quv mehnat ta'limi ishlaringning asosiy shakllaridan biri dars yoki amaliy mashg'ulotdir.

O'quv mehnat ishi sifatidagi darsning asosiy belgisi: o'quvchilar tarkibining doimiy va ularning bilim (tayyorgarlik) darajasi taxminan bir saviyada bo'lishi, mashg'ulotning qat'iy jadval asosida o'quv ishlari uchun belgilangan ma'lum vaqt davom etishi mehnat ta'limi o'qituvchisining bevosa rahbarligi, uning xilmashkil o'qitish metodlaridan foydalanish darsni frontal, zveno va individual shaklda olib borish imkoniga ega bo'lishidan iborat deyish mumkin.

Shunday qilib, dars o'qitish jarayoniga tashkiliy aniqlik kiritadi hamda mehnat ta'limi va boshqa fanlar darslarini navbatlashtirib tashkil etishga, binobarin, o'quvchilarning yuqori unumдорлик bilan o'qishini hamda dam olishini ta'minlashga imkon beradi. Lekin, mehnat texnika ta'limi tizimida o'quvchilarga mehnat qilish yuzasidan qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun faqat ayrim darslarni yaxshi tashkil etishni o'zigma kifoya qilmaydi. Darslar to'g'ri va uyg'un tashkil etilgandagina darsning mazmuni to'la va maqsadga muvofiq ochilishi mumkin. Bundan tashqari, ishlab chiqarish ta'limi maqsadlari va vazifalariga muvofiq ravishda quyidagiga o'xshash har xil dars turlarini qo'llash mumkin:

1. Kombinatsiyali (o'qitish jarayonining hamma zvenolarini o'z ichiga olgan) dars.

2. Operatsiyalarni o'zlashtirish (ayni operatsiyaga oid ish, mehnat usullarini o'rganish)ga bag'ishlangan dars.

3. Kompleks ishlarni bajarishga (konkret buyum tayyorlash munosabati bilan ilgari o'rganilgan operatsiyalarni texnologik kompleks tarzda birlashtirishga) bag'ishlangan dars.

4. Nazorat-tekshirish, sinov topishiriqlari va malaka olishga bag'ishlangan dars (chorak oxirida yarim yillik, o'quv davrida).

Ayrim dars shaklidagi ishlab chiqarish ta'limi asosan o'quv ustaxonasida tashkil etilishini e'tiborga olib shuni ham ta'kidlash kerakki, o'quvchilar bajaradigan ishlarning xarakteriga qarab darsni tashkil etish shakli ham tanlanadi (ish – dars, frontal – butun sinf uchun, zveno, individual va aralash tur).

Masalan, o'quvchilarning hammasi bir xil ishni bajaradigan bo'lsa (bolg'a tayyorlash, kalit yasash va hokazo). Darsning frontal shaklini qo'llash mumkin. Bu holda o'qituvchi o'quvchilarning hammasi uchun bitta umumiy instruktaj beradi va hamma o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan umumiy talablar asosida buyumni tayyorlash texnologiyasining to'g'ri bajarilishini kuzatib boradi.

O'quvchilar bajaradigan ishlar mazmuni (tayyorlash texnologiyasi) bir-biriga yaqin, lekin xarakteri, ya'ni konstruksiyasi boshqa-boshqa bo'lgan hollarda darsni zvenolarga bo'lib tashkil etish ma'qul, masalan, tokarlik stanogini yig'ish (murakkab mahsulot vositasida o'rgatib o'qitish)da o'qituvchi ishni uzellarga ajratadi (uzatishlar qutisi, tezliklar qutisi, keyingi skoba va shunga o'xhash) va har bir uzelni 2–3 kishilik zvenoga topshiradi. Yig'ish operatsiyalariga oid hamma umumiylar ma'lumotlarni o'qituvchi frontal instruktaj tarzida o'quvchilarga aytib beradi, har bir uzelning o'ziga xos ma'lumotlarini esa har bir zvenoning o'ziga aytadi. O'qitishning bu shaklidan foydalanganda o'qituvchining ish hajmi, ayniqsa joriy instruktajda, frontal formadagidan ko'ra ancha ortadi. Biroq bundagi xilma-xil ishlar sonining ko'p bo'lishi (stanokning turli uzellari), o'quvchilarda professional ilmlarning o'sishigagina emas, balki politexnik bilimlar doirasining kengayishiga ham yordam beradi.

Individual (yakka tartibda) o'qitish shaklini sinfdagi ko'pchilik o'quvchilar konstuksiyasi har xil, mazmunan esa bir-biriga yaqin bo'lgan ishlarni bajarganlarida qo'llash mumkin. Bu xil ishlar, masalan: o'quv ustaxonasi uchun xilma-xil mayda buyurtmalarдан, yoki dona hisobi uncha katta bo'Imagan turli-tuman detallar (tokarlik yoki parmalash stanoklari detallari) bo'lishi mumkin. Bunday hollarda o'qituvchi tayyorlanishi kerak bo'lgan buyumlarning tayyorlanish texnologiyasini tahlil qilib chiqib, o'quvchilarga frontal instruktaj tarzida umumiylar belgilarni (ma'lumotlarning) va yakka shaklni qo'llaganda aytildigan ma'lumotlarni oldindan ajratib qo'yadi. Bunda individual tarzda aytildigan ma'lumotlar ko'proq bo'ladi. Ko'rinish turibdiki, darsni individual shakl asosida tashkil etganda, o'qituvchi ko'proq tayyorgarlik ko'rishi kerak bo'lar ekan, bunda darsning individual shakli va individual instruktajdan iborat ikkita tushunchani bir-biridan farq qilish zarur. Individual instruktajni har qanday shaklda tashkil etilgan darsda qo'llash mumkin, lekin bu ishning hajmi frontal dars shaklida kamroq, individual shakldagi darsda esa ko'proq bo'ladi.

Nihoyat, aralash shakldagi dars yuqorida ko'rsatib o'tilgan uchala dars shakllarining elementlaridan tarkib topadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, dastur materialining mazmuniga, ixtisos xarakteriga va boshqa faktorlarga qarab, ishlab chiqarish ta'limida boshqa tashkiliy shakllarni ham qo'llash

mumkin. Masalan, o'quvchilar brigadasi shaklidagi o'qitish ishlab chiqarish sharoitida, dars shaklini qo'llash mumkin bo'limgan hollarida qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu shakldagi ta'limni ko'pincha ko'mir koni shaxtyorlarini tayyorlashda, metallurglar, ximiklar va qishloq xo'jaligiga tegishli ko'pgina ixtisos ishchilarini tayyorlashda qo'llash mumkin.

2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda o'qitishning shakllari. *O'quvchilarni o'quv ishlab chiqarish brigadalarini shaklda o'qitish.* Bunday sharoitlarda mehnat ta'limi o'qituvchisi odatda o'quvchilarni alohida o'quvchilar brigadalariga ajrata-di, bu brigadalarining har biri muayyan o'quv-ishlab chiqarish topshirig'ini bajaradi, bu topshiriqlarning o'quv maqsadi va mazmuni bir-biridan ancha farq qilishi mumkin. Masalan, bir brigada marten pechiga xizmat qilishga o'rgansa, ikkinchisi gaz generatorlariga xizmat qilishni, uchinchisi esa nazorat o'chash asboblarini kuzatishi va hokazolarni o'rganishi mumkin. Bunday hollarda o'qituvchi o'quv brigadalarini o'rganiladigan zonalar chegarasida almashtirib turish grafigini tuzishi kerak, toki har bir brigada, masalan, metallurgianing butun bir kompleksiga xizmat qilishdagi hamma ish usullarini bilib, o'rganib oladigan bo'lsin.

O'quvchilarni korxona sharoitida o'rgatishning yana bir shakli, ularni ishchilar brigadasiga qo'shib o'qitishdir. Bu shaklni, masalan, slesar-remontchi, yig'uvchi santechnik, montajchilar, shuningdek, qurilish ixtisosliklari kabi ixtisosliklarda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Bu shakl asosida o'quvchilarga ishlab chiqarish ta'limi berish shundan iboratki, yuqorida aytilgan ixtisoslarga doir ishlab chiqarish brigadalariga umumslesarlikka yoki boshqa biron tayyorgarligi bo'lgan bir yoki bir necha o'quvchi biriktiriladi. Bu holda ishlab chiqarish ta'limi o'qituvchisining vazifasi davriy ravishda joriy instruktaj o'tkazib turish, kundalik topshiriqning tavsif va hajmini aniqlab turish, beriladigan topshiriqning mavzusi tegishli kirish instruktaji va ish natijasiga bag'ishlangan yakuniy instruktaj o'tkazishdan iborat bo'ladi. Lekin o'quvchilar turli obyektlarga tarqatilgan bo'lishi tufayli o'qituvchi har bir o'quvchiga topshiriq berish va undan ishni qabul qilib olish imkonidan mahrum bo'ladi. Shu tufayli bu holda o'quvchilarni o'qitish (o'rgatish) vazifasi qisman ishchilar brigadasi a'zolariga yoki brigadirning o'ziga topshiriladi. Ishchilar brigadasida ishlovchi o'quvchilarga

ish haqi ularning ancha past malakasini va sarf qilgan mehnatiini hisobga olib hisoblanadi. O'quvchilar ishchilar brigadasida ba'zan o'qilgan (o'r ganilgan) dasturni tizimli ravishda bajarish tamoyili buziladi. Chunki, ishlab chiqarish mashg'ulotlari ishchilar bajaradigan ish turini (ushbu ish turi dasturning ayni davrida o'rganiladigan ishga mos kelmagan taqdirda ham) o'zgartira olmaydi. Lekin o'quvchilarning ish bilan doim ta'minlanib turiishi, ilg'or texnologiya va ilg'or mehnat usullaridan foydalanish imkoniga ega bo'lishi, ishlab chiqarish kabilalar bu kamchliklarni qisman bo'sada qoplaydi.

O'quvchilarni malakali ishchilarga biriktirib o'qitish. Ishlab chiqarish mashg'ulot shaklining yana bir turi o'quvchilarni mala-kali ishchilarga biriktirishdan iborat bo'lib, bunda o'qitish asosiy ishdan ozod qilinmagan instruktor tomonidan amalga oshiriladi. Bir instruktorga bir vaqtning o'zida ikkitadan ortiq o'quvchi biriktilmaydi. O'qitishning bu shaklini ijobjiy tomoni shundan iboratki, bu usul bilan bevosita ilg'or texnologiya bilan ta'minlangan ishlab chiqarish sexlarida istalgan hunar bo'yicha ishchilar tay-yorlash mumkin. Bunda instuktur uchun o'quvchilarning tay-yorgarlik darajasi va sifatini e'tiborga olib eng samarador o'qitish usullarini qo'llashga imkon bo'ladi.

Biroq bunda o'zining asosiy ishi bilan ham shug'ullanishga majbur bo'lган instruktor o'ziga biriktirilgan o'quvchilarga tegishli e'tibor berish imkonidan mahrum bo'ladi, ishlab chiqarish ta'limining borishini har kuni nazorat qila olmaydi.

O'quvchilarni shtatli ish joylarida o'qitish. Ishlab chiqarish ta'limining maxsus shakli bu o'quvchilarning shtatli ish o'rinalarida (iste'mol mahsuloti ishlanadigan ish o'rinalarida) o'tkazadigan praktikasıdir. Bu shakl ta'limning oxirigi oyalarida, korxona sharoitida o'tkaziladi. Bu shaklda o'qitishda har bir o'quvchi shtatli joyda ishlab, mahsulotga korxona tomonidan qanday talablar qo'yiladigan bo'lsa, o'sha talablarga to'la amal qilib buyum tay-yorlaydi. Bu holda o'quvchi buyum ishlab chiqarish vaqt normasini bajarishga ham majbur bo'ladi. O'quvchi tayyorlagan mahsulotini korxonaning texnik kontrol bo'limi xodimlari qabul qilib olib, o'quv ishlab chiqarish faoliyatini shu xilda tashkil etish o'quvchilarni ayni ixtisos ishchilari ishlaydigan sharoitda mehnat qilishga odatlantiradi. O'qituvchi o'qitish shakllarini va metodlarini ayni ish o'rniiga qo'yiladigan talablarga moslashtirib tanlashi

shart: agar ayni ish o‘rnida ishlab chiqarish ta’limi dasturi to‘la bajarilmaydigan bo‘lsa, o‘qituvchi oldindan tuzib qo‘yilgan grafik asosida o‘quvchini boshqa ish o‘rniga ko‘chirishi shart.

O‘quvchilarни tanlagan ixtisosligi bo‘yicha o‘qitish. Agar, maktab o‘quvchilarini ular tanlagan ixtisos bo‘yicha o‘qitish uchun moddiy baza bo‘lmasa, o‘quvchilarни korxonadagi o‘quv sexlarida va maxsus ajratilgan uchastkalarda o‘qitish formasidan foydalanish mumkin. Bu forma o‘quvchilarни o‘quv ustaxonalarida o‘qitish formasiga o‘xshaydi, farq shundaki korxonada o‘quvchilarga korxona xodimi, asosiy vazifadan ozod qilingan instruktor rahbarlik qiladi. Bundan tashqari ish obyektlari sifatida korxona sexlarning buyurtmalari ham bajariladi. Bu esa o‘quvchilarни ayni korxona ning unumli mehnatiga yondashtirish uchun eng ma’qul tadbirdir. Biroq bunda kirish instruktaji, joriy va yakuniy instruktaj o‘tkazish uchun zarur sharoitning bo‘lmasligi, o‘qitish formasiining samaradorligini kamaytiradi.

3. Amaliy mashg‘ulotlarga qo‘yiladigan umumiyl talablar. Amaliy mashg‘ulot jarayonida dastur mavzusining mazmuni ochib beriladi, mehnat ta’limi va tarbiyaning maqsadlari hamda vazifalari amalga oshiriladi. Demak, amaliy mashg‘ulot deganda o‘quvchilarning o‘quv materialini faol, ongli va mustahkam o‘zlashtirish maqsadida mehnat o‘qituvchisi rahbarligida amalga oshiriladigan ham jamoa, ham yakka holda ish turlarini o‘z ichiga oladigan o‘quv mehnat faoliyatini aniq tashkil etishni tushunish kerak.

Mehnat sohasidagi amaliy mashg‘ulotlar turli xilda bo‘lishi, ya’ni yangi texnik-teknologik ma’lumotlarni, mehnat operatsiyalarini o‘rganishga, bilimlari, mehnat ko‘nikmalari va malakalarini mustahkamlashga, nazorat tekshirish ishlari, korxonalarga ekskursiyalar o‘tkazish va hokazolarga bag‘ishlangan mashg‘ulotlar bo‘lishi mumkin. Lekin o‘quv ustaxonalarida o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarning turlari xilma-xil bo‘lishiga qaramasdan, ularning hammasi quyidagi umumiyl talablarni qondirishi lozim:

1. Mashg‘ulotning maqsadi hamda vazifalari aniq va ravshan ifodalangan bo‘lishi lozim.

2. Mashg‘ulotning tarkibi didaktik jihatdan ketma-ket (bilim ko‘nikma, malaka, mahorat) va o‘quv materialining mazmuniga to‘liq javob beradigan bo‘lishi kerak.

3. Amaliy ishlarning obyekti to‘g‘ri tanlanishi, ijtimoiy foydali qiyomatga ega bo‘lishi va o‘rganiladigan mehnat operatsiyalari va usullarining talablariga muvofiq kelishi zarur.

4. Mashg‘ulotda foydalilaniladigan mehnat ta’limi metodlari dars talablariga va o‘quv materialining mazmuniga to‘liq javob berishi lozim.

5. O‘quv ustaxonalarida mashg‘ulotning tashkiliy-metodik tuzilishi o‘quvchilar bilan jamoa va yakka holda ish olib borishni nazarda tutishi kerak.

6. Mehnat ta’limi bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda o‘tkaziladigan ta’lim ishlari tarbiyaviy tavsifga ega bo‘lishi, ya’ni maktab o‘quvchilarida ma’naviy sifatlarning tarkib topishiga yordam berishi lozim.

Mehnat sohasidagi amaliy mashg‘ulot turlarining xilmassisligiga qaramasdan, ulardagi umumiy didaktik elementlarni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, bular o‘quvchilarni navbatdagi o‘quv materialini o‘zlashtirish uchun jalb qilishga qaratilgan mashg‘ulotlarni uyuştirish; o‘quvchilar ilgari o‘zlashtirgan bilimlar, mehnat ko‘nikmalari va malakalarining darajasini tekshirish, yangi materialni tushuntirish va mehnat operatsiyalarini hamda amaliy ishlarni bajarish vaqtida mehnat usullarini ko‘rsatib berish; o‘quvchilarning yangi mavzuga oid operatsiyalar va ishlarni bajarish vaqtida ularning bilimi, mehnat usullari darajasini aniqlash; mehnat usullarini mashqlar bilan mustahkamlash va ularni dastlabki mehnat ko‘nikmalari darajasiga yetkazish. Bunda mehnat o‘qituvchisining puxta nazorat qilishiga erishish; amaliy topshiriqning mustaqil bajarilishi va o‘tgan mashg‘ulotning nati-jalariga yakun yasashdan iborat.

Yuqorida sanab o‘tilgan elementlar amaliy mashg‘ulotning tarkibini tashkil etadi. Shunday qilib, amaliy mashg‘ulot tarkibi deganda didaktik elementlarning qat’iy izchilligi va o‘zaro bog‘lanishidagi nisbatni tushinish kerak, ular esa mashg‘ulot maqsadlari va o‘quv materiallarining mazmunini taqazoqiladi.

4. Amaliy laboratoriya tadqiqotlari. Amaliy laboratoriya tadqiqotlari mehnat mashg‘ulotining shunday turidirki, unda maktab o‘quvchilari o‘qituvchi rahbarligida maxsus uskunalar, asboblar, apparatura yordamida turli tadqiqotlar, tajribalar, kuzatishlar olib boradilar, o‘lchamlarini amalga oshiradilar.

Amaliy laboratoriya tadqiqotini faqat umumiy ta’lim fanlari yuzasidangina emas, balki mehnat ta’limi bo‘yicha o‘tkazish ham maqsadga muvofiqdir, o‘quv ustaxonalari, maxsus kabinetlar, laboratoriylar, o‘quv tajriba uchastkalari va hokazolar amaliy laboratoriya tadqiqotlari uchun baza bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Amaliy laboratoriya tadqiqotlari o‘quvchilarga turli jihozlar, asboblar, moslamalar bilan ishlay olish ko‘nikmalarini hosil qilish imkonini beradi: o‘lchovlar, kuzatish natijalarini ishlab chiqish hamda to‘g‘ri ilmiy xulosalar chiqarishni o‘rgatadi. Masa-lan, 7-sinfda «Metallarga termik ishlov berish» degan mavzuni o‘rganish vaqtida o‘quvchilar po‘latning termik ishlov berishdan oldingi va keyingi fizik-mexanik xossalarini (turli asboblar, moslamalar yordamida va charxlash vaqtida chiqargan uchquniga qarab po‘latning qattiqligini, mustahkamligini, egiluvchanligini); issiqlik ishlovi berish rejimini (isish darajasining va toblovchi muhim xususiyatlari va hokazolarni) tekshiradilar.

Amaliy laboratoriya tadqiqoti laboratoriya jihoz va asboblarini tekshiriladigan obyektlarni o‘quvchilar uchun topshiriq kartochkalarini va hisobot shakllarini tayyorlash yuzasidan sinchkovlik bilan ish olib borishni talab qiladi. Amaliy laboratoriya tadqiqoti ham frontal, ham zveno, ham yakka usulda o‘tkazilishi, shu bilan birga unda o‘quvchilarga yakka instruktaj berish ham ko‘zda tutilishi kerak.

Amaliy laboratoriya tadqiqotlari natijalari jamoa ravishda muhokama qilinadi va shundan keyin o‘quvchilarga baholar qo‘yadi. Bunda kasb ta’limi bo‘yicha amaliy laboratoriya tadqiqoti ta’limining tashkiliy shakli sifatida qarab chiqiladi.

5. Mehnat ta’limi jarayonida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bosqichlari. Laboratoriya mashg‘ulotlari har bir dars jarayonini tashkil etish, uni olib borish, darslarni tahlil va muhokama qilish, hamda muhokama qurollarini yozish yo‘l-yo‘riqlari bilan tanishish uchun dastlabki laboratoriya mashg‘ulotida har bir talabaga bittadan mavzu beriladi va navbatiga bilan har bir talaba dars o‘tadi va qolgan o‘rtoqlari, metodika o‘qituvchisi bilan birgalikda bu darsni tahlil etib boriladi. Dars tugagach, metodist o‘qituvchi rahbarligida o‘tilgan dars muhokamasi o‘tkaziladi. Darsni kuzatish davrida qolganlar ikki vazifani bajarishadi.

1. Kuzatilayotgan darsda qatnashgan sinf o‘quvchisi sifatida «o‘qituvchi» topshiriqlarini bajaruvchi rolini o‘ynaydi.

2. Qolgan talabalar kuzatuvchi sifatida «o'qituvchi»ning darsini tahlil etib boradi.

Dars o'tuvchi mashg'ulot boshlanishidan 1—2 kun oldin darsni olib borish bo'yicha metodist o'qituvchidan kerakli yo'l-yo'riqlarni, metodik yordamni maslahat sifatida olgan bo'lishi va dars rejasi hamda konspektni tayyorlab, tasdiqlatishi zarur.

Dars davomida metodist o'qituvchi tomonidan hech qanday yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar berilmaydi.

Dars davomida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarini baholashga quyidagicha yondashilinishi kerak:

1. Oldingi mavzuni takrorlash va yangi mavzuni mustahkamlash hamda amaliy ishlar jarayonida o'quvchilar o'qituvchidan metodik xarakterdagi savollar so'ramaydi, lekin mavzu mazmuni haqida so'rab unga qo'yilgan baho metodikadan qo'yiladigan bahoqa teng kuchli deb qaraladi. Chunki darsni ilmiylik tamoyili asosida tahlil eta bilish uchun uning mazmuni va mohiyatini tababa aniq bilishi birinchi shart hisoblanadi.

2. O'qituvchi o'ziga yaqin o'quvchiga qo'yiladigan bahoni yuqori yoki past qo'yishi ham mumkin. Ammo dars muhokamasi davrida o'quvchiga qo'yigan bahosini yetarlicha asoslab berishi talab etiladi. Aks holda bu o'tgan darsi uchun o'zi oladigan bahosiga salbiy ta'sir etadi.

Dars tugashi bilan har bir dars tahlili varaqasining «fikr va mulohazalar» grafasida fikr va mulohazalarini ifodalab bo'lgach, o'tilgan dars maqsadi, uning yutuq va kamchiliklarini hisobga olgan holda 5 ballik sistemada dars o'tuvchining bahosini yozib qo'yishi talab etiladi.

Mehnat ta'limining barcha sinflar bo'yicha barcha mavzularni o'qitish metodikasi bilan tugal ravishda tanishib chiqish uchun vaqt yetarli emas. Shu sababli ularning xarakterli tomonlarini o'zida aks ettiruvchi ayrim bo'lim va mavzular tanlanadi-ki, ko'pgina mavzular mazkur mavzu yoki bo'limda ko'rsatilgan metodika asosida tashkil etiladi va o'tiladi.

Laboratoriya mashg'ulotlarining asosiy qismi dars tahlili hisoblanadi. Bunda dars tahlili asosida dars o'tgan o'qituvchining yutuq va kamchiliklarini ko'rsatish asosida ushbu mavzuni qanday o'qitish kerak ekanligi metodik jihatdan ishlab chiqiladi. Dars muhokamasi dastlab dars o'tgan o'qituvchining o'z dars oldiga qo'yilgan maqsad va unga erishilganlik darajasi

hamda ayrim kamchilik, yutuqlari haqidagi so‘zi bilan boshlanadi.

So‘ngra har bir talaba o‘z tahlilini bayon qilib darsni baholaydi. Dastlabki 3–4 talabadan keyin chiqqan talaba tahlilda qatnashgan talabalar fikrlarini ham tahlil etib o‘z izohini berishi talab etiladi.

Tahlil so‘ngida dars o‘tgan o‘qituvchi-talabaga so‘z beriladi va ko‘rsatilgan kamchiliklar haqida o‘z fikrini aytadi. So‘ngra metodist-o‘qituvchi barcha tahlillarni umumlashtirib darsni baholaydi va mazkur mavzuni o‘qitishni qanday tashkil etish va olib borish yo‘l-yo‘riqlarini tushuntirib beradi. Shu bilan bir vaqtida dars muhokamasida qatnashgan barcha talabalar ham baholanadi va muhokama qaroriga imzo chekiladi.

Darslarni tashkil etish va olib borish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar:

1. Dars davomida dars jarayonining boshqaruvchisi va javobgari ham sizning o‘zingiz.
2. Dars davomida o‘qituvchiga berilgan barcha huquq va imtiyozlarga egasiz.
3. Darsni qat’iy oldindan belgilangan reja asosida olib boring. Ayrim holda sharoit taqazosi bilan rejadan chetga chiqib ketish mumkin bo‘lsa, darsdagi sistemalilik va maqsaddan chetlashmaslikka harakat qiling.
4. Dars boshlanishiga qadar barcha kerakli jihozlarni tayyorlab qo‘ying.
5. Dars qismlari bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar.
 1. Salomlashish. Umuminsoniy qadriyatlarga suyangan holda mahalliy, milliy-etnografik xususiyatlarni ko‘zda tutgan holda amalga oshirilsin.
 2. Davomatni aniqlash. Bu ishlarni amalga oshirishning bir necha xil ko‘rinishlari bo‘lib, uni to‘g‘ri tanlang. Bu variantlar:
 - a) jurnal orqali davomatni aniqlash;
 - b) navbatchi orqali davomatni aniqlash;
 - d) navbatchidan kelmaganlar ro‘yhatini talab etish yo‘li bilan;
 - e) o‘qituvchi tomonidan ko‘z yugurtirish yo‘li bilan;
 - f) oldingi mavzuni takrorlash jarayonida.
 - Bu ko‘rinishlarni turli sharoitda turlichqa qo‘llash mumkin.
 3. Sinfning dars o‘tishga tayyorgarligini tekshirishda ushbu darsni olib borish uchun qanday jihozlar o‘qituvchi uchun va o‘quvchilar uchun zarur hamda ularning mavjudligi, o‘quv xona-

sining dars o‘tishga tayyorligi (yoritilganlik, sanitariya-gigiyenik va texnika xavfsizligi talablariga javob berishi) tekshiriladi. Zarurat sezilsa, ular tartibga solinib, so‘ngra dars boshlanadi.

4. Oldingi mavzuni takrorlashdan maqsad faqat o‘quvchilar bilimini baholashdan iborat bo‘lmay, balki yangi mavzuni o‘rganishga zamin tayyorlash, ta’lim jarayonida o‘qitish shakl va metodlarini nechog‘li to‘g‘ri tanlanganligini hamda pedagogik faoliyatningizdagagi ayrim kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va bundan keyin bu kamchiliklarni yo‘qotish maqsadlarida ham amalga oshiriladi.

Oldingi mavzuni takrorlashning ham bir necha ko‘rinishlari mayjud bo‘lib, har bir mashg‘ulot uchun ular turlicha ahamiyat kasb etadi. Oldingi mavzuni takrorlash uchun tuzilgan savollar qisqa, tushunarli va aniq bo‘lishi bilan bir vaqtida har bir ketma-ket kela-digan savollar bir-biriga mantiqan bog‘langan, izchillikda bo‘lsin.

Ayrim hollarda o‘quvchilar javoblari sizni qoniqtirmasa, oldin-gi dars o‘z vaqtida o‘qituvchi tomonidan qisqacha takrorlanishi va yangi mavzuga bog‘lanishi talab etiladi. Bunday holning bir necha bor takrorlanishi ko‘pincha o‘qitish shakli va metodla-rining noto‘g‘ri tanlanganligi oqibatida kelib chiqadi. Shu sababli o‘tish shakl va metodlarini tanlashga jiddiy ahamiyat berish kerak.

Oldingi mavzularni takrorlashda vaqtidan o‘ta unumli foy-dalanish metodlarini qo‘llash talab etiladi.

5. Yangi mavzuning bayoni. Bunda ishlab chiqilgan reja bo‘yi-cha o‘quv materialining o‘quvchilarga yetkazilishi talab etiladi. Yangi mavzu mazmuni oldingi mavzu mazmuni bilan bog‘lanishi talab etilsada har bir dars mashg‘ulotida o‘quvchilarga yetkazi-ladigan bilim, malaka va tushunchalar mohiyati jihatidan yakun-langان, tugal bo‘lgan umumiy ta’lim tizimining kichik bir qismi sifatida bo‘lmog‘i kerak.

Dars mobaynida o‘quvchilarga namoyish etiladigan ko‘rgaz-mali qurollar, natural obyektlar o‘z vaqtida o‘quvchilarga ko‘rsatilishi talab etiladi. O‘qitishning texnikaviy vositalari qo‘llanilishida ortiqcha shovqin yoki darsga xalaqit beruvchi elementlar bo‘lmasligi kerak. Har bir o‘quv filmlari yoki magnitafon lentalari mashg‘ulotgacha eshitib yoki ko‘rib chiqilgan bo‘lib, dars davomida kerakli vaqtdagina undan foydalanish taysiya etiladi.

Dars davomida quyidagilarga ahamiyat berishingiz talab etiladi:

— o'qituvchi sifatida tashqi ko'riningiz (kiyimlarning bezirimligi, soch va soqollarning holati, kiyim tugmalari qadalganligi, ...)

— nutqingiz (nutqingizdagi ohang, tutilmay so'zlashingiz), hozirjavobligingiz, fikrlarni sistemali va izchil bayon eta bilishingiz, tanlagan misollardan o'z o'rnida aniq foydalanish hamda qo'llay bilishingiz;

— tushuntirishda mavzu mazmunini noma'lumdan ma'lumga, osondan qyinga, soddadan murakkabga tomon yo'nalishdagi izchillikning ta'minlanishi;

— chizma va eskizlarni tayyorlashni tushuntirish usullarini va texnologiyasining tushunarli bo'lishiga;

— bir vaqtning o'zida dars mazmunini bayon qilish va o'quvchilar faoliyatini kuzatib borish qobiliyattingiz va uni amalda qo'llay bilishingiz;

— pedagogik nazokatni amalga oshirishda o'quvchilar bilan bo'lgan muomalangiz, qat'iylig va samimiyligingiz, turli holatlarda o'zingizni tuta bilishingiz va uddaburonligingiz;

— ish jarayonini to'g'ri va aniq ko'rsata bilishingiz;

— darsni metodik jihatdan to'g'ri tashkil eta bilishingiz va amalga oshirishingiz;

— ilmiylik tamoyili va ta'limning politexnik xarakterini nechog'li amalga oshira bilishingiz;

— ta'lim va tarbiya birligi tamoyilini amalga oshirishdagi faoliyattingiz;

— dars maqsadini to'g'ri tanlay bilishingiz va dars so'ngida bu maqsadga erishganlik darajangiz;

— to'g'ri va teskari aloqani to'g'ri va o'z o'rnida qo'llay bilishingiz;

— tanlangan metodlarni o'z o'rnida va samarali qo'llay olishingiz;

— darsni yakunlappingiz, asbob-uskunalarini o'z o'rniga joylashtirish va xonani yig'ishtirishni tashkil qilishingiz.

Yangi mavzuni mustahkamlashda ham oldingi mavzuni takrorlashdagi metodlar va talablar qo'llanilishi mumkin. Bunda yangi mavzuni nechog'li samarali o'qitganingiz o'z ifodasini topadi.

Shu sababli bu bo'limda o'quvchilar bilim va malakalarini baholash bilan bir vaqtda kelgusi dars rejasiga uchun dastlabki kerakli ma'lumotlarni olishingiz mumkin.

6. O'quvchilarni baholash va uygaga vazifa berishda bahoning obyektivligini ta'minlashga harakat qiling. Baholashda kichik bir savol bilan o'quvchi bilimini baholashdan chetlashing. Har bir nazariy darslarda kamida 4–5 o'quvchini baholashga ulguring.

Amaliy mashg'ulotlarda esa 100% o'quvchilarni baholab boshish talab etiladi.

Baholashda o'quvchining barcha faoliyatini hisobga olgan holda baholash talab etilgan taqdirdagina ish o'rnnini tashkil etishi, xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi, savollarga to'g'ri va aniq javob berishi, hayotiy misollar keltira bilishi, asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanishi, mehnat madaniyati va h.k.

O'quvchiga bu faktorlar hisobga olinayotganini tushuntirgan taqdirdagina bahoning tarbiyaviy xarakteri ochiladi. Aks holda «keyingi» darsda yana ham yaxshi harakat qilgin, ishlagin, hozir «4» baho qo'yaman» deyish bilan bahoning tarbiyaviy xarakteri ochilmaydi.

Albatta, bunday yondashishda o'quvchi xulqiga beriladigan baho bilan ilmiga beriladigan bahoni farqlash talab etiladi.

Darsda o'quvchining bilim va malakasiga baho beriladi. Uyga beriladigan vazifa aniq bo'lib, kerak bo'lsa, qisqa yo'llanma berish talab etiladi.

Dars kuzatuvchi talabalar ikki vazifani bajarish haqida biz yuqorida so'z yuritgan edik. Undagi birinchi vazifa o'qituvchi tomonidan tashkil etiladi va boshqariladi. Ikkinci vazifa dars tahlilini amalga oshirishdir. Dars tahlili mazmuni jihatidan uch xil ko'rinishga ega:

Dars tahlili			
No	Metodik tahlil	Psiyologik tahlil	Pedagogik tahlil
1.	Darsning tuzilishi	Nutqi	Ta'lim va tarbiya birligi
2.	Dars mazmuni	Diqqati	Pedagogik odobning amalga oshirilishi
3.	O'qitish shakli	Fikrlash qobiliyati	Darsning sistemaliligi va izchilligi

Jadvalning davomi

4.	O'qitish metodi	O'quvchilarga tushuntirishdagi faoliyati	Didaktik qoidalarga amal qilinganligi
5.	Dars maqsadi	Qobiliyati	
6.	O'qitishda ko'rgazma qurollar	O'quvchi temperamentini aniqlash va unga mos ravishda yondashish	
7.	O'qitishning texnik vositalari	O'quvchilar xarakterini aniqlash va unga mos ravishda yondashilganligi	
8.	Darsning ilmiyligi		
9.	Darsning politexnik xarakteri		
10.	Ish obyektining tanlanishi		
11.	Ish jarayonini namoyish etish		
12.	Xavfsizlik texnikasi va sanitariya-gigiyenik qoidalarga rioya qilish		
13.	Usul va metodlardan to'g'ri va o'rinnli foydalanish. Psixologik tahlil ilovada to'liqroq yoritilgan.		

Lekin dars tahlili jarayonida ular bir butun mujassamlashgan holda ifodalanadi. Kuzatish natijalari dars jarayonida quyidagi jadvalga qayd qilib boriladi.

Nº	Dars o'tuvchi	Sinf	Fan	Mavzu	Sana	Darsning borishi	Darsning kamchiligi	Darsning yutug'i	Fikr va mulo-hazarlar	Uyga vazifa	O'quvchilarni baholash

Jadvalni to'ldirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Darsning borishi: bu ustunni to'ldirishda o'qituvchining barcha faoliyatini ssenariy sifatida yozish talab etiladi. Bunda o'qituvchi talabaning o'quvchilar bilan salomlashishidan, ya'ni darsning tashkiliy qismidan tortib, xayrashib chiqib ketgunigacha, ya'ni dars yakunigacha bo'lgan faoliyatni mazmuni va o'qituvchining yozdirgan konspekti va chizmasi, o'qitish usul va metodikasi, barchasi batafsil yoziladi.

Davomatni aniqlash qanday amalga oshirildi? Oldingi darsni takrorlashda qaysi savollar berildi va uning qisqacha javobi qanday bo'ldi?

O'qituvchi qaysi shakl va metodlarda yangi mavzuni oldingi mavzu bilan bog'ladi – barchasi batafsil bayon etilishi talab etiladi.

Shu tariqa dars tuzilishining barcha qismlari to'liq yoritilishi talab etiladi.

Darsning kamchiligi: bu ustunni to'ldirishda darsga qo'yilgan talabdan o'qituvchi-talabaning chetga chiqish hollari qayd qilib boriladi. Shuningdek, uning faoliyatidagi sezgan ayrim kamchiliklarining barchasini yozib borasiz.

Darsning yutug'i: bu ustunda o'qituvchining yuqori nati-jalariga erishganligi sabablari bayon etiladi. Samarali noan'anaviy metodni ishlab chiqqanligi va uni amalda qo'llashi yoki kichik elementlar usulini qo'llay bilganligi ham agar u maqsadga erishish uchun kichik bir omil bo'la olsa darsning yutug'i bo'lishi mumkin.

Lekin «salomlashdi», «davomatni aniqladi», «ko'rgazmali qurollardan foydalandi», «darsni yaxshi tushuntirdi» kabi ko'r-satmalarni darsning yutug'i sifatida qarashimiz mumkin emas. Chunki bular o'qituvchining faoliyatida bajarilishi zarur bo'lgan ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Darsning yutug'i ularni qanday qilib amalga oshirilganligi-dan, uning mohiyatidan izlanadi.

Fikr va mulohazalar: bu ustunda sizning fikringiz bo'yicha ushbu mavzuni qanday o'tsa bo'ladi, sharoitni hisobga olgan holda qanday shakl va metodlarni qo'llash mumkin, ushbu mashg'ulotdagi qaysi ijobjiy tomonlarini o'zlashtirib olishni istaysiz, o'zingiz dars o'tganda qanday kamchiliklarga siz ham yo'l qo'yishingiz mumkin edi, kabi masalalar yoritilib, darsni «5» bal-lik sistemada baholab qo'yishingiz talab etiladi.

Dars tahlili muhokamasini o'tkazish va qaror yozish.

Dars tugagach, metodist o'qituvchi rahbarligida dars tahlili bo'yicha muhokama o'tkaziladi. Muhokama dastlab dars o'tgan o'qituvchi so'zidan boshlanadi.

Bunda mavzuni o'qitishdan maqsad, unga qaysi adabiyot va metodik qo'llanmalardan qanday foydalanganligi, dars davomidiagi faoliyati, o'zi sezgan kamchiliklari va ularning sabablari, maqsadga erishganlik darajasini bayon etish talab etiladi.

So'ngra darsni kuzatganlar navbatma-navbat dars haqidagi o'z fikrlarini bayon etadilar. Ayrim hollarda so'zga chiqqan talabalar o'zidan oldin so'zga chiqqanlar fikrlarini ham tahlil etib, o'z mulohazalarini bildirishadi. Tahlil muhokamasi oxirida dars o'tgan talabaga so'z berilib, o'rtoqlarining fikrlariga qanchalik qo'shilishi yoki qo'shilmasligi aniqlanadi. Lozim topilsa to'g'ri tashkil etilgan bahslashish usullari orqali har birining o'z fikrlarini asoslashlari talab etiladi.

Muhokama oxirida metodist-o'qituvchilar tomonidan barsha fikrlar tahlil etiladi va umumlashtirish asosida dars jarayoni qanday tartibda o'tilishi kerakligi, ularni tashkil etish va o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari o'tilgan dars muhokamasi asosida ishlab chiqiladi. So'ngra muhokamada ishtirok etgan har bir talabaning qilgan tahlili baholanadi va dars o'tgan talabaning bahosi qo'yiladi.

Muhokama jarayoni quyidagicha qarorlashtiriladi:

Sana:

«.....» mavzusi
bo'yicha kursi..... ning
..... sinfda o'tgan darsi muhokamasining bayoni:

Qatnashuvchilar:

1. guruh;
 2. kishi;
 3. Kotib:
 4. Metodist-o'qituvchi:
1. Dars o'tuvchi ning so'zi
 2. Kuzatuvchi ning so'zi
 3. Kuzatuvchi ning so'zi
 4. Dars o'tuvchi ning oxirgi so'zi
 5. Metodist-o'qituvchi ning so'zi

Muhokama asosida qaror qabul qilindi:

1.ning mavzusi
bo'yicha ko'rsatilgan kamchiliklar hisobga olinsin va ularni yo'-
qotishga harakat qilinsin.

2.ning mavzusi
bo'yicha o'tgan darsi «.....» baho bilan baholansin.

Guruhi yetakchisi

imzo

Kotib

imzo

Metodist o'qituvchi

imzo

6. Mehnat ta'limi jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida mashg'ulotlarni tashkil etish.

«Keys» stadi texnologiyasi asosida

O'quv fani: Mehnat ta'limi.

Mavzu: «Metallarga ishlov berish asbob uskunalar, moslama-
lari va ulardan foydalanish».

Keysning asosiy maqsadi: o'quvchilarga metallarga ishlov be-
ruvchi asbob-uskunalar, ularni ishlatish, saqlash, ta'mirlashga
doir ma'lumotlar berish.

O'quv faoliyatidan kutiladigan natijalar: o'quvchilar arra bilan
ishlash, arrani ish holatida ishlatish qonun-qoidalari, qirqish ja-
rayonida arra holati, 90 daraja burchak ostida qirqish, arralash
jarayonida qo'l va gavdaning holati, trubalarni qirqish, arralash
dastgohi, metallarni plita ustida qirqish, zubilo geometriyasi,
bolg'a bilan zarb berish usullari, to'g'ri yuzali sirtlarni egovlash,
egovni ushslash qoidalari, egov turlari, egovlangan sirtni tek-
shirish va boshqa ma'lumotlarga hamda amaliy ko'nikmalarga
ega bo'ladi.

*O'quvchilar keysni muvaffaqiyatlari bajarishlari uchun bilishlari
lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar quyidagilardan iborat:*

O'quvchi quyidagilarni bilishi kerak: arra, ishlov berish jarayonida
harakat, zubilo, egov, truba, bolg'a, tekshirish qoidalari.

O'quvchi quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak: arralash qonun-qoidalari,
plita ustida qirqish, egovlash, sirtlarni tekshirish.

*Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tav-
sifnomasi:*

Ushbu keysning asosiy manbayi kabinetli, lavhali bo'lib, aniq
topshiriqlar asosida bayon etilgan. Keysning asosiy obyekti metal-
larga ishlov berish asbob-uskunalaridan foydalanish qonun-

qoidalarini egallahsga yo'naltirilgan. Bu tashkiliy keys bo'lib, ma'lumotlar topshiriqlar asosida tuzilgan. Hajmi o'rtacha tizimlashtirilgan bo'lib, treningga mo'ljallangan. Mavzu yuzasidan bilim va ko'nikmalarni egallahsga yo'naltirilgan. Didaktik maqsadlarga ko'ra keys muammolarni taqdim qilish, ularni hal etish, tahlil etish va yangi tavsiyalar ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etishga yo'naltirilgan.

Ushbu keysdan «Mehnat ta'lumi» va «Kasb tanlashsga yo'llash» fanlarini o'qitishda foydalanish mumkin.

KEYS: METALLARGA ISHLOV BERISH ASBOB-USKUNALARIDAN FOYDALANISH

Kirish. Arra bilan ishlash.

Arra bilan metallni kesish quyidagicha amalga oshirilishi kerak:

- Kesiladigan material ishlanayotgan paytda surilib yoki sakrab ketmasligi uchun uni tiskiga mahkam qistirib qo'yiladi.
- Kesiladigan materialning qattiqligi, o'lchami va shakliga qarab tishlarining kattaligi bo'yicha tegishli arra polotnosi tanlanadi.
- Ishlovchi o'zining gavdasi va oyoqlarining to'g'ri holatda turishiga e'tibor beradi. Bu ishni bajarishda ham metallarni qir-qishdagi kabi holatda turiladi. Ishlayotganda arrani ikki qo'l bilan ushlanadi va kesilayotgan tekislikka parallel holatda tutib, sakratmay hamda siltamay bir maromda yurgiziladi. Har bir yurishda arra polotnosi uzunligining eng kamida 2/3 qismi ishлаши shart.

- Arra polotnosining tishlari tez o'tmaslashib qolmasligi uchun ishlovchi uni qarshi tomonga yurgizishda (ishni bajarishda) bosib, orqaga qaytarishda (salt yurishida) bo'shatib turishi lozim. Arra bilan qo'lda kesishda tezlik har daqiqada eng kami 30 dan 60 martagacha juft yurishdan iborat bo'lishi kerak.

Tavsiya etilayotgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon beradi:

- o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- muammoning hamda qabul qilingan yechimning individual va guruhiy tahlilida bilim va ko'nikmalarni qayta topshirish;
- nazariy va amaliy hamda ishlab chiqarish ta'lrimini tashkil qilishning asosiy shakllarini egallah;

- ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya, xo‘jalik yuritishning yangi shakllarini va ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish malakalarini egallash;

- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallash.

1-muammoli topshiriq: Arralash vaqtida arra polotnosи qisilib qolsa nima qilish lozim?

Mehnat ta’limi darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish metodikasi.

Ma’lumki, 5–6-sinfda amaldagi o‘quv dasturiga muvofiq «Dizayn va texnologiya» yo‘nalishida «Yog‘ochlarga ishlov berish texnologiyasi» bo‘limi mavjud. Bu bo‘limda yog‘och materiallari ning olinishi, turlari, tuzilishi, ishlatilishi, xususiyatlari va turli xil duradgorlik buyumlarini yasash o‘rgatiladi. Shu bo‘lim yuzasidan olingen bilimlarni kengaytirish va atroflicha o‘rganish uchun konferensiya darsini tashkil qilish mumkin. Dars davomida o‘quvchilar pedagogik va psixologik tomonidan kuzatib boriladi. O‘quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlarini hisobga olib, ularni uch guruhgа bo‘lib olinadi: 1-guruh: o‘lkashunoslar; 2-guruh: duradgorlar; 3-guruh: tadbirdorlar. O‘qituvchi konferensiya darsi bo‘lishidan oldin guruhlarga qanday manbalardan foydalanish va fikr yuritish yo‘nalishlari haqida ko‘rsatmalar beradi. Bunda o‘qituvchi sinfdan tashqari manbalar: adabiyotlar, radio eshitirish, teleko‘rsatuvalar va matbuot materiallari hamda mahalliy dalillardan foydalanishni o‘quvchilarga tavsiya etadi. O‘quvchilar shular asosida tayyorgarlik ko‘rib, rang-barang materiallarni yig‘ib keladilar.

Konferensiya darsining rejasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Darsning maqsadi:

a) o‘quvchilarning yog‘ochlarni ishlash bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlash, umumlashtirish, kengaytirish va ularni amalda qo‘llay olishni o‘rgatish;

b) o‘quvchilarni tabiatni sevishga, inson mehnatini qadrlashga, tejamkorlikka, tadbirdorlikka va ishbilarmonlikka o‘rgatish;

d) o‘quvchilarning o‘lkashunoslik, duradgorlik va sotuvchilik sohalariga oid kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish.

Dars uchun quyidagi jihozlar hozirlanadi:

a) dunyoning geografik xaritasi;

b) yog‘och namunalari to‘plami;

d) yog‘och turlarini aks ettiruvchi ko‘rgazma;

- e) turli xil duradgorlik buyumlari;
 - f) stanoklar, duradgorlik o'lchov va ish asboblari;
 - g) sotuvchilik rastasi va unga qo'yilgan duradgorlik buyumlari;
 - h) ustalar, sotuvchilar haqida ma'lumot va ularning ishlari dan namunalar;
- i) maktab hisobiga keltirilgan foyda haqidagi ko'rsatkichlar.

Konferensiya quyidagi tartibda o'tkaziladi:

Boshlovchi: Assalomu alaykum, hurmatli o'quvchilar!

Bugungi, yog'ochlarni ishslash mavzusiga bag'ishlangan anjumanimizni boshlaymiz. Anjumanda yosh o'lkashunoslar, duradgorlar, tadbirkorlar qatnashmoqda. So'z yosh o'lkashunoslarga, marhamat!

1-o'lkashunos: Ma'lumki, yog'ochlar muhim qurilish materiali hisoblanadi. Yog'ochlar daraxtlardan olinadi. Daraxtlar esa biz yashab turgan tabiatda o'sadi. Ularning turlari juda ko'pdir. Terak, tol, qayrag'och, baqaterak, chinor; mevali daraxtlardan olma, behi, o'rik, olcha, yong'oq kabi daraxtlar o'sadi.

2-o'lkashunos: Daraxtlar barglarining tuzilishiga qarab ikki xil bo'ladi: 1) ninabargli; 2) keng bargli (yaproqli). Ninabargli daraxtlar asosan Yevropa o'rmonlarida o'sadi, ularga archa kabilar; keng yaproqli daraxtlarga oqqayin, dub, terak, qayrag'och, tol va hokazolar kiradi (shu daraxt turlari o'sadigan joylarni dunyoning geografik xaritasidan ko'rsatib beradi).

3-o'lkashunos: Daraxt yaproqlari kuz faslida xazona aylanib yerga to'kiladi. Ko'pincha, daraxtlarning xazona aylangan yaproqlarini e'tiborsizlik bilan yoqib yuborishga harakat qilamiz. Ana shu yongan yaproq tutunlari natijasida atrof-muhit zararlanadi. Biz nafas olib turgan atmosferada zararli gazlar ko'payib, inson salomatligiga zarar yetkazadi. Ana shu zararning oldini olish uchun xazonlarni uyimizdagi xonaki uy hayvonlariga yemish sifatida yig'ishtirib berish kerak. Shundagina tabiatni muhofaza qilishga hissa qo'shgan va yangi daraxt nihollarining unib o'sishiga yordam bergan bo'lamiz.

Boshlovchi: Endi navbatni yosh duradgorlarga beramiz. Marhamat!

1-duradgor: Duradgorlik kasbi juda qadimiy kasblardan biri hisoblanadi. Odamlarning paydo bo'lishi bilanoq yog'och bilan ishslash ishlari boshlangan. Odamlar o'zlariga turli xil mehnat va

ov qurollari yasagan, ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan buyumlar tayyorlay boshlagan. Qaysi sohani olmaylik, duradgorlik ishlari mavjud. Shuning uchun bu kasb juda faxrli hisoblanadi.

2-duradgor: Yog'och materiallari bizning faoliyatimizda asosiy xomashyo bo'lib hisoblanadi. Tabiatdagi daraxtlarni kesib, turli xil arralardan o'tkazib taxta va brus shaklidagi materiallar tayyorlanadi. Daraxtlar asosan ko'ndalang va bo'yamasiga arralab kesiladi. Kesishda butoq, yoriq, daraxt o'zagi kabi turli xil nuqsonlar hisobga olinadi. Yog'och materiallari 2 xil xususiyatga ega:

1. Fizikaviy xususiyati – rangi, tovlanishi, zichligi, elektr, is-siqlik o'tkazuvchanligi, hidi.

2. Mexanik xususiyati – mustahkamligi, yumshoqligi, qatlighligi, egiluvchanligi, singdiruvchanligi, qayishqoqligi va hokazo.

3–4-duradgor: Beshik tayyorlash jarayonida yog'ochga ishlov berish ishlari amalga oshiriladi:

1. Beshik gardishini suv ichiga solib, egish ishlari olib boriladi.

2. Ostki taxtalarini tayyorlanadi.

3. Gardishlar orasiga o'rnatiladigan dastaning TSD-120 yo'g'ochga ishlov berish stanogida tayyorlanishi ko'rsatiladi.

4. Qismlarning biriktirilishi namoyish etiladi (yuqoridagi shu ishlarni amalga oshirish uchun duradgorlar oldida tayyor va yarim tayyor qismlar hamda bitgan beshik bo'ladi).

Boshlovchi: Mana, biz yuqorida yosh o'lkashunos va duradgorlarning fikrlari, ishlari bilan tanishdik. Endi navbatni yosh tadbirkorlarga bersak. Ular o'zlarining tajribalaridan, bozorning sir-asrorlaridan so'zlab beradilar. Marhamat!

1-tadbirkor: Hozirgi davrda tadbirkorlik faoliyati har bir sohaga kirib kelmoqda. Bizning tadbirkorlik kasbimiz ham duradgorlik kasbi singari ommaviylashmoqda. Inson yaralibdiki, hayotning har bir kunida bir necha marta savdo-sotiq va mol ayirboshlash, iqtisod bilan bog'liq masalalarga, muammolarga duch keladi. Tadbirkorlik nima? Tadbirkorlik ishlab chiqarishni tashkil qilish, yo'lga qo'yish, mahsulot ishlab chiqarish, uni sota bilish, sotilgandan so'ng tushgan pulni joy-joyiga sarflay bilishdir. Tadbirkor bu ishlab chiqarish va tijoratning barcha zarur omillarini boylik yaratish uchun foydalanadigan odamadir. Bu ancha keng ta'rifga yaratuvchanlikning ko'pgina sohalari bilan shug'ullanuvchi odamlar to'g'ri keladi. Tadbirkor-

larga qo‘yiladigan talablar moddiy boyliklar yaratuvchi boshqa odamlarga qo‘yiladigan talablarga qaraganda ancha kengdir. Masalan, siz duradgorsiz deylik. Siz yashik, beshik, deraza va boshqa anjomlar yasashga ustasi farang bo‘lishingiz mumkin. Lekin, agar siz tadbirkorlik bilan shug‘ullanishni boshlasangiz, bu anjomlarni ishlab chiqarishdan tashqari: oldi-sotdi, marketing, boshqarish, hisob-kitob, moliyalashtirish, kadrlar ishi bilan shug‘ullanishingizga to‘g‘ri keladi.

Tadbirkorlik nimadan boshlanadi? Zamona viy sharoitda tadbirkorlikning barcha turlari avj olmoqda. Ko‘pgina korxonalarning xususiy lashtirilishi bu sohaga ijobjiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Yirik davlat korxonalari o‘rniga kichik, chaqqon, har qanday sharoitga tez moslasha oladigan xususiy korxonalar paydo bo‘la boshladi.

2-tadbirkor: Duradgorlik buyumlarini tayyorlash uchun qancha xomashyo ketishini, ularga ketgan sarf-xarajatni, olinadigan foyda hisoblarini aniqlaymiz. Buyumlarga tannarx asosida soitish uchun baho belgilaymiz. Albatta, baho belgilash bozorni o‘rganish, undagi talab va takliflar natijasida amalga oshiriladi. Masalan: beshik tayyorlash uchun o‘lkashunoslar sanab, ko‘rsatib o‘tgan mahalliy tol, terak daraxtlaridan olingan yog‘och materiallaridan foydalanishimiz mumkin. Yog‘och materiallarni juda tejamkorlik bilan ishlatishimiz kerak. Iqtisod bilan ish yuritishimiz esa kishining halol mehnati evaziga daromad olishi va uni aql-idrok, tejamkorlik bilan zaruriy joylarga ishlatishidir. Isrof — iqtisod va tejamkorlikning aksi bo‘lib, o‘rinsiz, foydasiz va xayrsiz ishlarga pul va mol sarf qilishdir. «Sen agar isrof etishni tashlading, ul zamon davlat etagini ushlading», — deb bejiz aytilmagan.

3-tadbirkor (savdo rastasi oldida turib sotuvchilik kasbi haqida gapirib beradi): Savdo sohasida juda to‘g‘rilik va halollik bilan ish ko‘rish talab qilinadi. Savdoda sotuvchiga xos shirinso‘zlik, hushmuomalalik, hozirjavoblik, istarasi issiqlik, so‘zamollik kabi umuminsoniy xislatlar mujassam bo‘lishi kerak.

Boshlovchi: Mana, hurmatli anjumanimiz qatnashchilarini, yuqoridaqgi kasb egalarining fikr-mulohazalari va tajribalari bilan tanishdik. Yog‘ochlarni ishlashda nimalarga e’tibor berish, ularni qanday tejab ishlatish kerak ekanligini bilib oldik. Yuqoridaqgi uchala kasb ham bir-biriga juda bog‘liq ekan. O‘lkashunos durad-

gorsiz, duradgor tadbirkorsiz o‘z faoliyatini yurita olmasligining guvohi bo‘ldik.

Shu tarzda darsda aytilgan fikrlar umumlashtiriladi. Kasblarning ajralmas uzviy aloqadorligi ularning faoliyatlari misolida ko‘rsatib beriladi. Mehnat ta’limi mashg‘ulotlarida konferensiya tarzidagi darsni tashkil etish va o‘tkazish jarayonida quyidagi pedagogik vazifalarni hal etish mumkin:

- 1) o‘quvchilarning mehnat ta’limiga oid nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash;
- 2) kasblar xususiyati haqida fikrlay bilishga o‘rgatish orqali ularni turli kasblarni to‘g‘ri tanlashga yo‘naltirish;
- 3) predmetlararo aloqalarni uzviy o‘rnatish;
- 4) unumli mehnat qilib, yuqori samaradorlikka erishishga o‘rgatish;
- 5) ekologik, iqtisodiy tarbiya berish;
- 6) mulohaza yuritish, fikrlash, xulosa chiqara olish malakalarini hosil qilishga o‘rgatish;
- 7) qo‘srimcha adabiyotlardan foydalanish ko‘nikmasini hosil qilish;
- 8) o‘quvchilarda bilish imkoniyatlarining cheksizligiga, o‘z qobiliyatlariga ishonch hosil qildirish.

Konferensiya darsi jarayonida o‘quvchilar faol ishtirot etdilar. Yuqoridagi dars jarayonida ishtirot etgan uchala guruh o‘quvchilari bir-birlari bilan fikr almashishlari natijasida kasb-hunar-ga qiziqishlari ortadi. O‘quvchilar konferensiya darsida o‘zlarini yoqtirgan kasb kishilari qiyofasiga va holatiga kirib, ziyraklik, chaqqonlik, hozirjavoblik, bardoshlilik, tadbirkorlik vaziyatlari va ishbilarmonlik hislatini namoyish qiladilar. Bunday darslar o‘quvchida kichik-kichik hajmdagi ilmiy ishlar qilish uchun bositgan dastlabki qadamlar ham bo‘lishi mumkin.

Bunday konferensiya darslari boshqa sinflarda o‘tkazilsa ham o‘zining ijobjiy natijalarini beradi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Mehnat ta’limida qanday o‘qitish shakllarini bilasiz?
2. Malakali ishchiga biriktirib o‘qitish deganda nimani tushunasiz?
3. O‘qitishning frontal, zveno, yakka-yakka, aralash shaklari qay vaqlarda qo‘llaniladi?

4. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda o'qitish shakli nimaga asosan tanlanadi?
5. Amaliy mashg'ulotlar tashkil etishda o'qitishning qanday shakllarini bilasiz?
6. Amaliy mashg'ulotlarga qanday umumiy talablar qo'yiladi?
7. Amaliy laboratoriya tadqiqotlari qanday mashg'ulot turiga kiradi?

Mustaqil ta'lim topshiriqlari:

1. Mehnat ta'limi yo'nalishlarini o'qitishda mashg'ulotlar uchun zarur bo'ladigan asbob-uskunalar, jihozlar va ko'rgazmali qurollar ro'yxatini tayyorlash.

2. Mehnat ta'limi mashg'ulotlarini o'tkazishda kirish, joriy va yakuniy yo'riqnomalar tayyorlash.

Izoh: Mustaqil ish o'qituvchi tomonidan fan dasturiga muvofiq sinflar va yo'nalishlar bo'yicha tayyorlangan variantlar asosida har bir o'quvchiga individual topshiriq tarzida beriladi.

VII bob. MEHNAT TA'LIMI METODIKASI, KASB TANLASHGA YO'LLASH FANI BO'YICHA TALABALARNI BAHOLASH TURLARI VA MEZONLARI

7.1. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashda baholash mezonlari

Reja:

1. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslari jarayonida o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini baholash va uning ahamiyati.
2. Baholashda hisobga olinadigan omillar.
3. O'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mezonlari.

Tayanch iboralar: baholash, baho, ball, boshlang'ich baholash, joriy baholash, yakuniy baholash, baholashning obyektivligi, vaqt me'yori, baholash mezoni, baholash shakllari, baholash turlari, baholash tamoyillari, baholash tizimlari.

1. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslari jarayonida o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini baholash va uning ahamiyati. Mehnat ta'limida o'quvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir. O'z bilimini mehnat ta'limi o'qituvchisi to'g'ri, baholanishiga ishonch hosil qilgan o'quvchida shu o'qituvchiga nisbatan o'quvchilik hurmati ortadi, aksincha, o'quvchi bilimini baholashda prinsipsizlikka yo'l qo'ygan mehnat ta'limi o'qituvchisi, garchi u nazariy bilim va amaliy faoliyati jihatdan juda tanilgan bo'lsa ham, asta-sekin o'z o'quvchilari nazaridan qola boshlaydi. Bu masalaning xavfli tomoni shuki, o'quvchining bilim olishga bo'lgan intilishi, shijoati susaya boshlaydi. Bu barcha o'qituvchilarga tanish haqiqatdir.

Baholash — ta'lim jarayonining ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lhash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Baholash, o'quvchilarni o'quv faoliyatida rag'batlantirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish o'qituvchi o'quvchilarga yordam ko'rsatishining muhim vositasidir. O'qituvchi tekshirish jarayonida o'quvchilarning ishlaridagi xatolarni ko'rsatish bilan cheklanib qolmay bu kamchiliklarni bartaraf qilishga yordam bersagina bunga erishish mumkin. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilarga ular bajargan ish bosqichining umumiyligi tavsifini beradi, bunda o'quvchilar bajariladigan ishning bajarilgan ishlardan farqlari haqida, uning murakkablik darajasi yoki javobgarliligi va hokazolar haqida aniq tasavvur hosil qiladi. Natijada o'quvchilar kelajakni ko'ra oladilar va bor bilimini safarbar qilib o'z ishlarini to'g'ri tashkil qilish, mehnat topshirig'ini sifatlari bajarish ishtiyoyqini his qiladilar.

Baholash o'quv jarayonini tashkil qilish va o'tkazishdagi nuqsonlarini aniqlashda yordam beradi. Mehnat o'qituvchisi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirar ekan, ayni bir vaqtida u o'z ishining sifati haqida ham hukm chiqaradi. Agar o'quvchilar faoliyatida tipik xatolar uchrasa, bu hol aksariyat o'qituvchi ishida kamchilik mavjudligini bildiradi va, aksincha, o'quvchilarning muvaffaqiyatlari ishlashi, mehnat usullarini to'g'ri bajarishi va hokazolar o'qituvchi o'quv materialini tushunarli bayon qilgan degan xulosaga olib keladi.

O'quvchilarda o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini tarkib topshirishda baholash muhim rol o'ynaydi. Mehnat ta'lifi o'qituvchisi ko'nikma va malakalarni tekshirishga o'quvchilarning o'zlarini ham jalb etadi. Chunonchi, buyum o'lchamining aniqligini tekshirishdan oldin o'qituvchi bu ishni o'quvchilardan biriga topshiradi. Bunda o'quvchi o'lchov asbobini to'g'ri ushlayotganini, to'g'ri foydalananayotganligini, ishni mohirlik bilan bajarishini kuzatib turadi. Shundan keyin o'lhashni o'qituvchining o'zi bajaradi. Agar birinchi va ikkinchi o'lhashlar, ya'ni o'quvchilar va o'qituvchi bajargan o'lhash natijalari farq qilsa, o'qituvchi bu nimadan kelib chiqqanini, qanday xatoga yo'l qo'yilganini tushintirib beradi. Natijada o'quvchilarga ish jarayonida o'z-o'zini nazorat qilishni to'g'ri bajarish usullari o'rgatiladi. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilarga har qanday faoliyatda o'z-o'zini nazorat qilishlarining ahamiyatini tushuntiradi.

Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish birdan-bir maqsad emas, balki butun ta'lif jarayonining tarkibiy qismi

bo‘lishi kerak. Shu talabdan kelib chiqib, mehnat darslarida nazorat qilishning yakka va frontal shakllaridan foydalanish, ularni har bir aniq holda to‘g‘ri amalga oshirish lozim. Massalan, kirish instruktajida yangi ishning birinchi bosqichlari da o‘quvchilar qo‘llashi mumkin bo‘lgan malakalar frontal tekshirilishi mumkin. Ishning keyingi bosqichlarida kerak bo‘lgan malakalar o‘quvchilarning har biri bu ishlarni bajarishtga qanday kirishishiga qarab, yakka tekshiriladi. Bilimlarni tekshirish haqida ham shularni aytishi mumkin. Mehnat mashg‘ulotlarining tavfsifi bilimlarni yakka holda tekshirishda ularning amaliyotda qo‘llanishini bog‘lash imkonini beradi. Shu tufayli, bir tomondan, o‘quvchilar tekshirishning zarurligini tushunib yetadilar va unga katta mas‘uliyat hissi bilan munosabatda bo‘ladilar, ikkinchi tomondan, o‘qituvchi har bir o‘quvchi haqida tasavvur hosil qilish imkoniga ega bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

Nima uchun baholash kerak?

- O‘quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- keyingi bosqichga o‘tishdan oldin avvalgi o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- natijaga erishganligini tasdiqlash uchun;
- o‘quvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- o‘qituvchi o‘z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- yalpi o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ta’lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- o‘quvchilarни yutuqlarga qiziqtirish uchun;
- tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma‘lumot berish uchun.

Nimani baholash kerak?

- Nazariy bilimlarni;
- amaliy ko‘nikma va malakalarni;
- xulq-atvor va shaxsiy fazilatlarni.

Qachon baholash kerak?

- Ta’lim jarayoni boshida (boshlang‘ich baholash);
- ta’lim jarayoni davomida (joriy baholash);
- ta’lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

Baholashning asosiy xususiyatlari:

- Ta’lim maqsadiga yo‘nalganlik;
- muntazam o’tkazib borish;
- pedagogik, psixologik va huquqiy tamoyillarga asoslanganlik;
- umumiy qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik.

Yuqorida ta’kidlanganidek, nazariy bilimlar baholanayotganda kognitiv o‘quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi. Amaliy ko‘nikma va malakalar baholanayotganida psixomotorik, xulq-atvor va shaxsiy fazilatlar baholanayotganida esa affektiv o‘quv maqsadlariga erishganlik darajalari aniqlanadi.

2. Baholashda hisobga olinadigan omillar.

Bahoning obyekтивлиги, ayrim o‘quvchilar mehnati natijalari ni taqqoslash imkonini beruvchi miqdor va sifat ko‘rsatkichlari (buyumning aniqligi, buyumlar miqdori va hokazolar)ga asoslanganadi. Bahoning yagona talablar asosida qo‘yilishi ham uning obyekтивligidir. Ana shu talablar quyidagilardan iborat:

1. Ishlash aniqligi. Aniqlik har qanday mahsulotni, shu jumladan, tikuvchilik sanoati mahsulotlarini tayyorlashga qo‘yiladigan talabdir.

2. Vaqt me’yori. Me’yorlash xususida mehnat topshirig‘ini bajarishni vaqt bo‘yicha chegaralash o‘quvchilar mehnat ope-ratsiyalarini bajarish usullarini egallab olganlardan keyin amalga oshirilishi kerak. Bunda o‘quvchilar bir yo‘la ham ishning sifatli bajarilishini kuzatishni, ham uni ma’lum muddatda bajarishga intilishni uddalay olmasligi va ta’limning birinchi bosqichida vaqt me’yori kiritilsa, miqdor ko‘rsatkichlari sifat hisobiga ortishidan kelib chiqadi.

3. O‘quvchilarining bilimlari. O‘quvchilarining amaliy ishlari ularning bilimlariga asoslanib tashkil qilinadi. Shu sababli ularning faoliyatini baholashda o‘quvchilar dastur materialini qanday va qanchalik chuqur o‘zlashtirganini hisobga olish kerak.

4. Mehnat usullarini to‘g‘ri bajarish. O‘quvchilar asbobni ushslash, ish holatida turish, asbobning ishlöv berilayotgan sirtga nisbatan qanday holatda tutish haqidagi ko‘rsatmalarni qat’iy bajarishlari kerak. Mehnat usullarini to‘g‘ri bajarish ko‘nikmalari o‘qituvchi tomonidan baholanadi.

5. Ish o‘rnini to‘g‘ri tashkil qilish. Ishlab chiqarishda ish o‘rnini to‘g‘ri tashkil qilish mehnat unumдорligini oshiradi. O‘quvchilar

mehnat madaniyatining saviyasi ko'proq o'z ish o'rnini to'g'ri tashkil qila olishiga bog'liqdir.

6. Mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish. Agar ishning xavfsizligini ta'minlovchi qoidalar buzilsa, jarohatlanish xavfi tug'iladi. Jihozlar va asboblarni ishlatalishdagi mehnat usullari va hokazolarni bajarishdagi xavfsizlik qoidalarini buzgan o'quvchilarning bahosini pasaytirish kerak.

Baholash o'tkazilish vaqtiga ko'ra uch turga ajratiladi:

- Boshlang'ich baholash.
- Joriy, ya'ni shakllantiruvchi baholash.
- Yakuniy, ya'ni umumlashtiruvchi baholash.

Boshlang'ich baholash — ta'lif jarayoni boshida ta'lif oluvchilarning dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Bunday baholash natijalari ta'lif jarayonining mazmuni, usullari va shakllarini tanlash imkonini beradi.

Joriy (shakllantiruvchi) baholash muntazam ravishda o'tkazib boriladi. U ta'lif jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, ta'lif jarayoni samarasini tezkor (operativ) aniqlab borish, o'quv jarayonini muvosfiqlashtirish va ta'lif beruvchi va ta'lif oluvchi o'rtaсидаги qaytar aloqani ta'minlash imkonini beradi.

Yakuniy (umumlashtiruvchi) baholash — ta'lif oluvchining ta'lif jarayonining ma'lum davridagi o'zlashtirish natijalarini belgilangan mezon va standartlarga javob berishini aniqlaydi. Yakuniy baholash ta'lif jarayonining ma'lum bosqichi yakunida o'tkaziladi. U joriy baholash natijalarini jamlaydi.

Umumlashtiruvchi baholashni o'tkazishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- Ta'lif oluvchi umumlashtiruvchi baholash nima uchun o'tkazilishi haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bu uni baholashga tayyorgarlik ko'rishga olib keladi.
- Baholashni o'tkazish shartlari unga jiddiy yondashishiga, diqqatni chalg'itadigan yoki tasodifiy uzilishlardan o'zini chetga olishga hamda ta'lif oluvchini o'z qobiliyatini namoyish qilishiga imkon beradi.

Baholashni o'tkazish sharoitida o'quvchi o'zini erkin tutishi va noxushlik his qilmasligiga imkoniyat yaratish kerak. Baholovchi va ta'lif oluvchi baholash nima berishi, u qachon, kim tomonidan va qanday o'tkazilishini bilishlari muhim ahamiyatga egadir. Qo'yilgan baho o'quv natijasini tushunish va uni

mujassamlashtirish uchun ahamiyatlidir. Ta'lif oluvchi oldindan belgilangan natijalar mezoni yordamida baholanishi lozim. Re-jalashtirilmagan baholashni o'tkazish maqsadga muvofiq emas.

Quyidagi beshta asosiy tamoyillar baholash tizimi samaradorligining poydevori hisoblanadi:

- O'quv maqsadlariga asoslanganlik.
- Haqiqiylik.
- Haqqoniylilik.
- Ishonchlilik.
- Qulaylik.

1. *O'quv maqsadlariga asoslanganlik*. Samarali baholashning asosiy tamoyili o'quv maqsadlariga asoslanganlik hisoblanadi. Baholashning sifati o'quv maqsadlariga to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir. O'quv maqsadlari baholash mazmunini aniqlab beradi. O'quv maqsadlarining qo'yilish darajasiga qarab, baholashning shakli va usullari tanlanadi. Shuningdek, o'quv maqsadlariga erishish uchun bajarilgan faoliyat natijasi, baholash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

2. *Haqiqiylik*. O'quv maqsadida ko'zda tutilgan natijanigina baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi. U baholanishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo'lishi lozim.

3. *Haqqoniylilik (obyektivlilik)*. Bir-biridan mustaqil ta'lif be-ruvchilar bir xil ta'lif oluvchilarga berilgan bir xil topshiriq va testlar bo'yicha bir xil baho bergen holdagini mazkur topshiriq va test haqiqiy hisoblanadi. Bu haqqoniylilik har xil vaqtarda berilgan baholar uchun taalluqlidir.

4. *Ishonchlilik*. Natijalarni baholash mobaynida har xil usullardan foydalanish mumkin. Lekin bu usullarni tanlashsga qo'yiladigan asosiy shart ishonchlilik hisoblanadi. Uslub ishonchli bo'lishi uchun baholash assoslari va aniq ma'lumotlarga asoslangan bo'lishi zarur. Bunda topshiriq yoki testning o'rganish maqsadlarini nazorat qilishga yo'naltirilganligini qanchalik ishonchli ekanligi nazarda tutiladi.

5. *Qulaylik*. Baholash tizimi o'quv maqsadlaridan kelib chiq-qan holda o'quv va ishlab chiqarish standartlariga mos bo'lishi, murakkab bo'lmasligi, nazorat o'tkazuvchi va ta'lif oluvchi uchun qulay bo'lishi lozim. Baholashni o'tkazishda imkon qadar kompyuterlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

So'nggi paytlarda Respublikamiz ta'lif muassasalarida quyidagi ikkita baholash tizimi qo'llanilib kelinmoqda, baholashning besh ballik tizimi va reyting tizimi.

Baholashning besh ballik tizimida baholashga quyidagi didaktik talablar qo'yiladi:

— Tekshirish va nazorat qilish tizimli, doimiy tarzda bo'lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, o'quvchilarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Ta'lif oluvchilar darsga har kuni tayyorlanib borishlari kerak, ta'lif beruvchining doimiy ravishda nazorat qilib turishi shunga majbur etadi.

— Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Har bir o'quvchi uning bilimlari, ko'nikma va malakasi baholanayotgani ni tushunishi kerak.

— Davlat ta'lif standartlariga asoslanganlik. Ta'lif oluvchilarning bilimlari, malaka va ko'nikmalari davlat o'quv dasturlarining bajarilishi nuqtayi nazaridan tekshiriladi va baholanadi.

3. O'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mezonlari. Har qanday baholash natijalari o'zaro taqqoslanishi, ya'ni o'lchanishi lozim bo'ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin yoki keyin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o'quv maqsadlariga qay darajada erishilganlikni anglatuvchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkichlar sonlar («besh», «to'rt», «uch» va hokazo) so'zlar («a'lo», «yaxshi», «qoniqarli» va hokazo) yordamida tavsiflanishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, baholash mezonlari ta'lif oluvchining qaysi o'zlashtirish darajasini namoyish qilishiga qarab mos qo'yiladigan baho ko'rsatkichining tavsifidan iborat.

Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib, ikki xil shaklda o'tkazilishi mumkin: mezonga asoslangan baholash va me'yorga asoslangan baholash.

Mezonga asoslangan baholash — baholanuvchining ta'lif jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini, bilim, malaka va ko'nikmalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va o'lchashdan iborat bo'lgan baholash shaklidir. Bunday baholash mezonlarni aniq belgilab beruvchi o'rganish maqsadlari bo'yicha natijalarga baho berish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali natijalar to'g'ridan to'g'ri va xolis baholanadi, shu-

ningdek, kuchli guruhlarni kuchsiz guruhlardan yaxshiroq farqlash imkonini beradi. Bu baholash shakli ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar mezonlarga taqqoslanadi va o'chanadi.

O'quvchilarning o'zlashtirishini hisobga olish, ya'ni aniqlash, yangi materialni mustahkamlash vaqtida o'tilgan o'quv materiallarini o'zlashtirish, mehnat usullarini egallash va mustaqil mehnat topshiriqlarini, grafik ishlarini va uy topshiriqlarini bajarishlari hamda o'quvchilarning bilimlari tekshiriladi va unga baho qo'yiladi.

O'quvchilarning o'quv-mehnat faoliyatini muntazam tekshirib borish va unga baho qo'yish ularning berilgan topshiriqlarini o'z vaqtida va puxta, mustaqil bajarishlarini ta'minlaydi, ilmiy-amaliy bilimlarni, mehnat ko'nikmalari va malakalarini astoydil egallashga undaydi. Shu bilan birga o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi o'qituvchilarining o'quvchilarda mavjud bo'lgan kamchiliklarni aniqlash bilan birga uni tuzatish choralarini izlashga undaydi.

Bundan tashqari o'quvchilarning o'zlashtirishini tekshirish o'qituvchilarning faoliyatiga baho berishga ham asos bo'ladi, ya'ni u usullarini ko'rsatishi, mehnat va hunar ta'limining tashkiliy formalari, metodlaridan ham ko'rsatmali qo'llanmalardan samarali foydalanishiga, mustaqil ishlarni tashkil etish, ularning bajarilishiga rahbarlik qila olishiga baho berish imkonini beradi.

Bilim, dastlabki ko'nikmalar sifatini nazarat qilish bo'yicha baholash mezonlarini ko'rgazmali qo'llanma sifatida tayyorlab ustaxonaga osib qo'yish ham ijobjiy natija beradi. Bundan tashqari, ko'rgazmali qo'llanmaning oxirida izoh o'rnila quyidagilarni yozib qo'yish mumkin: mehnat ta'limi va yo'nalishlari, maktab joylashgan iqtisodiy hududda keng tarqalgan sohalar kasblarga muvofiq tanlanadi. Shunga ko'ra yo'nalish tanlangandan keyin joylarda mehnat ta'limi o'qituvchilar o'zları baholash mezonlarini ishlab chiqishlari zarur.

Baholash mezonlarini ishlab chiqish bo'yicha umumiy tavsiyalarga ko'ra, o'quvchilarning nazariy, texnika va texnologiyaga doir bilimlari va dastlabki ko'nikmalari bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqarishda quyidagilarni hisobga olish kerak:

- texnologiyaga, texnikaga, iqtisodiyot va mehnatni hamda ishlab chiqarishni tashkil etishga doir nazariy bilimlarni;
- asosiy texnologik operatsiyalar va texnologik jarayonlarni bilishni;
- asosiy asbob va moslamalarni (qirqish, o'lchash tekshirish moslamalarini, priborlar, apparatlar, stanoklar, mashinalar, agregatlar, ularning vazifasi, ishlash prinsiplari, boshqarilishi, ta'mirlanishi va hokazolarni) bilishni;
- xavfsizlik texnikasi va shaxsiy gigiyena qoidalarni bilishni;
- asosiy manbalarni, ta'limning texnik va didaktik vositalarini va ulardan foydalanishni bilishni;
- har xil o'quv fanlari (matematika, kimyo, fizika va h.k.) bo'yicha tegishli ma'lumotlardan foydalana olish ko'nikmasini;
- ishlab chiqarish mazmunidagi masalalarni hal qilish (ash-yolarning zarurligini, ularni ishlatishni hisoblash va h.k.) uchun turli bilimlardan mustaqil foydalanishni;
- buyumlar tayyorlashning sifatini nazorat qilish ko'nikmasini.

Amaliy laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha baholash mezonlarini ishlab chiqishda esa quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi:

- navbatdagi ishni rejorashtirishda mustaqillikdan, ish o'rnni ratsional tashkil etishdan;
- tekshirish, sozlash, rostlashdan;
- mustaqil holda boshqarish, ishlash, qayta tiklash, tanlash va h.k. lardan;
- tanlashni asoslash, ishlash rejimi, bo'yoqning rangi, ishlash usullari, texnologik operatsiyalari va hokazolar nimalarga asoslanib tanlanganini isbotlashdan va h.k.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga o'qituvchi besh balli tizimda baho qo'yadi. Baho qo'yishning besh balli tizi-mini amalda tatbiq etishda so'zlar bilan ifodalananadigan «5», «4», «3», «2», «1» ballarda ifodalananadi.

Ko'pincha o'qituvchilar o'quvchilarning intizomiga oid birorta kamchiligi (kechikib kelishi, mashg'ulotlarga kelmay qolishi, dars vaqtida gaplashib o'tirishi va hokazolar) uchun bahoni kamaytirish kabi xatoga yo'l qo'yadilar. Bu o'rinda o'qituvchi tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning boshqa vositalaridan foydalanishi lozim.

Baho mezonlari quyidagicha tavsiflanadi:

«A'lo» (5 ball) o'quv materialini butun tafsilotlari bilan biliш va tushunish, materialni izchil, mantiqan bog'langan holda hatosiz bayon etish, hisob-kitob va grafika ishlarini namunali bajarish, mehnat topshiriqlarini mustaqil, dadil va to'g'ri tatbiq etish, mehnat usullarini to'g'ri bajarish (mehnat ta'limi das turining talablari doirasida), texnikaviy talablar doirasida sifat ko'rsatkichlariga rioya qilish, ishni vaqt normasi doirasida bajarish «5» ball bilan baholanadi.

«Yaxshi» (4 ball) baho butun o'quv materiallarini bilishi va tushunishi, uni og'zaki va yozma ravishda to'g'ri bayon etishi, hisob-kitob va grafika ishlarini to'g'ri va puxta bajarishi, olin gan bilimlardan o'quv-mehnat topshiriqlarini, berilgan ishni belgilangan vaqt me'yoriga muvofiq vaqtida bajarilganligi uchun qo'yiladi.

«Qoniqarli» (3 ball) baho dasturidagi asosiy materialni bundan keyingi o'quv, mehnat vazifalarini bajarishga imkon beradigan hajmda bilishi va tushunishi, o'quv materialini birmuncha xato va kamchiliklar bilan, o'qituvchining ozgina yordami orqali sodda qilib bayon etishi, mehnatni tashkil etishda biroz kamchilik bo'lgan holda belgilangan vaqt normasini 75% bajargani uchun qo'yiladi.

«Yomon» (2 ball) baho dastur materialning ko'p qismini yaxshi tushunmaslik, uni qo'pol xatolar bilan bayon qilish, hisob-kitob va grafika ishlarini yetarli darajada bajarmaslik, olingan bilimlarni xatolarga yo'l qo'yib tatbiq etish, mehnat operatsiyalarini ko'p xatolar bilan bajarish, mehnatda belgilangan sifat ko'rsatkichlarini ta'minlay olmasliklari uchun qo'yiladi.

«Juda yomon» (1 ball) butun dastur materialini bilmaslik va tushunmaslik, o'tilgan materialni bayon qilib bera olmaslik, olingan bilimlardan amalda foydalana bilmaslik, mehnat usullarini qo'llay olmaslik, brakka yo'l qo'yganligi uchun «1» baho qo'yiladi.

Baholarning tarbiyaviy rolini oshirish masalasi diqqatga sazovordir. Shu munosabat bilan usta, o'qituvchilar qo'ygan baholarini izohlab berishi muhimdir. Bu hol o'quvchilarga o'z bilimlaridagi kamchiliklarini, amaliy ishlaridagi nuqsonlarni bilib olishlariga yordam beradi. Baholarni muntazam izohlab borish, ularning ta'limiy rolini oshiradi.

Dars jarayonida o'quvchilarni bilim, malaka va ko'nikmalarini o'qituvchi tomonidan to'g'ri baholash ko'p muammolarni ye-

chishga, ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yishga yordamlashadi. Bilimlarni va mehnat ko'nikmalarini tekshirish va ularga baho qo'yish mehnat ta'limining hamma bosqichlarida o'tilgan materialni mustahkamlash vaqtida mehnat usullarini eslash va mustaqil topshiriqlarni bajarishda grafika ishlarini va uyg'a berilgan vazifalarini ado etishda amalga oshiriladi. O'qituvchilarini o'quv mehnat faoliyatlarini muntazam tekshirib borish va baho qo'yish ularga beriladigan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishlarini ta'minlaydi. Mehnat texnikaviy bilimlarni, mehnat ko'nikmalarini va masalalarini astoydil eslashga undaydi. Baholashda bahoning obyektivligi o'quv tarbiyaviy ishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, mehnat o'qituvchilari va ustalari uchun o'quvchilarning o'quv mehnat faoliyati vaqtida qo'yiladigan talablarga rioya qilish ham ancha muhimdir. Bunday talablarga quyidagilar kiradi: o'quv materialini mehnat va hunar ta'limi dasturida belgilangan hajmda bilish, olingen bilimlar va mehnat ko'nikmalarini chuqurligi va anglanganligi, javoblarning va ko'rsatilayotgan usullarning to'g'riliqi, o'rganilgan materialni tahlil qilish va umumlashtirish bilish, o'rganilgan va egallangan bilimlardan amaliy faoliyatda foydalana olish. Ishdag'i mustaqillik va olingen bilimlarni amalda qo'llanilishi, ish jo'yini to'g'ri tashkil etish hamda tayyorlanayotgan buyumlarga nisbatan qo'yiladigan texnikaviy talablarga rioya qilish, belgilangan vaqt normasini bajarish va xavfsizlik texnikasi qoidalariiga amal qilish va hokazolar.

Ana shu talablar asosida quyidagi baho mezonlari belgilab chiqilgan. O'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalarini tekshirish jarayoni didaktik masalalarni hal qilishga, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalar sifatini aniqlashga yo'naltirilgan. Bilim, ko'nikma va malakalarning sifati eng avval ularning puxtaligi va ongliligi bilan tavsiflanadi. Bilim, ko'nikma va malakalarning puxtaligiga ishonch hosil qilish uchun ularni faqat o'zlashtirilayotgan paytda emas, balki o'quvchilarning keyingi faoliyatlarida ham tekshirish kerak. Shunday qilib, butun ta'lim davomida o'quvchilarni tizimli va rejali ravishda nazorat qilish kerak.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslari jarayonida o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini baholash qanday amalga oshiriladi?

2. Baholash ta'lim-tarbiya jarayonida qanday ahamiyatga ega?
3. Baholashda qanday omillar hisobga olinadi?
4. O'quvchilarning o'zlashtirishi qanday mezonlar asosida baholanadi?
5. Baholashning obyekтивлігі.
6. Baholashning qanday turlari mavjud?
7. Baholashning asosiy xususiyatlarni tushuntirib bering.
8. Baholash o'tkazilish vaqtiga ko'ra qanday turlarga ajratiladi?
9. Baholash tizimi samaradorligining poydevori hisoblanadigan asosiy tamoyillarni bilasizmi?
10. Baholashga qanday didaktik talablar qo'yiladi?

7.2. O'zlashtirishni hisobga olish turlari

Reja:

1. O'zlashtirishni hisobga olish turlari.
2. O'zlashtirishni hisobga olishga qo'yiladigan umumiy talablar.
3. O'quvchilarga berilgan vazifalarni tekshirish.

Tayanch iboralar: o'zlashtirishni hisobga olish, joriy hisobga olish, davriy hisobga olish, yakuniy hisobga olish, sinov, uy vazifasi.

1. O'zlashtirishni hisobga olish turlari. Umumta'lim maktabalarida ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga mehnat ta'limi bo'yicha nazariy bilimlar berish, amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilish hamda shular zaminida o'quvchilarni kasb hurnarga yo'naltirish ularda mazkur bilim va ko'nikma negizida ma'naviy, axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, dunyoqarashlarini shakllantirish, kengaytirish va rivojlantirishdan iborat. Berilayotgan bilim hosil qilinayotgan ko'nikma va malakalar qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash va baholash mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisi uchun ham, o'quvchi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ularni aniqlashda turli shakl va metodlardan foydalaniлади. Masalan, savol-javob, suhbat, yozma ishlар, seminar, zuchyotlar, konferensiya darslari, imtihonlar o'tkazish, mahsulotlar tayyorlash va boshqalar. Yuqorida qilarga nisbatan test topshiriqlari asosida sinovlar o'tkazish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va mala-

kalari darajasini aniqlash va baholashda ancha qulay va samarali yo'llanmalardan biri hisoblanadi. Testlardan foydalanish hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir. Bugungi kunda mehnat ta'limi bo'yicha testlar keng qo'llaniladi, bu o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, umumlashtirish, sistemalashtirish, o'zlashtirish darajasini aniqlash va baholash maqsadlariga qaratilmoqda. Testlarni qo'llashning turli xil mezonlari bor. Masa-lan, dars davomida o'tilgan mavzu yuzasidan 5–10 ta savol tuzib, 4–5 xil variant asosida o'quvchilarni baholash mumkin. Bunda o'quvchi o'tilgan mavzuga yaxshiroq tayyorlanish majburiyatini his etadi, keyin o'quvchilar o'rganib kelishi kerak bo'lgan boblar asosida 25–30 ta test savollari asosida bir soat davomida baholash mumkin yoki shu savollarni kompyuter dasturiga uzatib, kompyuter xotirasiga joylab bo'lgandan so'ng variantlar asosida o'quvchilarning bilimlari sinab ko'rilsa, nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Joriy hisobga olish. O'zlashtirishni joriy hisobga olish turi kundalik mashg'ulotlar jarayonida amalga oshiriladi va o'quvchilarning mehnat va kasb ta'limi bo'yicha ilmiy-texnikaviy bilimlarini, mehnat ko'nikmalari va malakalarini tekshirishning eng muhim usulidir.

O'qituvchi mehnat bo'yicha o'zlashtirish darajasini aniqlashni og'zaki so'rash va suhbat o'tkazish jarayonida yangi materialni mustahkamlash va topshiriqlarni mustaqil bajarish jarayonida hisob-kitoblar, nazariy-amaliy ishlarni, grafik topshiriqlarini tekshirish, konstrukturlik-texnologik vazifalarni hal qilish, takroriy umumlashtiruvchi savollar berish va tekshirishning texnikaviy vositalaridan foydalanish yo'li bilan amalga oshirishi mumkin.

Joriy hisobga olishda jurnalga har bir o'quvchi uchun baholarning to'planishiga katta e'tibor berish kerak. Xuddi ana shu to'planishga qarab o'quvchining o'zlashtirishni tekshirish darajasi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. O'zlashtirish bahosini o'quvchining bajargan hamma buyumlariga birdaniga qo'yadigan mehnat ta'limi o'qituvchilari psixologik, pedagogik va metodik jihatlardan hamda texnik-texnologik yuzasidan noto'g'ri yo'l tutadilar. Chunki buyumlar ish hajmi jihatidan xilma-xil bo'ladi, ulardan ayrimlarini yasash bir-ikki soatga, boshqalari esa bir necha soatga cho'zilishi mumkin.

Ba'zan yakunlovchi bosqichda o'quvchi xatoga yo'l qo'yib, ishni brak (yaroqsiz) qilsa, o'qituvchi unga butun buyum uchun qoniqarsiz baho qo'yishi mumkin. Bu birinchi qarashda to'g'ri bo'lib ko'rinishi mumkin, haqiqatda esa bunday emas. O'qituvchi o'quvchining buyumini tayyorlash jarayoniga kirgan har bir ope-ratsiyani bajarish uchun qilgan ishini baholashi va qo'pol xato-ga yo'l qo'yilgan operatsiya uchungina qoniqarsiz baho qo'yishi kerak edi. Umuman bu o'rinda o'quvchining olgan bahosi «2» emas, balki ijobjiy baho bo'ladi. Mehnat bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirishini aniqlash vaqtida o'qituvchi baho qo'yishga har to-monlama yondashmog'i kerak. O'quvchi jurnalda o'ziga qo'yilgan har bir bahoni bilishi lozim.

Davriy hisobga olish. O'quvchilarning bilimlari, mehnat ko'nikmalari va malakalalarini tekshirish shakllaridan biri ular-ning o'quv choragi, yarim yillik va yillikdagi o'zlashtirishini hi-sobga olishdir.

O'quvchilarning joriy o'zlashtirishini o'rganish va maxsus o'tkazilgan nazorat-tekshirish ishlari sinov tariqasidagi so'roqlar (takroriy, umumlashtiruvchi darslar vaqtida) asosida o'quv choragi, yarim yillik va yillik uchun baholar qo'yiladi. Chorak baholari odatda o'qituvchining har bir o'quvchini puxta o'rganish, uning ilmiy-texnikaviy bilimlarini, mehnat ko'nikmalari va malakala-rini muntazam tekshirishi va chuqur tahlil qilish natijasi bo'lishi lozim.

O'quv choragi uchun qo'yilgan baho joriy baholarning o'rtacha arifmetik miqdoridan iborat bo'imasligi kerak. Bu haqiqiy ahvolni buzib ko'rsatish, o'qituvchining baho qo'yishga ijodiy yondashish singari muhim tushunchaga e'tibor bermasligi bo'lar edi. Bu o'rinda har xil metodik-pedagogik omillar hisobga olinishi lozim. Bunday omillardan eng muhimmi o'quvchiga joriy baho qo'yilgan materialning ahamiyatliligidir.

Masalan, joriy baholar bir xil bo'lgani holda, har xil o'quv-chilarga chorak baholari hamisha birday qo'yilmaydi. Tabiiyki, joriy baholar bir xil bo'lar ekan, chorak bahosi ham ularga mu-vofiq kelishi kerak. Baholar bir xil bo'limganda chorak bahosi ulardan eng ko'piga muvofiq ravishda qo'yilishi kerak.

Misol keltiramiz: o'quvchi chorak davomida «4», «3», «2», «4» baholar olgan, lekin «3» va «2» baholarni mehnat va kasb ta'limi dasturining asosiy bo'limlarini o'rganishda olgan. Bu yerda «4»

baho asosiy o'rinni olsa ham baribir o'qituvchi chorak uchun bu o'quvchiga «3» baho qo'yishi kerak. Bu misol o'quvchilarning bilimi, mehnat ko'nikmalari va malakalarini tekshirishning muvaffaqiyati umuman va muayyan holda ko'p jihatdan davriy tekshirish o'tkazish vaqtida o'qituvchining masalaga ijodiy yondashuviga, har bir o'quvchining yakka xususiyatlarini va baho qo'yish mezonlarini chuqur bilishiga bog'liqligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

O'quvchilarning o'zlashtirishini yakuniy hisobga olish turi o'quv yilining oxirida sinov tariqasida amaliy ishlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi, mehnat tayyorgarligi darajasi kasb ta'lim darajasiga yetkazilgan maktablarda esa, 9-sinf oxirida, mактабни bitirish paytida ixtisos imtihonini topshiradi. Sinov tariqasidagi amaliy ishlар o'quvchilarning o'quv yili mobaynida o'zlashtirilgan asosiy mehnat operatsiyalarini o'z ichiga olgan topshiriqni mustaqil bajarishdan iborat bo'ladi. Vaqt jihatdan bu topshiriq ko'pi bilan 2–4 o'quv soatga mo'ljallanishi kerak. Bunday ishlarning maqsadi o'quvchilar o'z ishlарни mustaqil rejallashtirishini qanchalik o'zlashtirib olganliklarini, ish jo'yini tashkil etishni, chizmalar va texnologik xaritalaridan, ish va nazorat-o'chov asboblaridan to'g'ri foydalana olishlarini, ishni belgilangan vaqt normasida ulgurishlarini, bilimlarini amalda tatbiq eta olishlarini aniqlashdan iborat.

2. O'zlashtirishni hisobga olishga qo'yiladigan umumiyl talablar. Mehnat bo'yicha yakuniy (yillik) baho o'quvchilarga chorak baholari va sinov tariqasidagi amaliy ishni bajarishlari uchun olgan bahosi asosida qo'yiladi. Yakuniy baholashni o'tkazish o'quvchilarning malaka talab qiluvchi ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishdangina iborat bo'lmay, balki yozma ishlarni va og'zaki javob berishni yaxshi ado etishdan ham iboratdir.

Ko'pincha yozma ishlarni bajarish o'quvchilarda qiyinchilik tug'diradi va materialni darslik yoki boshqa manbalardan yuzaki ko'chirib olishdan, o'zining ijodiy fikrini bayon qilmaslikdan iborat bo'lib qoladi. Albatta, yuzakichilik har qanday ishda bo'lganidek bu o'rinda ham faqat zarar keltiradi. Bu yerda ko'p narsa mehnat ta'limi o'qituvchilariga, uning talabchanligi va qat'iyligiga, baholashga qo'yadigan talablari va o'quvchilarining yakka xususiyatlarini hisobga olgan holda yozma ishlari uchun malakali ravishda mavzu tanlashga bog'liq bo'ladi.

O'qituvchi butun ishlab chiqarish ta'limi davri mobaynida o'quvchilarga darsliklar, so'rovnomalari, texnikaga oid boshqa adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga o'rgatishi, ularda texnikaviy tafakkur elementlarini rivojlantirishi kerak. O'quvchilarning mashg'ulotlarda va uyda texnologiya jarayonlarini ishlab chiqish, o'quv-ishlab chiqarish ishlarni bajarish. Texnikaviy masalalar ni hal qilish sohasidagi mustaqil ishlarni mohirlilik bilan tashkil etish, kelgusida mehnat ta'limini o'zlashtirganlik sinovlarini muvaffaqiyatli topshirishni ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Mehnat ta'limi va kasbga yo'llash bo'yicha topshiriladigan yakuniy nazoratning asosiy mazmuni og'zaki so'rashdan va fan dasturi hajmida amaliy ishlarni bajarishdan iboratdir.

Og'zaki sinovlarni biletlar bo'yicha emas, balki ilgaridan tay-yorlab qo'yilgan savollar (testlar) asosida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga o'qituvchi o'quvchilar bilan amaliy suhbat o'tkazadi, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'laydi.

Shunday qilib, o'quvchilarning mehnat ta'limi bo'yicha o'zlashtirishni to'g'ri hisobga olish ularning bilimlarini, mehnat ko'nikmalari va malakalarini mustahkamlashga yordam beradi, intizomini, ta'lim olishdagi faolligi va mustaqilligini oshiradi, ularning mas'uliyatini kuchaytiradi va ta'limning sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

3. O'quvchilarga berilgan vazifalarni tekshirish. O'quvchilar bilimi va ko'nikmalari darajasini tekshirishning bu metodi butun tekshirish tizimida asosiy metodlardan biri hisoblanadi.

Psixologlarning tasdiqlashicha, o'quv materialini kitob bo'yicha yoki o'qituvchining so'zlaridan eslab qolish yo'li bilan bir marta ishlab chiqqanda, hatto kuchli o'quvchilar ham uning taxminan 70–75% ini yaxshi o'zlashtirishiga muvaffaq bo'ladi. Demak, uyg'a berilgan topshiriqlarni tekshirish, nazoratning boshqa metodlari bilan bir qatorda, o'quv materialini o'zlashtirish sifatini hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Uyg'a berilgan vazifalarni tekshirish vaqtida tekshirishning bir metodiga ko'proq e'tibor berish va bunda boshqa samaraliroq metodlarni inkor etish yaxshi natijalarga olib kelmaydi. Keyingi vaqtlargacha o'quvchilar uyg'a berilgan topshiriqlarni darsning boshlanishidan oldin so'rash (buning uchun bir necha o'quvchini doska yoniga chiqarib, darsning ko'p vaqtini sarflash) tarafdori

edilar. Buning natijasida yangi materialni o'tish uchun vaqt yetishmas, yangi mavzu shoshma-shosharlik bilan tushintirilar, bu esa o'quvchilarning uyg'a berilgan navbatdagi vazifalarga tayyoragarlik ko'rshida qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirar edi.

Lekin yuqorida aytgilanlarga ko'ra uyg'a berilgan vazifalarni tekshirishning bunday metodidan foydalanmaslik kerak, degan xulosa chiqarish noto'g'ri bo'lar edi. Aksincha, agar yangi o'rganilayotgan mavzu bilan mustahkam bog'liq bo'lsa va butunlay uning materiali asosida tuzilgan bo'lsa, bu metodning ahamiyati kattadir.

O'quv materialining xarakteriga, dars tipiga, uning maqsad hamda vazifalariga to'la-to'kis muvofiq keladigan tekshirish metodi to'g'ri tanlangan metod hisoblanadi.

Uyg'a berilgan vazifalarni tekshirishni, yangi materialni o'rganish yoki darsda ilgari tayyorlangan vazifalarga o'xhash yangi material mashqlarini bajarish bilan qo'shib olib borish o'zining ijobjiy tomonini ko'rsatadi. Bunda hamma o'quvchilar ishga jiddiy kirishib ketadilar, chunki uyg'a berilgan vazifa yuzaki emas, balki astoydil tekshirilayotganligini ko'rsatadi va shu sababli ularning vazifalarni bajarishga bo'lgan munosabati o'zgaradi. O'quvchilarning uyg'a berilgan vazifalarni bajarishdagi bilimlari va mehnat ko'nikmalarini tekshirishda nazoratning texnikaviy vositalaridan foydalanish katta yordam ko'rsatadi. Bu vositalar tekshirishning boshqa metodlari bilan birga qo'shib olib borilganda yaxshi natija beradi.

Amaliy laboratoriya ishlarini tekshirish. Amaliy laboratoriya ishlari ta'lim metodi sifatida o'quvchilarda g'oyaviy va mafkura dunyoqarashini, ayniqsa, tabiiy-ilmiy sikldagi fanlar yuzasidan shakllantirish ishida katta ahamiyatga ega. O'quvchilar amaliy laboratoriya ishlari jarayonida kuzatishlar olib boradilar. Tajriba bosqichlarini aks ettiruvchi lahzalarni chizadilar, kuzatishlarni yozib qo'yadilar, olingan natjalarni qayta ishlaydilar va yozma hisobotlar tuzadilar.

O'qituvchi laboratoriya ishlarini bajarish jarayonida o'quvchilarga yordam berib boradi, o'zining kundaligiga har bir o'quvchining mustaqillik darajasini, ayniqsa mashg'ulotning zveno shaklida topshiriqlarning to'g'ri bajarilganligini, o'lchovlar, tuzilgan eskizlar, chiqarilgan xulosalarning to'g'riligini tekshiradi va qayd qiladi.

Shunday qilib, amaliy laboratoriya ishlari jarayonida o'qituvchining tekshirishi natijasida aniqlangan ma'lumotlar va tayyorlangan yozma hisobtlarning natijalari o'quvchilarga obyektiv baho qo'yishni ta'minlaydi.

Amaliy laboratoriya ishlariga yakun yasaganda o'qituvchi o'quvchilar tomonidan taqdim etilgan yozma hisobtlarga baho qo'yish bilan cheklanmasligi kerak. Butun guruh ishtirokida bu hisobtlarni muhokama qilish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ko'rsatib o'tish va xulosalarni oydinlashtirish muhimdir. Ana shunday tekshirishgina amaliy laboratoriya ishlarini bajarish vaqtida olingen bilimlarning va mehnat ko'nikmalarining sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

Texnikaviy vazifalarni hal qilishni tekshirish. O'quvchilar biliymi va ko'nikmalarini tekshirishning bu metodi keyingi vaqtarda tobora dolzarbroq bo'lib bormoqda. Bunga sabab shuki, xilmayxil texnikaviy vazifalarni hal qilishning o'zi ijodiy, texnikaviy tafakkurni rivojlanadirishga yordam beradi, bu esa o'quvchilarning mehnat tayyorgarligi mazmuniga nisbatan qo'yilayotgan asosiy talablardan biridir.

O'qishga qiziqish uyg'otish uchun o'quvchida bilim olish faoliyatini bilan shug'ullanish ehtiyojini vujudga keltirish kerak, bu faoliyat qiziqarli texnikaviy vazifalarni hal qilish jarayonida namoyon bo'lishi mumkin. Shu bilan birga o'quvchini shunday sharoitlarga qo'yish kerakki, u o'zi olgan bilimlaridan bemalol foydalangan holda bilishga oid ijodiy vazifalarni hal qilish uchun ko'p irodaviy kuch sarflasini.

O'quvchilarda xayolni ishlatish, bilimlar va mehnat mala-kalaridan faol foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ijodiy-texnikaviy vazifalar ayniqsa katta qiziqish uyg'otadi.

Muayyan eskiz bo'yicha bajariladigan, ijodiy ish uchun o'rin qoldirmaydigan vazifalarni hal qilish o'quvchilarni unchalik qiziqtirmaydi. Shuning uchun o'quvchilar tomonidan bajarilgan texnikaviy vazifalarga baho berishda o'qituvchi turli omillarni, chunonchi: hal qilish usulining qulayligini, vazifani hal qilish vaqtida o'quvchining fikrlashiga xos bo'lgan mantiqiy-mazmuniy tavsiot, olingen bilimlardan mohirlik bilan foydalanana bilish, konstruktiv-texnikaviy yoki texnologik hal qilishning qimmatliligi, chiqarilgan xulosalar va umumlashmalarning muhimligini hisobga olish lozim.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. O'zlashtirishni hisobga olish qanday turlarga bo'linadi?
2. O'zlashtirishni hisobga olishga qanday umumiy talablar qo'yiladi?
3. Joriy hisobga olish qachon amalga oshiriladi?
4. Davriy hisobga olish ta'lif jarayonining qaysi bosqichida olinadi?
5. Yakuniy hisobga olish qachon amalga oshiriladi?
6. O'quvchilarga berilgan vazifalarni tekshirish qay tarzda amalga oshiriladi?

Mustaqil ta'lif topshiriqlari:

1. Mehnat ta'limi yo'nalishlari bo'yicha mavzularga oid testlar tuzish va ularni baholash mezonlarini ishlab chiqish (topshiriq variantlari o'qituvchi tomonidan beriladi).
2. Mehnat ta'limi yo'nalishlari bo'yicha yakuniy nazorat uchun savolnomalar tuzish va ularni baholash mezonlarini ishlab chiqish (topshiriq variantlari o'qituvchi tomonidan beriladi).

VIII bob. SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH VA O'QITUVCHINING METODIK ISHLARI

8.1. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish

Reja:

1. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari.
2. Maktab sharoitida to'garaklar tashkil qilish.
3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni jarayonida tarbiyalash.
4. To'garaklarni tashkil etish jarayonini rejalashtirish.
5. O'quvchilarni kasbga yo'llashda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish.

Tayanch iboralar: sinfdan tashqari ishlarni, maktabdan tashqari ishlarni, to'garak, to'garak rejasi, hunarmandchilik, ko'rgazma, namuna, baholash.

1. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari. Yosh avlodni har tomonlama yetuk bo'lishi ta'lism-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish hamda fanlarni o'zlashtirish bilan cheklanmaydi. Maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish, ularni kasbga yo'llashda vaqtini bekor o'tkazmaslik, mehnat tarbiyasini, fanlardan olgan bilimlarini kengaytirishda maktabdan va sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati katta. Bolaning bo'sh vaqtini to'g'ri taqsimlanmasligi, uni turli zararli oqimlarga kirib ketishiga yoki boshqa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Maktabdan tashqari ta'lism uzluksiz ta'lism tizimining tarkibiy qismi bo'lib, qo'shimcha ta'lism-tarbiya, boshlang'ich kasb-hunarga yo'naltirishga o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etishning ommaviy sport, madaniy estetik, xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini tanlash hamda amalda joriy etish vositasini bajaradi.

O'zbekiston Respublikasining «Maktabdan va sinfdan tashqari ta'lism to'g'risida»gi Nizomida quyidagi umumiy qoidalar berilgan:

1. Maktabdan va sinfdan tashqari ta'lism O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lism to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»lariga muvofiq tashkil etiladi.

2. Maktabdan tashqari ta'lim muassasasi uzluksiz ta'lim tizi-mining tarkibiy qismi hisoblanadi.

3. Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, dingga munosabati, xizmati, turar joyidan qat'i nazar maktabdan va sinfdan tashqari ta'lim muassasalarida ta'lim olish teng huquqlidir.

«Maktabdan va sinfdan tashqari ta'lim to'g'risida»gi Nizomda quyidagi maqsad va vazifalar belgilangan:

- maktabdan tashqari ta'lim bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, markazlari muassasalarida amalga oshiriladi;

- maktabdan tashqari ta'lim bolalar va ularning ota-onalari xohishiga asosan ixtiyoriy ravishda, xohlagan turda va tilda olib borilishi ta'minlanadi;

- yo'naltirilgan to'garaklar belgilangan talab va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tashkil etiladi;

- maktabdan tashqari ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga davlat ta'lim talablari asosida bilim berish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi va demokratiya tamoyillari, madaniyatimiz, tilimizga hurmat ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Maktabdan tashqari ta'limning asosiy vazifalari:

- shaxsni maktabdan tashqari ta'lim olishi bo'yicha huquqini ro'yobga chiqarish;

- maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;

- maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya mazmunini muntazam yangilab borish;

- o'quv-uslubiy majmualarni hamda ta'lim jarayonini o'quv adabiyotlari, ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash;

- o'quvchining bo'sh vaqtini tashkil etishda xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini tiklash;

- to'garak a'zolarini o'qitish, tarbiyalash ishlaringin sifatini yaxshilash maqsadida o'quv-tarbiyaviy va uslubiy ishlarni takomillashtirish;

- iqtisodiy savodxonlikni, iqtisodiy ongni, fikrlashni hamda madaniyat darajasini oshirish;

- ta'lim oluvchilar va to'garak rahbarining ishlashi, o'qishi, sog'lig'i va dam olishi uchun zarur sharoitlar yaratish.

Maktab o'quvchilarini kasbga yo'llash, tanlagan kasbi bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ijodiy faoliyatla-

rini kengaytirish faqat darslarda fanlarni o'rganish jarayonida emas, balki mактабдан va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda ham hisobga olinadi. Maktabdan va sinfdan tashqari tarbiya jarayonida mehnatga tayyorlash, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish imkoniyatlari kengayadi. Maktabdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni rejalashtirishda to'garak a'zosining qiziqishlari hisobga olinishi, ixtiyorilikka zamin yaratadi. Shuningdek, mehnat ta'limi jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash, ularning bo'sh vaqtлари to'g'ri, rejali o'tishini ta'minlash va turli kasblarni egallash imkoniyatlari katta bo'ladi.

Maktabdan va sinfdan tashqari ishlar bo'yicha o'quv rejalarini va dasturlarida «Maktabdan va sinfdan tashqari ta'limga to'g'risida»gi Nizomga hamda «Mehnat ta'limi va kasbga yo'llash» fani bo'yicha dasturlarga asosan to'garaklarda o'quvchilar egallashlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka mazmuni yoritiladi. Darsga tayyorgarlik jarayonida to'garak rahbarlari quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak:

- to'garak a'zolarini manbalar ustida mustaqil ishlashga o'rgatishi;
- davlat talablari asosida fan dasturlarini tuzishi;
- har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish maqsadida davlat siyosatini amalga oshirishi;
- to'garak a'zolarining bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etishi;
- ta'limga oluvchilarni o'qishi, sog'lig'i, dam olishi uchun sharoit yaratishi;
- bichish-tikishni o'rgatish to'garagi rejasini tuza olishi;
- bichish-tikish to'garagini tashkil eta olishi;
- tikuvchilik materiallari, tikuv mashinanalari bilan ishlay olishi;
- to'garak a'zolarini ehtiyoj va qiziqishlarini qondirishi;
- to'garak a'zolarini o'qitish va tarbiyalash sifatini yaxshilash maqsadida o'quv-tarbiya va metodik ishlarni takomillashtirishi;
- iqtisodiy savodxonlik, fikrlash va madaniyatilikni tarbiyalashi;
- to'garak a'zolari bilan olib boriladigan ishni yanada samarali shakllarini izlash bo'yicha ishlarni tahkil etishi;
- to'garak a'zolari bajargan ishlarni baholay olishi;
- iqtidorli to'garak a'zolarini aniqlashi va ular bilan ishlashi.

Maktabdan va sinfdan tashqari ta'lim muassasalarining to'garak qatnashchilari ongida yuksak ma'naviy-axloqiy vazifalar milliy hunarmandchilik asosida mujassamlashgan bo'lishi kerak. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari to'garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning so'nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish, ular ongini ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish muhim o'r'in tutadi. To'garak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bo'lishi, ular davlatimiz ramzları, madhiyasi, urf-odatlarimizni, milliy kiyim tarixini bilishlari shart. O'quvchi qaysi to'garakka qatnashishidan qat'i nazar, shu kasb yoki hunar to'g'risida boshlang'ich ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Sinfdan va maktabdan tashqari muassasa tarbiyachilari jamoasi oldida doimo to'garak a'zolariga umuminsoniy axloq qoidalari, milliy hunarmandchilik asosida hayot kechirishni o'rgatishdek muhim vazifa turadi.

Shunday ekan, maktabdan va sinfdan tashqari ta'limni rivojlan Tirish, uning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalarini hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- ta'lim berish va kamol toptirishga yo'naltirilgan xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar tarmog'ini kengaytirish va bunday xizmatlar turini ko'paytirish;

- milliy pedagogik qadriyatlarga asoslangan va jahondagi ilg'or tajribani inobatga oluvchi dasturlar va uslubiy materiallar ishlab chiqish;

- to'garak a'zolarining bo'sh vaqtini tashkil etish, shu jumladan xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini takomillashtirish, milliy turlari va shakllarini tiklash hamda amaliyotga joriy etish.

Hozirgi vaqtida pedagogika va axborot texnologiyasi qonuniylari asosida pedagog olimlarimiz maktabdan tashqari ta'limni tashkil etishning turli shakl va metodlarini ishlab chiqish yo'nalishida tegishli tadqiqotlarni olib bormoqdalar.

2. Maktab sharoitida to'garaklar tashkil qilish. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni to'g'ri tashkil etish, yoshlarimizning bo'sh vaqtini unumli va mazmunli o'tkazishda, kasbga yo'llash, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanishda o'z mehnatidan bahramand bo'lish imkoniyatini yaratadi.

To'garak ishtiropchilarining bajargan ishlardan ko'rgazmalar tashkil etish orqali turli kasb-hunarlarni o'quvchilarga targ'ibot

qilish, o‘z navbatida to‘garaklarga bo‘lgan e’tiborni, turli humarlarni o‘rganishga diqqatini jalb etish, to‘garakka qiziquvchilarni ko‘paytirish imkoniyatlarini yaratadi.

Sinfdan tashqari ta’limda yangi o‘quv yili uchun to‘garakka qabul qilish va uni tashkil etish tartibi quyidagicha:

— 25–30-avgustda tashkiliy ishlar bo‘yicha yig‘ilish o‘tkaziladi;

— yig‘ilishda har bir to‘garak a’zosi bilan suhbatlashiladi, maqsad va vazifalar, rejalar ko‘rib chiqiladi;

— to‘garak qatnashchilarini bilan to‘garak mashg‘ulotlarini o‘tkazish kunlari va vaqtি belgilanadi;

— to‘garak mashg‘ulotlari har yili 1-sentabrdan, kelasi yilning 31-mayigacha olib boriladi;

— to‘garak darslarini o‘tish uchun tasdiqlangan reja uch yilga mo‘jallanadi;

— to‘garakni tashkil etishda xohlovchilarning yoshlarini hisobga olgan holda bir guruuhga biriktiriladi. Har bir guruuhda 10–12 ta to‘garak a’zosi bo‘lishi kerak. Guruhda sardor saylanadi;

— to‘garak qatnashchilarining mashg‘ulotlarga ishtiroki navbatchilar orqali nazorat qilib boriladi;

— to‘garak rahbarida jurnal bo‘lib, to‘garak mashg‘ulotlarining hisoboti hisoblanadi;

— jurnal mazmuni uni yuritish tartibi, o‘quv yili uchun to‘garak o‘quv rejasi, mashg‘ulotlarni o‘tkazish jadvali, soatlarning taqsimoti, xavfsizlik texnikasi qoidalari, to‘garak a’zolarining ro‘yhati, to‘garak ishini tahlil qilganlarning fikr va mulohazalari va hokazolardan iborat.

To‘garak ishini tashkil etish:

1. Haftasiga 1–2 marta 4 soatdan ma’ruza yoki to‘garak a’zolari tomonidan amaliy ishlar bajarish.

2. To‘garak a’zolari tomonidan bichish-tikish bo‘yicha mustaqil ishlar bajarish.

3. Har bir to‘garak a’zosining mustaqil bajargan uy ishini to‘garak rahbari tomonidan 100% nazorat qilinishi.

4. Tayyorlangan buyumni namoyish qilish orqali baholash, rag‘batlanirish.

5. To‘garak o‘tkazish joyi, vaqtি aniq bo‘lishi: to‘garak mashg‘ulotlari bиринчи yili haftasiga 2 marta 3 soatdan, 2–3- yillarda haftasiga bir marta 3 soatdan o‘tkaziladi.

6. Avvalgi o'quv yilidagi ijodiy ishlardan namunalar, to'garak boshlanganligi haqida e'lонлар osish.

3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar jarayonida tarbiyalash. Kasb-hunar to'garaklarini tashkil etishning asosiy maqsadi to'garak a'zolariga tegishli bilim, ko'nikma malakalarni berish-dangina iborat emas, balki to'garak a'zolarining jamiyatimizda qabul qilingan axloq-odob qoidalariga mos keladigan e'tiqodini, mehnatga, ijtimoiy, shaxsiy mulkka munosabatini, jamoa va uning a'zolariga bo'lgan ijobjiy munosabatlarini, badiiy didini, iqtisodiy, jismoniy, axloqiy, milliy madaniyatini tarbiyalashdan iboratdir. Ta'lif berish bilan birga tarbiyalashga katta ahamiyat berish kerakligini mutafakkirlar o'z davrida aytib o'tganlar.

Axloq tarbiyasi insonlarga eng muhim, narsa baland darreraja beruvchi tarbiyadir. Shu bois to'garak darslari jarayonida to'garak rahbari avvalo o'zi shaxsiy namuna bo'lishi, kiyinishi, so'zlashishi, o'zini tutishi bilan to'garak a'zolariga o'rnak bo'lishi kerak. To'garak jarayonida mehnat topshiriqlarini bajarishda shaxsning javobgarlik, vijdonlilik kabi xislatlarini, mehnat intizomiga amal qilgan holda jamoa bo'lib mehnat qilish malakasini, ijtimoiy mulkka g'amxo'rlik munosabatlarini tarbiyalash nazarda tutiladi. To'garak az'olarini tarbiyalashning bir qator qonun-qoidasi mavjud:

1) jamoa bo'lib mehnat qilish, topshirilgan ishga javobgarlik hissini tarbiyalash;

2) o'z-o'zini tanqidiy baholash va tanqidiy nazorat qilish, kamchiliklarga nisbatan murosasiz bo'lish hislarini tarbiyalash;

3) ongli intizomni tarbiyalash;

4) jamiyat va shaxs mulkiga g'amxo'rlik munosabatlarini tarbiyalash;

5) to'garak mashg'ulotlari jarayonida tarbiya usullaridan: iqtisodiy, kasbiy, axloqiy, badiiy, milliy, jismoniy mehnat, mehnat madaniyatini shakllantirish va hokazo.

Endi bu tarbiyalash usullarini qanday yo'llar bilan olib borilishini ko'rib chiqamiz:

1. To'garak mashg'ulotlarida jamoa bo'lib ishlashda to'garak a'zolari bir-biriga yordam beradi. To'garak a'zolari ba'zi ishlarni birgalikda, bir-biriga yordam berib, ish o'rinxlarini almashib, maslahatlashib bajarishlariga to'g'ri keladi. Bu imkoniyatlardan to'garak rahbari to'garak a'zolarini tarbiyalashda keng foydalani-

shi kerak. To'garak jarayonida to'garak a'zolari o'zaro do'stlik, bir-biriga yordam berish, rahbarlik, bo'ysunish, javobgarlik, talabchanlik va ish yuzasidan olib boriladigan tanqidiy munosabatlarga kirishadilar. To'garak rahbari bu munosabatlarni kamol topishini diqqat bilan kuzatishi va ularni to'gri yo'naltirib turishi lozim.

2. To'garak mashg'ulotlarida ayrim hollarda to'garak rahbari to'garak a'zolariga o'z ishini baholashni taklif etadi. Bu esa to'garak a'zosiga tayyorlangan buyumni sinchiklab tekshirishga, sifat ko'rsatkichiga amal qilishga, o'z-o'zini tanqidiy baholash hissining shakllanishiga yordam beradi.

3. To'garak rahbarining talablarini bajarish natijasida to'garak a'zolari qabul qilingan qoidalar, ish usullarini aniq, ongli bajarishga asta-sekin ko'nikadilar. Ular berilgan ish maromini saqlashga, ish o'mmini namunali tutishga, asboblarni ehtiyot qilishga odatlanadilar. To'garak a'zolariga mehnat ta'limi berish, turmushga tayyorlashning muhim sharti hisoblangan intizomni yo'lga qo'yish orqali erishiladi. To'garak a'zolariga ishonish, ularni hurmat qilish bilan birga talabchanlikni qo'shib olib borish ongli intizomni tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir.

4. To'garak a'zolarida ijtimoiy mulkka nisbatan g'amxo'rlik munosabatini tarbiyalashning ta'sirchan usullaridan biri ularni unumli mehnatga, to'garak ustaxonasini jihozlash ishiga, asboblarni ta'mirlashga jalb qilishdan iboratdir. To'garak a'zolarini buyumlarni bichish vaqtida gazlamani tejamkorlik bilan sarflashga, asbob-uskuna, korjamalarni ehtiyot qilishga o'rgatish, o'z ishini siddqidildan bajarishga, mehnatni sevishga o'rgatish orqali mehnat tarbiyasi shakllanadi.

5. Mehnat madaniyatini tarbiyalashda har bir to'garak a'zosi o'zidan keyin shu ish joyida boshqa shaxs o'tirib ishlashi, unga ham toza, ozoda ish joyi zarurligini tushunishi, shu jo'yini yig'ishtirishga odatlanishi kerak. Shuning uchun ham mashg'ulot rejasini yozishda albatta ish jo'yini yig'ishtirish bosqichi rejalashtirilishi va bajarilishi nazorat qilinishi kerak.

6. To'garak rahbari tayyorlangan buyumning chiroylilagini, tozaligini, bezagini hamda to'garak a'zosining mehnat harakatlari ning aniqligini doimo ta'kidlab turishi orqali to'garak a'zolarida badiiy did rivojlanadi. Sifatli va sifatsiz tayyorlangan buyumni taqqoslab, chiroyli va xunukni ajratish, ranglarning bir-biriga

mosligi o'rgatib borilsa, to'garak a'zolarda badiiy did tarbiyalanib boradi.

7. To'garak jarayonida eng muhim bo'lgan kasbiy tarbiyani shakllanishiga alohida e'tibor berilishi kerak. Buning uchun har mashg'ulotda to'garak a'zosi bajarayotgan ishi ommaviy kasb egalari bajaradigan ish ekanligini eslatib turiladi, korxonalarga borib ishchi kasblari bilan yaqindan tanishtiriladi.

8. Iqtisodga rioya qilgan kishilar hamma vaqt tinch va rohatda yashaydilar, «Toma-toma ko'l bo'lur» maqolining mazmunini o'quvchilarga tushuntiriladi. To'garak mashg'ulotlari jarayonida to'garak a'zolari bilan biror buyumni tayyorlash vaqtida shablon va andazalarni to'g'ri joylashtirishni, materialni tejab ishlatishni talab qilish, qolgan qoldiqlardan biron kichik buyumlarni tayyorlashni o'rgatish orqali iqtisodiy tarbiya shakllanib boradi.

9. Mashg'ulotlar davomida mavzuga oid tarixiy ma'lumotlaridan foydalanish, udumlar, an'analar, urf-odatlar asosida bilim berish orqali to'garak a'zolarida milliy tarbiyani shakllantirishga imkon yaratiladi. To'garak a'zolarining nutqini o'stirishga alohida e'tibor berish kerak. Buning uchun bajargan ishlarni ketma-ketlik tarzida aytib berish. Buyum haqida ma'lumotlar, qo'llaniladigan gazlama, fasonlar haqida to'garak a'zolarini gapirib berishga o'rgatiladi. Shu tariqa to'garak a'zolarining nutqi ravonlashib, til boyligi oshadi. Abdulla Avloniy ham til masalasiga katta e'tibor beradi. Tilni axloq bilan bog'lab talqin qiladi. U o'z asarlarida har bir kishi o'z ona tilini mukammal bilishi, har bir so'zni o'z o'rnidagi ishlatishi, milliy-adabiy tilning taraqqiyoti uchun jonkuyarlik qilishi zarurligini qayd qiladi.

10. Kasb-hunar to'garaklarida milliy hunarmandchilik asoslarini o'rgatishda; kashtachilik, zardo'zlik, popopchilik, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik va boshqa yo'nalishlardagi buyumlarni tayyorlashda, ularni bezash jarayonida ham to'garak a'zolariga kasbiy tarbiya beriladi. Mashg'ulotlarda olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida muzeylarga olib boriladi, noyob asarlar bilan tanishtiriladi, buyumlar tayyorlashda ayrim elementlardan foydalanishga o'rgatib boriladi.

11. To'garaklar ishini tashkil etishda to'garak a'zolarini jismoniy tarbiyasiga e'tibor beriladi. Turli dastgohlar va asbob-uskunalar bilan ishslashda, qo'l ishlarini bajarishda ish bilan

ko'zning orasidagi masofani to'g'ri saqlash, o'tirishda gavdani to'g'ri bo'lishiga ahamiyat berish xonada sog'lom mehnat sharoitini yaratish orqali erishiladi. To'garak rahbari to'garak a'zosiga bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishda sog'lig'iga zarar yetmasligini yodida saqlashi lozim.

4. To'garaklarni tashkil etish jarayonini rejalashtirish. Kasb-hunar o'rgatish to'garaklarini tashkil etish jarayonini rejalashtirish ta'lim jarayonini aniq tashkil etishga asoslanadi. To'garaklarni tashkil etishni rejalashtirish har bir to'garak rahbarining ta'lim rejasi va dasturini bajarishni, o'quv materiallarini mazmuniga to'liq javob beradigan topshiriqlarni bajarishni, to'garak a'zolarini ilmiy-texnik bilimlarini, mehnat ko'nikma va malakalarini yuqori darajada bolishini ta'minlaydi.

Bichish-tikish to'garaklarini tashkil etish ta'limi o'quv reja asosida olib boriladi. O'quv rejasi davlat hujjatidir. To'garak uch yillik bo'lgani sababli u ham shu muddatga tuziladi. O'quv rejasi ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan bo'lib, unda guruhrar bo'yicha o'qitiladigan fanlar nomi, ajratilgan soatlari, muddati, o'quv yilining taqsimoti ko'rsatilgan bo'ladi.

O'quv rejasini tuzishda quyidagi talablar inobatga olinadi:

1. O'quv rejasi ta'lim-tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asoslanadi.

2. Ta'limning uzluksizligi va izchilligi e'tiborga olinadi.

3. O'quv jarayoni hajmi to'garak a'zolarning yoshi, bilim saviyasiga qarab belgilanadi.

4. O'quv rejasiga kiritilgan bilimlar mazmuni dunyoviy va ilmiy xarakterga ega bo'lib, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratiladi.

5. O'quv rejasida bilim, ko'nikmalar hajmini belgilashda hozirgi zamon talablari hisobga olinadi.

O'quv rejaga kiritilgan bilim va ko'nikmalar hajmi, mazmuni ta'limning ilmiyligi, g'oyaviyligi, milliyligini hamda ma'naviy yetuk barkamol insонни tarbiyalashni ko'zda tutadi. O'quv rejada bilim mazmuni, ketma-ketligi, ajratilgan soatlar, yakuniy nati-jalar ham aniq ko'rsatiladi.

O'quv rejasini to'liq bajarilishini ta'minlash maqsadida unga tushuntirish xati ham yozilgan bo'ladi. Unda to'garak mashg'ulotlarini olib borish uchun qanday jihozlangan xonalar ajratilishi, mashg'ulotlarni olib borish xususiyatlari haqida eslat-

ma beriladi. O'quv rejasining bajarilishi ta'lrim muassasasining rahbari tomonidan nazorat qilib turiladi.

To'garaklar o'quv dasturini tuzishda olimlar, ilg'or to'garak rahbarlari qatnashishlari mumkin. O'quv dasturi maqsad, vazifalarini saqlab qolgan holda uning mazmuniga o'zgartirishlar kiritish mumkin. Bu o'zgartirishlar ta'lrim muassasasi metodik kengashida ko'rib chiqib, ma'qullanadi va rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Taqvim-mavzu reja o'quv dasturi asosida to'garak rahbari tomonidan tuziladi. O'quv yili boshida, avgust kengashida ko'rib chiqilib, to'garak ishlari bo'yicha tashkilotchi tomonidan tasdiqlanadi.

Taqvim-mavzu reja quyidagi jadval tariqasida tuziladi:

Mashg'ulot ketma-ketligi	Bo'lim va mavzu nomi	Ajratilgan soat	Muddat	Mashg'ulot turlari	Ko'rgazmali qurol-lar	O'quv-chilarga mustaqil ish	Eslatma
1	2	3	4	5	6	7	8

Taqvim-mavzu rejasidagi mashg'ulot ketma-ketligi, bo'lim va mavzu nomi, ajratilgan soatlar o'quv dasturidan olinadi.

Muddat — mavzuni jadval asosida, taqvimga moslashtiriladi.

Mashg'ulot turlari — mashg'ulot mavzusini qanday mashg'ulot turidan foydalansa yaxshi natija berilishiga ko'ra tanlanadi.

Ko'rgazmali qurollar — ushbu mavzuni tushuntirishda qanday ko'rgazma, tarqatma materiallaridan foydalanish kerakligi ko'rsatiladi.

To'garak ishlarini mustahkamlashga oid uy vazifasi berilishi kerak. Uyga vazifa berishda to'garak a'zolarining ijodiy ishlarini hisobga olish kerak, albatta uy vazifasi aniq, tushunarli bo'lishi kerak.

Eslatma — yil davomida to'plagan fikrlari, kiritiladigan o'zgarishlar haqida ma'lumotlar toplanib boriladi va kelgusi yil uchun reja tuzishda hisobga olinadi.

To'garak ishini samarali olib borilishi uchun dastur asosida ish rejasi tuziladi. Reja tuzishda to'garak qatnashchilarining yoshi, bilim doirasi, qiziqishlari hisobga olinib, oddiydan murakkabga tomon tamoyili asosida tuziladi. Rejaning birinchi yilida o'rganila-yotgan yo'nalish bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalar berishga e'ti-

bor beriladi. Dastlab qo'llaniladigan ish turlari ularni bajarishdag'i qoidalari va buyumlarni tayyorlash jarayonlarida hisobga olinadi.

Quyida misol tariqasida «Bichish-tikish» to'garagining ish rejasini keltiriladi.

«Bichish-tikish» to'garagining birinchi yildagi ish rejasi

Nº	Mavzu nomi	Jami soat	Nazariy	Amaliy
1	Kirish Bichish-tikishda qo'llaniladigan ish qurollari, asbob-uskunalar. Texnika xavfsizligi qoidalari	2	2	—
2	Materialshunoslik	2	2	—
3	Qo'l ishlari haqida tushuncha va ularni bajarish	4	4	—
4	Tikuv mashinasi haqida tushuncha	2	2	—
5	Mashina choklari va ularni bajarish	8	2	6
6	Kiyimni mayda detallarga ishlov berish asosga biriktirish	14	4	10
7	O'Ichov olish qoidalari	2	2	—
8	Chaqaloq bolalar uchun so'lakcha tikish	6	2	4
9	Chaqaloq bolalar komplekti tikish	12	2	10
10	Bolalar uchun fartuk chizmasini chizish, andaza tayyorlash, bichish, tikish	10	2	8
11	Qiz bolalar trusigini bichish, tikish	4	2	2
12	Qiz bolalar tungi ko'ylagi chizmasini chizish, andazasini tayyorlash	4	2	2
13	Tungi ko'yлакни bichish, tikish	4	—	4
14	O'g'il bolalar shortigi chizmasini chizish, bichish, tikish	6	2	4
15	O'g'il bolalar ko'ylagi chizmasini chizish, andazasini tayyorlash	2	—	2
16	O'g'il bolalar ko'ylagini bichish, tikish	10	4	6
17	Bajarilgan ishlarni albomga ishlash	2	—	2
18	Bog'cha yoshidagi qiz bolalar ko'ylagi chizmasini chizish, andazasini tayyorlash	4	2	2

Jadvalning davomi

19	Bog'cha yoshidagi qiz bolalar ko'ylagini bichish, tikish	10	—	10
20	Qiz bolalar yubkasi chizmasini chizish, andazasini tayyorlash	4	2	2
21	Qiz bolalar yubkasini bichish, tikish	4	—	4
22	Maktab yoshidagi qiz bolalar ko'ylagi chizmasini chizish, andaza tayyorlash	2	—	2
23	Maktab yoshidagi qiz bolalar ko'ylagini bichish, kiyib ko'rishga tayyorlash	4	—	4
24	Ko'yakni tikish, oxirgi ishlov berish	6	2	4
25	Malaka razryadini olish uchun ijodiy ish bajarish	6	—	6
	Jami	134	40	94

«Bichish-tikish» to‘garagining ikkinchi yildagi rejasi

No	Mavzu nomi	Jami soat	Nazariy	Amaliy
1	Qiz bolalar ko'ylagi chizmasini chizish, bichish, tikish	6	2	4
2	O'g'il bolalar ko'ylagini bichish, tikish	6	2	4
3	Qizlar sarafan chizmasini chizish, andaza tayyorlash, bichish, tikish	8	2	6
4	Erkaklar shimi chizmasini chizish, bichish, kiyib ko'rishga tayyorlash	8	2	6
5	Shimni tikish	8	—	8
6	Ayollar ko'ylagi asosi, yengi, yoqasini chizmasini chizish, andaza tayyorlash	4	2	2
7	Tungi ko'yak andazasini tayyorlash, bichish, tikish	8	2	6
8	Tungi ko'yak chizishni albomga ishlash	2	—	2
9	Ayollar va qizlar ko'ylagi chizmasini chizish, andaza tayyorlash	6	2	4
10	Ayollar va qizlar ko'ylagini bichish, kiyib ko'rishga tayyorlash	8	—	8
11	Yeng, yoqa chizmasini chizish	2	2	—

Jadvalning davomi

12	Albomga ko‘ylakni M 1:4 da ishlash	2	—	2
13	Milliy ko‘ylak asos chizmasini chizish	2	—	2
14	Andaza tayyorlash, bichish, kiyib ko‘rishdan keyin tikish	8	2	6
15	Yeng, yoqa, koketkani tayyorlab etakka ulash	6	2	4
16	Xalat uchun o‘lchov olish, andaza tayyorlash, bichish	8	2	6
17	Xalat mayda detallarini, asosga ulash, oxirgi ishlov berish	10	2	8
18	Ayollar shimini bichish, tikish	10	2	8
19	Milliy lozimni bichish, tikish	6	2	4
20	Quyosh yubka chizmasini chizish, bichish, tikish.	6	2	4
21	Gode yubka chizmasini chizish, andaza tayyorlash, bichish, tikish	8	2	6
	Jami	132	32	100

«Bichish-tikish» to‘garagining uchinchi yildagi rejasi

Nº	Mavzu nomi	Jami soat	Nazariy	Amaliy
1	Kirish	2	2	—
2	Ish fartugini bichish, tikish	8	—	8
3	Bolalar ko‘ylaklarini bichish, tikish	12	—	12
4	Yubka bichish, tikish	8	—	8
5	Bluzka bichish, tikish	8	—	8
6	Xalat bichish, tikish	16	2	14
7	Ovro‘pacha ko‘ylakni bichish, tikish	16	2	14
8	Milliy ko‘ylak, lozim bichish, tikish	16	2	14
9	Nimcha bichish, tikish	12	—	12
10	Bayram ko‘ylagi bichish, tikish	16	2	14
11	Ko‘rgazma uchun buyumlar tikish	16	2	14
	Jami	130	12	118

Bu rejalar taxminiy bo'lib, to'garak a'zolarining xohishlari, hududiy sharoitlariga qarab o'zgartirish mumkin.

2-3 yilda to'garak a'zolari ko'pincha moda jurnallaridan modalar uylari dizayner va loyihibachilari yaratgan tayyor andazalar yordamida kiyimlar to'plamlarini yaratadilar.

3-yilni yakunlashda bitiruv ishlarini hay'at a'zolari oldida himoya qilgan to'garak a'zolari guvohnoma olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. To'garak ishi bo'yicha yil yakuni sifatida barcha bitiruvchilarning ishlari ko'rgazmasi tashkil etiladi. Ko'rgazmaga juda katta tayyorgarlik ko'rildi, e'londor yozib, barcha taklif etilishi kerak. Ko'rgazma ochiq eshiklari kuni tarzida o'tkaziladi. To'garak a'zolarining 3 yillik faoliyatlarini namoyish etiladi, to'garak a'zolari o'z ishlarini himoya qiladilar.

5. O'quvchilarni kasbga yo'llashda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'quvchilarni kasbni ongli ravishda tanlashga, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularda moddiy ishlab chiqarish, fan, texnika va boshqa sohalarga oid kasblarni egallahsga qiziqishini shakllantirishda ko'p jihatdan yordam beradi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda kasbga yo'llash ishlari o'quvchilarning yosh va bilish xususiyatlariga qarab bir necha bosqichlarda olib boriladi, bunda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnatga bo'lgan ijtimoiy qiziqishlarni, o'quvchilarda umuman mehnat haqida tasavvurlarini shakllantirish;
- mehnatga muhabbat, mehnat ahliga hurmat hislarini singdirish, unumli mehnatga ijtimoiy mayllarini shakllantirish;
- barqaror kasbiy qiziqishlar va mayllarni shakllantirish va rivojlantirish;
- mutaxassislikni, kasbni tanlash va uni o'zlashtirish yo'llarini tanlash maqsadida o'tkaziladi.

Texnika to'garaklaridagi mashg'ulotlarda olib boriladigan kasbga yo'naltirish ishi mazmuni o'quvchilarni to'garak yo'naliishiga muvofiq kasblar, predmetlar va mehnat texnologiyasi bilan, ishchi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar, mazkur kasbga oid mutaxassislar tayyorlash shartlari bilan, ijodiy ish va ana shu kasb egalarining kasbiy o'sish istiqbollari bilan, ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyati o'quvchilar tashkilotlarida,

texnik ijodkorlik to'garaklarida, bozor iqtisodiyoti muammlarini ijodiy hal qilish masalalari bilan tanishtirishni o'z ichiga oladi.

O'quvchilarни tanishtirish uchun mehnat sohalari va kasb doiralari ro'yxatini tuzgan chog'da ishlab chiqarish uchun zarur kadr-larga bo'lган talab-ehtiyojlarga amal qilish va ayni vaqtda yaqin atrofdagi umumta'lim mакtab kasblari bo'yicha tayyorlov kurslari va oliv o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash yo'naliшlarini hisobga olish zarur.

To'garaklarda o'tkaziladigan mashg'ulotlar o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, qiziqishlarini, shuningdek bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy yo'naliшlarini hisobga olgan holda ularni kasbga yo'naltirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Bu narsa o'quvchilarning muayyan yoshiga mo'ljallangan va politexnik mazmun kasb etgan texnika ijodkorligi to'garaklarining tegishli dasturlari bilan ta'minlanadi. Chunonchi, odatda, ta'llimning birinchi yili dasturi VI—VII sinflarning o'quvchilariga, ta'llimning ikkinchi yili dasturi VIII—IX sinflarning o'quvchilariga mo'ljallangandir, ko'pgina hollarda shaxsiy (yakka tartibdag'i) dastur asosida shug'ullanadilar. III—V sinflarning o'quvchilar boshlang'ich texnik modellashtirish to'garaklari dasturlari asosida ish ko'radilar. I—II sinflarning o'quvchilar o'zlar uchun maxsus tashkil qilinadigan «Mohir qo'llar», «O'yinchoqlar fabrikasi», «Yosh texnik», «Kichik o'quvchilarning erkin ustaxonasi» to'garaklarida va boshqa shu kabi to'garaklarda shug'ullanadilar. Bu to'garaklar o'z ishini boshlang'ich sinflarning mehnat xonasini negizida olib boradi.

Har bir to'garak bo'yicha namunaviy dasturlar nazariy materialni va amaliy ishlarning yetarli darajadagi ro'yxatini o'z ichiga oladi. Bu dasturlarga ko'zda tutilmagan, lekin u yoki bu mavzuga muvofiq bo'lган konstruksiyalar yoki modellarning ish rejasini ham kiritish mumkin. Mahalliy sharoitlarga va to'garak a'zolarining qiziqishlariga qarab o'rganiladigan materialni qisqartirish yoki ko'paytirish mumkin.

Texnika ijodkorligi to'garaklari o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarishga, texnika va fanga bo'lган qiziqishlarini kengaytirishga yordam beradi, ijodiy va texnikaviy tafakkurni rivojlantiradi, konstruksiyalash, modellashtirish va ratsionalizatorlik ishi malakalari va ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tegishli to'garakda o'quvchilarning muvaffaqiyatli shug'ul-anishlari faoliyatning muayyan turiga qiziqishni rivojlantiradi, bajariladigan ishga ijobiy munosabatda bo'lishni shakllantiriladi. Bolalarning qiziqishlari esa ularning mayllari bilan chambarchas bog'langandir. O'quvchilarda qiziqishlar va mayllarning rivojlanishi ko'p jihatdan to'garaklarning mashg'ulotlarida ularning bilish faoliyati to'g'ri tashkil etilganligiga bog'liqdir. Bilish faoliyati o'quvchining muayyan ish turini muvaffaqiyatli bajarishga bo'lган shaxsiy qobiliyatini aniqlashga, uning kasbiy maqsadini shakllantirishga imkon beradi. Shu boisdan bilish faoliyati tashkil qilingan chog'da kasbga oid axborot o'quvchilarga o'z vaqtida yetib borishi va ularning imkoniyatiga mos bo'lishi muhimdir.

Ma'lumki, mashg'ulotlar chog'ida o'quvchilarda umumtex-nikaviy, umummehnat va maxsus bilimlar hamda ko'nikmalar shakllanadi. O'quvchilar ishlab chiqarishda ommalashgan asboblar va moslamalar bilan ish ko'radilar, ba'zan esa ularni o'zları ham tayyorlaydilar. O'quvchilarning texnik ijodkorlik to'garaklaridagi faoliyati ko'pgina hollarda ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lган muayyan buyumlarni tayyorlash bilan ham bog'liqdir.

Texnika to'garagi mashg'ulotlari uchun kasbga yo'naltirishning diqqatga sazovor jihatlarini ko'rsatib o'tish qiyin emas. To'garakda birmuncha muvaffaqiyatli yoritilishi mumkin bo'lган bunday jihat-larga ishchi faoliyatini tafsiflash, ishlab chiqarish mutaxassisasi sifatida uning vazifalari, mehnat mazmuni, shuningdek kichik mutaxassisning samarali ishlashi uchun zarur bo'lган bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish, mehnat qurollari va obyektlari kiradi.

Texnika to'garagi mashg'ulotlarida kasbga yo'naltirish ishi to'garak ishlab turgan butun davr mobaynida muntazam ravishda olib borilishi uchun eslatib o'tilgan barcha omillar va xususiyatlarni hisobga olib, namunaviy dastur asosida kasbga yo'naltirish bo'yicha kasbiy ish yuzasidan ish rejasini tuzish lozim.

Kasbga yo'naltirish sistemasi hayot yo'lini tanlab olishda, kasbga yo'naltirishda mashinosozlik va mashinashunoslik, fermer xo'jaligi dehqonlari va mehnatkash ziyolilarning saflarini to'ldirishda yoshlarga ko'maklashishi va umuman mehnat resurslarini oqilonqa taqsimlashda ta'sir o'tkazishi lozim. Mazkur vazifani amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish uchun umumiyligi ta'lim, mehnat politexnika maktabi, ta'lim-tarbiya ishi mazmuniga asos solingen.

Quyida to‘garak ishi jarayonida kasbga yo‘naltirish ishining namunaviy rejasi keltiriladi:

Nº	To‘garak mashg‘ulotlari	Kasbga yo‘naltirish ishining mazmuni	Ish metodlari va usullari
1.	Kirish mashg‘uloti	Ro‘zg‘orda, ishlab chiqarishda, qishloq xo‘jalagida, transport va shu kabilarda texnikadan foydalananish «Fan va texnika» yo‘nalishida videofilm, kinofilmrlarni ko‘rish O‘tgan yillardagi to‘garak a’zolari tayyorlagan buyumlarni namoyish qilish	Hikoya qilib berish, maxsus adabiyot o‘qish, videofilm, kinofilmrlarni namoyish qilish
2.	Materiallar va asboblar	O‘rmon – bizning boyligimiz O‘rmonni muhofaza qilish va bu ishda maktab o‘quvchilarining qatnashishi. O‘rmonchi kasbi bilan tanishtirish Qanday kasbdagi ishchilar qaychi, pichoq, bolg‘a, yassi jag‘li ombur, moyqalam ishlatalardilar? Ana shu kasblar to‘g‘risida qisqacha axborot	Gapirib berish, namoyish qilish, suhbatlar
3.	Grafika savodi	Chizma – texnika tili. Chizmachilik kasbi bilan tanishtirish. Rejalash – materiallarni tejashda dastlabki bosqichlardan biri. Yassi shakllarni belgilashda ijodiy masalalarini yechish namunalari	Suhbat, hikoya qilib berish, namoyish qilish
4.	Texnikaviy va konstrukturlik-tehnologik masalalar	Korxonaning konstrukturlik byurosiga ekskursiya. Mashinalarni loyihalash va ishlab chiqarishning asosiy bosqichlari bilan tanishtirish. Qo‘l asbobini vazifasi jihatidan ana shunday mashinalar (parmashash mashinasi, parmashash dastgohi, randa, egov, frezalash dasgohi, silliqlash dastgohi) bilan taqqoslash. «Egizak asboblar», «Bularning vazifasini aytib bering», «Bu qanday materiallardan yasalgan?», «Bu materiallarga nima bilan ishlov beriladi?» mavzularidagi suhbatlar	Ekskursiya, suhbat, o‘yinlar

5.	Yassi bo‘laklarni konstruksiyalash	Ixtirochi konstruktor respublika ixtirochilar va ratsionalizatorlar jamiyatining a’zosi bilan uchrashuvni tashkil etish. Texnik qurilma bo‘laklarini oqilona joylashtirishning ahamiyati to‘g‘risida hikoya Yassi shakllar zagatovkalarini termasidan yassi modellar yig‘ish boyicha «Kim tezroq yig‘adi» o‘yini	Uchrashuv, suhbat
6.	Hajmi katta bo‘lgan buyumlarni konstruksiyalash	Oddiy geometrik jismlardan iborat buyumlarni konstruksiyalash chog‘ida konstruktoring ijodiy ish bosqichlari. «Konstruktordar» filmini namoyish qilish. Turli shakldagi katta hajmli mahsulot (zagotovka)lardan ishlangan transport mashinalari modellarini yig‘ish o‘yini	Gapirib berish, suhbat, namoyish qilish
7.	Texnik modeldashtirish	Konstruksiyalash majburiy tarkibiy qismi sifatida modeldashtirishning ahamiyati. Modellarda ilmiytadqiqotlardan foydalanish. To‘garak mashhg‘ulotlarida tayyorlangan va turli maqsadlarda ishlatalidigan modellarni namoyish qilish	Suhbat, namoyish qilish
8.	Texnik o‘yinlar, atraksionlar	«Ota-onalaringizning kasblari» mavzusida suhbat hamda ota-onalar ishlaydigan uskunalar va asboblarining modellarini namoyish qilish. Ana shunday topshiriqlar bilan o‘yinlar tashkil qilish	
9.	Yakunlovchi mashhg‘ulotlar	To‘garak ishlarining ko‘rgazmasini tashkil qilish va unga eksponatlar tayyorlash. Yozgi ta’til davrida kasbga yo‘naltirishga oid materiallarni yig‘ishga doir topshiriqlarni taqsimlash	

Ilg‘or pedagogika fani shunga asoslanadiki, to‘garaklarda beriladigan umumiy ma’lumotlar hech qachon bordan-bir maqsad sari

bo'lmay, balki keyinchalik yoshlarning mehnat ta'limiga o'tishi uchun vosita bo'lib keladi.

Yosh avlodni kasb tanlashga yo'naltirish davlat tizimida maktab yetakchi bo'g'in hisoblanadi. Maktab o'quvchilarda kasbga qiziqish uyg'otishda va bitiruvchilarni kasbni ongli ravishda tanlashga tayyorlashda asosiy tayanch nuqtasidir. Qiziqish, moyilik, qobiliyat, politexnik bilim va mahorat kabi shaxsiy fazilatlar o'quvchilarni kasbni o'zлari tanlashiga faol undovchi sababdir.

Faoliyat muayyan sabablar mavjud bo'lgan chog'da vujudga keladi. Ijobiy vajlar faoliyat vujudga kelishining majburiy sharti bo'lib, shu tufayli kasbiy yo'nalish shakllanadi. Kasbga yo'naltirishga kasb tanlash vajlarini ilmiy boshqarish tizimi, yoshlarni bozor iqtisodiyotida kichik mutaxassislarga bo'lgan talab-ehtiyojini hisobga olib, ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash deb qaralmoqda.

Mehnat ta'limi o'quvchilarni turli kasblarning xususiyatlari, ulardan birini to'g'ri tanlash shartlari to'g'risida bilimlarning muayyan majmuasi bilan qurollantirishni; ularda kasbiy va ijtimoiy faoliyatning har xil turlariga ijobiy munosabatda bo'lish hissini tarbiyalashni; asosli kasbiy shakllantirishni (jamiatning ijtimoiy-iqtisodiy talab-ehtiyojlarini va shaxsning psixofiziologik xususiyatlarini anglash ana shu niyatlarning asosini tashkil etadi) ko'zda tutadi.

Mehnat ta'limisiz o'quvchilarni kasblarni ongli ravishda tanlashga samarali tayyorlash mumkin emas. Ana shu tarkibiy qismning ijtimoiy nuqtayi nazardan qaraganda ahamiyati shundaki, shu tarkibiy qism tufayli kasbni tanlash erkinligi doirasi kengayib boradi: yigit yoki qiz ishlab chiqarish va kasblarning turli xillarini, mehnat sharoitlarini, u yoki bu kasbni qayerda o'rganish mumkin ekanligini va shu kabilarni qanchalik ko'p bilsa, uning kasb tanlashi shu darajada ongli bo'лади.

O'qituvchi o'z navbatida kasbiy axborotni, kasbiy targ'ibotni va kasbiy tashviqotni o'z ichiga oladi. Bu elementlar ham ichki jihatdan bir-biri bilan o'zaroborlangandir. Bularning maqsadi bozor iqtisodiyotining eng ommaviy kasblari to'g'risida o'quvchilarga muayyan ma'lumotlar berishdan, ana shu kasblarni egallash usullari va shart-sharoitlari haqida ularni xabardor qilishdan, iqtisodiy mintaqqa bozor iqtisodiyoti ayni vaqtida g'oyat katta ehtiyoj sezayotgan kasblarning ijtimoiy ahamiyatini targ'ib qilishdan iborat.

Mehnatning hozirgi turlari g‘oyat ko‘p va xilma-xil bo‘lgan, kuch ishlatish imkoniyatlari juda ham kengayib borayotgan hozirgi sharoitda mehnat ta’limi (kasbiy axborotni, kasbiy targ‘ibotni) to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymay turib, yoshlarning to‘g‘ri kasb tanlashi ancha qiyindir.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Maktab sharoitida to‘garaklar tashkil qilish qanday amalga oshiriladi?
3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar jarayonida qanday tarbiyaviy ishlar amalga oshiriladi?
4. To‘garaklarni tashkil etish jarayoni qanday rejalashtiriladi?
5. O‘quvchilarni kasbga yo‘llashda sinfdan va maktabdan tashqari qanday ishlar tashkil etiladi?

8.2. Mehnat ta’limi, kasb tanlashga yo‘llashga oid metodik ishlar

Reja:

1. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida mehnat ta’limi, kasb tanlashga yo‘llash fani bo‘yicha metodik xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish tizimi.
2. Metodik ishlarni tashkil qilish metodlari, shakllari, mazmuni va vositalari.
3. Metodik ishlarni boshqarish tizimi.

Tayanch iboralar: metodik ishlar, metodik xizmat, pedagogik kengash, uslubiy komissiya, metodik birlashma, pedagogik o‘qish, uslubiy kengash, istiqbolli reja.

1. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida mehnat ta’limi, kasb tanlashga yo‘llash fani bo‘yicha metodik xizmatni tashkil qilish va amalga oshirish tizimi. Umumta’lim maktablarida ilmiy-metodik ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish va unga rahbarlik qilish uchun maktab rahbari ayni vaqtida ham yaxshi pedagog, ham kasb sirlarini yaxshi biladigan mutaxassis bo‘lishi kerak. U mustaqil ravishda bilim olishi va malaka oshirish kurslari orqali

ilmiy-metodik ishlarning mazmuni hamda ularni tashkil etishga oid masalalarni o'rganib borishi kerak.

Umumta'lism maktablarida tashkil etiladigan ilmiy-metodik ishlarning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- umumta'lism maktabi pedagog va texnik xodimlarining ilmiy-g'oyaviy savyasini, pedagogik mahoratini oshirish;
- o'quvchilarni milliy mustaqillik ruhidagi tarbiyalash mazmuni, shakl, metod va vositalarini takomillashtirish;
- ta'lism, tarbiya va rivojlantirish maqsadlarining birligi, umumilmiy, umumkasb va maxsus tayyorgarlikning uzviyiligini ta'minlash;
- ilg'or pedagogik va ishlab chiqarish tajribalarini, fan va texnika yutuqlarini o'rganish, umumlashtirish hamda ta'lism-tarbiya jarayoniga joriy etishdan iborat.

Ilmiy-metodik ishlarda ishtirot etish umumta'lism maktablaridagi barcha rahbarlar, o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar uchun majburiy bo'lib, ularning pedagogik faoliyatini ajralmas qismi hisoblanadi.

Umumta'lism maktablaridagi metodik ishlarning mazmuni, yo'nalishi, tuzilmasi kabilalar metodik ish haqidagi Nizom bilan belgilanadi. Shu Nizomga muvofiq jamoaviy va individual metodik ishlar olib boriladi.

Quyidagilar jamoaviy metodik ish shakllari sirasiga kiradi:

- pedagogik kengash;
- uslubiy komissiyalar;
- ilg'or tajriba maktabi, muammoli seminarlar, ilmiy-uslubiy konferensiylar, pedagogik o'qish va turli uslubiy kengashlar.

Individual metodik ish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- umumta'lism maktablari rahbarlari, o'qituvchilar, va boshqa texnik xodimlarning o'z g'oyaviy-siyosiy darajasi, pedagogik malakasi va kasb mahoratini oshirish yuzasidan olib boriladigan mustaqil metodik ishlari;

— maktab rahbari (direktor), uning o'rindbosarlari, o'qituvchilar, pedagoglar va boshqa texnik xodimlar bilan olib boriladigan individual metodik ishlari.

Metodik ishlar shakli va mazmuni bo'yicha ham, pedagog xodimlarning turli guruhlarini qamrab olish bo'yicha ham muvofiqlashtirilgan taqdirdagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Umumta'lism maktabida metodik ishlarni umumiyl

mavzu asosida tashkil etish tajribasi bunday muvofiqlashtirish usullaridan biridir. Metodik ishni bunday tashkil etishning mohiyati shundan iboratki, umumta'lim maktabi ma'lum bir vaqtga mo'ljallangan umumiyy mavzuni tadqiq etadi. Buning natijasida ta'lism-tarbiya jarayonini takomillashtirishning dolzarb muammo- larini hal etishga muayyan hissa qo'shami, turli toifadagi pedagogik xodimlarning tayyorgarlik darajasi hisobga olingan holda, ularning pedagogik mahoratini oshirish vazifalarini muvaffaqiyatlari amalga oshirishga imkon beradi.

Metodik ish umumta'lim maktabining istiqboli va joriy ish rejalarida mustaqil bo'lim sifatida rejalashtirilishi kerak. Mustaqil ishlarning tashkil etilishi va samaradorligini tekshirish masalalari umumta'lim maktablarining ichki nazorat rejalarida o'z aksini topadi.

Metodik ishlarni rejalashtirishda quyidagi talablarga asoslanish maqsadga muvofiqliqdir:

- kelajakdagi rivojlanishni ko'zda tutish (bajarish muddatlari va vazifalari bo'yicha);
- rejalarini ta'lism-tarbiya va metodik ishning ahvoli va nati-jalarini har tomonlama chuqur o'rganish hamda tahlil qilish asosida ishlab chiqish;
- rejalarining ijodiy xarakteri, ya'ni ularni bajarishda ishtirok etuvchi xodimlarning tashabbusi va ijodkorligini namoyish eti-lishga zarur imkoniyat yaratish;
- metodik ishlarning jamoaviy va individual shakllarini uyg'un qo'shib olib borish;
- tezkor tekshirish mumkinligi (yozuvlari va bajarish muddatlarining aniqligi ijrochilarning ko'rsatilishi).

Metodik ish shakllari va maqsadlarining rang-barangligi, uning turli guruh va toifadagi pedagoglarni o'ziga jalb etishi ni hisobga olib, tadbirlarning mazmuni va o'tkazish muddatlarini muvofiqlashtirish, bir ishning takrorlanishini bartaraf etish, uning samaradorligini oshirish uchun pedagogik amaliyatda uzoq vaqtlardan beri «Metodik ishlarning umumiyy rejası» tuziladi. Bu ish pedagogik tajribada o'zini oqladi. Bunday rejada umumta'lim maktabidagi barcha metodik ishlar tizimi, taqvim muddatlari va muhim tadbirlar bo'yicha uyg'unlashtiriladi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisining metodik ishlar olib borishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsadi ularning malakasini oshirishdir.

Bu esa ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda muhim vositalidir. Bu ish o'qituvchilarning o'quvchilar bilan olib boradigan ishlarida katta yordam beradi, ularning ma'naviy-ma'rifiy saviyasi, pedagogik va ishlab chiqarish malakasini oshiradi.

Shunga e'tibor berish kerakki, o'qituvchilarning metodik ishlari asosini ularning bu sohadagi mustaqil ishlari tashkil etadi. Bu ish muayyan maqsadga qaratilgan bo'lishi, muntazam olib borilishi va ta'lim-tarbiya ishlarida o'z ifodasini topishi kerak.

O'qituvchilarning metodik ishlari maktab rahbarlarining bevosita nazorati va rahbarligida olib borilishi kerak. Umumta'lim maktablarida mustaqil metodik ishlar jamoaviy ishlar bilan birga olib boriladi.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi o'zining pedagoglik mahoratini takomillashtirish hamda o'z malakasini oshirish ustida har doim ishlashi kerak. Unga bu borada o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari ancha yordam beradi. Bu institutlarda qisqa muddatli kurslar tashkil qilinib, ularda o'qituvchilar fan va texnika sohasidagi yutuqlar, ilg'or pedagogik tajribalar bilan tanishadilar.

Bu kurslar hamma o'qituvchilarni qamrab ololmaydi, albattra. Shu sababli kurs tayyorgarligi bilan birga joylarda muntazam ravishda metodik ishlar olib boriladi. Odatda, ular bir qancha metodik ishlarni bajarishadi. Bu esa qo'shimcha mas'uliyat yuklaydi, ularning mustaqil bilim olish borasida qunt bilan ishlab, hamkasbleri uchun namuna bo'lishiga majbur qiladi.

2. Metodik ishlarni tashkil qilish metodlari, shakllari, mazmuni va vositalari. O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishda mehnat ta'limi o'qituvchisi yetakchi rol o'yinaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonining ahvoli, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi o'qituvchi kasbiy malakasiga, pedagoglik mahoratiga, madaniyat darajasiga bog'liq.

Yakka tartibdagi metodik ish butun o'quv yiliga tuzilgan reja bo'yicha olib boriladi. Unda o'qituvchi, ya'ni muhandis-pedagog o'z pedagoglik mahoratini va bilimini chuqurlashtirish maqsadida yakka tartibdagi metodik topshiriqlarni bajarishi nazardautiladi. Ularga quyidagilar kiradi: pedagogik mavzular bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash; o'quv dasturining eng qiyin mavzulari bo'yicha metodik ko'rsatmalar tuzish; anchagina mehnat qilinishi talab qilinadigan muammoli izlanishlar. Bu topshiriqlar har bir pedagog uchun majburiy minimum hisoblanadi.

Har bir pedagog ish rejasi to'rtta bo'limdan tashkil topishi kerak:

1. G'oyaviy-siyosiy saviyani oshirish.
2. Metodik-pedagogik mahoratni takomillashtirish.
3. O'qituvchotga mehnat turi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish.
4. Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish.

Bu reja metodik kengash majlisida ko'rib chiqilib, tasdiqlanadi. Bu rejaning bajarilishi haqida o'qituvchilar hisobotlari tinglanadi.

G'oyaviy-siyosiy saviyani oshirish – materiallar ishlab chiqila-yotganda hozirgi zamon hayoti va ishlab chiqarishni nazarda tutish kerak. Mehnat ta'limi o'qituvchisi yoshlarga mehnat tarbiyasi va politexnik ta'lim berishning mohiyati ancha to'la yoritilgan asarlarni, Prezident qarorlarining umumiy o'rta ta'limiga oid huj-jatlarini o'rganishi, siyosiy seminarlar va nazariy konferensiyalar ishida qatnashishi, matbuot, radio, televideniya orqali hozirgi si-yosat bilan tanishishi va amaliy ishda qo'llashi lozim.

Metodik-pedagogik mahoratini takomillashtirish jarayonida tayyorlanadigan ma'ruzalar, ko'rsatmalar, tavsiyalarda o'quvchilar bilan bo'ladigan o'quv-tarbiyaviy ishlar shaklini mukammal-lashtirib borish nazarda tutiladi. Mehnat ta'limi o'qituvchisining o'z ustida mustaqil ishlashi davomida mehnat ta'limiga oid ilmiy jurnallar va asarlar bilan muntazam tanishib borishi, metodik mahoratida esa mashg'ulot olib borish sifatini takomillashtirib, bunda yangi metodik ko'rsatmalar tayyorlash, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirish masalasini yechish, ilg'or pedagogik tajribalarni esa boshqa o'qituvchilar orasida yoyishga yordam berishdir.

Nazariya bo'yicha darslarga tekshirish uchun kirgan o'qituv-chi darslarning taqvimi mavzuli va har bir dars bo'yicha rejasi hamda dars o'tish uchun ishlanmalari borligiga; dars mavzusi bo'yicha tuzilgan reja va dasturga mos kelishiga; ta'lim vositalidan unumli foydalanilayotganligiga; darsda o'quv tarbiyaviy ishning qo'yilishi va uning amalga oshirilishini, qo'yilgan maqsadni hal etish uchun tanlangan dars turining maqsadga muvo-fiq ravishda tanlanganligiga baho berishi; darsning strukturasi to'g'ri tanlanganligiga, vaqtning taqsimlanishiga, o'qituvchi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligiga e'tibor berishi kerak.

O'qitilayotgan mehnat yo'nalishi sohasidagi ilmiy-texnikaviy bilimlarni kengaytirish va chugurlashdirishga ilg'or texnologiya va ratsional mehnat usullarini, texnika yangiliklarini muntazam o'rganib borish, ilmiy-texnikaviy seminarlarda qatnashish, texnikaga oid mavzulardagi ma'ruzalar ni eshitib borish, ko'rgazmalarga borib turish, ilg'or korxonalarga o'tkaziladigan ekskursiyalarda qatnashish va hokazolar orqali erishiladi. Amaliy ko'nikmalar va malakalar mehnat ta'limi o'qituvchilarining malakali metodistlar rahbarligida va ishlab chiqarish ilg'orlari ishtirokida ilg'or ish usullarini egallash yo'li bilan takomillashtiriladi.

Pedagog mehnatini ilmiy asosda tashkil etish sohasidagi bilim va malakalarini takomillashtirish – mehnat ta'limi darslarida amal qilinadigan hujjatlarni ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqish; o'quv ustaxonalarini zarur materiallar, asbob-uskunalar bilan muntazam ta'minlab turish tadbirlarini belgilash, ish joyini ilmiy asosda tashkil etish, ta'limning eng samarali ko'rsatmali va texnikaviy vositalaridan oqilona foydalanish yo'li bilan erishiladi.

Didaktik materiallar tayyorlash. Nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun manba sifatida ishlatiladigan vositalarni tayyorlash ham metodik ishlarga kiradi. O'quv va didaktik materiallarni tayyorlash deganda, o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi va nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirilishi tu-shuniladi. Agar tayyor vositalar yo'q bo'lsa, u holda bu vositalarni o'qituvchining o'zi tayyorlashiga to'g'ri keladi.

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlashda mehnat ta'limi o'qituvchisi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarni inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

- ish varaqalari, tarqatmalar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun eskizlar;
- yozma topshiriqlar, yozma va og'zaki testlar uchun so'rov qog'ozlari;
- baholash varag'i, nazorat qog'izi;
- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar.

O'qituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli ma'lumotlarni, balki tashkiliy ishlar, usul va natijalarni baholash borasidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilar uchun materiallar esa qoida bo'yicha faqatgina sohaga tegishli jihatlarni o'z ichiga oladi.

Didaktik materiallar o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lsa, o'qitish materiallaridan farq qilishi mumkin. Masalan: topshiriqlar varaqlari, savolnomalar, yo'naltiruvchi usul savollari va muayyan tarqatma materiallar.

Tarqatma materiallar tayyorlash bo'yicha eng yangi usullardan biri bu matnlarni ranglar bilan ajratish sanaladi:

- oq qog'ozlar: mazmuniy jihatlar borasida matnlar (o'qituvchi va o'quvchilar uchun);

- yashil qog'ozlar: o'quvchilarga topshiriqlar;

- qizil qog'ozlar: o'qituvchining metodik hujjatlari va topshiriqlarning javob varaqalar.

Ranglarni kodlash ham hujjatlardan foydalananishni yengilashtiradi. Shuningdek, bugungi kunda kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda turli o'quv didaktik materiallar tayyorlash uchun keng imkoniyatlar mavjud.

3. Metodik ishlarni boshqarish tizimi. O'quv-tarbiyaviy jaryonni boshqarish pedagogik jamoa faoliyatini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu sababli o'quv muassasida metodik ishlarni boshqarishning asosiy obyekti pedagogik jamoa hisoblanadi.

Umumta'lim mактабидаги методик ishlarning aniq shakllarini maktab pedagogik kengashi belgilaydi. Maktab rahbari (direktor) metodik ishlarga umumiy rahbarlik qiladi. U metodik ishning rejasini tasdiqlaydi, pedagogik kengash ishiga rahbarlik qiladi, instruktiv-uslubiy majlislar o'tkazadi, o'qituvchilar o'tkazadigan mashg'ulotlarni tahlil qiladi, alohida o'qituvchilarning metodik ishlariga rahbarlik qiladi, yuqori organlar oldida o'zi rahbarlik qilayotgan maktabdagi metodik ishlarning ahvoli to'g'risida hisobot beradi.

Direktorning o'quv ishlari bo'yicha o'rinnbosari umuman maktabdagi metodik ishlarning, shuningdek fan uyushmalarda olib boriladigan metodik ishlarning tashkilotchisi hisoblanadi.

Sinf rahbarlari bilan olib boriladigan metodik ishlarni direktorning o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinnbosari, umumta'lim o'qituvchilari bilan olib boriladigan metodik ishlarga esa ilmiy bo'lim mudiri rahbarlik qiladi.

Umumta'lim maktabida o'qituvchilarning metodik ishlari jamoaviy ishlar bilan birga olib boriladi. Jamoaviy metodik ishlar-

dan eng muhimmi fanlar bo'yicha tashkil etiladigan metod bir-lashmalardir.

Metod birlashmalarda ko'rila'digan masalalar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

1) yangi o'quv dasturi, darslik, qo'llanma va uslubiy ishlanma-larni o'rganish;

2) metodik yo'riqnomalar va buyruqlarni o'rganish, ularni amal-ga oshirish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqish;

3) o'quv-ishlab chiqarish ishlarini, o'quv-texnik hujjatlarini, turli ishlar uchun vaqt me'yorlarini, o'quvchilarining ish o'rinalarini tashkil etish va jihozlash masalalarini muhokama qilish;

4) o'quv dasturi mavzularini o'rganish metodlarini muhokama qilish, tekshirish ishlarini va malakalarini belgilashni tashkil etish;

5) ochiq darslar o'tkazish va natijalarini muhokama qilish;

6) o'qituvchilarining sinflardagi tarbiyaviy ishlari, darsdan tashqari ishlarni bajarish metodikasi;

7) o'qituvchining ta'lim-tarbiya ishlariga doir tajribalari, o'quvchilar bilan fan va texnika yutuqlarini, ilg'or mehnat qoi-dalarini o'rganish kabi masalalar to'g'risidagi axborotlari.

Pedagogik kengash umumta'lim mакtabida ta'lim-tarbiya jarayonining jamoaviy rahbaridir. Bu kengash o'quv-uslubiy va tashkiliy-xo'jalik ishlariga rahbarlik qilishda direktorga yordam beradi; kengash o'z ishini direktor rahbarligida olib boradi. Pedagogik kengash quyidagi masalalar bilan shug'ullanadi:

1) maktabning yarim yillik, o'quv ishlarining yakunlari-ni, shuningdek, malaka imtihonlari natijalarini muhokama qiladi;

2) o'qituvchilarining malakasini oshirish, qayta tayyorlash tad-birlarini belgilaydi, o'qituvchilarining o'z ish tajribasi haqidagi ma'ruzalarini eshitadi;

3) o'quv guruhlarida darslarning o'zlashtirilishi, darsga qat-nashish, usta va o'qituvchilarining o'quvchilar bilan olib boradi-gan tarbiyaviy ishlariga doir masalalarni ko'radi;

4) o'quv reja dasturlarining bajarilishi va boshqa shu kabi ma-salalarni ko'radi.

O'qituvchilarining texnik va pedagogik malakalarini oshirish-ning jamoaviy shakllari seminar-trening, pedagogik o'qishlar va boshqa shakllari bo'lishi mumkin.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Umumta'lim mактабларида ташкіл етіладын илмій-методик ішларнің мазмұнынан көрініп, оның мазмұндың міндеттес міндеттерін анықтаңыз.
2. Жамоавиқ методик іш шақтарында көзделетін мәдениеттес міндеттердің мазмұндарын анықтаңыз.
3. Индивидуал методик іш жағдай шақтарда амалға оширилген міндеттердің мазмұндарын анықтаңыз.
4. Методик ішлардың мазмұндарынан көрініп, оның міндеттерін анықтаңыз.
5. Педагогикалық методик ішлардың мазмұндарынан көрініп, оның міндеттерін анықтаңыз.
6. Таржатма материалдар тәсілдерінде көрініп, оның міндеттерін анықтаңыз.
7. Методикалық мазмұндарда көрініп, оның міндеттерін анықтаңыз.
8. Педагогикалық мазмұндарда көрініп, оның міндеттерін анықтаңыз.

Mustaqil ta'limga topshiriqlari:

1. Менштәдік тәсілдердің міндеттерін анықтаңыз.
2. Менштәдік тәсілдердің міндеттерін анықтаңыз.

IX bob. KASB TANLASHGA YO'LLASH ISHLARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

9.1. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashni o'qitish jarayonida kasb tanlashga tayyorlash

Reja:

1. Kasbga yo'naltirish shakl va metodlari.
2. Kasbga yo'naltirish bosqichlari mazmuni.
3. Kasbga yo'naltirishning ijtimoiy va psixofiziologik asoslari.

Tayanch iboralar: mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash, shakl va metodlar, bozor iqtisodiyoti, sohalar, tasniflagich, kasblar dunyosi, tashxis markazlari.

1. Kasbga yo'naltirish shakl va metodlari. Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni materiallarga ishlov berish, elektr montaj ishlарini bajarish, mashinalarga xizmat ko'rsatish va shu kabililar bilan bog'liq bo'lgan qator ishchi kasblari bilan tanishtirish uchun qulay sharoit vujudga keladi. Ustaxonalarda mashg'ulotlar o'tkazilayotganda u yoki bu mutaxassis nima bilan shug'ullanishi to'g'risida shunchaki tasavvur berish emas, balki kasbning barcha tomonlarini ochish, mehnat sharoitlarini ko'rsatib berish muhimdir. Buni amalga oshirish oson emas, albatta. Buning uchun o'qituvchi rejali ravishda diqqat va e'tibor bilan ishlashi kerak.

O'qituvchilarning ish tajribasi o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashning shakl va metodlarini belgilab berdi. Ularning asosiyлари quyidagilardan iborat.

1. Darslarda kasb tanlashga yo'llash. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarni ustaxonalardagi mashg'ulotlar davomida bajara-digan ishi bilan bog'liq kasblar bilan tanishtiradi. Chunonchi o'quvchilar yog'ochga ishlov berishni o'rganayotganlarida duradgor, yog'ochsoz, faner qoplovchi, yog'och kesuvchi, rom yasovchi, tokar, parmalovchi kasblari haqida bilib oladilar. Bundan tashqari, o'qituvchi korxonalarda yog'ochga qo'lda ishlov berish bilan bog'liq ixtisosliklar o'rnnini egallagan dastgohchilar kasblari haqida ham gapirib beradi.

O'quvchilarga ustaxonalardagi mashg'ulotlarda metallga ishlov berishni o'rgatishda ular qator chilangarlik va dastgohchi-

lar kasblari: tunukachi chilangar, asbobsoz chilangar, ta'mirchi chilangar, asbobsoz chilangar, tokar, parmalovchi kasblari bilan tanishtiriladilar. Bundan tashqari, ayrim mavzularni o'rganish davomida metallga ishlov berish korxonalaridagi ishchi kasblari: termik ishlov beruvchi, prokatlovchi, po'lat erituvchi va hokazo kasblari to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytirish mumkin.

2. *Ekskursiyalarda kasb tanlashga yo'llash*. Odatda ekskursiyalarda o'quvchilarni o'quv dasturi doirasidan chiquvchi materiallar bilan tanishtirishga qulay sharoit yuzaga keladi. Bu imkoniyatlardan o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash maqsadida foydalanish mumkin. Masalan, o'quvchilar metallga va yog'ochga ishlov beriladigan mexanika sexlariga borishganida uskunalarining ko'p guruh va tiplarini ko'radilar. Shuning uchun o'qituvchiga ana shu uskunalarida ishlovchi kichik mutaxassis kasblari haqida gapirib berish tavsiya etiladi. Agar ishchilarning o'zlarini o'z ishlari, tayyorlaydigan mahsulotlari haqida gapirib bersalar, o'quvchilar bu kasblari to'g'risida ko'proq tasavvurga ega bo'lishadi.

3. *To'garak mashg'ulotlarida kasb tanlashga yo'llash*. To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirishga ko'proq imkoniyatlar vujudga keladi. Agar o'qituvchi o'quvchini ishchi kasblardan biriga, masalan, yog'ochga, metallga ishlov berishga moyilligi borligini sezsa u o'quvchi bilan ish olib borib, uning bilim va malakalarini chuqurlashtirishi, unga yoqadigan kasbga nisbatan qiziqish uyg'otishi zarur. To'garaklardagi mashg'ulotlar o'quvchilarga yuqori sinflarda mehnat ta'liming yo'nalishini tanlashda yordam beradi.

4. *Ishlab chiqarish ustalari, ilg'orlar, tadbirkorlar, ishbilarmonlar va mакtabni bitirgandan so'ng moddiy ishlab chiqarish sohasida ishlayotganlar bilan uchrashuvlar*. Odatda, mazkur maktabni bitirgandan keyin bozor munosabatlari sharoitida ishlayotgan kishilar bilan uchrashuvlar o'quvchilarda katta taassurot goldiradi.

Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilar tanishadigan kasblar ancha ko'p. Shuning uchun, o'qituvchilar o'quvchilarga o'z kasbi haqida hikoya qilib beradigan ishlab chiqarish ustalari, ilg'orlar, tadbirkorlar, ishbilarmonlarni topishda qynalishmaydi. Ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishda fan asoslariga doir bilimlaridan foydalanish to'g'risida ishlab chiqarish ustalari, ilg'orlar, tadbirkorlar, ishbilarmonlarning aytgan gaplari, ayniqsa qimmatli-

dir. Umumta'lim bilimlariga ega bo'lmasdan, biror kasb-hunarni mukammal o'rganmasdan turib bozor iqtisodiyoti jarayonida zamon talabi darajasida mutaxassis bo'lish mumkin emasligini o'quvchilar tushunib olishadi.

Ishlab chiqarish ustalari, ilg'orlari, tadbirdorlar, ishbilarmonlar bilan uchrashuvlar ko'pincha tantanali vaziyatda o'tadi. Bolalar mehmonlarga atab sovg'alar tayyorlashadi, yaxshi o'qiyimiz deb majburiyatlar olishadi. Bunday tadbirdorlar katta tarbiyaviy ahamiyat ega bo'ladi.

Kasb tanlashga oid qo'shimcha mashg'ulotlarning taxminiy rejasi

Mavzular nomi	Ajratilgan soatlar soni
Kasbni to'g'ri tanlashning kishi hayotidagi ahamiyati	1
Bozor iqtisodiyotining tuzilmasi va kasblar guruhlari bo'yicha bandligi	2
Bozor iqtisodiyoti ehtiyojlari uchun kadrlar tayyorlash tizimi	2
Ta'llim muassasalarini (kurslar, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'llim muassasalarini) bilan tanishtirish	2
Kasbni to'g'ri tanlash to'g'risida asosiy ma'lumotlar	1
Bozor iqtisodiyotining quyidagi tarmoqlariga oid kasblar:	
geodeziya, kartografiya	1
kon va metallurgiya sanoatlari	1
energetika va elektrotexnika	1
kimyo sanoati	1
mashinasozlik	2
poligrafiya sanoati	1
o'rmon xo'jaligi va yog'ochga ishlov berish sanoati	1
yengil sanoat	1
oziq-ovqat sanoati	1
baliqchilik sanoati	1
qishloq xo'jaligi	1
transport (temiryo'l, avtomobil, dengiz va havo transportlari)	2
aloqa	1
qurilish	2
maishiy xizmat	1
tibbiyot	1
iqtisodiyot va moliya (tadbirkorlik, ishbilarmonlik)	1
davlat apparati (huquqshunoslik va boshqalar)	1

xalq ta'limi	1
san'at	1
davlat mudofaasi	1
Qiziqishlar kartasini to'ldirish, o'quvchilarning javoblari natijalari bo'yicha suhbat	1
«Bo'lg'usi kasbimni qanday tasavvur qilaman» mavzusidan uyga berilgan insholarni ko'rib chiqish, kasblar bilan yaxshilab tanishtirish uchun qiziqishlariga qarab guruhlarga ajratish	1
Jami:	34

5. *Har xil madaniy-ommaviy tadbirlar o'tkazish.* Kasb tanlashga yo'llash ishining muvaffaqiyatli olib borilishiga yordam beruvchi har xil madaniy-ommaviy tadbirlar mактаблarning ish tajribasidan ma'lum. Masalan, «Kasb haqida kim ko'proq biladi» mavzusiga bag'ishlab tanlovlар o'tkazish, «Kasblar dunyosida» nomli og'zaki журнallar chiqarish, «Kasb tanlashda shaxs va jamoa fikri» mavzusi bo'yicha munozaralar uyuşhtirish, tegishli adabiyotlar ko'rgazmasini tashkil qilish, kitob va kinofilmlarni muhokama qilish shular jumlasidandir. Mazkur tadbirlarning barchasi ustaxonalarda amalga oshirilishi mumkin.

6. *Kasblarni chuqur o'rganish.* O'qituvchi muayyan kasblar to'g'risida tasavvur berish uchun bir yo'la barcha o'quvchilar bilan ish olib borishdan tashqari, u yoki bu kasb bilan yaxshilab tanishish istagi bo'lgan o'quvchilar bilan jiddiyroq ish olib bora-di. O'quvchilar qiziqishlariga qarab guruhlarga yoki klublarga birlashtiriladilar. Bunda ishning turli-tuman tashkiliy shakllari qo'llaniladi. O'quvchilar o'z kuchi bilan muzey yaratadilar, referatlar yozadilar, ekskursiyalar o'tkazadilar. Bularning barchasi o'qituvchiga muayyan kasb insonga qanday talablar qo'yishini kengroq tushuntirib berishga, o'quvchilarning kasb tanlash negizlarini tushunib olishlarida ko'maklashishga imkon beradi. Agar o'qituvechi o'quvchida muayyan kasbga qat'iy qiziqish uyg'onganini va o'quvchining sog'lig'i shu kasb talablariga javob berishini payqasa, u tegishlicha ish olib borib, o'smirning xohishi royobga chiqishi uchun yordam bera boshlaydi.

2. *Kasbga yo'naltirish bosqichlari mazmuni.* Umumiy o'rta ta'lim mактабларини bitirgan o'quvchilarning taxminan 90 foizi kasb-hunar kollejlariga, 10 foizi esa akademik litseylarga

o'qishga borishlari mo'ljallangan. Bunday ijtimoiy talablar ni qondirish maqsadida mактабда kasbga yo'naltirish yuzasidan olib boriladigan ishlarni mazmunan yangilash, izchil yo'lga qo'yish zarurligi yuzaga kelmoqda. Dars jarayonida xalq xo'jaligida bevosita ishlab chiqarish bilan mashg'ul mehnat ahlilariga hurmat va izzat tuyg'ularini singdirib borishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Kasb-hunarga yo'llash bo'yicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari o'quvchilarning maqsadli ravishda kasb tanlashlariga xizmat qilishi lozim.

Maktabda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini yo'lga qo'yishda an'anaviy amaliy mashg'ulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o'yin, konferensiya, mustaqil fikrlar, mahalla, ishlab chiqarish korxonalarining jamoalari bilan birgalikda o'tkaziladigan tadbirlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi.

Umumiy o'rta ta'lim davlat standartlariga asosan maktabda kasbga yo'naltirish bo'yicha mashg'ulotlar 8-9-sinfлarda amalga oshiriladi. 8-sinfda kasblar haqida «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi» asosida axborot berish davom ettirilishi bilan bir qatorda o'quvchilarga kasb egallash yo'llari, kasb tanlashda tibbiy nomuvofiqliklar, kasbga yaroqlilik va hokazo tushunchalar berib boriladi.

Maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bиргина mehnat ta'limi o'qituvchisining ishi emas, balki butun maktab jamoasining, mahalla, ota-onalar, jamoatchilikning birgalidagi ishidir. Maktabda fan o'qituvchilari mavzuni yoritish jarayonida kasblar bilan bog'lab o'tishsa, maktab psixologi va rahbariyati o'quvchilarning individual qobiliyatları, qiziqishlarni hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishsagina o'quvchilarga kasb tanlashlarida ko'mak bergen bo'lishadi. Shu bilan birga takrorlash zarurki, O'zbekiston Respublikasida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning qabul qilinishi, o'quvchi yoshlarni va aholini kasb-hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirish, ish o'rinlarini bo'shab qolish jarayonlari jadallahashdigan va ishchilarning malakalariga qo'yiladigan sifat talablari oshib borayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholini ratsional va samarali bandligini ta'minlashdagi kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy roli shundan iboratki, yoshlar va aholi tomonidan kasbning ongli va ilmiy asoslangan tanlovi ularni mehnat faoliyatida yuqori natijalarga erishishlariga zamin yaratadi, iqtisodiyot sohalaridagi kasb-hunarga bo'lgan mavjud ehtiyojlarni hisobga olgan holda mehnat resurslarini oqilona taqsimlaydi hamda insonlarning ish qidirish, ta'lif va kasbiy faoliyat turini tanlashlaridagi zo'riqish holatlarining oldini olishga yordam beradi.

Bu borada asosiy yo'nalish qilib, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», Xalqaro mehnat tashkilotlarining Nizomlari, konvensiyalari va takliflar, bir qator boshqa hujjatlar, shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning bu sohadagi ishlarining amaliy tajribalari asos qilib olinadi.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari tomonidan bosqicha-bosqich va muntazam ravishda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan rasmiy jihatdan qabul qilingan qarorlaridan birida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish yuzasidan umumiyligi qoidalarda quyidagilar ta'kidlangan:

1. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi 203-sonli «O'zbekiston Respublikasida umumiyligi o'rta ta'lifni tashkil etish to'g'risida»gi Qaroriga asosan tashkil etilgan.

2. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi har bir tuman, shahar xalq ta'lifi bo'limlari tuzilmasida, o'z hududlari doirasida bolalar rivojlanishiga psixologik-pedagogik jihatdan tashxis qo'yish, ularning qobiliyati va moyilligini aniqlash, bolani 6 yoshdan boshlab maktabga qabul qilish to'g'risida tavsiyanomalar berish, o'quvchilarni har yili tibbiy-pedagogik tekshirishlardan o'tkazish, bolalarga va ota-onalarga o'quvchilarni o'qitishda, tarbiyalashda va ijtimoiy moslashtirishda psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish, shuningdek, maktab o'quvchilariga, ularning qobiliyatlarini, kasb-hunarga moyilliklarini, qiziqishlarini va ko'nikmalarini hisobga

olgan holda, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejidagi ta'lim yo'nalishini tanlashga ko'maklashish maqsadida tuzilgan.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi va u orqali boshqa tashkilotlarning ilmiy-metodik rahbarligida:

— o'quvchilarning kasb-hunarga layoqat yo'nalishlari va qobiliyatlari darajasini tashxis etish ishlarini maktablarda muntazam ravishda olib borilishini;

— har bir o'quvchi haqida, uning qiziqishlari, intilish va layoqatlari, erishgan yutuq va kamchiliklari, aqliy va umumiyl rivojlanishi haqidagi ko'p yillik psixologik va pedagogik tashxis ma'lumotlari bankining tashkil etilishi, tartibga keltirilishi, maxsus daftar va dasturlar yordamida qayd etib borilishini;

— kasb-hunar klassifikatori va hududda mavjud bo'lgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha axborot to'playdi va targ'ibot qilishni tashkil etadi.

Markaz maktab pedagogika kengashi bilan birqalikda attestsatiya yakunlariga ko'ra 9-sinflarning bitiruvchilari o'qishni akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida davom ettirishi to'g'risida asosli tavsiyanomalar beradi.

Markaz yangi tashxis metodikalarining yaratilishida, sinab ko'rlishida tajriba maydonchasi vazifasini o'taydi, metodik va ommabop qo'llanmalar yaratishda ishtirok etadi.

Markaz ta'lim muassasalarining tibbiy-sanitariya holatini nazorat etadi, ularning tegishli mutaxassislar bilan ta'minlanishida xalq ta'limi va sog'liqni saqlash bo'limlari, maktablar rahbariyati bilan hamkorlik qiladi, davriy ravishda ularning hisobotlarini talab etadi, davlat va jamoatchilik tashkilotlari bilan bajarilishi lozim bo'lgan faoliyatlarni muvofiqlashtiradi.

Ta'limda iqtidorli bolalarning rivojlanishini maktab psixologlari orqali nazorat qiladi, iste'dodli deb topilgan o'quvchi-yoshlarning hududiy bankini yaratadi. Ularning ijtimoiy-oilaviy muhiti haqida ma'lumotlar yig'ishni tashkil qiladi, intellekt ko'rsatkichlarini, kasb-hunarga moyilliklarini, qiziqishlarini va ko'nikmalarini hisobga oladi, ehtiyojga qarab tegishli metodik, psixologik, tibbiy yordam usullarini qo'llaydi.

Markaz o'z hududi doirasidagi yashovchi bolalar orasidan jismonan zaif va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lganlarni nazoratga oladi, ular haqida alohida ma'lumotlar bankini yaratadi, maktab

jamoasi, ota-onalar bilan hamkorlikda ularga oilada, shuningdek tegishli maxsus ta'lif muassasalarida bilim olishlari uchun tavsiya beradi, ularga metodik, psixologik va tibbiy yordam berishni tashkil qiladi.

Maktablar va maktabdan tashqari ta'lif muassasalarida bolalar va yoshlarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda, kasbhunarga yo'naltiruvchi tadbirlarning o'tkazilishida metodik va amaliy yordam beradi, qilingan ishlar natijalarini tahlil qiladi va umumilashtiradi. O'z hududi doirasida mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni Mehnat vazirligining bo'linmasi orqali oladi, o'rganadi va zarur bo'lgan kasb-hunarlar haqida maktablardagi kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassislar bilan maxsus kechalar, suhabat va ko'rik-tanlovlari, turli musobaqalar uyuştirishda yordam ko'rsatadi.

Yilda bir marta hududdagi muktab o'quvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazishda tuman, shahar sog'liqni saqlash bo'limlari faoliyatlarini maqsadli muvofiqlashtiradi, jismonan zaif, kasal bolalarni sog'lamlashtirish ishlarining nazoratini muktab tibbiy xodimlari, ota-onalar, jamg'armalar, kasaba uyushmalari va boshqalar bilan birlgilikda amalga oshiradi.

I-IV sinflarning o'quvchilarini kasb tanlashdan hali uzoq turadilar. Biroq ular o'rtasida to'g'ri yo'lga qo'yilgan kasb tanlash ishi shunday bir negiz bo'lishi kerakki, yuqori sinflardagi o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari, o'y va niyatlarini keyinchalik shu negiz asosida rivojlanadigan bo'lsin.

Barcha kasblar uchun zarur va muhim bo'lgan shaxs xislatlari mavjud bo'lib, bular mehnatsevarlik, hamma kasb va mutaxassislikdagi mehnat ahliga nisbatan hurmat-ehtirom, mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash, o'z ishini rejalshtira va nazorat qila bilish, ish jo'yini to'g'ri tashkil qilish, ishda batartib va intizomli bo'lish, toqatlilik, sabotlilik, topshiriqni bajarishning eng oqiloni usulini tanlab ola bilish, materiallar hamda vaqtini tejash va shu kabilardir. Ana shu xislatlar va fazilatlarning hammasini bolalarda birinchi sinfdan boshlab shakllantirish lozim.

Bolalarni kasblar olamiga asta-sekin olib kirish, ularni shu olamda mo'jal olishga o'rgatish zarur. O'qituvchi o'quvchini darslarda kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba'zi bir xususiyatlarini, mayllarini payqab oladi, bu xislatlarni rivojlantirish yuzasidan tegishli ish-

larni ado etgandan keyin bular keyinchalik kasbni belgilashda asosiy omil bo'lishi mumkin.

Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o'z xususiyatlari qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak nati-jalarga erishish imkonini berishi mumkin.

Ko'pgina olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mакtab o'quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang'ich sinflardayoq shakllanar ekan. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlash va jamiyat talab-ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirish, inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Mehnat ta'limi darslari kasbga yo'naltirish ishini olib borish uchun alohida imkoniyatlarga ega. Buni mehnat darslarining kasbga yo'naltirishga qaratilgan yo'lining tahlili misolida ham ko'rish mumkin. I-IV sinflarda mehnat ta'limining asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarda inson uchun mehnat birinchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, har qanday kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat. Mehnatga muhabbatni va ishslash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. Shu boisdan ham mehnat ta'limi darslarida qariyb 80 foiz vaqt amaliy ishlar uchun ajratilgan.

Shu bilan birga darslarda o'quvchilar odamlar mehnat faoliyatining asosiy sohalari bilan, ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga oid eng ko'p tarqalgan kasblar bilan tanishtiriladi. O'qituvchi ilgari tuzgan kasbga yo'naltirish rejasiga muvofiq tarzda dars reja-konspektini yoza turib, kasbga yo'naltirish darsi oldiga maqsad qo'yib, kasbga yo'naltirishga oid ma'lumotlarni unga kiritadi. Bu esa biron-bir kasb, asbob, ishlab chiqarish texnologiyasi, muayyan mehnat operatsiyalarini o'rgatishdan, kasbiy jihatdan muhim xislatlarni tarbiyalashdan, o'quvchilarni ilgari belgilangan reja asosida o'rganishdan yoki ana shu tarkibiy qismlarning hammasini qo'shib olib borishdan iborat bo'lishi mumkin.

Quyi sinflarning o'quvchilari xilma-xil materiallar (qog'oz, karton, tabiiy materiallar, tunuka, sim, yog'och, faner, plast-

massa, tolali materiallar) bilan ish ko'radilar, ular ishlashga oid o'zlariga bop, ma'qul bo'lgan operatsiyalarni o'rganadilar. Ular texnik va texnologik tusdagi masalalarni yechishni o'rganadilar, turli materiallar hosil qilish va qo'llanish ishini, bu materialarning odamlar turmushidagi ahamiyatini bilib oladilar, u yoki bu texnologik opratsiyalarni bajarish uchun mo'ljallangan eng oddiy asboblardan foydalanish yo'llari bilan tanishadilar va foydalanishni o'rganadilar, tegishli kasblar to'g'risida ma'lumotlarni oladilar. Chunonchi, o'quvchilar (transport) konstruktorlik to'garaklarida 18 xil turli transport mashinalari va kasblari bilan tanishish imkoniga ega bo'ladilar.

O'quvchilar qurilish konstruktori bilan ishlab, qurilish kasblari, ularning muhimligi va zarurligi to'g'risida, qurilish bilan bog'liq bo'lgan odamlar mehnatining mazmuni haqida ma'lumotlar oладilar, qurilish obyektlarini modellashirishni o'rganadilar. Bu ishlar bolalarda texnik tafakkurni, makonga oid tasavvurlarni, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, ularda quruvchi mehnatiga hurmat bilan qarash hissini tarbiyalaydi.

Texnik konstruktor bilan ishlash chog'ida bajariladigan topsiriqlar o'quvchilarni mashinasozlik elekrotexnika asoslari bilan tanishtiradi, ularda texnik tafakkurni rivojlantiradi, unchalik murakkab bo'limgan texnik qurilmalarni bilib olish imkonini beradi. Bolalar mashinasozlikka oid keng tarqalgan va zarur kasblar, ana shu kasblarning mazmuni bilan tanishadilar.

«O'simliklarni o'stirish va hayvonlarning hayoti bilan tanishitish» bo'limlari bolalarni qishloq xo'jalik asoslari bilan tanishitishni ko'zda tutadi. O'quvchilar xonaki o'simliklarni parvarish qiladilar, xonaki o'simliklar yetishtirish yuzasidan tajriba o'tkazadilar. Ular maktab o'quv-tajriba uchastkasida mehnat qiladilar; tuproqni yumshatadilar, o'simliklarning o'sishini kuzatadilar, o'z mehnatining natijalarini ko'radilar, odamlar mehnatini qadrlashni, yerni e'zozlashni o'rganadilar.

O'quvchilar chorvachilik kasblari bilan ham tanishadilar, hayvonlarni to'g'ri parvarish qilishni o'rganadilar.

O'qituvchining o'quvchilarda yerga omilkorlik bilan qarash hissini shakllantirishi, qishloq xo'jaligidagi mehnat to'g'risida to'g'ri tasavvur berishi, o'z mehnati va o'z jamoasi mehnati natijalaridan xursand bo'lishni o'rgatishi muhimdir. Shu boisdan ishni shunday rejalahtirish kerakki, bolalar chorva mollarini par-

varish qiladigan, hosilni yig‘ishtirib oladigan, mehnat natijalarini hisob-kitob qiladigan bo‘lsinlar. Bunday hollarda bolalarning ishga qiziqishi kuchayadi va kasbga yo‘naltirish ishi alohida mazmun kasb etadi.

Yuqori sinflarda o‘quvchilar kasblar bilan professiogrammalar yordamida tanishadilar. Kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun esa hikoya qilib berish, suhbatlar o‘tkazish, kasb namoyondalari bilan uchrashish, diafilmlar, kinofilmlar ko‘rish, albomlarni ko‘zdan kechirish, sayohatlar o‘tkazish ko‘proq maqbuldir.

Bu sohada olib borilayotgan ishlarda ayniqlas suhbat o‘tkazish shaklidan ko‘p foydalanimoqda. Suhbat o‘quvchilarning faol ishtirokida o‘tishi muhimdir. Shu maqsadda o‘qituvchi kasblar to‘g‘risida, ayniqlas ota-onalari, qarindoshlari yoki tanish-bilishlari egallagan kasblari haqida ma’lumotlar to‘plash yuzasidan o‘quvchilarga topshiriqlar berishi mumkin. Suhbatlar hikoya qilib berish, fotosuratlarni namoyish qilish, ta’limning texnik vositalarini qo‘llash bilan to‘ldirilishi mumkin. Informatica va hisoblash texnikasi imkoniyatidan foydalinish ayniqlas muhimdir.

Darsning amaliy qismi mazkur kasbdagi odamlarning mehnati bilan bog‘lansa ayni muddao bo‘lur edi. Masalan, «Tolali materiallar bilan ishlash» bo‘limini o‘rgana turib, o‘quvchilar bichiqchi kasbi bilan tanishadilar; turli choklash ishlarini bajarib, tugmalar qadab, kiyimlarda mayda tuzatish ishlarini ado etib, rolgan ma’lumotlarini mustahkamlaydilar.

O‘quvchilarni dasturda ko‘zda tutilgan kasblar bilan tanishtirishdan tashqari kasbini targ‘ib qilish, ya’ni o‘quvchilarni ushbu hudud uchun zarur bo‘lgan kasblar bilan tanishtirish, ularda yana shu kasblarga nisbatan hurmät-ehtiromni tarbiyalash, shu kasblarning jozibali jihatlarini o‘chib berish lozim.

Bu borada darslardan tashqari o‘quv dasturida ko‘zda tutilgan korxonalarga qilinadigan ekskursiyalar katta rol o‘ynashi mumkin.

Kasbga yo‘naltirish ishiga kompleks yondashish o‘quvchilarni har tomonlama o‘rganishni ham ko‘zda tutadi. Bu tadbir o‘quvchilar bilan ishslashning to‘g‘ri shakllari va metodlarini qidirib topishga yordam beradi. O‘rganishni metodlar bilan o‘tkazish, eng muhimmi bu ishni muntazam ravishda va sobitqadamlik bilan amalga oshirish keraklidir.

Kuzatish o'quvchilarni o'rganishning keng ommalashgan metodidir. Bu metod muayyan maqsadni ko'zlaydi, ish reja asosida olib boriladi, kuzatishning yakunlovchi natijalari qayd qilinadi. Mehnat ta'limi darslari kuzatish o'tkazish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Diagnostik suhbatlar o'tkazish ham qo'llaniladi. Bunday suhbatlar yakka tartibda yoki jamoa tarzida o'tkazilishi mumkin.

Quyi sinflarda o'tkaziladigan mehnat darslarida o'quvchilar faoliyati natijalarini tahlil qilish uchun yaxshi imkoniyatlar mavjud. Chunki, mehnatning turli obyektlarini tayyorlash chog'ida har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlari g'oyat ravshan namoyon bo'ladi: bir o'quvchi texnik konstrukturlikni yaxshi biladi, ikkinchi o'quvchi esa tikishda mahorat ko'rsatadi, uchinchisi esa maktab uchastkasida o'z qobiliyatlarini namoyon etadi va h.k. O'quvchilarning hujjatlarini va amaliy ish harakatlarini tahlil qilish ham uning shaxsini o'rganishda o'qituvchiga yordam berishi mumkin.

O'quvchilarning shaxsini o'rganish ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. O'qituvchi o'quvchining alohida xususiyatlarini payqab, unda mavjud iste'dod nishonlarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvorigagi salbiy jihatlarini bartaraf etishi mumkin va h.k. Ba'zi o'quvchilarda kasbga moyililik yaxshi namoyon bo'ladi, ko'pchilik o'quvchilarda bu narsa birdaniga aniqlanmaydi. O'qituvchining o'quvchidagi iste'dod nishonalarini aniqlashi, ularning qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirishda ko'maklashishi muhimdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kasbga yo'naltirish ishi o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismidir. Quyi sinflardan boshlanadigan bu ish jamiyat uchun zarur, har bir o'quvchining xususiyatlariga mos kasblarga barqaror qiziqishini tarbiyalashga yordam beradi. Mehnatga qiziqishning mavjudligi va mehnat qilishga shaylik shaxs yetukligining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ish o'quvchilarni kasb-korni ongli ravishda tanlashga, ularni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, moddiy ishlab chiqarish, fan, texnika borasida va shu kabi sohalarda ishga qiziqishni shakllantirishga ko'p jihatdan yordam beradi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda olib borilayotgan kasbga yo'naltirish ishida o'quvchilarning yosh va bilish xususiyatlariga qarab bir necha bosqichni ko'rsatib o'tish mumkin.

Birinchi bosqichda I–IV sinflarning o'quvchilari bilan ishlash moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnatga bo'lgan ijtimoiy qiziqishlarni shakllantiradi, o'quvchilarida jismoniy mehnatga, umuman mehnatga ijobjiy munosabatda bo'lishni, eng muhimmi ishchi degan nomni hurmat qilishni, o'z qo'lidan keladigan mehnati bilan atrofdagi kishilarga quvonch bag'ishlashga va bundan ma'nnaviy qoniqish olishga intilishni shakllantiradi.

Bu boradagi ishlar oldindan tuzilgan reja asosida olib borildi. Bu rejaga muvofiq ekskursiya uyuştirish eng ommalashgan kasblar to'g'risida qishloq maktabalarining o'quvchilari uchun jamaoa xo'jaligida, shahar maktabalarining o'quvchilari uchun korxonalarda, ota-onalarning ishlari va ularning mehnatda erishgan muvaffaqiyatlarida suhbatlar tashkil qilish ko'zda tutiladi.

Ekskursiyalar chog'ida ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan odamlarning mehnatiga, xomashyodan tayyor mahsulot olishga berayotgan mehnat qurollariga asosiy e'tibor beriladi, jamiyat va ayrim odamlar turmushida mehnatning roli uqtirib o'tiladi.

Ikkinchi bosqich V–VII sinflarning o'quvchilari bilan ishlash, biron ish qilishga undaydigan bosqich. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarida bilishga bo'lgan qiziqish, odatda, kasbga bo'lgan qiziqishdan oldin shakllanadi. Shu boisdan ushbu bosqichda kasbga yo'naltirish sohasida olib borilayotgan ishda o'quvchilarida ish turlari (texnika bilan ishlash, tabiat obyektlari va shu kabilar bilan ishlash)ni bilishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish muhimdir. Kasbga yo'naltirishning ana shu bosqichida texnikaga va mehnatga (texnika ijodkorligi va qishloq xo'jalik tajribachiliga) oid sinfdan tashqari mashhg'ulotlar, viktorinalar, o'yinlar katta rol o'ynashi lozim. Bu bosqichda o'quvchilarida ijtimoiy maqsadlarning shakllanishi davom etadi, shu bilan birga kasbga yo'naltirish ham boshlanadi.

Uchinchi bosqich asosan VIII–IX sinflarning o'quvchilarini qarab oladi, bu bosqichda o'quvchilar o'z kuchlarini konkret mehnatda tekshirib ko'radilar, o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari va mayllari yanada shakllanadi. O'quvchilar bu bosqichda o'z kasbiy niyatlarini birmuncha umumiylashtirishga bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalar bilan mustahkamlaydilar. Bu bosqich konkret kasbni tanlash, uni o'zlashtirish yo'llarini belgilash bilan tugaydi. O'quvchilarning qiziqishlari (predmetlar, pred-

met-texnika, ishlab chiqarish-texnika va shu kabilar) bo'yicha to'garaklarda ishlashi ushbu bosqich uchun diqqatga sazovordir.

3. Kasbga yo'naltirishning ijtimoiy va psixofiziologik asoslari. Kasbga yo'naltirish ishini amalga oshirishning umumiy tizimida mакtab tizimi dastlabki bosqich hisoblanadi. Kasbga yo'naltirish ishi maktab tiziminining vazifalari:

- shaxsning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan fuqarolarni tarbiyalashdan;

- politexnik va boshlang'ich kasbiy malakalarning muayyan tizimini egallagan bo'lg'usi malakali mutaxassisni tayyorlashdan;

- ham shaxsiy mehnat, ham jamoa mehnati muyyan tashkilotchilik malakalarini shakllantirishdan iborat.

Kasb egallahsgacha bo'lgan tayyorgarlik maktab yoshlarini moddiy ishlab chiqarsh sohasida mehnatga hozirlashning umumiy qismi bo'lib qoladi. Zarur politexnik tayyorgarlikni olgan yigit yoki qiz ishlab chiqarish kasbini tez egallaydi, bunda o'rta maxsus yoki oliy ma'lumot olish jarayoni jadallahshadi.

O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash butun pedagoglar jamoasining, ota-onalar va zavod jamoatchiligining ko'p yillik ta'lim-tarbiya ishidir. Yoshlarni ma'naviy-psixologik jihatdan mehnat faoliyatiga tayyorlashga shaxsni har tomonlama kamol toptirishning o'zaro bog'liq jarayoni deb qaraladi, bu jarayonda qobiliyat va e'tiqod bilan birga o'smirning shaxsi harakatlanti-ruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Qobiliyat va qiziqishlarni shakllantirishning politexnik asoslari va maktab yoshlarini boshlang'ich ishlab chiqarish tayyorgarligini kengaytirish bilan uzviy bog'liq bo'lishi ishchi kasblarini egallahsha yo'naltirishning hal qiluvchi shartidir.

Mehnat tarbiyasi jarayoni birmuncha ilk bosqich amalga oshirilgan taqdirda bunga erishiladi.

O'rta va yuqori bosqich ta'limida davomiylik shu narsada ifodalananadiki o'quvchilar muntazam prinsip asosida tuzilgan yagona dasturlar bo'yicha ishlaydilar. Bunday dasturlar asta-sekin murakkablashtirilib borilishi bilim, ko'nikma va malakani, mehnatning muayyan usullarini egallahni ta'minlaydi.

Ta'lim va kasbga yo'naltirish bilan qo'shilgan unumli mehnatda muntazam qatnashish eng ko'p pedagogik samara beradi.

O'rta maktablarni tamomlab yoki kasb-hunar ta'limi tizimda, o'quv kombinatlarida zarur tayyorgarlikdan o'tib, xalq xo'ja-

ligining turli tarmoqlarida darhol ishlay boshlagan yoshlarning soni yil sayin ko'payib bormoqda.

Maktabda kasbga yo'naltirish sohasidagi hamma ishlarning bir-biriga muvofiqlashtirilishini ta'minlash maqsadida maktab direktori raisligida Kasbga yo'naltiruvchi kengash tuziladi.

Kengash tarkibiga maktab direktorining tarbiyaviy ishlar bo'yicha muovini, kasbga yo'naltiruvchi o'quv-metodik kabinet mudiri, mehnat ta'limi, o'quvchilarning ijtimoiy-foydali, unumli mehnatini kasbga yo'naltiruvchi o'qituvchi yoki tashkilotchi, bitiruvchi sinflarning sinf rahbari, maktab kutubxonachisi, maktab o'quvchilar tashkilotining vakillari, maktab врачи, ota-onalar qo'mitasining a'zolari, homiy korxona vakillari kiradi.

Kasbga yo'naltiruvchi kengashning ish rejasini maktab kengashi ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi.

Kasbga yo'naltiruvchi kengashning vazifalari kasbga yo'naltirish bo'yicha umummaktab va sinflarning tadbirlarini rejalahitirish va tashkil qilishdan, kasbga yo'naltirish ishiga oid ilg'or tajriba ma'lumotlarini yig'ish, umumlashtirish va ommalashtirishdan iborat. Kasbga yo'naltiruvchi kengash tuman maktablararo o'quvishlab chiqarish kombinatlari, yoshlarni kasbga yo'naltirish va ishga joylashtirish komissiyasi, kasb-hunar ta'limi tizimidagi ta'lim muassasalari, bazaviy korxonalar va tashkilotlar, o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqa bog'lab turadi.

Kasbga yo'naltirish ishi rejalahitirilgan chog'da kengash mahalliy sharoitlarni va maktab ishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Kengashning kasbga yo'naltirish ish rejasini maktab ta'lim-tarbiya ishi umummaktab rejasining tarkibiy qismidir.

Kasbga yo'naltirish kengashining majlislariga muassasalar, homiy korxona, oliv o'quv yurtlarining vakillari, balog'atga yetmaganlar ishi bo'yicha komissiya a'zolari mehnat resurslaridan foydalanish o'rganlarining vakillari taklif qilinadilar.

O'quvchilarни kasbga yo'naltirish ishlini o'tkazgan chog'da maktab xodimlari va maktab ma'muriyatining vazifalari o'quvchilarни kasbga yo'naltirishga oid yo'riqnomalar, buyruqlar, qarorlar bilan tanishishdan, ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganishdan, chiqarilgan metodik tavsiyanomalarni o'rganish va o'z ishlarida foydalanishdan iborat.

Sinf rahbarining vazifalari avvalo o'quvchining shakllanayotgan shaxsini, uning mayllari, qiziqishlari, qobiliyatlarini chuqur va har tomonlama o'rganishdan iborat. Bu sohada unga fan o'qituvchilari, ota-onalar bilan savol varaqasini to'ldirish va o'quvchining shaxsiy varqa-tavsifnomasini to'ldirgan holda uni muntazam ravishda kuzatish yordam beradi. Sinf rahbari o'quvchining shaxsini o'rganish negizida muayyan dastur asosida bir maqsadga qaratib kasbga yo'naltirish ishini olib boradi. Bunda sind soatlardan, fakultativ mashg'ulotlardan va ekskursiyalardan foydalaniladi. Kasbga yo'naltirish ishi o'quvchilarning ota-onalari bilan mustahkam aloqada o'tkaziladi.

O'quvchilar yiliga bir marta savol varaqasini to'ldiradi. Bunda maqsad o'quvchilarning hayotiy rejalarini aniqlab olishdir. Sinf rahbarlari savol varaqasi asosida o'quv yili oxirida kasbga yo'naltiruvchi mактаб kengashiga topshirish uchun u yoki bu kasbni ongli ravishda tanlagan yoki zarur malaka darajasi bo'yicha kasb egallagan hamda o'qish va ish xususidagi o'z istaklarini bildirgan o'quvchilarning ro'yxatlarini tuzadi.

O'quvchilar mehnat ta'limi darslarida mehnatning har xil turlariga oid bilimlarnigina olib qolmay, shu bilan birga o'z faoliyatları jarayonida maxsus malakalarga ham ega bo'ladilar, o'z qobiliyatlarini rivojlantiradilar, mehnatda o'z kuchlarini sinab ko'radilar. Shu boisdan mehnat ta'lim o'qituvchisi mehnat darsini shunday tashkil qilishi kerakki, toki har bir o'quvchi mehnatni sevishni o'rganib olsin, odamlarga naf keltiradigan bo'lsin, ish jarayonidan va uning natijalaridan zavqlansin.

Mehnat o'qituvchisi o'z ishida bilim va malakani egallashda o'quvchilarga eng ko'p faollik va mustaqillikni ta'minlaydigan shakllari va metodlaridan foydalanishi lozim. Amaliy laboratoriya, o'quv-ishlab chiqarish ishlari, ishlab chiqarish ekskursiyalari, tajribasi shunday ish shakllari va metodari jumlasiga kiradi. Bu ishlar mustaqil kuzatishlar, tajribalar, tahlillar, hisob-kitoblar, ishlab chiqarish va ijodiy vazifalarni hal qilishni hamda bevosita ijtimoiy-foydali, unumli mehnatni o'z ichiga oladi.

Mehnat ta'limi jarayonida o'qituvchi kasb qilib olingan mehnat to'g'risidagi ma'lumotlarni konkret mavzularni o'rganish bilan mantiqiy bog'lashi mumkin. Chunonchi, elekrotexnika fizikasi bo'limini o'rgangan chog'da o'qituvchi xalq xo'jaligida elektr quvvatining roli va ahamiyatini, uni ishlab chiqarish ham-

da iste'molchiga yetkazib berish usullarini ko'rsatishi, shuningdek ushbu tarmoq kasblari uchta katta guruhda bo'linishini tushuntirib berish mumkin. Birinchi guruhga elektrotexnika uskulnalar, mashinalari, apparatlari va asboblarini ishlab chiqarish bilan bog'liq kasblar (elektrotexnika mashinalarini yig'uvchi slesar, sozlovchi slesar, elektrömontyor, izolyatsiya qiluvchi va shu kabilar); ikkinchi guruhga elektr quvvati uzatish bilan bog'liq kasblar (podstansiyalarning elektromontyori, elektr tarmoqlarini ishlatuvchi elektromontyor va shu kabilar); uchinchi guruhga elektr quvvatidan foydalanish bilan bog'liq kasblar (elektromontajchi slesar, ta'mirchi elektromontyor va shu kabilar) kiradi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda o'qituvchining shaxsi juda katta rol o'ynaydi.

O'qituvchining shaxsi o'qituvchining ijodiy rivojlaniшини, yuskak pedagogik mahoratini, ishda doimiy novatorligini, omilkorligini, bolalarga nisbatan muhabbat va hurmatini belgilab beradigan xislatlar majmuidir. Ayni shunday o'qituvchi o'quvchilarda o'ziga nisbatan hurmat-ehtirom, ishga havas tug'diradi, o'ziga o'xshash bo'lish, u bilan do'stlashish eng ezgu istaklar, istiqbol to'g'risidagi, o'z kasbi haqidagi orzularni baham ko'rish ishtiyoyqini yaratadi.

Maktabda qiziqishlar bo'yicha o'tkaziladigan xilma-xil mashg'ulotlar orasida to'garak ishi alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabda asosiy to'garak mashg'ulotlarini mehnat ta'limi o'qituvchilari olib boradi.

Bular ishlab chiqarish-texnika to'garaklaridir. O'qituvchi bunday to'garaklarda o'quvchilarda ixtirochilik, konstruktorlik singari maxsus qobiliyatlarni ijodiy rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatiga ega.

Mehnat ta'lrim o'qituvchisi o'quvchi shaxsini o'rgangan chog'da kasbga yo'naltirish maqsadida quyidagi qoidalarga: shaxs kamol topadigan konkret vaziyatda konkret jamoada shaxsning xulq-atvorini kuzatish; faoliyat orqali shaxsni o'rganish; shaxsni qandaydir qotib qolgan narsa tariqasida emas, balki taraqqiyotda ko'rib chiqish; shaxsning vaqtincha psixologik holatini, o'rtoqlariga munosabatini hisobga olish kabi qoidalarga amal qilishi maqsadga muvofiqdir.

Mehnat ta'limi o'qituvchisining ishida psixologik diagnostika kaga katta o'rin ajratiladi. Psixologik diagnostika jarayonida u

maktab, kasb-hunar kolleji kasb maslahatchisi bilan birligida har bir o'quvchining kelgusidagi kasbni tanlashi jarayonida shaxsiy xususiyatlarini aniqlashi mumkin.

Shunday qilib, mehnat ta'limi o'qituvchisi ishida quyidagi yo'nalishlarni:

- kasbga oid bilimlar — o'quvchilarni mehnat faoliyatini sohalari, xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlari, kasblar va mutaxassisliklar bilan tanishtirish;

- psixologik pedagogik maslahat — mehnat faoliyatining turлari to'g'risida, o'quvchi xislatlari, bilimlari va mayllariga eng muvofiq bo'lgan kasblar va mutaxassisliklar haqida o'quvchiga gapirib berish;

- kasb tarbiyasi — o'quvchilarda u yoki bu kasbga nisbatan barqaror qiziqishlarini shakllantirish;

- amaliy kasbiy ko'nikish — mehnat faoliyatining turli sohalarida kuchlarni amaliy jihatdan sinab ko'rish uchun shartsharoitlar yaratish;

- kasbga yo'naltirish maqsadida o'quvchining shaxsini o'r ganish, mehnatga bo'lgan qiziqishlarni va kasbga qiziqishlarni shakllantirish kabi yo'nalishlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Mehnat ta'limi o'qituvchisining kasbga yo'naltirish ishi o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarning butun bir kompleksi bilan, shu jumladan kasbga yo'naltiruvchi o'quv-metodik kabinet faoliyati, sinf rahbarining, fan o'qituvchilarining ishi, ota-onalar va shu kabilalar bilan mahkam bog'langandir. Mehnat o'qituvchisi bular bilan yaqindan aloqa bog'lamay turib samarali ishlashi mumkin emas.

Mehnat ta'limi darslarida kasbga yo'naltirish ishini olib borgan o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi boshqa fanlar bilan o'zaro aloqani ham hisobga olish lozim.

Maktabda har bir o'quv fani o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni amalga oshirishdagi o'ziga xos imkoniyatlariga ega, lekin u mehnat turlari, kasblarning xilma-xilligi va shu kabilalar to'g'risida o'quvchilar bilimlarini shakllantirishning birdan-bir manbai bo'lishi mumkin emas. Shu sababdan ham kasbga yo'naltirish ishida mehnat o'qituvchisining faoliyatini sinf rahbarlari va fan o'qituvchilari ishi bilan muvofiqlashtirish g'oyat muhimdir.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda kasbga bo'lgan barqaror qiziqishni shakllantirish ishlari samaradorligini oshirish uchun:

- fan asoslarini o‘qitishning, mehnat ta’limining va fakultativ mashg‘ulotlarning fanlararo aloqalarini, davomiyligini, politexnik va kasbga yo‘naltirish yo‘nalishini ro‘yobga chiqarish;
- politexnik ma‘lumot, mehnat ta’limi va kasbga yo‘naltirishning o‘quvchilar ijtimoiy-foydali, unumli mehnati bilan o‘zaro aloqasini ta’minalash;
- o‘quvchilarning bir maqsadga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatli o‘quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishlari;
- xalq xo‘jaligining turli sohalarida o‘quvchilarning qiziqishi-ni rivojlantirishga shaxsiy, tabaqaqlashtirilgan yondashuvni amalga oshirish;
- o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish sohasida maktab o‘qituvchilari bilan ishlab chiqarish jamoalarining birligida ish ko‘rishi;
- sanoat, qishloq xo‘jalik kasblarini targ‘ib qilishi lozim.

Tabiiy matematik turkum fanlarni o‘rgangan chog‘da o‘quvchilar konkret iqtisodiy hududdagi yetakchi kasblar bo‘yicha mehnat mazmuni bilan tanishish, ana shu kasblarni muvaffaqiyatlari egallash uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni olish imkoniyatiga egadirlar.

Maktab o‘quvchilari gumanitar fanlar bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda kasb tanlash masalalarida g‘oyaviy-axloqiy dunyoqarashga oid bilim oladilar.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning qanday shakllarini bilasiz?
2. Kasb tanlashga yo‘naltirishda samarali metodlardan foy-dalanish afzalliklari.
3. Kasbga yo‘naltirishda nechta bosqich bor va mazmuni ni-malardan iborat?
4. Kasbga yo‘naltirishning ijtimoiy va psixofiziologik asoslari.

9.2. Kasbga yo‘naltirish ishining maktab sistemasi

Reja:

1. O‘qituvchining shaxsi, fan o‘qituvchilari, sinf rahbari, o‘quv ishlari bo‘yicha ilmiy mudirning kasb tanlashdagi roli.
2. O‘quv muassasalarida kasb tanlashga yo‘llash uslubiyoti.

3. Kasb tanlashga yo'llash komissiyalarini tashkil qilish; o'qituvchilar bilan metodik ishlarni tashkil qilish, o'quvchilar bilan ishslash, ota-onalar bilan ishslash.

Tayanch iboralar: Fan o'qituvchisi shaxsi, sinf rahbari, qobiliyat va qiziqish, kasblar va mutaxassisliklar, psixologik-pedagogik maslahat, mehnat faoliyati, bilimlari va mayllar, kasb tarbiyasi, amaliy kasbiy ko'nikish, tashxis markazlari.

1. O'qituvchining shaxsi, fan o'qituvchilari, sinf rahbari, o'quv ishlari bo'yicha ilmiy mudirning kasb tanlashdagi roli.

Kasbga yo'naltirish ishini amalgalashishning umumiy bosqichida maktab tizimi dastlabki bosqich hisoblanadi.

Kasbga yo'naltirish ishi maktab jamoasining vazifalaridan:

- shaxsnинг ма’нан yetuk, yuksak ма’naviy-axloqiy fazilat-larga ega bo’lgan fuqarolarni tarbiyalashdan;
- boshlang‘ich kasbiy malakalarning muayyan darajasini egalagan bo’lg‘usi malakali mutaxassisni tayyorlashdan;
- ham shaxsiy mehnat, ham jamaoa mehnati muayyan tashkilotchilik malakalarini shakllantirishdan iborat.

Kasb egallashgacha bo’lgan tayyorgarlik maktab yoshlarini moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnatga hozirlashning umumiy qismi bo’lib qoladi. Zarur politexnik tayyorgarlikni olgan yigit yoki qiz ishlab chiqarish kasbini tez egallaydi, bunda kasbhunar ta’limi tizimining keyingi hamma bosqichlarida kasbiy ma’lumot yoki oliy ma’lumot olish jarayoni jadallahadi.

O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash butun pedagoglar jamoasining, ota-onalar, tashkilot va korxonalar jamoatchiligining ko'p yillik ta'lim-tarbiya ishidir. Yoshlarni ma’naviy-psixologik jihatdan mehnat faoliyatiga tayyorlashga shaxsni har tomonlama kamol toptirishning o'zaro bog'liq jarayoni deb qaraladi, bu jarayonda qobiliyat va e'tiqod bilan birga o'smirning shaxsi harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Qobiliyat va qiziqishlarni shakllantirishning politexnik asoslari va maktab yoshlari boshlang‘ich kasbiy tayyorgarligini ken-gaytirish bilan uzviy bog'liq bo'lishi ishchi kasblarini egallashga yo'naltirishning hal qiluvchi shartidir.

Ta’lim va kasbga yo'naltirish bilan qo'shilgan unumli mehnatda muntazam qatnashish eng ko'p pedagogik samara beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarini tamomlab yoki kasb-hunar kollej ta'limi tuzilmasida, o'quv texnik markazlarida zarur tay-yorgarlikdan o'tib, ishlab chiqarish sohalarida darhol ishlay bosh-lagan yoshlarning soni yil sayin ko'payib bormoqda.

Maktabda kasbga yo'naltirish sohasidagi hamma ishlarning bir-biriga muvofiqlashtirilishini ta'minlash maqsadida mактаб rahbari raisligida kasbga yo'naltiruvchi kengash tuziladi.

Kengash tarkibiga mактаб rahbarining tarbiyaviy ishlar bo'yicha muovini, kasbga yo'naltiruvchi o'quv-metodik xona mudiri, psixolog, mehnat ta'limi o'qituvchisi va boshqalar kiradi. O'quvchilarning ijtimoiy-foydali, unumli mehnatini kasbga yo'naltiruvchi shaxslar qatoriga o'qituvchi yoki tashkilotchi, bitiruvchi sinflarning sinf rahbari, mактаб kutubxonachisi, mактаб o'quvchilar tashkilotining vakillari, mактаб vrachi, ota-onalar qo'mitasining a'zolari, hokimiyat va xalq ta'lim bo'limganlari, tashxis markazlari vakillari kiradi.

Kasbga yo'naltiruvchi kengashning vazifalari kasbga yo'naltirish bo'yicha umummaktab va sinflarning tadbirlarini rejalashtirish va tashkil qilishdan, kasbga yo'naltirish ishiga oid ilg'or tajriba ma'lumotlarini yig'ish, umumlashtirish va ommalash-tirishdan iborat. Kasbga yo'naltiruvchi kengash tuman o'quv texnik markazlari, xalq noiblari tuman hokimiyati huzuridagi yoshlarni kasbga yo'naltirish va ishga joylashtirish komissiyasi, kasb-hunar kollejlarning ta'limi tuzilmasidagi o'quv muassasalar, korxonalar va tashkilotlar, o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqa bog'lab turadi.

Kasbga yo'naltirish ishini rejalaشتirган chog'da kengash mahalliy sharoitlarni va mактаб ishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Kengashning kasbga yo'naltirish ish rejasidi mактаб ta'lim-tarbiya ishi umummaktab rejasining tarkibiy qismidir.

Kasbga yo'naltirish kengashining majlislariga tuman o'quv texnik markazlari xodimlari, muassasalar, yaqin joylashgan korxona, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarining vakillari, balog'atga etmaganlar ishi bo'yicha komissiya a'zolari va mehnat resurslaridan foydalanish organlarining vakillari taklif qilinadilar.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishini o'tkazgan chog'da mактаб xodimlari va mактаб ma'muriyatining vazifalari o'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid yo'riqnomalar, buyruqlar, qarorlar bilan

tanishishdan, ilmiy-metodik adabiyotni o'rganishdan, chiqarilgan metodik tavsiyanomalarni o'rganish va o'z ishlarida foydalanishdan iborat.

Sinf rahbarining vazifalari avvalo o'quvchining shakllanayotgan shaxsini, uning mayllari, qiziqishlari, qobiliyatlarini chuqur va har tomonlama o'rganishdan iborat. Bu sohada unga fan o'qituvchilari, ota-onalar bilan suhbatlar, savol varaqasini to'ldirish va o'quvchining shaxsiy tavsifnomasini to'ldirgan holda uni muntazam ravishda kuzatish yordam beradi. Sinf rahbari o'quvchining shaxsini o'rganish negizida muayyan dastur asosida bir maqsadga qaratib kasbga yo'naltirish ishini olib boradi. Bunda dars soatlardan, fakultativ mashg'ulotlardan va ekskursiyadan foydalanadi. Kasbga yo'naltirish ishi o'quvchilarining ota-onalari bilan mustahkam aloqada o'tkaziladi.

O'quvchilar yiliga bir marta savol varaqasini to'ldiradi. Bunda maqsad o'quvchilarining hayotiy rejalarini aniqlab olishdir. Sinf rahbarlari savol varaqasi asosida o'quv yili oxirida kasbga yo'naltiruvchi maktab kengashiga topshirish uchun u yoki bu kasbni ongli ravishda tanlagan yoki zarur malaka darajasi bo'yicha kasb egallagan hamda o'qish va ish xususidagi o'z istaklarini bildirgan 9-sinf o'quvchilarining ro'yxatlarini tuzadilar.

O'quvchilar mehnat ta'limi darslarida mehnatning har xil turlariga oid bilimlarnigina olib qolmay, shu bilan birga o'z faoliyatlarini jarayonida maxsus malakalarga ham ega bo'ladilar, o'z qobiliyatlarini rivojlantiradilar, mehnatda o'z kuchlarini sinab ko'radir. Shu boisdan mehnat ta'limi o'qituvchisi mehnat darsi ni shunday tashkil qilishi kerakki, toki har bir o'quvchi mehnatni sevishni o'rganib olsin, odamlarga naf keltiradigan bo'lsin, ish jarayonidan va uning natijalaridan zavqlansin.

Mehnat o'qituvchisi o'z ishida bilim va malakani egallashda o'quvchilarga eng ko'p faollik va mustaqillikni ta'minlaydigan ish shakllari va metodlaridan foydalanishi lozim. Amaliy laboratoriya, o'quv-ishlab chiqarish ishlari, ishlab chiqarish ekskursiyalari, ishlab chiqarish tajribasi shunday ish shakllari va metodlari jumlasiga kiradi. Bu ishlar mustaqil kuzatishlar, tajribalar, tahlillar, hisob-kitoblar, ishlab chiqarish va ijodiy vazifalarni hal qilishni hamda bevosita ijtimoiy-foydali, unumli mehnatni o'z ichiga oлади (yuqorida aks ettirilgan bobda bu haqida batafsil ma'lumot berilgan).

Mehnat o‘qituvchisi mehnat ta’limi jarayonida kasb qilib olin-gan mehnat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aniq mavzularni o‘rganish bilan mantiqiy bog‘lashi mumkin. Chunonchi, fizika fanining elektrotexnika bo‘limini o‘rgangan chog‘da o‘qituvchi elektr quvvatining ahamiyatini, uni ishlab chiqarish hamda iste’molchiga yetkazib berish usullarini ko‘rsatishi, shuningdek ushbu tarmoq kasblari uchta katta guruhga bo‘linishini tushuntirib berishi mumkin. Birinchi guruhga elektrotexnika uskunalarini, mashinalari, apparatlari va asboblarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq kasblar (elektrotexnika mashinalarini yig‘uvchi slesar, sozlovchi slesar, o‘rovchi elektromontyor, izolyatsiya qiluvchi va shu kabilar); ikkinchi guruhga elektr quvvatini uzatish bilan bog‘liq kasblar (podstansiyalarning elektromontyori, elektr tarmoqlarini ishlatuvchi elektromontyor va shu kabilar); uchinchi guruhga elektr quvvatidan foydalinish bilan bog‘liq kasblar (elektromontajchi slesar, ta’mirchi elektromontyor va shu kabilar) kiradi.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda o‘qituvchining shaxsi juda katta ahamiyat kasb etadi.

O‘qituvchi shaxsi o‘qituvchining ijodiy rivojlanishini, yuksak pedagogik mahoratini, ishda doimiy fidokorligini, omilkorligini, bolalarga nisbatan muhabbat va hurmatini belgilab beradigan xislatlar majmuidir. Ayni shunday o‘qituvchi o‘quvchilarda o‘ziga nisbatan hurmat-ehtirom, ishga havas tug‘diradi, o‘ziga o‘xshash bo‘lish, u bilan do‘splashish va eng ezgu istaklar, istiqbol to‘g‘risidagi, o‘z kasbi haqidagi orzularni baham ko‘rish ishtiyoqini yaratadi.

Maktabda qiziqishlar bo‘yicha o‘tkaziladigan xilma-xil mashg‘ulotlar orasida to‘garak ishi alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda to‘garaklarning asosiy ko‘pchiligini mehnat ta’limi o‘qituvchilari olib boradi. Bular ishlab chiqarish texnika to‘garaklaridir. O‘qituvchi bunday to‘garaklarda o‘quvchilarda ixtirochilik, konstrukturlik singari maxsus qobiliyatlarni ijodiy rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatiga ega.

Mehnat ta’limi o‘qituvchisi o‘quvchi shaxsini o‘rgangan chog‘da kasbga yo‘naltirish maqsadida quyidagi qoidalarga: shaxs kamol topadigan ijodiy vaziyatda, jamoada shaxsning xulq-atvori ni kuzatish; faoliyat orqali shaxsni o‘rganish; shaxsni qandaydir qotib qolgan narsa tariqasida emas, balki moslanuvchan darajada

ko‘rish; shaxsning vaqtincha psixologik holatini, o‘rtoqlariga munosabatini hisobga olish kabi qoidalarga amal qilishi maqsadga muvofiqdir.

Mehnat ta’lim o‘qituvchisining ishida psixologik tashxisga katta o‘rin ajratiladi. Psixologik tashxis jarayonida u maktab, kasb-hunar kollejlari dagi kasb maslahatchisi bilan birgalikda har bir o‘quvchining kelgusidagi kasbni tanlashi jarayonida shaxsiy xususiyatlarini aniqlashi mumkin.

Shunday qilib, mehnat ta’limi o‘qituvchisi ishida quyidagi yo‘nalishlarni:

- kasb ta’limi — o‘quvchilarni mehnat faoliyat sohalari, ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlari, kasblar va mutaxassisliklar bilan tanishtirish;

- psixologik-pedagogik maslahat — mehnat faoliyatining turлari to‘g‘risida, o‘quvchi xislatlari, bilimlari va mayllariga eng muvofiq bo‘lgan kasblar va mutaxassisliklar haqida o‘quvchiga gapirib berish;

- kasb tarbiyasi — o‘quvchilarda u yoki bu kasbga nisbatan barqaror qiziqishlarni shakllantirish;

- amaliy kasbiy ko‘nikish — mehnat faoliyatining turli sohalarida kuchlarni amaliy jihatdan sinab ko‘rish uchun shartsharoitlar yaratish;

- kasbga yo‘naltirish maqsadida o‘quvchining shaxsini o‘rganish, mehnatga bo‘lgan qiziqishlarini va kasbga qiziqishlarini shakllantirish kabi yo‘nalishlarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

2. O‘quv muassasalarida kasb tanlashga yo‘llash uslubiyoti.

Mehnat ta’limi o‘qituvchisining kasbga yo‘naltirish ishi o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlarning butun bir jamoa bilan, shu jumladan kasbga yo‘naltiruvchi o‘quv metodik xona faoliyati, sinf rahbarining, fan o‘qituvchilarining ishi, ota-onalar va shu kabilar bilan mahkam bog‘langandir. Mehnat o‘qituvchisi bular bilan yaqindan aloqa bog‘lamay turib samarali ishlashi mumkin emas.

Mehnat ta’limi darslarida kasbga yo‘naltirish ishini olib bor-
gan o‘quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqasini ham hisobga olish lozim.

Maktabda har bir o‘quv fani o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishni amalga oshirishda o‘ziga xos imkoniyatlarga ega, lekin u mehnat turlari, kasblarning xilma-xilligi va shu kabilar to‘g‘risida o‘quvchilar bilimlarini shakllantirishning birdan-bir manbai

bo'lishi mumkin emas. Shu sababdan ham kasbga yo'naltirish ishida mehnat o'qituvchisining faoliyatini sinf rahbarlari va fan o'qituvchilari ishi bilan muvofiqlashtirish g'oyat muhimdir.

Tajriba shuni ko'ssatadiki, o'quvchilarda kasbga bo'lgan barqaror qiziqishni shakllantirish ishlari samaradorligini oshirish uchun:

— fan asoslarini o'qitishning, mehnat ta'limining va qo'shima-cha mashg'ulotlarning fanlararo aloqalarini, davomiyligini va kasbga yo'naltirish yo'nalishini royobga chiqarish;

— mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirishning o'quvchilar ijtimoiy-foydali, unumli mehnati bilan o'zaro aloqasini ta'minlash;

— o'quvchilarning bir maqsadga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatli o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishlari;

— ishlab chiqarishning turli sohalarida o'quvchilarning qiziqishini rivojlantirishga shaxsiy tabaqa lashtirilgan yondashuvni amalga oshirishi;

— o'quvchilarni kasbga yo'naltirish sohasida mакtab o'qituvchilari bilan ishlab chiqarish jamoalarining birgalikda ish ko'rishi;

— sanoat va qishloq xo'jalik kasblarini targ'ib qilishi lozim.

Tabiiy matematik turkum fanlarni o'rgangan chog'da o'quvchilar iqtisodiy tumandagi yetakchi kasblar bo'yicha mehnat mazmuni bilan tanishish, ana shu kasblarni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni olish imkoniyatiga egadirlar.

Maktab o'quvchilari gumanitar fanlar bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarda kasb tanlash masalalarida g'oyaviy, ma'naviy-axloqiy, dunyoqarashga oid bilim oladilar.

Fan o'qituvchisi ongli ravishda kasb tanlashda o'quvchilarga yordam berish uchun ularni mehnat va kasblarning har xil turlari bilan tanishtirishi; o'quvchilarning mayli, xususiyatlari va kasbga qiziqishlarini o'rganishi, ularda kasb tanlashning ijtimoiy jihatdan ahamiyatli sabablarini shakllantirishi, bilim olishni davom ettirish va ishga joylashish bilan bog'liq masalalar yuzasidan ularga maslahatlar berishi zarur. O'z fani doirasida kasbga yo'naltirish ishini olib borish uchun fan o'qituvchisining o'zi tegishli nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.

Nazariy tayyorgarlik avvalo, kasbga yo'naltirish maqsadlari, vazifalari va yo'llarini, muayyan fanni, kasbga yo'naltirishning

psixologik-pedagogik asoslarini, o'qitish sharoitida uni amalga oshirish metodlarini bilib olishdan iborat.

O'quv jarayonida kasbga yo'naltirish vazifalariga muvofiq fan o'qituvchilari uchun ish bosqichlari quyidagicha:

— dasturda kasbga yo'naltiruvchi mazmunni kiritish maqsadga muvofiq bo'lgan mavzularni belgilash;

— u yoki bu mavzu mazmuniga eng mos bo'lgan kasbga yo'naltiruvchi matnni berish shakllarini belgilash, tegishli ko'r-gazmali qurollar, videolavhalar tanlash;

— ishlab chiqarish tarmoqlari to'g'risidagi va mazkur fanga oid mehnat bilan bog'liq asosiy kasblar haqidagi adabiyotni o'rganish. Bunda o'z iqtisodiy tumanidagi kasblarni o'rganishga alohida e'tibor berilishi kerak.

Darslarda o'quvchilarni tanishtirish mumkin bo'lgan kasblar ro'yxatini aniqlab olish:

— o'quvchilarning qiziqishlari va mayllarini o'rganish, bularni o'quvchilar va sinf rahbarlari bilan birga muhokama qilish, nati-jalarini qayd qilish;

— o'quvchilarda o'rganilayotgan fanga va u bilan bog'liq kasblarga qiziqish va havasni shakllantirish maqsadida ular bilan individual ishlarni muntazam ravishda olib borish;

— mактабда kasbga yo'naltirish xonasidagi mazkur fanini o'rganish bilan bog'liq kasblarga oid materiallarni yangilab turish;

— kasbga yo'naltirishga, pedagogikaga va shaxs psixologiyasiga oid, uni o'rganish metodlariga doir o'z bilimlarini chuqurlashtirish bosqichlarini ko'rsatish mumkin.

Mehnat o'qituvchisi, sinf rahbari va fan o'qituvchilari birgalikda ishlashining asosiy maqsadi shuki, o'quvchilar bilan guruhli va ja-moaviy ish olib borishning turli shakllari va metodlaridan foydalangan holda, iqtisodiy tumanlarning talab-ehtiyojlarini hisobga olib, o'quvchilarni kasblarni asoslangan tarzda tanlashga tayyorlashdir.

Shuning uchun ham kasbga yo'naltirishga oid ishni o'z tuman ni iqtisodiyotini o'rganishdan, korxona va tashkilotlarning xodimlarga bo'lgan talab-ehtiyojlarini, maxsus ma'lumot olish imkoniyatlarini o'rganishdan boshlash maqbuldir. Ayni vaqt da o'quvchilarni mehnat faoliyatining muayyan turlari bilan, kasblar bilan tanishtirish, shuningdek, o'quvchilarning mehnatga va kasbga bo'lgan qiziqishlarini hamda niyatlarini shakllantirish

imkoniyatlarini aniqlash maqsadida o‘quv fanlarining dasturini tahlil qilish lozim.

Bu sohada o‘qituvchiga professiografik varaqchalar katta yordam berishi mumkin, bu varaqchalar quyidagi-cha tuzilgan: Sinf	Fan	Dars mavzusi	O‘qituvchi o‘quvchilarini tanishtiradi-gan tarmoq kasb (mutaxassislik)	Kasblar to‘g‘risidagi axborotning qisqacha mazmuni
--	-----	--------------	--	--

Biroq mutaxassislar tuzgan kasb tasniflarini hamma vaqt ham topib bo‘lmaydi. Shu boisdan har bir o‘qituvchi kasbga yo‘naltiruvchi materialni tanlash metodikasini egallashi zarur. Buni quyidagi sxema, ya’ni:

- o‘quvchilarning diqqat-e’tibori qaratilishi lozim bo‘lgan o‘quv dasturlari va maktab darsliklarini o‘rganish va tahlil qilish;
- kasb-malaka tavsifnomalarini, kasbga tayyorlash dasturlarini o‘rganish va tahlil qilish;
- korxonalar, tashkilotlar va ilg‘or novatorlarning ish tajriba-sini o‘rganish;
- mehnat ta’limi maktab dasturlarini tahlil qilish asosida ba-jarish mumkin.

Professiografik varaqchalar o‘quv fanlari bo‘yicha tavsiflanadi. Bunday varaqchalarni eng tajribali o‘qituvchilar (mehnat ta’limi, fan o‘qituvchilari) tuzadilar. Bunday materiallar o‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi asosida doimo to‘ldiriladi, takomillashtiriladi, bu esa har bir o‘qituvchiga ish stajidan qat’i nazar kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish, uni o‘rganilayotgan fanlar mazmuni bilan rejali ravishda va uzziy bog‘lash imkonini beradi.

O‘qituvchi o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish sohasidagi asosiy isjni darsda olib boradi. U darsda:

- o‘quvchilarga eng ommaviy kasblar to‘g‘risida muayyan bilimlar beradi, kasblarning ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik va psixologik jihatlarini ochib beradi;
- o‘quvchilarga tanlangan kasblarni egallah yo‘llari to‘g‘risida, o‘quv muassasalarini, ixtisos beradigan kasblar, o‘qish muddat-lari, kasbiy o‘sish istiqbollari va shu kabilar yuzasidan ma’lumot-lar beradi;

— jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy talablarini anglashga, shuningdek o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini bilishga tayanadigan barqaror kasbga qiziqishlarni va to'g'ri asoslangan kasbiy niyatlarini shakllantiradi.

Kasbga yo'naltirish ishini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan professiografik materiallarni tanlashning asosiy mezonlari ana shu prinsiplardan kelib chiqadi. Bu asosiy mezonlar quyidagilaridan iborat:

1. *Mezonning ilmiyligi*. Bu mezonning mohiyati shundan iboratki, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish mazmunida ijtimoiy va ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari, shuningdek faoliyatning har xil turlari uchun sharoitlar yaratish hamda politexnik bilimlarni va umummehnat malakalarini shakllantirish, shaxsni har tomonlama tarbiyalash, shaxsning kasbiy iste'dodlari, qobiliyatları va qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish aks etadi.

2. *Yuksak ilmiy-amaliy ahamiyatlilik mezoni*. Ana shu mezonga asoslanib, kasbga yo'naltirish materiallari mazmuniga fan va amaliyotning hamma e'tirof qilgan yutuqlarini, obyektiv fanlararo aloqaga va amaliy qo'llanishga ega bo'lgan politexnik yo'nalishdagi texnikaviy ma'lumotlarni kiritish lozim.

3. *Hammabop mezon*. Mazkur mezonga asosan o'quvchilarni kasbga yo'naltirish mazmuni ularning yosh xususiyatlariga muvofiq bo'lishi kerak.

4. *Oqilonalik mezoni*. Bu mezonning mohiyati shuki, kasbga yo'naltiruvchi materiallarning hajmi o'quvchilarga juda ko'p, or-tiqcha ish topshirmay, shu materiallarni o'rganish uchun ajratilgan vaqt miqdoriga mos bo'lishi lozim.

5. *Uzviy o'zaro bog'liqlik mezoni*. Ushbu mezonning mohiyati shundan iboratki, professiografik materiallar tabiiy ravishda dars va tarbiyaviy tadbirlar mazmuniga kiritilishi, bular zo'r lab qabul qildirilmasligi va lo'nda bo'lishi kerak.

Kasb tanlashga yo'llash komissiyalarini tashkil qilish; o'qituvchilar bilan metodik ishlarni tashkil qilish; o'quvchilar bilan ishslash; ota-onalar bilan ishslash.

Kasbga yo'naltiruvchi o'quv-metodik xonani tashkil qilishda va uning ishiga yordamlashishda mehnat ta'limi o'qituvchisi katta ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina maktablarda mehnat ta'limi o'qituvchilari ana shunday xonalarning tashkilotchilari hisoblanadilar. Maktabdagagi kasbga yo'naltiruvchi o'quv-metodika xonasini

o'quvchilarni kasbni ongli ravishda tanlashga tayyorlash sohasida ular bilan, ota-onalar bilan muntazam ish olib borish uchun, shuningdek kasbga yo'naltirish ishini ado etishda o'qituvchilarga, korxonalarining xodimlariga metodik yordam berish uchun xizmat qildi. Shu sababdan xonaning jihozlanishi va vaziyati o'quvchilarning muayyan psixologik kayfiyatini ko'tarishga ko'maklashishi, bu yerda ularni qiziqtiruvchi savollarga javob olish imkoniyati yaratilishi, xonaga kelish ehtiyojini tug'dirishi muhimdir.

Kasbga yo'naltirish xonasining ish mazmuni:

– ishlab chiqarishning turli tarmoqlari to'g'risida o'quvchilar ni xabardor qilish, eng ko'p tarqalgan kasblar bilan ularni tanishtirishni;

– o'quvchilarning mehnat faoliyatining muayyan turlariga oid qiziqishlari, mayllari va qobiliyatlarini aniqlash hamda rivojlan-tilishni;

– o'quvchilarda shaxsning tegishli psixofiziologik xislatlariga mos bo'lgan va jamiyatning kadrlarga bo'lgan talab-ehtiyojlarini hisobga oladigan kasbiy niyatlarini shakllantirishni;

– kasb tanlash, ishga joylashish va o'qishni davom ettirish masalalari yuzasidan o'quvchilar uchun pedagogik maslahatlar tashkil qilishni;

– o'qituvchilar va boshqa xodimlar bilan metodik ishlar olib borish (pedagogik o'qishlar, ma'ruzalar, seminarlar, yakka tartib-dagi mashg'ulotlar o'tkazish)ni;

– o'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid ilg'or tajribani o'rganish va umumlashtirishni;

– ota-onalar bilan ish olib borish (yig'ilishlar, ma'ruzalar, uchrashuvlar, yakka tartibdagi maslahatlar o'tkazish)ni;

– o'quvchilarni kasbga yo'naltirish masalalari yuzasidan mehnat jamoalari va jamoatchilik bilan aloqani amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Ana shu ishlarni olib borish uchun kasbga yo'naltirish xonalarda, odatda, ikki bo'limdan: axborot va metodik bo'limlardan iborat ekspozitsiya jihozlanadi.

Axborot bo'limida o'quvchilarning kasb tanlashiga ko'maklashadigan ma'lumotlar bilan pedagoglar, o'quvchilar va ularning ota-onalari haqida materiallar to'planadi.

Metodik bo'limda o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan kasbga yo'naltirish ishini olib borishni tashkil qilishga, uning

shakl va metodlariga oid o'qituvchilar uchun tavsiyalar berilgan bo'iladi.

Kasbga yo'naltirish xonasiga quyidagi mazmundagi materiallar qo'yiladi:

— atoqli jamoat arboblari, olimlar, yozuvchilar, pedagoglar va shu kabilarning mehnat va kasb tanlash haqida bildirgan fikrlari; shu sohaga oid davlat hujjatlardan olingan nuxxalar;

— «Kasbni to'g'ri tanlash nimani bildiradi?», «Tanlangan kasb tomonidan qanday talablar qo'yiladi?», «Kasb tanlashda xato qilmaslik uchun nimalarni bilish kerak?», «Shifokor maslahatlari» (kasb tanlashga to'g'ri kelmaydigan fikrlar haqidagi stend), «Psixolog maslahati» (o'z kasb tanlashini tushunganlik to'g'risida, qiziqishlar va qobiliyatlarni rivojlantirish haqida);

— ma'lumotnomalar materiallari: «O'qish uchun qaysi joyga borish kerak?» (qishloq kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari to'g'risida, bularga qabul qilish shartlari, bularda egallash mumkin bo'lgan kasblar va mutaxassisliklar haqida ma'lumotlar), «Ishlash uchun qaysi joyga borish kerak?» (ishlab chiqarish korxonalarining yetakchi kasblari, shahar, tuman, viloyatlar muhtoj bo'lgan kasblar to'g'risida ma'lumotlar); professiogrammalar;

— «Ota-onalaringizning kasblari» (ota-onalardan ishlab chiqarish ilg'orlari, ratsionalizatorlar to'g'risida yorqin, maroqli hikoyalari), «Biz tanlayotgan yo'llar» (maktablarni bitirib chiquvchilar, ularning mehnatda erishgan muvaffaqiyatlari haqida), «Yo'l ko'rcatuvchilarimiz» (ishlab chiqarish korxonalarining ilg'or ishchilari to'g'risida).

Bundan tashqari, xonaga asbob-uskunalarning maketlari, tayyor mahsulot namunalarini qo'yilgan bo'lishi mumkin.

Audiovizual axborotni tashkil qilish uchun xona ta'limning texnikaviy vositalari kinoproyektorlar va slaydo-proyektorlar, kompyuter vositalari, kinofilmlar va slaydlar, kinoekran, magnitofonlar, musiqali va magnitli materiallari bo'lgan fonoteka, videotekasi bo'lgan videomagnitofonlar bilan jihozlanadi.

Xonada ma'naviy-axloqiy ma'lumotnomalar, ilmiy-om-mabop kitoblardan va tegishli badiiy adabiyotdan iborat kutubxona, ro'znomalar, oynomalar albatta bo'lishi kerak. Ba'zan xonalarda kasbga yo'naltirishga oid bibliografiya tuzadilar, bundan o'quvchilar ham, o'qituvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Mamlakatdagi kasbga yo'naltiruvchi bir qancha o'quv-metodik xonalarning ish tajribasi shuni ko'rsatadi, xona materiallarini faol o'zlashtirish va ulardan foydalanish uchun shu xonalarida o'quvchilardan maslahatchi yo'lboshchilar rolini bajaradigan faollarni, shuningdek maktablarning yuqori sinf o'quvchilari, bitiruvchilari, ota-onalar, ishlab chiqarish ta'limi ustalari, ishlab chiqarish peshqadamlari, ishlab chiqarish korxonalari kichik mutaxassislari, mакtab o'qituvchilari ishtirokida ma'ruzachilar guruhini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Kasbga yo'naltiruvchi maktab o'quv-metodik xonasini tashkil qilishda o'quvchilarning o'zлari katta e'tibor berishlari lozim. Ular mehnat o'qituvchisi rahbarligida xonani jihozlashda, eksponatlar yig'ish, saqlash uchun planshetlar, tagliklar va shu kabilarni tayyorlashda yordam berishlari mumkin. Kasb diagnostikasi bo'yicha asboblar tayyorlash jarayoni bolalarda katta qiziqish tug'diradi. 8-9-sinflarning o'quvchilari sanoat namunalarini asos qilib olib, ana shunday konstruksiyalarni, texnika obyektlarini yaratishlari mumkin. Ba'zan maktab o'quvchilari yaratgan asboblar sanoatda yasalgan asboblardan hatto ustun turadi. O'quvchilar o'zлari yaratgan diagnostika uskunalarida ishlab, mustahkam amaliy malaka va muayyan texnikaviy bilim oladilar. Bu bilimlar rivojlantirilib, ilm-fanning muayyan sohasini chuqur o'rganish uchun xizmat qilishi, keyinchalik ongли ravishda kasb tanlashga yordam berishi mumkin.

Shunday qilib, mehnat ta'limi o'qituvchisi maktabning o'quv-metodik xonasi bilan uzviy aloqa bog'lab, kasbga yo'naltirish ishi samaradorligini ancha oshiradi, o'quvchilarning o'zлari kasb tanlashlari uchun mustahkam zamin yaratadi, ularni duradgorlik, chilangarlik, tokarlik, frezerlik va shu kabi boshqa kasblar bilan tanishtirib, o'quvchilarni mehnat faoliyatini tanlashga tayyorlash uchun shart-sharoitlar vujudga keltiradi. O'quvchilarni mehnat faoliyatining ana shu turlari bilan tanishtirish har bir fermer xo'jaligi, tuman, shahardagi ishlab chiqarish obyektlarida bos-qichma-bosqich olib boriladi.

Chunonchi, birinchi bosqich (kasb ta'limi jarayonida, ya'ni kasb tanlashning tayyorgarlik davrida) kasbga oid maslahatlar berish, o'quvchilarning mayllarini, qobiliyatlarini va individual xususiyatlarini hisobga olib, kasb tanlashda ularga yordam ko'rsatishdan iborat.

Ikkinci bosqich kasbiy tayyorgarlik davomida tanlagan kasb bilan bog'langandir. Pedagog o'quvchilarning jismoniy va aqliy rivojlanishini, qiziqishlari va qobiliyatlarini, o'zlashtirishini, ushbu kasbni egallahsha tayyorgarlik darajasini, tibbiy zid dalillarni bilishi kerak.

Bu bosqichni kasbga doir maslahat berishning yakunlovchi bosqichi deyish mumkin. Bunday maslahatlarni yil oxirida bitiruvchi sinfda fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari, maktabarning kasbga yo'naltiruvchi komissiyalari va kasbga yo'naltiruvchi xonalarning xodimlari, korxonalar, o'quv yurtlari va ishga joylashtirish organlarining xodimlari beradilar.

Uchinchi bosqichda aniqlovchi maslahat o'tkaziladi. Bunday maslahatdan ko'zda tutilgan maqsad — amalga oshirilgan tanlojni aniqlash, kasb xato tanlangan taqdirda esa buni odoblilik bilan tushuntirib, boshqa kasbni tanlashni maslahat berish lozim.

Kasb tanlash (kasbga yaroqlilik) kasbiy ishning butun tizimida yakunlovchi bosqichdir. Ayni ana shu bosqichda xodimning tanlagan kasbga uzil-kesil muvofiqligi yoki nomuvofiqligi aniqnadi. Lekin kasb tanlash (kasbga yaroqlilik) metodlaridan kasbga yo'naltirishning faqat yakunlovchi bosqichida foydalanish mumkin, deb hisoblash noto'g'ri bo'lur edi. U yoki bu kasbni egallagani holda dastlabki tibbiy-fiziologik va psixologik ko'rikdan o'tmagan yigit yoki qizga tanlagan kasbi zid bo'lishi ham mumkin. Shu boisdan kasb tanlash boshlang'ich bosqichda ham, shuningdek yakunlovchi bosqichda ham o'tkazilishi lozim.

Kasbga yaroqlilik — ushbu kasb bo'yicha mehnat vazifalarini bajarish uchun yaroqli yoki yaroqsizligini qayd qilishdangina iborat emas, albatta. Kasbga yaroqlilikni boshqa jihatdan ham:

- 1) odam o'zi tanlagan kasbga yaroqlimi yoki yo'qligi;
- 2) hayot yo'lini tanlagan chog'da u nimalarga amal qilishi lozimligi;
- 3) uni o'qitish masalasiga qanday qilib birmuncha oqilona yondashish, ya'ni unda kasbga yaroqlilikni qanday qilib maqsadga muvofiq tarzda shakllantirish, tarbiyalash va rivojlantirish mumkinligi jihatidan ham ko'rib chiqish kerak.

Boshqacha qilib aytganda, u yoki bu kasblarni egallahsha harakat qilayotgan odamlarning tibbiy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda ularda diqqat, tafakkur, psixomotorika va shu kabi psixik funksiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq muayyan psixologik

kayfiyatni ham shakllantirish zarur. Kasbga yaroqlilik o'quv va mehnat faoliyatida shakllanadigan shaxs fazilatidir. Kasbga yaroqlilikni odamning kasbga nisbatan qoyilgan talablarga mos bo'lgan tug'ma yoki hosil qilingan psixofiziologik xususiyatlari yig'indisi deb qarash yaramaydi. Faqat ba'zi kasblar (sozanda, rassom va shu kabilar) uchun muayyan tabiiy ma'lumotlar talab qilinadi. Shu boisdan psixolog, mehnat o'qituvchisi va boshqalarning vazifasi o'quvchi kasb (mutaxassislik)ni yoki o'quv yurtini to'g'ri yoki noto'g'ri tanlaganini; tanlagan kasbi yoki o'quv yurti uning mayllari yoki qobiliyatlariga mos yoxud mos emasligini; kasbni yoki o'quv yurtini tanlash vajlari, ota-onalarning, o'qituvchilarning va shu kabilarning fikri qanday ekanligini aniqlashdan iborat. O'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari va mayllari ana shunday ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Kasb tanlashda umumiyligi o'rta ta'limga muassasasi rahbarlarning roli nimalardan iborat?
2. O'quv muassasalarida kasb tanlashga yo'llashning qanday shakl va metodlarini bilasiz?
3. Kasb tanlashga yo'llashda bo'yicha qanday metodik ishlarni tashkil qilish mumkin?
4. Kasb tanlashga yo'llashda o'quvchilar bilan ishslash.
5. Kasb tanlashga yo'llashda ota-onalar bilan ishslashning ahamiyati.

9.3. Kasbga yo'naltirishning tarbiyaviy yo'nalishi

Reja:

1. Kasblar xarakteristikasi — professiogramma.
2. Kasbga yo'naltirish ishlari qo'yiladigan talablar. Maktablarda tashkilotlarga ekskursiyalarni tashkil qilish, ommaviy axborotlarning ahamiyati.

Tayanch iboralar: kasb xarakteristikasi, professiogramma, bozor iqtisodiyoti, mehnatning turi, qo'l mehnati, mexanizatsiya-lashtirilgan, avtomatlashtirilgan mehnat, mehnat predmeti va mahsuloti, mehnat tartibi, shaxsning irodaviy kasbiy o'sish istiqbollari, turdosh kasblar.

1. Kasb xarakteristikasi — professiogramma.

To'g'ri kasb tanlash mehnatning mazmuni, xarakterini iloji boricha ko'proq bilishni hamda bo'lg'usi mehnat faoliyati jaryonidagi munosabatlar xususida iloji boricha to'laroq ma'lumotga ega bo'lishni taqazo etadi. O'quv mashg'ulotlari, sinfdan tashqari olib boriladigan turli ish formalari, ijtimoiy foydali, ishlab chiqarish mehnati, mutaxassislar bilan bo'ladigan uchrashuv va suhbatlar, adabiyotlarni mustaqil ravishda o'rganish va boshqa shu singari tadbirlar kasb to'g'risida tegishli bilimga ega bo'lish manbaidir.

Kasb to'g'risidagi eng muhim manbalardan biri professiogramma hisoblanadi. Professiogramma — kasbga berilgan xarakteristika bo'lib, o'sha kasb odamning shaxsiy fazilatlari: aqliy, psixologik, jismoniy va boshqa fazilatlariga qo'yiladigan asosiy talablarni o'z ichiga oladi.

Barcha professiogrammalar taxminan quyidagicha sxema asosida tuziladi:

- kasbning nomi;
- kasbning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati va o'rni;
- mehnatning turi: qo'l mehnati, mexanizatsiyalashtirilgan, avtomatlashtirilgan mehnat;
- mehnat predmeti va mahsuloti;
- ish bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va mahorat;
- ish sharoitlari, ish joyi;
- mehnat tartibi (smenalilik, bir xillik va shu kabilar) va damolish tartibi;
- kasbning sog'liqqa to'g'ri kelmasligi haqida tibbiy xulosa;
- shaxsning irodaviy, ishchanlik va boshqa fazilatlariga qo'yiladigan talablar;
- kasbning shaxsga: uning umumiy madaniyat darajasining shakllanishiga, aqliy qobiliyatlarining rivojlanishiga, xarakteriga va shu kabi sifatlariga ko'rsatadigan ta'siri;
- kasb o'rganish yo'llari, ta'lim muassasalarining xarakteristikasi va ularga kirish shartlari;
- kasbiy o'sish istiqbollari;
- turdosh kasblar.

Har bir o'smir o'z mehnat yo'li qanday boshlanishi to'g'risida o'ylar ekan, o'zi uchun mo'ljallanayotgan kasbning professiogrammasini tuzib chiqishi foydali bo'ladi. Bunday ish unga

o'zining bo'lajak kasbi to'g'risida ko'proq narsalarni bilib olish, o'sha kasbga o'zining kasb jihatidan qay darajada mos kelishini baholash imkonini beradi. Professiogramma tuzish siz o'zingizda shakllantirishni yoki rivojlantirishni zarur deb hisoblayotgan kasb jihatidan muhim sifatlarni belgilab olishga yordam beradi (ular professional rejaga asos qilib olinmog'i kerak). Professiogramma tuzayotgan vaqtida «Kasblar olami» ensiklopediyasidan olingan maqolalardan, har xil so'rovnoma nashrlaridan foydalanish mumkin. Amaliy xarakterga oid ba'zi ma'lumotlarni buyurtmachi korxona mutaxassislari bilan yoki kasbiy maslahatchi bilan o'tkaziladigan suhbatlardan olish mumkin.

Masalan: «Stanoklar va avtomat liniyalarining sozlovchisi», sozlovchilik kasbi eng yangi va istiqbolli kasblardan biridir. U sanoatda murakkab avtomat va yarim avtomat uskunalar bilan bir vaqtida paydo bo'ldi. Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish sharoitida bu kasbning ahamiyati doimiy ravishda ortib bormoqda.

Sozlovchining ishlab chiqarishdagi asosiy vazifasi stanoklarni va avtomat liniyalarini ma'lum bir turdag'i mahsulotlarga ishlov berishga tayyorlashdan iboratdir. Sozlovchi detallarga sinov tariqasida ishlov berish tadbirini amalga oshiradi, asbob-uskunalarning ishini kuzatib boradi. Berilgan o'lchamlardan qandaydir chekinishni sezganda sozlovchi mashinaning qayeri buzilganligini aniqlaydi hamda o'z bilimi, mahorati va malakalariga tayangan holda kamchiliklarni yo'qotib, mashinani tuzatadi. Shuningdek, u turli xildagi remont ishlarida, uskunalarini sinash tadbirlarida qatnashadi, har xil tipdag'i stanoklarni, kontrol avtomatlarni, avtomat liniyalarining transport qurilmalarini sozlab beradi, robotlarni sozlaydi. Stanoklarni sozlash bilan bog'liq bo'lgan tegishli hisob-kitob ishlarini bajaradi.

Stanoklar va avtomat liniyalarining sozlovchisi yuksak darajada texnik bilimga va yaxshi xotiraga ega bo'lishi kerak.

Turli-tuman texnik vazifalarni hal qilish zaruriyati bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajarayotgan sozlovchi uchun mantiqiy jihatdan to'g'ri o'ylash va ijodiy fikrlash g'oyat muhim ahamiyatga egadir. Uskunalardagi buzuqlik ko'zga yaqqol ko'rinish turmasligi sababli odatda kuzatuvchanlik va hushyorlik bilan ish yuritadigan sozlovchilar o'z ishida ijobiy natijalarga erishishlari mumkin. Shuningdek, og'ir vaziyatlar vujudga kelib qolganda

sabr-toqatli bo'lish, puxta ishslash va o'zini yo'qotib qo'ymaslik ham muhimdir.

Sozlovchilar mashinasozlik, oziq-ovqat, to'qimachilik sanoati korxonalarida va boshqa shunga o'xshash joylarda mehnat qildilar.

Bu kasbni kasb-hunar kollejlariда o'rganish mumkin. Bu sohada bilim olishni esa mashinasozlik kasblari boyicha oliv ta'lim muassasalarida davom ettirish mumkin.

Mashina va uskunalarini sozlovchi, dastur bilan boshqariladigan stanoklarning operatori, texnik-mexanik kasblari turdosh kasblar hisoblanadi.

Kasbga yo'naltirish ishlariga qo'yiladigan talablar. Maktabdan tashqari tashkilotlarga ekskursiyalarni tashkil qilish, ommaviy axborotlarning ahamiyati.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishini amalga oshirishda o'qituvchilar va sinf rahbarlari; yoshlar ijtimoiy harakati bo'limi tashkiloti; ota-onalar qo'mitasi kengashi; to'garaklarning rahbarlari bevosita ish olib boradilar.

Maktabdan tashqari muassasalar, odatda, qiziqishlari va mayllari yetarli darajada namoyon bo'lgan bolalarni birlashtiradi. Bunday bolalarda ijodkorlik va tashabbus ruhi ustunlik qiladi, ular amaliy faoliyatining xususiyati esa muayyan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Maktabdan tashqari muassasalar (o'quvchilar uyi, bolalar kutubxonalarini, yosh tabiatshunoslar va yosh tajribachilar texnika stansiyalari, yoshlar klublari, kashfiyotchilar uyushmalarini va shu kabilalar) kasbga yo'naltirish umumiy ishi tizimida faol qatnashadilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishda o'quvchilarning maxsus qiziqishlari shakllanadi va ularning qobiliyatlarini rivojlanadi. Bular umumiy ta'limni va mehnat politexnik ta'limini to'ldiradi, o'quvchilarda kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatiga molik asosli sabablarini shakllantirishga yordam beradi, xalq xo'jaligi turli tarmoqlari bilan tanishishni kengaytiradi, o'quvchilarni qiziqtidigan kasblar va mutaxassisliklarni, avvalo, o'z tuman, viloyatidagi kasblar va mutaxassisliklarni chuqur bilib olishga imkon beradi. Kasbga yo'naltirish bo'yicha fakultativ kurs kasbga oid ma'lumot olish, uzil-kesil kasb tanlash, real ishga joylashish masalalari yuzasidan o'quvchilarga maslahat berish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishi shakllarini bir qancha belgilariga qarab quyidagicha tavsiflash maqsadga muvofiqdir:

A. O'tkazilayotgan tadbirlarda qatnashadigan o'quvchilar soniga qarab:

1. Bir necha parallel sinflar, aralash sinflar qatnashadigan tadbirlar.

2. Yakka tartibda o'quvchilar qatnashadigan tadbirlar.

B. Tashkil etish usullariga qarab:

1. Yalpi tadbirlar — ma'ruzalar, yig'ilishlar, konferensiylar, olimpiadalar, videofilmlarni ko'rish; tematik kechalar, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan o'tkaziladigan uchrashuv kechalari; kasb bo'yicha kalendar kunlari.

2. Guruhda o'tkaziladigan tadbirlar — ekskursiyalar, maslahatlar, kasblar bo'yicha tanlovlari, yosh texniklarning musobaqlari, korxonalar va yetakchi kasblar bilan tanishish maqsadida jonajon o'lka boylab sayyoqlik yurishlari.

3. Yakka tartibda o'tkaziladigan tadbirlar — kasb haqida maslahat beriladigan suhbatlar, kasblar to'g'risida tavsiya etilgan kitoblarni o'qish, uchrashuvlar, konstruktorlik, tajriba ishi yuzasidan yakka tartibda beriladigan topshiriqlar; o'quvchini qiziqtradicigan fan va texnika sohasini chuqurlashtirish va rivojlantirish maqsadida qo'shimcha adabiyotlar bilan ishslash.

D. Mazmun manbalariga qarab:

Kasblar bilan tanishtirish; sayohatlar, malakali ustozlar va mutaxassislar bilan uchrashuvlar, o'qituvchining hikoyasi yoki suhbat, kinolardan parchalar, fotosuratlar, ro'znama va oynomalardan olingan maxsus materiallarni namoyish qilish uchun kompyuter vositalaridan foydalanish; taklif qilin-gan ishlab chiqarish mutaxassisining suhbat; kasblar haqidagi ma'lumotnomalar bilan tanishish; mehnat va ishlab chiqarish ta'llimi bilan bog'liq kasblar to'g'risidagi hikoyalarni o'qish; mutaxassislar bilan suhbatlar o'tkazish yordamida axborot materiallарini toplash; fotosuratlar, fotoalbomlar ko'rsatish; ishlab chiqarish sharoitida malakali mutaxassislar kasbiy faoliyati to'g'risidagi kinofilmlarni namoyish qilish; bazaviy xo'jalikda ishlab chiqarish tajribasi vaqtida kasblar bilan tanishish.

E. Kasbga yo'naltirish tadbirlarini ro'yobga chiqarish vositalari bo'yicha:

«O'qish uchun qayerga kirish kerak?» ma'lumotnomasini nashr etish, kasblar va kasb-hunar kollejlari haqidagi plakatlar, e'lolar, reklama varaqalari; mazkur iqtisodiy tumanda mavjud kasblarning qisqacha tavsiflari bo'lgan to'plamlar; «Mehnat yo'lini tanlash», «Mening kasbim eng yaxshi kasb» mavzusidagi videofilmlar; reklama qilinadigan televizion filmlar, sexlar, o'quv yurtlaridan olingan televizion reportajlar; kasblar va musobaqa ilg'orlari to'g'risida radioeshittirishlar, kasb-hunar kollejlarida yoshlarining turmush va o'qishi haqida hikoya qiluvchi respublikada va mahalliy ro'znomalarda bosilgan maqolalar; shahar kinoteatrлari foyelarida, supermarketlarning vitrinalarida, katta ko'chalarning chorrahalarida kasblarni targ'ib qiluvchi bannerlar va ko'rgazmalar; ko'chalar va maydonlardagi yoshlarni kasb-hunar kollejlariga o'qishga kirishga da'vat etuvchi yorqin bo'yoqli chaqiriqlar.

Maktab kasbga yo'naltirish ishi tizimini tarkib toptirish hali nihoyasiga yetkazilgani yo'q. Kasbga yo'naltirish tizimi tarkibiy tuzilishi kasbga yo'naltirish maqsad va vazifalarini; maktab ta'limi bosqichlari bo'yicha uning mazmunini; bazaviy korxonalar, ota-onalar jamoatchiligi ishtirokida kasbga yo'naltirish ishining yo'nalishlarini; kasbga yo'naltirish tadbirlarini amalga oshirish shakllari, metodlari va vositalarini; muayyan ishchi kasblari bo'yicha unumli mehnatda maktab yoshlari ishtirotining aniq yo'llarini o'z ichiga olishi lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni rivojlantirish quyidagicha bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, bular:

I. Bozor iqtisodiyoti tarmoqlari bilan umumiy tanishtirish.

II. Ishlab chiqarish texnikasi, texnologiyasi va iqtisodiyotini o'rGANISH.

III. Kasblarning asosiy guruhlari bilan tanishtirish.

IV. Viloyat, tuman xo'jaligi biron tarmog'ining, bazaviy qo'shma korxonaning tanlangan kasbini dastlabki egallash bosqichlaridir.

Kasbga yo'naltirish maktab tizimining asosiy tamoyillari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

a) kasbga yo'naltirish har tomonlama kamol topgan, faol shaxsni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayonning rejali ravishda amalga oshiriladigan uzviy qismi sifatida;

b) ijtimoiy ishlab chiqarishning haqiqiy talabi asosida mehnat yo'lini tanlashning shaxsiy va ijtimoiy muammosini to'g'ri hal qilish;

d) kasbga yo'naltirishning og'zaki metodlarini atrof-tevarak-dagi korxonalar yetakchi kasblari asoslarini egallash borasidagi aniq amaliy harakatlar bilan qo'shib olib borish;

e) mактабдаги барча дарсларда ўуқорига ко'тарилиб борувчи чизиқ бо'yicha kasb ta'limi va kasbni targ'ib qilishning pog'onali tuzilishi;

f) maktab, oila va ishlab chiqarishning birgalikdagi kuchg'ayratlari bilan ishchi kasblariga qiziqishni tarbiyalashning faol metodlari.

Namunaviy dastur talablariga muvofiq har bir o'quv fani bo'yicha darslar mazmunini hisobga olib, kasbga yo'naltirishni sinfdan sinfga rejalashtirish masalalari eng murakkab ishdir.

Ommaviy mактаблarda kasbga yo'naltirishning amaliy vazifalarini hal qilishda tizimli yondashish usuli qo'llaniladi. Kasbga yo'naltirishning sinflar bo'yicha asosiy mazmuni quyidagicha bo'lishi mumkin:

Boshlang'ich sinflarda: tevarak-atrofdagi mahalliy ishlab chiqarish korxonalari va tabiatdan foydalangan holda mehnat faoliyati turlari bilan tanishtirish.

O'rta sinflarda: umumiy ta'lim turkum o'quv fanlari darslarida og'zaki metodlar yordami bilan hamma ishlarni o'z ichiga oladigan va birga qo'shilgan kasblarning asosiy guruahlari bilan, mehnat ta'limi darslarida esa metallga ishlov berish, elektro-texnika, yog'ochga ishlov berish kasblari mehnat usullari bilan ko'rgazmali tanishtirish.

Yugori sinflarda: aniq ishchi kasblari asoslarini egallagan holda ishlab chiqarishning muayyan sohalari negizida kasbga yo'naltirish.

Shunday qilib, ko'rib chiqilgan tarzdagi kasbga yo'naltirish maktab tizimi mazkur muammoning hamma jihatlarini qamrab olish imkonini yaratadi, hozirgi sharoitda tuman, shahar, viloyat va respublika doirasida yangi iqtisodiy tafakkur asoslarini hal qilishni hisobga olib, uni takomillashtirish yo'llarini belgilashga yordam beradi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Kasblar xarakteristikasi, professiogramma tuzish qoidalari ni tushuntirib bering.
2. Kasbga yo'naltirish ishlariga qanday talablar qo'yiladi?
3. Maktabdan tashqari tashkilotlarga ekskursiyalarni tashkil qilishdan maqsad nima?
4. Kasb tanlashga yo'llashda ommaviy axborotlarning ahamiyati.

9.4. Kasbga yo'naltirishning ijtimoiy va psixofiziologik asoslari

Reja:

1. Kasbga yo'naltirish ishlarida ijtimoiy, psixologik va fiziologik asoslar.
2. Kasbga yo'naltirish ishiga rahbarlik qilish va uni rejalash-tirish.
3. Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishiga tayyorlash sistemasi.

Tayanch iboralar: ijtimoiy, psixologik va fiziologik asoslar, rahbarlik qilish va uni rejalashtirish, kasbkorlik, mexanizatsiyalash munosabati, ixtisoslik tavsifnomasi, tibbiy va psixofiziologik ko'rsatkichlar, ixtisoslik razryadi, kasb vakillari.

Kasbga yo'naltirish ishlarida ijtimoiy, psixologik va fizioligik asoslari. Ongli ravishda kasb tanlash uchun o'quvchining bir qator kasblarni yetarlicha bilishi, bilganda ham ularning kishini o'ziga jalb qiladigan tomonlarini emas, balki qiyinchiliklarini ham yaxshi bilish, o'zining shaxsiy sifatlariga ko'ra tanlagan kasbini muvaffaqiyatli egallay olishi va keyingi ish jarayonida o'z malakasini takomillashtirishi talab qilinadi.

Hozirgi vaqtga qadar kasbga yo'naltirish ishlari yetarlicha yuqori saviyada olib borilmadi, ko'pincha rasmiy tusda bo'ldi. Ishlarning ko'pchiligi u yoki bu kasbning nimadan iborat ekanligini aniq tasavvur qilmas edi. Kasb-hunar kollejlarining besh mingga yaqin o'quvchilari bilan savol-javob qilinganda shu nar-sa aniqlandiki, ularning faqat 25 foizi kasbini maktabning tavisiyasiga binoan, o'n foizi o'rtoqlarining maslahatiga ko'ra, o'n

foizi ro'znama, radio, televideniya orqali berilgan e'lolnarga, qo'shnilar, tanish-bilishlarning maslahatlariga muvofiq, 25 foizi ota-onalarning maslahati, 10 foizi kasb-hunar kollejlari xodimlarining, 20 foizi tashxis markazi tavsiyalari boyicha tanlaganlar. Albatta, bu ma'lumotlar har davrda va har xil mintaqalarda obyektiv holda turlicha, ammo shu narsa ravshanki, o'quvchilarning aksariyat ko'pchiligi kasblarni tasodifiy ravishda tanlaydilar. «Siz nima uchun shu kasbni tanladdingiz?», — degan savolga 30 foizi o'quvchi: «Bu haqda o'ylab ko'rganim yo'q», — deb javob bergan.

Kasbni anglamay turib, tasodifiy tanlash shunda namoyon bo'ladiki, o'qishning dastlabki paytlarida o'quvchi qandaydir qiziqish bilan qaraydi. Keyinchalik esa bu qiziqish so'nib boradi. Kasb-hunar kollejlarida birinchi yil o'qiyotgan o'quvchilardan so'ralganda ularning 30 foizi, ikkinchi va uchinchi yil o'qiyotganlardan so'ralganda esa faqat 15 foizi tanlagan kasbidan mammunligini aytgan.

Hozirgi vaqtida yoshlarni kasbga yo'naltirish masalalari bilan davlat, jamoat va yoshlar tashkilotlari, buyurtmachilar shug'ullanadilar. Biroq bu ishda maktab asosiy o'rinni egallaydi.

Hozirgi kunda bozor munosabatlari va uzlusiz ta'llimga o'tish munosabati bilan mакtab yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga, jamiyat uchun foydali va zarur bo'lgan muayyan mehnat faoliyatiga tayyorlashda yana ham katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ularning har biriga alohida-alohida yondashishni talab etadi. Bunda shaxsning temperamenti, irodasi, diqqati, belgilangan maqsadga erishishda qat'iylik, tashabbuskorlik, uyushqoqlik, intizomlilik, topshirilgan ishni bajarishga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini e'tiborga olish zarur. Bundan tashqari, kasbga yo'naltirish davomida kasbni tanlash sabablarini: kasbning ijtimoiy ahamiyati, qiziqish va havas, kasbga tayyorgarlik, oila an'analari, ota-onalar, pedagoglar, o'rtoqlarining maslahatini hisobga olish lozim.

Kasbga yo'naltirish ishiga rahbarlik qilish va uni rejalashdirish. O'quvchilarni uzoq vaqt o'rganish natijasida sinf murabbiylari ularning har biriga tavsifnoma tuzadilar. Bunday tavsifnoma kasb tanlash va o'quvchiga u yoki bu kasbni tanlashni taklif qilish uchun asos bo'ladi. Kasbga layoqatlilikni tanlash maxsus komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Komissiya tarkibiga o'qituvchilar, psixologlar, buyurtmachi tomonidan tanlangan

mutaxassislar, vrachlar kiradi. Ular har bir o‘quvchiga qanday kasbni tanlash kerakligini aytadilar va buning sababini asoslab beradilar. Masalan, xolerik temperamentli bola yaxshi andaza yasovchi usta slesar bo‘la olmaydi, chunki unga mikronning o‘ndan bir ulushigacha aniqlikka erisha borib, uzoq vaqt o‘lchov asboblarida ishlash qiyinlik tug‘diradi yoki melanxolik tez javob berishni talab qiladigan mashinalarni boshqarishni muvaffaqiyatli egallab ololmaydi. Sezgi a’zolarida biron-bir nuqsoni bo‘lgan bolalarga bu kasblarni tavsiya qilib bo‘lmaydi. Masalan, ba’zi rang-tuslarni farq qila olmaydigan (daltonik) bolani har qanday transport turini boshqarishga qo‘yib bo‘lmaydi. Ko‘rishida shunday kam-chiligi bo‘lganlar metallurg bo‘lib ishlashi mumkin emas. Kasb xususiyatlарини ва ularning tavsifnomalarini o‘rganish uchun, har bir kasb uchun professiogramma tuziladi. Malaka tavsifnomalari professiogrammaga qo‘s himcha bo‘lib xizmat qiladi.

Professiogramma mazmuniga taxminan quyidagilar kiritishi kerak:

1. Mazkur kasbdagi mutaxassis talab etilayotgan bozor iqtisodiyoti sohasi tavsifnomasi, sohaning xodimlarga bo‘lgan ehtiyoji, avtomatlashtirish va kompleks mexanizatsiyalash munosabati bilan shu kasbdagi ishlarning rivojlanish istiqbollari.

2. Ixtisoslik tavsifnomasida tavsiya qilingan kasbning mazmu ni, mehnat obyektlari, vositalari.

3. Ishchiga qo‘yiladigan talablar (mas’uliyat darajasi, tashabbus va mehnatning ijodiy elementlari, ishning gigiyenik sharoitlari, tibbiy va psixofiziologik ko‘rsatkichlar yoki to‘g‘ri kelmasligini ko‘rsatuvchi belgilar, ayollar mehnatinini qo‘llash mumkinligi va boshqalar).

4. Boshlang‘ich ixtisoslik razryadi doirasida o‘quvchining muvaffaqiyatli ishlashi uchun umumiy ma’lumoti va kasbiy tayyor garligiga qo‘yiladigan talablar (ishlab chiqarish malakasini yana da oshirishni hisobga olgan holda).

5. Mehnatni tashkil etishning iqtisodiy sharoitlari, mehnatga haq to‘lash tizimi.

6. Mazkur kasb vakillari (ishlab chiqarish ilg‘orlari, mehnat qahramonlari)ning biografik ma’lumotlari.

O‘ta mas’uliyatlari va ish sharoitlari xavfli deb ta’riflanadigan ishlar uchun professiogramma qator talablar bilan to‘ldiriladi. Ular uzoq vaqt mobaynida tez ishslash malakasini, qo‘l barmoq-

larining kuchini, oyoqlar kuchini, barmoqlarning harakatchanligini, ko'z, qo'l va oyoqlar muvofiqligini, har ikkala qo'lning ixtiyoriy harakatlarini talab etadi.

Professiogrammalar korxonalar yoki maxsus muassasalar (xonalar, laboratoriylar) tomonidan tuziladi. Ularni ishlab chiqishda muhandislar, psixologlar, shifokorlar, o'qituvchilar ishtirok etishi kerak.

Suhbatlar o'tkazish yo'li bilan o'quvchilar professiogramma bilan batafsil tanishtiriladi. O'quvchining alohida talablar qo'yiladigan kasblarni egallab olishiga uzil-kesil imkoniyat yaratish uchun ergonomik laboratoriyalarda tadqiqotlar ham o'tkaziladi. Kasb tanlashda mактабнинг ota-onalar bilan mustahкам aloqasi katta ahamiyatga ega. O'quvchilarda kasbga oid qiziqishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishidagi muvaffaqiyat ko'п jihatdan mактаб va ota-onalarning birgalikdagi samarali ishlariга bog'liqdir. Har xil kasblar sulolasi an'analarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ommalashtirish va targ'ib qilish kerak.

Tegishli adabiyotlarni o'qish ham ko'pgina kasblar bilan tanishishda jiddiy yordam beradi. Bunday adabiyotlar mактаб kutubxonasida bo'lishi kerak, albatta.

O'quvchining o'zligini tushunishi, o'z kuchi va imkoniyatlarini, shu jumladan o'z qobiliyatlarini to'g'ri baholay bilishi, keyin esa shaxsiy qiziqishlari va imkoniyatlarini kasb talablari bilan solishtirib ko'rishi kasbni muvaffaqiyatli tanlash shartlaridan biridir.

Vatanimizdagi va chet eldag'i psixologik adabiyotlarda o'quvchi shaxsining turli tomonlarini mustaqil baholash, shu jumladan kasb tanlashda o'z yo'lini belgilash jarayonida qobiliyatlarini va kasbga layoqatlilikni mustaqil baholashni tahlil qilishga urinish hollari uchrab turadi. O'quvchilarning qobiliyatları va kasbga layoqatlilikini mustaqil baholashning, shuningdek mikromuhitni baholashning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun quyidagilari zarur:

1) o'quvchilarning bu fazilatlari o'qituvchilar, ota-onalar, o'rtoqlari tomonidan tahlil qilinish;

2) mehnat faoliyatining u yoki bu sohasiga layoqatlilikni mustaqil baholash bilan o'quvchilarning kasbga oid niyatlarini ana shu mustaqil baholashning shakllanish sharoitlari o'rtasidagi nisbatini aniqlash;

3) o'quvchilarning mustaqil baholashi bilan tashqaridan bergen baholarni taqqoslash asosida o'qituvchilar, ota-onalar, o'rtoqlari baholarining o'xshashlik darajasini aniqlash.

Bunday qobiliyatatlarni, mustaqil berilgan baho darajalarini (birinchi, ikkinchi, uchinchi) hisobga olgan holda mustaqil baholashning quyidagi o'lchamlari (yetarlicha baholamaslik, ortiqcha baho berish, baholarning mosligi) boyicha qarab chiqish kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish va kasb boyicha yangi sohalarning vujudga kelishi, kasbga oid mehnat xususiyatining o'zgarishi, hozirgi zamon ishlab chiqarishi xodimlariga qo'yiladigan talablarning murakkablashuvi — bularning hammasi o'rta mактабни tamomlovchi o'quvchilar uchun qanday kasbni egallash muammosini hal etishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqradi. Shu munosabat bilan kasbga yo'naltirish ishlarini keng avj oldirish zarurati ancha ortadi.

Ana shu ishning muvaffaqiyatli rivojlanib borishi ilmiy-psixologik muammolarning muayyan bir majmuuni ishlab chiqishni talab etadi. Bunday muammolar qatoriga quyidagilar kiradi: kasblarni va ular tomonidan qo'yiladigan talablarni, kasb mahoratini egallash va kasbga ko'nikish jarayonida shu kasb uchun muhim sifatlarning tarkib topish shart-sharoiti va qonuniyatlarini o'rganish. Shaxsning psixologik xususiyatlarini hamda kasbiy layoqatlilagini aniqlash va oldindan aytish metodlarini, shuningdek xilma-xil mehnat turlarining rivojlanish istiqbollarini o'rganish va xalq xo'jaligi, fanning turli sohalarida kadrlarga bo'lgan ehtiyojni hisobga olish zarur. Kasblarni o'rganish ham katta ahamiyatga ega. Negaki ularning natijalari ham kasbga yo'naltirish ishiga, ham turli kasblar haqida keng ma'lumot berish va kasblarni targ'ib qilishga asos qilib olinishi kerak.

Yuqori sinflarda kasb tanlash vazifalari munosabati bilan o'quvchilarni va ota-onalarni qiziqtirayotgan kasblar, yoshlarning kelib qo'shilishiga eng ko'p ehtiyoj sezayotgan sohalar, kasbga talluqli tayyorgarlikka ega bo'lishning aniq imkoniyatlari bilan batafsil tanishtirish zarurligi haqidagi masala paydo bo'immoqda.

Kasbga oid maslahatlar berish va kasbga layoqatlilikni tanlash vazifalariga javob beruvchi kasblarning psixologik tavsifnomalarini tuzish ancha murakkab vazifadir. Bu esa xodimning oldiga kasb tomonidan qo'yiladigan psixologik talablarni aniqlash vazifasini qo'yadi. Bunday dasturlarni tuzish xodimlardan maxsus tay-

yorgarlikni talab etadi va ayni vaqtida ancha murakkab ilmiy-psixologik tadqiqot hisoblanadi. Bunda tadqiqotning obyektiv metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu xil kuzatishlar, savol-javoblar faoliyatning tahlili va kasblarni o'rganishning boshqa usullari asosida olinadigan professiogrammalarini tajriba-da sinab ko'rishni ham o'z ichiga oladi. Bunda kasblarning qiyosiy-psixologik tavsifnomalari uchun miqdoriy mezonlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu sohadagi tadqiqotlar asosan izlanish tusida bo'ladi. Shu bilan birga tadqiqot metodlari va kasblar tavsifnomasi ishlab chiqilgan va amalda foydalanilayotgan sohalarda ham tadqiqotlar va izlanishlar davom ettiriladi.

Kasblar psixologik tavsifnomalarining xilma-xilligi turlicha amaliy vazifalarga muvofiq kasblar psixologiyasi sohasidagi bilimlarimizdan foydalanishning har xil shakllaridan iboratdir. Bu bilimlarning to'laligi va ilmiy asoslanganligiga qarab xilma-xil vazifalarni hal etishda ularni amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatlari ortib boradi. Shuning uchun kasblarning tavsifnomalarini tuzish bilan birga, shu bosqichning o'zidayoq ilmiy-tadqiqotlarga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradigan kasbga oid mehnat psixologiyasi sohasida asosli ilmiy-tadqiqotlar olib borish katta ahamiyatga ega. Bu sohada psixologiyada ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan qator tadqiqotlar o'tkazildi va o'tkazilmoqda. Ularning ba'zi birlari, masalan, mehnat ta'limi, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va boshqalari ishlab chiqarishdan boshlanib, so'ngra laboratoriya sharoitida o'tkaziladi. Biroq bu tadqiqotlarning natijalaridan odatda, psixografik maqsadlarda foydalanilmaydi. Vaholanki, kasbga oid mehnat psixologiyasining juda ham murakkabligi va uning ko'p tomonlama amaliy ahamiyati chuqur tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishiga tayyorlash sistemasi. Kasblarni o'rganishda ham jiddiy kamchiliklar bor. Bu esa respublikamizda kasbga yo'naltirish ishlarining yagona sistemasi yaratishni qiyinlashtiradi. Chuno-nchi, hozirgi vaqtga qadar menejer, konsalting va boshqa kasblarning professiogrammalari tuzilgan emas. Bu yoshlar bilan olib boriladigan kasbga yo'naltirish ishining samaradorligini ancha pasaytiradi. Shuningdek, kasbiy guruhlarning asosiy vakillari va xalq xo'jaligi, fan va madaniyat sohasidagi asosiy mehnat tur-lari uchun qisqacha psixologik tavsifnomalar, ma'lumotnomalar

adabiyotlar uchun kasblar kompleks tavsifnomalarining tarkibiy qismi bo'ladi. Shu maqsad uchun mavjud materiallardan foydalanish bilan bir qatorda tavsifnomalari bo'lмаган kasblar va ixtisosliklarning keng o'рганишини ташкіл этиш керак. Bunday ish qisqa muddatga mo'ljallangan bo'lishi lozim. Tegishli mutaxassislarни jalb qilgan holda uni amalgalish rejasiga tuzilishi zarur. Bunda, birinchi navbatda, diqqat-e'tiborni maktabni bitirish arafasida ishlash yoki ishchi kasblarini o'рганиш istagini bildirgan o'quvchilar uchun ma'lumotnomalar tuzishga qaratish, keyin esa kasblarning asosli ma'lumotnoma-lug'atlarini tuzish kerak.

Ayni vaqtida xilma-xil tadqiqot metodlarini qo'llagan holda kasblarni ilmiy-psixologik jihatdan o'рганишга doir jamoa tarzidagi professiografiya ishlari keng avj oldirilishi kerak.

Bu o'rinda yoshlarning kasbga oid muhim fazilatlarni egallab olish jarayonini va bunda o'quvchilarda vujudga kelayotgan xatoliklarni o'рганиш muhim ahamiyatga ega. Masalan, ish sur'ati tomonidan yuksak talablar qoyiladigan harakatlarni hamda farqlanishi qiyin bo'lgan belgilarni aniqlashda o'z-o'zini tekshirishdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni, shuningdek qo'shimcha ko'rsatkichlardan foydalanish asosida yashirin jarayonlarni sozlash bilan bog'liq harakatlarni talab etadigan kasblarni egallahda ta'lim jarayonida qiyinchiliklar va xatolar paydo bo'lishi aniqlangan.

Biron-bir amaliy faoliyatni egallash ayni vaqtida psixofiziologik takomillashish jarayonidir. Bunday takomillashish deganda kishining psixofiziologik holati faoliyatni (ishni) talab darajasida bajarish uchun yaroqli tip yoki namunaga yaqinlashib kelishi tushuniladi. Mashqlarni o'рганиш yuzasidan olib borilgan ko'pgina ishlar shuni ko'rsatadiki, faoliyatning yaxshilanishi faqat odam psixofiziologik funksiyalarining miqdor jihatdan o'sishi bilan emas, balki sensor-motor reaksiyalar tezligi va aniqligining ortishi bilan bir vaqtida sodir bo'ladi. Mahoratning quyi bosqichidan yuqori bosqichga o'tishi kishining psixofiziologik funksiyasining miqdoriy sifat o'zgarishlariga tayanadi.

Faoliyatning ba'zi bir turlarida bunday o'zgarish o'z-o'zidan ravshan. Masalan, velosiped haydashni endi o'рганайотган kishiga muvozanatni saqlab turish asosiy qiyinchilikni tashkil etadi, yiqilib tushmaslik uchun u avvallari hosil qilingan ko'nikmalarini safarbar etadi, o'zining tabiiy belgilaridan foydalanadi. Lekin ve-

losipedga nisbatan psixofiziologik moslashish vazifasi hal etilgan-dan keyin boshqacha psixofiziologik mexanizmlardan foydalanishni talab etuvchi yangi vazifalar chidamlilikni, tezlik hissini, yo'l boylab harakat qilish vaqtidagi taktik usullarni egallahash vazifasi paydo bo'ldi.

Boshqa faoliyat turlarida psixofiziologik tuzilishni o'zgartirish unchalik sezilarli emas, ba'zan u mahorat tarkib topishining ancha kechki bosqichlarida roy beradi. Bu o'zgarish shaxsiy-psixologik tafovutlarning tabiiy asosiga hech bir ta'sir etmaydi. Bi-roq kasbga kirishib borish jarayonining turli bosqichlarida goh u, goh bu xususiyat tayanch vazifasini o'taydi. P. T. Magzumov tadqiqotlarini dalil sifatida keltiramiz. U tokarlik kasbini egallahshning dastlabki bosqichini o'rgangan edi. P. Magzumov shuni aniqladiki, kasbni egallahshning mazkur bosqichida nerv jarayonlari kuchli bo'lgan kishilar mehnat topshiriqlarini muvaffaqiyatli uddalaganlar. Keyingi bosqichda esa nerv jarayonlari ancha zaif kishilar biroz ustunlikka ega bo'lishi aniqlandi.

Muallif shunday farazni ilgari suradi, asab jarayonlari nisbatan kuchli bo'lgan kishilar, «zo'r chidamlilikni, ko'p kuchg'ayrat sarflashni talab etadigan topshiriqlarda o'zlarini yaxshi, to'la namoyon qildilar». Asab jarayonlari nisbatan zaif kishilarda ishdagi muvaffaqiyatlarning ortib borishini kasbni egallahshning birinchi bosqichidagi qiyinchiliklar, topshiriqlarning qiyinligi bilan emas, balki yangi sharoitlarda vujudga kelayotgan tormozlanish bilan tushuntirish mumkin. Binobarin, faoliyatning psixofiziologik asosini o'zgartirish faqat funksional jarayonlarga taalluqli emas, balki nerv sistemasining asosiy xususiyatlariga ham taalluqlidir.

Kasbiy layoqatlilik shaxsning sifati bo'lib, uning shakllansihi psixofiziologik tuzilishni asta-sekin mahorat darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlarni bajarishga muvofiglashtirishdan iboratdir. Bunda asab sistemasi asosiy xususiyatlarining ana shu ish turlariga mos keladigan funksional ko'rinishlari takomillashadi, ba'zi hollarda esa asab sistemasining bir tayanch xossasidan boshqasiga o'tish roy beradi.

Shuni nazarda tutish kerakki, boshlang'ich mahoratning nisbatan tez egallab olinishi kelgusida shu kasbda ishslash davomida paydo bo'ladigan qiyinchiliklar shunchalik tez bartaraf etilishiga kafolat bermaydi. Kasbni egallahsha mahoratning qaror topishi

alohida jarayon bo'lib, har bir kishining mahoratni egallash yo'-lida paydo bo'ladijan qiyinchiliklar ma'lum darajada shu bilan belgilanadi.

Shaxsning fazilati sifatida kasbga layoqatlilikning shakllanishi haqida yuqorida aytilgan fikrlar oldingi zamон psixologiyasining ma'lum prinsiplaridan kelib chiqadi.

Aytiganlardan kasbga layoqatlilikni aniqlash masalasini kishining o'zi mehnat (yoki o'quv) faoliyatida sinab ko'rmasdan oldin qoysish mumkin emas, degan xulosaga kelinadi. Kasbga oid mehnat uchun zarur bo'lgan psixofiziologik mexanizmlar tarkib topmaguncha kasbga layoqatlilik (yoki layoqatsizlik) haqidagi masalani hal qilish mumkin emas. Bu mexanizmlar faqat faoliyatning o'zida shakllanishi mumkin.

Kishining ba'zi bir kasblarga layoqatliligining shakllanishiga qulaylik tug'diradigan yoki uni osonlashtiradigan biror-bir tabiiy xususiyatlarni aniqlash mumkin. Tabiiy belgilarni oldindan aytilish ham mehnat jarayonini va kasbga oid ta'lim berishni oqilona tashkil etishda va kasbga ko'nkishda, ko'pchilik hollarda esa mehnat faoliyatini boshlayotgan kishilar uchun aniq ish jo'yini tanlashda shubhasiz muhim ahamiyatga egadir.

Natijada sof amaliy nuqtayi nazaridan faqat so'zlar haqida gap borayotgandek tuyiladi, chunki psixofiziologik tashxis har holda inkor qilmaydi, shunday ekan, qanday so'z tanlanishi, nimalar belgilanishi, layoqatlilikni shakllantirishning biologik shart-sharoitini tashkil etuvchi kasbga layoqatlilik yoki tabiiy iqtidorning aniqlanishi baribir emasmi?

Haqiqatda esa gap kasbga layoqatlilik mavzusining o'zini tushunishdagi tub farqlar haqida bormoqda, chunki shart-sharoitlarning mayjudligi hali kasbga layoqatlilik shakllanishiga kafolat bermaydi. Bu shakllanish o'zining psixofiziologik jihatiga ega bo'lgan alohida muammodan iboratdir. O'ziga xos asoslarga o'z talablarini qoyadigan faoliyatning shunday turlariga kasbiy layoqatlilikning biologik shart-sharoitlarini aniqlash vaqtida buni unutmaslik kerak. Bu shart-sharoitlar layoqatlilikni shakllantirishga qulaylik tug'dirsa ham, o'z-o'zicha imkoniyatning voqelikka o'tishini ta'minlay olmaydi. Xuddi shuningdek, kasb har qanday normal kishi uchun qulaydir degan gap, har bir kishi bu kasb sohasida mutaxassis bo'lib yetishadi, degan ma'noni bildirmaydi. Layoqatlilikning shakllanish muammolarini tushunmaslik yoki

unga yetarli baho bera olmaslik tufayli shunday vaziyatlar vujudga keladiki, mehnat faoliyatiga monelik qiladigan hech qanday to'siq bo'limasa ham kishi unga layoqatsiz deb e'lon qilinadi, haqiqatda esa uning layoqatlilikka shakllanishi lozim bo'lgan shart-sharoit yaratib berilmagan. Bunday hollar ko'pincha san'at, fan, sport, shuningdek boshqa sohalarda ham uchraydi.

Kishining tajribasi, bilim va malakalari ortib borishi bilan birga u qisman ongli ravishda, qisman tushunib yetmagan holda o'zining muvaffaqiyatli faoliyati uchun zarur bo'ladigan o'ziga xos mexanizmlarni egallaydi. Tabiiyki, bu jarayonning rivojlanishi uchun muayyan vaqt kerak. Shuning uchun ham bir faoliyatdan ikkinchisiga doimiy ravishda o'tib turish bu faoliylarning birortasiga ham layoqat shakllanmasligining garovidir. Faoliyat tegishli sabablar mavjud bo'lgandagina vujudga keladi. Kasbkorlik faoliyatiga undaydigan ijobiy sabablarning manbalari bu kasbning nufuzi, mehnatning o'zidan hosil qilinadigan bevosita qoniqish, ma'nnaviy va ijtimoiy o'sish imkoniyatlari, moddiy va ma'nnaviy rag'batlantirishlardir. Bunda kichik ijtimoiy guruh bo'lgan jamoa ham muhim ahamiyat oynaydi, mehnat topshiriqlari ana shu jamaoa bilan birgalikda hal qilinadi.

Ijobiy sabab faoliyatning vujudga kelishi, binobarin, layoqatlilik shakllanishining zarur shartidir. Shaxs rivojlanishining biologik shart-sharoitlari o'z-o'zicha kasbkorlik yo'nalihsidan mahrumdir. Shuni eslash kifoyaki, insonning biologik tipi ko'p asrlar mobaynida o'zgarmay qolgan. Kishilik jamiyatida esa bu davrlarda minglab xilma-xil kasblar o'zgardi, eskilari yangilari bilan al-mashdi. Kasbkorlik yo'nalihsini jamiyatning o'zi o'z ehtiyojlariga qarab yaratadi va tabiiy o'ziga xos negizlar asosida turli-tuman kasb egalari shakllanadi. Nerv sistemasining asosiy xususiyatlari esa, agar ta'bir joiz bo'lsa, kasbkorlik jihatidan neytraldir.

Ayni bir vaqtida nerv sistemasining har bir xususiyati va xususiyatlarning har bir majmui vazifasiga ko'ra ko'pgina imkoniyatlarga ega bo'lib, bir-biriga o'xshamagan turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin.

Kishining biologik xususiyatlari qarab uning kasbkorlik vazifasini belgilash mumkin bo'lavermaydi, ayniqsa hozirgi vaqt-dagi kasblarning ko'plari doimo fan-texnika taraqqiyoti taqazosi bilan o'zgarishlar va takomillashtirishlarga duchor bo'lib turibdi. Demak, hatto oldindan aytib berishga yo'l qoyilganda ham u yoki

bu kishini aslida qanday kasbda sinab ko'rish kerakligi noaniq bo'lib qoladi, uni oldindan aytib berish paytidagi kasbga yoki hali vujudga kelmagan kasbga tayyorlash kerakligi ma'lum bo'lmaydi.

Hal qiluvchi bo'g'in sifatida kasbga layoqatlilikni shakllantirishga yordam beradigan shart-sharoitlarni, keyin esa bu sharoitlarni yaratib berishni o'rganishni hisoblash kerak bo'ladi. Bizning jamiyatda unumli mehnatda muvaffaqiyatli ishtirok etish bu jamiyatning har bir a'zosi uchun katta ahamiyat kasb etadi, chunki ijtimoiy salmoq, o'z-o'ziga baho berish, o'z qadr-qimmatini his qilish, kasbkorlik mahorati darajasi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Shaxsning shakllanishining o'zi kasb egasining shakllanishi singari sodir bo'ladi, u ko'p hollarda ma'naviy boyish, o'z-o'zini qaror toptirish, burch tuyg'usini yuksak darajada his etish, ijtimoiy e'tirof etish, ma'naviy va iqtisodiy rag'batlantirishlar bilan birga boradi. Shuning uchun ham ko'p hollarda kasbkorlik jihatidan o'sish va o'z-o'zini takomillashtirish kishilar ongida shaxsiy istiqbol bilan mos keladi. Bu istiqbol ijodiy mehnatda o'zining maqsadga intilishi bilan ijtimoiy jihatdan e'tirof qilingan yutuqlar o'rtasidagi bog'lanishni aniq tushunib yetishga asoslanadi. Shu narsa shak-shubhasizki, shaxsiy istiqbol mehnat faoliyatining qudratli undovchisi bo'lib, chinakam mahorat sari faol harakat qilishga rag'batlantirib turadi.

Psimologyaning sanoat va qishloq xo'jaligidagi ko'pgina kasblarga nisbatan vazifalari faqat kasbga layoqatlilikning tabiiy shart-sharoitlarini aniqlashdangina iborat emas. Bu vazifalar layoqatlilikni shakllantirish masalalariga qaratilishi, kasbni o'rgangan har bir kishini bu sohada mustahkamlanib borishga va mahoratni qo'lga kiritishga undashi lozim. Bu jihatdan mazkur kasbda, mazkur korxonada va ayrim hollarda mazkur tarmoqda shaxsiy istiqbol yaratish muammosi jiddiy e'tibor berishga loyiq masala bo'lib qolishi mumkin.

Shuni e'tirof etish kerakki, ko'pchilik kasblarda, shartli qilib gapirganda, kichik mutaxassislar kasblarida shaxsiy istiqbolni amalga oshirish imkoniyatlari unchalik to'liq ishga solinmagan va bu sohada ko'p ishlarni amalga oshirish mumkin. Shaxsiy istiqbolning paydo bo'lismiga xalaqit beradigan holatlarga kasbkorlik ichida ilgarilab borish darajasining aniq ifodalanmaganligi yoki uning mutlaqo yo'qligini kiritish mumkin. Ko'pgina kasblarda rag'batlantirish turlari kasb mahoratiga mos kelmaydi va shaxs-

ning uzoq istiqbolini nazarda tutmaydi. Shaxsiy istiqbolning paydo bo'lishiga qiyinchilik tug'diradigan sabablardan biri moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bilan mazkur korxonada uzoq vaqt mobaynida ishlab chiqarish sohasida erishilayotgan muvaffaqiyatlar o'rtasida bog'lanishning mayjud emasligidir. Shunday hollar ham bo'lishi mumkinki, kichik mutaxassisni rag'batlantirish maqsadida korxona rahbariyati ixtiyorida bo'lgan barcha imkoniyatdan foydalanim bo'lingan bo'ladi, endi bu ishchi rag'batlantirish ma'nosida hech narsa kutib o'tirmasa ham bo'ladi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Kasbga yo'naltirish ishlarining ijtimoiy asoslari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Kasbga yo'naltirish ishlarining psixologik asoslari deganda nimalarni tushunasiz?
3. Kasbga yo'naltirish ishlarining fiziologik asoslari deganda nimalarni tushunasiz?
4. Professiogramma tarkibiga nimalar kiradi?
5. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishiga tayyorlash tizimi haqida ma'lumot bering.
6. Kasbga layoqatlilik deganda nimani tushunasiz?

9.5. Kasb tanlashga yo'naltirishning tarkibi

Reja:

1. Sinf rahbarining kasb tanlashdagi o'rni. O'quv muassasasi rahbarining hamda o'quv ishlari bo'yicha rahbar o'rinbosarlarning vazifasi.
2. O'quv muassasasidan tashqari tarbiyaviy ishlarning takomillashtirishning ish mazmuni. Talabalarni kasb tanlashga yo'llash ishiga tayyorlashning mazmuni. Ijtimoiy-siyosiy sikldagi fanlarni o'rganishda talabalarni kasb tanlashga yo'llash ishiga g'oyaviy-nazariy jihatdan tayyorlash.

Tayanch iboralar: mehnat tarbiyasi, kasbga yo'naltiruvchi kengash, texnika to'garaklari, fanlararo aloqalar, o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlari, tabaqlashtirilgan yondashuv, qishloq xo'jalik kasblari.

Kasb egallashgacha bo'lgan tayyorgarlik maktab yoshlarini moddiy ishlab chiqarsh sohasida mehnatga hozirlashning umumiyligi qismi bo'lib qoladi. Zarur politexnik tayyorgarlikni olgan yigit yoki qiz ishlab chiqarish kasbini tez egallaydi, bunda o'rta maxsus yoki oliy ma'lumot olish jarayoni jadallahadi.

O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash butun pedagoglar jamoasining, ota-onalar va zavod jamoatchiligining ko'p yillik ta'lim-tarbiya ishidir. Yoshlarni ma'nnaviy-psixologik jihatdan mehnat faoliyatiga tayyorlashga shaxsni har tomonlama kamol toptirishning o'zaro bog'liq jarayoni deb qaraladi, bu jarayonda qobiliyat va e'tiqod bilan birga o'smir shaxsini harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Qobiliyat va qiziqishlarni shakllantirishning politexnik asoslarini va maktab yoshlarining boshlang'ich ishlab chiqarish tayyor-garligini kengaytirish bilan uzviy bog'liq bo'lishi ishchi kasblarini egallashga yo'naltirishning hal qiluvchi shartidir.

Mehnat tarbiyasi jarayoni birmuncha ilk bosqichda amalgam oshirilgan taqdirda bunga erishiladi.

O'rta va yuqori bosqich ta'limida davomiylilik shu narsada ifodalananadiki o'quvchilar muntazam prinsip asosida tuzilgan yagona dasturlar bo'yicha ishlaydilar. Bunday dasturlar asta-sekin murakkablashtirilib borishni, bilimlarni, ko'nikma va malakalarni, mehnatning muayyan usullarini egallashni ta'minlaydi.

Ta'lim va kasbga yo'naltirish bilan qo'shilgan unumli mehnatda muntazam qatnashish eng ko'p pedagogik samara beradi.

O'rta maktabni tamomlab yoki kasb-hunar ta'limi tizimida, o'quv kombinatlarida zarur tayyorgarlikdan o'tib, xalq xo'jaliqining turli tarmoqlarida darhol ishlay boshlagan yoshlarning soni yil sayin ko'payib bormoqda.

Maktabda kasbga yo'naltirish sohasidagi hamma ishlarning bir-biriga muvofiqlashtirilishini ta'minlash maqsadida maktab direktori raisligida kasbga yo'naltiruvchi kengash tuziladi.

Kengash tarkibiga maktab direktorining tarbiyaviy ishlar bo'yicha muovini, kasbga yo'naltiruvchi o'quv-metodik kabinet mudiri, mehnat ta'limi, o'quvchilarning ijtimoiy-foydali, unumli mehnatini kasbga yo'naltiruvchi o'qituvchi yoki tashkilotchi, bitiruvchi sinflarning sind rahbari, maktab kutubxonachisi, maktab o'quvchilar tashkilotining vakillari, maktab shifokori, ota-onalar qo'mitasining a'zolari, homiy korxona vakillari kiradi.

Kasbga yo'naltiruvchi kengashning ish rejasini maktab ken-gashi ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi.

Kasbga yo'naltiruvchi kengashning vazifalari kasbga yo'naltirish bo'yicha umummaqtab va sinflarning tadbirlarini rejalashitirish va tashkil qilishdan, kasbga yo'naltirish ishiga oid ilg'or tajriba ma'lumotlarini yig'ish, umumlashtirish va ommalashtirishdan iborat. Kasbga yo'naltiruvchi kengash tuman maktablararo o'quvishlab chiqarish kombinatlari, yoshlarni kasbga yo'naltirish va ishga joylashtirish komissiyasi, kasb-hunar ta'limi tizimidagi ta'lrimuassasalari, bazaviy korxonalar va tashkilotlar, o'quvchilarning ota-onalari bilan aloqa bog'lab turadi.

Kasbga yo'naltirish ishi rejalashtirilgan chog'da kengash mahalliy sharoitlarini va maktab ishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Kengashning kasbga yo'naltirish ish rejasini maktab ta'limg-tarbiya ishi umummaqtab rejasining tarkibiy qis-midir.

Kasbga yo'naltirish kengashining majlislariga muassasalar, homiy korxona, oliy o'quv yurtlarining vakillari, balog'atga yet-maganlar ishi bo'yicha komissiya a'zolari, mehnat resurslaridan foydalanish organlarining vakillari taklif qilinadilar.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishini o'tkazgan chog'da maktab xodimlari va maktab ma'muriyatining vazifalari o'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid yo'riqnomalar, buyruqlar, qarorlar bilan tanishishdan, ilmiy-metodik adabiyotni o'rganishdan, chiqarilgan metodik tavsiyanomalarni o'rganish va o'z ishlarida foydalanish-dan iborat.

Sinf rahbarining vazifalari avvalo o'quvchining shakllanayotgan shaxsini, uning mayllari, qiziqishlari, qobiliyatlarini chuqur va har tomonlama o'rganishdan iborat. Bu sohada unga fan o'qituvchilari, ota-onalar bilan savol varaqasini to'ldirish va o'quvchining shaxsiy varaqqa-tavsifnomasini to'ldirgan holda uni muntazam ravishda kuzatish yordam beradi. Sinf rahbari o'quvchining shaxsini o'rganish negizida, muayyan dastur asosida, bir maqsadga qaratib kasbga yo'naltirish ishini olib boradi. Bunda sinf soatlaridan, fakultativ mashg'ulotlardan va ekskursiyaldan foydalaniladi. Kasbga yo'naltirish ishi o'quvchilarning ota-onalari bilan mustahkam aloqada o'tkaziladi.

O'quvchilar yiliga bir marta savol varaqasini to'ldiradi. Bunda maqsad o'quvchilarning hayotiy rejalarini aniqlab olishdir.

Sinf rahbarlari savol varaqasi asosida, o'quv yili oxirida, kasbga yo'naltiruvchi mакtab kengashiga topshirish uchun u yoki bu kasbni ongli ravishda tanlagan yoki zarur malaka darajasi bo'yicha kasb egallagan hamda o'qish va ish xususidagi o'z istaklarini bildirgan o'quvchilarning ro'yxatlarini tuzadilar.

O'quvchilar mehnat ta'limi darslarida mehnatning har xil turlariga oid bilimlarnigina olib qolmay, shu bilan birga o'z faoliyatlarini jarayonida maxsus malakalarga ham ega bo'ladilar, o'z qobiliyatlarini rivojlantiradilar, mehnatda o'z kuchlarini sinab ko'radilar. Shu boisdan mehnat ta'limi o'qituvchisi mehnat darsini shunday tashkil qilishi kerakki, toki har bir o'quvchi mehnatni sevishni o'rganib olsin, odamlarga naf keltiradigan bo'lsin, ish jarayonidan va uning natijalaridan zavqlansin.

Mehnat o'qituvchisi o'z ishida bilim va malakani egallahsha o'quvchilarda eng ko'p faollik va mustaqillikni ta'minlaydigan shakllari va metodlaridan foydalanishi lozim. Amaliy laboratoriya, o'quv-ishlab chiqarish ishlari, ishlab chiqarish ekskursiyalari tajribasi shunday ish shakllari va metodari jumlasiga kiradi. Bu ishlar mustaqil kuzatishlar, tajribalar, tahlillar, hisob-kitoblar, ishlab chiqarish va ijodiy vazifalarni hal qilishni hamda bevosita ijtimoiy-foydali, unumli mehnatni o'z ichiga oladi.

Mehnat ta'limi jarayonida o'qituvchi kasb qilib olin-gan mehnat to'g'risidagi ma'lumotlarni konkret mavzularni o'rganish bilan mantiqiy bog'lashi mumkin. Chunonchi, elektrotexnika fizikasi va bo'limini o'rgangan chog'da o'qituvchi xalq xo'jaligida elektr quvvatining roli va ahamiyatini, uni ishlab chiqarish hamda iste'molchiga yetkazib berish usullarini ko'rsatishi, shuningdek ushbu tarmoq kasblari uchta katta guruhga bo'linishini tushuntirib berish mumkin. Birinchi guruhga elektrotexnika uskunalarini, mashinalari, apparatlari va asboblarini ishlab chiqarish bilan bog'liq kasblar (elektrotexnika mashinalarini yig'uvchi slesar, sozlovchi slesar, elektromontyor, izolyatsiya qiluvchi va shu kabilar); ikkinchi guruhga elektr quvvati uzatish bilan bog'liq kasblar (podstansiyalarning elektromontyori, elektr tarmoqlarini ishlatuvchi elektromontyor va shu kabilar); uchinchi guruhga elektr quvvatidan foydalanish bilan bog'liq kasblar (elektromontajchi slesar, ta'mirchi elektromontyor va shu kabilar) kiradi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda o'qituvchining shaxsi juda katta rol o'ynaydi.

O'qituvchi shaxsi o'qituvchining ijodiy rivojlanishini, yuksak pedagogik mahoratini, ishda doimiy novatorligini, omilkorligini, bolalarga nisbatan muhabbat va hurmatini belgilab beradigan xislatlar majmuidir. Ayni shunday o'qituvchi o'quvchilarda o'ziga nisbatan hurmat-ehtirom, ishiga havas tug'diradi, o'ziga o'xshash bo'lish, u bilan do'stlashish eng ezgu istaklar, istiqbol to'g'risidagi, o'z kasbi haqidagi orzularni baham ko'rish ishtiyoqini yaratadi.

Maktabda qiziqishlar bo'yicha o'tkaziladigan xilma-xil mashg'ulotlar orasida to'garak ishi alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabda to'garaklarning asosiy ko'pchiligini mehnat ta'limi o'qituvchilari olib boradi.

Bular ishlab chiqarish va texnika to'garaklaridir. O'qituvchi bunday to'garaklarda o'quvchilarda ixtirochilik, konstruktorlik singari maxsus qobiliyatlarni ijodiy rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatiga ega.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi o'quvchi shaxsini o'rgangan chog'da kasbga yo'naltirish maqsadida quyidagi qoidalarga: shaxs kamol topadigan konkret vaziyatda konkret jamoada shaxsnинг xulq-atvorini kuzatish; faoliyat orqali shaxsni o'rganish; shaxsni qandaydir qotib qolgan narsa tariqasida emas, balki taraqqiyotda ko'rib chiqish; shaxsning vaqtincha psixologik holatini, o'rtoqlariga munosabatini hisobga olish kabi qoidalarga amal qilishi maqsadiga muvofiqli.

Mehnat ta'limi o'qituvchisining ishida psixologik diagnostikasiga katta o'rinni ajratiladi. Psixologik diagnostika jarayonida u maktab, kasb-hunar kolleji kasb maslahatchisi bilan birgalikda har bir o'quvchining kelgusidagi kasbni tanlashi jarayonida shaxsiy xususiyatlarini aniqlashi mumkin.

Shunday qilib, mehnat ta'limi o'qituvchisi ishida quyidagi yo'nalishlarni:

- kasbga oid bilimlar — o'quvchilarni mehnat faoliyati sohalari, xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlari, kasblar va mutaxassisliklar bilan tanishtirish;

- psixologik pedagogik maslahat — mehnat faoliyatining turлари to'g'risida, o'quvchi xislatlari, bilimlari va mayllariga eng muvofiq bo'lgan kasblar va mutaxassisliklar haqida o'quvchiga gapirib berish;

- kasb tarbiyasi — o'quvchilarda u yoki bu kasbga nisbatan barqaror qiziqishlarini shakllantirish;
- amaliy, kasbiy ko'nikish — mehnat faoliyatining turli sohalarida kuchlarni amaliy jihatdan sinab ko'rish uchun shartsharoitlar yaratish;
- kasbga yo'naltirish maqsadida o'quvchining shaxsini o'rganish, mehnatga bo'lgan qiziqishlarni va kasbga qiziqishlarni shakllantirish kabi yo'nalishlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Mehnat ta'limi o'qituvchisining kasbga yo'naltirish ishi o'zaro bog'liq tarkibiy qismlarning butun bir kompleksi bilan, shu jumladan, kasbga yo'naltiruvchi o'quv-metodik kabinet faoliyati, sinf rahbarining, fan o'qituvchilarining ishi, ota-onalar va shu kabilar bilan mahkam bog'langandir. Mehnat o'qituvchisi bular bilan yaqindan aloqa bog'lamay turib samarali ishlashi mumkin emas.

Mehnat ta'limi darslarda kasbga yo'naltirish ishini olib borgan o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashdagi boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasini ham hisobga olish lozim.

Maktabda har bir o'quv fani o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni amalga oshirishdagi o'ziga xos imkoniyatlarga ega, lekin u mehnat turlari, kasblarning xilma-xilligi va shu kabilar to'g'risida o'quvchilar bilimlarini shakllantirishning birdan-bir manbai bo'lishi mumkin emas. Shu sababdan ham kasbga yo'naltirish ishida mehnat o'qituvchisining faoliyatini sinf rahbarlari va fan o'qituvchilari ishi bilan muvofiqlashtirish g'oyat muhimdir.

Tajriba shuni ko'rsatadi, o'quvchilarda kasbga bo'lgan barqaror qiziqishni shakllantirish ishlari samaradorligini oshirish uchun:

- fan asoslarini o'qitishning, mehnat ta'limining va fakultativ mashg'ulotlarning fanlararo aloqalarini, davomiyligini, politexnik va kasbga yo'naltirish yo'nalishini ro'yobga chiqarish;
- politexnik ma'lumot, mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirishning o'quvchilar ijtimoiy-foydali, unumli mehnati bilan o'zaro aloqasini ta'minlash;
- o'quvchilarning bir maqsadga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatli o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishlari;
- xalq xo'jaligining turli sohalarida o'quvchilarning qiziqishi ni rivojlantirishda shaxsiy, tabaqalashtirilgan yondashuvni amalga oshirish;

- o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish sohasida mакtab o‘qituvchilari bilan ishlab chiqarish jamoalarining birgalikda ish ko‘rishi;
- sanoat, qishloq xo‘jalik kasblarini targ‘ib qilish lozim.

Tabiiy va matematik turkum fanlarni o‘rgangan chog‘da o‘quvchilar konkret iqtisodiy hududdagi yetakchi kasblar bo‘yicha mehnat mazmuni bilan tanishish, ana shu kasblarni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni olish imkoniyatiga egadirlar.

Maktab o‘quvchilari gumanitar fanlar bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda kasb tanlash masalalarida g‘oyaviy-axloqiy, dunyoqarashga oid bilim oladilar.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Kasb tanlashda sinf rahbarining o‘rni qanchalik ahamiyat kasb etadi?
2. Kasb tanlashga yo‘llashda o‘quv muassasasi rahbarining vazifasi.
3. O‘quv muassasasidan tashqari tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishda nimalarga ahamiyat berish kerak.
4. Talabalarni kasb tanlashga yo‘llash ishiga tayyorlashning mazmuni.

9.6. Psixologik-pedagogik fanlarni o‘rganishda talabalarni kasb tanlashga yo‘llash ishiga nazariy-metodik jihatdan tayyorlash

Reja:

1. Psixologiya fanining kasb tanlashga yo‘llashda nazariy asoslari.
2. Pedagogika fanini o‘rganishda kasb tanlashga yo‘llash jayronida metodik asoslari.
3. Mutaxassislikka kirish fanining mazmuni.
4. Talabalarni kasbga yo‘llash sistemasidagi maxsus, ilmiy va umumiyl tekniq sikldagi fanlar.
5. Talabalarni kasbga yo‘llash sistemasidagi umumiyl tekniq sikldagi fanlar.

Tayanch iboralar: adaptatsiya, kasb tanlash, kasbga yo‘llash, professiogramma, novatorlik, mehnat ekspertizasi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tatbiq qilish ko'p jihatdan o'quv-tarbiya ishlarini isloh qilish, o'quvchilar yosh xususiyatlarini bilish, har qaysi yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan pedagogik, psixologik jarayonlar xususiyatlarini qanchalik yaxshi bilgan mutaxassislarga bog'liq. Yuqorida sanalgan muammolarni hal qilishda qator gumanitar va maxsus fanlar yordam beradi. Pedagogik psixologiya, yosh psixologiyasi, muhandislik (injenerlik) psixologiyasi, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi singari fanlar shular jumlasidandir. Ishchining kasb faoliyati bilan bog'liq bo'lgan har qanday masala uning kasb mahorati, texnikani qanchalik egallaganlik darajasi, kasbini sevish darajasi bilan bog'liq. Buning uchun muhandis o'z kasb sirlarini ham, shu kasb mahoratini ham yoshlarga bera olishi lozim. U umumiy psixologiyani, yosh psixologiyasini, pedagogik psixologiyani, kasb-ta'limi va uning psixologiyasini bilishi talab qilinadi. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga texnikaning konstruktiv xususiyatlarini, muhandislik-psixologik talablarini hisobga olishni, eng muhimmi qo'llanadigan texnika inson imkoniyatlarini qay darajada hisobga olganligini, ya'ni texnikaning ijtimoiylashuvini hisobga olishini bilib ishga yondashuvi masalalarini aniq tasavvur qilishi bilan bog'liq. Bu muammo muhandislik psixologiyasida o'rganiladigan markaziy bosh mavzu odam-mashina tizimi hisoblanadi. Odam-mashina tizimi va uning asosiy muammolari kasb ta'limi o'qituvchisi va kasb ta'limi ustasi mahoratining nazariy, pedagogik-psixologik tayyorligining asosini tashkil qiladi. Muhandislik psixologiyasining asosiy vazifalari quyidagilardir:

1. Odam funksiyasini «odam-mashina» tizimida tahlil qilish, operator faoliyati tuzilmasi tasnifini o'rganish;
2. «Odam-operator» axborotlar almashinish jarayonlarini o'rganish (odamning axborotlarni qayta ishlash jarayonining asosiy 4 bosqichini o'z ichiga oladi: axborotni qabul qilish, qayta ishlash, qaror qabul qilish, boshqarish ta'sirini amalga oshirish);
3. Operator ish o'rinalarini tashkil qilish tamoyillarini ishlab chiqish;
4. «Odam-mashina tizimi» samaradorligiga psixologik omil-larning ta'sirini o'rganish;
5. «Jamoa-mashina» tizimida operatorlarni tanlash va tayyorlash tamoyili va metodlarini ishlab chiqish. (Kasb tayyorligi quyi-

dagilarni o‘z ichiga oladi: kasb ta’limi, jamoani shakllantirish, mashq qilish);

6. «Jamoa-odam-mashina» tizimini muhandislik-psixologik loyihalash va baholash;

7. Muhandislik-psixologik ishlanmalarining iqtisodiy samarasini aniqlash;

Kasb tanlashga yo’llash. Kasb ta’limi psixologiyasining asosiy muammosi — shaxsnинг kasbga yaroqliligini aniqlash, uni tayyorlash, mehnat faoliyatiga yo’llash masalalaridir. Bular professiografiyadan boshlanadi.

Professiografiya. Insonga qo‘yiladigan talablar nuqtayi-nazariidan kasblar va uni o‘z ichiga olgan ixtisosliklarini umumlashtirib tavsiflanishi professiografiya deyiladi. Professiografiya natijasi professiogramma bo‘lib, bir kasb doirasidagi ixtisoslarning insonga, odamlar guruhiга qo‘yishi mumkin bo‘lgan talablar asosida tuzilgan umumlashtirilgan tavsifnomalardir. Professiogramma ning bir qismini psixologik professiogramma, qolgan bir qismini inson psixikasiga qo‘yiladigan talablar, ya’ni kasb qobiliyatlari ro‘yxati tashkil qiladi. Professiografiya kasblar klassifikatsiyasini ham o‘z ichiga oladi, bu turli mezonlar bilan ifodalanadi: texnologik, gigiyenik, psixologik va boshqalar. Har qanday kasbni o‘rganish va tavsiflash har doim ma’lum maqsadni ko‘zlaydi va shu maqsadga bo‘ysunadi. Professiogrammalar quyidagi vazifalarни bajarishga qaratilgan xillarda bo‘lishi mumkin: kadrlar tayyorgarligini asoslashga, gigiyenik sharoitlarni hisobga olish va uni sog‘lomlashtirishga; kasb tanlashni asoslashga; kasbiy maslahat va kasbiy tanlovnı asoslashga; mehnatga baho berish talablarini, mehnat xavfsizligi darajasini ko‘tarish va boshqalar.

Kasb tanlashga yo’llash va kasb maslahatlarini uyuştirish. Kasb tanlashga yo’llash eng avvalo odam imkoniyatlari va u yashayotgan muhitning bir qancha sharoitlarini o‘rganishdan boshlanadi. Bularni umumlashtirib mehnat ekspertizasi deb aytildi. Mehnat ekspertizasi bu odamning aniq kasb bo‘yicha mehnatga yaroqliligini ma’lum mutaxassislar tomonidan aniqlanishidir. Odamning u yoki bu mehnat turiga yaroqliligi quyidagilarga bog‘liq bo‘lishi mumkin: yoshiga; tegishli bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishiga; mazkur kasb bo‘yicha ishlashga qiziqish va iste’dodi mavjud bo‘lishiga. Bundan tashqari yashayotgan ijtimoiy muhit va jinsiga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Mehnat ekspertizasiga turli mutaxassislar va tashkilotlar jalg qilinadi: shifokorlar, psixologlar, pedagoglar, injenerlar va boshqa mutaxassislar qabul hay'atlari, xodimlar bo'limi, tibbiy ekspert hay'ati, xarbiy vrachlik komissiyalari, lokomotiv mashinistlari, shofyorlar, shaxtyorlar va boshqalarni tanlash hay'atlari va boshqalar. Mehnat ekspertizasi tashkiliy shakllaridan qat'i nazar quyidagi umumiy masalalarni hal qilish bilan shug'ullanadi:

1. Odam ma'lum ishni boshlab keta oladimi?
2. Tegishli lavozimda ishni davom ettira oladimi?
3. Odamdan qaysi soha yoki vazifada foydalanish ma'qul?
4. Baxtsiz hodisa yuz berganda, bunga odam qay darajada aloqador, ishga qabul qilingan, tayinlanganlarchi?

Mehnat faoliyatining barcha turlarida mehnat ekspertizasining asosiy vazifasi quyidagilardir:

1. Odamning yoshiga, salomatligiga, ma'lumotiga, psixologik va boshqa xususiyatlariga mos kelmaydigan ishga kirib qolishning oldini olish;
2. Mazkur kasbga eng qobiliyatli kishini tanlab olish;
3. Tasodifan shu kasbni tanlab ishga kirgan odamni o'z vaqtida chetlatish, mos keladigan boshqa ishga o'tkazish;
4. Odamning qaysi kasbga yaroqli ekanligini o'rganib chiqib, u yoki bu faoliyat turini tavsija qilish.

Psixodiagnostika ma'lumotlari asosida istiqboldagi psixologik mehnat ekspertizasi kishining kelgusi mehnat faoliyatini belgilashga yordamlashadi.

Bu talablarni har bir pedagog va ota-onalarning bilishi va amal qilishi ayniqsa, o'quvchining 9-sinfni tugatishi va hayot yo'llini belgilab olishi davrida juda muhimdir.

Mehnat ekspertizasi kuzatilayotgan shaxsning o'tmishi, o'quv va ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilish, baholash va uning xatolarini aniqlashga, ayrim ko'ngilsiz holatlarga sabab bo'lgan holatlarni (falokat, nuqsonli mahsulot, jarohat) o'rganishga xizmat qiladi. Bu o'quvchi yoki ishchining kelgusi mehnat faoliyatini belgilab olishida katta ahamiyatga ega.

Mehnat ekspertizasi bir vaqting o'zida kasbga yo'llash muammolarini hal qilishga ham yordam beradi. Kasb tanlashga yo'llash bu psixologik-pedagogik, tibbiy va davlat tadbirlari maj-mui bo'lib, hayotga kirib kelayotgan odamga ilmiy asoslangan shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda jamiyat va shaxsiy

manfaatlarga mos keladigan faoliyat turini tanlab olishda yordam berishdir. Kishining qobiliyatariga mos kelmaydigan kasb tanlanishi ko'pincha fojialarga sabab bo'lib, shaxs uchun moddiy, ma'naviy zarar yetkazishi bilan jamiyatga ham qimmatga tushishi mumkin. Oila va jamiyat mablag'ini sovurish, kadrlar qo'nimsizligi, qayta tayyorlash harakatidagi xarajatlarning ortishi va h.k. Kasb tanlashga yo'llash muammolari odamlarni azaldan tashvishlantirib kelgan.

Kasb tanlash davlat ahamiyatiga ega masala ekanligi birinchi marta Ispaniyada 1575-yilda Xuan Uarte tomonidan o'rta ga qo'yilgan va davlatda bu masala bilan shug'ullanadigan odamlar va tashkilotlar bo'lishi kerakligini taklif qilgan edi. IX asr oxiri va XX asr boshlarida qator mamlakatlar olimlari va jamoat arboblari (AQSH, Germaniya, Fransiya, Rossiya va boshqalar) yirik ishlab chiqarish sanoat korxonalari uchun yoshlardan maxsus tayyorgarlik ko'rgan kadrlarni tanlab olish, o'qitish, kasb o'rgatish zarurligi masalasini qo'ydilar.

Asrimizning 60-yillaridan boshlab sobiq ittifoq davrida V.N. Shubkin, L.L. Kondratyeva, L.V. Botyakova, G.G. Golubev, A.Y. Golomshtok (Rossiya), K. Davlatov, V. Chichkov, A. Ismoilov, N. Shodiyev (O'zbekiston) va boshqalar shug'ullandilar. Bu dolzarb vazifani hal qilish mактабдаги politexnik ta'lim zimmiga yuklatildi, biroq kutilgan natijani har doim ham beravermadidi. Kasb tanlashga yo'llash maslahat berishdan nariga o'tmadi.

K. Platonov kasb tanlashga yo'llashning kompleks dasturini ishlab chiqib, «kasb tanlashga yo'llash uchburchagi» sxemasini taklif qildi. Uning bir tomoni, kasblarning kishi va uning organizmiga qo'yadigan talablari. Ikkinchisi tomoni, bozor imkoniyatlari (mehnat bozor talablari, qaysi kasbdagilar kerakligi). Uchinchi tomoni, o'smir qobiliyatlarini bilish va davlat siyosatida hisobga olishdan iborat. Kasbiy maslahat kasbga yo'naltirish tizimining bir qismi bo'lib, odamning qobiliyatlarini o'rganishga, tegishli maslahatlar berishga, batafsil shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Buning uch bosqichi bor: tayyorlov, hal qiluvchi va aniqlovchi.

Kasb tanlash va kasbga moslashish qaysi bosqichlarni o'z ichiga oladi?

Tayyorlov bosqichida oiladagi, maktabdagi o'rganish, ya'ni o'qish davridagi oladigan maslahatlar. Yakunlovchi tayyorgarlik 9-sinfdag'i olib boriladigan ishlar, o'qishni davom ettirish shaklini

tanlash bilan bog'liq. Aniqlovchi kasbiy maslahat o'rta maktab doirasidan tashqariga chiqadi. Bu kollejda, litseyda, oliv ta'lif muassasasida davom etadi. Kasbiy tanlov – mehnat istiqboli ekspertizasi shakli bo'lib, odamning qaysi kasbga yaroqliligi ha-qida kafolat berish bilan bog'liq jarayon. Eng muhim qaysi kasb uning uchun nomaqbul, zararli ekanligini ogohlantirishdir.

Kasbiy tanlov natijalari kasb-hunar kollejlarida hisobga olinib o'quvchi qaysi kasb bo'yicha o'qishi yoki boshqa sohaga ishga o'tkazilishi muhokama qilinadi. Kasb qobiliyatni vaziyatga qarab o'zgarishi mumkin. Shuning uchun zarur sharoitlar yaratish, kel-gusi faoliyat turini belgilab olishga maslahat berilishi mumkin. Kasbiy maslahatning pirovard natijasi shaxs moyilligini aniqlashdir. Moyillik shaxs sifati bo'lib, uning tarkibiga ma'lum faoliyatga qiziqish va uni bajarishga intilish, o'z-o'ziga asoslangan baho be-rish kiradi. Moyillikning ikki turi bor: potensial va faol moyillik. Potensial moyillik ko'pincha kishini yashiringan imkoniyatlari bilan bog'liq, hatto o'zi ham bilmasligi mumkin. Faol moyillik bevosita ish jarayonida namoyon bo'ladigan qiziqish bilan bog'liq.

Kasbiy moslashish, uning asosi va mohiyati. Kasb tanlashga yo'l-lashning hal qiluvchi davri o'quvchini biror kasb ichiga asta-sekin kirib borishi, moslashuvi bosqichidir. Bunda o'quvchi shogirdlikdan malakali ishchi darajasi sari takomillashib boradi. Kasbiy moslashishning ikki bosqichi bor: tayyorgarlik va bevosita kasb egallash bosqichi. Tayyorgarlik bosqichida o'quvchi o'quv jarayoni davomida maxsus va umumtexnika fanlarini o'rganadi, ayrim aniq ko'nikmalarni hosil qiladi. Bu biologik, ijtimoiy-psixologik moslashish ko'rinishiga ega. Korxonada, bevosita ishlab chiqarishda kasbiy moslashish nihoyasiga yetkaziladi. Kasbiy moslashishni muvaffaqiyatli nihoyasiga yetishi uch narsaga bog'liq:

1. Kollej o'qituvchilari va ustalarining o'z sohalariga qanday tayyorlashlari, nazariy va amaliy bilim berishlari, ko'nikma va malaka hosil qilishlari, kasbga qiziqish uyg'ota olishlariga;

2. Ishchilar va murabbiylar o'rtasidagi shaxslararo munosabat shakliga.

O'quvchi borib tushgan mehnat jamoasidagi ijtimoiy psixologik muhit (sinchkov, mehribon, loqayd, yangi bolaga ishonchsizlik bilan qarash va hokazo).

Ijtimoiy psixologik moslashish jarayonida bilish, emotsiyal va amaliy aspektlar farqlanadi.

Novatorlik va ratsionalizatorlik xususiyatlarini aniqlash. Kasbiy moslashish malakali ishchi yetishuvi bilan nihoyasiga yetadi. Bunda eng ko'zga tashlanadigan sifat ishchining ijodiy mehnat qilishidir. Novatorlik – ishlab chiqarishda fan-texnikaning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishga intilish. Ratsionalizatorlik esa ijodiy mehnat qilish orqali kam mablag' va kuch sarflagan holda ko'p va sifatli mahsulot chiqarishga kirishish, shaxsiy takliflari bilan chiqish va boshqalardir.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Psixologiya fanining kasb tanlashga yo'llashdagi o'rni va vazifalari nimalardan iborat?
2. Pedagogika fanini o'rganishning kasb tanlashga yo'llashdagi ahamiyatini tushuntirib bering.
3. Talabalarni kasbga yo'llash sistemasidagi umumiy texnik sikldagi fanlarni sanab bering.

Mustaqil ta'lim topshiriqlari:

Talabalarga kasbga yo'naltirish ishining maktab sistemasi, kasbga yo'naltirishning tarbiyaviy yo'nalishi, kasbga yo'naltirishning ijtimoiy va psixofiziologik asoslari, kasb tanlashga yo'naltirishning tarkibi, psixologik-pedagogik fanlarni o'rganishda talabalarni kasb tanlashga yo'llash ishiga nazariy-metodik jihatdan tayyorlash haqida ma'lumotlarni tahlil qilishga oid topshiriqlar beriladi.

X bob. MEHNAT TA'LIMI METODIKASI, KASB TANLASHGA YO'LLASH FANIDAN KURS VA BITIRUV ISHLARINI BAJARISH METODIKASI

10.1. Mehnat ta'limi metodikasidan kurs ishlari bajarish

Reja:

1. Kurs ishini bajarishdan maqsad va uning tuzilishi.
2. Kurs ishini bajarish yuzasidan ko'rsatmalar.

Tayanch iboralar: geometrik o'lchamlarda o'xshashlik, fizi-kaviy o'xshashlik, harakatli o'xshashlik, dars o'tish metodikasi, darsni tashkil etish, dars rejasi, kalendar mavzuli reja, darsning xronologik xaritasi, konsept, tarqatma materiallar, test so'rovnomalari, jadvallar, rasmlar, texnologik xarita, sxemalar, pedagogik-texnologiya metodlaridan foydalanish, o'quv ishlab chiqarish ishlari, texnik baza tayyorlash, instruksion-texnologik hujjatlar.

Kurs ishini bajarishdan maqsad va uning tuzilishi.

Mehnat ta'limi metodikasi fanidan kurs ishlari fan yuklamasi tugatilgandan so'ng, talabalarda mehnat ta'limi o'quv kurslari haqida to'liq ma'lumot shakllangandan keyin bajarilishi talab qilinadi. Kurs ishlari talabaning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish, mustahkamlash va boyitish, egallangan bilimlarni amalda qo'llay olish, mustaqil ilmiy izlanishlar olib borish, adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish kabi maqsadlarni ko'zlaydi.

Shu maqsadlarning to'la-to'kis amalga oshishi uchun kurs ishi topshiriqlari shunday tuzilishi kerakki, uni bajarish uchun talaba kursning barcha bo'limlariga, metodik adabiyotlarga, amaliy ish tajribasiga murojaat qilishiga to'g'ri kelsin.

Kurs ishi tushuntirish xati va chizmalarni o'z ichiga oladi. Tushuntirish xatining hajmi cheklanmaydi. U taxminan 25–30 betni tashkil etadi. Chizmalarning mazmuni aniq topshiriqlar bilan belgilanadi.

Kurs ishi topshirig'i biror mavzuga tegishli kalendar-tematik reja; mavzuga bag'ishlangan darslar tizimini ishlab chiqish, biror mavzuning dars reja-konseptini tuzish, pedagogik texnolog-

yalarga asoslangan dars ishlanmalarini tayyorlashdan iborat bo'lishi mumkin.

Dastlab mavzuning o'quv dasturidagi tutgan o'rni, uni o'rganishning kalendar muddatlarini aniqlash talab etiladi, sababi busiz boshqa o'quv fanlari bilan didaktik aloqa o'rnatib bo'lmaydi.

Kurs ishida quyidagilar aks ettiriladi:

1. Mavzu tavsifi. Mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganliganlik darajasi.

2. Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili.

3. Mavzuning o'quv-tarbiyaviy vazifalari.

4. Mavzuni yoritishda foydalaniladigan ilmiy-tadqiqot metodlari.

5. Mavzu materiallarining nazariy va metodik asoslarini ochib berish.

6. Mavzuning nazariy asoslarini o'quv jarayonidagi mehnat operatsiyalari bajarilishining metodik jihatdan tavsifi.

7. Mavzuni yoritish metodikasi. Mehnat ta'limi metodikasi fanning asosiy tushunchalari, dars o'tish metodikasi, darsni tashkil etish, dars rejasi, kalendar mavzuli reja, darsning xronologik xaritasi, konspekt, tarqatma materiallar, test so'rovnomalari, jadvallar, rasmlar, texnologik xarita, sxemalar va hokazo.

8. Mavzuni yoritishda pedagogik texnologiya metodlaridan foydalanish. Pedagogik texnologiya tushunchasini o'zlashtirish, pedagogik texnologiyaga berilgan ta'riflar bilan tanishish, pedagogik texnologiya metodlarini qo'llagan holda dars ishlanmasi tayyorlash.

9. O'quv ishlab chiqarish ishlari.

10. Mavzuni o'rganish uchun zarur moddiy-texnik baza tayyorlash.

11. Instruksion-texnologik hujjatlar.

12. O'qituvchining darsga tayyorgarligi.

13. Mavzuni o'rganish rejasi va texnik hujjatlar.

14. Xulosa tayyorlash, taklif va mulohazalarni bildirish.

15. Foydalanilgan va tavsija etiladigan adabiyotlar ro'yxatini keltirish.

Kurs ishini bajarish yuzasidan ko'rsatmalar.

Kurs ishining tuzilishi.

Kirish.

Masalaning dolzarbligi; mavzuga doir adabiyotlar tahlili; ilmiy-tadqiqot metodlari.

Asosiy qism:

1-bo'lim. Mavzuning ilmiy-nazariy asoslari.

2-bo'lim. Mavzuni yoritish metodikasi va pedagogik texnologiya metodlari asosida dars ishlanmasi.

3-bo'lim. Tajriba-sinov o'tkazish metodikasi va baholash mezonlari.

Xulosa. Ilmiy izlanishdan olingen natijalar yuzasidan fikr va mulohazalar.

Foydalaniqan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati.

Kurs ishini bajarish bosqichlari va uni himoya qilish tartibi:

1. Mavzuni tanlash. Kurs ishi rejasini tuzish va uni tasdiqlash.

2. Adabiyotlarni o'rganib tahlil qilish.

3. Kurs ishi mavzusi yuzasidan ilg'or pedagogik ishlarni o'r-ganish.

4. Olingen ma'lumotlarni jadval va sxemada ishlab chiqish.

5. Kurs ishi himoyasida kafedra o'qituvchilari ishtirot etadi.

6. Kurs ishini baholashda har tomonlama bajarilgan ishlar hisobga olinadi.

7. Kurs ishi rahbari himoya qilingan ishni tahlil qilib, yakunlab beradi.

8. Kurs ishi himoyasi taqdimot shaklida namoyon qilinadi.

9. Muddatida ulgura olmagan yoki himoya qila olmagan talaba akadem qarzdor deb hisoblanadi.

Kurs ishini himoya qilish tartibi.

Oliy ta'lim muassasida bakalavriaturaning to'rt yil davomida har bir talaba o'quv rejasiga binoan kamida 4 ta kurs ishi yoki kurs loyihalarini bajaradi. Kurs ishlari talabaning professor-o'qituvchilar rahbarligida bajarilgan mustaqil ishi bo'lganligi uchun uning natijasi, kafedra tomonidan tayinlangan, dekanat tomonidan tasdiqlangan uch kishidan iborat komissiyada, avvaldan belgilangan reja asosida himoya qilinadi.

Kafedra tomonidan berilgan topshiriqqa asosan talaba kurs ishini to'liq bajarib, rasmiylashtiradi va kafedraga rasmiy ravishda topshiradi. Shundan so'ng kurs ishi rahbarining ijobjiy taqrizi bilan himoyaga qo'yiladi.

Himoyaning o'tkazilish tartibi quyidagilardan iborat:

1. Komissiyaga taqdim etilgan ish komissiya raisi tomonidan e'lon qilinadi e'tirozlar bo'limasa, muallifga 5–10 daqqaq ishning maqsadi, mohiyati, olingen natija va xulosalarni bayon qilishga ruxsat etiladi.

2. Himoya vaqtida talaba kurs ishlari materiallaridan, grafik tasvirlari va qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga haqli hisoblanadi.

3. Himoya rejasida ko'rsatilgan barcha talablar himoya qilin-gandan so'ng, komissiya a'zolari holi qolib, bir qarorga kelinadi va reyting tizimiga asosan baholanadi.

4. So'ng himoyachilar va qatnashuvchilarning barchasi taklif etilib qo'yilgan baholar e'lon qilinadi.

5. Qoniqarsiz baholanganlar, akadem qarzdor hisoblanib, dekanat belgilagan rejaga asosan yana bir bor himoya qilishlari mumkin.

6. Komissiyaga topshirilgan kurs ishlari rasmiy ravishda ka-fedraga, so'ng arxivga kamida 5 yil muddatda saqlash uchun topshiriladi.

Kurs ishlari 100 balli tizim asosida baholanadi. Kurs ishini bajarishda 55 balldan kam to'plagan talaba akadem qarzdor hisoblanadi.

Nº	E'tibor beriladigan holatlar	Ballarning vazifalar bo'yicha taqsim-ланishi
1.	Kurs ishining tuzilmasi	5
2.	Mavzuning dolzarbligini asoslash	5
3.	Maqsadning to'g'ri qo'yilganligi va yechimga erishilganligi	10
4.	Mavzuni yoritishda foydalilanigan adabiyotlar tahlili	5
5.	Mavzuni yoritish metodlarining to'g'ri tanlanganligi va tatbiq qilinganligi	30
6.	Aniqlangan nazariy ma'lumotlarni amalda sinab ko'rilganligi va asoslanganligi	15
7.	Dars ishlamalarini tayyorlashda pedagogik texnologiyalarning to'g'ri qo'llanilganligi	25
8.	Olingan yakuniy xulosalarning belgilangan maqsadga muvofiqligi	5
	Jami	100

Kurs ishlarini bajarishda texnik modellashtirish va loyihalash.

Oliy ta'lif muassasalarida, ayniqsa, bo'lajak mehnat ta'limi va kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mehnat va kasb ta'limi metodikasi fanlaridan kurs ishlarini bajarishda texnik modellash va loyihalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi vazifalar ni muvaffaqiyatli bajarishda turli tashkiliy shakl va metodlardan foydalaniladi, jumladan:


- texnik ma'lumotlar berish;
- tadqiqotchilik va amaliy faoliyat, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- texnik bilimlarni, mehnat usullarini, bajarilgan ishlar sifatini nazorat qilish;
- dizayn, estetik did va mehnat madaniyati ko'nikmalarini, mustaqil ishlash qobiliyatini shakllantirish;
- konstruktorlik-teknologik mazmundagi ijodiy masalalarni hal qilish, yuksak darajadagi mehnat intizomi va mehnat muhofazasi talablariga rioya etish uchun ma'lum shart-sharoitlarning yaratilishi.

Texnik modellashtirish jarayoni biror-bir noyob, qimmatbaho xullas ko'p mablag' sarflanadigan inshootlar, agregatlar, mashinalar va hokazolarning modelini yaratish hisoblanadi. Odatda, modelning o'lchamlari asl nusxaga nisbatan ancha kichik bo'ladi va shunga ko'ra undan arzonga tushadi. Model tuzilishi jihatidan aslidan farqlanishi mumkin, lekin unda ishlash jarayonida aslida sodir bo'ladigan fizik hodisalar kuzatilishi kerak.

Texnik modellashtirish jarayoni uchta asosiy bosqichdan:

- model yasash uchun texnik hujjatlarni (texnik shartlar, chizmalar, texnologiyani) tayyorlash,
- model yasash,
- uni sinab ko'rishdan iborat.

Texnikada ishlatiladigan modellar 3 turga bo'linadi. Mehnat va kasb ta'limi metodikasi fanlaridan talabalar kurs ishlarini bajarishlari uchun ushbu turlarni bilishi talab etiladi:



Geometrik o'lchamlarda o'xshashlik – ko'rgazmali quroq maqsadida ishlataladigan obyektning tashqi qiyofasini anglatadi. Bunday modellar talabalarni zamonaviy mashina, mexanizmlar tuzilishi, ishslash mezonlari bilan tanishtiradi.

Fizikaviy o'xshashlik – o'rganilayotgan obyektning harakat dinamikasi, o'zaro bog'liqligi qonuniyatlari, xususiyatlari va o'xshashliklarini ko'rsatadi.

Harakatli o'xshashlik – tirik mavjudodlarning harakatlarini modellashtirish tushuniladi. Bu turdag'i modellarning asliga yaqin bo'lishni ta'minlash maqsadida ko'p holatlarda tirik mavjudodlar yoki insonlarga o'xshash qilib yaratiladi.

Talabalarga texnik modellashtirishni o'rgatish jarayonida inson o'z amaliy faoliyatida tabiat qonuniyatlari va hodisalaridan foydalanishini ko'rsatib berish, ularni zamonaviy ishlab chiqarish sohalari bilan tanishtirib chiqish kerak. Bunda talabalarning fan asoslari bo'yicha olgan bilimlarini ustaxonadagi amaliy ishlari bilan bog'lash kerak.

Talabalarning texnik modellashtirish jarayonidagi faoliyati asosan texnik hujjatlarni ishlab chiqish va model yasashdan iborat bo'ladi. Shuning uchun eng avval talabalarni chizmalarini ishlashga, texnologik jarayonni tuzishga, modelning detallarini tayyorlash va ularni yig'ishga jalb etish uchun eng qulay modellar yasashni nazarda tutish lozim.

Talabalarga modeellashtirishni o'rgatish jarayonida obyektlarni tayyorlash quyidagicha uch bosqichda amalga oshiriladi:

- 1) mukammal texnik hujjatlar bo'yicha;
- 2) qisqartirilgan texnik hujjatlar bo'yicha;
- 3) texnik shartlar yoki o'z shartlari bo'yicha.

Modellashtirishni o'rgatishdagi bиринчи bosqichning xususiyati shuki, unda talabalar topshiriqni bajarish uchun barcha boshlang'ich ma'lumotlarni tayyorgina oladilar. Bu esa ana shu bosqichda talabalarning ijodkorligi uchun hech qanday sharoit bo'lmaydi degani emas. Chunki chizmalar, obyektning texnik shartlari va texnologik xarita mavjud bo'lgan taqdirda ham, talabalarning ma'lum darajada mustaqil ishlashiga to'g'ri keladi. Ular avvalo texnik hujjatlarni tushunib olishlari: chizmani o'qishlari va texnologiyani o'rganishlari shart.

Modellashtirishni o'rgatishning ikkinchi bosqichi talabalar topshiriqni bajarish uchun kerakli ma'lumotlarni to'liq olmas-

ligi bilan tavsiflanadi. Ular yordamchi adabiyotdan foydalanib, buyumning loyihasini, uni tayyorlash texnolgiyasini ishlab chiqishga va hokazolarga jiddiy yondashib, mazkur ma'lumotlarning bir qismini mustaqil holda o'zları topishlari kerak. Qisqartirilgan texnik hujjatlarda bir yo'la ham chizmalarни o'qish va ishlab chiqish, ham loyihalash va texnologik jarayonni tashkil etish vazifalarini nazarda tutish tavsiya qilinadi. Talabalar yetishmaydigan ma'lumotlarni shu tarzda topish uchun chizmachilikdan, shuningdek loyihalash va texnologiyadan olingan bilimlarni ijodiy qo'llashlari lozim.

Modellashtirishni o'rgatishning uchinchi bosqichi talabalarining o'z ijodiy tasavvuri yoki buyumga qo'yiladigan shartlar bo'yicha bajaradigan mustaqil ishidir. Modellashtirishda talabalarning individual xususiyatlari farqi ayniqsa yaqqol kordinadi.

Bunda ma'lum darajada ayrim talabalarning ongli mustaqil ta'lif faoliyati bilan shug'ullanishi har xil texnik qurilmalarni loyihalash va tayyorlashga qiziqishlari sabab bo'ladi.

Loyihalash – asl nusxadagi mashinalar, moslamalar, jihozlar va hokazolarning chizmalarini yaratishga qaratilgan ijodiy jarayondir. Loyihalash bilan shug'ullanish uchun avvalo keng grafik hamda texnologik bilim va malakalarga ega bo'lish kerak. Shuningdek, buyumlarning mustahkamligi, aniqligi va hokazolariiga oid murakkab hisoblarni bajarish imkonini beradigan maxsus loyihalash bilimlari va malakalari ham zarur.

Talabalar texnik modellashtirish bilan shug'ullanishda buyumlarni loyihalash, tayyorlash va pardozlash bo'yicha quyidagi ishlarni bajaradilar:

- 1) loyihalanadigan buyumning vazifasi va qo'llanishi bilan tanishish;
- 2) buyumdan foydalanish va uni tayyorlash jarayoniga asos bo'ladigan fizik, kimyoviy va boshqa jarayonlarni aniqlashtirish;
- 3) umumtexnik va qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish, qo'yilgan vazifani hal qilinishining eng yaxshi variantini tanlashda ulardan foydalanish;
- 4) buyumning bir nechta eskiz variantlarini tayyorlash va ulardan eng yaxshisini tanlash;
- 5) buyumning texnik loyihasini ishlab chiqish;
- 6) buyumga ishlov berish texnologiyasini ishlab chiqish;

- 7) ayrim detallarni, uzellar va umuman buyumlarni tayyorlash
hamda rostlash;
- 8) buyumning kamchiliklarini aniqlash va bartaraf etish;
- 9) buyumni pardozlash;
- 10) buyumni tayyorlashga doir o'quv-texnik hujjatlarga tuza-
tishlar kiritish.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Kurs ishlari mavzularini tanlashga qo'yiladigan talablar.
2. Kurs ishlarini tayyorlashga qo'yiladigan talablar.
3. Kurs ishini bajarish ketma-ketligi, mazmuni va unda qo'yiladigan muammolarni hal qilish metodikasi.

10.2. Mehnat ta'limi metodikasidan bitiruv ishlarini bajarish

Reja:

1. Bitiruv malakaviy ishini bajarishning maqsad va vazifalari.
2. Bitiruv malakaviy ishlarini amalga oshirishda tadqiqot metodlari.

Tayanch iboralar: malaka ishi, ilmiy rahbar, maslahatchi, ilmiy xodim, hisob grafika, mavzuning dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqot maqsadi, tadqiqot vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, kutiladigan natija, tadqiqot metodlari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari.

Bitiruv malakaviy ish talabaning o'qish davrida egallagan nazariy va amaliy bilimlari asosida bajargan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijasi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi talabalarning barcha blok fanlari bo'yicha olingan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish, bu bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo'llashdan iboratdir. Talaba uzluksiz ta'lim turlari bo'yicha o'quv dasturlari, o'quv rejalarini bilan tanish bo'lishi, mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi, pedagogika va psixologiya fanlari, yangi pedagogik texnologiyalarini chuqur bilishi va bilimlarini amalda qo'llay olishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishning vazifasi olib borilgan tadqiqot mavzusi bo'yicha olingan umumiy axborotni mustahkamlashni, manbalardan to'plangan ilmiy va amaliy dalillarni tizimli tarzda izchil tartibga solishni nazarda tutadi.

Bitiruv malakaviy ishning muallifi ilmiy-tadqiqotni mustaqil olib borishi, ta'limiy muammolarni topishi va ularni hal qilishning umumiy metod va qoidalarini amalda qo'llay bilishi, tahlil qila olishi, natijaning samardorligini ko'rsata bilishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari sifatida mutaxassislik va biror ixtisos bo'yicha tayyorlash sohasida ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlarda bilimlarni mustahkamlash, mustaqil holda ma'lumotlarni izlash va muayyan muammolarni yechish, tanlangan mavzu bo'yicha kasbiy, pedagogik va psixologik kategoriyalar, hodisalar va muammolar mohiyatini ochish, mavjud material-larni tizimlashtirish, tahlil qilish va qayta ishlash, uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish va hokazolardan iborat.

Dissertatsiyaning yozilishi, tayyorlanishi va ochiq himoya qilinishi talabaning mutaxassisligi bo'yicha tanlagan mavzusi negizida nechog'lik mustaqil tadqiqot olib borish tajribasiga ega bo'lganligini aniqlab beradi.

Bitiruv malakaviy ishlar mavzusini tanlash va tasdiqlash tartibi.

Umumiy talablar.

Bitiruv malakaviy ishi talabaning oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim olish davrlarida egallagan barcha nazariy bilimlarini tizimlashtirish, tadqiqot, tajriba-sinov va loyihalash metodikalarini amaliyatda qo'llay olish ko'nikmasini nazorat qilish, shuningdek, bitiruvchi talabaning zamonaviy kasb-hunar ta'limi sohasida kasbiy majburiyatlarni mutaxassis sifatida bajarishga tayyorgarlik darrasini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Bitiruv malakaviy ish mavzulari respublikamizdagi o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga mos ravishda, Davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablarga asoslangan holda, zamonaviy fan yutuqlari va texnologiyalarini hisobga olgan holda tuziladi.

Bitiruv malakaviy ishlar mavzulariga qo'yiladigan talablar.

Bitiruv malakaviy ishlarining namunaviy mavzulari mutaxassislar tayyorlovchi kafedralar tomonidan ishlab chiqiladi. Mavzular alohida hujjat sifatida taqdim etilib, davlat va jamiyat talablari asosida davriy yangilab turiladi.

Namunaviy mavzular asosida shakllangan bitiruv malakaviy ish mavzusи ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb bo'lishi lozim. Bitiruv malakaviy ish mavzusining shakllanishi kasb-hunar ta'limi samaradorligini oshirishga qaratilgan muayyan amaliy masalalarни hal etish ko'zlanganligi to'g'risida aniq tasavvur berishi lozim.

Mavzu tanlashda talabaning keyingi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishini nazarda tutgan holda bitiruv malakaviy ish mavzusining nomzodlik va hatto doktorlik dissertatsiyalari yozishda ham dolzarb bo'lishiga erishish lozim. Bitiruv malakaviy ish uchun tanlangan mavzu nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari tayyorlashda ham davom etishini maqsad qilib qo'yiladi.

MALAKAVIY ISHNI TAYYORLASH TARTIBI

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayoniga tayyorgarlik.

Bitiruv malakaviy ishni bajarishga tayyorgarlik jarayoni talabaning tanlangan mavzuning o'rganilganlik darajasini baholashga yordam beruvchi adabiyotlar, monografiya va o'quv qo'llanmalar, ilmiy maqolalar bilan tanishishidan boshlanadi.

Manba va adabiyotlar bilan ishslash jarayonida tadqiq etilayotgan u yoki bu muammoga taalluqli bo'lgan dalil va voqealarni yozib olish tavsiya etiladi.

Yozib olingen ma'lumotlar ko'pchilik hollarda materialni qayta ishslash va guruhlashda qiyinchilik tug'dirmasligi uchun bitta varaqqa joylashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ma'lumotlar chiqqan manba va adabiyotlarning qayeridan yozib olingenligini aniq ko'rsatish talab etiladi.

Manba va adabiyotlar o'rganib bo'lingach esa, bitiruv malakaviy ishning to'liq rejasini tuzishi va uni ilmiy rahbar bilan, zarur hollarda esa ilmiy maslahatchi bilan kelishishi lozim. Ushbu rejaga ish jarayonida aniqlik kiritish mumkin. Uning oxirgi varianti asosiy manba va adabiyotlar bilan ishlab bo'lgach tuziladi va u ilmiy rahbar tomonidan tasdiqlanib, muhim hujjatga aylanadi, unga kiritiladigan o'zgarishlarni faqat rahbar roziligi bilan amalga oshirish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishni o'z vaqtida va sifatli bajarish talabaning o'z mustaqil ishini tashkil etish qobiliyatiga bevosita bog'liq. Malakaviy ishni bajarishni talaba bitiruv malakaviy ish rejasini tuzishdan boshlaydi. Reja asosida boblar va mavzularning bajarilish ketma-ketligi va muddatlari ko'rsatiladi (1-chizma).

Bitiruv malakaviy ishni bajarishning asosiy vazifalari

Bitiruv malakaviy ishni bajarishda rejalashtirilayotgan asosiy natijalar

Ilmiy tadqiqot olib borishda faolligini namoyon etish

Mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini ifodalash

O'z bilimiga baho berish va ko'p hajmdagi axborot muhitida o'zini yo'qotmaslik

Tadqiqotlar, tajribalar va tahlillarni mustaqil o'tkazish

Sabab-oqibat aloqalarini aniqlash

Har xil sohalar bilimlarini jalb qilgan holda muammolar yechimini topish

Mustaqil qaror qabul qilish va faoliyat natijalari bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga olish

Guruh bilan ishlash ko'nikmalarini olish

Yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun javob berish

Ilmiy izlanish faoliyati natijalarini tahlil qilib, o'z yutuqlari va kamchiliklari aniqlash, vujudga kelgan qiyinchiliklar sabablarini topish, xatolarni tuzatish yo'llarini aniqlash

Mustaqil faoliyat olib borish huquqidан foydalangan holda o'z fikrlari va mulohazalarini himoya qilish


Izlanish natijalarining variantlari va ularning sodir bo'lish ehtimollarini bashorat qilish

Jamoa bo'lib muhokama qilishda o'z nuqtayi nazarini baholash hamda himoya qilish



Bularning barchasi malakaviy ishni bajarishda qo'llaniladi!

Talabalar mustaqil faoliyatini tashkil etish natijalari sifatida bitiruv malakaviy ishni bajarish va tayyorlashning pedagogik modeli



Talaba bitiruv malakaviy ishning kirish va boshqa bo'limlari hamda xulosalarini tayyorlashi bilan uni ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchiga taqdim etadi. Ular ko'rsatgan kamchilik va takliflarni bitiruv malakaviy ishni tayyorlash jadvalida ko'rsatilgan muddatgacha qayta ishlab chiqadi (2-chizma).

Bitiruv malakaviy ishni o'z vaqtida va sifatli bajarish talabaniň o'z mustaqil ishini tashkil etish qobiliyatiga bevosita bog'liq. Malakaviy ishni bajarishni talaba taqvim reja tuzishdan boshlaydi. Taqvim reja asosida boblar va mavzular bajarilish ketma-ketligi va muddatlari ko'rsatiladi (1-jadval).

1-jadval

Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun zarur bo'ladigan psixologik-pedagogik sharoitlar

Sharoitlar guruhı	Umumiy	Bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun eng asosiy zaruratlar
Tashkiliy-pedagogik sharoitlar	<ul style="list-style-type: none"> — tashkiliy-iqtisodiy — ilmiy uslubiy — tashkiliy boshqaruv 	<ul style="list-style-type: none"> — ta'limning kasbiy yo'nalganligi — ilmiy va ijtimoiy hamkorlik — faol o'zaro ta'sir, ishni ishlab chiqish uchun tashkilot, muassasa, laboratoriya, kafedraga ariza berilishi, kasbga oid muhim muammolarni yechish — bitiruv malakaviy ish mavzusi, ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchini erkin tanlash imkonining yaratilishi
Subyekt-shaxsiga oid sharoitlar	<ul style="list-style-type: none"> — kasbiy o'zlashtirish motivatsiyasi — o'z vaqtini erkin rejalashtirish — o'ziga xoslikning yuzaga kelishiga bo'lgan hurmat — dolzarb hayotiy muammolarni ochiq muhokama qilish — ta'limning individual cho'qqisi 	<ul style="list-style-type: none"> — ijobiy psixologik muhit — o'zaro hurmat — empatiya — talaba va o'qituvchining ishchan ruhdagi, hamkorlikdagi munosabati — talaba tomonidan o'z qadr-qimmati va kamchiliklarining anglanishi — bilimlar ko'lami, muloqot qila olish ko'nikmasi — o'z hayotiy va kasbiy faoliyatini olib borish san'atini loyihalash qobiliyati

Zaxiraviy sharoitlar	<ul style="list-style-type: none"> – moliyaviy-iqtisodiy – moddiy-texnik – me'yoriy-huquqiy – axborotli – ilmiy-nazariy va dasturiy metodik – kadrlar masalasi <ul style="list-style-type: none"> – ta'lim jarayonida zamonaivy, ilmiy asoslangan o'quv-uslubiy qo'llanmalarни ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish – zarur bo'ladigan o'quv-uslubiy va ma'lumotlar bo'yicha tayyorlangan materiallarning tushunarligi (omma-bopligi) – fanning ishchi dasturi haqida ma'lumot beradigan uslubiy qo'llanima ishlab chiqish «o'qituvchi talaba» o'rtasida safarbar qayta aloqa tizimini yaratish
----------------------	---

Taqvim rejada talaba bajaradigan quyidagi ishlar aks ettirilishi lozim:

- mavzu bo'yicha adabiyotlarni tanlash va tanishib chiqish;
- malakaviy ishning dastlabki rejasini tuzish;
- tanlab olingan adabiyotlarni chuqur o'rganish va yig'ilgan materiallarni qayta ishlash;
- malakaviy ishning oxirgi variantdagi rejasini tuzish;
- malakaviy ishni matnini yozish;
- malakaviy ishni rasmiylashtirib, dastlabki himoyaga olib chiqish.

Mavzuni bayon qilishda, avvalambor, bu mavzuning mohiyatini ochib berish, ikkinchidan qo'yiladigan masalalar va ularni yoritilishi bir-biriga bog'liq holda bo'lishi lozim. Shu bois, malakaviy ishga qo'yilgan asosiy talablardan biri tanlangan mavzuni chuqur va keng qamrovli bayon qilish hamda ko'rيلayotgan savol-larni uzviy bog'liqlikda yoritib berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish uch bosqichda quyidagi-cha amalga oshirish texnologiyasi bo'yicha bajarilishi mumkin (3-chizma).

Bitiruv malakaviy ishda ko'rildigan savollar uning maqsadini ochib berishga qaratilgan bo'lishi lozim. Malakaviy ish matnida uning mavzusiga taalluqli bo'Imagan matn va amaliy materiallar keltirilmaydi. Barcha bo'limlarda g'oya birligi va izchilligi ta'minlanishi zarur. Aksariyat hollarda malakaviy ishning birinchi bobida tanlangan mavzuning nazariy jihatlari yoritiladi.

Unda talaba shu mavzuni nazariy jihatdan qanchalik darajada bilishini, turli mualliflarning asarlari va shu sohadagi fikrlarini o'rganganligi, mazmuniy va mantiqiy jihatdan tadqiqot qilinayotgan mavzuga o'z fikrini bildira olishini ko'rsata olishi juda muhim hisoblanadi.

3-chizma

Bitiruv malakaviy ishning tavsifiy xususiyatlari va uni amalga oshirish texnologiyasi

Ilmiy-tadqiqot mantig'i asosida malakaviy ishni tayyorlash ilmiy-tadqiqot tizimiga o'xshash yoki aynan shunday tuzilmaga ega



Malakaviy ish loyihasi

I. Tayyorlov bosqichi

- 1.1. Malakaviy ish mavzusining dolzarbligini asoslash
- 1.2. Malakaviy ish muammosini, uning predmeti va obyektini shakllantirish
- 1.3. Qaror taxminini oldinga surish
- 1.4. Malakaviy ish vazifalarini belgilash
- 1.5. Ma'lumotlar manbalarini aniqlash
- 1.6. Tadqiqot usullarini tanlash



II. Bajarish bosqichi

- 2.1. Tadqiqotni amalga oshirish
- 2.2. Xulosalar
- 2.3. Tadqiqot natijalarini aniqlash, ularni yanada rivojlantirish uchun yangi muammolarni belgilash



III. Natija bosqichi

- 3.1. Olingan natijalarni taqdim etish va muhokama qilish
- 3.2. Bitiruv malakaviy ishiga tashqi (ekspert) bahosi

Bitiruv malakaviy ishning mazmuni va tarkibiy tuzilishi.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar-
dan iborat:

- sarvaraq;
- mundarija;
- kirish;
- asosiy qismning bob va bo‘limlari;
- xulosa;
- foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati;
- ilovalar.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiga, shuningdek, ma’lumotlar beradigan sahifa ostidagi izoh, qisqartmalar ro‘yxati, notanish va tushunilishi qiyin bo‘lgan tayanch so‘zlar lug‘ati ham kirishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning mundarijasida varaqlar tartib ra-
qamlari bilan ko‘rsatilgan kirish, barcha bob va bo‘limlar, xulosa,
foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalarning
sarlavhalari keltiriladi. Mundarija sarvaraqdan keyin joylash-
tiriladi.

Bitiruv malakaviy ishning kirish qismi quyidagilarni o‘z ichiga
olishi lozim:

- mavzuning dolzarbliji (mavzu asosnomasi);
- muammoning o‘rganilganlik darajasi;
- tadqiqot maqsadi;
- tadqiqot vazifalari;
- tadqiqot obyekti va predmeti (voqealarning ijtimoiy psiko-
logik, pedagogik, etnik, milliy, hududiy va jinsiy ketma-ketlikda
sodir bo‘lishiga asoslangan doiralari);
- kutiladigan natija;
- tadqiqot metodlari;
- tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati;
- foydalanilgan manba va adabiyotlarning tanqidiy tahlili;
- ishning tarkibiy tuzilishi.

Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida malakaviy ishning
dolzarbliji asoslanadi, amaliy ahamiyati, ilmiy yangilik yoki mu-
ammoli tomonlari aks ettiriladi, malakaviy ishda ko‘rib chiqiladi-
gan muammolar, ishning maqsad va vazifalari belgilab beriladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlarning tanqidiy tahlilini tu-
zishda qo‘ylgan muammoni o‘rganish uchun ular nimaga e’tibor

berishlari kerakligini aniqlash, shuningdek, ularning muallifi qanday manbalarga tayanganliklariga e'tibor qaratish lozim. Buning uchun foydalanilgan manba va adabiyotlarning tanqidiy tahlili sifatida keltirilgan me'yoriy-huquqiy dalolatnomalar, ularning mualliflari va ishlarini almashtirish mumkin emasligini unutmaslik lozim.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar tahlili mavzusi yoki ko'rgazmali tamoyil bo'yicha tuzilishi talabaning (ya'ni, uning o'qigan materiallariga shaxsiy munosabati) bahosini o'z ichiga olishi, muammoning qayta ishlanganlik darajasini ko'rsatishi, to'liq o'rganilmagan masalalarni aniqlashi lozim. Kirish bitiruv malakaviy ish umumiy hajmining 10–15 foizini tashkil etishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy qismi tadqiqot uchun tanlangan mavzuning nazariy jihatlarini yorituvchi bob va bo'limlardan tashkil topishi, mavzu xususiyati mos tarzda mashinashunoslik va mashinasozlik fanlari, ixtisoslik fanlari mazmuni, tadqiqot metodi va texnikalarini kirituvchi mazmun, kutiladigan natijalarning bayon etilishi, xulosalarning shakllantirilishi va amaliy tavsiyalar berilishi lozim.

Zarurat tug'ilganda bitiruv malakaviy ishda talaba tomonidan taklif etilayotgan tavsiyalarning tatbiq etilishidagi ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari beriladi.

Asosiy qismni nazariy va metodik qismlar tashkil etib, bunda tashkil etuvchi bob va bo'limlarning mazmuni bitiruv malakaviy ish mavzusiga to'liq mos kelishi va uni to'la ochib berishi darkor. Bob va bo'limlar talabaning qisqa, mantiqan to'g'ri va dalillar keltirib to'plagan, tizimlashtirgan hamda tahlil qilgan materiallarini bayon etish qobiliyatini namoyish etishi lozim.

Nazariy qismni tashkil etuvchi bo'limlar:

- o'rganilayotgan muammoning nazariy-metodik asoslari;
- o'rganilayotgan muammoning qaysidir muayyan o'quv muassasasida aniqlanishi va tahlil qilinishi;
- muammoni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar va tavsiyalar ishlab chiqish;
- malakaviy ishning bajarilishini ta'minlovchi texnik ta'minot;
- malakaviy ishning iqtisodiy qiymati;
- ixtisoslik fanlaridan mavzuga mos nazariy materiallar;
- bitiruv malakaviy ishning huquqiy ta'minoti kabi masalalar ni o'z ichiga olishi lozim;

- tadqiqot obyektining funksiyalari, vazifalari, sohasi;
- tashkiliy tuzilma, boshqaruv tizimi, uning tashqi va ichki aloqalarining o'ziga xosligi;
- tadqiqot obyektining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari;
- texnik yechim va hisob-kitob ishlari;
- texnik chizmachilik va loyihalash asoslari;
- tadqiqot obyektida mavjud kamchilik va muammolar;
- muqobil vazifalarni nazariy va amaliy hal etishning umumiy usullari va hokazo.

Kasb ta'limi ta'lim yo'nalishlari talabalarining bitiruv malakaviy ishining nazariy qismida dizayn va konstruksiyalash qismlari kiritilishi tavsiya etiladi. Bunda:

- konstruksiyanayotgan buyum uchun talablarni aniqlash;
- kostyum stilistikasi va konstruktiv-dekorativ yechimni asoslash;
- asos konstruksiyasini qurish uchun kerakli o'lchovlar;
- asos konstruksiyasini hisoblash va qurish;
- konstruksiyanayotgan buyumni texnik modellashtirish;
- ishchi hujjatlarni tuzish;
- konstruksiyanayotgan buyum uzelini tikish uchun asbob-uskuna va tikish usullarini tanlash;
- buyumga ishlov berish texnologik kartasi;
- material tanlash va asoslash.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy qismida ko'rgazmali va raqamlar bilan ko'rsatilgan materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ko'rgazmali materiallar (jadval, diagramma, gistogramma, rasm, chizma, surat va fotohujjatlar)ni namoyish qilish shakllarini tanlash asosan tadqiqot mavzusining tavsifi va maqsadiga bog'liqdir. Biroq bunda bitiruv malakaviy ishning asosiy qismiga joylashtiriluvchi barcha ko'rgazmali materiallar yuqori darajadagi yangi, foydali ma'lumotlarni berishi zarurligini hisobga olishi lozim. Masalan, matnda keltirilgan jadvalning asosiy qismi tahliliy tavsifga ega bo'lishi, raqamli ko'rsatkichlarni tahlil qilish va qayta ishlash natijalari hisoblanishi lozim. Dastlabki statistik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan jadvallar ishning alohida ilova qismida keltirilishi talab etiladi.

Pedagogik-metodik qismni tashkil etuvchi bo'limlar.

Pedagogik-metodik qismning paragraflar soni va mazmuni ishni turiga qarab belgilanadi. Odatda birinchi bobda tadqiqot

olib borilgan obyekt bo'yicha qisqacha ma'lumot berish bilan birga mavzuning umumiy nazariy masalalari bo'yicha mazkur tadqiqot natijalarining amaliyotda tatbiq etilishi mumkin bo'lgan muassasaning qisqacha tavsifnomasi berilishi lozim. Mazkur bobda quyidagi paragraflar o'zaro mantiqiy izchillikda beriladi:

- kasbiy ta'lismay jarayonlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining ahamiyati;
- kasbiy ta'lismay jarayoni bo'yicha fan rivoji va istiqbollarini o'qitishda elektron darsliklarning ahamiyati;
- kasb ta'limi muassasalarida ta'lismay-tarbiya jarayoniga qo'yiladigan talablar;
- texnologik jarayonlar va zamonaviy texnikalarning ishlash mehanizmi bo'yicha o'quvchi-talabalarni mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etishi;
- turli mahsulot ishlab chiqarish uchun texnologik jarayonlarni boshqarish va ularning omillarini o'zgartirish uslubiyati bo'yicha masofadan o'qitish metodlari;
- turli xomashyolarni qayta ishlashdagi o'ziga xos jihatlarini o'qitish jarayonida o'qituvchining pedagogik madaniyati va kasbiy mahoratining ahamiyati;
- texnologik uskunalarini tanlash va asoslash usullarini belgilash jarayonida didaktik vositalardan foydalanishi;
- xomashyo, yarim tayyor va tayyor mahsulotning sifatini aniqlash va nazorat qilish bo'yicha tashkil etiladigan fakultativ va qo'shimcha mashg'ulotlar mazmuni;
- mahsulotdagi nuqsonlarning sababini aniqlash va bartaraf etish uslublari o'qitish jarayonida qo'llaniladigan pedagogik-psixologik usullar;
- kasb-hunar kollejlariда ta'lismay-tarbiya jarayonining to'g'ri tashkil etilishi va ularda integratsiyalashuv jarayonining amalga oshishi;
- kasb-hunar kollejlariда o'qitish jarayonida baholashning reyting tizimi;
- kasb-hunar kollejlariда ta'lismay jarayonlarini boshqarish bo'yicha tashkil etiladigan mustaqil ta'lismay mazmuni;
- kasb-hunar kollejlariда o'qitish jarayonida qo'llaniladigan modellashtirish va avtomatlashtirish metodlari;
- kasb-hunar kollejlariда o'qitishning umumiy prinsiplari va metodlari;

- kasb-hunar kollejlarida ta’lim jarayonlarini kompyuter grafikasining dasturiy vositalarini ishlab chiqishi;
- mahsulot ishlab chiqarishdagi har bir texnologik jarayonni geometrik shakl va chizmalarda ifoda etish, tasvirlash usullarini aniqlash;
- ishlab chiqarish materiallari va ularni qayta ishlash va sifat o‘zgarishini o‘qitish jarayonida didaktik vositalarning qo‘llanishi;
- hayot faoliyati xavfsizligi nazariyasi, ishlab chiqarish korxonalaridagi zararli va xavfli holatlar, sanoat sohasida xavfsizlik psixologiyasi va uni tahlil qilish tizimlari;
- atrof-muhit va insonni fizik, kimyoviy va biologik hodisalarning zararli ta’siridan himoyalash vositalari va usullarini aniqlanishi;
- «inson-texnika-muhit» tizimini loyihalashda inson omili muammolarini hal qilishning ilmiy asoslari va usullari;
- texnika obyektlari va jarayonlarini patentga loyiqligi va patentning chinakamligini tadqiq etishning pedagogik-psixologik asoslanishi;
- o‘lchov vositalarini tekshirish usullari va ularda yo‘l qo‘yiladigan xatolik chegaralari bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni yaratilishi;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida dars o‘tish metodikasi;
- darsni to‘g‘ri tashkil etish rejisi va unda taqdim etiladigan axborotlarni integratsiyalash;
- darsning texnologik xaritasi, professiogrammalarga qo‘yiladigan talablar;
- muammoli ta’lim va uni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari;
- pedagogik madaniyat va kasbiy mahorati;
- pedagogik, psixologik va kasbiy yo‘nalishlarda tashkil etiladigan fakultativ va qo‘srimcha mashg‘ulotlar mazmuni;
- o‘quvchi-talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish maqsadida seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarida foydalilaniladigan muammoli topshiriqlar mazmuni;
- pedagogik, psixologik va kasbiy yo‘nalishlarda tashkil etiladigan mustaqil ta’lim mazmuni;
- o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik-psixologik usullar;

- o'quv jarayonida qo'llaniladigan modellashtirish va avtomatlashtirish metodlari;
 - dars jarayonida qo'llaniladigan texnika (kompyuter, audio va videotexnikalar) va boshqa yordamchi didaktik vositalar (tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar va h.k.);
 - elektron darsliklar asosida texnologik jarayonlarni o'qitish tamoyillari va metodlari (mavzuni yoritish jarayonida elektron darsliklar imkoniyatlari yordamida taqdimotlar namoyish etish hamda ulardan samarali foydalanishning yo'l-yo'riqlari);
 - kasbiy fanlarni o'qitishning umumiy tamoyillari va metodlari;
 - kasbiy ta'lif jarayonida masofadan o'qitish metodlari;
 - o'quv jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlarni aniqlashi va ularni qo'llashi;
 - dars uchun zarur bo'ladigan o'quv va uslubiy materiallar ishlab chiqishi;
 - amaliy mashg'ulotlar hamda laboratoriya mashg'ulotlari jarayonida o'quvchi-talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etuvchi muammoli topshiriqlar yaratilishi;
 - o'quvchi-talabalarning loyihachilik qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar to'plamini ishlab chiqishi;
 - darsga oid asosiy va yordamchi vositalar (tarqatma materiallar, ko'rgazmali qurollar, audio, video texnologiyalar)ni tayyorlay olishi va darsning texnologik xaritasini tuzishi;
 - o'quvchilar faoliyatini baholashning reyting tizimini ishlab chiqishi;
 - mavzuni yoritish jarayonida elektron darsliklardan samarali foydalanishning yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqishi;
 - kasbiy ta'lif jarayonida masofadan o'qitishni tashkil etishda o'qitish metodlarini tahlil qilib, ularni qo'llash uchun metodik tavsiyalarni ishlab chiqishi ko'zlanadi.
- Shuningdek, bu qismda muallif tomonidan o'rganib chiqilgan materiallar tahlili asosida erishilgan natijalar, yangiliklar, ixtiolar, me'yoriy ko'rsatkichlar, tavsiya etilayotgan texnologik jarayonlar asoslab beriladi, shunga mos jadvallar tavsiya etiladi, taklif etilayotgan obyektni takomillashtirish yo'llari, iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi, ilgari surilayotgan g'oya va takliflar ilmiy jihatdan asoslanadi.

Tahlilning dastlabki materiallari talaba tomonidan pedagogik amaliyot jarayonida o'rganilgan o'quv muassasasining ish rejasi yoki ularning bir qismi, yillik hisobot, moliyaviy va statistik hisobot materiallari va boshqa hujjatlar bo'lishi mumkin.

To'plangan material hajmi va tavsifi qabul qilingan tadqiqot metodikasining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Bunda quyidagi metodlardan foydalanish ko'zlanishi mumkin: empirik (kuzatuv, taqqoslash, chamalash, o'lchov, tajriba-sinov), ekspert baholash, ekspert tahlil, hisoblash tahlili, me'yoriy, tashkiliy-loyihalash, grafik tahlil, parametrik, korrelatsion tahlil, variativ, diskriminant, asosli tahlil, evristik (analogiya, inversiya, empatiya, idealizatsiya, «aqliy hujum», assotsiatsiya, sinektika, morfologik tahlil va b.), iqtisodiy-matematik modellash, ijtimoiy-iqtisodiy tahlil (taqqoslash, tanlab o'rganish, guruhlash va korrelatsion tahlil), muhandis-iqtisodiy hisob.

Ta'lim muassasalarida umumkasbiy va ixtisoslik fanlari o'qitilishini o'rganish to'plangan materiallarni qayta ishlashni mo'ljallaydi. Ma'lumotlarni qayta ishlash iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik tahlilni zamonaviy metodlardan foydalanish bilan amalga oshirishni taqazo qiladi.

Xulosa va takliflar qismi malakaviy ishda umumiylajmining 5–7 foizini tashkil etadi. Unda ish mazmuni bo'yicha ishlab chiqilgan xulosalar va aniq takliflar, erishilgan natijalar mujassamlashtiriladi. Malakaviy ish ayrim boblardagi xulosalar va takliflar bilan ham tugallanishi mumkin, ammo undan eng muhimlari ishning oxirida, ya'ni xulosa bo'limida aks ettirilishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishning **xulosa qismida** olib borilgan tadqiqot natijalari keltiriladi, umumlashtirilgan holda malakaviy ish maqsadi va vazifalarida ifodalangan masalani o'rganilganlik xulosalari bayon etiladi, mavzuning istiqboldagi ishlab chiqilishi mo'ljallanadi.

Bitiruv malakaviy ishning xulosa qismida talaba tugallangan kasbiy topshiriqni yechadi. Ya'ni u bitiruv malakaviy ishning xulosa qismidagi asosiy masalalarda o'z nuqtayi nazarlarini asosli tarzda bayon etishi lozim. Bunda bakalavr:

- yechilayotgan topshiriq bo'yicha masala holatini o'rganib, uni tahlil qilib beradi;
- kasbiy-pedagogik talablarni ifodalaydi, topshiriqni yechish talqinlarini ko'rib chiqadi va oqilonqa yo'lni aniqlaydi;

- psixologik, pedagogik va metodik yechimning matematik-statistik tahlilini qilib beradi;
- hal etilgan masalaning iqtisodiy samaradorlik darajasini belgilaydi;
- topshiriq yechimi bo'yicha xulosa va takliflarni beradi hamda ularni amaliyotga tatlbiq etish imkoniyatini aniqlaydi.

Bu qismda ko'rيلотган masalaning hozirgi ahvoli tahlil qilinadi, amaliyot davrida to'plangan statistik materiallar asosida tadqiqot obyekтида mavjud kamchiliklarni yo'qotishga qaratilgan taklif va tavsiyalar asoslanishi kerak. Tajriba orttirish vaqtida yig'ilgan hamda tadqiqot jarayonida tahlil qilingan materiallar, hal qilinmagan masalalar, muammolarni aniqlash va shunga muvofiq xulosalar keltiriladi. Muammoni o'rganish uslub va uslubiyati yoritiladi. Bu malakaviy ish mazmunining asosiy g'oyasini ifodalaydi.

Xulosa yangi ma'lumotlar, dalillar, belgilarни о'з ichiga olmasligi, balki xulosalar ishning asosiy matnidan mantiqiy kelib chiqishi zarur. Xulosaning taxminiy hajmi 3–5 varaqdan oshmasligi kerak.

Qisqartmalar ro'yxatida ishda qo'llaniladigan bibliografik ma'lumotlar, tushuncha va atamalar, muassasalarning nomlanshi qisqartirilgan holda shartli belgi va raqamlar bilan yozilishi darkor.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar talaba tomonidan bitiruv malakaviy ishni tayyorlash va yozish jarayonida qo'llanilgan manba va adabiyotlarni о'з ichiga oladi va u tadqiqot mavzusiga bog'liq tarzda 25–30 (va undan ko'p) nomdan tashkil topadi. Manbalar haqidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim Davlat ta'lim standartlari talablariiga mos tarzda keltiriladi.

Bunda bitiruv malakaviy ishni yozish jarayonida qo'llanilgan barcha qonun chiqaruvchi va me'yoriy-huquqiy materiallar, ilmiy, o'quv va davriy nashrlar to'liq bibliografik tavsifi (nashr joyi, nashriyot nomi, chop etilish yili yoki nashri)ni о'з ichiga olishi lozim. Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxatini tuzish jarayonida nashr qilingan va chop etilmagan ishlar ajratilgan bo'lishi kerak.

Ishning ilova qismida bitiruv malakaviy ish asosiy mazmunini qo'shimcha to'ldiruvchi va ko'rgazmali tasvirlovchi barcha materiallar keltiriladi. Bunda, asosan chizma, jadval, diagramma,

istogramma, rasm, surat va fotohujjatlar, shuningdek, har xil turdag'i matnlar, tashkiliy-huquqiy hujjatlar, ma'lumotnomalar, e'lonlar joylashtiriladi.

Bitiruv malakaviy ish ilmiy rahbar va kafedra bilan kelishilgan holda chet tillarda yozilishi va himoya qilinishi mumkin. Ayrim hollarda, agar talaba izlanish mobaynida o'rganilayotgan masalani yangi qirralarini ochsa, malakaviy ish mavzusiga va rejaga o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Shu bilan birga agar o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quv muassasasining ma'lumotlari tijorat siri bo'lib talabaga berilmagan va shunga o'xshash boshqa hollarda ham talaba malakaviy ish mavzusini hamda amaliyat bazasini o'zgartirish huquqiga ega. Bitiruv malakaviy ish oliy ta'lim muassasasining, odatda, ushbu maqsadga maxsus ajratilgan xonalarida bajariladi. Ayrim hollarda, malakaviy ish o'quv muassasalari, ilmiy-tadqiqot oliy ta'lim muassasalari va boshqa ta'lim muassasalarda bajarilishi mumkin. Bitiruv malakaviy ishning bajarilishi bo'yicha taqvim rejani nazorat qilish kafedrasi hamda dekanat tomonidan amalga oshiriladi.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI RASMIYLASHTIRISH QOIDALARI

Bitiruv malakaviy ishning rasmiylashtirilishi.

Bitiruv malakaviy ish bitta nusxada tayyorlangan va kolenkor (qalin surpli) muqovada tikilgan bo'lishi lozim. Bitiruv malakaviy ish matni o'qib chiqilgan va tahrir etilgan bo'lishi darkor.

Bitiruv malakaviy ish qo'lyozma shaklida bajarilishi tavsiya etiladi. Tayyorlangan ishning umumiyligi hajmi kamida 60–70 betdan iborat bo'lishi mumkin. Ilovalar uning umumiyligi hajmiga kirmaydi.

Bitiruv malakaviy ish A4 formatdagi qog'ozning bir tomoniga rasmiylashtirilishi shart. Jadval va ko'rgazmali materiallarni A3 formatdagi qog'ozda taqdim etishga ijozat etiladi. Bitiruv malakaviy ish A4 shaklidagi qog'ozning chap tomonidan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm dan kam bo'limgan hoshiya qoldirilgan holda yozilishi talab etiladi.

Matnning tugallanmagan qismlarini boshqa betlarga o'tkazish man etiladi. Yangi fikr ifodalaydigan jumlalar xat boshidan yoziladi. Agar matnda chet tilida keltirilgan so'zlar, qo'shimchalar bo'lsa, ular asliga to'g'ri holda to'laligicha yozilishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishda raqamli materiallar jadval shaklida berilishi maqsadga muvofiqdir. Mazmun jihatdan ular analitik va ish jadvallariga bo'linadi. Analitik jadvallar o'rganilayotgan muammoni yoritib beruvchi umumiylar xulosalar va sharhlarni tabab etadi.

Bitiruv malakaviy ishda analitik materialarning ko'p bo'lishi ma'lum darajada talabaning o'zi tadqiq qilayotgan muammoni tushunish darajasini ko'rsatadi. Statistik materiallardan esa matnda bor muammoni sharhlab berish, statistik ko'rsatkichlar tizi-mini hisoblash uchun foydalanish maqsadga muvofiq.

Qaysi manbadan olinganligini ko'rsatmay turib, matbuotda chop etilgan jadvallardan foydalanish mumkin emas. Jadval boshqa betga ko'chirib o'tkazilgan hollarda jadvalning nomi albatta qaytarilishi va yuqori o'ng tomoniga «jadvalning davomi» deb yozib qo'yilishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishning har bir bobini yangi betdan yoziladi. Bobning nomi yoki sarlavhalari asosiy matndan qo'shimcha interval bilan ajralib turishi kerak. Bobning nomidan keyin paragraf nomi yoziladi. Bitiruv malakaviy ishda betlarning tartib raqami varaqning quyi markaziy qismiga qo'yiladi.

Bitiruv malakaviy ishning sarvarag'i qabul qilingan namunaga mos bo'lishi va quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- malakaviy ish nomi 16 shriftda;
- muallifning ismi, familiyasi va sharifi 14 shriftda;
- malakasi 14 shriftda;
- kafedraning nomlanishi 12 shriftda;
- ilmiy darajasi 12 shriftda yoziladi.

Izoh: tadqiqot mavzusining nomi, talabaning familiyasi, ismi, sharifi, malakaviy ish hamda so'z boshi katta harflarda teriladi.

Tugallangan bitiruv malakaviy ish ilmiy rahbar ko'rib bo'lgandan keyin, uni avval, kafedradagi dastlabki himoyaga, so'ngra ochiq himoyaga tavsiya etadigan taqriz beriladi.

Biror fikr yoki ta'riflarni keltirganda yoki ularni qiyosiy taq-qoslaganda ular o'z asliga to'g'ri holda, hech qanday qo'shimchalarsiz qo'shtirnoq ichida «.....» keltiriladi va shu betdagagi matn oxirida manbasi (muallif, asar nomi, nashr joyi, nashriyot, yili, beti) ko'rsatiladi.

Bitiruv malakaviy ishning sarvarag'ida ishni himoya qilishga ijozat berilishini tasdiqlovchi kafedra mudirining imzosi, shu-

ningdek, ishning attestatsiya komissiya oldida himoya qilishga tayyorgarligini tasdiqlovchi ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchining imzosi qo'yiladi.

Bob va bo'limlarning sarlavhasi bo'lishi lozim. Boblar sarlavhasi hoshiyadan, bo'limlar esa satr boshidan rasmiylashtiriladi. Sarlavha va matnlar o'rtasidagi masofa sarlavha ajralib turilishi uchun kengaytirilgan bo'lishi lozim. Har bir bob yangi varaqdan boshlanishi kerak. Boblar sarlavhasi bosh harflarda, bo'limlar sarlavhasi esa kichik harflarda yoziladi. Sarlavhalar oxiriga nuqta qo'yilmaydi va ular tagiga chizilmaydi. Bob va bo'limlarning sarlavhasi arab raqamlari bilan raqamlanadi. Bo'limlar raqamlari bob va bo'limlar raqamlaridan iborat bo'lib, nuqtalar bilan ajratiladi.

Foydalaniman manba va adabiyotlar ro'yxati 2 intervaldan so'ng yoziladi, har bir nomdag'i adabiyot satr boshidan boshlanadi.

Foydalaniman manba va adabiyotlar ro'yxatining oxirgi varag'ida sana va ish muallifi bo'lgan talabanining ish matni solishtirib chiqilganligi hamda matn parchalari tekshirilganligini tasdiqlovchi shaxsiy imzosi qo'yiladi.

Bitiruv malakaviy ishning hajmi

No	Bitiruv malakaviy ishning bo'limlari nomi	Konsultatsiya uchun ajratilgan vaqt (soat)	Bo'limlar hajmi kamida (bet)
1.	Kirish	3	7–8
2.	Asosiy qism: nazariya asoslari	15	30–34
3.	Pedagogika va metodika asoslari	11	26–30
4.	Xulosa	1	2–3
Jami		30	65–75

Malakaviy ishning asosiy himoyasini o'tkazish tartibi.

Bitiruv malakaviy ish himoyasi DAK a'zolari tarkibining uchdan ikki qismi, ilmiy rahbar va talaba, shuningdek, imkon qadar taqrizchilar ishtirokida ochiq yig'ilish tarzida o'tkaziladi.

DAK kotibi har bir bitiruv malakaviy ish bo'yicha yig'ilish komissiyasiga quyidagilarni taqdim qiladi:

- ish nusxasi;
- ilmiy rahbar xulosasi;
- taqrizchilar taqrizi;

- bitiruv malakaviy ishga olingan boshqa taqrizlar;
- talabaning reyting daftarchasi.

Bitiruv malakaviy ishni himoya qilish tartibida quyidagilar talab etiladi:

- talabaning chiqish so‘zida (10 minutgacha) mavzu asosnomasi keltirilishi, olib borilgan tadqiqot maqsadi va vazifalari ko‘rsatilishi, foydalanilgan adabiyot va manbalar tavsifi berilishi, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlanishi, tadqiqot xulosalari bayon etilishi lozim.

- talabaning DAK a’zolari savollariga javoblari;
- taqrizchi va boshqa shaxslarning chiqishlari;
- bitiruv malakaviy ishga olingan boshqa taqrizlar o‘qib eshitirilishi;
- talabaning yakunlovchi so‘zi, ishni muhokama qilish jaronida ko‘rsatilgan kamchiliklarga javobi.

DAK yig‘ilishida barcha ishtirok etuvchilar savollar berishi va ijodiy muzokarada ishtirok etishi mumkin.

Yakunlovchi ball tizimidagi baho DAK a’zolarining oddiy, ko‘pchilik ovozi olingan DAK yopiq yig‘ilishida, albatta, komissiya raisi yoki uning o‘rribosari ishtirokida tavsiya etiladi. Ovozlar soni teng bo‘lgan taqdirda komissiya raisi yoki uning o‘rribosari ovozi hal qiluvchi huquqqa ega. Ilmiy rahbar yoki taqrizchi o‘zining fikrini bildirish huquqiga ega, biroq ular ovoz berishda ishtirok etishmaydi.

DAK bitiruv malakaviy ishni nashr qilish, tanlovlarda ishtirok etish, amaliyotda tatbiq etish bo‘yicha tavsiya berish huquqiga ega. DAK raisi (fakultet dekani va kafedra mudiri bilan keli-shilgan holda) ko‘proq qobiliyatli talabani magistraturaga kirish uchun tavsiya berishi ham mumkin.

DAK kotibi barcha berilgan savollar, javoblar, asosiy fikrlar va komissiyaning (imtiyozli yoki imtiyozsiz) diplom berish yoki bermaslik to‘g‘risidagi hukmi chiqarilgan yig‘ilish bayonnomasini yuritadi. Bayonnomma yig‘ilishda ishtirok etgan komissiya raisi va a’zolari tomonidan imzolanadi. Xuddi shu kuni DAK yig‘ilishi bayonnomasi rasmiylashtirilgandan so‘ng talabaga bitiruv malakaviy ish himoyasining natijasi e’lon qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishni uzrli sabablarga ko‘ra belgilangan muddatda himoya qila olmagan talaba hujjat asosida tasdiqlangach, DAKning keyingi ishlari davriga qadar o‘qish muddati uzaytirili-

shi mumkin. Biroq bu muddat ilk o'tkazilgan yakuniy attestatsiya o'tkazilgandan so'ng uch oydan kam bo'lmasligi va besh yildan ham oshmasligi lozim. Buning uchun talaba fakultet dekaniga uzrli sababni tasdiqllovchi hujjat ilova qilingan ariza berishi kerak. Bitiruv malakaviy ishning qayta himoyasi ikkinchi marotaba belgilanmaydi.

DAK ishi to'g'risidagi hisobot OTM Ilmiy kengashida ko'rildi va yakuniy davlat attestatsiyasi tugallangandan so'nggi ikki oy mobaynida mutaxassislarining kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga taqdim etiladi. Kasb ta'limi yo'nalishi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi bayonomasi OTM arxivida saqlanadi.

Malakaviy ishni baholash mezonlari.

Bitiruv malakaviy ishni asosiy baholash mezonlari quyidagi lardan iborat:

- mavzuning dolzarbliji va yangiligi, uni ishlab chiqishning murakkabligi;
- ko'rيلотган масала бо'yicha mahalliy va xorijiy manba va maxsus adabiyotlardan to'la foylanilganligi;
- tadqiqot obyekti bo'yicha daliliy ma'lumotlarni to'liq va si-fatli to'planganligi;
- qo'yilgan masalani hal qilishda metod va vositalardan foy-dalanishning tasdiqlanganligi;
- olingan natijalarни tahlil qilib, sharhlay olinganligi;
- xulosa, taklif, tavsiyalarning ilmiy, uslubiy va amaliy ahamiyati hamda ularni isbotlanganlik darajasi va real tatbiq etish imkoniyatlari;
- materialni aniq va to'g'ri, xatosiz bayon etilganligi, ishni sifatli rasmiylashtirilganligi, mazkur «Metodik tavsiyanoma» talablari hisobga olinganligi;
- bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy masalalar bo'yicha munozara yurita olinganligi, DAK a'zolarining savollari va taqrizchilar kamchiliklariga berilgan javoblarning to'g'ri va chuqr ifodalanganligi.

Agar ish mavzusi ilmiy asoslanib, o'zida nazariy, uslubiy yoki amaliy qiziqishni uyg'ota olsa, qo'yilgan masalani hal qilishda muallif tomonidan maqbul tahlil qilish usullari, zamonaviy metod va vositalarni qo'llash mumkinligi tasdiqlansa, shuning-

dek, u kasb-hunar ta'limining ilmiy-nazariy, uslubiy yoki amaliy masalalariga yordam bersagina, bitiruv malakaviy ish «a'lo» ba-hoga loyiq deb topiladi. «A'lo» baholangan ishning tarkibiy tuzili-shi aniq, mantiqan to'g'ri va qo'yilgan maqsadga muvofiq bo'lishi lozim. Xulosa qismda aniq, qo'yilgan masalani hal qilishga hissa qo'shadigan har tomonlama asoslangan xulosalar keltirilishi lozim. Chunki bu uning kelajakdag'i istiqbolini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ish adabiy tilda yozilishi, to'g'riligi puxta tekshirilgan, unda berilgan ma'lumotlar amaldagi Davlat ta'lim standartiga va mazkur metodik tavsiyanomaga mos bo'lishi, chizma, rasm, jadval va turli xil ko'rgazmali materiallar shaklidagi ilovalarni o'z ichiga olishi lozim.

Talabaning chiqish so'zi qisqa va izchil tarzda asosiy holatlar yoritilgan, shuningdek, DAK a'zolari savollariga aniq va isbotlangan javoblar berilgan shartlardagina, unga «a'lo» baho qo'yiladi.

Bitiruv malakaviy ish yuqorida keltirilgan talablarga to'liq javob bermagan hollarda, u ko'proq past ball bilan baholanadi.

**Nizomiy nomidagi TDPU «Kasb ta'limi» fakultetini bitiruvchi
barcha mutaxassisliklar uchun bitiruv malakaviy ishlarini
baholashning mezonlari**

BAHOLASH MEZONI	BALL
Mavzu dolzarbligining asoslanganligi: Respublikamiz ta'lim tizimida mavzuga oid masalalarning aks etishi, bu boradagi amalga oshirilgan nazariy, amaliy va metodik ishlarning yoritilishi	10
BMI tuzilishi: Bob va paragraflarning o'zaro mantiqan to'g'ri, izchil ishlab chiqilganligi, mavzuning yoritilishi qo'yilgan muammoning yechimiga qaratilganligi	20
BMI mazmuni: Bob va paragraflar mazmunining qo'yilgan mavzuga mosligi, uni yoritish darajasi, talabaning shaxsiy fikri qay darajada ifodalanganligi	30
Amaliy taklif, tavsiyalarning ahamiyatliligi: Taklif hamda tavsiyalarning amaliyatga tatbiq qilish imkoniyatlari, miqyosi, ta'lim sifatini oshirishga ta'siri, pedagogik, psixologik hamda metodik samarasni	10

Bitiruv malakaviy ishining bajarilish savodxonligi: Imloviy va stilistik jihatdan savodxonligi, fikrni aniq va mantiqan to'g'ri ifodalanganligi, jadvallar va grafiklarni talab darajasida rasmiylashtirilishi	10
Talabaning BMIni himoya qilishi: Mayzu matnini butun tafsilotlari bilan bilish va tushunish, mazmunini izchil, mantiqan bog'langan holda xatosiz bayon etish, savollarga javob berishda o'zlashtirilgan bilimlarni mustaqil, dadil va to'g'ri tatbiq eta bilish hamda ulardan o'rinli foydalanish, talab darajasida sifat ko'rsatkichlariga rioya qilish	20
JAMI	100

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Bitiruv malakaviy ishlari mavzularini tanlashga qanday talablar qo'yildi?
2. Bitiruv malakaviy ishni tayyorlashga qo'yiladigan talablar.
3. Bitiruv ishini bajarish ketma-ketligini aytib bering.
4. Bitiruv malakaviy ish mazmuni va unda qo'yiladigan muammolarni hal qilish metodikasini ochib bering.

Mustaqil ta'lif topshiriqlari:

Talabalarga kurs va bitiruv malakaviy ishlari mavzularini tanlash tartibi, tayyorlashga qo'yiladigan talablarni o'rganish bo'yicha topshiriq beriladi. Kurs ishini bajarish ketma-ketligi; bitiruv malakaviy ish mazmuni va unda qo'yiladigan muammo-larni hal qilish metodikasini o'rganib kelish topshiriladi.

XI bob. PEDAGOGIK AMALIYOTNING MAZMUNI VA MOHIYATI

11.1. Pedagogik amaliyotga qo‘yiladigan metodik talablar

Reja:

1. Pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari.
2. Pedagogik amaliyotning mazmuni va uni tashkil etish.
3. Pedagogik amaliyot jarayonida tayyorlanadigan hujjatlar.

Tayanch iboralar: pedagogik amaliyot, pedagogik-psixologik faoliyat, ishlab chiqarish asoslari, kasbga yo‘naltirish, shaxsiy ish rejasi, pedagogik amaliyot kundaligi, darsning tahlili, kalendor mavzuli reja, tarbiyaviy ish rejasi, tarbiyaviy soatlar tahlili, to‘garak ishlar rejasi, tarbiyaviy tadbir ssenariysi, psixologik-pedagogik tavsifnomalar, dars rejasi va ishlanmasi, o‘quv-ko‘rgazmali qurol, tarqatma materiallar.

Pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari.

Mehnat ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash Davlat ta’lim standarti talablaridan kelib chiqqan holda pedagogik amaliyotning vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilangan:

- talabalarda kasbiy ishonch va barqaror pedagogik qarashlarni shakllantirish;
- talabalarning pedagogik-psixologik fanlar hamda maxsus fanlar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash va amalda qo‘llash;
- bo‘lajak o‘qituvchilarni amaliy ko‘nikma va malakalar bilan, zaruriy holatlarda umumiy psixologik-pedagogik qonuniyatlarini qo‘llash malakalari bilan ta’minlash;
- talabalarga sinf rahbari vazifalarini bajarishni, yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlari bilan ishlashni o‘rgatish;
- talabalarni sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilinishi va o‘tkazilishi bilan tanishtirish;
- talabalarga muktab o‘quvchilarini fan olimpiadalariga tayyorlash rejalarini bilan tanishtirish;
- talabalarni muktab, o‘quv-tarbiyaviy ishlarning zamonaviy ahvoli, ilg‘or pedagogik tajribalari bilan tanishtirish;
- o‘qituvchilarning muhim kasbiy va shaxsiy xislatlarini rivojlantirish;

- talabalarni bevosita pedagogik-psixologik faoliyatda qatnashishlariga erishish;
- talabalarni maktab o'quvchilarini pedagogik kasbga yo'naltirish va tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishga o'rgatish;
- pedagogik faoliyatning sinfdan va maktabdan tashqari ishlarini joriy va istiqbolli rejalashtirishni o'rgatish;
- talabalarda o'qituvchining ish rejasiga maktab o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish malakasini shakllantirish;
- ta'lim-tarbiyaviy ishlarning asosiy shakllari (dars, suhbat, o'yin va boshqalar)ni amaliyotga tatbiq qilishni o'rgatish;
- talabalarga maktab o'quvchilari bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarini kuzatish va tahlil qilishni o'rgatish;
- zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llab dars o'tishni o'rgatish kabilardan iborat.

Pedagogik amaliyot mazmuni va uni tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida ishlab chiqilgan va Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 1998-yil 30-oktabr 305-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti haqida»gi Nizomga muvofiq Nizomiy nomidagi TDPUsda «Talabalarining malakaviy pedagogik amaliyoti» haqidagi Nizom ishlab chiqilgan.

Malakaviy pedagogik amaliyot ta'lif-tarbiya jarayonini zamon talablari asosida tashkil etadigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini muvaffaqiyatlil qo'llayotgan, bu borada yetarli ish tajribalariga ega bo'lgan, o'quv-moddiy ta'minoti bugungi kun talablariga javob beradigan uzlusiz ta'lifning umumiyl o'rta ta'lif muassasalari bilan tuzilgan shartnomasi asosida tuziladi.

Malakaviy pedagogik amaliyot o'tkaziladigan ta'lif muassasalari oliy o'quv yurti joylashgan hududga iloji boricha yaqin joylashgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

1. Talabalar amaliyot boshlanadigan birinchi kunida pedagogika oliy o'quv yurtida, pedagogik amaliyotga bag'ishlab o'tkaziladigan konferensiyada qatnashadilar. Konferensiyada talabalarni mutaxassisliklariga qarab guruhlarga bo'linadi va pedagogik amaliyot o'taydigan ta'lif muassasasi manzillari bilan tanishtiriladi. Talabalar pedagogik amaliyotning maqsad vazifalari,

dasturi va uning mazmuni, biriktirilgan metodist o'qituvchilar bilan tanishadilar.

2. Talabalar biriktirilgan o'quv muassasasiga boradilar, manzil bilan yaqindan tanishadilar. Maktab rahbari bilan suhbatlashib, uning tarixi va an'anqlarini, o'quv moddiy bazasi va uning pedagogik faoliyatni ilmiy tashkil qilish talabiga javob berishini, o'quvchilar kontengentini o'rganadilar.

3. Talabalar pedagogik jamoaning tajribasi, ilmiy pedagogik ishlari, maktabdagagi o'quv, metodik ishlar bilan tanishadilar. Ilg'or pedagogik tajribalar o'rganilishi va joriy etilishi bilan tanishadilar. Har bir amaliyotchi talaba amaliyotni o'tash davrida ma'lum sinfga biriktirib qo'yiladi, u shu sinf o'quvchilariga mehnat ta'limidan uchta yo'nalish bo'yicha dars beradilar:

- Texnologiya va dizayn.
- Servis xizmati.
- Qishloq xo'jaligi asoslari.

4. Amaliyotning birinchi haftasi maktabdagagi, mehnat ta'limi xonalarining moddiy bazasi hamda o'quvchilar bilan tanishishga bag'ishlanadi. Bu davrda amaliyotchi talabalar o'zlari biriktirilgan sinfdagi turli darslarda qatnashadilar, sinf rahbari o'tkazadigan barcha tarbiyaviy tadbirdorda ishtirok etadilar. Amaliyotchi talabalar haftaning oxiriga borib, har bir o'quvchi haqida, uning o'zlashtirishi, intizomi, o'qishga, jamoat ishiga munosabati to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur.

5. Talabalar o'zlari biriktirilgan ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiyaviy ishlari, guruh murabbiylari va fan o'qituvchisining taqvim mavzuli rejalarini, mehnat ta'limi xonalarining yo'nalishlar bo'yicha jihozlanganligi bilan tanishadilar. Bundan tashqari amaliyotchi fan o'qituvchisining kelgusi darslarga tayyorgarligi dars rejalarining tuzilishi, ulardagi darsning tarbiyaviy, ta'limiy, rivojlantiruvchi maqsadlarining qo'yilishini o'rganadilar. O'quvchilarning fan yuzasidan bilim darajalarini o'rganib Davlat ta'lim standarti talablariga to'g'ri kelishini tahlil qiladilar. Fan o'qituvchisining darslarda ko'rgazmali qurollardan foydalanishi va ularning natijalarini o'rganadilar.

6. O'qituvchi bo'lib ishslash mobaynida talaba faqatgina mehnat ta'limi darslariga kiribgina qolmay chizmachilik, rasm kabi turdosh fanlardan darslarga kirib, tahlil qiladilar. Ularning mehnat ta'limiga bog'liq tomonlarini o'rganadilar. Mehnat ta'limi-

ning barcha yo'nalishlarini, ya'ni texnik va maishiy xizmat ko'r-satish mehnati darslarini kuzatib darslarning tashkil qilinishini o'rganadilar.

7. Amaliyot davrida talabalar o'zlariga biriktirilgan sinflarda tarbiyaviy ish rejasiga asosan bayram tadbirlarini o'tkazadilar. Bunda talaba o'zining ijodiy faoliyatidan kelib chiqqan holda «Balli qizlar», «Navro'z taomlarini tayyorlash» mavzusida tadbirlar o'tkazishi mumkin. Talaba bayram ssenariysini tuzadi, o'quvchilarni tayyorlaydi.

8. Maktabda tashkil qilingan to'garaklarning ish rejalar bilan tanishadilar. To'garak a'zolari, ularning faoliyati bilan tanishib darslarini tahlil qiladilar. Navbatdagi to'garak darslariga tayyorlanib sinov darslarini o'tadilar.

9. Yo'nalishlar bo'yicha 8—9-sinflarda «Ishlab chiqarish asoslari», «Kasbga yo'naltirish» darslarini tahlil qiladilar, navbatdagi darslarga tayyorgarlik ko'rib avval sinov darslarini so'ngra esa namunali darslarga ko'rgazmali qurollar tayyorlaydilar.

10. Sinf rahbari bilan birga ota-onalar bilan ishslashni, ular bilan yig'ilishlar o'tkazishni o'rganadilar. Tarbiyasi og'ir bo'lgan o'qivchilarning oilaviy sharoitlari bilan tanishib, ularni to'g'ri yo'nga solish tadbirlarini ishlab chiqadilar.

11. Pedagogik amaliyot davrida tayyorlashi kerak bo'lgan hujjatlarni yig'ish va pedagogik amaliyot yakuniga bag'ishlangan konferensiya tayyorgarlik ko'rish. Hisobot topshirish.

Pedagogik amaliyot jarayonida tayyorlanadigan hujjatlar.

Pedagogik amaliyot tugaganidan so'ng talabalar quyidagi hujjatlarni tegishli tartibda rasmiylashtirgan holda taqdim etadilar:

- amaliyotchining shaxsiy ish rejasи;
- pedagogik amaliyot kundaligi;
- amaliyotchi talabaning mehnat fani bo'yicha kamida 40 ta darsning tahlili (yo'nalishlar bo'yicha);
- tanlangan yo'nalish bo'yicha mehnat ta'limidan kalendor mavzuli reja;
- tarbiyaviy ish rejasи;
- tarbiyaviy soatlar tahlili;
- mehnat fanidan tashkil qilingan to'garak ishlar rejasи;
- yosh fiziologiya va gigiyena fanidan mustaqil ish topshiriqlariga javoblar;
- tarbiyaviy tadbir ssenariysi.

Psixologik-pedagogik tavsifnomma:

a) 1 ta guruh uchun; b) 2 ta o'quvchi uchun.

12. Amaliyotchi talaba dars o'tgan fanidan 6–8 ta dars ishlamasi.

13. Sinov dars rejasi va ishlamasi.

14. Sinov dars uchun talaba tomonidan tayyorlangan o'quvko'rgazmali quroq, tarqatma materiallari.

15. Sinov darsning tahlili va maktab metod birlashmasi (Maktab pedagogik kengashi) bayonnomasidan ko'chirma.

16. Amaliyotchi talaba uchun pedagogik amaliyot o'tgan o'quv muassasasining tavsifnomasi.

17. Yuqorida qayd etilgan hujjatlar umumlashtirilgan hisobot.

Amaliyotning umumiy bahosi talabaning tarbiyachi va o'qituvchi sifatida bajargan ishi, o'quvchiga yozilgan pedagogik tavsifnomma hamda hujjatlarning o'z vaqtida topshirilishi va sifatini hisobga olgan holda reyting tizimi asosida qo'yiladi.

Pedagogik amaliyotni o'tashda talaba pedagogika, psixologiya, umumtexnik va metodik fanlardan egallagan bilimlariga tayanadi.

Quyida talabalar pedagogik amalayot davrida amalga oshirishi kerak bo'lgan tadbirlar hamda bu jarayonda yuritiladigan hujjatlar mazmuniga to'xtalamiz: amaliyot tugagach, talaba 3 kun ichida hisobot topshiradi. Unga kundalik, tavsifnomma, dars rejali, ochiq darslar muhokamasi qarorlaridan ko'chirma, o'tkazilgan darslar rejasi va konsepti, qatnashgan darslari tahlili bayoni, o'tkazilgan tarbiyaviy ishlarning ssenariysi (matni), 2 ta o'quvchiga psixologik-pedagogik tavsifnomma, amaliyotchingish ish dasturi, amaliyot davrida guruhning o'quv-tarbiya ishlari oylik va yillik (semestr) ish dasturlari, kasb-hunar kolleji haqida ma'lumot, kelgusida kasb-hunar kolleji ishini rivojlantirish, dars sifatini oshirishga oid fikrlari ilova qilinishi kerak.

Amaliyotchi talabaga maslahatlar.

Pedagogik amaliyot mehnat ta'limi o'qituvchisini tayyorlashda shunday jarayondirki, bunda har bir talaba o'qish davrida to'plagan bilimlarini majmuaviy tarzda foydalanishga to'g'ri keladi. Shuning uchun pedagogik amaliyot davrida o'qish jarayonidagi barcha kamchiliklar yaqqol ko'rinish qoladi. Pedagogik amaliyot mehnat ta'limi o'qituvchisini tayyorlashda o'ziga xos

sinov hisoblanadi. Shuni nazarda tutish kerakki, amaliyotchining yoshi u rahbarlik qilayotgan o'quvchilarning yoshidan juda kam farqlanadi. Bunday vaziyatda birinchi kundan boshlab to'g'ri yo'l tanlash, o'quvchilarga nisbatan takallufsizlikka yo'l qo'ymaslik, takabburona munosabatda bo'lmaslik juda muhimdir. Tajribalarning ko'rsatishicha, amaliyotchi talaba o'quvchilar bilan to'g'ri munosabatda bo'lsa, ya'ni ularga xayrixohligi va kamtarligini namoyon qilsagina u tezda bolalar bilan inoqlashib ketadi.

Amaliyotchi talabaning tashqi qiyofasi ham muhim rol o'ynaydi. U o'quvchiga namuna bo'lishi zarur. Amaliyotchi talaba oddiy, ozoda kiyinishi lozim, bu shartni bajarmagan talaba o'quvchilardan shu narsani talab qila olmaydi. Amaliyotchi talaba nafaqat tashqi qiyofasi bilan, balki o'zining odobi, hulqi, katta va kichiklarga muomalasi bilan namuna bo'lishi kerak. Bu esa talabaning amaliyot davrida turli to'siqlarga duch kelmasdan amaliyotni tugatishiga va davr talabidagi pedagog kadr bo'lishi zamin bo'ladi. Talabalar amaliyot davrida maktab pedagogik jamaoning a'zosi bo'ladilar, binobarin maktab tartibiga bo'ysunadilar, mehnat intizomiga amal qiladilar.

Pedagogik amaliyotning samaradorligi ko'p jihatdan talabaning mustaqilligi va faolligiga, uning ishga ijodiy yondashishiga bog'liq bo'ladi. Mana shu amaliyot davrida talabaga bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo'yicha tadqiqot materiallarini to'plash va umumlashtirish uchun imkoniyat yaratiladi.

Pedagogik amaliyotning vazifalari.

Mehnat ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqqan holda pedagogik amaliyotning vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilangan:

- talabalarda kasbiy ishonch va barqaror pedagogik qarashlarni shakllantirish;
- talabalarning pedagogik-psixologik fanlar hamda maxsus fanlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlарини mustahkamlash va amalda qo'llash;
- bo'lajak o'qituvchilarni amaliy ko'nikma va malakalar bilan, zaruriy holatlarda umumiyy psixologik-pedagogik qonuniyatlarini qo'llash malakalari bilan ta'minlash;
- talabalarni sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilinishi va o'tkazilishi bilan tanishtirish;

- talabalarga maktab o'quvchilarini fan olimpiadalariga tay-yorlash rejalari bilan tanishtirish;
- talabalarni maktab, o'quv-tarbiyaviy ishlarning zamonaviy ahvoli, ilg'or pedagogik tajribalari bilan tanishtirish;
- o'qituvchilarning muhim kasbiy va shaxsiy xislatlarini rivojlanтирish;
- talabalarni bevosita pedagogik-psixologik faoliyatda qatnashishlariga erishish;
- talabalarni maktab, o'quvchilarini pedagogik kasbga yo'naltirish va tarbiyaviy tadbirdarlari o'tkazishga o'rgatish;
- pedagogik faoliyatning sinfdan va maktabdan tashqari ishlarini joriy va istiqbolli rejalshtirishni o'rgatish;
- talabalarda o'qituvchining ish rejasiga muvofiq maktab o'quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish malakasini shakllantirish;
- ta'lif tarbiyaviy ishlarning asosiy shakllari (dars, suhbat, o'yin va boshqalar)ni amaliyotga tatbiq qilishni o'rgatish;
- talabalarga maktab o'quvchilari bilan olib boriladigan ta'lif-tarbiya ishlarini kuzatish va tahlil qilishni o'rgatish;
- zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llab dars o'tishni o'rganish kabilardan iborat.

Umumta'lif mакtabларida o'tkaziladigan pedagogik amaliyot mazmuni va uni tashkil etish.

Malakaviy pedagogik amaliyot ta'lif-tarbiya jarayonini zamon talablarasi asosida tashkil etadigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini muvaffaqiyatli qo'llayotgan, bu borada yetarli ish tajribalariga ega bo'lgan, o'quv-moddiy ta'minoti bugungi kun talablariga javob beradigan uzuksiz ta'lifning umumiyo'rta ta'lif muassasalari bilan tuzilgan shartnoma asosida tuziladi.

Malakaviy pedagogik amaliyot o'tkaziladigan ta'lif muassasalari oliy o'quv yurti joylashgan hududga iloji boricha yaqin joylashgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

1. Talabalar amaliyotning birinchi kunida pedagogik amaliyotga bag'ishlab o'tkaziladigan konferensiyada qatnashadilar. Konferensiyada talabalarni mutaxassisliklariga qarab guruhlarga bo'linadi va pedagogik amaliyot o'taydigan ta'lif muassasasi manzillari bilan tanishadilar. Talabalar pedagogik amaliyotning maqsadi, vazifalari, dasturi va uning mazmuni, biriktirilgan metodist o'qituvchilar bilan tanishadilar.

2. Talabalar biriktirilgan o'quv muassasasiga boradilar, manzil bilan yaqindan tanishadilar. Maktab rahbari bilan suhbatlashib, maktabning tarixi va an'analarini, o'quv moddiy bazasi va uning pedagogik faoliyatni ilmiy tashkil qilish talabiga javob berishini, o'quvchilar kontengentini o'rganadilar.

3. Talabalar pedagogik jamoaning tajribasi, ilmiy pedagogik ishlari, maktabdagi o'quv, metodik ishlar bilan tanishadilar. Ilg'or pedagogik tajribalar o'rganilishi va joriy etilishi bilan tanishadilar. Har bir amaliyotchi talaba amaliyotni o'tash davrida ma'lum sinfga biriktirib qo'yiladi, u shu sinf o'quvchilariga mehnat ta'limidan uchta yo'nalish bo'yicha dars beradilar:

- Texnologiya va dizayn.
- Servis xizmati.
- Qishloq xo'jaligi asoslari.

4. Amaliyotning birinchi haftasi maktabdagi, mehnat ta'limi xonalarining moddiy bazasi, hamda o'quvchilar bilan tanishishga bag'ishlanadi. Bu davrda amaliyotchi talabalar o'zlarini biriktirilgan sinfdagi turli darslarda qatnashadilar, sinf rahbari o'tkazadigan barcha tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etadilar. Amaliyotchi talabalar haftaning oxiriga borib, har bir o'quvchi haqida, uning o'zlashtirishi, intizomi, o'qishga, jamoat ishiga munosabati to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur.

5. Talabalar o'zlarini biriktirilgan ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiyaviy ishlari, guruh murabbiylari va fan o'qituvchisining taqvim mavzuli rejalarini, mehnat ta'limi xonalarining yo'nalishlar bo'yicha jihozlanganligi bilan tanishadilar. Bundan tashqari amaliyotchi fan o'qituvchisining kelgusi darslarga tayyorgarligi dars rejalarining tuzilishi, ulardagi darsning tarbiyaviy, ta'limiy, rivojlantiruvchi maqsadlarining qo'yilishini o'rganadilar. O'quvchilarning fan yuzasidan bilim darajalarini o'rganib Davlat ta'lim standarti talablariga to'g'ri kelishini tahlil qiladilar. Fan o'qituvchisining darslarda ko'rgazmali qurollardan foydalanishi va ularning natijalarini o'rganadilar.

6. O'qituvchi bo'lib ishslash mobaynida talaba faqatgina mehnat ta'limi darslariga kiribgina qolmay chizmachilik, rasm kabi turdosh fanlardan darslarga kirib, darslarni tahlil qiladilar. Ularning mehnat ta'limiga bog'liq tomonlarini o'rganadilar.

Mehnat ta'limining barcha yo'nalishlarini, ya'ni texnik va maishiy xizmat ko'rsatish mehnati darslarini kuzatib darslarning tashkil qilinishini o'rganadilar.

7. Amaliyot davrida talabalar o'zlariga biriktirilgan sinflarda tarbiyaviy ish rejasiga asosan bayram tadbirlarini o'tkazadilar. Bunda talaba o'zining ijodiy faoliyatidan kelib chiqqan holda «Balli qizlar», «Navro'z taomlarini tayyorlash» mavzusida tadbirlar o'tkazishi mumkin. Talaba bayram ssenariysini tuzadi, o'quvchilarni bayramga tayyorlaydi.

8. Maktabda tashkil qilingan to'garaklarning ish rejalar bilan tanishadilar. To'garak a'zolari, ularning faoliyati bilan tanishib darslarini tahlil qiladilar. Navbatdagi to'garak darslariga tayyorlanib sinov darslarini o'tadilar.

9. Yo'nalishlar bo'yicha 8—9-sinflarda «Ishlab chiqarish asoslari», «Kasbga yo'naltirish» darslarini tahlil qiladilar, navbatdagi darslarga tayyorgarlik ko'rib avval sinov darslarini so'ngra esa namunali darslarga ko'rgazmali qurollar tayyorlaydilar.

10. Sinf rahbari bilan birga ota-onalar bilan ishlashni, ular bilan yig'ilishlar o'tkazishni o'rganadilar. Tarbiyasi og'ir bo'lgan o'quvchilarning oilaviy sharoitlari bilan tanishib, ularni to'g'ri yo'lga solish tadbirlarini ishlab chiqadilar.

11. Pedagogik amaliyot davrida tayyorlashi kerak bo'lgan hujjatlarni yig'ish va pedagogik amaliyot yakuniga bag'ishlangan konferensiya tayyorgarlik ko'rish. Hisobot topshirish.

Amaliyotning umumiy bahosi talabaning tarbiyachi va o'qituvchi sifatida bajargan ishi, o'quvchiga yozilgan pedagogik tavsifnomasi hamda hujjatlarning o'z vaqtida topshirilishi va sifatini hisobga olgan holda, reyting tizimi asosida qo'yiladi.

Pedagogik amaliyotni o'tashda talaba pedagogika, psixologiya, umumtexnik va metodik fanlardan egallangan bilimlariga tayanadi.

Quyida talabalarning pedagogik amalayot davrida amalga oshirishi kerak bo'lgan tadbirlar hamda bu jarayonda yuritiladigan hujjatlar mazmuniga to'xtalamiz.

Amaliyot tugagach, talaba 3 kun ichida hisobot topshiradi. Unga kundalik, tavsifnomasi, dars rejalar, ochiq darslar muhokamasi qarorlaridan ko'chirma, o'tkazilgan darslar rejasi va konspekti, qatnashgan darslari tahlili bayoni, o'tkazilgan tarbiyaviy ishlarning ssenariysi (matni), 2 ta o'quvchiga psixologik-peda-

gogik tavsifnoma, amaliyotchining ish dasturi, amaliyot davrida guruhning o'quv-tarbiya ishlari oylik va yillik (semestr) ish dasturlari, maktab haqida ma'lumot, dars sifatini oshirishga oid fikrlari ilova qilinishi kerak.

Mehnat ta'limi darslarini tahlil qilish.

Pedagogik amaliyot davrining 1–4-haftalarida talabalar maktab jamoasining pedagogik faoliyati bilan yaqindan tanishadilar. Ular maktabdagi tarbiyaviy ishlarning tashkil etilishi, tarbiyaviy soatlarni tahlil qilish bilan birga mакtabda o'qитиладиган hamma fanlarni kuzatadilar. Mehnat ta'limi darslari turli maqsadlarda kuzatilishi mumkin. Ko'п yillik ish tajribasini o'рганиш maqsadida yosh o'qituvchiga metodik yordam ko'rsatish maqsadida, o'quvchilarning bilmalarini aniqlash va baholash ish uslubini o'рганиш va hokazo. Butun dars jarayoni bir necha qismda tahlil etiladi:

- tashkiliy;
- didaktik;
- metodik;
- psixologik;
- pedagogik;
- yakuniy tahlillardan iborat.

Tashkiliy tahlilda mehnat xonasining va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi e'tiborga olinadi. Hatto bu bosqichda o'qituvchining tashqi ko'rinishi hisobga olinadi.

Didaktik mavzuning ilmiyligi, izchilligi, oddiydan murakkabga yo'nalishning ko'rsatmaliligi, bilim va axborotlarning hayotiyligi, jonliligi, ravon tilda olib borilishi va hokazo.

Metodik tahlilda qanday usullarda darsning olib borilishi, qo'llanilgan dars shakli mavzuga mos keladimi yoki yo'qmi, tayyorlangan ko'rgazmalar, namunalar mavzuni ochib berishga xizmat qilishi, darsda tatbiq etilgan yangi pedagogik texnologiyalar qay darajada o'zining samarasini bergenligi haqida ma'lumot beriladi.

Pedagogik tahlil, bunda o'quvchining tashqi qiyofasi, nutqi, sinf bilan til topa olishi, milliy tarbiya, ekologiya, iqtisodiy tarbiya, axloqiy, g'oyaviy, siyosiy elementlarni, tarbiya turidan qaysi biriga e'tibor berish lozimligi, qanday dars turidan foydalansa, dars samarali bo'lishi kabi masalalar pedagogik tahlilning asosini tashkil etadi.

Yakuniy tahlil, bunda dars bo'yicha mulohaza, yo'l-yo'riqlar yoki tavsiyalar beriladi. Yuqoridagi tahlilni bajarish uchun darsning hamma bosqichlari to'g'ri kuzatilishi va tahlil etilishi kerak.

Darsni kuzatish natijasida u haqida to'liq tasavvur vujudga kelishi kerak. Shuning uchun ma'lum tarzdagi umumiyl talablarga rioya qilish lozim:

1. Dars haqida umumiyl ma'lumot: sana, joyi, sinf, fan, o'qituvchining ismi, familiyasi, nechanchi soat (darsning jadvaldag'i orni), o'quvchilarning soni, davomati, amaliyotchi talabalarning qatnashishi.

2. Darsning maqsadlari: a) ta'limiy, b) tarbiyaviy, d) rivojlaniruvchi maqsadlarning qo'yilishi va uning dars jarayonida yoritilishi.

3. Tashkiliy qismni kuzatishda asosan o'quvchilarning darsga hozirligi, sinf xonasining, o'quvchilarning darsga tayyorgarligi (ish kiyimi, yengchalari, ro'mollari), ularning asbob-uskunalar bilan ta'minlanishi va bosqichning qanday o'tganligi darajasi yetarli saviyada o'tganligi nazorat qilinadi.

4. O'tilgan mavzuni takrorlash. O'qituvchining o'quvchilarga bergen savollari o'tgan mavzuni qamray oldimi, savollar aniqmi, mavzuni takrorlashda qaysi usullardan foydalandi? O'quvchilarning javoblari mavzuni o'zlashtirdi deyishga asos bo'ladimi? O'quvchilarning javoblari tahlil etiladi.

5. Yangi mavzuni tushuntirishda qanday usullar qo'llanildi. O'quvchilarini mehnat ta'limi va boshqa fan asoslari bo'yicha bilimlariga tayanildimi yoki yo'qmi? Yetarlicha ko'rsatmalilikdan foydalanildimi, o'quvchilarini qiziqtira olindimi, ta'limda muammoli vaziyat qo'llanildimi, yangi bilimni o'zlashtirilishi tekshirildimi? Darsning hayot bilan bog'langanligi haqida fikr bildiriladi.

6. Kirish yo'riqnomasi. Mehnat topshirig'iga tavsif berish: uni o'quvchilar bajara oladimi, ularda qiziqish uyg'otadimi? Topshiriqni bajarishda o'quvchilarning mehnat ta'limi va fan asoslariga doir nazariy bilimlaridan foydalanishi nazarda tutildimi? Topshiriqni bajarish bilan bog'liq ishning mazmuni maktab o'quvdasturining o'r ganilayotgan mavzusiga muvofiqmi? Buyumga qo'yiladigan talablar, o'zini-o'zi nazorat qilish mezonlari ko'rsatildimi? Kirish yo'riqnomasi qanday o'tdi: qaysi ish usullari qo'llanildi, ularni namoyish etishda yetarlicha ko'rsatmalilik ta'minlandimi? O'quvchilar topshiriqni qanchalik tushungani

tekshirildimi va bu tekshirish yetarlimi? Xavfsizlik texnikasi qoидарига етібор qандай? Kirish yo‘riqnomasida o‘quvchilar qандай ishtirok etdilar: ular passiv tinglovchi va kuzatuvchi bo‘ldilarmi yoki o‘qituvchi ularни ayrim masalalarни hal qilishga jalg etdimi?

7. O‘quvchilarning mustaqil ishi. O‘quvchilar ishini tashkil qiliшning qандай shakllari qo‘llandi? O‘quvchilar qандай xatolarga yo‘l qо‘yдilar, bular tipik xatolarmi? O‘qituvchi o‘quvchilarning xatolariga qандай munosabatda bo‘ldi? Qандай joriy yo‘riqnomasi o‘tkazildi? Ular oldindan rejalashtirilganmi? Joriy yo‘riqnomasi o‘z vaqtida o‘tkazildi, deyish mumkinmi? O‘quvchilar jismoni ishdan so‘ng dam olishlari uchun tanaffuslar rejalashtirilganmi, bu tanaffuslardan o‘qituvchi qандай foydalandi? O‘quvchilar, mehnat topshirig‘ini bajarish bilan bog‘liq ba‘zi masalalarни mustaqil hal qilishlariga to‘g‘ri keldimi, ular bu ishni bajara oldilarmi? O‘qituvchi umuman sinfning va alohida har bir o‘quvchining faoliyati ustidan nazoratni ta‘minladimi? O‘qituvchi kuchli o‘quvchilar uchun qo‘sishimcha topshiriqlarni nazarda tutdimi? O‘quvchilarда o‘z-o‘zini nazorat qilish malakalarini shakllantirishga yetarlicha eтіbor berildimi?

8. Yakunlovchi yo‘riqnomasi. Bu yo‘riqnomaga qancha vaqt ketdi, u nima haqida bo‘ldi? Mashg‘ulot qanchalik chuqur va to‘liq yakunlandi? Tipik xatolar, yaxshi va ko‘ngildagidek chiqmagan buyumlar ko‘rsatildimi?

9. Ish o‘rinlarini yig‘ishtirish. Ish o‘rinlarini yig‘ishtirish qancha vaqt oldi? O‘quvchilar yig‘ishtirish uchun barcha zarur narsalar bilan ta‘minlandimi? Ish o‘rinlarini yig‘ishtirishning sifati kim tomonidan va qандай tekshirildi? Ish o‘rnining ozodaligi uchun musobaqa o‘tkazildimi? Bu musobaqada sinf faollari qандай rol o‘ynaydi?

10. Umumiyy xulosa. Dars qандай elementlardan tashkil topdi?

11. Dars tipi. O‘qituvchi ko‘zlagan maqsadga erishdimi?

Mehnat darslarini o‘tish bo‘yicha tavsiyalar.

Yuqorida aytiganidek, pedagogik амалийот davrida talabalar o‘zлари biriktirilgan sinflarda mehnat ta‘limining belgilangan yo‘nalishlari bo‘yicha 6–8 ta dars o‘tishi lozim. Birinchi haftasida amaliyotchi talaba fan o‘qituvchisining ish uslubi bilan, sinf xonasining asbob va jihozlar bilan ta‘minlanishi, savol-javobning qандай o‘tkazishi bilan tanishadilar. Amaliyotchi o‘z ishida oliv o‘quv yurtida olgan bilimlariga tayanishi lozim va imkonli bori-

cha maktabdagi fan o'qituvchilarining tajribalaridan foydalana-dilar. Bundan tashqari biriktirilgan mehnat darslarida qatnashish shuning uchun zarurki, dars o'tkazishning tashkil qilinishi va metodikasidan keskin farq qiluvchi ustaxona bilan bog'liq muayyan odatlarni egallagan o'quvchilarga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Nihoyat, mazkur maktabda yuzaga kelgan mayjud sharoitlarni o'rganish maktab dasturining o'rganiladigan mavzusi talablariga to'la javob beradigan ish obyektini rejalashga yordam beradi.

Talabalar darslarga tayyorlanishida uning ko'rgazmali vositalar bilan ta'minlanganligi alohida diqqatga sazovordir. Har maktabda o'rganiladigan mehnat operatsiyalarining, texnikaga oid ma'lumotlarning ko'rgazmaliligini yaxshilashga va o'quv jarayonining samaradorligini ko'tarishga imkon topiladi. Amaliyotchilar bu borada tashabbus ko'rsatishlari va o'rgatadigan o'quv materialiga doir ayrim ko'rgazma vositalarini taklif etib, keyinchalik uni o'zları yoki o'quvchilar yordamida tayyorlashlari maqsadga muvofiqdir. Bular plakatlar, moslamalar, slaydlar namunalari bo'lishi mumkin.

Amaliyotchilar uchun darsning eng qiyin elementi o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil qilishdir. Zaruriy tajribasi yo'qligi tufayli amaliyotchi talaba mustaqil ishlarni bajarish davomida o'quvchilarda paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni hali oldindan ko'ra bilmaydi. Shunday paytlarda amaliyotchi o'zini yo'qotib qo'yadi, o'zini qanday tutishni bilmaydi, shu tufayli o'quv jarayonidagi uning rahbarlik roli yo'qqa chiqadi. Amaliyotchi eng avvalo shuni yodda tutishi kerakki, o'quvchilar amaliy ish bajarayotganlarida albatta xatolarga yo'l qo'yadilar, yo'riqnomalar yordamida mehnat harakatining ichki ko'rinishini ochib berish mumkin. O'quvchilar mustaqil ishni bajarayotganlarida amaliyotchilar ularning mehnat amallarini to'g'ri bajarayotganliklarini tekshirishga asosiy diqqat-e'tiborini qaratishlari lozim. Metodik adabiyotlar bilan tanishish, maktabdagi fan o'qituvchisidan va amaliyot rahbaridan maslahatlar olish ko'pchilikka xos xatolarni aniqlashga hamda oldindan ularni bartaraf etish choralarini o'ylab ko'rishga imkon beradi. Mustaqil ish vaqtida ish o'rinalarini aylanib chiqib, o'quvchilarga maslahatlar berish zarur. Ba'zan amaliyotchi aynan bir narsaning o'zini turli o'quvchilarga ko'p marta alohida-alohida namoyish qilayotganini payqamay qoladi. Bunga ko'p vaqt ketadi va bari-

bir hamma o'quvchilarni qamrab olishning iloji bo'lmaydi. Bu holda eng muhimi xatoning tipikligini o'z vaqtida aniqlash va frontal yo'riqnomaga o'tkazishdir.

Amaliyotchi yangi materialni bayon etishga tayyorlanar ekan, o'quvchilarda o'quv materiali bilan bog'liq bo'lgan, o'quv dasturi doirasidan chiqmaydigan savollar paydo bo'lishi mumkinligini hisobga olishi kerak. Albatta bu savollarga javob berishi zarur, lekin bunga hamisha ham vaqt bo'lavermaydi. Bu holda o'quvchilarga darslardan keyin o'z oldiga kirishini, to'garak ishida qatnashishni taklif qilish, zarur adabiyotlarni tavsiya etish mumkin.

O'tilgan material yuzasidan savol-javoblar va yangi materialni mustahkamlashga tayyorgarlik ko'rishda amaliyotchi savollarini o'ylab olishi, o'quvchilarning javoblaridagi mumkin bo'lgan chetlashishlarni tahlil qilib chiqishi, ularning xatolarini darhol tuzatishga tayyor turish lozim. Bu ishni xushmuomalalik bilan, o'quvchiga qattiq tegmaydigan qilib amalga oshirish kerak. O'quvchilar ishini tekshirayotganda ularning xarakteridagi o'ziga xos xususiyatlarni e'tiborga olish va baholarni shu asosda qo'yish kerak. Ma'lumki 10–15 yoshdagи bolalar juda qattiq emotsiyonal ta'sirlanadilar. Ehtiyoitsizlik bilan aytilgan har bir qo'pol so'z ularni qattiq g'azablantirishi, bu g'azabni jilovlash qiyinlashib, agarda amaliyotchingin o'zi ham yomon kayfiyatda bo'lsa, u holda butun dars buzilishi mumkin.

Mehnat fanini yo'nalishlar bo'yicha o'qitishda har bir yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan «Servis xizmati» yo'nalishida o'quv xonalari tegishli tartibda jihozlangan bo'lishi, sanitар-gigiyenik me'yorlarga javob berishi kerak bo'ladi. O'quvchilarga tikuv mashinasidan to'g'ri foydalanishni ya turli shikastlanishlarning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va o'quvchilarning shunga amal qilishlarini ta'minlash zarur. Darslarda ko'rgazmali qurollardan, texnik vositalardan, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalananish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Amaliy mashg'ulotlarda joriy, oraliq, yakuniy yo'riqnomalarni o'z vaqtida mazmunli va to'g'ri o'tkazish o'quvchilar tikayotgan buyumlarining sifatli bo'lishiga olib keladi.

Mehnat darslarida ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish metodining samarali bo'lishi quyidagi talablarga rioya qilinishiga bog'liqdir:

1. Ko'rgazmali qo'llanmalarni namoyish qilish vaqtida ularning barcha o'quvchilarga yaxshi ko'rindigani bo'lishini ta'minlash zarur, estetik jihatdan talab darajasida bo'lishi kerak.

2. Ko'rgazmali qo'llanmalar o'quv materiali mazmunining eng muhim belgilari aks ettirishi lozim.

3. Bayon qilinayotgan materialning mazmuniga to'la-to'kis muvofiq keladigan ko'rgazmali narsalarni namoyish qilish kerak. Ortiqcha kuzatish obyektlari bo'lmasligi lozim, chunki ular o'quvchilarning diqqatini chalg'itishi mumkin.

4. O'qituvchi ko'rsatayotgan narsaning o'quvchilar tomonidan idrok etilishi jarayoniga aniq rahbarlik qilishi lozim.

Mehnat darslarida o'quvchilar bilimini tekshirishda amaliyotchi talabalar quyidagi tavsiyalar asosida ish yuritadilar.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholash katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bilim va mehnat ko'nikmalarini tekshirish va baholash mehnat ta'limining barcha bosqichlarida: o'tilgan materialni takrorlash va yangisini mustahkamlashda mehnat usullarini egallashda va mehnat topshiriqlarini mustaqil bajarishda, grafik ish va uy vazifalarini bajarishda amalga oshiriladi.

Bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish ikki xil shaklda: frontal va yakka tarzda o'tkaziladi. Mehnat ta'limi darslari da yakka tekshirish uchun qulay sharoit vujudga keladi, chunki o'quvchilarning biridan so'rash boshqa o'quvchilarni ishdan chalg'itmeydi. Frontal so'rash kamroq qo'llaniladi va undan bior mehnat usulini butun guruh qanchalik to'g'ri o'zlashtirGANI ni tekshirish zarur bo'lib qolganda foydalaniladi. Odatda tayyor buyumni baholashda frontal tekshirish qo'llaniladi.

Bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish og'zaki, yozma va amaliy bo'lishi mumkin.

1. Og'zaki tekshirish – o'quvchilar bilimining saviyasi, puxtaligi va ongliligini aniqlash imkonini beradi.

2. Bilimlarni yozma tekshirish nisbatan kamroq, odatda o'quvchilar bilimini sinash kerak bo'lganda, ya'ni o'quvchilar berilgan mavzuni o'zlashtirishida u yoki bu masala bo'yicha qanday bilimlar bilan kelgani va bu bilimlar mavzuni o'rgangandan keyin qanchalik to'laligini aniqlash zarur bo'lganda qo'llaniladi.

3. Bilimlarni amalda tekshirish mehnat ta'limida alohida o'rincutadi, chunki o'quvchilarning mehnat darslaridagi faoliyati aso-

san ijtimoiy foydali buyumlarni tayyorlashdan iborat bo'ladi va shu yo'l bilan moddiy ifodasini topadi.

O'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalarini tekshirish jarayoni quyidagi didaktik masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan.

1. Bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash.
2. O'quvchilarni o'quv faoliyatlarida rag'batlantirish.
3. O'quv jarayonini tashkil qilish va o'tkazishdagi nuqsonlarni aniqlashda yordam berish.
4. O'quvchilarda o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini tarkib toptirish.

5. Bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish oldindan ishlab chiqilgan dastur asosida o'tishi hamda o'quvchilarning o'quv faoliyatiga tarkiban qo'shilib ketishi kerak.

Baho qo'yishga oqilona va metodik jihatdan to'g'ri yondashish zarur. U o'quvchining qiziqishini hamda o'qishga bo'lgan xohishini rag'batlantirishi va aksincha noto'g'ri qo'yilgan baho uning o'qishga bo'lgan qiziqishini pasaytirishi mumkin. Baho tarbiyaviy vositalardan biri bo'lmog'i kerak. Shuning uchun ham baho qo'yishda amaliyotchining nihoyatda obyektiv bo'lishi talab etiladi. Ko'pincha amaliyotchi talabalar o'quvchilarning intizomiga oid birorta kamchiligi (darsga kechikib kelishi, gaplashib o'tirishi va hokazo) uchun bahoni kamaytirish kabi xatoga yo'l qo'yadilar. Bu o'rinda amaliyotchi talaba tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning boshqa vositalaridan foydalaniishi lozim. O'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini baholashda quyidagi talablarning bajarilishi talab etiladi.

1. Nazariy va texnologik bilimlar me'yori va ularni amaliy ish jarayonida qo'llash.

2. Asboblar, moslamalar va boshqa jihozlarni bilishi va ularni ishga sozlay bilishi.

3. Amaliy ish jarayonida texnika xavfsizligi va sanitariya-gigiyena talablarini bajara bilishi.

4. Ajratilgan vaqt me'yorida buyumni tayyorlay olishi.
5. Mehnat usullarini qanchalik egallay bilishi.

6. Dars jarayonini yozma va grafik hujjatlardan foydalana biliishi va ularning oddiyolarini tuza bilishi.

7. Ish jo'yini nechog'liq to'g'ri tashkil qila bilishi.
8. Materiallarni tanlay bilishi, asbob-uskunalarga to'g'ri munosabatda bo'lishi.

9. Nechog'liq mustaqil ishlay bilishi va ijodiy izlanishi.
10. Buyumni sifatli tayyorlashi.
11. Texnik va texnologik talablarni to'g'ri bajara olishi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Pedagogik amaliyotning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Pedagogik amaliyotda talabalarning passiv, faol, tanishuv jarayonlarida bajaradigan ishlari nimalardan iborat?
3. Rejalshtirish hujjatlari deganda nimani tushunasiz va pedagogik amaliyot davomida qanday rejalshtiruvchi hujjatlar tayyorlanadi?
4. Amaliyotchi talabaning shaxsiy ish rejasini tuzishda e'tibor ga olinadigan omillar nimalardan iborat?
5. Amaliyot davomida qanday ko'rgazmali qurollar tayyorlanadi?
6. Amaliyotni yakunlashga qo'yiladigan talablar haqida malumot bering.

Mustaqil ta'lif topshiriqlari:

Talabalarga amaliyot davomida tayyorlangan hujjatlarni tahlil qilish va o'rghanish asosida amaliyot davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish vazifasi qo'yiladi.

«Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash» fanidan test savollari

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining maqsadi nima?

- A. Fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslari belgilangan;
- B. O'zbekistondagi ta'lim turlari belgilab berilgan;
- C. Ta'lim jarayonini tashkil etish talablari ko'rsatilgan;
- D. Sifatli ta'limni tashkil etish.

2. Umumta'lim maktablari o'quv rejasiga asosan mehnat ta'limi fani 1–4; 5–7; 8–9-sinflarda haftasiga necha soatdan ajratilgan?

- A. 2; 1; 4 soatdan;
- B. 3; 2; 2 soatdan;
- C. 1; 2; 1 soatdan;
- D. 4; 3; 2 soatdan.

3. Mehnat ta'limi DTS da hammasi bo'lib fanga necha soat ajratilgan?

- A. 508 soat;
- B. 396 soat;
- C. 406 soat;
- D. 407 soat.

4. Mehnat ta'limi fani nechta yo'nalishlar asosida o'qitiladi?

- A. 5 ta yo'nalish;
- B. 4 ta yo'nalish;
- C. 3 ta yo'nalish;
- D. 1 ta yo'nalish.

5. Uzluksiz ta'lim tizimi qaysi javobda to'gri ko'rsatilgan?

- A. Boshlang'ich ta'lim, o'rta maxsus bilim va kasb-hunar ta'limi;
- B. Maktabgacha ta'lim, oliy ta'lim (bakalavr va magistratura);
- C. Umumiyo'rta ta'lim, boshlang'ich ta'lim, oliy ta'lim;
- D. Maktabgacha ta'lim, umumiyo'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'lidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktab-dan tashqari ta'lim.

6. O‘zbekistonda ta’lim to‘g‘risidagi yangi qonun qachon qabul qilindi va u nechta moddadan iborat?

- A. 1997-yil, 34 moddadan;
- B. 1994-yil, 40 moddadan;
- C. 1995-yil, 35 moddadan;
- D. 1993-yil, 43 moddadan.

7. Mehnat ta’limini o‘qitishda ta’lim shakllarini ko‘rsating.

- A. O‘quv ishlab chiqarish brigadasida o‘qitish;
- B. Dars forması;
- C. O‘quvchilarni ishchilar brigadasiga biriktirish, malakali ishchiga biriktirish, o‘quv sexlarida, shtatli ish joylarida o‘qitish, frontal zveno, yakka-yakka o‘qitish, ekskursiya;
- D. Amaliy mashg‘ulot, korxonaga ekskursiya o‘tkazish, o‘quvchilarni ishlab chiqarish brigadalari, o‘quv sexlarida va maxsus ajratilgan uchastkalarda o‘qitish, o‘quv ishlab chiqarish praktikasi, mehnat mashg‘ulotlarini tashkil etishning frontal, zveno va individual shakllari.

8. O‘qitishning frontal formasini aniqlang?

- A. Bunda, gruppaning har biri 3–4 kishilik zvenolarga bo‘linishi, bu zvenolarning har qaysisi alohida topshiriqni bajarishi nazarda tutiladi;
- B. Bunda, o‘quvchilarning hammasi bir xil topshiriqni bajarishidan iboratdir. Shuning uchun o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida butun gruppera ishiga rahbarlik qila oladi;
- C. Bunda, hamma o‘quvchilar har xil ishni bajarishidan iborat;
- D. O‘quvchilar individual ish bajaradi.

9. O‘qitishning individual formasini aniqlang.

- A. O‘quvchilarning hammasi bir xil topshiriqni bajaradilar. O‘qituvchi bir vaqtida butun gruppera ishiga rahbarlik qila oladi;
- B. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan alohida ishlaydi, ko‘rsatmalar beradi, o‘quv jarayonini boshqarish qiyin bo‘ladi;
- C. Barcha o‘quvchilar har xil ishni bajarishidan iborat;
- D. Sinf o‘quvchilari umumiy topshiriq ustida ishlaydilar.

10. «Metod» – bu ...

- A. Metod bu grekcha so‘zdan olingan bo‘lib uslub demakdir;

- B. Metod bu lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, axborotni uzatish usulidir;
- C. Metod bu yunoncha «yo‘l-yo‘riq», usul orqali maqsadga erishishdir;
- D. Hamma javoblar to‘g‘ri.

11. O‘qitish metodlarini tanlash nimalarga bog‘liq?

- A. Mashg‘ulot turi va tipiga;
- B. Mashg‘ulot mavzusiga;
- C. O‘quv materialining mantiqiy yo‘nalishi, mazmuni va mustaqil ish xarakteriga bog‘liq;
- D. O‘qituvchi bilimiga.

12. O‘qitishning og‘zaki metodiga quyidagilar kiradi ...

- A. Ma’ruza, hikoya, tushuntirish, suhbat;
- B. Namoyish qilish, ma’ruza;
- C. Ma’ruza, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish;
- D. Amaliy ko‘rsatib berish;
- E. Amaliy ko‘rsatib berish, illyustratsiya materiallaridan foydalanish.

13. Ko‘rgazmali qo‘llanmalarni namoyish qilish metodi nimalarga asoslanadi?

- A. U, mehnat ta‘limida o‘rganilayotgan obyektlarni ko‘rgazmali tashkil etishga asoslangan metoddir;
- B. U, o‘quvchilarning o‘rganayotgan obyektlarini, hodisalar va ishlab chiqarish jarayonlarini ko‘rgazmali hissiy idrok qilishni ta‘minlaydi;
- C. Unda o‘qituvchi to‘g‘ri qo‘yilgan savollar bilan o‘quvchilarga ilgari o‘zlashtirgan bilimlarini esga tushiradi va shu asosida yangi bilimlar hosil qilishga undaydi;
- D. Darsda plakat va slaydlardan foydalanish.

14. Materialshunoslik bo‘limida o‘quvchilar qanday bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar?

- A. Tabiiy va kimyoviy gazlamalarning olinishi, tayyorlanishi, qo‘llanishi va ularning xususiyatlari haqida;
- B. Tabiiy va kimyoviy gazlamalarni aniqlash;
- C. Gazlamalarning olinishi, tayyorlanishi va qo‘llanilishi;
- D. Gazlamalarning xususiyatlarini aniqlash.

15. Mehnat ta'limi fanining vazifalari nimalardan iborat?

- A. Ta'limni unumli mehnat bilan qo'shish, politexnik ta'lim, mehnat tarbiyasi, o'quvchilarni kasbga yo'llash kabilar;
- B. Faqat unumli mehnatga tayyorlash;
- C. O'quvchilarga mehnat tarbiyasini berish;
- D. O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash.

16. Quyidagi tushunchalarning rivojlanish ketma-ketligi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Ko'nikma, bilim, malaka, tushuncha;
- B. Tushuncha, bilim, ko'nikma, malaka;
- C. Bilim, ko'nikma, tushuncha, malaka;
- D. Ko'nikma, bilim, tushuncha, malaka.

17. Texnika xavfsizligi nimalardan iborat?

- A. Ishdag'i ehtiyyotkorlik;
- B. Asboblardan to'g'ri foydalanish;
- C. Asbob-uskunalarlardan tartibli va ehtiyyotkorona foydalanish;
- D. Ishdag'i ehtiyyotkorlik, asboblardan to'g'ri foydalanish, asbob-uskunalarlardan tartibli va ehtiyyotkorona foydalanish.

18. Yubkaga oxirgi ishlov berish bu ...

- A. Furniturelarni qadash;
- B. Keraksiz iplardan tozalash;
- C. Namlik-issiqlik ishlovi berish;
- D. Furniturelarni qadash, keraksiz iplardan tozalash, namlik-issiqlik ishlovi berish.

19. Zardo'zlik san'ati nechanchi sinflarda o'qitiladi?

- A. 5-sinfda;
- B. 6-sinfda;
- C. 7-sinfda;
- D. 8-sinfda.

20. Beldan kiyiladigan kiyimlarga nimalar kiradi?

- A. Yubka, shortik, shim, bridja;
- B. Yubka, shortik, shim, kurtka;
- C. Bluzka, yubka, shortik, shim;
- D. Yubka, ko'yak, shortik, shim.

21. Darsning tashkiliy qismiga qancha vaqt ajratiladi?

- A. 10–15 daqiqa;
- B. 20–25 daqiqa;
- C. 3–5 daqiqa;
- D. 2–6 daqiqa.

22. Servis xizmati yo‘nalishi «Pazandachilik asoslari» bo‘limiga necha soat ajratilgan?

- A. 18 soat;
- B. 22 soat;
- C. 68 soat;
- D. 38 soat.

23. «Xalq hunarmandchiligi» bo‘limida o‘quvchilar qanday bu-yumlar tayyorlaydilar?

- A. Milliy buyumlarning turlari, ularni tayyorlash texnologiyasi, milliy buyumlardan: «qiyiqcha», «joynamoz», milliy qo‘g‘irchoq, choynak yopqich, choynak uchun taglik, «quroq» usulida ushlagich;
- B. Milliy buyumlarning turlari, ularni tayyorlash texnologiyasi, milliy buyumlardan: «qiyiqcha», «joynamoz», choynak yopqich, «quroq» usulida ushlagich;
- C. Milliy buyumlarning turlari, ularni tayyorlash texnologiyasi, milliy buyumlardan: «qiyiqcha», «joynamoz», choynak uchun taglik, «quroq» usulida ushlagich;
- D. Fartuk, yubka, ko‘ylak tikish texnologiyasi.

24. Kasb tanlashda qanday holatlar alohida o‘rin tutadi?

- A. Kasbga qiziqish, moyillik, bilim imkoniyatlari;
- B. Kasbning istiqboli, yaxshi daromad keltirishi;
- C. Ota-onanig xohishi;
- D. Kasbning dolzarbligi.

25. Xalq hunarmandchiligi yo‘nalishidagi kasblarni belgilang.

- A. Duradgorlik, temirchilik;
- B. Haykaltaroshlik;
- C. Kandakorlik, ganch o‘ymakorligi;
- D. Me’morchilik.

26. Metallga qanday asbob-uskunalar yordamida ishlov beriladi?

- A. Tokarlik stanogida, egovda, elektrodda;
- B. Arrada, lobzikda;
- C. Iskana va bolg'ada;
- D. Arrada, bolg'ada.

27. Ta'lif vositasi nima?

- A. Dars jarayonida tabiiy va sun'iy ko'rgazmali vositalardan foydalanish;
- B. Ma'lum o'qitish usulini muvvafaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari;
- C. Tushuntirish, suhbat, ma'ruza, suhbat;
- D. Ta'lif jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birqalikdagi faoliyati.

28. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilar qanday ma'lumotga ega bo'ladilar?

- A. Ta'lif-tarbiya haqidagi tushunchaga ega bo'ladilar;
- B. Yog'ochsozlik va metallga ishlov berish bo'yicha ma'lumotga ega bo'ladilar;
- C. Stanoklarda ishlov berish bo'yicha ma'lumotga ega bo'ladilar;
- D. Texnik mehnat va xizmat ko'rsatish mehnati haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

29. Gazlamaga ishlov berish «Asbob-uskunalar va ularni ishlash» bo'limida o'quvchilar qanday bilimlarga ega bo'ladilar.

- A. Gazlamaga ishlov berishda qo'llaniladigan asbob-uskunalar;
- B. Gazlamaga ishlov berishda qo'llaniladigan asbob-uskunalarining tuzulishi, ulardan foydalanish, texnika xavfsizlik qoidalari, tikuvchilik buyumlarini tayyorlashda nam-issiqlik ishlovi berishda qo'llaniladigan asbob-uskunalar, tikuv mashinalari haqida tushunchalar;
- C. Gazlamalardan turli buyumlar tikish texnologiyasi;
- D. Ko'yylakning asosiy chizmasini chizish.

30. Og'zaki bayon qilish metodi nimani ko'zlaydi?

- A. Yangi texnika, mehnat tushunchalari ochib beriladi, mashinalar, mehnat va texnologiya jarayonlari haqidagi texnik iqtisodiy

ma'lumotlar o'rganib chiqiladi, umuman mehnat usullari va topshiriqlarini bajarish yuzasidan tushuntirishlar beriladi;

B. O'quvchilarning tabiyi sharoitlarda hodisalar va ishlab chiqarish jarayonlarini bevosita idrok qilishni ta'minlaydi;

C. Bu metod ma'ruza darslarining asosiy mazmunini tashkil qiladi;

D. Hikoya va suhbat metodlarini anglatadi.

31. Darsning texnologik xarитаси нима учун xizmat qilади?

A. Mashg'ulotni me'yorida tashkil etish;

B. O'quvchilar faoliyatini faollashtirish;

C. O'qituvchi va o'quvchi faoliyati hamda unga taqsimlangan vaqt me'yorini har bir bosqich bo'yicha to'g'ri belgilash;

D. Vaqt me'yorini belgilash, bilim va ko'nikmalarни egallashlari учун зарур hajmni shakllantirish.

32. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilar qanday ma'lumotga ega bo'ладилар?

A. Ta'lim-tarbiya haqidagi tushunchaga ega bo'ладилар;

B. Yog'ochsozlik va metallga ishlov berish bo'yicha ma'lumotga ega bo'ладилар;

C. Stanoklarda ishlov berish bo'yicha ma'lumotga ega bo'ладилар;

D. Texnik mehnat va xizmat ko'rsatish mehnati haqida ma'lumotga ega bo'ладилар.

33. Mehnat ta'limi fanining vazifalari nimalardan iborat?

A. Ta'limni unumli mehnat bilan qo'shish, politexnik ta'lim, mehnat tarbiyasi, o'quvchilarni kasbga yo'llash kabilar;

B. Faqat unumli mehnatga tayyorlash;

C. O'quvchilarga mehnat tarbiyasini berish;

D. O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash.

34. Ta'limni unumli mehnat bilan birga qo'shishni ta'minlash zarurligi mehnat ta'limi mazmuniga qanday talablar qo'yadi?

A. O'quvchilarning amaliy faoliyatlarini imkoniyatlariga qarab unumli mehnatni o'z ichiga olishi kerak, unumli mehnat, o'quvchilarning mehnat o'quv faoliyatlariga tarkiban qo'shilib ketishi kerak;

- B. Unumli mehnat mazmunida bolalarning yosh imkoniyatlari, mehnat ta'limi vazifalari, ishlab chiqarish muhitining xarakteri hisobga olinishi kerak;
- C. Maktab ta'limi ishlab chiqarish malakasining berilishi bilan tugallanishi kerak;
- D. Hamma o'quvchilar hozirgi zamon ishlab chiqarish bilimlarini olishi kerak.

35. Mehnat ta'limi mazmuniga politexnik ta'lim vazifalari qanday talablarni qo'yadi?

A. Hamma o'quvchilar hozirgi zamon ishlab chiqarish asoslari haqida bir xil hajmdagi bilimlarni olishi kerak, o'quv materiali eng ko'p tarqalgan texnika va texnologiya obyektlaridan iborat bo'lishi, o'quv materiali ta'lim jarayonida ishlab chiqarishning aralash sohalari bo'yicha o'zlashtirilgan bilim va malakalarini ko'chirish uchun sharoitlar bo'lishi kerak;

B. O'quvchilarning amaliy faoliyatlarini imkoniyatlari qarab unumli mehnatni o'z ichiga olishi kerak, o'quvchilarning unumli mehnati ularning o'quv faoliyatlariga tarkiban qo'shilib ketishi kerak;

C. Hamma o'quvchilar hozirgi zamon ishlab chiqarish asoslari haqida bir xil hajmdagi bilimlarni olishi kerak;

D. Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari haqida bilimga ega bo'lish.

36. Mehnat ta'limini o'qitishda ta'lim shakllarini ko'rsating.

A. O'quv ishlab chiqarish brigadasida o'qitish;

B. Dars formasi;

C. O'quvchilarni ishchilar brigadasiga biriktirish, malakali ishchiga biriktirish, o'quv sexlarida, shtatli ish joylarida o'qitish, frontal, zveno, yakka-yakka shaklda o'qitish, ekskursiya;

D. Amaliy mashg'ulot, korxonaga ekskursiya o'tkazish, o'quvchilarni ishlab chiqarish brigadalari, o'quv sexlarida va maxsus ajratilgan uchastkalarda o'qitish, o'quv ishlab chiqarish praktikasi, mehnat mashg'ulotlarini tashkil etishning frontal, zveno va individual shakllari.

37. Mehnat ta'limini rejalashtirishda nimalarga e'tibor berish kerak?

A. DTS talablariga, o'quv dasturiga, o'quv rejaga;

B. Darsning tashkil etilishiga, kirish, joriy va yakuniy instruktajlarga;

C. O'quv jarayonini aniq tashkil etishdan iborat bo'lib, u didaktika prinsiplariga to'la-to'kis mos keladigan bo'lishi kerak;

D. DTS ga e'tibor berish.

38. Mehnat ta'limini rejalashtirishda qanday hujjatlar tuzib chiqiladi?

A. Mehnat bo'yicha yarim yilga yoki bir yilga mo'ljallangan kalendar mavzu rejasi: har bir mehnat turi bo'yicha yarim yilga yoki bir yilga mo'ljallab tuzilgan o'quv ishlab chiqarish ishlari ning ro'yxati;

B. Tabiiy ilmiy turkumdag'i fanlarning yig'ma mavzu rejasi;

C. Aniq mavzu yuzasidan batafsil konseptga ega bo'lgan dars rejasi;

D. Texnologik va operatsion kartalar.

39. Mehnat ta'limi bo'yicha kalendar mavzuli reja dastur asosida qancha muddatga tuzib chiqiladi?

A. 3 yilga;

B. 2,5 yilga;

C. 2 yilga;

D. Yarim yilga yoki bir yilga.

40. Bilim va ko'nikma nima?

A. Bilim kishilarning obyektiv aqlini aks ettiruvchi umumlashgan tajribasidir. Ko'nikma o'zlashtirilgan bilimlar asosida insonning amaliy harakatini bajarishga tayyorgarligidir;

B. Inson puxta egallab olgan, doimiy ishlab chiqarish faoliyatining turi;

C. Kasb yoki ixtisosni mukammal egallah darajasidir;

D. Bilimning amalga oshirish ko'nikmalarini anglatadi.

41. Texnologik jarayon nima?

A. Bir yoki bir necha o'quvchi tomonidan bir ish o'rniда bajariladigan texnologik jarayonlarning tugal qismidir;

B. Ishchining muayyan texnologik operatsiyalarni bajarishga qaratilgan aqliy va jismoniy faoliyati yig'indisi;

- C. Mehnat jarayoni ichida alohida o'tishlarni bajarishga qaratilgan mehnat bo'laklari yig'indisi;
- D. Bitta detalni tayyorlash jarayonlari yig'indisi.

42. Mehnat jarayoni nima?

- A. Mehnat jarayoni ichida alohida o'tishlarni bajarishga qaratilgan mehnat bo'laklari yig'indisi;
- B. Ishchining muayyan texnologik jarayonlarni bajarishga qaratilgan aqliy va jismoniy faoliyati yig'indisi;
- C. Bir yoki bir necha tomondan bir ish o'rnida bajariladigan texnologik jarayonning tugal qismi;
- D. Mehnat ta'limi metodlarining amalda qo'llanilishi.

43. Texnologik jarayon nima?

- A. Ishlab chiqarish mahsuli holatini o'zgartirish bilan bevosita bog'lik ishlab chiqarish jarayonining bir qismi;
- B. Insonning mehnat taqsimoti natijasida kasb ichida alohidalangan doimiy ishlab chiqarish faoliyati;
- C. Mehnat jarayoni ichida alohida o'tishlarni ajratishga qaratilgan mehnat bo'laklari yig'indisi;
- D. Bitta detalni tayyorlashning barcha jarayonlar yig'indisi.

44. O'quvchilarda ijodiy-texnikaviy tafakkurni rivojlantirish uchun ...

- A. Mehnat darslarida texnikaviy konstruksiyalash va modellar yasash;
- B. Fizika fani bilan yaqindan tanishish;
- C. Ma'ruza matnlarini yaxshi yoritib berish;
- D. Amaliy topshiriqlar bajarish.

45. Umumta'lim maktablari o'quv rejasida mehnat ta'limi o'quv fanining qo'yilishi qaysi javobda to'g'ri?

- A. 1–4-sinflarda haftasiga bir soatdan, 5–7-sinflarda haftasiga ikki soatdan, 8–9-sinflarda bir soatdan ajratilgan;
- B. 1–4-sinflarda haftasiga ikki soatdan, 5–7-sinflarda haftasiga ikki soatdan, 8–9-sinflarda bir soatdan ajratilgan;
- C. 1–4-sinflarda haftasiga bir soatdan, 5–7-sinflarda haftasiga to'rt soatdan, 8–9-sinflarda bir soatdan ajratilgan;

D. 1–4-sinflarda haftasiga bir soatdan, 5–7-sinflarda haftasiga ikki soatdan, 8–9-sinflarda ikki soatdan ajratilgan.

46. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarga nimalar kiradi?

- A. To'garaklarni tashkil qilish;
- B. Sinflararo, maktablararo, tumanlararo ko'rgazmalarini tashkil etish;
- C. Olimpiadalarga tayyorgarlik ko'rish;
- D. Javoblar to'g'ri.

47. Hunarmandchilik qachon kelib chiqqan?

- A. 1890-yil;
- B. 1901-yil;
- C. 1910-yil;
- D. 1513-yil;
- E. 1970-yil.

48. Qanday milliy hunarmandchiligidan turlarini bilasiz?

- A. Kulolchilik;
- B. Zardo'zlik;
- C. Gilamchilik;
- D. Kashtachilik;
- E. Ganchkorlik.

49. Qanday milliy kashtachilik ishlarini bilasiz?

- A. So'zana;
- B. Dorpech;
- C. Kerpech;
- D. Palak;
- E. Choyshab.

50. Qiylacha qanday gazlamalardan tikiladi?

- A. Shoyi;
- B. Atlas;
- C. Chit;
- D. Beqasam;
- E. Adras.

51. Qiyiqcha tikishda qanday iplar ishlataladi?

- A. Rangli;
- B. Rangsiz;
- C. Qora;
- D. Ipak;
- E. Sintetika.

52. Qiyiqcha qanday bichiladi?

- A. O'lcham qo'yib;
- B. O'lchamsiz;
- C. Andaza qo'yib;
- D. Andazasiz.

53. Qiyiqchaga qanday nusxa tushiriladi?

- A. Naqshli;
- B. Gulli;
- C. Bejirim gullar;
- D. Yo'lsimon naqsh;
- E. Har xil.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A. Karimov. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — Toshkent: Sharq, 1998.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'limgo'srisidagi qarorlari. 1-qism. — Toshkent, 1998.
3. K. Davlatov, A. Vorobyov, I. Karimov. Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1992.
4. Q.T. Olimov, O. Abduquddusov, L. Uzoqova, M. Ahmedjonov, D. Jalolova. Kasb ta'limi uslubiyoti. — Toshkent: «Iqtisod moliya», 2006.
5. N.N. Azizxo'jayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU, 2003.
6. Q.T. Olimov va boshqalar. Kasb ta'limi uslubiyoti. — Toshkent: «Iqtisod moliya», 2006.
7. M. Ochilov. Muallim — qalb me'mori. — Toshkent: «O'qituvchi», 2001.
8. SH.S. Sharipov, A.I. Vorobyov, N.A. Muslimov, M. Ismoilova. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. — Toshkent, 2005.
9. G.J. Yo'ldoshev, S.A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. — Toshkent: «O'qituvchi», 2004.
10. N.A. Muslimov, SH.S. Sharipov va b. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. — Toshkent, 2009.
11. O.A. Qo'ysinov, V.N. Sattorov, H.S. Yakubova. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashdan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi. Metodik qo'llanma. — Toshkent: Nizomiy nomli TDPU, 2011.
12. S.A. Boltaboyev, O.SH. Magdiyev. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar. Metodik qo'llanma. — Toshkent: TDPU, 2002.
13. SH.S. Sharipov, M. Abralova. Maktablar o'quv va o'quv ishlab chiqarish ustaxonalari uchun xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari. Metodik yo'riqnomma. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2002.
14. SH.S. Sharipov, T. Jalilov. Mehnat ta'limi ustaxonalari uchun Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ko'rgazmali qurollar ro'yxati. Metodik qo'llanma. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2002.

15. N.N. Azizzxo'jayeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. — Toshkent: TDPU, 2003.
16. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lrim standarti va o'quv dasturi. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash, tasviriy san'at, chiz-machilik, musiqa madaniyati, jismoniy tarbiya (1—9-sinflar). — Toshkent, 2010.
17. SH.S. Sharipov, H.S. Yakubova. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashni o'qitish metodikasi. Kasb tanlashga yo'llash fanidan labaratoriya mashg'ulotlari. Metodik qo'llanma. — Toshkent, 2008.
18. K. Davlatov. Mehnat va mehnat ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg'ulotlar: Pedagogika instituti o'quvchilari uchun qo'llanma. — Toshkent: «O'qituvchi», 1995.
19. O.Q. Tolipov, SH.S. Sharipov, P.Q. Xolmatov. Ummiy o'rta ta'lrim mакtablari va maktabdan tashqari muassasalar to'garak rahbarlari uchun namunaviy dastur. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2003.
20. I.A. Karimov. Yuksak malakali mutaxassislar — taraqqiyot omili. — Toshkent: O'zbekiston, 1995.
21. «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora tad-birlari to'g'risida»gi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 4-oktabrdagi 400-sonli qarori.
22. O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiysi. — Toshkent: O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi, 2002.
23. SH. Avazov. Amaliy kasbiy ta'lrim metodikasi. — Toshkent, 2003.
24. O.I. Avazboyev, R.G. Isyanov, X. Odilboyev. Mehnat ta'limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. — Toshkent, 1993.
25. K. Davlatov. Mehnat va kasb ta'lrim tarbiyaside amaliy mashg'ulotlar. — Toshkent: O'qituvchi, 1995.
26. S.U. Kolyuga. Ishlab chiqarish asoslari. Kasb tanlash kursi metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1989.
27. N.A. Muslimov, R.G. Mullaxmetov. Kasb tanlashga yo'llash. O'quv qo'llanma. — Toshkent: OO'MTV, 2007.

28. N.A. Muslimov, O.A. Qo'ysinov. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etish. Metodik qo'llanma. — Toshkent: TDPU, 2006.
29. D.A. Txorjevskiy. Mehnat ta'limi metodikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1987.
30. O'.Q. Tolipov, O.A. Qo'ysinov. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimi. Maktab va hayot. — Toshkent: 2001. №3.
31. O'.Q. Tolipov, SH.S. Sharipov, P. Xolmatov. Darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi. Toshkent: O'zPFITI, 2004.
32. SH.S. Sharipov, R. Shonazarov, O.A. Qo'ysinov, G. Nasriddinova. Kasb tanlashga yo'llash fanidan laboratoriya mashg'ulotlari. Metodik qo'llanma — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.
33. SH. Sharipov va b. Kasbiy pedagogika. Metodik qo'llanma. — Toshkent: TDPU, 2006.
34. SH.Q. Quliyeva, O.A. Qo'ysinov. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Kasb-hunar ta'limi. — Toshkent, 2007. №2.
35. E. G'oziyev. Psixologiya. — Toshkent: O'qituvchi, 1994.
36. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. — Toshkent: Sharq nashriyot matbaa-konserni. 1997.
37. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim muassasalarida bitiruv malakaviy ishini tayyorlash tartibi haqida NIZOM. — Toshkent, 2008.
38. M. Salayeva, N.A. Muslimov. Bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash bo'yicha metodik tavsiyanoma. Kasb ta'limi yo'naliishlari bakalavrлari uchun mo'ljallangan. — Toshkent: TTESI, 2009.
39. SH.S. Sharipov va b. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar ilmiy faoliyatini tashkil qilish tizimi. Metodik qo'llanma. — Toshkent: TDPU, 2010.
40. N.A. Muslimov, SH.S. Sharipov, O.A. Qo'ysinov. «Kasb ta'limi pedagogikasi» fanidan o'quv metodik majmua. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011.
41. N.A. Muslimov, O.A. Qo'ysinov. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariyasи va metodikasi. Monografiya. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi, Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2009.

42. SH. Sharipov va b. Pedagogik amaliyot. Metodik qo'llanma. – Toshkent: TDPU, 2006.
43. O.A. Qo'ysinov, R.G. Mullaxmetov, V.N. Sattarov. Bitiruv malakaviy ishlarni tayyorlash. Metodik tavsiyanoma. – Toshkent: TDPU, 2011.
44. N.A. Muslimov, Sh.S. Sharipov, O.A. Qo'ysinov. O'rta maxsus, kasb-hunar va oliv ta'lif integratsiyasi. Metodik qo'llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. 2006.
45. SH.S. Sharipov, M. Ismoilova, X. Sanaqulov, R. Mullaxmetov, O.A. Qo'ysinov. Pedagogik amaliyot. Metodik qo'llanma. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. 2006.
46. N. Sayidaxmedov. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalarini. – Toshkent: RTM, 2000.

Elektron ta'lim resurslari:

1. <http://www.istedod.uz/>
2. <http://www.pedagog.uz/>
3. <http://www.Abduqodirov.pbnet.ru/>
4. <http://www.ziyonet.uz>
5. <http://www.tdpu.uz>
6. <http://www.disser.h10.ru/pedagog.html>

MUNDARIJA

KIRISH	3
--------------	---

I bob. MEHNAT TA'LIMI O'QITISH METODIKASI, KASB TANLASHGA YO'LLASH FANINING MOHIYATI, VAZIFASI VA METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Mehnat ta'lifi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash fani va uning vazifasi	5
1.2. Maktab o'quv rejasida mehnat ta'lifi, kasb tanlashga yo'llash dasturining kiritilishi, uning tarixiy taraqqiyoti	11
1.3. Mehnat ta'lifi, kasb tanlashga yo'llashda tadqiqot metodlari ..	20

II bob. MEHNAT TA'LIMI METODIKASI, KASB TANLASHGA YO'LLASH FANINING DIDAKTIK ASOSLARI

2.1. Mehnat ta'lifi, kasb tanlashga yo'llash, kasb tanlashga yo'llashning didaktik tamoyillari	28
2.2. Mehnat jarayonining tahlili va mehnat ta'lifi, kasb tanlashga yo'llashda didaktik tushunchalar	42
2.3. Mehnat ta'lifi, kasb tanlashga yo'llashning didaktik tizimlari	51

III bob. MEHNAT TA'LIMI METODIKASI, KASB TANLASHGA YO'LLASH FANI MAZMUNI

3.1. 1–9-sinflarda mehnat ta'lifi, kasb tanlashga yo'llashning mazmuni	60
3.2. «Texnologiya va dizayn» yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar	80
3.3. «Servis xizmati» yo'nalishi mazmuni, o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar	93
3.4. Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi bo'limini o'qitishni tashkil qilish	105
3.5. Ijtimoiy-foydali unumli mehnatni tashkil qilish metodlari	129
3.6. Mehnat ta'lifi, kasb tanlashga yo'llash darsi jarayonida tarbiya	147

**IV bob. MEHNAT TA'LIMI METODIKASI, KASB
TANLASHGA YO'LLASH FANIDA SHAKL,
METOD VA VOSITALAR**

4.1. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashni o'qitish shakllari	156
4.2. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashning o'qitish metodlari	165
4.3. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash o'quv jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasi	179
4.4. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslarida amaliy darslarni tashkil qilish metodikasi	187
4.5. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashda ekskursiyalarni amalga oshirish metodikasi	201
4.6. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash	208

**V bob. MEHNAT TA'LIMI METODIKASI,
KASB TANLASHGA YO'LLASH
FANIDA REJALASHTIRISH**

5.1. Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llashni rejaliashtirish	222
--	-----

**VI bob. MEHNAT TA'LIMI METODIKASI,
KASB TANLASHGA YO'LLASH FANIDAN
O'QITUVCHINING TAYYORGARLIGI**

6.1. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash o'qituvchisining o'quv yiliga va darsga tayyorgarligi	235
6.2. O'quv ustaxonasini tashkil etish va jihozlash	247
6.3. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llash darslarida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish	256

**VII. bob. MEHNAT TA'LIMI METODIKASI, KASB
TANLASHGA YO'LLASH FANI BO'YICHA TALABA-
LARNI BAHOLASH TURLARI VA MEZONLARI**

7.1. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashda baholash mezonlari	280
7.2. O'zlashtirishni hisobga olish turlari	291

VIII bob. SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH VA O'QITUVCHINING METODIK ISHLARI

- 8.1. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish 299
8.2. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashga oid metodik ishlar 318

IX bob. KASB TANLASHGA YO'LLASH ISHLARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

- 9.1. Mehnat ta'limi, kasb tanlashga yo'llashni o'qitish jarayonida
kasb tanlashga tayyorlash 327
9.2. Kasbga yo'naltirish ishining mактаб sistemasi 345
9.3. Kasbga yo'naltirishning tarbiyaviy yo'nalishi 359
9.4. Kasbga yo'naltirishning ijtimoiy va psixofiziologik asoslari 366
9.5. Kasb tanlashga yo'naltirishning tarkibi 377
9.6. Psixologik-pedagogik fanlarni o'rganishda talabalarni kasb
tanlashga yo'llash ishiga nazariy-metodik jihatdan tayyorlash 383

X bob. MEHNAT TA'LIMI METODIKASI, KASB TANLASHGA YO'LLASH FANIDAN KURS VA BITIRUV ISHLARINI BAJARISH METODIKASI

- 10.1. Mehnat ta'limi metodikasidan kurs ishlari bajarish. 390
10.2. Mehnat ta'limi metodikasidan bitiruv ishlarini bajarish 397

XI bob. PEDAGOGIK AMALIYOTNING MAZMUNI VA MOHIYATI

- 11.1. Pedagogik amaliyotga qo'yiladigan metodik talablar 420

Test savollari 437

Adabiyotlar ro'yxati 449

Muslimov Narzulla Alixanovich
Sharipov Shavkat Safarovich
Qo'ysinov Odil Almurotovich

MEHNAT TA'LIMI O'QITISH METODIKASI, KASB TANLASHGA YO'LLASH

Darslik

Muharrir: *M. Tursunova*

Musahhih: *M. Turdiyeva*

Dizayner sahifalovchi: *U. Ko'charov*

«O'zbekiston faylasuflari milliy jamiati» nashriyoti.100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.

Tel.: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №216, 03.08.2012.

Bosishga ruxsat etildi 18.09.2014. «Uz-Times» garniturası. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60/84¹/₁₆. Bosma tabog'i 28,5. Nashr hisob tabog'i 29,0. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 48.

«START-TRACK PRINT» XK bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.

ISBN 978-9943-391-76-5



9 789943 391765

O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY
JAMIYATI NASHRIYOTI